


Ob. 2
33
A. 22

H.P. ABULQOSIMOV

IQTISODIYOTNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH



Oz6.2

33

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

A-22
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY
UNIVRSITETI

ALFRAGANUS UNIVERSITY

Abulqosimov H.P.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish

Darslik

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining
2021 yil "31" maydagi 237-sonli buyrug'iiga (ro'yxatga olish raqami
237-450) asosan nashr etishga ruxsat berildi.



«LESSON-PRESS»
2023

UDK: 33(075)

KBK: 65.050.2

A 20

Taqrizchilar:

iqtisodiyot fanlari doktori,

professor T.T.Jo'raev,

iqtisodiyot fanlari nomzodi,

professor N.G.Mo'minov

Abulqosimov H.P. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish. Darslik. -T.: "Lesson-press", 2023.

Darslik "Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish" fanining O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 29 avgustdagি 452-son buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv dasturiga muvofiq yozilgan. Darslikda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning zarurligi, mazmuni, maqsadi, vazifalari va usullari, uni amalga oshirish tamoyillari hamda asosiy yo'nalishlari va mexanizmlari yoritilgan. Unda O'zbekiston iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solishga qaratilgan iqtisodiy siyosatining yo'nalishlari va usullari tahlil qilingan. Darslik oliy o'quv yurtlarining bakalavrariat yo'nalishi talabalari, magistrantlar, professor-o'qituvchilar va barcha iqtisodiyotga qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

Abulkasimov X.P. Gosudarstvennoe regulirovanie ekonomiki. Uchebnik. -T.: "Lesson-press", 2023.

Uchebnik napisan v soootvetstvii s uchebnoy programmoy dissiplinyy "Gosudarstvennoe regulirovanie ekonomiki", utverjdyonnoy prikazom Ministerstvo visshego i srednego spesialnogo obrazovaniya Respubliki Uzbekistan №452 ot 29 avgusta 2020 goda. V uchebniye izlojenyi sumnost, seli i zadachi, sposoby, prinsipy, a takje mechanizmy i osnovnye napravleniya gosudarstvennogo regulirovaniya ekonomiki. V nem proanalizirovanye osnovnye napravleniya i sposobi ekonomiceskoy politiki napravленные на gosudarstvennoe regulirovaniya ekonomiki Uzbekistana. Uchebnik prednaznachen diyu studentov bakalavrriata vissashix uchebnykh zavedeniy, magistrantam, professorsko-prepodavatelskomu sostavu, a takje vsem interesuyuchimsya voprosami ekonomiki.

Abulkasimov H.P. State regulation of the economy. Textbook. -T.: "Lesson-press", 2023.

The textbook is written in accordance with the curriculum of the subject "State regulation of the economy", approved by the order of the Ministry of Higher and Secondary Special Education of the Republic of Uzbekistan dated August 29, 2020 No 452. The textbook describes the need, content, goals, objectives and methods of state regulation of the economy, the principles of its implementation, as well as the main directions and mechanisms. It analyzes the directions and methods of economic policy aimed at state regulation of the Uzbekistan economy.

The textbook is intended for undergraduate students, masters, professors and all those interested in economics.

**Otam Pirnazarxo‘ja va onam Guliston xotiralariga
bag‘ishlayman**



KIRISH

Bozor iqtisodiyoti o'zining obyektiv qonunlari hamda o'zini-o'zi tartiblash dastaklari, vositalari orqali anal qiladi. Ammo bozor iqtisodiyotining ijobjiy jihatlari bilan bir qatorda salbiy jihatlari ham mavjuddir. Ularning eng asosiysi iqtisodiyotdagi obyektiv qonunlar va munosabatlar, regulyatorlar asosida shakllanadigan bozor muvozanati hamda mutanosibliklarning buzilishi oqibatida vujudga keladigan nomutanosibliklarning kuchayishi, iqtisodiy tanglik va inqirozlardir. Inqirozlar natijasida iqtisodiy pasayish, ishsizlik, inflyatsiyaning kuchayishi, xalq turmush darajasining yomonlashuvi sodir bo'ladi. Shu boisdan ham davlatning iqtisodiyotga aralashuvi va uni ustuvor ravishda iqtisodiy dastak va vositalar yordamida tartiblashi zarur bo'ladi. Bu esa zamonaliv bozor iqtisodiyotining o'zini o'zi tartiblashning bozor mexanizmi bilan uni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini uyg'unlashtirishni hamda unga mos ravishda davlat iqtisodiy siyosatini shakllantirishni taqozo etadi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosat jamiyatni yanada demokratlashtirish va yangilash, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va isloh etishni yanada chuqurlashtirishga yo'naltirilgan davlat siyosatining muhim qismi hisoblanadi. Davlat iqtisodiy siyosat orqali iqtisodiyotga aralashib, uni ma'muriy, huquqiy va iqtisodiy mexanizmlar, dastaklar vositasida tartibga soladi.

Bozor iqtisodiyotini shakllantirish va rivojlantirish sharoitida O'zbekistonda tartibga solinadigan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti shakllantirilmoxda. Shu boisdan, davlatning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi vazifalari nimalardan iborat, uni tartibga solishning shakl va usullari, vositalari qanday bo'lishi kerak, degan muammolarni o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda mustaqillik davrida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi asosan shakllantirildi. Bu mexanizm 2008-yilda boshlangan va bir necha yil davom etgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining hamda koronavirus pandemiyasi va global moliyaviy-iqtisodiy inqirozining respublika iqtisodiyotiga salbiy

ta'sirini yumshatish va bartaraf etish hamda barqaror va mutanosib iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolishda muhim rol o'ynadi. Shuning uchun ham iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish muammolarini o'rganish dolzarb ilmiy va amalii ahaniyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli Farmoniga asosan jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlарини so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash maqsadida:

Keng jamoatchilik muhokamasi natijasida "**Harakatlar strategiyasidan-Taraqqiyot strategiyasi sari**" tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan quyidagi yettita ustuvor yo'nalishdan iborat 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlandi:

- inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;
- mamlakatimizdaadolatvaqonunustuvorligitamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;
- milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish ta'minlash;
- adolatlarijtimoiysiyo sat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;
- ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;
- milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;
- mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.

Ushbu maqsad va vazifalardan kelib chiqib, endilikda davlat iqtisodiyotga asosan iqtisodiy vositalar orqali ta'sir etib, uni boshqarish emas, balki tartibga solishi kerak bo'ladi. Shuningdek, iqtisodiyotning o'z-o'zidan tartiblanishining bozorga xos mexanizmlariga erkinlik berish, erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy qilish hamda tartiblashning bozor mexanizmi bilan davlat mexanizmlarini uyg'unligini, o'zaro hamjihatlikda amal qilishini ta'minlash zarur bo'ladi.

Mamlakatimizda rivojlanayotgan bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini yanada takomillashtirish va bozorning o'zini-o'zi tartiblashning obyektiv mexanizmi bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. "Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish" faninii o'qitish asosida talabalarda iqtisodiyotni tartibga solishning davlat mexanizmining o'ziga xos xususiyatlari, shakl va usullari, davlatning iqtisodiy siyosati to'g'risidagi tizimli, keng qamrovli nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini xosil qilinadi.

"Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish" fanini o'qitishdan maqsad – talabalarda iqtisodiyotni tartibga solishning davlat mexanizmining o'ziga xos xususiyatlari, shakl va usul, vositalari, davlatning iqtisodiy siyosati to'g'risidagi tizimli, keng qamrovli nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini xosil qilishdan iborat.

Fanning vazifasi - iqtisodiyotni tartibga bozor mexanizmi bilan birgalikda davlat mexanizmining amal qilish sohalarini va shakllarini ko'rsatish, iqtisodiyotni boshqarishda davlatning o'mni haqidagi turli konsepsiyalarni tahlil etish va rivojlangan mamlakatlar tajribalarini o'rganish, O'zbekistonda iqtisodiyotni tartibga solish mexanizmining shakllanishi va rivojlanishi, davlatning bosh islohotchi vazifasini bajarishi, iqtisodiyotni tartibga solishning shakl va vositalarini tahlil qilish, iqtisodiyotni tartiblashning bozor va davlat mexanizmlari uyg'unligini ta'minlash yo'nalishlarini o'rgatishdan iborat.

O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash asosida makroiqtisodiy muvozanatni va mutanosiblikni, yuqori, barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash, faol

ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yanada yaxshilash, infliyatsiya va ishsizlik darajalarini maqbul darajada ushlab turish, aholining ish bilan bandligini va turmush darajasini oshirish, mamlakatimiz iqtisodiy xavfsizligini va raqobatbardoshligini, iqtisodiy-moliyaviy inqirozlarga bardoshligini ta'minlash, jahon iqtisodiyotiga integratsilashish kabi vazifalarni muvafaqiyatli hal etish davlat iqtisodiy siyosati maqsad va vazifalari hamda bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solish usullari va vositalarining qay darajada ilmiy asoslanganligi hamda real voqelikni hisobga olib qo'llanilayotganligiga bog'liq. Shuning uchun "Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish" fani davlat tomonidan makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy siyosatlarini amalga oshirish, iqtisodiyotni tartibga solish, uning bozor va davlat mexanizmlari amal qilishining uzviyigini ta'minlash uchun ilmiy-nazariy asos bo'lib xizmat qiladi

I-BOB. BOZOR IQTISODIYOTI ShAROITIDA

DAVLATNING VAZIFALARI VA IQTISODIY SIYOSATINING

MAQSADLARI

1.1.Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish kursining predmeti, maqsadi va vazifalari.

Davlat jamiyatning muhim institutsiyal tashkiloti hisoblanadi. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida "davlat – mamlakat miyosida jamiyatni uyushtirish masalalarini hal qilish, uning tashqi munosabatlarini belgilash vakolatlari bo'lgan hukmron tuzilma. Davlat jamiyatni o'z qonun-qoidalariga ko'ra idora qiladi, turli tip, shakllarda tashkil topadi"¹. Davlatning umume'tirof etilgan belgilari quyidagilardan iborat:

- davlat o'z chegaralari doirasida fuqarolik belgisi bo'yicha birlashgan butun jamiyat, aholisining yagona vakili sifatida maydonga chiqadi;
- davlat suveren hokimiyatning yagona egasidir;
- davlat yuridik kuchga ega bo'lgan va huquq normalarini aks ettirgan qonunlar va ularga asoslanib chiqarilgan hujjatlarni qabul qiladi;
- davlat o'z funksiyalarini bajarish uchun zarur davlat organlari hamda tegishli moddiy vositalar tizimidan iborat mexanizm (mahkama)ga, huquqni muhofaza qilish (jazolash) organlari – sud, prokuratura, militsiya, politsiya kabilarga, o'z mudofaasi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini va xavfsizligini ta'minlovchi qurolli kuchlar hamda xavfsizlik organlariga ega bo'ladi².

Zamonaviy institutsiyalizm nazariyasini davlatga iqtisodiy nuqtai nazaridan ta'rif beradi. Institutsiyal yondashuvga muvofiq uning asosiy mohiyatini "transaksiya xarajatlari" kategoriyasidan foydalangan holda ochib beriladi. D.Nortning ta'riflashicha, davlat – zo'rlikni amalga oshirishda qiyosiy ustunliklarga ega bo'lgan, chegaralari uning

¹ Узбекистон Миллый энциклопедияси З-жилд Гидрофилия-Зебралар. Ташрир хайъати: М.Аминов ва бошқалар.-Т.: "Узбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий науриятини 2002.-148-бет.

² Узбекистон Миллый энциклопедияси З-жилд Гидрофилия-Зебралар. Ташрир хайъати: М.Аминов ва бошқалар.-Т.: "Узбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий науриятини 2002.-149-бет.

fuqarolarga soliq solish qobiliyati bilan belgilangan jug'rofiy hududni qamrab oluvchi tashkilot³.

Davlat kategoriyasiga institutsional yondashuvlarni tahlil qilish asosida V.L.Tombovsev "davlat nazariy jihatdan eng samarali majbur qilish organi hisoblanib, bunda uning samaradorligi uning legitimligiga, ya'ni "soliq solinadigan fuqarolar tomonidan" davlatda kuch ishlatish huquqi mavjudligining tan olinishiga bevosita bog'liq. Chunki agar jamoat fikriga mos keladigan bunday tan olish mavjud bo'lsa, u holda davlat o'z funksiyalari va maqsadlarini amalga oshirish uchun cheklangan resurslardan oqilona foydalanuvchi tashkilot sifatida o'z imkoniyatlarni aholining ushbu funksiyalar va maqsadlar bajarilishiga qarshiligidini yengish uchun sarflamasligi mumkin⁴, - deb ta'rif beradi.

Adam Smit XVIII asrning ikkinchi yarmidayoq davlatning asosiy majburiyatlarini doirasini belgilab berdi:

- birinchidan, jamiyatni kuch ishlatish va boshqa mustaqil jamiyatlarning bostirib kelishidan himoyalash;
- ikkinchidan, imkon qadar, jamiyatning har bir a'zosini adolatsizlikdan va uning boshqa a'zolari tomonidan jabrlashdan himoyalash yoki yaxshi adolat hukmini o'rnatish;
- uchinchidan, ularni barpo etish va saqlab turish alohida shaxslar yoki kichik guruhlar manfaatlari yo'lida amalga oshirilmaydigan muayyan ijtimoiy inshootlar va ijtimoiy muassasalarni barpo etish va saqlab turish, chunki ulardan keladigan foyda hech qachon alohida shaxslar yoki kichik guruhlarga xarajatlarni to'lay olmaydi, lekin ko'pincha xarajatlarni katta jamiyatga ortiqcha to'lashi mumkin⁵.

J.Byukenen⁶ o'z asarlarida davlatning jamiyatdagi rolining ikki tomonlamaligiga alohida e'tibor qaratadi, ya'ni uning nazarida davlat ham himoya qiluvchi, ham ishlab chiqaruvchi vositadir. Himoya qiluvchi yoki huquqiy davlat konstituszion bosqichda kelishuvchi

³ Норт Д. Институциональные изменения и функционирование экономики –М.: Фонд экономической книги "Начала". 1997. – С.54-55.

⁴ Томбовцев В.Л. Государство и переходная экономика: Пределы управляемости . – М.: МГУ – ТЕИС, 1997. – С. 34.

⁵ Смит А. Исследование о природе и богатстве народов – М.: Лекцэдат, 1935. – С. 231.

⁶ Бьюкенен Дж. Границы свободы. – М.: Таурус Альфа, 1977. – С. 272.

tomonlarga nisbatan konseptual tashqi va huquqlarni hamda bunday huquqlarni ixtiyoriy ravishda almashish bo'yicha shartnomalarni ta'minlash uchun yagona javobgarlikka ega bo'lgan huquqlarni ta'minlash instituti yoki organi sifatida paydo bo'ladi. Davlat ishlab chiqaruvchi vosita sifatida bozor mexanizmi ishlab chiqarishni ta'minlay olmaydigan jamoat ne'matlarini o'zi ishlab chiqarishni tashkil etadi.⁷ Yangi institutsionalistlarning hozirgi talqinida davlatning eng umumiy funksiyalari quyidagilardan iborat⁸:

- *mulkchilik huquqlarini tafsirlash va himoya qilish;*
- *axborot bilan almashish tarmoqlarini, ya'ni rivojlangan axborot infratuzilmasini barpo etish;*
- *o'lchash va tortish standartlarini ishlab chiqish. Ular junilasiga almashinadigan tovarlar va xizmatlar miqdori va sifatini o'lchash standartlarini, shuningdek, davlat tomonidan pul muomalasining tashkil etilishi ham kiradi;*
- *tovarlar va xizmatlar bilan jismoniy almashish tarmoqlari va mexanizmlarini, ya'ni bozor infratuzilmasini barpo etish;*
- *huquqni muhofaza qilish faoliyati va nizolarda «uchinchi» tomon rolini bajarish;*
- *sofijitimoiy farovonlikni yaratish* (birinchi navbatda mudofaa, keyin sog'liqni saqlash va ta'lim singari ijtimoiy farovonlikni yaratish).⁹

Davlatning iqtisodiy sohada ishtirok etishi, iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi, iqtisodiyotni tartibga solishi nuqtai nazaridan asosiy majburiyat va vazifalari, iqtisodiyot sohasidagi siyosatining mazmuni va uni amalga oshirish mexanizmlari to'g'risidagi masalalar iqtisodiy fanlar diqqat markazida turadigan muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Davlatning iqtisodiyotdagi roliga, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish bo'yicha siyosatiga taalluqli bo'lgan ko'plab savollarga javob qidirish bilan turli ilmiy maktablar va yo'nalishlar iqtisodchilarining

⁷Беркинов Б.Б.Институционал иктисодиёт.Ўкув кўзланима.2-нашр, кайта ишланган.-Т.: Иктисодиёт,2013.-156-бет.

⁸ Олейник А. Институциональная экономика – М.: ИНФРА-М, 2000. – С. 344-345.

⁹ Беркинов Б.Б.Институционал иктисодиёт.Ўкув кўзланима.2-нашр, кайта ишланган.-Т.: Иктисодиёт,2013.-153-бет.

aksariyati band. Iqtisodchilarning davlatning iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishga qaratilgan iqtisodiy siyosati bo'yicha ishlab chiqqan ilmiy-nazariy konsepsiyalari, nazariyalari hamda ularga asoslangan iqtisodiy siyosatning turli modellarining amaliyotda qo'llanishi tajribalarining umu'mlashtirilishi negizida "Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish" fani shakllanib, ko'plab mamlakatlarning, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining oliv o'quv yurtlarida iqtisodiyot ta'lif yo'naliishlari bo'yicha o'quv kurslari sifatida bo'lg'usi iqtisodchilarga o'qitilmoqda.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning nazariy asoslarini iqtisodiyot nazariyasi fani yaratadi. Iqtisodiyot nazariyasi jamiyatda amal qiluvchi obyektiv iqtisodiy qonunlarni ochib beradi hamda xo'jalik yuritishning prinsiplarini va mexanizmini, davlatning iqtisodiyotga aralashuvining maqsadlarini, sohalari va vosita hamda usullarini, ya'ni davlatning iqtisodiy siyosatini ilmiy jihatdan asoslaydi. Shundan kelib chiqqan holda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishga qaratilgan davlatning iqtisodiy siyosati – davlatning iqtisodiyotni rivojlantirish va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta'sir etish maqsadida bozor iqtisodiyotining amal qilishi uchun qulay sharoitlarni yaratishga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlari yig'indisidir.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning tadqiqot obyekti bo'lib iqtisodiy subyektlarning o'zaro hamkorlikda samarali va barqaror faoliyat yuritishlari. shuningdek, iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni bartaraf etish yoki ularning ta'sirini kamaytirish uchun qulay huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy shart-sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar hamda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish jarayonlari hisoblanadi.

"Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish" fanining predmetini davlatning jamiyat manfaatlarini ko'zlab, iqtisodiyotga aralashushi va uni tartibga solishi jarayonlari va bunda davlat bilan iqtisodiy sub'ektlari o'rtaida yuzaga keladigansiyosi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar yig'indisi tashkil etadi. Davlat iqtisodiyotni tartibga solishga qaratilgan siyosatini hukumatning iqtisodiyotning

barqaror rivojlanishini ta'minlash borasidagi qarorlari va hattixarakatlarida namoyon bo'ladi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishga qaratilgan davlatning iqtisodiy siyosatini qo'llash sohalari quyidagilardan iborat:

1) Iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi huquqiy normalar sohasidagi siyosat. Bunda iqtisodiy hayotdagi davlat va xo'jalik subyektlari xatti-harakati normalari bo'yicha uzoq muddatli ijtimoiy kelishuv to'g'risida so'z boradi.

2) Iqtisodiy tartib o'matish siyosati, ya'ni xususiy shaxslar, firmalar, institutlar faoliyati, raqobatni himoya qilish, iqtisodiyotni tartibga solish va savdoni rivojlantirishning mumkin bo'lgan miqyoslarini belgilovchi tartib-qoidalarni o'rnatishga qaratilgan siyosat;

3) Integratsion va tashqi siyosat-bu hududlararo bozorlarni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasidir;

4) Xo'jalik jarayonlariga ta'sir ko'rsatish siyosati-bu jami talab va jami taklifga ta'sir etish, ular o'tasidagi muvozanatni ta'minlash, pul va fiskal siyosatlarni amalga oshirishdir.

5) Iqtisodiy o'sish siyosati va tarkibiy siyosat iqtisodiy o'sishga to'siqlarni bartaraf etishga va ishlab chiqarish potensialining rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir;

6) Atrof muhitni muhofaza qilish siyosati.¹⁰

Demak, davlatning iqtisodiy siyosati davlatning iqtisodiyotga aralashishi, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning shakl va usul, vositalari, dastaklarini o'z ichiga oladi. Davlat mavjud bo'lgan barcha tarixiy davrlarda iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishga qaratilgan siyosat davr talablariga mos ravishda ma'lum miqyoslarda, shakl va uslublarda amalga oshirilib kelingan. Lekin to 1929-1933 yillardagi krizisgacha bo'lgan davrlarda davlatning iqtisodiyotga aralashishi nomuayyan va cheklangan bo'lib, iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish va tartibga solish tor doira va miqyoslarda, ko'lamlarda vaziyat taqozasiga ko'ra epizodik ko'rinishda kam sonli vosita va usullar yordamida amalga oshirilib kelingan. Faqat XX asrning

¹⁰ Руденко И. А. Экономическая политика: учебное пособие.-Минск, 2010.-С.6

30-40-yillaridan boshlab, davlatning iqtisodiy siyosati bozor iqtisodiyotiga davlatning muntazam ravishda aralashib, uni tartibga solishga qaratilgan mexanizmni bozorning o'zini o'z tartiblash mexanizmi bilan uyg'unlashtirishga yo'naltirila boshlandi. Uning mazmunini ochib berish uchun bozor iqtisodiyotiga davlatning aralashishi va tartibga solishi zarurligi, uning obyekti va predmeti, shakl va usullarini tahlil qilish lozim bo'ladi.

1.2. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning zarurligi va shakllari

Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan va rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotni tartibga solishning ikki mexanizmi yuzaga keldi: davlat va bozor mexanizmlari. Bozor iqtisodiyotida tadbirkorlik faoliyatining erkinliklari, ishlab chiqaruvchilarning moddiy manfaatdorliklari raqobatga undovchi asosiy kuch bo'lib hisoblanadi.

Ma'lumki, bozorming muhim elementi bu narx va uning darajasi bo'lib, bu ishlab chiqaruvchi uchun ham, tadbirkor uchun ham va xaridor uchun ham muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Bozor tizimi ishlab chiqaruvchilar va xaridorlarni qaror qabul qilishlarida egiluvchanlik va moslashuvchanlik jihatlarini yuqori ekanligi bilan tavsiflanadi. Bozor ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasidagi aloqalarni bog'laydi. Tarmoqlar o'rtasida resurslarni samarali taqsimlanishida, talab va taklif mutanosibligini ta'minlashda bozor mexanizmi qulaydir.

Jamiyat iqtisodiyotining rivojlanishida, ijtimoiy mehnat taqsimotida, davlatlararo aloqalarning kengayishida, iqtisodiyotning tarkibiy qismi o'rtasidagi aloqalarni tartibga solish kabi iqtisodiy jarayonlarda bozor mexanizmining tartibga solish imkoniyatlari chegaralanganligi namoyon bo'ladi. Bunga iqtisodiyotda yuzaga kelib turadigan iqtisodiy inqirozlarni misol keltirish mumkin. Bozor mexanizmi bajara olmaydigan va tartibga sola olmaydigan ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonining vazifalari mavjud. Sanoat rivojlanishda erkin raqobat asosida ishlab chiqarish kuchlari nafaqat

yakka tartibdag'i xususiy mulk doirasida o'smoqda, balki jamoa (aksionerlik) va boshqa mulkchilik shakllarining o'rni ham oshib bormoqda. Biroq, davlat iqtisodiyotning yirik tarmoqlarini o'z zimmasiga olishga ularni rivojlantirishga va tartibga solishga majbur bo'lmoqda. Masalan: temir yo'l, telegraf, pochta, mudofaa va h.k. Bozor mexanizmi bajara olmaydigan ijtimoiy vazifalar ham mavjud. Bundan tashqari, bozor munosabatlari asosidagi ba'zi faoliyat natijalariga davlatning aralashuvi ehtiyoji tug'iladi.

Davlat iqtisodiyotni tartiblashning bozor mexanizmi to'liq bajara olmagan vazifalarni o'z zimmasiga oladi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartiblashining asosiy maqsadi iqtisodiy muvozanatga erishish asosida tushkunlik va tanglikning oldini olish, ijtimoiy ishlab chiqarishning barqaror o'sishini ta'minlash, milliy iqtisodiyot ravnaqi uchun imkoniyatlar yaratish, shuningdek, aholi turli tabaqlari o'rtasida ijtimoiy muvozanatga erishishdan iboratdir.

Iqtisodiy subyektlar o'zaro raqobatda bo'lgani va o'zlarining shaxsiy yoki jamoaviy manfaatlari yuzasidan faoliyat ko'rsatgani uchun ularning xudbinlik manfaatlari umum davlat, jamiyat manfaatlariiga zid kelib qolishi ham mumkin. Shuning uchun davlat iqtisodiyot sub'ektlari manfaatlari va faoliyatlar jamiyat, davlat manfaatlariiga zid kelib qolmasligi, unga ziyon yetkazmasligini nazorat qiladi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun davlat iqtisodiy subyektlarning makroiqtisodiyot miqyosidagi aloqa va bog'lanishlarini tartibga soladi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda bozor mexanizmining samarali ishlashi uchun sharoit yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun davlat raqobatni rag'batlantirish orqali bozor tizimini saqlashni o'z zimmasiga oladi. Chunki erkin tadbirkorlik tizimi va uni boshqaruvchi talab va taklif qonunlarining amal qilishi raqobatga bog'liq bo'ladi. Raqobatchilik muhitini rag'batlantirish va himoya qilishning davlat mexanizmi quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy subyektlarning faoliyat yuritish qoidalarini belgilash;
- aholini bozor sharoitlari, iqtisodiyotning holati to'g'risidagi axborotlardan xabardor qilish;

- iqtisodiyot subyektlari o'rtasidagi munozara, babs, ziddiyatlarni hal qilishda ko'maklashish.

Bozor mexanizmi faqat xususiy tadbirkorlar uchun foyda kelishini ta'minlaydigan tovar va xizmatlar ishlab chiqarishni rag'batlantiradi. Ammo jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan, aholining ko'pchiligi foydalanadigan ijtimoiy tovar va xizmatlar xususiy tadbirkorlik doirasida ishlab chiqarilishi mumkin emas. Bunday ijtimoiy tovarlar va xizmatlarga: maktablar, yo'llar, yong'indan himoyalash, milliy mudofaa kabilalar kiradi. Binobarin, ularni ishlab chiqarish va ulardan foydalanishni davlatning o'zi tashkil qilishi, tartibga solishi zarur bo'ladi.

Iqtisodiyotni tartiblashning davlat mexanizimini taqozo etuvchi sabablardan biri bozor tizimidan tashqarida sodir bo'luchchi inson faoliyati va tabiatning zararli oqibatlardan (inson salomatligiga, tabiatga ziyon yetkazuvchi omillar) aholini himoya qilish zaruratidir. Bozor tizimida bunday zararlar uchun javobgar shaxslardan tovon to'lashga majbur qiluvchi mexanizmlar mavjud emas. Shuning uchun davlat tomonidan iqtisodiyotni tartiblash mexanizmida aholini zararli oqibatlardan himoyalash chora-tadbirlari ham muhim ahamiyatga ega. Zero zararli oqibatlar nafaqat inson hayotiga balki iqtisodiyotga ham salbiy ta'sir qiladi. Shunga binoan ulardan aholini himoyalash chora-tadbirlari oqibatida aholi salomatligi yaxshilanadi, ularning mehnat qobiliyati ham oshadi. Bu esa o'z-o'zidan aholi mehnat faoliyatining o'sishiga, iqtisodiyotning rivojlanishiga olib keladi.

Aholini qo'shimcha zararli oqibatlardan himoyalash davlat mexanizmi o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: ishontirish, soliq solish, subsidiyalash, tartibga solish. Bunday ishontirish usullari, vositalari kishilarni, iqtisodiyot subyektlarini jamiyatga, boshqa kishilarga ziyon keltiradigan xatti-harakatlar qilmashlikka chaqirishga qaratilgan bo'ladi.

Soliq solish zararli qo'shimcha oqibatlarni cheklash maqsadida qo'llaniladi. Turli soliq miqdorlarini belgilash orqali hukumat firmalar faoliyatidan kelib chiqadigan zararli qo'shimcha oqibatlarni cheklashga majbur qiladi. Bunday oqibatlardan holi bo'lgan

fimnalarga davlat subsidiyalar berish orqali ularning faoliyatini rag'batlantiradi. Xavfsizlik me'yorlarini belgilash yoki man qiluvchi qonunlar chiqarish yo'li bilan davlat tartiblash ishlarini amalga oshiradi.

Davlatning iqtisodiyotni tartiblash mexanizmida jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida aholining iqtisodiy jihatdan nochor yashayotgan guruhlarini ijtimoiy himoyalash muhim o'rinn tutadi. Aholining yordamga muhtoj qismini ijtimoiy himoyalash, jamiyat uchun xalq xo'jaligi tarmoqlari, shu jumladan, qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash maqsadida daromadlar davlat tomonidan qayta taqsimlanadi. Davlat tomonidan daromadlarning qayta taqsimlanishi iqtisodiyotni tartiblash mexanizmining muhim unsuri hisoblanadi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmida makroiqtisodiy barqarorlashtirish chora-tadbirlari ham muhim o'rinn tutadi. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishbilarmonlik faolligi o'zgarib turadi, iqtisodiy o'sish uning pasayishi bilan almashinib turadi. Oqibatda firmalarning sinishi va ishsizlarning ko'payishi ortadi, aholi turmush darajasi pasayadi, ular ko'p qiyinchilikni boshdan kechiradilar. Davlatning iqtisodiyotda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mexanizmi yordamida iqtisodiy o'sish siklidan tanglikka, pasayishga o'tishdagi salbiy oqibatlarni cheklab, tanglikdan iqtisodiy o'sish sari o'tish imkoniyatlari vujudga keltiriladi.

Davlat iqtisodiyotni tartibga solish uchun bir qancha shakl va vositalardan foydalanadi. Bunda davlatning o'z faoliyatini qaysi obyekta qaratishi muhim hisoblanadi. Tartibga solish obyektlari - bu bozor mexanizmi, ularning normal kechishini qoniqarsiz yohud butunlay ta'minlay olmaydigan ijtimoiy takror ishlab chikarish sohasidagi muayyan shart-sharoit, jarayon, munosabatlardir. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

1. Iqtisodiy sikel, pul muomalasi, ijtimoiy bandlik, investitsiyalar, ilmiy-tadqiqotlar, narxlar kabi umumxo'jalik jarayonlari.

2. Harbiy mudofaa, qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish infratuzilmasi, bank sohasi kabi yirik iqtisodiy sohalarni rivojlantirish.

3. Mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga molik ayrim yirik korporatsiyalar.

Iqtisodiyotni tartibga solish shakllari deganda, budget-soliq, pul-kredit, ma'muriy boshqaruvchilik faoliyati e'tiborga olinadi.

Budget-soliq siyosati davlat budgetini ishlab chiqish, tasdiqlash, bajarish bilan bog'liq jarayonlarni tartibga solish uchun zarur. Pul-kredit tartiboti milliy valyuta barqarorligini ta'minlash, infliyatsiya bilan kurashish bo'yicha davlat organlari amalga oshiradigan tadbirlarni o'z ichiga oladi. Bozor iqtisodiyotini ma'muriy jihatdan tartibga solish ma'muriy ravishda monopolistlarni kartellashtirish, mayda korxonalarga ajratish, litsenziyalash, kvotalash kabi choratadbirlardan iborat.

Iqtisodiyotni tartibga solish vositalari orqali mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatiladi. Buning uchun davlat organlari quyidagi vositalardan foydalanishi mumkin:

- cheklangan ishlab chiqarish resurslarini tartibga solish;
- iqtisodiyotni soliqlar vositasida tartiblash;
- iqtisodiy tizinga monetar uslublar vositasida ta'sir o'tkazish.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish vositalarining har biri o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ma'lum vaziyatlarda alohida qo'llanishi mumkin. O'tish davri iqtisodiyotini tartibga solish jarayonida davlat organlari ob'yktiv shart-sharoitlarga ko'ra barcha ta'sir vositalaridan birgalikda foydalanishga majburdirlar.

Zamonaviy bozor iqtisodiyotining tuzilmasida turli xil yo'nalishli kesimlarni, jumladan, funksional, ijtimoiy hududiy tuzilmalarni ko'rsatish mumkin.

Funksional tuzilma - yalpi ichki mahsulotni turli xil ehtiyojlar uchun (xususiy yoki davlat iste'moli, yalpi jamg'arish, sof eksport) taqsimlanishini tavsiflaydi. Ushbu jarayon ishlab chiqarish omillari

(mehnat, kapital, yer, ilmiy-texnik taraqqiyot) kesimida mahsulot qiyomatining shakllanishini ham o‘z ichiga qamrab oladi.

Ijtimoiy tuzilma - ijtimoiy ishlab chiqarishning ijtimoiy sektorlarga taqsimlanishini ifodalaydi:

- xususiy sektor (xususiy korporativ sektorni ham o‘z ichiga oladi);

- korporativ davlat-xususiy sektori (aralash sektor)

- davlat sektori (unitar va davlatga qarashli korxonalar);

- uy xo‘jaliklari sektori.

Iqtisodiyotning sohaviy, ya’ni tarmoq tuzilmasi ayrim tarmoqlarning YalMni ishlab chiqarishga qo‘shtgan hissasi bilan tavsiflanadi. Iqtisodiyotning hududiy tuzilmasi turli xil hududiy tuzilmalarning YalMni ishlab chiqarishdagi ishtirokini ta’riflaydi.

Davlat iqtisodiy islohotlar davrida milliy iqtisodiyotga ta’sir etishning yangi usul va vositalarini qo’llashga harakat qiladi. O’tish davrida iqtisodiyotning erkin rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratish davlatning muhim ustuvor vazifalari hisoblanadi. Buning uchun erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishga alohida e’tibor qaratilishi lozim bo‘ladi.

Bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirishning bosh yo‘li ham erkin iqtisodiyot tamoyillarining joriy etilishi bilan bog‘liqdir. Erkin iqtisodiyot tamoyillari mazmunan quyidagilar bilan belgilanadi:

- xususiy mulkning iqtisodiyotdagi yetakchi o‘rnini;
- tadbirdorlik va tanlash erkinligi;
- sog‘lom raqobatchilik muhitining mavjudligi;
- bozor turlarining erkin tashkil topishi va rivojlanib borishi;
- iqtisodiy aloqalarning foyda va daromad topish manfaatlari zaminida tashkil topishi;
- narxlarning bozorda erkin shakllanishi;
- davlatning iqtisodiyotga aralashuvi cheklanganligi.

Bu tamoyillarning amal qilishi faqat huquqiy qonunlar doirasida o‘z ifodasini topishi kerak. Eng muhimi, bozor qonunlari, iqtisodiy faoliyat va tanlash erkinliklarining amal qilishlari uchun shart-

sharoitlar yaratishi hamda iqtisodiyotni tartiblashning bozor va davlat mexanizmlarining uyg'unligini ta'minlashi zarur. Buning uchun eskidan qolgan iqtisodiy qarashlar va ish olib borish qoidalarining yangi iqtisodiyot tamoyillariga qanday yo'sinda ta'sir etayotganligiga alohida e'tibor berish zarur bo'ladi. Ushbu o'rinda "erkin iqtisodiyot" tushunchasi nimani anglatishiga ham alohida e'tiborni qaratish lozim. Erkin iqtisodiyot bu - turli mulk shakllari va tadbirkorlik faoliyatining mavjudligi hamda ularning erkin harakati orqali iqtisodiyot subyektlarining foyda olishga intilishlarini yuzaga chiqaruvchi iqtisodiy munosabatlar majmuidir. Erkin iqtisodiyot tadbirkorlik va tanlash erkinligini ta'minlar ekan, bu holat foyda olish, naf ko'rish, manfaatni qondirish kabilarning mavjudligi bilan izohlanadi. Erkin iqtisodiyot quyidagi holatlar bilan xarakterlanadi:

1. Tadbirkorlar qatlami iqtisodiyotning asosiy subyekti bo'lib, ular o'z daromadlarini maksimallashtirishga intiluvchilardan tashkil topadi.
2. Firmalar qattiq raqobat sharoitida faoliyat yuritadilar.
3. Moliyaviy intizomga qattiq rioya etiladi.
4. Resurslar bozori erkin bo'ladi.
5. Xo'jalik hayotining huquqiy ta'minoti kuchli bo'ladi.
6. Iste'molchilar talabi bozorga kuchli ta'sir etadi.
7. Tovar va resurslar bahosi, foiz stavkasi, valyuta kursi bozorga qarab o'zgaruvchan bo'ladi.
8. Jamg'armalarning asosiy qismi banklar va moliya bozorida harakatlanadi.
9. Davlat sektori ochiq va tijoratlashgan bo'ladi.

Davlatning iqtisodiyotni tartibga solish vazifalarining nechog'lik samarali ekanligi va erkin iqtisodiyot tamoyillarining joriy etilishi bozor munosabatlarining rivojlanishini, iqtisodiy munosabatlar bozor qonunlari asosida tashkil topishini ta'minlab, barqaror iqtisodiy o'sish uchun iqtisodiy shart-sharoitlarni yuzaga keltiradi hamda ob'ektiv iqtisodiy qonunlarning real amal qilishini qaror toptiradi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, iqtisodiyotni tartiblashning davlat mexanizmi obyektiv bozor mexanizmiga ko‘maklashishga qaratilgan ijtimoiy takror ishlab chiqarishga ta’sir qiluvchi chora-tadbirlar va vositalar majmuidir. Hozirgi zamон iqtisodiyotida bozor mexanizmi orqali iqtisodiyotni tartibga solish qanchalik zarur bo‘lsa, davlat mexanizmini shunchalar zarur ekanligini ko‘rsatadi. Eng muhim, iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishda xar ikkala mexanizmlarni afzal jihatlarini birlashtirishdir. Bu esa iqtisodiyotni ratsional boshqarishdagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

1.3. Bozor iqtisodiyotini tartibga solish bo‘yicha davlat boshqaruв organlarining vazifalari va dastaklari


Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishga qaratilgan iqtisodiy siyosatni amalga oshirish yuzasidan hokimiyat organları o‘z zimmasiga aniq vazifalarni oladi. Ularga quyidagilar kiradi:

- iqtisodiy o‘sish va iqtisodiy rivojlanish;
 - to‘liq va samarali bandlik;
 - iqtisodiy samaradorlikka erishishni ko‘zlash;
 - narxning barqaror darajasi;
 - iqtisodiy erkinlik;
 - daromadlarning odilona taqsimlanishi;
 - mamlakat tashqi savdo balansining mutanosibligini ta’minlash¹¹
- (1.3.1-rasm).

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning har bir bosqichida o‘zaro bog‘liq maqsadlarni ishlab chiqish va asoslash hukumatning mamlakatni boshqarish san’ati hisoblanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlarining murakkabligi va o‘zaro bog‘liqligining qaramaqshiligi, ularning ijobiy yoki salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligi tartibga soluvchi davlat organlarining o‘z maqsadlarini

¹¹Государственное регулирования рыночной экономики –М.: Путь России. //Экономическая литература. 2002. -С.26-27.

alohida holda emas, balki birgalikda, ularning o'zaro bog'liqligini inobatga olgan holda ishlab chiqishga majbur qiladi.



1.3.1-rasm. Davlat boshqaruvi organlarining milliy iqtisodiyotni tartibga solish bo'yicha vazifalari¹²

Iqtisodiyotni tartibga solish bo'yicha davlat organlari oldida turgan maqsadlar ko'p, lekin ularning ichida eng muhiinlari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy o'sishni ta'minlash;
- mehnatga layoqatli aholi ish bilan bandligining yuqori darajasini ta'minlash;
- narxlар barqarorligi hamda pul muomalasi barqarorligini ta'minlash;
- tashqi iqtisodiy muvozanatni saqlash.¹³

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning umumiyligi bosh maqsadi iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikka erishish, mavjud tuzumni

¹²Muanif tomonidan tuzilgan

¹³Государственное регулирование рыночной экономики. —М.: Учебное пособие для вузов. / Т.Г. Морозова и др. Под ред. Т.Г. Морозовой. —ЮНИТИ-ДАНА. 2001.-С.27.


mustahkamlash va takomillashtirish, o'zgarib borayotgan sharoitga adaptatsiya qilish, moslashish hisoblanadi. Demak, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish hozirgi zamon iqtisodiy tizimlarining xarakterli, asosiy belgisi hisoblanadi. Shu boisdan ko'plab mamlakatlarda, shu jumladan, rivojlangan mamlakatlarda ham davlatning iqtisodiyot sohalariga aralashuvি kuchaymoqda.

Iqtisodiyotga davlat tomonidan ta'sir etish obyektlari-bozor mexanizmi ta'minlay olmaydigan yoki qoniqarsiz darajada ta'minlaydigan ijtimoiy takror ishlab chiqarish sohasida yuz beradigan jarayonlar, munosabatlар, sharoitlарdir. Davlat ta'sir etadigan va tartiblaydigan obyektlarga ularning darajalari nuqtai nazaridan quyidagilar kiradi:

- umumxo'jalik jarayonlari, ya'ni iqtisodiy sikl, pul muomalasi, ish bilan bandlik, investitsiyalar, ilmiy-tadqiqot, tajriba, konstruktorlik ishlari (ITTKI), narxlar;
- iqtisodiyotning yirik sohalar, ya'ni sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, infrastrukturalar, moliya sohasi;
- tarmoqlar va korporatsiyalar;
- yirik xo'jalik komplekslari sifatidagi hududlar. (1.3.2.-rasm).

Bulardan tashqari, davlat tartibga soladigan ob'ektiga tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish ham kiradi. Davlat tashqi savdo sharoitlari, kapital va ishchi kuchi harakati, valyuta munosabatlari, xalqaro tashkilotlarda ishtiroy etishni tartibga soladi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish ob'ektiga ijtimoiy munosabatlар, shu jumladan, ish beruvchilar bilan yollanma ishlovchilar o'rta sidagi munosabatlар, kichik va o'rta tadbirkorlik, shuningdek, sotsial ta'minot sohalari ham kiradi.




1.3.2-rasm. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish obyektlari¹

Iqtisodiyotga davlatning aralashuvi va ta'sir etish predmeti uzoq muddatli istiqbolda milliy boylik va milliy mulkning o'sishi, o'rta muddatda iqtisodiy sikl, qisqa muddatli davrda – xo'jalik konyunkturasi hisoblanadi. Ushbu predmet bo'yicha iqtisodiyotni davlat tomonidan tartiblash chora-tadbirlari krizis va turg'unlik sharoitida davlat tovar va xizmatlarga bo'lgan talabni, kapital qo'yilmalar va bandlikni, tovar va xizmatlar eksporti, xorijiy kapital va turistlarning kirib kelishini rag'batlantiradi, iqtisodiy yuksalish davrida esa iqtisodiy o'sishni jilovlashga, iqtisodiyotning qizib ketishining oldini olishdan ibrorat bo'ladi. Ushbu maqsadlarda xususiy kapital uchun qo'shimcha

¹Muallif tomonidan tuzilgan.

moliyaviy rag'batlar yaratiladi, davlat xarajatlari ko'paytiriladi, foiz stavkalari tartibga solinadi (1.3.3-rasm).



1.3.3-rasm. Iqtisodiyotga davlat aralashuvining predmetlari¹

Iqtisodiy siklni tartibga solishning umumiy vazifalari doirasiga iqtisodiyotning tarmoq va hududiy tuzilishi, kapital jamg'arish, aholi ish bilan bandligi, to'lov balansining ahvoli, inflyatsiya, narx va boshqalar ham kiradi (1.3.4-rasm).

Iqtisodiyot va ijtimoiy ishlab chiqarish tarkibiy tuzilishini tartibga solish moliyaviy rag'batlar, davlat kapital qo'yilmalari vositasida amalga oshiriladi. Shuningdek, fan-texnika taraqqiyoti tufayli vujudga kelgan yangi tarmoq va ishlab chiqarishlar hamda iqtisodiyot va tarmoq ichidagi progressiv tarkibiy o'zgarishlar, uning samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish rag'batlantiriladi. Shu bilan birga, ayrim joylarda ishlab chiqarishning haddan tashqari konsentratsiyalashuvi va markazlashuvining oldini olish chora-tadbirlari amalga oshiriladi.

¹Muallif tomonidan tuzilgan

Iqtisodiy siklni tartiblash tarkibi



1.3.4-rasm. Davlat tomonidan iqtisodiy siklni tartiblash¹⁴

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning muhim unsurlaridan biri kapital jamg'arish hisoblanadi. Ma'lumki, foyda olishga intilish, uni o'zlashtirish hamda kapitalga aylantirish bozor iqtisodiyotida xo'jalik yuritishning bosh maqsadi bo'ladi. Shuning uchun ham davlatning iqtisodiy siyosati jamg'arishni rag'batlantirishga qaratiladi. Bu esa xo'jalik subyektlarining manfaatlariiga mos keladi. Davlat boshqaruv organlari iqtisodiy sikl va iqtisodiyot tarkibiy tuzilmalariga ta'sir etish uchun barcha investorlar va ularning ayrim guruhlari uchun turli davrlarda qo'shimcha imtiyozlar hamda imkoniyatlar yaratadi.

Aholining ish bilan bandligini tartibga solish ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif o'rtasida bozor iqtisodiyoti nuqtai nazaridan normal nisbat va ularning muvozanatini qo'llab-quvvatlashni anglatadi. Bu nisbat iqtisodiyotning malakali va intizomli ishlovchilarga bo'lgan ehtiyojini qondirishi lozim. Ularning ish haqlari yetarli mehnat motivatsiyasini vujudga keltirishi kerak. Ammo ishchi kuchiga bo'lgan talab bilan uning taklifi o'rtasidagi nisbat ish haqining haddan tashqari o'sib ketishiga olib kelmasligi kerak. Aks holda, bu hol milliy raqobatbardoshlikka salbiy ta'sir etadi. Shuningdek, aholi ish bilan bandligi ham keskin pasayib ketishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Chunki buning oqibatida ishsizlar soni

¹⁴ Muallif tomonidan tuzilgan

o'sib, iste'mol talabi va soliq tushumlari kamayib ketadi, davlat tomonidan nafaqalar uchun xarajatlar o'sadi. Eng yomoni, bu hol ijtimoiy larzalarga, xavfli ijtimoiy oqibatlarga olib keladi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning muhim obyektlaridan biri pul muomalasidir. Pul muomalasini tartibga solishning asosiy yo'naliши infliyatsiyaga qarshi kurash hisoblanadi. Pul muomalasini tartibga solish orqali davlat bilvosita jamg'arish sharoitlariga, narxlar va ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etadi.

To'lov balansining holati va uning ijobiy saldosiga erishish ham davlatning iqtisodiyotni tartibga solishiga bog'liq. Shu boisdan bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan barcha mamlakatlarda davlat to'lov balansini operativ va strategik tartibga solish bilan shug'ullanadi. Bunda davlat eksport va importga, kapital harakatiga, milliy valyuta kursining ko'tarilishi va tushishiga ta'sir etish hamda savdo-shartnomma siyosati va xalqaro iqtisodiy integratsiyalar, tashkilotlarda ishtirok etish orqali mamlakat to'lov balansini tartibga soladi. Davlat narxlarni to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita tartibga soladi. Narxlarni to'g'ridan-to'g'ri tartibga solishda u yoki bu tarmoq mahsulotlariga, ayniqsa, tabiiy monopoliya mahsulotlariga yuqori narx chegarasini belgilaydi. Narxlarni bilvosita tartibga solishda davlat ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiga kiritiladigan soliqlar hamda aksiz yig'imiylari orqali tartiblaydi. Bulardan tashqari, davlat xususiy korxonalarini ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirishga va ularning natijalarini ishlab chiqarishga joriy etishga, tovarlarni, kapitalni, to'plangan bilim va tajribalarni chetga eksport qilishga rag'batlantiradi.

Iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishda davlat jahon amaliyotida to'plangan chora-tadbirlar, ya'ni quyidagi dastaklardan foydalanadi:

- iqtisodiy prognozlashtirish, ya'ni iqtisodiyot va uning tarkibiy sohalarining istiqboldagi ahvolini, holatini oldindan ko'ra bilish, ularning istiqbolini belgilash;
- mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining indikativ rejasini tuzish;
- davlat organlari bo'yicha manzilli rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- xo'jalik subyektlariga bilvosita, ya'ni iqtisodiy dastaklar orqali ta'sir etish dastak(richag)larini qo'llash;
- mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalarini hal etish bo'yicha maqsadli dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish (1.3.5-rasm).



1.3.5-rasm. Iqtisodiyotni tartibga solishda davlat tomonidan qo'llaniladigan dastaklar¹⁵


Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi o'z ichiga mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etish vositalarini oladi. Ular quyidagilar:

- cheklangan ishlab chiqarish resurslarini boshqarish;
- iqtisodiyotni soliqlar orqali tartiblash;
- iqtisodiyot tizimiga monetar usullar orqali ta'sir ko'rsatish (1.3.6-rasm).

Cheklangan ishlab chiqarish resurslarini boshqarish deganda davlat o'ziga qarashli tabiiy, mehnat, ishlab chiqarish, kapital, investitsion resurslarni to'g'ridan to'g'ri taqsimlash orqali iqtisodiy tizimdagи muvozanatni saqlashga, yangi nisbatlar va mutanosibliklarni vujudga keltirishga intiladi. Ammo ba'zi hollarda cheklangan iqtisodiy

¹⁵ Muallif tomonidan tuzilgan.

resurslarning davlat tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqsimlanishi iqtisodiy tiziindagi muvozanat va mutanosiblikning buzilishiga ham olib keladi.



1.3.6-rasm. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish vositalari

Iqtisodiyotni soliqlar vositasida tartibga solish xo‘jalik subyektlarini mamlakat iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga yo‘naltiruvchi va rag‘batlantiruvchi soliq stavkalari hamda tariflarni belgilash orqali amalga oshiriladi. Soliqqa tortish ob’ektlari, soliq stavkalarini belgilash bilan bir qatorda imtiyozlar tizimi ham joriy etiladi. Soliq imtiyozlarini joriy etish davlatning iqtisodiy jarayonlarga ta’sir etish vositalaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiyotga monetar usullar orqali ta’sir etish foiz stavkalari, budget qarzları, davlat qarz majburiyatları ochiq bozoridagi operatsiyalar, muomaladagi pul massasi, valyuta kursi kabi moliyaviy regulyatorlarni o‘z ichiga oladi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida davlat iqtisodiyotni tartibga solish ob’ektlari, predmetlari, vosita va usullarini aniq belgilash hamda qo‘llash mexanizmini shakllantirishi lozim bo‘ladi.

1.4. Davlatning iqtisodiy siyosatining tamoyillari va yo‘nalishlari

Davlatning iqtisodiy strategiyasi uning siyosiy strategiyasini amalga oshirish uchun iqtisodiyotga davlatning aralashuvi mexanizmlari va ustuvorliklarining transformatsiyalashuvini belgilab beradi. Iqtisodiy strategiya uzoq muddatli davr ichida davlat faoliyatining yo‘nalishi va


uning analga oshirish prinsiplarini ifodalaydi. Davlatning iqtisodiy strategiyasining muhim turlari quyidagilardan iborat:

- 1)Rivojlanishning ijtimoiy samarali strategiyasi;
- 2)Korporativ strategiya ma'lum guruh kishilarning boylik orttirishga qaratilgan tor egoistik manfaatlarini amalgga oshirishga qaratiladi;
- 3)Liberal-iqtisodiy strategiya tovar va kapitalning erkin harakati uchun ochiq bo'lgan iqtisodiyot uchun qo'llaniladi;
- 4)Tartibga soluvchi iqtisodiy strategiya davlat tovar va kapital harakati uchun nazorat o'rnatganida qo'llaniladi;
- 5)Mobilizatsion iqtisodiy strategiya davlatning mavjudligiga tahdid kuchayganida, favqulodda holatlar sharoitida davlatning ishlab chiqarish va tashqi iqtisodiy aloqalarga to'g'ridan-to'g'ri aralashuvi kuchayadi;
- 6)Davlatning iqtisodiy integratsiya strategiyasi;
- 7)Samarali milliy strategiya.

Davlatning ijtimoiy samarali iqtisodiy strategiyasi fuqarolar uchun optimal tarkibdagi pirovard mahsulotning yuqori o'sish sur'atining barqarorligini ta'minlashni, to'liq samarali ish bilan bandlikka, infliyatsiyani jilovlashga va daromadlarning odilona taqsimlanishiga erishishini ifodalaydi. Davlat iqtisodiy strategiyasi sifatining kriteriyasi (mezoni) uning ijtimoiy samarali iqtisodiyotga muvofiqligi darajasi hamda unga mamlakat ichidagi va jahon hamjamiyati tomonidan bildirilgan ishonch darajasini ifodalaydi.

Davlatning iqtisodiy siyosati uning strategik vazifalaridan kelib chiqib jamiyatda ishlab chiqarish, daromad va ne'matlarni taqsimlash jarayonlarini tartiblash uchun davlat tomonidan joriy davr ichida qo'llaniladigan chora-tadbirlar tizimini ifodalaydi.

Davlatning iqtisodiy siyosati o'z ichiga tashqi iqtisodiy, tarkibiy-investitsiyaviy, institutsional, agrar, sanoat, ijtimoiy, narx, moliyaviy, soliq-budget, pul-kredit, hududiy (mintaqaviy) siyosatlarni oladi (1.4.1-rasm).



1.4.1-rasm. Davlatning iqtisodiy siyosati¹⁶

Davlat siyosatining muvaffaqiyati jamiyat ehtiyojlari va ularni qondirish vositalarini aniqlash uchun real holatni aniq belgilash va iqtisodiy bilimlar darajasiga bog‘liqdir.

Davlat iqtisodiy siyosatining prinsiplari quyidagilarda ifodalanadi:

Iqtisodiyotning samaradorlik prinsipi. Mavjud resurslar hisobiga ko‘p miqdorda ne’matlar yoki kam sarf-xarajatlar evaziga ko‘p miqdorda mahsulotlar ishlab chiqarish.

Ne’matlarning odilona taqsimlanishi prinsipi. Mamlakat fuqarolari daromadlaridagi tengsizlikni kamaytirish va iqtisodiyot samaradorligiga qo‘shtan hissalariga muvofiq har bir fuqaro daromadlarining ko‘payib borishini ta’minlash.

Barqarorlik prinsipi:

- iqtisodiy o’sishning barqarorligi;
- inflyatsiya o’sishi sur’atining pastligi;
- ishsizlik darajasining yuqori emasligi.

Davlat iqtisodiy strategiyasi sifati indikatorlari quyidagilar bilan belgilanadi:

¹⁶ Muallif tomonidan tuzilgan.

Iqtisodiy indikatorlar davlat iqtisodiy xavfsizligi sharti buzilishining asosiy belgisi – YALM tarkibida ishlab chiqarish investitsiyalari ulushining kamayishidir.

Ijtimoiy indikatorlar xavf va tahdidning bosh signali mehnat unumdorligi rag‘batlarining susayishi va jamiyatda aholi ijtimoiy tabaqlanishining kuchayishi.

Moliyaviy indikatorlar moliyaviy xavf signali – ishlab chiqarishning qisqarishi va ishlab chiqarish investitsiyalari hajmining pasayishi sharoitida davlat qarzining o’sib borishi.

Bozor munosabatlariiga o’tish sharoitida davlat va hukumatning vazifalari quyidagilardan iborat bo’ldi:

- xususiy mulkni erkinlashtirish va huquqiy jihatdan kafolatlash;
- bozor iqtisodiyoti uchun ma’muriy va moliyaviy infratuzilmalarni yaratish;
- narxlarni erkinlashtirish;
- sanoat siyosatini asoslash va amalga oshirish, investitsiyalar, iqtisodiyotni yangilash, modernizatsiya qilish va tarkibiy o’zgartirish uchun bozor sharoitlarini yaratish;
- jahon bozori uchun iqtisodiyotning ochiqligini ta’minlash;
- makroiqtisodiy ahvolni boshqarish, oqilona budjet-soliq va pul-kredit siyosatni amalga oshirish;
- iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solish bo'yicha markaziy, hududiy va mahalliy hokimiyat organlari faoliyatini muvosfiqlashtirish;
- ijtimoiy, ta’lim infratuzilmalari va mehnat bozorini vujudga keltirish;
- hukumatning bozor iqtisodiyotini ma’muriy tartibga solish qobiliyatini samarali davlat xizmatini shakllantirish.

1.5. O’zbekistonda davlatning iqtisodiy vazifalari

Bozor iqtisodiga o’tish sharoitida davlat bosh islohotchi bo’lishi xususida O’zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov: “Bozor munosabatlariiga o’tish davrida davlat bosh islohotchi bo’lishi, iqtisodiyot va ijtimoiy turmushning ha’hma

sohalarini o'zgartirish rejalarini tuzib, uni izchillik bilan amalga oshirishi zarur",¹ deb ta'kidlagan edi.

Xalq manfaatlariga javob beruvchi mustaqil iqtisodiy siyosat O'zbekistonni mustaqil rivojlantirishning ajralmas shartidir. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadi, ayrim mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanish va aholining turmush darajalari o'rtaсидagi tafovutlarga qaramay, jahon hamjamiyati rivojlanishining hozirgi bosqichiga bozor iqtisodiyoti juda mos keladi va samara kasb etadi. Faqat uyushgan bozorgina bugungi kunda xalqning ijodiy va mehnat imkoniyatlarini ochib bera oladi, boqimandalikka xotima beradi, tashabbuskorlik va ishbilarmonlikni rivojlanira oladi, rag'batlantirish va yo'qotilgan egalik tuyg'usini qayta tiklaydi. Faqat bozorgina tejamli xo'jalik yuritishning oqilona shakllarini yaratadi.

Bozorga, ayniqsa, uning shakllanish bosqichida, uzoq va chuqur iqtisodiy inqirozlar, ishsizlikning o'sishi, pulning qadrsizlanishi, ko'pgina korxonalarning sinishi va ishbilarmonlarning xonavayron bo'lishi, aholining moddiy ta'minot jihatdan keskin tabaqalashushi, huquqqa zid xatti-harakatlar va jinoyatlarning o'sishi xosdir. Shuning uchun bozor iqtisodiyoti sari buyuk sakrashlar, inqilobiy qayta o'zgarishlar yo'li bilan emas, balki sobitqadamlik va izchillik bilan bosqichma-bosqich harakat qilish kerak. Bozorga o'tilgan sari iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishda davlatning vazifasi jiddiy o'zgaradi. Bozor iqtisodiyotining o'zini o'zi tartibga soluvchi vositalari tobora muhimlashadi. Davlat zimmasiga faqat iqtisodiy tartiblash va rag'batlantirish vazifalarigina qoladi.

Bozor xo'jaligining asosiy talablari va shartlaridan biri erkin narxlardir. Ammo dunyo bo'yicha narx siyosati, ayniqsa, bozor tarmoqlarini qaror toptirish davrida tartibga solib turilmaydigan biron ta'minotni qo'shish kerak. Bozor munosabatlari yo'liga kirgan ko'pgina mamlakatlarning tajribasi davlat doimo aholini ham, ishbilarmonlarni ham islohotlarga tayyorlab kelganligidan dalolat beradi.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон – бозор муносабатларига ўтишнинг ўзига хос бўли. // Биздан озод ва обод Ватан колсин. 2-ж -Т.: Ўзбекистон, 1994, 36-бет.

Davlat ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga bevosita iqtisodiyotning davlat sektori orqali ham ta'sir ko'rsatadi. Davlat ixtiyorida faqat ~~asosiy~~ va xalq xo'jaligi tarmoqlarining strategik ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlari qoladi. Bular yoqilg'i, neft va gaz sanoati, elektr energetikasi, temir yo'l, avtomobil, havo va truboprovod transporti, aloqa, suv va gaz ta'minoti, irrigatsiya inshootlari qurilishi va ulardan foydalanishdir.

Qishloqda bozor munosabatlarini rivojlantirish, dehqonda yerning egasi ekanligi tuyg'usini qayta tiklash – meros qilish huquqi asosida yerni abadiy foydalanish uchun berish yo'lidan borish kerak. Eng muhim, qishloq xo'jaligini yuritishning shunday shaklini yaratish kerakki, bu har bir dehqonga o'z mehnatining samarasidan mustaqil bahrainand bo'lish imkoniyatini bersin. Ana shundagina dehqon o'zini haqiqatan ham yerning chinakam egasi deb biladi.

Qishloq turmush darajasini shahar turmushi darajasiga ko'tarish, eng avvalo, aholining ijtimoiy ahvolini yaxshilash, ularni suv va gaz bilan ta'minlash, shuningdek, ishchi kuchi ortiqcha bo'lgan joylarda kichik mustaqil korxonalar, keng tarmoqli qayta ishslash shaxobchalarini tashkil etish davlat ahamiyatiga molik vazifadir.

Bozor iqtisodiyotiga bosqichna-bosqich o'tish bozorning ~~keng~~ tarmoqli tizimini tashkil etishni talab qiladi. Ayrim korxonalar va tijorat tuzilmalarining yakkaboshlik mavqeini tugatish narxlearning sun'iy ravishda oshirib yuborilishi, monopol yuqori daromadlar ~~olinishiga~~ qarshi turuvchi sog'lom raqobat muhitini shakllantirish imkonini beradi.

Alohiba ta'kidlash joizki, o'zgarib turadigan bozor iqtisodiyotini yaxshi tushunadigan, yuksak bilimli va ishbilarmon mutaxassislarga ega bo'lmay turib, korxonalarni malakasiz qo'llarga topshirish ularning barbob bo'lishiga sabab bo'ladi.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish jarayoni bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun zarur bo'lgan boshqa shart-sharoitlarni vujudga keltirish bilan bog'liq holda izchil va har tomonlama yondashuvni talab qiladi.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish – bozorni shakllantirish yo'lidagi zaruriy va muqarrar bosqich bo'lib, uni ta'minlash uchun respublika

budjeti taqchilligini cheklashga va uni izchil ravishda eng kam darajaga keltirishga qaratilgan kuchli moliyaviy siyosat olib borilishi taqozo etiladi. Bu jarayonda budjet mablag'larini kechiktirib bo'lmaydigan eng zarur davlat va ijtimoiy ehtiyojlargagina berilishi kerak.

Erkin narxlarga o'tilishidan iborat umumiy yo'lda tovarlarning alohida muhim turlari doirasi narxlarining davlat tomonidan nazoratga olinishi saqlanib qoladi. Eng zarur oziq-ovqat mahsulotlari, dori-darmonlar, buyumlarning chegaralangan narxlari me'yor bilan berish hisobiga ular bilan aholini kafolatli ta'minlash, ichki iste'mol bozorini himoya qilish, tovarlarni sotib olishda aholiga katta imkoniyatlar yaratib berish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Bozorning o'zgaruvchan sharoitlarida mehnatga layoqatli mahalliy mutaxassislar siz O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashni tasavvur qilish qiyin. Bunda O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlari, xalqning milliy-ruhiy turmush tarzi, ta'lindagi butun jahon va Sharq tajribasining eng yaxshi yutuqlari har tomonlama e'tiborga olinishi kerak. Iqtidorli yoshlarni xorijiy mamlakatlarning yetakchi o'quv yurtlariga o'qishga va tajriba orttirishga yuborish muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Zamonaviy bozor tizimiga o'tishga doir chora-tadbirlar majmuini amalga oshirish respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, uning sanoatlashgan mamlakatlar safiga yo'nalishida chuqur sifat o'zgarishlariga olib keladi hamda O'zbekiston iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy mustaqilligining ishonchli kafolatini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasida davlat bosh islohotchi sifatida quyidagi vazifalarni amalga oshirishi belgilangan edi:

1. Bozor munosabatlariga o'tishning boshlang'ich davrida aholi manfaatlarini kuchli qayta taqsimlash vositasi orqali himoya qilish.
2. Ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va millatlararo totuvlikni kafolatlash.
3. Iqtisodiy faoliyatning huquqiy asoslari, o'ziga xos bozor shart-sharoitlarini vujudga keltirish va tasdiqlash.
4. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitlarida kishilarning iqtisodiy erkinliklari kafolatlangan bo'lish.

5. Tartibga solinadigan bozor sharoitida asosiy maqsad yo'nalishlarini ishlab chiqish, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning bosh yo'lini belgilash va bu yo'lni o'tkazish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish.

6. Ijtimoiy muammolarni hal qilish, aholini ijtimoiy himoyalashning samarali, aniq va ravshan tizimini vujudga keltirish.

7. Vujudga kelayotgan ishbilarmonlik tizimlarining qaror topishi va rivojlanishiga ko'maklashish.

8. Aniq maqsadga qaratilgan iqtisodiyot tarmoqlari tuzilmasi siyosatini izchillik bilan amalga oshirishga ko'maklashish.

"2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da **inson qadrini yuksaltirish** va **erkin fuqarolik jamiyatini** yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish yo'nalishida davlat boshqaruvi organlari faoliyatini "fuqarolarga xizmat qilishga yo'naltirish" tamoyili asosida transformatsiya qilish, ixcham, professional, adolatli, yuqori natijadorlikka xizmat qiladigan davlat boshqaruvi tizimini joriy qilish, davlat boshqaruvi tizimida ma'muriy apparatni ixchamlashtirish va ish jarayonlarini maqbullashtirish kabi maqsadlar belgilangan bo'lib, ular davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini qisqartirish hamda iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish va bozor mexanizmlarini kengroq joriy etishga qaratilgandir.

Bozor sharoitida iqtisodiyotni davlat yo'li bilan tartibga solish odatda iqtisodiyotning davlat sektorini rivojlantirishni boshqarishi hamda ijtimoiy muammolarni hal etish yo'li bilan bevosita, shuningdek, huquqiy va iqtisodiy vositalar yordamida bilvosita amalga oshiriladi.

Asosiy tushuncha va atamalar.

Davlat, iqtisodiyot, bozor iqtisodiyoti, davlatning iqtisodiy strategiyasi, davlatning iqtisodiy siyosati, iqtisodiyotni tartibga solishning bozor mexanizmi, iqtisodiyotni tartibga solishning davlat mexanizmini, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish shakllari va usullari, davlat bosh islohotchi, soliq – budget siyosati, pul-kredit siyosati.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. “Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish” kursining tadqiqot obyekti va predmeti nimalardan iborat?
2. Iqtisodiyotni tartibga solishda bozor mexanizmining ustunlik va kamchilik tomonlarini ayting?
3. Bozor mexanizmi qanday ijtimoiy vazifalarni bajara olmaydi?
4. Iqtisodiyotni tartibga solishga qaratilgan davlat iqtisodiy siyosati sohalarini izohlab bering.
5. Zamonaviy davlatning iqtisodiy vazifalari nimalardan iborat?
6. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish shaklining asosiy rivojlanish boqichlarini tavsiflang.
7. Davlat iqtisodiy siyosatining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
8. Davlat iqtisodiy strategiyasi va siyosatining o‘zaro bog‘liqligi, prinsiplari nimani bildiradi?
9. Davlat iqtisodiy siyosatining asosiy yo‘nalishlari nimalardan iborat?
10. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish obyektlari va subyektlari nimalardan iborat?
11. Iqtisodiyotni tartibga solishda davlat tomonidan qanday dastaklar qo‘llaniladi?
12. O‘zbekistonda davlat bosh islohotchi sifatida qanday vazifalarni bajaradi?

2-BOB. IQTISODIYOTNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI

2.1. Iqtisodiyotda davlatning o'rni haqidagi merkantilizm, fiziokratizm, klassik siyosiy-iqtisod namoyondalarining konsepsiyalari

Dastlabki iqtisodiy nazariyalar kapitalizmning boshlang'ich davriga to'g'ri keladi (XV-XVII asrlar). Bu davrda merkantilistlar jamiyat boyligi muomala sohasida yaratiladi, millat boyligi esa pul miqdori bilan aniqlanadi degan fikrni ilgari surishadi. Merkantilizm – bu iqtisodiy nazariyadagi birinchi ilmiy maktab bo'lib, uning mashhur namoyondalaridan biri Tomas Men hisoblanadi (1571-1641 y.).

Merkantilizm kapitalning dastlabki jamg'arilishi davriga xos bo'lib, savdo burjuaziya manfaatlarini ifoda etadi. Merkantilizmga ikki xususiyat xosdir: 1) boylik pul bilan ifodalanadi (davlat qancha ko'p pulga ega bo'lsa, u shuncha badavlat hisoblanadi) 2) davlat hokimiyyati yordamida pul boyliklarini jamg'arishga erishish mumkin. Ushbu maktab namoyondalari mamlakatga olib kirilgan va olib chiqilgan tovarlar o'rtasidagi farqning (aktiv savdo balansi) yuqoriligi bilan davlat boyligi oshadi va davlat aktiv savdo balansida siyosiy ishlarni olib borishi zarur deb hisoblashadi. Davlat mamlakatdan tovarlarni olib chiqishni rag'batlantirish va mamlakatga tovarlar olib kirishni cheklash, ba'zi tovarlarni esa olib kirilishini ta'qiqlash bilan proteksionizm siyosatini yuritishi lozim. Bunda quyidagi tamoyil olg'a suriladi: chet eldan arzon bahoga sotib olish, boshqa davlatlarga qimmatroq sotish.

«Siyosiy iqtisod» atamasi fransuz merkantilisti Antuan Monkretenning 1615-yilda nashr qilingan «Siyosiy iqtisod traktlari» kitobida ilmiy muomalaga kiritilgan edi. Merkantilistlar birinchi bo'lib iste'mol qiymatini emas, balki almashinuv qiymatini boylik deb e'lon qildilar.

Keyingi iqtisodiy maktab fiziokratlar edi. Ushbu maktabning eng ko'zga ko'ringan namoyondasi – Fransua Kene (1694-1774 y.). Uning xizmati: fiziokratlar muomala sohasini tahlil etishdan ishlab chiqarishni

tahlil etishga tomon burilish yasadi. Faqat ular qishloq xo'jaligi bilan chegaralanishdi. Kene ekvivalent ayirboshlash ta'lmini olg'a surdi va savdodagi ayirboshladan hech qanday boylik yaratilmasligini va ayirboshlash hech narsa ishlab chiqarilmasligini isbotladi.

F.Kene «tabiiy tartiblanish» holatini, ya'ni bozor narxining beqaror tebranishi, erkin raqobat va ba'zi hollarda davlat aralashuvi asosida iqtisodiyotni rivojlatirishni olg'a surdi. Fiziokratlar iqtisodiy rivojlanish o'zida tabiiy jarayonni namoyon qilishi, qonunlarga amal qilinishi va odamlar ta'siridan holi bo'lishini lozim deb bilishdi.

Bozor munosabatlarining rivojlanishi tadbirkorlar sinfini vujudga kelishi va mustahkamlanishi bilan tavsiflanadi. Iqtisodiyotni rivojlanishida davlatning aralashuvi ushbu maktab nuqtai nazarida, ya'ni merkantilizmni iqtisodiy liberalizm g'oyasi bilan almashinish oqibatida tadbirkorlik faoliyatini cheklangan va iqtisodiyotga davlatning aralashuvini salbiy baholagan. Bu g'oya Adam Smit va David Rikardolarning ilmiy ishlarida asoslangan. Ular klassik siyosiy iqtisod maktabi asoschilari bo'lib, qiyamatining mehnat nazariyasini yaratdi, kapitalning mazmunini va qo'shilgan qiymat nazariyasini yoritib berdi.

Iqtisodiyotni rivojlanishida davlatning roli xususidagi ularning qarashlari davlatning aralashuvi iqtisodiy rivojlanishni sekinlashtiradi degan fikrdan kelib chiqadi. Adam Smitning "Xalqlar boyligining tabiatini va sabablarini tadqiq qilish haqida" (1776 yil) degan kitobida bozor usullari orqali iqtisodiyotning o'zini o'zi tartibga solishning zarurligi ta'kidlab o'tilgan. A.Smitning fikricha, xususiy tovar ishlab chiqaruvchilar bozori davlat nazoratidan to'liq ozod bo'lishi zarur. Ana shundagina iste'molchilar talabiga mos ravishda ishlab chiqarishni tashkil qilish imkonи mavjud bo'ladi. Bunda bozor vositasida tartibga solish, har qanday aralashuvsiz ishlab chiqaruvchilarni butun jamiyat manfaatlari uchun harakat qilishga majbur qiladi. A. Smit g'oyasi quyidagicha: «Bozor iqtisodiyoti o'zini-o'zi boshqarishga moslashgan, uning asosida qanday qilib ko'proq fayda olishga harakat qilish bilan bog'liq «ko'rinmas qo'l»-shaxsiy manfaat yotadi». Smit xulosasiga

ko'ra, iqtisodiyotga davlatning aralashmasa iqtisodiyot samarali amal qiladi va bozor butunlay erkin bo'lmos'i lozim.

D.Rikardo, J.B.Sey, D.Mil, A.Marshallar A.Smit g'oyasining davomchilar bo'lib, ular iqtisodiy liberalizm g'oyasi ilgari surishdi va hozirgi kunga qadar zamonaviy iqtisodchilar tomonidan ijobjiy baholanmoqda (neoklassik yo'nalish).

Klassiklar jami talab va jami taklif mutanosibligini o'zlariga xos talqin etishdi. Ular jami taklifning o'zgarishi unga mos jami talabni o'zgarishini yuzaga keltiradi degan fikrdan kelib chiqishadi. Bu Sey qonunida o'z aksini topadi, ya'ni taklif etilgan tovar unga mos ravishda talabni keltirib chiqaradi, bu esa talab va taklif o'rtaсидagi yuzaga keladigan farqlarni bartaraf etadi. Oldindan ishlab chiqarishning o'rni yo'qoladi. Tovar ishlab chiqarishning o'sishi, ish haqlarini oshishiga olib keladi, buning natijasida taklifga mos ravishda talab ham oshadi.

Haqiqatda esa barcha daromadlar tovarlarga ayriboshlanilmadi. Jamg'arish yuzaga keladi va jamg'arilgan pul miqdori investitsiyaga har doim ham teng bo'lmaydi. Klassiklar jami talab va jami taklifga bog'liq holda narxning tebranishi barcha bozorlarni, shu o'rinda mehnat bozorini ham, resurslar bozorini ham barqarorlashtiradi deb hisoblashdi.

Biroq iqtisodiy inqirozlarning keskinlashuvi oqibatida asosan 1929-1933 yillardagi, klassik iqtisodiy liberalizm nazariyasini zaif ekanligini ko'rsatdi.

2.2.Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning keynscha nazariyasи

1929-1933 yillardagi jahon iqtisodiy inqirozidan so'ng keynschilik nazariysi iqtisodiy fanida yangi oqim sifatida yuzaga keldi. Ingliz iqtisodchisi Jon Meynard Keyns ushbu iqtisodiy muktabning asoschisi edi. U mazkur nazariyani o'zining 1936 yilda nashrdan chiqqan «Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» nomli asarida bayon qilib berdi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, soha mutaxassislari orasida Keyns iqtisodiyotga davlat aralashuvi zaruriyatini dalillab bergen dastlabki iqtisodchi

hisoblanmagan. Keynsning o'tmishdoshlari bo'lmish A. Pigu va K. Viksell ham iqtisodni davlat tomonidan boshqarish zarurligini ilmiy asoslab berdilar. Ushbu nazariyaning asoschilaridan biri G. Xaberler o'zining «Ravnaq va turg'unlik» nomli kitobida davriylik nazariyasini tahlil qilib berdi, inqirozni kapitalning haddan tashqari jamg'arilishi bilan yoki yetarlicha iste'mol qilinmaslik bilan izohladi va davriylik tebranishlari amplitudasini kamaytirish maqsadida bu ikki kulfatdan qanday qutulish choralar to'g'risida o'z fikrlarini bayon qildi. J.M.Klark tomonidan multiplikator va akselerator mexanizmi ishlashining tadqiq qilinishi ham iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish nazariyasini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etdi. Uning tadqiqotlari Keyns tadqiqotlari bilan bir vaqtda o'tkazilgan edi. Ammo Keyns nazariyasi uning o'tmishdoshlari va zamondoshlari nazariyalaridan shu bilan farq qiladiki, u ishsizlik va ortiqcha ishlab chiqarish inqirozlarini tasodifyi, o'z-o'zidan yuzaga keladigan hodisalar emas, balki kapitalistik bozor mexanizmi harakati tufayli ro'y beradigan hodisalar ekanligini isbotlagani holda, birinchi marta iqtisodiyotni davlat hokimiyati tomonidan doimiy, muntazam ravishda tartibga solib turish zarurligini e'lon qildi. Keyns nazariyasining asosiy xususiyati shundan iboratki, u iqtisodchilardan birinchi bo'lib, makroiqtisodiy davlat tartiblashi foydasiga asosiy dalillarni bayon qilib berdi, bunda u o'zigacha hukmron bo'lgan tartiblashning mikroiqtisodiy yondashuvini rad etdi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartiblashning keynscha nazariyasi uch asosiy holatni o'z ichiga oladi: birinchidan, unda o'z-o'zidan harakatga keladigan bozor mexanizmiga baho beriladi; ikkinchidan, iqtisodiyotning boshboshoqlik asosida rivojlanishi jarayonida paydo bo'ladigan qiyinchilik va ziddiyatlarning sabablari talqin qilinadi; uchinchidan, kamchiliklarni bartaraf qilish maqsadida iqtisodiyotni tartiblash tadbirlari tizimi belgilanadi.

Keyns o'zining dastlabki tadqiqotlarida Sey qonunini inkor etgan holda samarali talab¹ nazariyasini asoslab berdi. Keynsgacha bo'lgan

¹Пезенти А. Очерки политической экономии капитализма. В 2 т.: Пер. с итальянского. Т. 2. -М.: "Прогресс", 1976. -С.615-616.

davrda klassiklar tomonidan Sey qonuni qabul qilingan bo'lib, unga muvofiq taklif o'z talabini yuzaga keltirar edi. Keyns esa, aksincha, jami talab o'z taklifini yuzaga keltirishi g'oyasini ilgari surdi.

Samarali talab nazariyasiga muvofiq mahsulot (yoki mehnat) muayyan miqdori taklifning bahosi deb daromadning shunday miqdoriga aytilganki, bu miqdor tadbirkorlarning ushbu mahsulot (yoki mehnat)ni taklif qilishga bo'lgan rag'bat uchun yetarlidir. Jami talab bahosi va mahsulot (yoki mehnat) hajmi o'rtasidagi nisbat jami talab funksiyasi deb ataladi. Bu yerda shuni ayrib o'tish lozimki, tadbirkorlar daromadni faqat muayyan miqdordagi mahsulotni sotganlaridan so'nggina olishlari mumkin. Kutilayotgan daromad va mahsulot (yoki mehnat) hajmi o'rtasidagi nisbat jami talab funksiyasi deb ataladi. Agar ishlab chiqarilgan mahsulotning muayyan hajmida ko'zda tutilgan daromad jami taklif bahosidan oshsa, unda tadbirkorlar yanada yuqori foyda olish maqsadida mahsulot hajmini (va bandlikni) oshiradilar va agar kutilayotgan daromad taklif bahosidan past bo'lsa, u holda tadbirkorlar mahsulot hajmini (va bandlikni) kamaytiradilar. Faqat ko'zda kutilayotgan daromad va taklif bahosi o'rtasida tenglik bajarilgan sharoitdagina optimal holatda bo'ladilar, shuning uchun ular mahsulot ishlab chiqarishni ushbu darajada ushlab turishga intiladilar. Demak, tadbirkorlar uchun qulay bo'lган ishlab chiqarish darajasi jami talab funksiyasi bilan jami taklif funksiyasi kesishgan nuqta bilan belgilanadi, ushbu nuqtadagi jami talab funksiyasining qiymati samarali talab deb ataladi. Jami talab esa daromad darajasini belgilab beradi:

U Keyns nazariyasida quyidagi tenglama bilan ifodalangan:

$$Y = C + I$$

bu yerda: Y - milliy daromad;

C - iste'mol;

I - jami investitsiyalar.

Keyns tomonidan kashf qilingan asosiy psixologik qonun uning iste'mol funksiyasini tadqiq qilinishida yo'naltiruvchi omil bo'lib xizmat qildi. "Asosiy psixologik qonun shundan iboratki, - deb yozgan

edi. J. Keyns, - kishilar, odatda, daromadlari ortishi bilan o'z iste'molini ko'paytirishga moyildirlar, lekin bunda iste'mol daromad ortgan darajada oshmaydi”¹.

Bu hol shuni bildiradiki, agar daromad o'zgarsa, unda iste'mol ham ana shu yo'nalishda o'zgaradi, lekin iste'mol o'zgarishi daromad o'zgarishidan kichik. Keyns iste'mol o'zgarishi va uni o'zgartirgan daromad o'zgarishi o'rtasidagi nisbatni iste'molga bo'lgan chekli moyillik deb atadi va uni quyidagi formula bilan ifodaladi:

$$MPC = \frac{C}{Y} \quad \text{yoki} \quad MPC = \frac{dC}{dY}$$

Iste'mol va umumiylar daromad o'rtasidagi nisbatni esa u iste'molga bo'lgan o'rtacha moyillik deb atadi:

$$APC = \frac{C}{Y} .$$

Keyns tomonidan ochilgan asosiy psixologik qonunga muvofiq iste'molga bo'lgan chekli moyillikning miqdori 0 dan 1 gacha bo'lgan oraliqda yotadi:

$$0 < \frac{\Delta C}{\Delta Y} < 1.$$

Keyns o'z konsepsiyasini asoslash uchun “iste'molga bo'lgan moyillik” tushunchasi bilan bir qatorda “jamg'arishga bo'lgan moyillik” tushunchasini kiritdi. Jamg'arishga bo'lgan moyillik - bu jamg'arma (S) miqdori o'zgarishi bilan uni o'zgartirgan daromad o'zgarishi o'rtasidagi nisbatdir:

$$MPC = \frac{\Delta S}{\Delta Y} .$$

Jamg'arishga bo'lgan o'rtacha moyillik esa jamg'arishning umumiylar daromadga bo'lgan nisbati bilan ifodalanadi:

$$APS = \frac{S}{Y} .$$

Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, agar umumiylar daromad oshsa, u holda kishilar ushbu orttirilgan daromadning bir qismini iste'molga, ikkinchi qismini esa jamg'arishga yo'naltiradilar. Shuning uchun

¹Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. Пер. с англ. -М.: «Иностранная литература», 1948. 90-лет

iste'mol va jamg'arma o'zgarishlari yig'indisi, albatta, daromad o'zgarishiga teng bo'lishi lozim, ya'ni

$$\Delta C + \Delta S = Y$$

Demak,

$$\frac{\Delta C}{\Delta Y} + \frac{\Delta S}{\Delta Y} = 1.$$

Jamg'arishga bo'lgan chekli moyillikka iste'molga bo'lgan chekli moyillik nisbati uni birgacha to'ldiruvchi kattalik ekanligi yuqoridagi formuladan ko'rinish turibdi.

Qisqa muddatli makroiqtisodiy modellarda iste'mol va daromad o'rtasidagi nisbat chiziqli hisoblanadi va u quyidagicha ifodalanadi:

$$S = A + S \times Y,$$

bu yerda:

A - jamiyat daromadi darajasi 0 ga teng bo'lgan vaziyatda iste'mol darajasi (musbat kattalik);

U - avtonom iste'mol deb ham ataladi, chunki u daromadga bog'liq emas;

S - iste'molga bo'lgan chekli moyillik.

Keynscha nazariyaning daromad va bandlik darajasini belgilovchi asosiy tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$U = S(Y) + 1.$$

Agar iste'mol funksiyasi chiziqli funksiya ekanligini nazarda tutadigan bo'lsak, u holda yuqorida keltirilgan asosiy tenglama mana shunday ko'rinishda ifodalanadi:

$$Y = A + S \times Y + 1.$$

Demak, sarmoyalalar hajmi va iste'mol funksiyasi ko'rinishi daromad va bandlik darajasini belgilovchi omillar ekan. Investitsiyalar hajmning o'zgarishi milliy daromadning ham ana shu yo'nalishda o'zgarishiga olib keladi.

Keyns nazariyasiga ko'ra, multiplikator jamg'arishga bo'lgan chekli moyillikka teskari kattalikdir yoki 1 soni bilan iste'molga bo'lgan chekli moyillik o'rtasidagi farqqa teskari kattalikdir, ya'ni:

$$M = \frac{1}{MPS} \text{ yoki } M = \frac{1}{1 - MPC}$$

Multiplikativ effekt har bir qo'shimcha mablag' tovarlarga bo'lgan talabning ortishiga, u ham, ravshanki, (ishlab chiqarish omillaridan to'la foydalanimayotgan sharoitda) o'ziga teng ravishda daromad ortishiga olib kelishini ko'rsatadi. Ammo daromadning ortishi, o'z navbatida, daromadi oshgan kishilar tomonidan iste'molning kengayishiga olib keladi:

$$MPC = \frac{\Delta C}{\Delta Y} \Delta S = MPC \times \Delta Y$$

Agar $\Delta Y = 50$, $MPC = 0,5$, $\Delta = 50$ bo'lsa, u holda $\Delta C = 25$.

Bu yerda agar iste'mol ortsas, u holda jami talab ham va demak, daromad ham ortishini ta'kidlab o'tish joiz.

Inqirozlarni bartaraf etish uchun Keyns "samarali talab" ni shakllantirish, ya'ni kapital mablag'larini va iste'molni eng ko'p darajada rag'batlantirish zarur ekanligini taklif qildi. Uning fikriga ko'ra, sarmoyalari orttirish bandlikning o'sishiga va daromadning ortishiga olib keladi. Daromad ortishi jamg'armalar shaklida emas, balki investitsiya sifatida sarflanishi uchun buyuk iqtisodchi olim qarz foizi me'yorini pasaytirishni taklif qildi. U davlat aralashuvini "samarali talab" ga, va, demak, to'la bandlikka erishish vositasi, deb bildi. "Davlat, -deb yozgan edi J.Keyns, - iste'molga bo'lgan moyillikka nisbatan o'zining rahbarlik ta'sirini qisman mos tizim yo'li bilan, qisman foiz me'yorini belgilash bilan va qisman, ehtimol, yana boshqa usullar bilan ro'yobga chiqarishi lozim bo'ladi"¹⁷.

U past foiz me'yori orqali yuqori foya olishni ta'minlaydi, tadbirdorlarda optimistik kayfiyatni kuchaytiradi, ularning sarmoya solishga bo'lgan moyilligini qo'llab-quvvatlaydi va yuksalish holatini ushlab turadi, deb hisobiadi.

Keyns davlat budjeti orqali budjet kamomadi paydo bo'lishidan hayiqmagan holda katta xarajatlar qilish taklifi bilan chiqdi. Bunda u budjet kamomadi qog'oz pullarni qo'shimcha muomalaga chiqarish yo'li

¹⁷Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. Пер. с англ. -М.: «Иностранная литература», 1948. С.364.

bilan qoplanishini nazarda tutadi. Uning fikricha, davlat kapital mablag'lari foiz me'yorini pasaytirib, yuksalish holatini uzaytiradi. Bularning barchasi inqirozning oldini olishga xizmat qiladi.

Zamonaviy keynschilar soliqlar, davlat xarajatlari, budget kamomadi, davlat qarzi davlat yo'li bilan boshqarishning asosiy vositalari, deb hisoblaydilar. Ularning ta'kidlashicha, sanoat yuksalishi davrida daromadlar ortgan sari soliq tushumlari ham ko'payib boradi. Bu esa ortiqcha talab va ortiqcha ishlab chiqarishning paydo bo'lishiga to'sqinlik qiladi. Inqirozning boshlanishi ishsizlikning ortib borishi davlat budgetidan ishsizlik bo'yicha nafaqa to'lovlarining ortib borishiga olib keladi. Bu esa to'lovga qobiliyatli talabning kamayishiga qarshilik qiladi. Shuning uchun ular tomonidan moliyaviy kompensatsiya o'mini qoplash siyosati va kamomadli moliyaviy ta'minlash nazariyalari olg'a surilmoqda.

2.3.Iqtisodiyotni tartibga solishda monetar nazariya va siyosatning ahaniyati

Bugungi kunda iqtisodiyotni monetar boshqarishning pul nazariysi, inflyatsiya bilan kurash muammolari 1976 yilgi Nobel mukofoti sovrindori amerikalik Milton Fridman boshliq Chikago maktabi olimlari tomonidan zo'r berib ishlab chiqilmoqda.

Monetar nazariya burjua iqtisodiy nazariyasi shakllanishi paytida paydo bo'ldi. O'sha mahalda "pul neytralligi" konsepsiysi umumiyligi iqtisodiy ortiqcha ishlab chiqarish inqirozi "bo'lmasligini" va demak, kapitalizmning hayotbaxshlilagini isbotlashda asos bo'lib xizmat qilgan edi. XX asrning 20-yillarida boshqarishning monetar usullari ko'pchilik iqtisodchilar tomonidan "abadiy farovonlikka" erishish vositasi sifatida baholandi. Ammo mazkur usul 30-yillar sinoviga bardosh bera olmadi. Hatto ular 1929-1933 yillardagi iqtisodiy inqirozning va undan so'ng uzoq davom etgan tanazzulning asosiy sabablaridan biri bo'ldi. Xuddi mana shuning uchun pul keynscha modelning muhim tarkibiy qismini bo'lsa ham ushibu modelning ko'plab o'ziga xos jihatlari monetar omillar ta'sirini yetarlicha

e'tiborga olmadi. Pul jarayonlarining bunday nazarga ilinmasligi, ularning mumkin bo'lgan ta'sirini mensimaslik iqtisodiy siyosat masalalari bo'yicha tavsiyalarda yorqin namoyon bo'ldi, ushbu tavsiyalar sarmoyalar multiplikatorining sodda sxemasiga asoslangan edi. Biroq kamomadli moliyaviy ta'minlash amaliyoti pul sohasi beqarorligiga va inflyatsiya jarayonlarining kuchayishiga olib keldi. Shuning uchun 50-yillardan boshlab monetar tahlilni faollashtirish zarurati paydo bo'ldi. Ayniqsa, 1971-1973 yillardagi iqtisodiy hamda valyuta inqirozlari inflyatsiya bilan kurashning va iqtisodiyotni boshqarishning monetar usullarini dolzarb qilib quydi.

Ayni 50-yillarning boshlaridan pul nazariyasi keynschilar va M. Fridman boshliq monetarchilar o'rtaсидаги kurash maydoniga aylandi. Monetarchilar pulni xo'jalik tuzilmasining muhim qismi, pul-kredit siyosati esa iqtisodiyotni boshqarishning eng samarali usuli, deb hisoblaydilar. Fridman keynscha konsepsiya mantiqiy muqobil bo'lgan nazariya yaratish maqsadida pulning miqdor nazariyasi asosiy qoidalariiga yangicha ta'rif berdi va asosiy e'tiborni inflyatsiyaga qaratdi. U inflyatsiyani sof pul muammosi sifatida ko'rib chiqdi. Uning fikricha, bu muammoni monetar tadbirlar tizimi yordamida hal qilish mumkin.

Monetar nazariya tahlil sohasi bo'lib, u iqtisodiy muvozanat va o'sishning umumiy muammolari hamda pul va bank mexanizmi ishlashi maxsus masalalari qo'shilgan joyda yotadi. Monetar soha pul agregati ko'rsatkichlari o'rtaсидаги sababiy va funksional bog'liqliklar, shuningdek, ularning xo'jalik tizimi monetar elementlari bilan o'zaro ta'siri muammolari, uning asosiy yo'nalishi bo'lib xizmat qiladi. "Monetar siyosat" tushunchasi deganda esa davlatning pul-kredit sohasida boshqaruvchilik tadbirlari majmui tushuniladi. Shuning uchun keynschilik va monetarizm bahsida asosiy e'tibor pulning ahamiyatiga va pul-kredit sohasidagi siyosatga qaratiladi. Masalan, keynscha yondashuv iqtisodiy kon'yunktura va xo'jalik rivoji sur'atlari rag'batlantirilishini kundalik boshqarish vositasi sifatida puldan tezkor foydalanish g'oyasini o'zida aks ettiradi.

Monetarizm pul sohasida bunday harakatlarni qoralaydi. Monetarizm tarafdarlarining fikriga ko'ra, bunday siyosat xo'jalik ziddiyatlari va mutanosibliklari kuchayishiga hamda bozorning o'z-o'zidan barqarorlashtiruvchilar harakatining qiyinlashuviga olib keladi.

Ayirboshlash tenglamasi yoki Fisher formulasi - monetarizmning asosiy tenglamasıdır:

$$MV = R \times Q$$

bu yerda: M - pul taklifi;

V - daromadlar doiraviy aylanmasida pul muomalasi tezligi;

R - baholar darajasi, aniqrog'i, ishlab chiqarish natural hajmi har bir birligining sotiladigan o'rtacha bahosi;

Q - ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning natural hajmi.

MV - jami ishlab chiqarilgan boyliklarni sotib olishga xaridorlar xarajatlarining umumiy sarfi bo'lsa, RQ esa ushbu boyliklarni sotgan sotuvchilarning umumiy daromadini bildiradi. Agar MV bir yilda ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarga sarflangan umumiy xarajatlar bo'lsa, u holda u nominal SMM (sof milliy mahsulot)ga teng bo'lishi kerak, ya'ni $SMM = R \times Q^1$.

Shuning uchun monetarchilar pul massasi o'sish ta'sir sohasini obligatsiyalar xarid qilish va undan so'ng foiz stavkasini pasaytirish bilan cheklab qo'yish o'rniiga pul taklifining kengayishi ham real, ham moliyaviy aktivlarning barcha turlariga, shuningdek, ishlab chiqarishning joriy hajmiga bo'lgan talabni oshiradi, deb hisoblaydilar. Demak, M ning ortishi yoki R ning, yoki Q ning, yoki bo'lmasa biror nisbatda ham R, ham Q ning ortishiga olib keladi; M ning kamayishi esa teskari natijani beradi.

M. Fridman ushbu qoidani asoslash uchun quyidagi formulani taklif qiladi:

$$\frac{M}{P} = f(rdxr; \frac{1}{P} \times \frac{dP}{Bt} W \frac{V}{P}; U)$$

bu yerda: real kassa qoldiqlariga bo'lgan talab ($\frac{M}{P}$) foiz stavkalari;

¹Макконелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: принципы, проблемы и политика. В. 2-т.: Пер. с англ. 11-го изд. Т. 1-М. Республика, 1992. -С. 321-322.

(rv, re), baholar o'zgarishi sur'atlari ($\frac{1}{P} X \frac{dP}{dt}$) aktivlar summasi (W), real daromad ($\frac{V}{P}$) hamda did va imtiyozlar (U) funksiyasidir.

Fridman nazariyasiga muvofiq, pul qoldiqlari boshqa aktivlar bilan taqqoslanadigan aktiv sifatida ko'rib chiqiladi. Ushbu nazariya oqim sifatida emas, balki zaxiralar tariqasida talqin qilinadi. Pul daromadi - bu oqimdir va uni biror vaqt oralig'ida aniqlash mumkin. Pulning o'zi esa zaxiradir, ya'ni muayyan bir vaqtida mavjud biror miqdordir. Zaxirani orttirish uchun kishilar o'z xarajatlarini kamaytiradilar yoki o'zlarining pul bo'lmagan aktivlarini pulga almashtiradilar. Zaxiralarni qisqartirish uchun esa ular aksincha ish tutadilar,

Fridman pulga bo'lgan turli moliyaviy yangiliklar, moliyaviy aktivlarning daromadliligi Markaziy bank faoliyati ta'siri ostida o'zgarishi mumkin, deb hisoblaydi. Biroq shunga qaramasdan kishilar baribir pul taklifini nazorat qiluvchi sarmoyalarning barqarorligi saqlanib qolgan davrda o'z pul mablag'larini yalpi milliy mahsulot (YaMM)ning biror muayyan ulushi darajasida ushlab turishga harakat qiladilar. Agar pulga bo'lgan talab barqaror miqdor bo'lsa, unda Markaziy bank taklifni barqaror saqlab qolgan holda jami talab ham barqaror bo'ladi. Shunday qilib, bank zaxiralarining o'sish sur'atlarini va pul taklifini boshqarish Markaziy bankning muhim vazifasi bo'lishi lozim.

Bundan davlatning jami talabni boshqarish buyicha ikki siyosati, ya'ni fiskal va kredit-pul siyosatlari kelib chiqadi.

Iqtisodiyotni boshqarishning monetar yondashuviga muvofiq bozor mexanizmi kamchiliklarini to'g'rilash emas, balki uning ishlashi uchun eng yuksak darajada barqaror moliyaviy sharoitlarni ta'minlash muhim vazifa hisoblanadi. Ushbu maqsadda pul birligi xarid kuchi va valyuta kursi barqarorligi ular uchun muhim jihatlardir. Shuning uchun ular fiskal siyosatning resurslarni qayta taqsimlash va barqarorlashtirish vositasi sifatidagi ahamiyatiga kam e'tibor

beradilar. Ularning fikricha, siqib chiqarish effekti sababli fiskal siyosat mutlaqo yaramaydi. Ular quyidagicha fikr yuritadilar: davlat obligatsiyalar sotib, ya'ni pulni aholidan qarzga olib, budget kamomadini hosil qiladilar. Bunda davlat fondlar uchun xususiy biznes bilan raqobatli kurashga kirishadi.

Shu tariqa davlat qarzlarini pulga bo'lgan talabni kengaytiradi, foiz stavkasini oshiradi va demak, ko'p miqdordagi xususiy kapital mablag'larni siqib chiqaradi, aks holda ular foydali bo'lar edi. Demak, monetarchilar fikricha, budget kamomadining jami xarajatlarga bo'lgan ta'siri pirovard natijasini oldindan aytib bo'lmaydi yoki u sezilmaydi. Agar kamomad yangi pullarni muomalaga chiqarish bilan qoplansa, siqib chiqarish effekti sodir bo'lmasligi mumkin va kamomaddan so'ng iqtisodiy faoliyatning kengayishi yuz berishi mumkin. Ammo bunday kengayish faqat qo'shimcha pullar yaratish tufayligina amalgalashadi¹⁸.

Monetarizm nazariyasiga muvofiq iqtisodiy beqarorlik aksariyat hollarda iqtisodiyotning ichki o'zgaruvchanligiga nisbatan noto'g'ri pul-kredit boshqarilishi tufayli yuzaga keladi: birinchidan, o'zgaruvchan vaqt laglari mavjudligi. U shuni bildiradiki, bunda pul-kredit ta'siri bevosita berilsa-da, pul taklifidagi o'zgarishlar nominal SMMga uzoq va noma'lum vaqt oralig'idan so'ng ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun vaqt lagining noma'lum muddatida, monstarchilar fikricha, iqtisodiyotni davriy (siklik) yuksalish va pasayishga moslashtirish uchun diskret pul-kredit siyosatidan foydalanish aksincha samara berishi va davriy (siklik) tebranishlarni kuchaytirishi mumkin. Ikkinchidan, Federal zaxira tizimi foiz stavkasini barqarorlashtirishga urinib, iqtisodiyotni beqarorlashtirish va inflyatsiya jarayonlarining kuchayishiga olib kelishi mumkin¹⁹.

Shuning uchun monetarchilar hukmron pul-kredit muassasalarini foiz stavkasini barqarorlashtirish o'rniiga pul taklifi o'sishi sur'atlarini barqarorlashtirishlari zarur, degan xulosaga keldilar. Bunga bog'liq

¹⁸ Маккониелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: принципы, проблемы и политика. В. 2-т.: Пер. с англ. 11-го изд. Т. 1-М. Республика, 1992. -С. 328.

¹⁹O'sha joyda, 328-329-betlar.

holda M. Fridman monetar qoidalarni² qonun yo‘li bilan belgilash taklifi bilan chiqdi, unga ko‘ra pul taklifi har yili YaMM o‘sishi mumkin bo‘lgan sur’atda oshishi, ya’ni pul taklifi barqaror ravishda yiliga 3-5%ga kengayishi lozim.

Demak, monetarchilar fikriga ko‘ra, pul taklifini berilgan sur’atda doimiy ravishda oshirib borish, xarajatlarni har qanday infliyatsiya yo‘li bilan oshirish mablag‘lar yetishmasligi tufayli o‘z-o‘zidan yo‘qolib ketadi.

2.4. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning neoklassik modeli

Neoklassik yo‘nalishdagi iqtisodchilar, asosan, davlatning jamiyatdagi daromadlarni odilona taqsimlash va allokatsion, ya’ni iqtisodiyotdagi resurslarni samarali joylashtirish maqsadidagi vazifalarini tadqiq qiladilar. Bozor iqtisodiyotini mikroiqtisodiy tahlil qilish neoklassik modelning tadqiqot obyekti hisoblanadi. Bunda iqtisodiyotning alohida iste’molchilar va firmalarning o‘zaro aloqadorlikdagi faoliyatining aniq holati o‘rganiladi.

Neoklassiklar rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega bo‘lgan mamlakatlarda davlat mulkini uning tasarrufidan chiqarish, uning iqtisodiyotni tartibga solishini cheklashni talab qiladilar. Ammo ular umuman iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solinishini butunlay inkor etmaydilar. Ularning fikricha, bozorning baho mexanizmi, regulyatori ko‘p hollarda resurslarning optimal, samarali ishlatalishini ta’minlaydi. Ammo ba’zi holatlarda bozor ulardan samarali foydalanishga erishishni ta’minlay olmaydi. Xuddi ana shunday holatlarda davlat allokatsiya (taqsimlash)ni yaxshilab, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishni ta’minlashda ijobiy rol o‘ynashi mumkin ekan.

Ushbu neoklassik modelning asosini ratsional kutish nazariyasi tashkil qiladi. Unga ko‘ra kishilar o‘zlarini ratsional tarzda tutadilar.

² O’sha joyda, 327-bet.

Ular o'zlarining pulli manfaatlariga muvofiq keladigan narsalar bilan bog'liq kutishlarining shakllanishidagi axborotlarni yig'adilar va ularni o'rganadilar. Ushbu axborotlarga muvofiq ravishda o'z hayotlarini yaxshilashga qaratilgan qarorlar qabul qiladilar. Kutish bozor talabining kengayishiga (yoki qisqarishiga) olib keladi. Bu o'zgarishlar, o'z navbatida, tovarlar va xizmatlar baholarining ular hali ishlab chiqarilmasdan va sotilmasidan oldin o'sishi (yoki pasayishi)ni belgilab beradi.

Ratsional kutish nazariyasi yangi axborotlarning talab va taklif egri chiziqlarida tezda o'z aksini topishini, shuning uchun ham muvozanat baholari va ishlab chiqarish hajmlarining bozordagi yangi holatlarga, davlat iqtisodiy siyosatidagi o'zgarishlarga tezda moslashuvchan bo'lishini ifodalaydi¹.

Bu o'zgarishlar mohiyati Paretoning samaradorlik kriteriyalari asosida tushuntirilishi mumkin. Unga ko'ra jamiyat biron-bir a'zosining farovonligi boshqasining turmushini yomonlashuvi hisobiga yaxshilanishi mumkin bo'lmaydigan holatni vujudga keltiradigan resurslarning taqsimlanishi optimal hisoblanadi. Ayrboshlash munosabatlariga erkin kirishish imkoniyati bozorda muvozanat holatiga erishishni ta'minlaydi.

Bu muvozanatda mavjud baho darajasida tovarlarga talab miqdori ularning taklifi miqdoriga tenglashadi. Bu shunday holatki, bironta ham subyekt yangi ayrboshlash operatsiyalari natijasida bir-birlari hisobiga yutuqqa erisha olmaydi. Bunda resurslarning taqsimlanishi optimal bo'ladi, chunki iqtisodiyotda muvozanatlashuv sodir bo'ladi. Demak, mukammal bozor resurslarning samarali alokatsiyani (taqsimlanishini) yaxshi ta'minlay olmaydi. Xuddi shu hol neoklassiklar nazarida bozor mexanizmiga davlatning aralashuvi uchun potensial imkoniyatlar yaratadi².

Ushbu oqim tarafдорлари jamoatchilik ne'matlarini ishlab chiqarishni tashkil etishni davlatning eng muhim iqtisodiy vazifasi

¹ Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономике. Принципы, проблемы и политика. С. 331.

² Ширяева Л., Мамедова Н. Неоклассическая модель государственного регулирования рыночных отношений. – Российский экономический журнал. – 1992. -№4. С 100-101.

deb qaraydilar. Bu ne'matlarga milliy mudofaa, jamoatchilik tartibotini saqlash, atrof-muhitni nazorat qilish, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqalar uchun zarur bo'lgan tovar va xizmatlar kiradi. Bunday ne'matlarni ishlab chiqarish davlat korxonalarida to'planishi yoki ularni iste'mol qiluvchilardan soliq olish orqali to'plangan mablag'larni xususiy korxonalarga buyurtma berishga, ularni ishlab chiqarishni subsidiyalashtirishga yo'naltirilishi mumkin.

Iqtisodiyotda bozor munosabatlariga bog'liq bo'limgan, undan tashqarida bo'lgan atrof-muhitning yomonlashuvi bilan bog'liq munosabatlar ham neoklassiklar nuqtai nazariga ko'ra davlat tomonidan tartibga solinishi lozim.

Neoklassik yo'nalish tarafдорлари kapitalning erkin oqib turishi uchun ham to'siqlarni bartaraf etish maqsadida davlatning tartiblash mexanizmi zarur ekanligini ta'kidlaydilar. Ularning nuqtai nazarlariga ko'ra davlat kichik biznes, fermer xo'jaliklari hamda qo'shma korxonalarni rivojlantirish uchun qulay sharoitlarni yaratish; yangi tashkil topgan firmalarga imtiyozli kreditlar, subsidiyalar berish, imtiyozli soliq solish, litsenziya, patentlar, iqtisodiy faoliyatning ma'lum turi bilan shug'ullanish uchun mutlaq huquqlar berish; iqtisodiy yakkahokimlikka qarshi kurash mexanizmlari orqali davlat kapitalining erkin harakat qilishi uchun to'siqlarni bartaraf qilib iqtisodiyotda raqobat mexanizmining yaratilishini tartibga soladi.

Demak, neoklassiklar davlatning iqtisodiyotga aralashuvini cheklash tarafдорлари bo'lishlariga qaramasdan, uning ma'lum, yuqorida bayon etilgan doirada iqtisodiyotni tartiblash borasidagi faoliyatini asoslab beradilar.

2.5.Davlatning iqtisodiy siyosati to'g'risidagi nazariya va konsepsiylar

Davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish uning iqtisodiy strategiyasi va siyosati orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun ilmiy adabiyotlarda davlatning iqtisodiy siyosati bo'yicha turli nazariy konsepsiya va qarashlar hamda nazariyalar mavjud.

V.Oyken davlatning iqtisodiy siyosatini asoslash uchun iqtisodiy tartiblar nazariyasini olg'a suradi. Iqtisodiy tartib deganda bozor xo'jaligining ramkaga (qolipga) soluvchi sharoitlari, ya'ni xo'jalik sub'ektlari qarorlar qabul qilish va u yoki bu xatti-harakatlarni amalgaloshirish zarurligini belgilab beruvchi unsurlar tarkibini ifodalovchi institutsiyalar yig'indisi tushuniladi. V.Oyken quyidagi 6ta turdag'i unsurlar tarkibini asoslagan: 1) insonlarning ehtiyojlari; 2)tabiiy sharoitlar; 3) ishchi kuchining holati; 4) tovar zahiralari; 5)texnologiya va texnik bilimlar darajasi; 6) huquqiy va ijtimoiy tartiblar, ya'ni qonunlar, urf-odatlar, ma'naviy qadriyatlar.

Mazkur unsurlar xo'jalik sub'ektlari faoliyatining ma'lum iqtisodiy tartibda amalgaloshirishini belgilab beruvchi unsurlar hisoblanadi. Iqtisodiy tartib davlatning iqtisodiy rivojlanishni qay daraja tartibga solishini, resurslarning cheklanganligi sharoitida davlat organlari qay darajada reguliyator vazifasini bajara olishini ko'rsatadi. Iqtisodiy tartiblar davlat iqtisodiy siyosatining dastaklari bo'lib xizmat qiladi.

V.Oyken iqtisodiy siyosatlarning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatgan:

1) faoliyatlar erkinligi;

2)iqtisodiyotni rejali-markazlashtirilgan boshqarish. Bu yerda asosiy muammo hokimiyat masalasi bo'lib, rahbarlar toifasi nazorat qilinmaydigan guruhdan tashkil topadi va ular o'zlarining tor manfaatlарини ro'yobga chiqarish intiladilar, jamoat manfaatlari amalda ko'zlanmaydi;

3)o'rta yo'l siyosati-bu siyosat bozor bilan rejali xo'jaligi o'rtasidagi kompromissni topishga yo'naltirilgan, davlatning bozor iqtisodiyotiga u yoki bu darajadagi aralashuvini taqoza etuvchi siyosat. Bu siyosat taqsimlash, to'liq bandlik, konyunkturali tartibga solish maqsadida davlatning iqtisodiyotga aralashishini ifodalaydi;

4)raqobatli tartib siyosati-raqobatning yuqori darajada rivojlanishini ta'minlash maqsadida davlat tomonidan ramkali sharoitlarni yaratishga qaratilgan tartiblarning o'rnatilishini ifodalaydi. Bu iqtisodiy siyosatdan ko'zlangan maqsad iqtisodiy hokimiyatning ayrim sub'ektlar qo'lida

(to'planishini) konsentratsiyalashuvini va ekologik zararga olib keluvchi bozorlarni cheklash yoki unga yo'l qo'ymaslik hisoblanadi;

5)aniq nuqtali siyosat- bu siyosat ayrim muammolarni hal etishga, aniq sohalarni himoya qilishga yo'naltirilgan siyosiy-huquqiy hattiharakatlarni o'z ichiga oladi.

Yan Tinbergenning konsepsiysi iqtisodiy siyosatning bazaviy nazariyasi hisoblanadi. Ushbu nazariyaga muvofiq iqtisodiy siyosat o'z ichiga asosiy farovonlik maqsadlarini (ya'ni asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar to'plami); hukumatni iqtisodiyotni tartibga solish dastaklari; maqsad va dastaklarni bir-biriga bog'lovchi hamda siyosiy harakatlarning oqilona miqiyosini belgilab beruvchi modelni oladi. Iqtisodiy siyosat dastaklari quyidagilardan tashkil topadi:

- 1) Fiskal (budget-soliq);
- 2) Monetar (pul-kredit);
- 3) Tashqi(valyuta kurslarini tartibga solish);
- 4) Daromadlarni tartibga soluvchi dastaklar.

R.Lukas Yan Tinbergenning yondashuvini haddan tashqari oddiy, tayanch iqtisodiy ko'rsatkichlari modelni tuzish uchun ishonchli emas, chunki ularning o'zi siyosiy manipulyatsiya (o'zgartirishlar) oqibatlari deb hisoblagan²⁰. Uning fikricha iqtisodiy siyosatning tub maqsadi bo'lgan ijtimoiy yo'qotishlarni minimallashtirish davlatning bu boradagi harakatlarining muttasilligi va davomiyligi asosidagina erishiladi. Oqilona siyosatni tanlash va amalga oshirishda elektoratning ishonchini qozonish muhim ahamiyatga egadir. J.Byukenenning fikricha iqtisodiy siyosatning vazifasi xo'jalik subyektlaridan olingan mandat, ya'ni hattiharakatlar qoidalarini va faoliyatning ruxsat etilgan ramka (miqyos)ni aniqlashdan iboratdir. Siyosat-bu davlat bilan sub'ektlar o'rtasidagi munosabatlar sohasidir. Ijtimoiy taraqqiyotning boshlang'ich va pirovard bo'g'ini individium, ya'ni shaxs bo'lib, iqtisodiy odamni shaxsiy manfaat (egoizm) faoliyatga undaydi. Iqtisodiy individiumning harakatini chekli naflilikka intilish hissi boshqaradi. Bu maqsadga inson

²⁰ Руденко И.А. Экономическая политика: учебное пособие.-Минск. 2010.-С.9.

o‘z daromadi doirasidagina erishadi. Iqtisodiy inson barcha hayotiy maqsadlariga erishishni ko‘zlaganda ratsional harakat qiladi. Har bir shaxs siyosiy tizimni o‘zining shaxsiy maqsadlarini, manfaatlarini jamoaviy himoya qilish deb qaraydi. Davlat siyosatida jamoaviy hatti-harakatga xos bo‘lgan majburlash, zo‘rlik, hukmronlik elementlari mavjud bo‘ladi. Shaxs mazkur majburlash va zo‘rlikka o‘zining shaxsiy maqsadlariga erishishga yordam bergan taqdirdagina ko‘nadi. Ammo davlatni hamisha jamiyat manfaatlarini ko‘zlab, bozor xo‘jaligining kamchiliklarini avtomatik tarzda tuzatadigan mexanizm deb ham qarash mumkin emas.

Kennet J. Errou iste’molchilarining individual tanlovini ratsional (oqilona) deb hisoblash bilan bir qatorda jamiyat ustuvorliklarini, aniqlay olmaslik, ya’ni jamiyat o‘zi niimani hohlashi bo‘yicha jamoaviy qarashni shakllantira olmaslik dilemmasi mavjudligini asoslagan. Jamoaviy tanlov alternativlar, ya’ni muqobilliklar mavjud bo‘lishini, ya’ni yuzaga keladigan holatlarga nisbatan mustaqillik, yakka hukmronlikning bo‘lmasligi, narxlardan foydalanishni taqoza etadi. Shuningdek, ovoz berish yo‘li bilan qaror qabul qilish jiddiy kamchiliklarga ega:

Birinchidan, ovoz berish yo‘li bilan tanlovda kamchilikning fikri e’tiborga olinmaydi;

Ikkinchidan, jamoaviy kelishuvga erishishda, komprmisli qarorlarni qabul qilishda ko‘pchilik ovoz prinsipiqa asoslanish qiyin bo‘ladi. Bunday holatdan chiqish pirovard qarorni faqat bирgina shaxs qabul qilgan taqdirdagina mumkin bo‘ladi;

Uchinchidan, iqtisodchilar qaror qabul qilish chog‘ida barqaror ustuvorliklarga (qadriyatlarning an‘anaviy tizimiga) tayanadilar, ammo ist’molchilarda bunday yondashuv o‘zgaruvchan siyosiy simpatiyalariga mos kelmaydi.

Iqtisodchi olimlardan U.Nordxauz, E. Taft, D.Gibbs, P.Mosk, A.Alezelar “Siyosiy ishbilarmonlik sikli” uazariysiui ilgari suradilar. Siyosiy siklning barcha modellari quyidagilar asosiga qurilgandir:

1)Hukumat saylovlarda g'olib chiqish uchun maksimal ovoz olishga intiladilar;

2)Saylovchilar nisbatan iqtisodiy natijalarni afzal ko'radilar, bu ularning bergen ovozlari miqdorida o'z ifodasini topadi;

3)Hukumat qayta saylanishga intilib, iqtisodiyot bilan manipulyatsiya qilishlari (ya'ni iqtisodiy o'zgartirishlar to'g'risida va'dalar berishlari) mumkin

Ushbulardan kelib chiqqan holda U.Nordxauzning "Opportunistik ishbilarmonlik sikli" nazariyasiga ko'ra hukumat qabul qilingan qarorlar bilan ularning oqibatlari o'rtasidagi ma'lum vaqt oralig'inining mavjudligidan foydalanib, qisqa muddatli naf olish maqsadida uzoq muddatdan keyin ma'lum bo'ladigan oqibatdan ko'z yumadi. U.Nordxauzning nazariyasi ishsizlik va inflyatsiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ifodalovchi Filips egri chizig'ini tahlil qilishga asoslanadi. Unga ko'ra saylov oldidan siyosatchi saylovchilarning ko'proq ovozini olish maqsadida ishsizlikni pasaytirishga intiladi. Natijada ishsizlik ma'lum darajada qisqaradi. Inflyatsiyaning o'sishi ishsizlikning pasayishiga ko'ra sekinroq yuz berishi tufayli saylov davrida ishsizlik va inflyatsiya darajalari birmuncha past bo'lib turadi. Bundan foydalangan siyosatchi saylovda elektoratning ko'proq ovozini olishga erishib g'olib bo'ladi. Ammo ma'lum vaqt dan so'ng ishsizlikning optimaldarajaga nisbatan qisqarib ketganligi oqibatida inflyatsiya darajasi oshib ketadi. Saylovdan keyin siyosatchi ishsizlik darajasini oshirish evaziga inflyatsiya darajasini pasaytirish chora-tadbirlarini amalgalash oshirishga kirishadi.

Duglas Gibbsning "Partiyaviy ishbilarmonlik sikli" modeli hukimron partiyalarning saylovlar natijasida almashinib turishini tushuntiradi. Raqobatchi partiyalar turli maqsadlarga ega bo'lib. Turli iqtisodiy siyosat chora-tadbirlarini qo'llashadi, shu boisdan, bir-birini almashtirib, iqtisodiyotdasikllar o'zgarishini vujudga keltiradilar. Uning fikricha, so'l yo'naliшhdagi partiyalar yuqori darajadagi ish bilan bandlikka erishish maqsadini ko'zlaydilar, shu boisdan, so'l partiyalar hukimron bo'lgan mamlakatlarda ishsizlik past, lekin inflyatsiya yuqori darajada bo'ladi.

Chunki ishchilar sinfi inflyatsiyaga qaraganda ishsizlikdan ko'proq aziyat chekadilar. Shuning uchun ishsizlikni qisqartirishga ko'proq ustuvorlik beriladi.

Asosiy tushuncha va atamalar

Klassik siyosiy iqtisod, iqtisodiy liberalizm, merkantilizm, fiziokratlar, iqtisodiy inqiroz, keyschilik, neokonservatorlar, monetarizm, ishbilarmonlik sikli, ijtimoiy tanlov, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning o'rni haqida merkantilistlar qarashlarini izohlab bering?
2. Iqtisodiy rivojlanishda davlatni roli haqida fiziokrat maktabi namoyondalarining qarashlarini tavsiflab bering?
3. Iqtisodiy rivojlanishni tartibga solishda davlatning o'rni haqida klassik siyosiy iqtisod konsepsiysi mazmunini yoriting?
4. Iqtisodiy rivojlanishda davlatning roli haqida ratsional kutish maktabi namoyondalarining fikrlarini aytib bering?
5. 1929-1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi davlatning iqtisodiyotdagi roli to'g'risidagi tassavvurlarga qanday ta'sir etdi?
6. Iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning roli haqidagi qarashlarda Keysn inqilobini tavsiflab bering?
7. Keynsning samarali talab konsepsiyasining mazmuni nimadan iborat?
8. Multifikativ effekt nima?
9. Iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning o'rni haqida Monetar nazariyani tushuntirib bering?
10. Monetar nazariya va monetar siyosatning mazmunini va asosiy qoidalari ni izohlab bering.
11. M.Fridman taklif etgan asosiy formula asosida qanday xulosalar qilingan?
12. Neoklassik yo'nalishning iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solinishi usullari nimalardan iborat?

3-BOB. O'ZBEKISTONDA IQTISODIY ISLOHOTLAR VA IQTISODIYOTNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH MEXANIZMINING ShAKLLANISHI.

3.1. O'zbekistonda iqtisodiyotni isloh qilish strategiyasining yaratilishi

O'zbekistonda mustaqillik e'lon qilingandan so'ng ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyoti, ochiq tashqi siyosatga ega kuchli demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatni barpo etish maqsadida keng qamrovli islohotlar amalga oshirila boshlandi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning asar hamda ma'ruzalarida O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li, iqtisodiyotni erkinlashtirish hamda modernizatsiyalashning nazariy asoslari ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq demokratik davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish maqsadida mashaqqatli taraqqiyot yo'li bosib o'tdi. Mustaqil taraqqiyot yo'li va galdeg'i vazifalarning mazmun-mohiyati, ahamiyati nuqtai nazaridan bu yo'lni ikki bosqichga bo'lish lozimligini asoslab berilgan edi.

Dastlabki bosqich 1991-2000-yillar o'tish davri va milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish bilan bog'liq birinchi galdeg'i islohot va o'zgarishlarni o'z ichiga oladi.

2001 yildan to hozirgacha bo'lgan muddatni o'z ichiga olgan ikkinchi bosqich faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davri bo'lib, iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish, siyosiy hayotimizni, qonunchilik, sud-huquq tizimi va ijtimoiy-gumanitar sohalarni izchil isloh qilishni ta'minlashda muhim rol o'yndi²¹.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini isloh qilish va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish asosida uni chuqur tanazzuldan chiqarib, barqaror rivojlantirishga, aholi turmush farovonligiga

²¹Каримов И.А. Узбекистонинг 16 йилинк мустакил таррафидуст нули. - Т.: Узбекистон, 2007, 4-5-бетлар.

erishishga qaratilgan tub o'zgartirishlar siyosatining strategik maqsadlari I.A.Karimovning "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida" nomli asarida quyidagicha izohlab berildi:

1. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich shakllantirish, qudratli va tiniinsiz rivojlanib boradigan, kishilar hayoti va faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydigan iqtisodiy tizimni barpo etish.

2. Ko'p ukladli iqtisodiyotni yaratish, insonning mulkdan malirum bo'lishiga barham berish, tashabbuskorlik va uddaburonlikni butun choralar bilan rivojlantrish negizi bo'lgan xususiy mulkning davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlash.

3. Korxonalar va fuqarolarga keng iqtisodiy erkinliklar berish, ularning xo'jalik faoliyatiga davlatning bevosita aralashuvidan voz kechish, iqtisodiyotni boshqarishning ma'muriy-buyruqbozlik usullarini bartaraf etish, iqtisodiy omillar va rag'batlantirish vositalaridan keng foydalanish.

4. Iqtisodiyotda moddiy, tabiiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishi ta'minlaydigan chuqur strukturaviy o'zgarishlar qilish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, jahon iqtisodiy tizimiga q'shilib borish.

5. Kishilarda yangicha iqtisodiy fikrlashni shakllantirish, ularning dunyoqarashini o'zgartirish, har bir kishiga o'z mehnatini sarflash sohasi va shakllarini mustaqil belgilash imkonini berish"²².

O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish yo'li ijtimoiy-yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan. Bu yo'lni amalga oshirishga, iqtisodiyotni tubdan isloh qilishga quyidagi beshta muhim tamoyil asos qilib olingan:

- iqtisodiyotni maskuradan xoli qilish, uning ustuvorligini ta'minlash;
- o'tish davrida davlatning bosh islohotchi bo'lishi;

²²Каримов И.А. Узбекистон иктисодий нелоҳотларини чукурлантириши йўниси. -Т. "Узбекистон", 1995, 18-бет.

- butun yangilanish va taraqqiyot jarayoni qonunlarga asoslanishi, qonunlar ustuvorligining ta'minlanishi;
- bozor munosabatlariga o'tish bilan bir qatorda aholini ijtimoiy himoyalash sohasida kuchli chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich qaror toptirish.

Mamlakatni 1991-2000 yillar davomida isloh qilish va yangilash bosqichida milliy davlatchilikni shakllantirish respublikamizni barqaror rivojlantirishda mustahkam zamin bo'ldi. Tarixan qisqa vaqt ichida sovet davridagi eski ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga barham berildi, milliy davlatchilikni shakllantirishning puxta huquqiy asoslari yaratildi, davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati tarmoqlari tashkil etildi, ijtimoiy va fuqarolik institutlari faoliyatini yo'lga qo'yildi, iqtisodiyotni erkin bozor munosabatlariga o'tkazish jarayoni amalga oshirildi².

Ushbu bosqichda, birinchi navbatda, qishloq xo'jaligi tubdan isloh qilinib, mamlakatimiz iqtisodiyoti va ekologiyasiga katta zarar yetkazgan paxta monopoliyasiga barham berildi. Qishloq xo'jaligi ekinlari tarkibi o'zgartirildi. Mamlakatda g'alla mustaqilligiga erishildi. Buning natijasida O'zbekiston o'zining g'allaga bo'lgan ehtiyojini qoplabgina qolmasdan, qo'shni MDH mamlakatlariga, Afg'oniston, Eron kabi davlatlarga g'allaga va un mahsulotlarini eksport qilmoqda. Mamlakatimizda yangi neft-gaz konlarini aniqlash, bu sohaga investitsiyalarni, shu jumladan, xorijiy sarmoyalarni jalb etish orqali yirik korxonalarining qurilishi va rekonstruksiya qilinishi natijasida neft mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1990 yilga nisbatan 3 barobar ortdi. Respublika energetika mustaqilligiga erishdi.

Ikkinci bosqichda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va isloh etishni yanada chuqurlashtirish, investitsiya faoliyatini kuchaytirish, chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, shuning negizida iqtisodiy o'sishni ta'minlab, bozor munosabatlarini to'liq joriy qilish maqsad qilib qo'yildi. Mazkur bosqichda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar quyidagilardan iborat qilib belgilangan edi:

² Каримов И.А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустакил тараққиёт йўли. –Т: Ўзбекистон, 2007, 29-бет.

- iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish;

- davlat multkini xususiylashtirish sohasida boshlangan ishni oxiriga yetkazish;

- iqtisodiy o'sishni va makroiqtisodiy mutanosiblik hamda barqarorlikni ta'minlash;

- milliy valyuta – so'mni yanada mustahkamlash;

- iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini tubdan o'zgartirish, xomashyo yetkazib berishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tish, mamlakatning eksport salohiyatini rivojlantirish va mustahkamlash.

O'tish davrinining ikkinchi bosqichida aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish, ularga tegishli yordam ko'rsatish borasida birinchi bosqichda tutilgan yo'l davom ettirildi. Mazkur bosqichda erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish nafaqat iqtisodiy, balki ham ijtimoiy, ham siyosiy vazifalarni hal qilishning asosiy sharti etib belgilangan. Bu esa iqtisodiyot sohasida quyidagi vazifalarni amalga oshirishni ko'zda tutdi:

- iqtisodiyotning barcha sohalari va tarmoqlarida erkinlashtirish jarayonini izchillik bilan o'tkazish hamda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish;

- xususiylashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish va shu asosida mulkdorlar sinfini shakllantirish;

- mamlakat iqtisodiyotiga xorij sarmoyasini, avvalo, bevosita yo'naltirilgan sarmoyalarni keng jalb etish uchun qulay huquqiy shartsharoit, kafolat va iqtisodiy omillarni yanada kuchaytirish;

- iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni ta'minlash;

- yurtimizda transport kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish;

- soliq yukini kamaytirish, faol investitsiya, faol eksport siyosatini yuritish;

- aholi turmush darajasini oshirish, avvalo, qishloq joylarda kishilarining turmush sharoitini izchil yaxshilash;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy taraqqiyotda ustuvor o'rin egallashiga erishish;
- mamlakatning eksport salohiyatini rivojlantirish va mustahkamlash, iqtisodiyotimizning jahon iqtisodiy tizimiga keng ko'lamma integratsiyalashuvini ta'minlash;
- iqtisodiyotda mamlakatimiz iqtisodiy mustaqilligini yanada mustahkamlashga qaratilgan tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish.

Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- mulkiy munosabatlarni isloh qilish;
- agrar islohotlar;
- moliya-kredit va narx-navo islohoti;
- boshqarish tizimini isloh qilish va bozor infratuzilmasini yaratish;
- tashqi iqtisodiy aloqalar islohoti;
- ijtimoiy islohotlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirishning yangi bosqichining asosiy vazifalari belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" farmonida mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar inmilliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning buniyodkorlik

salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilganligi qayd etildi. Islohotlarning o'tgan bosqichlarida iqtisodiyotda ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimidan mutlaqo voz kechilib, bozor islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilgani va pul-kredit siyosati puxta o'ylab olib borilgani makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning yuqori sur'atlar bilan o'sishini, infliyatsiyani prognoz ko'rsatkichlari darajasida saqlab qolishni ta'minladi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratilishiga xizmat qilganlig alohida ta'kidlandi. Shuningdek, Farmonda "ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori kon'yunkturasi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda"-deb ta'kidlandi.

Mazkur farmon bilan tasdiqlangan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"ning maqsadi olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirishdan, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratishdan, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iboratdir. Unda mamlakatimizni rivojlantirishning quyidagi 5 ta ustuvor yo'nalishi belgilangan:

1. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish;
2. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish;
3. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberalallashtirish;
4. Ijtimoiy sohani rivojlantirish;
5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.

"Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish" deb nomlangan uchinchi yo'nalishda ko'rsatilgan chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarish uchun milliy valyuta va narxlarning barqarorligini ta'minlash, valyutani tartibga solishning zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, mahalliy budgetlarning daromad bazasini kengaytirish, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, eksportga mo'ljallangan mahsulot va materiallar ishlab chiqarish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, transport-logistika infratuzilmasini, tadbirdorlikni rivojlantirish hamda xorijiy investorlar uchun investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, soliq ma'murchiligini yaxshilash, bank faoliyatini tartibga solishning zamonaviy prinsiplari va mexanizmlarini joriy etish, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish, shuningdek turizm industriyasini jadal rivojlantirish nazarda tutilgan. Shuningdek, ushbu yo'nalish xususiy mulkni, moliya bozorini himoya qilish, qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash, zargarlik sohasini rivojlantirish, ayrim milliy korxonalarning aksiyalarini (IPO) nufuzli xorijiy fond birjalariga dastlabki tarzda joylashtirishga tayyorgarlik ko'rish chora-tadbirlarini amalgaga oshirishni nazarda tutdi²³.

"Ijtimoiy sohani rivojlantirish" deb nomlangan to'rtinchchi yo'nalish aholi bandligini oshirish, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsiyalash, aholini elektr energiya, gaz bilan ta'minlashni yaxshilash, aholining muhtoj qatlamlariga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi maqomini oshirish, sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish, maktabgacha ta'lim muassasalarining qulayligini ta'minlash, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalgaga oshirishni nazarda tutdi.

²³ "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantishning beshta ustuvor yonalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"/ O'zbekiston Respublikasini Prezidentining 2017-yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini rivojlantishning beshta ustuvor yonalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. PF-4947 son.1 ilova.

Hozirgi davrda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar Yangi O'zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga qaratilgandir. O'zbekiston respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "Yangi O'zbekiston" gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovning savollariga javoblarida, "Ta'kidlash kerakki, Yangi O'zbekistonni barpo etish – bu shunchaki xohish-istik, sub'ektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo'lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy vaziyatning o'zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariaga to'la javob beradigan ob'ektiv zaruratdir. Yangi O'zbekiston – demokratiya, inson huquq va erkinliklari borasida umume'tirof etilgan norma va prinsiplarga qat'iy amal qilgan holda, jahon hamjamiyati bilan do'stona hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanadigan, pirovard maqsadi xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayat yaratib berishdan iborat bo'lgan davlatdir"²⁴, –deb ta'rifladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60 sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyili asosida keyingi besh yillikda mamlakatimizda amalga oshiriladigan islohotlarning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslарini yaratib berishga qaratilgan bo'lib, quyidagi yettita yo'nalishdan iboratdir:

- inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;
- mamlakatimizda **adolat** va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;
- milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash;

²⁴ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевинг "Янги Ўзбекистон" газетаси боси мухаррири Салим Дониёровнинг саволларига жавоблар/ <https://president.uz/uz/lists/view/4547>

- **adolatli ijtimoiy siyosat yuritish**, inson kapitalini rivojlantirish;
- **ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash** va sohani yangi bosqichga olib chiqish;
- milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;
- mamlakatimiz **xavfsizligi** va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.

3.2. Institutsional islohotlar va iqtisodiyotni tartibga solish tizimini shakllantirishning zarurligi va maqsadi

Mustaqillikka erishganimizdan keyin davlatimiz va uning ko'p millatli xalqi manfaatlariga muvofiq keladigan mustaqil ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirish imkoniyati tug'ildi. Bu vaqtida respublikamiz oldida o'ta muhim bo'lgan bir qator vazifalarni hal etish masalasi turardi. Birinchidan, yakkahokimlik tizimidan meros bo'lib qolgan salbiy oqibatlarni bartaraf etish, ikkinchidan, mustaqil, demokratik jamiyatning mustahkam poydevorini yaratish va o'tish davriga xos muammolarni hal qilish.

Avvalambor, asosiy e'tibor yakkahokimlik tizimining illatlarini zudlik bilan tugatish, boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik uslublari va direktiv rejalashtirishning salbiy oqibatlarini tugatish, iqtisodiy va moliyaviy vaziyatni barqarorlashtirishga e'tibor qaratildi.

Respublikada yakkahokimlik, ma'muriy-buyruqbozlik tizimining amal qilishi iqtisodiyotni nochor ahvolga tushirib qo'ydi. Iqtisodiyotda ziddiyatlar kuchayib bordi, amaldagi xo'jalik yuritish mexanizmi esa mazkur ziddiyatlarni bartaraf etishga noqobil edi. Bu holat jamiyat hayotida 60-yillardayoq yaqqol namoyon bo'la boshlagan edi. Iqtisodiyotning rivojlanish sur'ati keskin pasayib, sarf-xarajatlar ortib bordi. Rivojlanishning iqtisodiy vositalari va omillari amalda ishlamadi.

Respublikamiz davlat mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin bu salbiy oqibatlarni tugatish va rivojlanish sari dadil qadam tashlash imkoniyatiga ega bo'lindi. Totalitar tuzundan qolgan "meros"ning

salbiy oqibatlarini bartaraf etish uchun keng qamrovli islohotlarni amalga oshirish lozim deb qaraldi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish iqtisodiy munosabatlarni yangilash, institutsional o'zgarishlarni amalga oshirish va boshqarishning tegishli strukturasini yaratishni talab etadi. Shuning uchun ham respublikamizda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning birinchi bosqichida boshqaruvin tizimini isloh qilish masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

Institutsional o'zgarishlar jarayonida boshqaruvin mexanizmlari takomillashtirilib borildi. Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarini boshqarish borasida esa ularning xususiyatlariga mos keladigan, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga iqtisodiy erkinlik berishga yordamlashadigan, tashabbuskorlik va tadbirdorlikning rivojlanishini rag'batlantiradigan tashkiliy-huquqiy shakllar vujudga keldi.

Tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish jarayonida ishlab chiqarishni markazlashtirilgan tartibda rejalashtirish va tashkil etishdan boshqarishning iqtisodiy mexanizmlariga o'tish masalasiga jiddiy e'tibor qaratildi.

Boshqaruvin sohasidagi o'zgarishlar natijasida ko'plab boshqaruvin organlari bo'g'inlarining vazifasi o'zgardi, ba'zi o'zini oqlamagan boshqaruvin organlari tugatildi va yangi organlar tuzildi.

O'zini oqlamagan Davlat reja qo'mitasi o'rniiga Davlat istiqbolini belgilash va statistika qo'mitasi tuzildi. Mazkur Qo'mita 1997 yildan Makroiqtisodiyot va statistika vazirligiga aylantirildi. Hozirgi davrda bu vazirlilik Iqtisodiyot vazirligi deb ataladi.

Narxlarni erkinlashtirish sharoitida Davlat narx qo'mitasi batanim tugatildi. Yakkahokim bo'lib olgan taqsimot idorasi - Davlat ta'minot qo'mitasi va uning vorisi – "O'zshartnomasavdo" o'rniiga yangi bozor strukturasi – Respublika ulgurji va birja savdosi aksiyadorlik uyushmasi tuzildi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida va bozor munosabatlarni boshqarishda moliya-kredit tizimi muhim o'rinni egallaydi. Islohotlarning birinchi bosqichida, respublika Moliya vazirligi va

Markaziy bankning vazifalari qayta ko'rib chiqildi. Ularning yangi bo'g'inlari tuzildi.

Nazorat organlari faoliyatini tartibga solish uchun Davlat soliq qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasi tuzildi.

Respublikamizda mavjud boshqaruv organlarining nafaqat faoliyati, balki ularning vazifalari ham yangi jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda qayta ko'rib chiqildi hamda o'zgartirildi. Tashkil etilgan yangi ijro organlari tizimi rejalash – taqsimlash vazifalaridan xoli bo'lib, iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish va tartibga solish vazifasini bajarmoqda.

Institutsional o'zgarishlar jarayonida boshqaruv mexanizmlari takomillashtirilib borildi. Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarini boshqarish borasida esa ularning xususiyatlariiga mos keladigan, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga iqtisodiy erkinlik berishga yordamlashadigan, tashabbuskorlik va tadbirkorlikning rivojlanishini rag'batlantiradigan tashkiliy-huquqiy shakllar vujudga keldi.

3.3. O'zbekistondagi ma'muriy islohotlarning asosiy yo'nalishlari

O'zbekistondagi ma'muriy islohotlarning asosiy yo'nalishlari quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

Birinchidan, iqtisodiyotni boshqarishda davlatning rolini keskin cheklash, davlatning boshqaruv tuzilmalari va ularning vazifalarini qisqartirish, davlat boshqaruv organlarini saqlab turishga sarflanayotgan xarajatlarni kamaytirish zarur. Davlat vazifalari va vakolatlarini tobora ko'proq jamoat, nodavlat tashkilotlarga, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga o'tkazish kerak.

Ikkinchidan, boshqaruvni nomarkazlashtirish, ayrim vazifalarni esa hududiy boshqaruv bo'g'inlariga keng ko'larda topshirish, ortiqcha ma'muriy vertikal tuzilmalarni tugatish zarur. Barcha darajadagi hokimliklarning islohotlarni amalga oshirish, joylardagi ishlarning ahvoli, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarini hal etish, bandlik muammolarini yechish hamda aholi turmushini farovonlashtirish borasidagi mas'uliyatini kuchaytirish lozim.

Uchinchidan, bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda, ayrim tarmoq va hududiy boshqaruv tuzilmalarini qayta tuzish, birlashtirish, qisqartirish va tugatish asosida iqtisodiyotni boshqarish tuzilmalarining samaradorligini ta'minlash. Bugungi kunda nafaqat ayrim bo'g'lnarni, balki qilinayotgan sarf-xarajatlarni deyarli oqlamayotgan ayrim idoralarni ham saqlab qolish qay darajada maqsadga muvofiq, degan masalani qayta ko'rib chiqish payti keldi.

To'rtinchidan, boshqaruv tizimining samaradorligini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish. Qarorlarni tayyorlash va qabul qilish sifatini sezilarli darajada oshirish, ularning ijrosi ustidan ta'sirchan nazorat mexanizmini joriy etish zarur.

Vazirlik va xo'jalik birlashmalarining mavjud boshqaruv shakli, usul va metodlarini ma'muriy-buyruqbozlikdan xalos qilish, ularning korxonalar xo'jalik faoliyatiga aralashib, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy mustaqilligini cheklashiga yo'l qo'ymaslik uchun tegishli chora-tadbirlarini amalgaga oshirish lozim.

Beshinchidan, zamонавији ахборот ва kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, keraksiz hisobotlarni va qog'ozbozlikni qisqartirish asosida davlat boshqaruvi tizimini bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish hisobidan uning samaradorligini oshirish.

Ma'muriy islohotlarni amalgaga oshirishda oldimizga qo'yilayotgan eng asosiy vazifa, birinchidan, davlat, jamoat va xo'jalik sub'ektlarini boshqarishning butun tizimini demokratlashtirish va erkinlashtirishni ta'minlash, ikkinchidan esa, ularni mamlakatni isloh va modernizatsiya qilishning hozirgi bosqichi talablariga mos holatga keltirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 sentabr'dagi "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5185-son farmonida mamlakat taraqqiyotining zamонавији bosqichida keng ko'lamli islohotlarning muvaffaqiyatlari amalgaga oshirilishi va 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining maqsadlariga erishish davlat boshqaruvining mutlaqo yangi, samarali va sifatli faoliyat yurituvchi tizimini yaratishni,

davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining (keyingi o'rnlarda ijro etuvchi hokimiyat organlari deb yuritiladi) uyg'un faoliyatini tashkil etishni talab qilishi qayd etilgan.

Farmonda "iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani modernizatsiyalash, hududlarni har tomonlama rivojlantirish, aholining hayot darajasi va farovonligini yuksaltirish bo'yicha davlat siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi qator tizimli muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda, xususan:

birinchidan, ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini tashkil etish asoslari hududlarni rivojlantirish sur'atlarini pasaytiruvchi, joylarda to'planib qolgan muammolarning o'z vaqtida hal etilishini ta'minlamayapti;

ikkinchidan, ayrim ijro etuvchi hokimiyat organlariga yuklatilgan vazifalarining deklarativ xususiyatga egaligi, ularni amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari yetarli emasligi, vazifalarining takrorlanishi va davlat tomonidan ortiqcha tartibga solish holatlarining mavjudligi amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;

uchinchidan, ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilishning amaldagi tizimi qabul qilinayotgan qarorlarning ijrosiga to'sqinlik qiluvchi tizimli muammolarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishni ta'minlamayapti;

to'rtinchidan, ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini baholash mexanizmlari faqat holatlarni qayd etish va statistik ma'lumotlarni joriy to'plashdan iborat bo'lib, bu ko'pchilik hollarda joylardagi ishlarning haqqoniy holatini aks ettirmaydi;

beshinchidan, ijro etuvchi hokimiyat organlari va ular rahbarlari javobgarlik sohasining aniq chegarasi, ayniqsa, joylarda ijro etuvchi hokimiyat organlarining ichki idoraviy va idoralalararo o'zaro hamkorligining ta'sirchan mexanizmlari mavjud emas;

oltinchidan, davlat funksiyalari va vakolatlarining haddan tashqari markazlashganligi hududlarni rivojlantirish dasturlarini shakllantirish va

davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining (keyingi o'rnlarda ijro etuvchi hokimiyat organlari deb yuritiladi) uyg'un faoliyatini tashkil etishni talab qilishi qayd etilgan.

Farmonda "iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani modernizatsiyalash, hududlarni har tomonlama rivojlantirish, aholining hayot darajasi va farovonligini yuksaltirish bo'yicha davlat siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi qator tizimli muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda, xususan:

birinchidan, ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini tashkil etish asoslari hududlarni rivojlantirish sur'atlarini pasaytiruvchi, joylarda to'planib qolgan muammolarning o'z vaqtida hal etilishini ta'minlamayapti;

ikkinchidan, ayrim ijro etuvchi hokimiyat organlariga yuklatilgan vazifalarning deklarativ xususiyatga egaligi, ularni amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari yetarli emasligi, vazifalarning takrorlanishi va davlat tomonidan ortiqcha tartibga solish holatlarining mavjudligi amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;

uchinchidan, ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilishning amaldagi tizimi qabul qilinayotgan qarorlarning ijrosiga to'sqinlik qiluvchi tizimli muammolarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishni ta'minlamayapti;

to'rtinchidan, ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini baholash mexanizmlari faqat holatlarni qayd etish va statistik ma'lumotlarni joriy to'plashdan iborat bo'lib, bu ko'pchilik hollarda joylardagi ishlarning haqqoniy holatini aks ettirmaydi;

beshinchidan, ijro etuvchi hokimiyat organlari va ular rahbarlari javobgarlik sohasining aniq chegarasi, ayniqsa, joylarda ijro etuvchi hokimiyat organlarining ichki idoraviy va idoralararo o'zar hamkorligining ta'sirchan mexanizmlari mavjud emas;

oltinchidan, davlat funksiyalari va vakolatlarining haddan tashqari markazlashganligi hududlarni rivojlantirish dasturlarini shakllantirish va

aholining eng muhim muammolarini hal qilishda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rolining pasayishiga olib kelmoqda;

yettinchidan, boshqaruv jarayoniga ishlarni rejalashtirish va tashkil etishning zamonaviy innovatsion uslublarini, ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish darajasi qabul qilinayotgan qarorlarning samarali amalga oshirilishini ta'minlash va uning jarayonini tezkor kuzatib borish imkonini bermaydi, shuningdek, davlat boshqaruvida ortiqcha byurokratlashadirish va yuqori sarf-xarajatlarga sabab bo'lmoqda;

sakkizinchidan, xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan davlatning tartibga solish va xo'jalik funksiyalari qo'shib olib borilishi, yetarli darajada moslashuvchanlikka va bozorga yo'naltirilganlikka ega bo'limgan eskirgan tarmoq boshqaruv tizimi, individual imtiyoz, preferensiya va afzalliklarning asossiz taqdim etilishi sog'lom raqobat muhitining rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda;

to'qqizinchidan, ijtimoiy va davlat-xususiy sheriklikning rivojlanmaganligi nodavlat notijorat tashkilotlari va tadbirkorlik sub'ektlarining dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishdagi ishtirokini cheklamoqda va oqibatda budget xarajatlarining kamayishini ta'minlamayapti;

o'ninchidan, ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining yetarli darajada ochiq va shaffof emasligi, jamoatchilik nazoratining kuchsiz mexanizmlari haddan tashqari byurokratiya va korrupsiyaning turli ko'rinishlariga olib kelmoqda;

o'n birinchidan, ayrim rahbarlarda lozim darajada mas'uliyat va tashabbuskorlikning mavjud emasligi hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha qo'yilgan vazifalarni va maqsadli ko'rsatmalarni o'z vaqtida hamda sifatli hal etishga salbiy ta'sir qilmoqda"²⁵-deb ta'kidlangan.

²⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5185-sen farmoni// <https://lex.uz/docs/-3331174>.

O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan isloh qilishning 6 ta asosiy ustuvor yo'naliishi belgilab berildi.

Birinchi yo'naliish ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining institutsional va tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga bag'ishlangan.

Ikkinchi yo'naliish ijro etuvchi hokimiyat organlarining vazifalarini, ularni amalga oshirish mexanizmlari va javobgarlik sohasini aniqlashtirish, muvofiqlashtirish va o'zaro hamkorlik jarayonlarini takomillashtirishni nazarda tutadi.

Uchinchi yo'naliishda iqtisodiyot tarmoqlariga ma'muriy ta'sir ko'rsatishni yanada qisqartirish va boshqaruvning bozor mexanizmlarini kengaytirishga qaratilgan.

To'rtinchi yo'naliish vertikal boshqaruvtizimi va ijro etuvchi hokimiyat organlari hamkorligining mexanizmlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan.

Beshinchi yo'naliish davlat boshqaruvi tizimiga strategik rejalashtirishning zamonaviy shakllari, innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etish bo'yicha chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan.

Oltinchi yo'naliishda professional davlat xizmatining samarali tizimini shakllantirish, ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning ta'sirchan mexanizmlarini joriy etishga qaratilgan²⁶.

3.4. Institutsional o'zgartirishlar natijasida vujudga keltirilgan davlat boshqaruvi tizimi va uni takomillashtirish yo'naliishlari

Institutsional o'zgartirishlar natijasida O'zbekistonda vujudga keltirilgan davlat boshqaruvi tizimi quyidagilardan iborat:

§ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi;

²⁶ O'zbekiston Respublikasida ma'muriy islohotlar konsepsiysi // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5185-son surmoni. I-ilova:// <https://lex.uz/docs/-3331174>.

- § O'zbekiston Respublikasi Prezidenti;
- § Vazirlar Mahkamasi;
- § Mahalliy davlat hokimiyati;
- § O'zbekiston Respublikasining sud hokimiyati.

O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan- Qonunchilik palatasi(quyi palata) va Senatdan (yuqori palatadan iborat (vakolat muddati-5yil).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat boshlig'i idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgani holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bosh vazir, uning o'rinosbasarlari, vazirlar, davlat qo'mitalarining raislaridan iborat. Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining boshlig'i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o'z lavozimi bo'yicha kiradi. Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoniyishlari ijrosini ta'minlaydi.

Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlariga taalluqli masalalarni hal etadi. Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tar kibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahalla larda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni(oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi.

O'zbekiston Respublikasida sud tizimi besh yilga saylanadigan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'z.R. Oliy sudi, O'z.R. Oliy xo'jalik sudi, QQ.R. fuqarolik va jinoyat ishlari

bo'yicha oliv sudlari, QQR. xo'jalik sudidan, shu muddatga tayinlanadigan fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari, harbiy va xo'jalik sudlaridan iborat.

O'zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatini shakllantirishda davlatning iqtisodiy sohaga, xo'jalik yurituvchi tuzilmalar, bиринчи navbatda, xususiy sektor faoliyatiga aralashuvini cheklash hamda qonunlar ijrosi bo'yicha davlat hokimiyat organlari ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bilan bog'liq masalalar alohida ustuvor ahamiyat kasb etadi. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish, avvalo, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liq muayyan masalalarni hal qilishda davlat tuzilmalarining rolini kamaytirish va bu vazifa-larni bosqichma-bosqich jamoat tashkilotlariga o'tkaza borishni ko'zda tutadi¹.

Fuqarolik jamiyati qurish yo'lida markaziy va yuqori davlat boshqaruv idoralari o'z vazifalarini davlat hokimiyatining quyi tuzilmalariga va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga o'tkazib boradi. Shu bilan birgalikda, davlat boshqaruv tizimi faoliyatining barcha jabhalarida xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida raqobat muhitini qaror toptirish uchun va barcha barobar teng faoliyat ko'rsatish uchun shart-sharoitlari yaratiladi¹.

Davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish boshqaruv organlarini boshqaruv obyektlariga yaqinlashtiradi, shu bilan uning aholiga yanada sifatliroq xizmat ko'rsatishini ta'minlaydi. Shuningdek, nomarkazlashtirish qaror qabul qilish jarayonini davlatdan mulkni xususiylashtirish, nazorat funksiyalarini qisqartirish orqali xususiy korxonalarga, hududlar va mahalliy hamjamiyatlarga ularning funksiyalarini kengaytirish orqali va kishilarning resurslar va xizmatlar olish, jamiyatni boshqarishda ishti-rok etish imkoniyatlarini kengaytirish orqali xususiy shaxslarga uzatishni bildiradi.

Nomarkazlashtirish quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi.

¹ Узбекистон жамиятини демократлаштириш ва янгилаш мамлакатни модернизация ва ислоҳ ҳизлиш йўлида. – Т., Akademiya, 2005. 77-бет.

¹ Узбекистон жамиятини демократлаштириш ва янгилаш мамлакатни модернизация ва ислоҳ ҳизлиш йўлида. – Т., Akademiya, 2005. 78-бет.

1. Iqtisodiyot sohasida qaror qabul qilish jarayonini davlat-ning iqtisodiyotga aralashuvini kamaytirishni ko'zda tutuvchi davlatdan xususiy tarmoq sari nomarkazlashtirish. Bular:

- keng ko'lamli xususiy lashtirish orqali davlat qo'lida bo'l-gan mulk ulushini kamaytirish;
- davlat organlarining xususiy korxonalar ishiga o'ta kuchli nazorat orqali aralashuvini ularning vakolatlarini tartibga solish yo'li bilan chegaralash;
- "qattiq budjet cheklashlari", boshqaruvchilarni nosiyosiy tayinlash va ularning mahsulotlariga narxni erkinlashtirishni joriy qilish orqali davlat korxonalarini restrukturizatsiya qilishni ko'zda tutadi;

2. Qaror qabul qilish jarayonini davlatdan uy xo'jaligi tarmog'i tomon yo'naltirish. Bu:

- ularning iqtisodiy faoliyatga jalg etilishini tartibga soluvchi qarorlar yoki boshqa to'siqlarni erkinlashtirish;
- kredit, ta'lim olishga imkoniyat yaratish kabilar orqali ularning iqtisodiy rolini mustahkamlash;
- ularga ko'proq mustaqillik berish, sotsializm davridan meros qolgan salbiy munosabatni o'zgartirish, davlatga bog'liqlik tuyg'usini yo'qotish orqali amalga oshiriladi.

3. Ijroiya hokimiyati va soliqqa tortish vakolatlarini mar-kaziy davlat boshqaruvi organlaridan mahalliy boshqaruv organ-lariga tomon nomarkazlashtirish;

4. Ba'zi davlat dasturlarini moliyalashtirish va amalga oshi-rishni markaziy va mahalliy boshqarish organlaridan nodavlat tashkilotlari tomon nomarkazlashtirish;

5. Nazoratni va vazifalarni takror bajarishni kamaytirish, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish va mehnatga rag'batini oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan ma'muriy islohot orqali amalga oshiriladi.

Ushbulardan kelib chiqib, davlat iqtisodiy boshqaruvini nomarkazlashtirish yoki boshqacha aytganda markazsizlashtirish keng ma'noda ma'muriy jihatdan markazlashgan davlatning siyosiy, iqtisodiy,

ijtimoiy vazifa, funksiyalarini xususiy tarmoq, mahalliy boshqaruv va o‘z-o‘zini boshqaruv organlari, nodavlat jamoat tashkilotlariga berishni ko‘zda tutuvchi jarayonlardir.

Hozirgi davrda davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish uchun quyidagi muammolarni hal etish lozim bo‘ladi:

- joylarda mavjud davlat hokimiyyati organlari ikki tomonlama, ya’ni ham viloyat, ham tuman boshqarmalari hokimlik va vazirlikka bo‘ysunishini oqilona tarzda hal etish, bir-birlarining funksiyalarini takrorlash hollariga chek qo‘yishi. Bu muammoni hal etish uchun har bir sohada tegishli vazirliklarning hududiy bo‘linmalari, muassasalari bilan mahalliy hokimliklar o‘rtasida boshqaruv funksiyalarini aniq taqsimlash lozim;

- joylardagi mahalliy davlat boshqaruv organlari, ya’ni viloyat, tuman hokimliklari o‘rtasidagi mas’uliyat, vakolat doirasi aniq belgilanmagan. Ular o‘rtasidagi mas’uliyat va vakolat doiralarini taqsimlab, aniq belgilash lozim;

- hokimlik vakillik organlarining hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga oid masalalarni hal etishdagi roli ko‘zga ko‘rinmaydi. Ular faoliyatining tashkiliy, mablag‘ ta’minoti aniqlanmagan va ular formal jihatdan hokimlik institutiga bog‘liq. Amalda hokimlar qaror qabul qilish, tashkiliy moddiy moliyaviy resurslarga ega hokimlar vakillik organlariga hisobot bermaydilar. Shu boisdan vakillik organlarining hokimlik idoralari va hokimlar faoliyatini nazorat qilish, vakolatiga ega bo‘lishlari lozim;

- mahalliy hokimliklar moliyaviy, moddiy-texnikaviy va kadrlar tomonidan cheklangan hokimliklarning mahalliy budgetini mustahkamlashi lozim;

- mahalliy hokimlikning kichik biznes faoliyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri aralashuvi joylarda uchrab turibdi. Shuning uchun mahalliy hokimlikka xo‘jalik yurituvchi subyektlar mablag‘ini majburan olib qo‘yish, ularni homiylik qilishga, ko‘ngilli ravishda pul o‘tkazishga majbur qilishlarini taqiqlab qo‘yish lozim. Ularning kadrlar siyosatiga aralashishini ham taqiqlovchi qonun hujjalarini qabul qilish kerak;

- fuqarolik jamiyatini institutlari hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga oid masalalarni hal etishda sust jalb etilgan. Bu muammonni hal etish uchun joylarda hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishga oid turli dasturlarni tuzishga hududdagi turli siyosiy partiylar vakillarini, fermerlar kengashi va nodavlat notijorat jamoatchilik tashkilotlari vakillarini keng jalb etish lozim bo‘ladi;

- hokimliklarga hududiy siyosat yuritishning qonuniy hujjatlar portfelini yanada takomillashtirish zarurati mavjud.

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlanishish orqali xalqparvar davlat barpo etish deb nomlangan birinchi yo‘nalishda quyidagi maqsadlar belgilangan:

1-maqsad: Mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo‘g‘iniga aylantirish;

2-maqsad: Xalq deputatlari Kengashlarini hududlarda mavjud muammolarni hal qilishdagi asosiy bo‘g‘inga aylantirish;

3-maqsad: Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining institusional asoslarini zamon talablariga moslashtirish;

4-maqsad: Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini “fuqarolarga xizmat qilishga yo‘naltirish” tamoyili asosida transformatsiya qilish. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, Vazirlik va idoralar faoliyatining barcha yo‘nalishlarini “Davlat – xalq xizmatchisi” tamoyili asosida fuqaroga xizmat qilishga yo‘naltirish chora-tadbirlarini amalga oshirish ko‘zda tutilgan;

5-maqsad: Ixcham, professional, adolatli, yuqori natijadorlikka xizmat qiladigan davlat boshqaruvi tizimini joriy qilish;

6-maqsad: Davlat boshqaruvi tizimida ma’muriy apparatni ixchamlashtirish va ish jarayonlarini maqbullahshtirish. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

-xususiy sektorga o'tkaziladigan ayrim davlat funksiyalari sonini 3 barobarga oshirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish;

-davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish ishlarini jadallashtirish hamda davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash;

-hududlarni rivojlantirish bo'yicha vazifalarini hal qilishda barcha darajadagi davlat boshqaruvi organlari hududiy boshqarmalarining samarali ishini tashkil etish²⁷.

Shu boisdan bizning nazarimizda joylarda quyidagi yo'naliishlarda qonuniy-me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilishi lozim;

a) hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish mustaqilligini belgilash hamda uni kuchaytirish;

b) kadrlarni oqilona joy-joyiga qo'yish;

d) hokimliklarning tashkiliy nazorat faoliyatini takomil-lashtirish;

e) mintaqada ko'rsatilayotgan jamoat xizmati samaradorligi va sifatini oshirish;

f) hokimliklarning o'zini o'zi boshqarish, nodavlat va notijorat tashkilotlari bilan samarali hamkorligini yo'lga qo'yish.

Umuman olganda, davlat va fuqarolik jamiyatining sobiq totalitar, o'ta markazlashtirilgan iqtisodiyotni aniq va izchil nomarkazlashtirishga qobiligi barqaror iqtisodiy o'sishga eri-shish strategiyasida xatoliklardan saqlanish, barqaror iqtisodiy o'sishni, aholi turmush darajasi oshishini ta'minlash kafolati bo'lib xizmat qilishi mumkin.

²⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022yil 28yunvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljalangan yangi O'zbekistonning faraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60sonli Farmoni. 1-ilova. / <https://ex.uz/uz/docs/-5841063>

Asosiy tushuncha va atamalar

Iqtisodiy islohot, davlat bosh islohotchi, institutsional islohotlar, iqtisodiyotni boshqarish, ma'muriy boshqarish tizimi, davlat boshqaruv tizimi, iqtisodiyotni ma'muriy boshqarish, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tizimi, iqtisodiy strategiya, iqtisodiy siyosat.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

- 1.O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar strategiyasining mohiyati nimadan iborat?
2. Iqtisodiyot sobiq totalar tizim davrida qanday boshqarilgan?
- 3.Sobiq totalitar tizim davrida davlat boshqaruv organlari qanday tarkibga ega edi?
- 4.O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin nima uchun institutsional islohotlarga zaruriyat tug'ildi?
- 5.Institutsional islohotlarning asosiy maqsadlari nimalardan iborat?
- 6.Institutsional islohotlar qanday yo'nalishlarda amalga oshirildi va qanday institutlar institutlari vujudga keldi?
- 7.O'zbekistonda iqtisodiyotni tartibga solish va boshqarish bo'yicha qanday davlat boshqaruv organlari vujudga keldi?
- 8.Fuqarolik jamiyatini shakllantirish sharoitida davlat boshqarish tizimini takomillashtirish qanday yo'nalishlarda amalga oshiriladi?
9. Davlat boshqarish tizimini nomarkazlashtirish qanday ahamiyatga ega?
- 10.Davlat boshqarish tizimini nomarkazlashtirishning asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
- 11.Davlat iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda mahalliy hokimiyat organlari va fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari qanday rol o'ynaydi?

4-BOB. O'ZBEKISTONDA DAVLAT MULKINI XUSUSIYLAshTIRISH VA BOSHQARISH – IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISH VOSITASI

4.1. Davlat mulki va tadbirkorligi - iqtisodiy siyosatning muhim vositalari

Iqtisodiyotni tartibga solishga qaratilgan iqtisodiy siyosatning eng muhim davlat vositalaridan biri o'z mulki bo'lgan tarmoq va korxonalarni boshqarish, ya'ni bevosita tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishdir.

Davlat mamlakat ishlab chiqarish vositalarining bir qismini mulk egasi sifatida bevosita ishlab chiqarish jarayonini tashkil qiladi, rejalashtiradi va uni nazorat qiladi. Davlat tadbirkorlik faoliyati orqali fan-texnika inqilobi talablariga ko'ra xalq xo'jaligi tuzilishini shakllantirishga hamda bozor baholaridan birmuncha past baholarda tovar sotish va xizmatlar ko'rsatish orqali ishlab chiqarishning boshqa sektorlarining rivojlanishiga ko'maklashadi. Davlat mulki va sohibkorligi ko'lami bozor iqtisodiyoti sharoitida cheklangan bo'ladi. U, asosan, mamlakat iqtisodiyotini samarali rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi.

Uning doirasiga O'zbekiston Respublikasida, birinchidan, oltin, uran, neft, gaz, ko'mir, rangli metallar va boshqa tabiiy boyliklarni qazib chiqarish sanoati tarmoqlari; energetika, temir yo'l, avtomobil yo'llari, transportning bir qismi kirishi lozim.

Qazib chiqaruvchi tarmoqlar mahsulotlari mamlakatning eng muhim milliy boyligi hisoblanadi. Energetika va transport esa xalq xo'jaligining hayotiy qon tomirlaridir. Shu bilan birga, ularning kapital hajmkorligi yuqori va aylanish muddati uzoq bo'lganligi uchun xususiy korxonalarning bu sohadagi tashabbuskorligi cheklangan bo'ladi. Ana shu sabablarga ko'ra, ushbu tarmoqlarni davlat bevosita boshqarishi maqsadga muvofiqdir. Haimma rivojlangan mamlakatlarda ham davlat kapital mablag'larining ko'p qismi ushbu sohalarga yo'naltiriladi.

Ikkinchidan, O'zbekiston iqtisodiy mustaqillikni qo'lga kiritish uchun mashinasozlik, shu jumladan, avtomobilsozlik, uskunasozlik, fan-texnika inqilobi vujudga keltirgan elektrotexnika sanoati tarmoqlarini rivojlantirishi zarurdir. Bu yangi tarmoqlar qaror topishi davlat tadbirdorlik faoliyati doirasida bo'ladi.

Uchinchidan, fan-texnika inqilobi sharoitida fan va texnikaga rahbarlik qilish ham davlat zimmasiga yuklanadi. Davlat eng qimmatli fundamental fanlar sohasidagi ilmiy ishlarni moliyalashtiradi.

Davlat o'z korxonalarining tovar va xizmatlarini past darajadagi, aksariyat hollarda ishlab chiqarish xarajatlariga yaqin bo'lgan baholar bilan sotadi. Bu bilan aholi turmush darajasining oshishiga, xususiy va boshqa korxonalarning samarali ishlashiga, xalq xo'jaligi tarmoqlarining ma'lum nisbatlarini shakllantirishga ta'sir ko'rsatadi.

Davlat o'ziga qarashli korxonalarни ijaraga berish, mehnat kollektivlariga, xususiy shaxslarga sotish, aksionerlik jamiyatlariga aylantirish yo'li bilan aralash mulkni shakllantirish orqali iqtisodiyotning boshqa mulk doiralarining tashabbuskorligiga, rentabelligining oshishiga ijobji ta'sir ko'rsatadi.

Davlatning xususiy, jamoa va boshqa toifadagi korxonalardan tovar va xizmatlar sotib olishi iqtisodiyotni tartibga solishning bir usuli hisoblanadi. XX asrning buyuk iqtisodchilaridan biri bo'lgan Jon Keyns bu vositani "iqtisodiyotni tetiklantiradi" deb ta'kidlagan. Ushbu o'rinda savol tug'iladi. Xo'sh, davlat qanday tovarlarni sotib oladi?

Davlat, birinchidan, o'ziga qarashli tarmoq va korxonalarining samarali ishlashi uchun xom ashyo, asbob-uskunalar; ikkinchidan, boshqaruv apparati xodimlarini moliya bilan ta'minlash; uchinchidan, mehnatga layoqatsiz mayib-majruhlar, qariyalar, yetim bolalar, kambag'allar hamda ko'p bolali oilalar, yolg'iz, qarovsiz kishilarga yordam maqsadida iste'mol tovarlari va xizmatlar bilan ta'minlash; to'rtinchidan, harbiy anjomlar, qurol-yarog'lar, armiya uchun lozim bo'lgan iste'mol tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, beshinchidan, turli xil tabiiy ofatlarning oldini olish uchun davlat

zaxiralarini tashkil etish maqsadida tovarlar sotib oladi. Buning oqibatida davlatning tovarlar va xizmatlar bozori shakllanadi. Davlat bozori muhim ijobiy rol o'ynaydi. Bu bozor kafolatli bo'lib, uning to'lov qobiliyati davlatning budget va valyuta fondi orqali ta'minlanadi. Har qanday bozor kon'yunkturasi sharoitida ham davlat buyurtmasi va kontraktlari yuzasidan ishlayotgan korxonalar bozori kasod bo'lmaydi. Bu bozor davlat buyurtmalari orqali tartibga solinadi, unda kelishilgan baholar amal qiladi va uning ishtirokchilariga barqaror foyda keltiradi.

Totalitar tuzum davrida davlat asosiy ishlab chiqarish vositalarining katta qismining mulk egasi sifatida iqtisodiyotni o'z monopoliyasiga aylantirgan edi. Uzoq yillar mobaynida respublikamiz iqtisodiyotida umumxalq mulki deb atalgan, aslida esa davlatlashtirilgan mulk to'liq hukmronlik qilib keldi. Mulkchilik faqat ikki turdan, ya'ni davlat mulki va kolxozi-kooperativ mulkidan iborat qilib qo'yilgan edi. Aslida kolxozi-kooperativ mulki ham amalda butunlay davlat ihtiyyorida edi. Ishlab chiqarish vositalarining xususiy mulkligi ham yuridik jihatdan, ham amaliyatda batamom inkor qilingan edi. Faqat xususiy mulkchilikning shakli o'zgartirilgan, ishlab chiqarish vositasi bo'Imagan va daromad keltirmaydigan fuqarolarning shaxsiy mulki sifatidagi ko'rinishigina mavjud bo'lishi mumkin edi. Aholining o'z mulkidan foydalanish tufayli oladigan daromadlarining hamma turlari noqonuniy hisoblanar edi. Nazariya va amaliyatda umumxalq mulki deb hisoblangan mulk subyekti sifatida davlatning chiqishi jamiyat a'zolari o'rtasida bu mulkka «hech kimniki», «davlatniki», «birovning mulki» deb qarashlarning shakllanishiga olib keldi. Bunday sharoitda davlat o'z mulki bo'lgan davlat korxonalarini, tarmoq va sohalarni ma'muriy buyruqbozlik usullari orqali bevosita boshqargan. Bu hol real ishlab chiqarish ishtirokchilarining (xo'jalik subyektlarining) ishlab chiqarish vositalaridan mahrum bo'lishiga, egalik hissining yo'qola borishiga, iqtisodiy manfaatdorlik va mehnatdan rag'batlanishning pasayishiga olib keldi.

O'zbekistonda va boshqa sobiq markazlashgan-rejali iqtisodiyotga ega bo'lgan mamlakatlarda bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish vazifasi bu umumqalq, ijtimoiy mulkning ma'lum qismini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirishni taqozo qiladi.

4.2. O'zbekistonda davlat mulkini xususiy lashtirishning maqsadi va bosqichlari

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillardan boshlab amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy negizini mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va uni xususiy lashtirish tashkil etadi. **Davlat tasarrufidan chiqarish** – davlat korxonalarini va tashkilotlarini xo'jalik shirkatlari va jamiyatlariga, ommaviy mulk bo'lmaydigan boshqa korxonalar va tashkilotlarga aylantirishdir. **Xususiy lashtirish** – jismoni shaxslarning va davlatga taalluqli bo'lмаган yuridik shaxslarning ommaviy mulki obyektlarini yoki davlat aksiyali jamiyatlarining aksiyalarini davlatdan sotib olishidir.

Amalda bu O'zbekistonni bozor iqtisodiyotiga o'tishida mulkchilik masalalarini hal etish hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy yo'li hisoblanadi. Unga ko'ra xususiy lashtirish jarayonida ikkita muhim strategik vazifa hal etilishi ko'zda tutilgan:

Birinchi strategik vazifaning asosiy mazmuni – bu davlat tasarrufidan chiqarilayotgan va xususiy lashtirilayotgan mulkning haqiqiy mulkdorlar qo'liga berilishi iqtisodiy munosabatlarni tubdan o'zgartirish uchun real shart-sharoit yaratishga imkon tug'diradi.

Xususiy lashtirishning ikkinchi strategik vazifasi esa iqtisodiyotda ko'p ukladililikni hamda rag'batlantiruvchi kuchga ega bo'lgan raqobat muhitini yaratish, shu orqali davlatni mulkka bo'lgan monopol huquqini tugatish, xususiy mulkchilikning turli shaklidagi korxonalarни barpo etishdir.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirishdan ko'zlangan maqsadlar quyidagilardan iborat bo'ldi:

- sobiq totalitar tizimdan qolgan davlat mulki monopoliyasi (yakkahokimligi)ni tugatish;

- teng huquqli xilma-xil mulkchilik shakllarini vujudga keltirish;
- nodavlat mulk shakllariga asoslangan ko‘p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish;
- xo‘jalik subyektlari faoliyatining harakatlantiruvchi kuchi bo‘lgan raqobat muhitini yaratish.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan xususiylashtirish jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlarini quyidagilardan iborat:

- 1) davlat mol-mulkini faqat yangi mulkdorga sotish yo‘li bilan mulkchilikning boshqa shakllariga aylantirish;
- 2) xususiylashtirishga dasturiy yondashuvni ta’minalash va uni bosqichma-bosqich amalga oshirish;
- 3) mulkni davlat tasarrufidan chiqarish chog‘ida aholi uchun kuchli ijtimoiy kafolatlarning yaratilganligi va ta’minlanganligi. Bunga ko‘ra yangi mulkdorga ancha eskirgan asosiy fondlar tekinga berildi. Mehnat jamoasi xodimlari xususiylashtirilayotgan korxona aksiyalarini imtiyozli shartlar bilan sotib olish imkoniga ega bo‘lishdi.

Ana shu modelga asoslangan holda amalga oshirilgan xususiylashtirish jarayonlari shartli ravishda o‘zaro bog‘liq uch bosqichga bo‘linadi.

Dastlabki, birinchi bosqich “kichik xususiylashtirish” davri deb nomlandi va 1992-1993 yillarda amalga oshirildi. Unda aholi yashaydigan davlatga tegishli uy-joylar, savdo, maishiy xizmatlar ko‘rsatish, dorixona va shu kabi 53,9 mingta mayda davlat korxonalarini xususiylashtirildi.

Ularning negizida 28,8 mingdan ortiq nodavlat korxonalarini tashkil etildi. (4.2.1-jadval).

4.2.1-jadval

O'zbekiston Respublikasida davlat korxonalarini xususiy lashtirish sur'atlari (dona, foiz)

| Yil | Jamixususiy-lashtiril-gan korxona va ob'ektlar | Ularning asosida nodavlat korxonalarini tashkil etilgan | Jumladan | | | | | |
|-------------|--|---|------------------------|-------------|--------------------|-------------|-------------------|------------|
| | | | Hissadorlik jamiyatlar | | Xususiy korxonalar | | Boshqa korxonalar | |
| | | | Soni | % | Soni | % | Soni | % |
| 1992-1993 | 53902 | 28846 | - | - | - | - | - | - |
| 1994 | 9744 | 9744 | 2898 | 29,7 | 4892 | 50,2 | 1954 | 20,1 |
| 1995 | 8537 | 8537 | 1026 | 12,0 | 6036 | 70,7 | 1475 | 17,3 |
| 1996 | 1915 | 1915 | 1257 | 65,6 | 420 | 21,9 | 238 | 12,4 |
| 1997 | 1231 | 899 | 456 | 50,7 | 260 | 28,9 | 183 | 20,4 |
| 1998 | 451 | 266 | 110 | 41,4 | 103 | 38,7 | 53 | 19,9 |
| 1999 | 448 | 373 | 141 | 37,8 | 156 | 41,8 | 76 | 20,4 |
| 2000 | 374 | 372 | 152 | 40,9 | 103 | 27,7 | 117 | 31,5 |
| 2001 | 1449 | 743 | 167 | 22,5 | 257 | 34,6 | 115 | 15,5 |
| 2002 | 1912 | 1800 | 223 | 12,4 | 1252 | 69,6 | 325 | 18,1 |
| 2003 | 1519 | 1452 | 75 | 5,2 | 981 | 67,6 | 396 | 27,3 |
| 2004 | 1228 | 1228 | 28 | 2,3 | 1038 | 84,5 | 162 | 13,2 |
| 2005 | 980 | 980 | 3 | 0,3 | 902 | 92,0 | 75 | 7,7 |
| 2006 | 673 | 673 | 19 | 2,8 | 599 | 89,0 | 55 | 8,2 |
| 2007 | 631 | 631 | 0 | 0 | 593 | 94,0 | 38 | 6,0 |
| Jami | 84994 | 58459 | 6555 | 11,3 | 17592 | 30,1 | 5262 | 9,0 |

Manba: O'zR Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Ushbu bosqichning o'ziga xos tomonlari shundan iborat bo'ldiki, unda davlat mulkiga asoslangan korxonalarni xususiy lashtirish shakllarini tanlash va xususiy lashtiriladigan mulknini baholash bo'yicha tegishli tajribalar to'plandi. Xususiy lashtirishning keyingi - ikkinchi bosqichi „ommaviy xususiy lashtirish“ davri deb nom oldi va u 1994-1998-yillarni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichning mazmunini, xususiyatlarini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 21 yanvarda qabul qilgan “Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi va 1994- yil 16- martda qabul qilingan “Mulkni

davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi farmonlari belgilab berdi. Ushbu farmonlarga ko‘ra, bu bosqichda ochiq turdagи aksiyadorlik jamiyatlari yaratildi, korxonalarning aksiyalarini erkin sotishga chiqarildi hamda keng ko‘lamdagи ko‘chmas mulk va qimmatli qog‘ozlar bozorlari vujudga keldi. Bu bosqichda sanoat, qurilish va transport sohasidagi, agrosanoat kompleksining go‘sht-sut, oziq-ovqat va paxta tozalash tarmoqlaridagi o‘rta va yirik korxonalar, shuningdek, Toshkent, Buxoro, Samarqand va Xivadagi sayyohlik komplekslarining xususiylashtirilishi boshlandi.

Bu davrda mashinasozlik, yengil va oziq-ovqat sanoati, qurilish, avtomobil transporti, agrosanoat kompleksi va boshqa tarmoqlarning o‘rta va yirik korxonalar ochiq aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirildi va xususiylashtirildi. Shu bilan bir vaqtning o‘zida qimmatli qog‘ozlar, ko‘chmas mulk bozorlarini shakllantirish boshlandi. Bundan asosiy maqsad xususiylashtirish jarayoniga aholining keng qatlamlari hamda chet el sarmoyalarini jalb etish va shu orgali mamlakatimiz iqtisodiyotining nodavlat sektorini jadal rivojlantirishni ta‘minlash bo‘ldi. Ushbu bosqichda 21361 xususiylashtirilgan davlat korxonalar negizida 5747 ta ochiq aksiyadorlik jamiyatları, 3903 ta mas’uliyati cheklangan jamiyat va 11711 ta xususiy mulkchilikning boshqa shaklidagi korxonalar tashkil etildi.

Xususiylashtirishning **uchinchi bosqichi** – 1999-2005- yillar, ushbu bosqichda asosan o‘rta va yoqilg‘i-energetika kompaniyasiga qarashli yirik korxonalar xususiylashtirildi. **To‘rtinchi bosqich** – 2006-2010-yillar. Ushbu bosqichga xos muhim xususiyat – davlat obyektlarining to‘liqligicha xususiy mulk sifatida sotilishi ulushining ortib borishi hisoblanadi.

Mazkur bosqich O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2006 yil 10 iyuldagи 2006-2008-yillarda mulkni davlat tassarufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish to‘g‘risida”gi Farmonining qabul qilinishi bilan boshlandi. Iqtisodiyotda xususiy mulkchilik rolining ortishi, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ustav

fondida davlat ulushining qisqarishi, yuridik va jismoniy shaxslarning binolari, inshootlari bilan band bo'lgan yer uchastkalari xususiy mulk huquqida xususiylashtirilishi ushbu bosqichning muhim xususiyati hisoblanadi.

Bu bosqich "yakka tartibda xususiylashtirish" davri hisoblanadi. Xususiylashtirishning ushbu davri avvalgi bosqichlardan bir qator jihatlari bilan farq qiladi. Birinchidan, ushbu davrda iqtisodiyotning yonilg'i-energetika, metallurgiya, kimyo, temir yo'l transporti va shu kabi boshqa strategik tarmoqlarning yirik korxonalarini chet el investitsiyalarini keng jalb etgan holda yakka loyihalar asosida xususiylashtirishga kirishildi. Ikkinchidan, ilgari xususiylashtirilgan korxonalar negizida tashkil etilgan ochiq aksiyadorlik jamiyatlaridagi joylashtirilmagan, shu jumladan, davlatga tegishli aksiyalar paketlari hamda ayrim korxonalarni butunlay yoki ular mulkining bir bo'lagini birja yoki birjadan tashqaridagi bozorlarda turli yondashuvlar va usullarni qo'llash asosida sotish yo'lga qo'yildi. Uchinchidan, iqtisodiy nochor, zarar bilan ishlovchi hamda istiqbolsiz korxonalar va ular mulkidagi davlat ulushlari nol qiymat bilan chet el yoki mamlakatimiz sanroyadorlariga investitsiya kiritish hisobiga bepu'l berish tartibi joriy etildi va amalga oshirilmoqda.

Xususiylashtirishning o'tgan bosqichlarida jami 84,9 mingdan ortiqroq davlat korxonalari xususiylashtirildi, ular negizida aksiyadorlik, ma'suliysi cheklangan va qo'shimcha ma'suliyatli jamiyatlar hamda xususiy korxonalar tashkil etildi. Shu bilan birga, 2007 yilgacha 90,6 mingta davlat mulki ob'ektlari (qurilish tugallanmagan ob'ektlar, yer uchastkalari va boshqalar), shundan 69,5 mingtadan ortiq yer uchastkalari aholiga yakka tartibda uy-joy kurish uchun Respublika ko'chmas mulk birjasi savdolarida 3,9 mlrd. so'mga sotildi.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 20 iyuldagagi "2007-2010-yillarda xususiylashtirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish va xorijiy investitsiyalarini faol jalb etish bo'yicha choralar to'g'risida"gi PQ-672

sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18 noyabrda "Iqtisodiyot real sektori korxonalarini moliyaviy barqarorligini yanada oshirish bo'yicha choralar to'g'risida"gi PF-4053-sonli Farmoni, 2008-yil 24 apreldagi "Baholash tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish va ularning ko'rsatiladigan xizmatlar sifati uchun mas'uliyatini oshirish to'g'risidagi PQ-843-sonli Qaroriqabul qilingan. Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 29 yanvardagi "Davlat aktivlarini sotish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha choralar to'g'risida"gi 27-sonli Qarori bilan "Birja savdolarida davlat aktivlarini sotish tartibi to'g'risida"gi va "Birjadan tashqari savdolarda davlat aktivlarini sotish to'g'risida"gi tartiblar tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 24 apreldagi PQ-843-sonli Qaroriga binoan Davlat mulk qo'mitasi BMT Rivojlanish dasturi bilan "O'zbekiston Respublikasida baholash metodologiyasi va amaliyotini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash" loyihasi amalgalashish bo'yicha shartnomaga imzolangan. Ushbu loyiha doirasida O'zbekiston Respublikasining uchta milliy standarti, ya'ni "Xususiylashtirish maqsadida mulkning qiymatini baholash", "Biznes qiymatini baholash", "Ko'chmas mulk qiymatini baholash" standartlari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkazildi.

2007-2010- yillarda 947 ta davlat ob'ektlari 505,5 mln. dollar va 231,1 mld. so'mga sotildi. Shuningdek, Olingan investitsiya majburiyatlarini hajmi 349,6 mln. dollar va 106,34 mld. so'mlik investitsiya majburiyatlarini hisobiga sotilgan (4.2.2-jadval).

4.2.2-jadval

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish ko'rsatkichlari¹

| Ko'rsatkichlar | 2007y | 2008y | 2009y | 2010y |
|------------------------------------|-------|-------|-------|-------|
| Sotilgan davlat ob'ektlari soni | 408 | 308 | 135 | 96 |
| Shundan; | | | | |
| Birja savdolarida sotilgan | 129 | 94 | 46 | 32 |
| Birjadan tashqari savdolarda | 279 | 214 | 89 | 64 |
| Investitsion majburiyatlar asosida | | | | |
| Davlat komissiyasi qarori bilan | 28 | 14 | 70 | 60 |

¹O'zR Davstatqo'mita ma'lumotlari asosida mualif tomonidan tuzilgan.

| | | | | |
|---|-------|-------|--------|-------|
| korxona va ob'ektlarning sotilgan davlat aktivlari soni | | | | |
| Kiritiladigan investitsiya majburiyatlar hajmi | | | | |
| mln. AQSh dollari | 244,5 | 29,94 | | 63,52 |
| mlrd. So'm | 21,5 | 10,84 | 22,25 | 17,73 |
| Aukcion va konkurs savdolarida sotilgan ob'ektlar | 185 | 122 | 213 | 123 |
| Olingan investitsiya majburiyatlar hajmi | | | | |
| mln. AQSh dollari | 33,5 | 4,72 | 177,66 | 23,5 |
| mlrd. So'm | 14,7 | 10,57 | 91,29 | 29,4 |
| Nol qiymatda sotilgan ob'ektlar soni | 15 | 50 | 68 | 41 |
| Olingan investitsiya majburiyatlar hajmi | | | | |
| mln. AQSh dollari | 28,8 | 17,59 | 14,5 | 9,1 |
| mlrd. So'm | 7,6 | 15,62 | 16,8 | 11,3 |
| Jami sotilgan davlat aktivlari hajmi | | | | |
| mln. AQSh dollari | 309,5 | 69,24 | 62,24 | 64,52 |
| mlrd. So'm | 57,1 | 69,29 | 35,7 | 40,28 |
| Shu jumladan, | | | | |
| Olingan investitsiya majburiyatlar hajmi | | | | |
| mln. AQSh dollari | 198,7 | 54,82 | 32,63 | 63,5 |
| mlrd. So'm | 35,2 | 34,24 | 15,64 | 21,26 |

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish jarayonida 2007-2010-yillarda 474 ta shartnoma bo'yicha investitsiya majburiyatlar bajarildi. Ularning umumiy qiymati 129,37 mln. AQSh dollari va 106,53 mlrd. so'mni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 8 apreldagi "Davlat mulkini ijaraga berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 102-sonli Qaroriga binoan Davlat mulkini ijaraga berish markazlari tashkil etildi. Ushbu markazlarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat qilib belgilangan:

- davlat mulkini ijaraga berishni tashkil etish va ijaraga berish;
- ijaraga berilayotgan davlat mulki hamda uni ijaraga berishdan tushadigan mablag'larni hisobga olish va manitoringi olib borish;
- ijaraga beriladigan davlat mulki bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish;
- ijara obyektlaridan maqsadli foydalanish va ularning saqlanishini, shuningdek, ijara to'lovi o'z vaqtida va to'liq to'lanishini nazorat qilish;

- ijara beriladigan davlat mulkini har choraklik asosda xatlovdan o'tkazish;

- foydalanimayotgan davlat mulki ijara berilishi to'g'risidagi e'lolar va ijara berilayotgan davlat mulki ro'yxatini respublika va viloyat davriy nashrlarida hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi, monopoliyadan chiqarish, raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi va Savdo-sanoat palatasining veb-saytlarida har chorakda e'lom qilish.

Xususiylashtirishning beshinchı bosqichi 2011-2016-yillarni o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.04.2015-yildagi PQ-2340-sonli "Iqtisodiyotda xususiy mulk ulushi va ahamiyatini ko'paytirish bo'yicha choralar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Iqtisodiyotda davlat ishtiroki darajasini baholashdan o'tkazish asosida O'zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo'mitasi tomonidan 2015-2016-yillarda davlat mulkini xususiylashtirish Dasturi tayyorlanib amalga oshirildi.

Mamlakatimizda 2010-2014 yillarda 644 ta davlat obyektlari xususiylashtirilgan bo'lib, xususiylashtirishdan tushgan mablag'lar 226430 million so'mni tashkil etgan. 2015-2016 yillarda esa jami 1457 ta davlat ob'ekti xususiylashtirildi, xususiylashtirishdan tushgan mablag'lar esa 268061,8 million so'mni tashkil etgan (qarang: 4.2.3-jadval).

4.2.3-jadval.

Korxona va obyektlarni xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarishning borishi (2010-2016 yillar)²⁸

| | 2010y. | 2011y. | 2012y. | 2013y. | 2014y. | 2015y | 2016y. |
|--|---------|---------|---------|---------|---------|----------|----------|
| Xususiylashtirilgan korxona va obyektlar soni | 96 | 95 | 83 | 82 | 288 | 848 | 609 |
| Xususiylashtirishdan tushgan pul mablag'lari, mln so'm | 23028,6 | 39217,8 | 32052,8 | 44149,2 | 87982,1 | 103243,8 | 164818,0 |

²⁸Узбекистон Республикаси йииллик статистик тўплами 2010-2016 йиллар.-Т., ЎзР Давлат статистика қўминоси, 2017.-114-бет.

Davlat mulkini xususiylashtirishning yangi, oltinchi bosqichi 2017 yilda boshlanib, hozirgacha davom etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi “Xususiylashtirilgan korxonalar bilan ishlash samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2895-son Qarorida qayd etib o‘tilganki, mamlakatimizning mustaqil rivojlanishi davrida mulknii xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish bo‘yicha tizimli ishlar doirasida 30 mingdan ortiq davlat obyekti, shu jumladan, 6,5 mingta yirik va o‘rta korxona xususiy mulk qilib sotildi. Natijada hozir nodavlat sektoriga yalpi ichki mahsulotning 81 foizidan ko‘prog‘i, sanoat ishlab chiqarishining 94 foizi va barcha band aholining 82 foizidan ziyodi to‘g‘ri kelmoqda. Ammo shu bilan birga, tanqidiy tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, bir qator korxonalarni xususiylashtirish kutilgan natijalarni bermadi²⁹. Shuning uchun qarorda xususiylashtirilgan korxonalarning mavjud ulkan iqtisodiy va ishlab chiqarish salohiyatini hisobga olgan holda, ishlab chiqarishni kengaytirish, eksportni jadallashtirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirish hisobiga ular iqtisodi o‘sishning lokomotivi bo‘lib qolishlari kerakligi hamda ularni har tomonlhma qo‘llab-quvvatlash yaqin yillarda respublika mintaqalari va butun mamlakatni rivojlantirishda kuchli omil bo‘lishini ta‘minlashi darkorligi qayd etilgan.

Mazkur qarorga muvofiq xususiy mulkchilik va tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha ishlar samaradorligini tubdan oshirishni, xususiylashtirilgan korxonalar negizada amalga oshirilayotgan loyihalarni tizimli va manzilli qo‘llab-quvvatlashni tashkil etish, shuningdek, belgilangan vazifalarni amalga oshirishda vakolatli organlar faoliyatini zarur darajada muvofiqlashtirishni ta‘minlash maqsadida:

O‘zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasining faoliyatini unga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarga muvofiq tashkil etish;

²⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiylashtirilgan korxonalar bilan ishlash samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2895-son qarori, 2017 yil 18 aprel // <https://lex.uz/uz/docs-3168115>

xususiyashtirilgan korxonalarning reestrini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlarni o'z vaqtida va to'liq hajmda amalga oshirish, ular faoliyatining doimiy monitoringi va tahlilini olib borish;

xususiyashtirilgan korxonalarni tiklash va faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha «yo'l xaritalari»ni ishlab chiqish va amalga oshirishni tashkil etish, shuningdek, «yo'l xaritalari»ni amalga oshirish bilan bog'liq masalalar bo'yicha vazirliklar, idoralar, mahalliy hokimiyat organlari, tijorat banklari va boshqa tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish;

biznes-rejalar ishlab chiqish, tadbirkorlik faoliyati sohasidagi qonunchilik, menejment, moliya boshqaruvi masalalari va boshqa fanlar bo'yicha xususiyashtirilgan korxonalar rahbarlari va ishlab chiqarish-texnik xodimlari uchun doimiy faoliyat yuritadigan o'quv kurslarini tashkil etishga yo'naltirilgan Tadbirkorlik faoliyati asoslarini o'qitish respublika markazi va uning hududiy filiallarini barpo etish hamda ular faoliyatini samarali tashkillashtirishni ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasi Xususiyashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasining kadrlar salohiyatini mustahkamlash, qo'mita kadrlarini tizimli ravishda tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasi oshirilishini tashkil etish vazifalari belgilangan³⁰.

2017-2020 yillarda 3056ta davlat korxonasi va ob'ektlari xususiyashtirildi va davlat tasarrufidan chiqarildi (qarang: 4.2.4-jadval).

³⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiyashtirilgan korxonalar bilan ishlash samaradorligini oshirish chori-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2895-son qarori, 2017 yil 18 aprel // <https://lex.uz/u2/docs/-3168115>

4.2.4-jadval

**Korxona va obyektlarni xususiylashtirishning asosiy ko'rsatkichlari
borishi (2017-2021 yillar)³¹**

| | 2017y | 2018y | 2019y | 2020y | 2021y |
|--|----------|----------|----------|----------|----------|
| Xususiylashtirilgan korxona va obyektlar soni, birlik | 542 | 835 | 842 | 837 | 750 |
| Davlat aktivlarini sotishdan olingan tushumlar, mln so'm | 228281,2 | 223048,2 | 480038,6 | 456373,4 | 380940,1 |

2018 -yilning yanvar-dekabr oylarida 835 ta, 2019 yilda 842ta, 2020 yilning yanvar-dekabr oylarida 837 ta, 2021yilda 750 ta (dastur doirasidagi va dasturdan tashqari obyektlarni qo'shgan holda) korxona va obyektlar xususiylashtirildi.

2020 -yilda xususiylashtirilgan davlat mulki ob'ektlari tarkibida eng ko'p ulush mahalliy hokimiyatlarga 604 ta obyekt (respublika bo'yicha jami xususiylashtirilgan obyektlarning 72,2%ni), Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga – 128 ta obyekt (15,3 %) , Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi – 23 ta (2,7 %), Transport vazirligi – 23 ta (2,7%), Sog'liqni saqlash vazirligiga – 16 ta ob'ekt (1,9 %) to'g'ri keldi.

2021- yilda eng ko'p xususiylashtirilgan obyektlar soni Farg'onada viloyatida– 136 ta (18,1 %), Toshkent viloyatida–90 ta (12,0 %). Namangan viloyatida–85 ta (11,3 %) ni tashkil etdi. Hududlar kesimida davlat mulkini ijara berishdan tushgan tushumlarning asosiy qismi Toshkent shahriga (barcha tushumlarning 50,0 % i), Toshkent (7,2 %), Andijon (4,9 %), Farg'ona (4,8 %) va Xorazm (4,6 %) viloyatlariiga to'g'ri keldi

³¹ Социально-экономическое положение Республики Узбекистан за 2017 год -Т., Госкомстат, 2018.-С.91.O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. Stat. to'plam 2018yil, 159-b.; 2019 yil, 207-bet; 2020-yil,359-360-betlar; 2021-yil, 335-bet ma'lumotlari asosida tuzildi.

4.3. Davlat mulkini xususiylashtirish va boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari

Xususiylashtirish va mulkdorlar safni kengaytirish, islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirishning ustuvor yo'nalishidagi qilinishi lozim bo'lgan muhim vazifalar quyidagilardan iborat qilib belgilangan:

- davlatning iqtisodiyotdagи ishtirokini qisqartirish bo'yicha ishlarni davom ettirish;
- aksiyalashtirish amaliy natija bermagan korxona va ob'ektlarni xususiy mulkdorlarga berish;
- yangi mulkdorlarning korxonalar samarali faoliyatini ta'minlash, investitsiya majburiyatlarini so'zsiz bajarish bo'yicha huquqiy va iqtisodiy javobgarligini oshirishni ko'zda tutgan holda amaldagi qonunchilikning me'yolarini qayta ko'rib chiqish va kuchaytirish;
- xususiylashtirish jarayoniga ishlab chiqarishni modernizatsiyalash hamda texnik va texnologik jihatdan yangilash, jahon bozorida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmasiga oladigan ishonchli va mas'uliyatli investorlarni jalb qilish uchun qulay shart-sharoit yaratish.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayoni bilan bir vaqtida bozor infratuzilmalari shakllandi va ular rivojlanish bosqichiga o'tdi. Bu fond, tovar hamda ko'chmas mulk bozorlari, investitsion fondlar, auditorlik, konsalting va shu kabi boshqa tuzilmalarni tashkil topishi va rivojlanishi bilan namoyon bo'ldi.

Erishilgan ijobjiy natijalarga qaramasdan respublikamizning ayrim hududlarida xususiylashtirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash ishlariiga e'tibor sustligicha qolmoqda. Vaholanki, mulkdan samarali foydalanish va tadbirkorlikning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratish, dotatsiyadan chiqish handa budjetning daromad qismini oshirishning asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Bugungi kunda davlat mulkini xususiylashtirish va undan samarali foydalanish borasidagi xususiylashtirish dasturi, Prezident qarori va Davlat mulki obyektlarini samarali boshqarish chora-tadbirlari

to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasi qarorlari loyihamarini ishlab chiqishiga asosiy e‘tibor qaratilgan bo‘lib, dasturlarning o‘ziga xos xususiyatini korxonalarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalg qilishga ustuvor ahamiyat qaratilganligidir.

Investorlarning takliflari xususiylashtirilayotgan ob‘ektning xarid qiymati miqdoridan emas, balki investoring investitsiya dasturi mazmuni, uning ishlab chiqarishni kengaytirish va korxonani modernizatsiya qilish hamda samarali boshqaruvni joriy qilinishiga yo‘naltirilganligidan kelib chiqib baholanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 2019-yil 14-yanvardagi PF-5630-son Farmoniga O‘zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi. Davlat raqobat qo‘mitasi huzuridagi Qimmatli qog‘ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazi va Davlat raqobat qo‘mitasi huzuridagi Davlat aktivlarini boshqarish markazi negizida: O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligini va O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasini tashkil etish belgilandi.

Yangidan tashkil etilgan Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga tugatilayotgan Davlat raqobat qo‘mitasi va Davlat aktivlarini boshqarish markazining shtat birliklari, shuningdek davlatning, shu jumladan xorijdagi aktivlarini boshqarish, xususiylashtirish tadbirlarini amalga oshirish (xususan, davlat ulushlarini sotish), davlat mulklarini ijara berish, davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ boshqaruvni joriy etish, davlat ishtirokidagi iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog‘lomlashtirish, bankrotlik, baholash faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni ta‘minlash, mulkni baholash standartlarini tasdiqlash va rietlorlarni sertifikatlash bo‘yicha vazifa, funksiya va vakolatlari o‘tkazildi.

Mazkur farmoniga ko‘ra davlat aktivlarini boshqarish, davlat ishtirokidagi iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog‘lomlashtirish

sohasida quyidagilar davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari etib belgilandi:

davlat ishtirokidagi korxonalarning ustav kapitalidagi davlat ulushini boshqarishning bozor mexanizmlarini ishlab chiqish;

davlat ishtirokidagi korxonalarda zamonaviy korporativ boshqaruv usullarini joriy etish, ushbu korxonalar faoliyatining samaradorligi uchun ularning boshqaruv organlari mas‘uliyatini oshirish;

davlat ishtirokidagi korxonalarni xususiylashtirishdan oldin tayyorlashning, shu jumladan ularning jozibadorligini va ularni boshqarishning sainaradorligini oshirishni ko‘zda tutuvchi samarali mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha xorijiy, xalqaro institutlar va kompaniyalar bilan sainarali ishlashni tashkil etish;

davlat ishtirokidagi korxonalarning ustav kapitalidagi davlat ulushlarini bosqichma-bosqich qisqartirish, samarali va shaffof xususiylashtirishni ta’minalash;

davlat ishtirokidagi iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog‘lomlashtirish, ular faoliyati samaradorligini oshirish dasturlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirishda qatnashish³².

Ushbu farmonda kapital bozorini rivojlantirish sohasidagi davlat siyosatining quyidagi yo‘nalishlari belgilandi:

kapital bozorini rivojlantirishning yaxlit strategiyasini shakllantirish va ushbu sohada yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

kapital bozorining samarali infratuzilmasi shakllanishida ko‘maklashish;

ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorini jadal rivojlantirish va uning ko‘lamini kengaytirish, korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish;

korporativ boshqaruv va kapital bozorini tartibga solish sohasida xalqaro aloqalarni rivojlantirish³³.

³² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-fadbirлari to‘g‘risida” gi 2019-yil 14-yanvardagi PF-5630-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/-4160392>

³³ O‘sa erda.

Davlat aktivlarini boshqarish agentligining asosiy vazifalari etib:
davlat aktivlarini samarali boshqarish bo'yicha yagona davlat
siyosatini yuritish;

o'ziga berilgan davlat ishtirokidagi korxonalar ustav kapitalidagi
davlat aksiyalari paketlari (ulushlari) bo'yicha aksiyador (ta'sischi va
ishtirokchi) huquqlarini amalga oshirish;

ilg'or xorijiy tajriba asosida davlat ishtirokidagi korxonalarda
zamonaviy korporativ boshqaruva shakl va usullarini joriy qilish, ularni
boshqarishda kuzatuv kengashi va aksiyadorlarning rolini tubdan
oshirish;

davlat ishtirokidagi korxonalarni, shu jumladan xalqaro moliya
institutlari tavsiyalari asosida bosqichma-bosqich ichki va tashqi
bozorlarda raqobatlasha oladigan, samarali korxonalarga aylantirishga
ko'maklashish;

davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatining samaradorligi va
shaffofligini ta'minlash, boshqaruva tuzilmasini optimallashtirish, yuqori
daromadlilik va kapitalizatsiyani oshirish, sohasiga kirmaydigan va
foydalanimayotgan aktivlarini chiqarib tashlashga qaratilgan
rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish va tasdiqlashni
muvofiglashtirish;

davlat manfaatlarini ta'minlagan holda, shu jumladan davlat
aksiya paketlarini (ulushlarini) ishonchli boshqaruvga berish orqali
investitsiya faoliyatini amalga oshirish;

davlat ishtirokidagi korxonalarning obligatsiya va aksiyalarini
chiqarish va realizatsiya qilish, shu jumladan mahalliy va xorijiy fond
birjalarida IPO/SPO bo'yicha emissiyalarni joylashtirish hisobiga, shu
jumladan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni, shuningdek portfel
investitsiyalarni jalb qilish;

davlat aktivlarini realizatsiya qilish (xususiy lashtirish) va ijaraga
berishning ochiq va shaffof mexanizmmini ta'minlash, investorlar
tomonidan qabul qilingan investitsiya va ijtimoiy majburiyatlar
bajarilishi ustidan monitoring qilish, shuningdek davlat xususiy sheriklik
bo'yicha takliflarni tayyorlashda ishtirok etish;

tahlil asosida davlat ishtirokidagi faoliyat yuritmeyotgan, past rentabelli va zarar ko'rib ishlayotgan korxonalarni aniqlash, ularni moliyaviy sog'lomlashtirish hamda faoliyati samaradorligini oshirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish;

bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan birgalikda davlat ishtirokidagi korxonalarda samarali dividend siyosatini olib borish;

baholash faoliyatining davlat tomonidan tartibga solinishini ta'minlash, mol-mulkni baholash standartlarini tasdiqlash, shuningdek rietlorlarni sertifikatlashtirish belgilandi³⁴.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2020-yil 27-oktabrdagi Farmoni ilovalariga muvofiq, 2 mingdan ortiq davlat aktivlariga tegishli masalalar tasdiqlangan. Shuningdek, davlat obyektlarini sotishning quyidagi tartiblari belgilandi:

- davlat obyektlarini "nol" xarid qiymatida sotish amaliyoti bekor qilinadi va ular o'z vakolati doirasida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va xalq deputatlari viloyatlar Kengashiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi va viloyatlar hokimlari hamda Davlat mulkini sotishda tender savdolarini o'tkazish bo'yicha davlat komissiyasining qarorlariga asosan investitsiya hamda ijtimoiy majburiyatlar asosida "1 so'm" boshlang'ich qiymatda ommaviy savdolarga chiqariladi;

- davlat unitar korxonalari xo'jalik jamiyatlariga o'zgartirilgan holda ularning davlat aksiya paketi (ulushi) sotiladi;

- davlat aktivlarini sotib oluvchilar to'lovlarni qonunchilikda belgilangan tartibda bo'lib-bo'lib to'lash sharti asosida amalga oshirishi mumkin;

³⁴O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019-yil 14-yanvardagi PF-5630-son Farmoni:// <https://lex.uz/docs/-4160392>

-davlat ulushlarini bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan sotib olish shartnomalari doirasida belgilangan grafikka asosan qisman to'lovni amalga oshirgan xaridorlarga to'liq to'lovlar amalga oshirilgunga qadar ulush qiymatining to'langan qisminiga mutanosib ravishda jamiyat boshqaruvida ishtirok etish va dividendlar olish huquqi asosida “tasarruf etish huquqisiz” egalik sertifikati beriladi;

-davlat ko'chmas mulki obyektlarini sotib olish shartnomalari doirasida qisman to'lovni amalga oshirgan xaridorlarga sotib olish to'lovini to'liq amalga oshirgunga qadar “tasarruf etish huquqisiz” davlat orderi beriladi³⁵.

Bundan ko'zlangan maqsad davlat ishtirokidagi korxonalarda iste'molchiga yo'naltirilgan zamonaviy boshqaruv usullari, ochiqlik, shaffoflik va bozor tamoyillarini jadal joriy etish, tannarxni pasaytirish orqali daromadlarni oshirish, islohotlar jarayonida xususiy kapital ishtiroki uchun kengroq imkoniyatlar yaratish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va raqobat muhitini yanada yaxshilashdan iboratdir.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish deb nomlangan ikkinchi yo'nalishida mulkiy huquqlarning daxlsizligini ishonchli himoya qilish hamda davlat organlarining mulkiy munosabatlarga noqonuniy aralashuvini cheklash maqsadi belgilangan. Ushbu maqsad doirasida quyidagilar belgilangan:

-xususiy mulk daxlsizligi va himoyasi kafolatlarini kuchaytirish, mulkiy, shu jumladan yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarni so'zsiz ta'minlash;

-xususiy mulk ustuvorligini asosiy tamoyil sifatida belgilash, shu jumladan davlat idorasining rasmiy ma'lumotiga ishonib mol-mulk sotib olgan shaxsning huquqini hunoya qilish tizimini joriy etish³⁶.

³⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallastirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida”gi 2020-yil 27-oktabrbdagi Farmoni / <https://lex.uz/docs/5068824>

³⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022yil 28yanvardagi “2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60sonli Farmoni I-ilova / <https://lex.uz/docs/-5341063>

Asosiy tushuncha va atamalar

Mulk, davlat mulki, munitsipal mulk, davlat tadbirkorligi, davlat mulkining iqtisodiyotni tartibga solinishiga ta'siri, davlat tadbirkorligining bozorga ta'siri, davlat mulkini uning tasrrufidan chiqarish, davlat mulkini xususiylashtirish,mulkni ijaraga berish, investitsion majburiyat asosida mulkni xususiylashtirish.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

- 1.Davlat mulki nima va u qanday vazifalarni bajaradi?
- 2.Davlat mulki iqtisodiyotni tartibga solishda qanday rol o'ynaydi?
- 3.Davlat tadbirkorligi deganda nimani tushunasiz?
- 4.Davlat tadbirkorligi iqtisodiyotni tartibga solishga qanday ta'sir ko'rsatadi?
- 5.Davlat mulkini uning tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning mohiyati nimadan iborat?
- 6.Davlat mulkini xususiylashtirish iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishga qanday ta'sir ko'rsatadi?
- 7.O'zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirishdan ko'zlangan maqsadlar nimalardan iborat?
8. O'zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirish jarayonlari qanday amalga oshirildi?
- 9.Davlat mulki qanday boshqariladi?
10. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining vazifalari nimalardan iborat?
11. Davlat aktivlarini boshqarish, davlat ishtirokidagi iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini izohlab bering.
12. Davlat mulkini boshqarish va xususiylashtirish samaradorligini oshirish uchun nimalarni amalga oshirish kerak?

5-BOB. IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNI DASTURLASH, PROGNOZLASHTIRISH VA REJALASHTIRISH.

5.1. Iqtisodiyotni prognozlashtirish, dasturlashning maqsadi va shakllari, usullari

Iqtisodiyotni tartibga solishning eng muhim davlat iqtisodiy siyosatining shakllaridan biri dasturlash va rejalashadir. Ushbu tartibga solish shaklining zaruriyati ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi, mehnat taqsimoti va kooperatsiyalashuvining chuqurlashuvi, davlat mulkining mavjudligi, iqtisodiyotga yo'llanadigan kapital mablag'lar harakati va oqibatlarining uzoq muddatiligi hamda bozor kon'yunkturasini o'rganishi bilan ifodalanadi. Shu boisdan barcha rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotning rivojlanishi prognozlashtiriladi, dasturlanadi va rejalashdiriladi (5.1.1-rasm).



5.1.1-rasm. Mamlakatning ijtimoiy-ijtimoiy rivojlanishini prognozlash, dasturlash va rejalashtirish tizimi¹

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlashtirish uni rejalashtirishning boshlang'ich bosqichi hisoblanadi. **Prognoz** - obyektning istiqboldagi mumkin bo'lgan holati to'g'risidagi ilmiy asoslangan ko'zlangan maqsadga erishishning muddatlari va usullarining variantli gipotezasi hisoblanadi. Odatda bazaviy va ijtimoiy-iqtisodiy prognozlar tuziladi. **Bazaviy prognozlarga** demografik prognozlar, tabiiy resurslar prognozları, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, ekologik, tashqi iqtisodiy, tashqi siyosiy, ichki siyosiy va boshqa prognozlar kiradi. **Ijtimoiy-iqtisodiy prognozlarga** iqtisodiy o'sish, jami talab va jami taklif, makroiqtisodiy tarmoq tarkibi, inflyatsiya darajasi, aholi turmush darajasi va sifati, aholining bandligi, ijtimoiy soha rivojlanishi prognozları va boshqalar kiradi.

Tadqiqot mantig'idan kelib chiqib, prognozlar normativ va qidiruv prognozlariga ajratiladi. Qidiruv **prognozi** mavjud tendensiyalar saqlanib qolgan sharoitda ob'ektning istiqboldagi mumkin bo'lgan holatini aniqlaydi. **Normativ(me'riy)** **prognoz** murakkabroq bo'lib, obyektning kutilayotgan holatiga istiqbolda erishish uchun uning yo'llari, usullari, vositalari hamda belgilangan maqsadlarning qay darajada real ekanligini aniqlaydi. Shuningdek, prognozlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta'sir etishiga bog'liq ravishda aktiv va passiv prognozlarga bo'linadi. Prognozlar ko'p variantli yoki bir variantli (invariantli) bo'lishi mumkin. Ko'lamiga ko'ra esa makroiqtisodiy, tarkibiy, ya'ni tarmoq, tarmoqlararo va mintaqiy, mintaqalararo prognozlar tuziladi.

Iqtisodiyotning rivojlanish istiqbolini aniqlash (prognozlashtirish) qisqa muddat (1-2 yil), o'rta muddat (5 yil), uzoq muddatga (20 yil) mo'ljallanadi. Bunda mavjud o'tgan davrdagi iqtisodiy rivojlanish holati, bozor kon'yunkturasining o'zgarib borish tendensiyalariga asoslanib, kelajaqdagi iqtisodiy ahvolning qanday

¹ Государственное регулирование рыночной экономики. -М.: Путь России. Экономическая литература, 2002 С.45

bo'lishi, qanday natijalarga olib kelishi mumkinligi bashorat qilinadi. Bu - ekstropolyatsiya usuli deyiladi. Olingan ma'lumotlarga esa xususiy ishbilarmonlarning kapital mablag'lar sarflash rejalarini turli so'rovlari orqali o'rganib borish orqali aniqlik va tuzatishlar kiritiladi.

Prognozlar asosida iqtisodiy rivojlanish dasturlari ishlab chiqiladi. **Dastur** — 1) biron-bir faoliyat, ishning mazmuni va rejasи; 2) siyosiy partiyalar, tashkilotlar, alohida arboblar faoliyatining asosiy qoidalari va maqsadlari bayoni; 3) o'quv fani mazmunining qisqacha izohi; 4) teatr, konsertlar va b. Tomoshalarda chiqish navbatlari, ijrochilar, ishtirok etuvchi shaxslar ro'yxati.

Dasturlash — kompyuterlar va boshqa mikroprotsessorli elektron mashinalar uchun dasturlar tuzish, sinash va o'zgartirish jarayonidan iborat. Odadta dasturlash yuqori saviyali dasturlash tillari vositasida amalga oshiriladi. Bu dasturlash tillarining semantikasi odam tiliga yaqinligi tufayli dastur tuzish jarayoni ancha oson kechadi. Dasturlash -elektron mashinalarda masalalarni yechish hamda ularda har xil akdiy mehnat turlarini bajarish na-zariyasi va usullarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan fan; algo-ritmlar nazariyasining amaliy bo'limi; insonning mashina bilan aloqa qilish vositasi. Asosiy vazifalaridan biri elektron mashinalar uchun programma (dastur) tuzish usullari, ularni tekshirish va takomillashtirishdan iborat. Yechilishi lozim bo'lgan masala algoritmi dasturlashda „mashina tili“ga o'tkaziladi.

Dasturlash — bevosita dasturlash va avtomatik dasturlashga bo'linadi. Bevosita dasturlashda programmaning umumiyoq sxemasini ishlab chiqishdan kodlash va mashinaga kiritishgacha bo'lgan barcha ishni programmachi bajaradi. Avtomatik dasturlashda esa programmachi faqat programma sxemasini tuzib, uni qisqartirilgan simvolik kurinishda yozadi, profamma tuzish va uni kodlash kabi texnikaviy ishlarni esa mashinaning o'zi maxsus dasturlash programmasi yordamida bajaradi.

Dasturlarda iqtisodiyot rivojlanishining moddiy va sotsial maqsadlari ko'rsatiladi. Maqsadlarni amalga oshirish uchun kapital

mablag'lar sarflash rejalarini tuziladi, ishlab chiqarish hajmi bilan talab o'rta sidagi nisbatlar o'r ganiladi. Turli ishlab chiqarish bilan import o'rta sidagi bog'liqlik, ishlab chiqarish bilan iste'mol, ishlab chiqarish bilan eksport, eksport bilan import o'rta sidagi bog'liqlar aniqlanadi. Buning uchun tarmoqlararo balansni tuzish, aholi ro'yxatini o'tkazish muhim ahamiyatga ega. Bizda bir necha marta tarmoqlararo balans tuzilgan, aholini ro'yxatga olish amalgalash oshirilgan. Iqtisodiy rivojlanishning umum davlat dasturlari asosida rejalar qabul qilinadi.

5.2. Iqtisodiy rivojlanishni rejalashtirish va uning shakllari, usullari

REJA — 1) biror ishni yoki muayyan dasturni tartibi bilan o'z vaqtida bajarish uchun oldindan belgilab olingan aniq yoki taxminiy mo'ljal; 2) muayyan narsani ko'rib chiqish, yondashish usuli, nuqtai nazar, belgili tartib; 3) qilinayotgan ishning to'g'ri chiqishi uchun tortilgan ip, sim, chiziq va shu kabilar; 4) iqtisodiyotda xo'jalik subyekti, boshqaruv tiziunining ayrim bo'g'lnlari faoliyatining dasturi. Ichki ishlab chiqarish rejasi (masalan, fermaning ichki rejasi) (Biznes reja), xalq xo'jaligi (umum davlat) rejasi, regional va tarmoq rejalar, joriy (1 yilgacha bo'lgan) va istiqbol rejalar farqlanadi.

Rejalarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning pirovard maqsadlari, oraliq natijalarini, ularga erishish uchun zarur bo'lgan resurslar xarajatlarini ifodalovchi aniq miqdoriy parametrlari(reja ko'rsatkichlari) belgilanadi. Rejalar siyosiy tavsifga ega bo'lib, hukumatning iqtisodiy siyosatiga mos ravishda tuziladi, shu boisdan, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yo'lini tanlash asosida iqtisodiy kriteriyalar bilan bir qatorda siyosiy maqsadlar ham ko'zlanadi.

Rejalashtirish-istiqbolda ob'ektning ko'zda tutilgan holatining modelini yaratish jarayoni bo'lib, unda ushbu holatga erishish uchun usullar, vositalari va muddatlari belgilanadi. Rejalashtirishda quyidagi talablarga rioya qilish lozim bo'ladi:

-uning ilmiy ishlab chiqish saviyasini oshirish;

-ilg'or iqtisodiyot tarkibiy tuzilishining vujudga kelishida uning ta'sirini orttirish;

-iqtisodiyot tarmoqlarining balanslangan, mutanosib rivojlanish rolini kuchaytirish;

-ishlab chiqarish va fan-texnika yutuqlaridan samarali foydalanishga yordam berish;

-yangi kam xarajat, tejamkor xo'jalik mexanizmini yaratish, iqtisodiyot va aholi ehtiyojlarini kamroq resurs va mehnat sarflash bilan qondirish.

Ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirish boshqarishning barcha bo'g'inlarida amalga oshiriladi: umum davlat va hududiylar rejalashtirish markaziylari va hududiylar boshqarish organlari tomonidan bajariladi; mahalliy rejalar maxalliy o'z-o'zini boshqarish organlari tomonidan; korxonalar darajasida biznes rejalar tuziladi.

Ilgari ma'muriyat chilikka, buyruqbozlikka asoslangan jamiyatda iqtisodiy rejalar direktiv xarakterga ega bo'lib, yuqorida belgilanib, quyidagi xo'jalik bo'g'inlari uchun majburiy edi.

Direktiv rejalashtirish yuridik kuchga ega bo'lgan rejalarini tuzish jarayon hisoblanadi. Ular o'zining manzilligi, ijrochilar uchun majburiyligi, ularning bajarilishi uchun rejaviy topshiriqlarning belgilanishi va resurslarning taqsimlanishi bilan tavsiflanadi. Rejaning bajarilishi bo'yicha ijrochilarning javobgarligi ko'zda tutiladi. Shu bilan birga direktiv rejalashtirishda ularning ijrochilarini qatnashmaydilar yoki ularning ishtiroki kuchsiz bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti va mulkning ko'p shakllari mavjud bo'lgan sharoitda esa dastur va rejalar davlat korxonalari uchun direktiv, xususiy sektor uchun esa taklif, indikativ xarakterga ega bo'ladi. **Indikativ rejalashtirish** aniq parametrlar (indikator, ya'ni ko'rsatkichlar) shaklidagi ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarini belgilash va belgilangan indikatorlarga erishish uchun davlatning iqtisodiy jarayonlarga bilvosita ta'sir ko'rsatish bo'yicha iqtisodiy choratadbirlarini ishlab chiqish jarayoni hisoblanadi.

Indikativ rejalashtirish jarayonida iqtisodiyotning o'sish sur'atlari, tarkibi va samaradorligi, moliyaviy ahvoli, pul muomalasi, tovarlar va qimmatli qog'ozlar bozori, narxlarning harakati, bandlik. Aholi turinush darajasi, tashqi iqtisodiy aloqalarni va boshqalarni ifodalovchi indikatorlardan, ya'ni ko'rsatkichlardan foydalaniлади. Indikativ rejalashtirishning xususiyatlari uning taklif, tavsiya tavsifga egaligi bilan belgilanади. Bozor iqtisodiyotining xo'jalik subyektlari indikativ rejalarни bajarishga majbur emaslar. Ammo davlat iqtisodiy usullarni (soliqlar, kreditlar, subsidiyalar, davlat buyurtmalarini joylashtirish va h.k.) hamda huquqiy va ma'muriy usullar (rejalarning bajarilishini ta'minlashni nazorat qilish uchun qonunlar va boshqa huquqiy-me'riy hujjatlar qabul qilish) orqali rejalgarda kirishni va ularni bajarishga jalb etadi. Ishbilarmon, tadbirkorlarning rejalgarda amal qilishlarini rag'batlantirish maqsadida ularga turli imtiyozlar, ya'ni soliq to'lashda, kredit, subsidiyalar, xom ashyo, yoqilg'i-energiya, asbob-uskunalar olishda, tovarlarni eksport qilishda imtiyozlar berilishi lozim bo'ladi.

Iqtisodiyotni dasturlash va rejalashtirishdan maqsad, bozor iqtisodiyotida yuz berishi mumkin bo'lgan turli nomutanosibliklar va ortiqcha ishlab chiqarish inqirozlarining oldini olishga qaratilgan bo'ladi. Bu tartibga solish vositasining samaradorligi dastur va rejalgarning tadbirkorlar manfaatiga qanchalik mosligiga, davlatning ularni rag'batlantirish, moliyalashtirish imkoniyatlariga hamda rejalgarning ilmiylik darajasiga bog'liq bo'ladi.

5.3.O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozlashtirish va dasturlashning ustuvor yo'nalishlari

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotini tartibga solishni ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi muhim rol o'ynamoqda. Uning makroiqtisodiy siyosatni ishlab chiqish, muvofiqlashtirish va yuritish sohasidagi asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

-makroiqtisodiy indikatorlarni tahlil qilish va prognozlash asosida iqtisodiyotni boshqarishning bozor mexanizmlarini joriy etish, iqtisodiyotning real sektori holati, ichki va tashqi bozorlar kon'yunkturasi hamda global va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari bilan bog'liq holda iqtisodiyotning asosiy sohalarini rivojlantirish strategiyasini shakllantirish;

-iqtisodiyotning real sektoridagi holatni oldindan baholash indikatorlarini ishlab chiqish va samarali foydalanish tizimini joriy etish;

-inson kapitalini rivojlantirish va mehnat unumdarligini oshirish, ishlab chiqarish va moliviyyi resurslarni samarali taqsimlash, zarur infratuzilmani shakllantirishga asoslangan iqtisodiy rivojlanishning konseptual yo'nalish va vazifalarini ishlab chiqish va ularning amalga oshirilishini ta'minlash;

-O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Moliya vazirligi va boshqa idoralar bilan birgalikda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, shu junladan inflyatsiya darajasini pasaytirish va qo'yilgan maqsadlarga erishish borasida muvofiqlashtirilgan siyosatni amalga oshirish;

-O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi tomonidan ishlab chiqiladigan eksportni qo'llab-quvvatlash, eksport va importda tarif va notarif tartibga solish siyosatlarini shakllantirish jarayonida faol ishtirok etish;

-qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasida ko'zda tutilgan tadbirlar va islohotlarning mehnat unumdarligi, mahsulot yetishtirish va qayta ishlash hajmlarining o'sishiga, ish o'rinnari yaratilishiga ta'sirini baholash va tegishli takliflarni ishlab chiqishdan iborat³⁷.

Mazkur vazirlikka mamlakatimizda kambag'allikni qisqartish bo'yicha ham vazifalar yuklangan bo'lib ular quyidagilardan iborat qilib belgilangan:

-iqtisodiy o'sishning inklyuzivligini ta'minlash, davlat boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat tashkilotlari hamda

³⁷O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2020yil 26 martdag'i "Iqtisodiyotni pivojantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5975son farmoni/
<https://lex.uz/docs/4776669>

xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari bilan hamkorlikda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha strategiya va dasturlarni ishlab chiqish, amalga oshirish va muvofiqlashtirish;

-kambag‘allikni qisqartishning aniq dastak va mexanizmlarini ishlab chiqish, xorijiy tajribani inobatga olgan holda kambag‘allik darajasini aniqlash mezonlari va baholash uslubiyatini, ijtimoiy ta’minotning minimal standartlari va me’yoriy asoslarini ishlab chiqish va joriy etish;

-barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarga erishish chora-tadbirlarini amalga oshirish, yashash minimumi va minimal iste’mol savatini hisoblash metodologiyasini ishlab chiqish hamda aholi daromadlari tabaqalashuvini o’rganish bo‘yicha tizimli ishlarni olib borish hamda ularning davlat maqsadli dasturlari bilan o’zaro muvofiqligini ta’minlash;

-O’zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan birgalikda mehnat bozori va uning tarkibini sifat jihatdan rivojlantirish, ishchi kuchi migratsiyasi jarayonlarini tahlil qilish, takomillashtirish hamda mehnat resurslarini taqsimlash borasida o’zaro muvofiqlikdagi ishlarni olib borish;

-O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi, Sog’liqni saqlash vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi hamda Madaniyat vazirligi bilan birgalikda inson kapitalini rivojlantirish bo‘yicha dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish sohasida hududlarning tabiiy xom ashyo va mehnat resurslarini hamda «nisbiy ustunliklarini» inobatga olgan holda ularni rivojlantirishga turki beradigan omillar va yo’nalishlarni belgilab olish hamda amalga oshirish; ularni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari doirasidagi loyihalarini o’z muddatda va sifatli bajarishga to’sqinlik qiluvchi tizimli muammolarni aniqlash va bartaraf etish, hududlararo ri vojlanishning tabaqalashuvini qisqartirish choralarini ko‘rish; hududlarda sanoat

zonalarini tashkil etish, ularni joylashtirish yuzasidan uslubiy qo'llanmalarni ishlab chiqish, ularni rivojlantirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish; ilg'or xorijiy tajribani o'rgangan holda hududlarni rivojlantirishning milliy metodologik asoslari va yondashuvlarini ishlab chiqish va takomillashtirish kabi vazifalarни ham amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi hududlari ijtimoiy-iqtisodiy darajasi va iqtisodiy-tabiyy salohiyatidagi farqlar ularni istiqbolda hududiy va tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish jarayonlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Hududni iqtisodiy rivojlantirishni barqarorlashtirish strategiyasini asoslashning quyidagi yo'nalişlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir:

- hudud rivojlanishini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilish; bu bosqichda hududning erishgan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasi tahlil qilinadi;

- hududni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish strategiyasini asoslash; rivojlanishni prognoz qilish; strategiya asoslanib, hudud rivojlanishini tartibga solish metodlari tanlanadi;

- konsepsiya ishlab chiqish va hudud rivojlanishini davlat va bozor mexanizmlari orqali tartiblash metodlarini tanlash;

- hududning moliyaviy resurslari o'sishini prognoz qilish; budget daromad qismini kengaytirish va mustahkamlash yo'llarini izlash; budget daromad qismini to'ldirishning yangi manbalarini aniqlash, turli mulkchilik shakllariga asoslangan tadbirkorlikdan, xorijiy investorlardan va nobudget jamg'armalaridan qo'shimcha mablag'larni jaib etish¹.

Respublika va hududiy dasturlarni ishlab chiqishda maqsadli-dasturlash uslubidan foydalaniladi. Bu uslub pirovard natijaga erishish uchun iqtisodiy resurslarni yo'naltirishni ta'minlashni ifodalaydi. Uning

¹Qarang: Регулирование территориального развития в условиях рыночной экономики / Под ред. Б.М.Штульберга. -М., 1993.-С. 73; Содиков А.М. Основы регионального развития: теория, методология, практика-Т.: IQTISOD-MOLIYA; 2005. - С. 165.

yordamida eng muhim iqtisodiy, ijtimoiy va ilmiy-texnikaviy rivojlanish muammolari hal etiladi. Bu muammolar amalda tarmoqlararo yoki hududlararo tavsifga ega bo'lib, xalq xo'jaligi ahamiyatiga ega bo'ladi.

Maqsadli dasturlar o'rta va uzoq muddatga mo'ljallab korxona, mamlakat va xalqaro miqyosda tuziladi. Dasturlar o'z ichiga pirovard va oraliq maqsadlarni, vazifalarni, ularni amalga oshirish chora-tadbirlarni, resurslar ta'minotini olishi kerak.

Dastur maqsadi o'chamga ega bo'lishi, chora-tadbirlar tizimi esa pirovard va oraliq maqsadlarni amalga oshirish nuqtai nazaridan ishlab chiqilishi lozim. Maqsadli hududiy dasturlar hududiy rivojlanishni tartibga solishning samarali metodi sifatida davlat, mahalliy, jamoaviy, shaxsiy manfaatlarni uyg'unlashtirishi handa jamiyatning barcha aholi tabaqalarini davlatning hududiy siyosatini amalga oshirishga da'vat etadigan, yo'naltiradigan bo'lishi kerak. Shuningdek, hududni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish dasturlari mamlakatda amal qilayotgan qonunlar, huquqiy me'yoriy xujjalas asosida ishlab chiqilishi lozim.

Hududni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishdan ko'zlangan asosiy maqsad hududiy iqtisodiyotni uning tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish va tashqi manbalarni jalb etish yo'li bilan mutanosib va oqilona rivojlantirishdan iboratdir.

5.4. Eng muhim tarmoq, sohalarni rivojlantirish dasturlarining maqsadi va yo'nalishlari

O'zbekistonda iqtisodiyotni prognozlashtirish va uzoq muddatli rivojlanish dasturini tuzish bo'yicha ishlab chiqilgan va muhokamaga qo'yilgan **O'zbekiston Respublikasini 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiysi** doyihasining e'lon qilinishi muhim alhamiyatga egadir. BMT, BMT Taraqqiyot Dasturi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va Birlashgan Arab Amirliklarining ekspertlari, mahalliy ilmiy-tadqiqot muassasalar olimlari, respublika vazirlik va idoralari tomonidan keng muhokama qilingan, quyidagi

ustuvor maqsad va yo'nalishlarni qamrab oluvchi O'zbekiston Respublikasini 2030-yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasining ustuvor yo'nalishlari dastur sifatida qabul qilinadi.

Konsepsiya iqtisodiy siyosatni amalga oshirish yo'nalishlari bo'lib xizmat qiladigan O'zbekiston Respublikasini o'rtacha va uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning maqsadlari, ustuvorliklari va vazifalarini belgilaydi va asoslaydi. Bunda, maqsadlar sifatida Konsepsiya jadal va barqaror o'sish sharoitlarida respublika har bir suqarosining sog'lom va samarali hayotini ta'minlaydigan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish, yer, suv va energetika resurslaridan ularni kelajak avlodning foydalanishi uchun saqlab qolgan holda samarali foydalanish, ekologik muammolarni hal etish, Orol dengizining ekologik inqirozi oqibatlarini bartaraf etish, atrof muhitni yaxshilash ko'rib chiqiladi.

Prognozlar bo'yicha 2030-yilga borib real yalpi ichki mahsulotning o'sishini 2,1 baravar va aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot o'sishini xorijiy valyutada 3 baravar yoki 2018-yildagi 1533 AQSh dollariga nisbatan 4538 AQSh dollarigacha ta'minlash ko'rib chiqiladi. Qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun iqtisodiy o'sishning o'rtacha yillik sur'atlarini 6,4 foizdan past bo'limgan darajada qo'llab-quvvatlash zarur bo'ladi.

2030-yilga borib aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotning erishilgan qiymati O'zbekistonga daromadlar darjasasi o'rtadan yuqori bo'lgan jahon mamlakatlari guruhiга kirish, mehnat bozoridagi keskinlik darajasini pasaytirish, aholi daromadlari o'sishini va kam ta'minlanganlikni ikki baravar qisqartirish imkonini beradi.

Ishlab chiqarish real hajmlari o'sishini 2,3 baravar (yalpi ichki mahsulot ulushini 2018-yildagi 26,3 foizdan 2030-yilda 33,3 foizgacha ko'paytirish) qurilish ishlarni 2,1 baravar (5,7 foizdan 6,4 foizga va xizmatlar sohasini 2,1 baravar ko'paytirish (35,6 foizdan 39,3 foizgacha) ta'minlash va tegishli

ravishda qishloq xo'jaligi ulushini 1,8 baravar pasaytirish (32,4 foizdan 21 foizgacha) 2018-2030-yillarda yalpi ichki mahsulot o'sishining asosiy omillari hisoblanadi.

Iqtisodiyot ishlab chiqarish salohiyatining o'sishi eksport hajmlari 3 baravar ko'payishini ta'minlaydi. Iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun kapital qo'yilmalar hajmlarini – 3,1 baravar, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni – 7,0 baravar ko'paytirish talab etiladi.

Bunda quyidagilar maqsadlarga erishishda bosh omillar sifatida qaraladi.

1.Mehnat resurslarini aniq maqsadni ko'zlab tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqish va inson kapitalini kuchaytirish, iqtisodiy o'sishning resurslaridan samarali foydalanish vositasida demografik omil o'sishini samarali iqtisodiy o'sishga transformatsiya qilish.

2.Mintaqalarning moddiy-texnik va moliyaviy bazasini mustahkamlash, sermahsul ish o'rnlari tashkil etilishini va mahalliy aholi daromadlari oshishini ta'minlaydigan infratuzilmaviy, ishlab chiqarish va ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish uchun mahalliy resurslar va imkoniyatlarni jadal safarbar qilish yo'li bilan mintaqaviy omildan samarali foydalanish.

3.Jalb etiladigan investitsiyalar hajmlari o'sishi konsepsiyasidan ulardan samarali foydalanish konsepsiyasiga tizimli o'tish orqali iqtisodiy o'sishni va tarkibiy qayta o'zgartirishlarni ta'minlashda aniq maqsadga yo'naltirilgan investitsiya siyosatini amalga oshirish³⁸.

O'zbekistonda 2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarga erishishni ta'minlash maqsadida: "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiysi" va "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi" va "O'zbekiston

³⁸ O'zbekiston Respublikasini 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiysi// <https://regulation.gov.uz/uz/document/9413>

Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi” tasdiqlangan.

Davlat tomonidan milliy iqtisodiyot va hududlarni rivojlantirishni tartibga solish maqsadida quyidagi dasturlar ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda:

1. Sanoatni rivojlantirish dasturlari. O‘zbekiston Respublikasida 2020 yilda sanoat sohasidagi dasturlar asosida 197 ta yirik, minglab kichik va o‘rta korxonalar hamda infratuzilma ob‘ektlari barpo etildi. Jumladan, “Navoiyazot”da ammiak va karbamid ishlab chiqarish kompleksi hamda azot kislotasi zavodi, Muborak, Gazli va Sho‘rtan neftgaz korxonalarida suyultirilgan gaz ishlab chiqarish qurilmalari, Toshkent metallurgiya zavodi kabi yirik quvvatlar ishga tushirildi. Birgina energetika sohasida xorijiy investorlar bilan davlat-xususiy sheriklik asosida 6 ta yangi elektr stansiyasini barpo etish ishlari boshlandi. Ularning umumiyligi 2 milliard dollar bo‘lib, 2 ming 700 megavatt quvvatga ega³⁹.

2. Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturi. Dasturning maqsadi eksportga mo‘ljallangan va import o‘rnini bosadigan raqobatbardosh zamонави mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirishni yanada rag‘batlanirish, ichki tarmoq va tarmoqlararo, jumladan respublikaning kichik biznes va yirik korxonalari o‘rtasidagi sanoat kooperatsiyasini mustahkamlash, aholi bandligiga ko‘maklashishdan iboratdir.

3. Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishni tartibga solish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish dasturi. Bunda quyidagi tartiblash usullaridan foydalilmoqda:

- hududlarda mahsulot hajmi, qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari va hududlarning ixtisoslashuvini tartibga solish;
- qishloqda ijtimoiy va bozor infratuzilmasini vujudga keltirish;
- qishloq xo‘jaligi yerlarining meliorativ ahvolini yaxshilash;

³⁹ Мирзиёев Ш.М. Узбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга мурожаатномаси //Халқ сўзи, 2017 йил 23 январь.

- qishloq xo'jaligi korxonalar moddiy-texnika bazasini yaxshilash va mustahkamlash, ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish bo'yicha korxonalar tarmog'ini yaratish;
- tabiatni muhofaza qiluvchi va gidroteknik qurilmalarni qurish;
- zarar ko'rib ishlovchi va past rentabelli qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash.

Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish dasturiga muvofiq qishloqda mulkdorlar sinfini, fermer xo'jaliklarini shakllantirish jarayonlari davom ettirildi, tuproq unumdorligini oshirish, seleksiya va urug'chilikni yaxshilash, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi hajmlarini o'stirish chora-tadbirlari ko'rildi.

4. Transport-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish. Infratuzilma, transport va kommunikatsiyalar qurilishini kompleks va jadal rivojlantirish dasturi.

5. Respublika hududlarida xizmat ko'rsatish va servis sohasini yanada rivojlantirish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash dasturi.O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi oqbatida bu sohaning YaIMdagi ulushi 1990-2020 yillarda 34% dan 47,3% ga o'sdi.

6. Mamlakatimizda ijtimoiy sohani rivojlantirish, ish joylarini shakllantirish va aholi bandligi, uy-joylar qurish va aholi punktlarini obodonlashtirish, ta'lim-tarbiya jarayonlari va sog'lijni saqlashi tizimini yanada isloh etish va takomillashtirish bo'yicha dasturlar amalga oshirilmoqda.

7. 2021 yilda davlat dasturida "2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturini amalga oshirish mo'ljallangan.

Mazkur dasturga muvofiq Koronavirus pandemiyasi sharoitida tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash choralarini davom ettirish maqsadida quyidagilarning amal qilish muddati 2021 yil 31 dekabrga qadar uzaytirish belgilangan:

turizm, transport va umumiy ovqatlanish sohalarida faoliyat yuritayotgan sub'ektlarning yer va mol-mulk solig'i bo'yicha 2021 yil 1 yanvar holatiga qarzdorligi to'lanishi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 19 martdag'i PF-5969 son Farmonida nazarda tutilgan vaqtincha qiyinchiliklarni boshdan kechirayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mol-mulk solig'i va yer solig'i bo'yicha 2020 yil 31 dekabr holatiga ko'ra mavjud qarziga penya hisoblanishini to'xtatish va soliq qarzini majburiy undirishga qaratish choralarini ko'rnaslik talabi;

koronavirus pandemiyasi davrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tadbirkorlik sub'ektlariga 2020 yil 31 dekabr holatiga qoldiqda turgan mol-mulk solig'i va yer solig'i bo'yicha berilgan foizsiz kechiktirish (bo'lib-bo'lib to'lash) summasi;

«xufiyona iqtisodiyot» ulushini qisqartirish uchun soliq audit o'tkazishda «tahlika-tahlil» tizimi bosqichma-bosqich joriy etilgan holda soliqlarni va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida to'lab kelayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarida soliq audit o'tkazilishiga moratoriyl;

2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga qaratilgan Davlat dasturidagi chora-tabirlar soni 398 ta etib belgilandi. 2022 yilda Davlat dasturi tadbirlarini amalga oshirishning jami xarajatlari:

55 trln so'm va 11,7 mlrd AQSh dollari, shundan:

Davlat budjeti va Davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari 35,3 trln so'm 165 mln AQSh dollari;

Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari 200 mlrd so'm 100 mln AQSh dollari;

Ijrochilar va banklar mablag'lari 19,2 trln so'm 5,84 mlrd AQSh dollari;

Xalqaro moliya institutlari mablag'lari va grantlari 323 mlrd so'm 5,56 mlrd AQSh dollari⁴⁰.

⁴⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022yil 28yunvardagi “2022–2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60sonli Farmoni. 2-ilova.// <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

8.Hududlarning ijtimoiy rivojlanishini tartibga solish. Ijtimoiy sohani tartibga solishda respublika, hududiy va mahalliy boshqarish darajalari mavjud bo'ladi. Hududlarning ijtimoiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish territorial dasturlar orqali amalgalashiriladi.

O'zbekistonda qabul qilingan dasturlarni amalgalashirish va hududlarning rivojlanishini tartibga solish mexanizmini takomillashtirish uchun quyidagi larni amalgalashirish maqsadga muvofiqdir:

- hududlarni rivojlantirish bo'yicha respublika va hududiy dasturlarni tanlash va ularni amalgalashirishni asoslash hamda navbatga qo'yish tizimini shakllantirish;

- respublika va hududiy dasturlarni amalgalashirish mexanizmini takomillashtirish, buning uchun mahalliy hokimliklar va tegishli vazirliklarning mas'uliyatini oshirish;

- iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlarining hududiy jihatlarini kuchaytirish;

- tarmoq dasturlarining hududiy jihatlari monitoringini tashkil etish;

- hududlar va tarmoq imkoniyatlari, zaxiralarni chuqur o'rghanish va hisobga olish asosida prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish hamda tasdiqlash;

- dasturlarni amalgalashirish ustidan qat'iy nazoratni kuchaytirish, nazorat tizimini yaratish.

Moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash uchun hududni tanlashda hududdagi muammoli holatlarni chuqur o'rghanish lozim bo'ladi. Hukumat tomonidan hududlarni tashkiliy-axborot, tashqi iqtisodiy faoliyat, xorijiy kreditlar, grantlar olish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, xalqaro dasturlar va texnik ko'maklar loyihibalarida ishtiroy etishida yordam berish va qo'llab-quvvatlash kerak bo'ladi. ahalliy budjetlarni balanslashtirish umumdavlat soliqlardan ajratmalar normativlarini va berilgan dotatsiyalarni tartibga solish orqali amalgalashiriladi. Respublika hukumati tomonidan mahalliy hokimiyat organlari va o'zini o'zi boshqarish organlariga davlat boshqaruvi vakolatlari bir qismining o'tkazilishi oqibatida hududiy mahalliy

budjetlarning roli oshadi.

O‘zbekistonda **birinchi bosqichda** — uzoq muddatli (10-15 yilga mo‘ljallangan) tarmoq, hududiy va maqsadli rivojlanish konsepsiyalarini ishib chiqish hamda tasdiqlash, **ikkinchi bosqichda** — tarmoq, hududiy va maqsadli loyihalar portellarini tuzish, **uchinchi bosqichda** — rivojlanish davlat dasturlarini shakllantirishni nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlarini shakllantirishning mutlaqo yangi tartibi tasdiqlandi.

Asosiy tushuncha va atamalar

Iqtisodiy dastur, iqtisodiyotni dasturlash, **prognoz**, **prognozlashtirish**, **reja**, **rejalashtirish**, **reja turlari**, **dasturlashning iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli**, **direktiv** **rejalashtirish**, **indikativ** **rejalashtirish**, **mintaqaviy siyosat**, **mintaqa (hudud)ni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini dasturlash**,**tarmoq dasturlari**.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Iqtisodiy dastur nima?
2. Iqtisodiy dasturlash usullari nimalardan iborat?
3. Prognoz nima?
4. Prognozlashtirish nima va u qanday amalga oshiriladi?
5. Rejalashtirish nima va uning qanday turlarini bilasiz?
6. Rejalashtirish qanday amalga oshiriladi?
7. Iqtisodiyotni dasturlash, prognozlashtirish, rejalashtirish uni davlat tomonidan tartibga solishda qanday rol o‘ynaydi?
8. Iqtisodiy dasturlar nima uchun kerak va ular qanday maqsadlarga xizmat qiladi?
9. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlari qanday tuziladi?
10. Tarmoq va hududiy rivojlanish davlat tomonidan qanday tartibga solinadi?
11. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan qanday dasturlarni bilasiz?
12. “2017— 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar

strategiyasini «Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida qanday tassavurlarga egasiz?

13. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “**Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili**”da amalga oshirishga qaratilgan Davlat dasturida qanday chora-tabirlar belgilangan?

6-BOB. IQTISODIYOTDA MONOPOLIYAGA QARSHI KURASHISH SIYOSATI VA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH

6.1. Raqobatning mohiyati, vazifalari, shakl va usullari

Raqobat bozor iqtisodiyotining va umuman, tovar xo'jaligining eng muhim belgisi, uni rivojlantirish vositasi hisoblanadi.

Raqobat — bozor subyektlari iqtisodiy manfaatlarining to'qnashuvidan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi yuqori foyda va ko'proq nafga ega bo'lish uchun kurashni anglatadi. O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi qonuniga muvofiq "raqobat — xo'jalik yurituvchi subyektlarning (raqobatchilarning) musobaqaqlashuvi bo'lib, bunda ularning mustaqil harakatlari ulardan har birining tovar yoki moliya bozoridagi tovar muomalasining umumiy shart-sharoitlariga bir tomonlama tartibda ta'sir ko'rsatish imkoniyatini istisno etadi yoki cheklaydi", deb ta'riflanadi.

Hozirgi bozor iqtisodiyotida raqobatning quyidagi asosiy vazifalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) tartibga solish vazifasi;
- 2) resurslarni joylashtirish vazifasi;
- 3) innovatsion vazifa;
- 4) moslashtirish vazifasi;
- 5) taqsimlash vazifasi;
- 6) nazorat qilish vazifasi (qarang: 6.1.1-rasm).



6.1.1-rasm. Raqobat vazifalari.

Raqobatning tartibga solish vazifasi ishlab chiqarishni talab (iste'mol)ga muvofiqlashtirish maqsadida taklifga ta'sir o'tkazishdan iborat. Aynan shu vazifa yordamida iqtisodiyotda taklifning talab orqali, ishlab chiqarish tarkibi va hajmining yakka tartibdagi va ijtimoiy ehtiyojlar orqali belgilanishiga erishiladi, ya'ni iqtisodiyot bozor qonunlari asosida tartibga solinadi.

Raqobatning resurslarni joylashtirish vazifasi ishlab chiqarish omillarini ular eng ko'p samara beradigan korxona, hudud va mintaqalarga oqilona joylashtirish imkonini beradi.

Raqobatning innovatsion vazifasi fan-texnika taraqqiyoti yutuqlariga asoslanuvchi hamda bozor iqtisodiyoti sub'ektlarining rivojlanishini taqozo etuvchi turli ko'rinishdagi yangiliklarning joriy etilishini anglatadi.

Raqobatning moslashtirish vazifasi korxona (firma)larning ichki va tashqi muhit sharoitlariga ratsional tarzda moslashishiga yo'naltirilgan bo'lib, ularning shunchaki o'zini-o'zi saqlab, iqtisodiy jihatdan yashab qolishidan xo'jalik faoliyati sohalarining ekspansiyasi (kengayishi)ga o'tishini bildiradi.

Raqobatning taqsimlash vazifasi ishlab chiqarilgan no'matlar yalpi hajimi (yalpi ichki mahsulot)ning iste'molchilar o'rtasida taqsimlanishiha bevosita va bilvosita ta'sir o'tkazadi.

Nihoyat, raqobatning nazorat qilish vazifasi bozordagi ba'zi ishtirokchilarning boshqa bir ishtirokchilar ustidan monopolistik hukmronlik o'mnafishiga yo'l qo'ymaslikka yo'naltiriladi.

Raqobat o'z miqyosiga ko'ra, raqobat ikki turga – tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobatga bo'limadi. Tarmoq ichidagi raqobat tovar ishlab chiqarish va sotishning qulay sharoitiga ega bo'lish, qo'shimcha foyda olish uchun bir tarmoq korxonalari o'rtasida boradi. Tarmoq ichidagi raqobat natijasida texnika darajasi va mehnat unumдорligи yuqori bo'lgan korxonalar qo'shimcha foyda oladilar va aksincha, texnika jihatdan nochor korxonalar esa ishlab chiqarilgan tovar qiymatining bir qismini yo'qtadilar va zarar ko'radir.

Tarmoqlararo raqobat turli tarmoq korxonalari o'rtasida eng yuqori foyda normasi olish uchun olib boriladigan kurashdan iborat. Bunday raqobat kapitalning foyda normasi kam bo'lgan tarmoqlardan foyda normasi yuqori tarmoqlarga oqib o'tishiga sabab bo'ladi. Demak, tarmoqlararo raqobat kapital qaysi tarmoqqa kiritilmasin, xuddi shu tarmoq foyda me'yorlarini o'rtacha foyda normasiga «baravarlashtiradi».

Iqtisodiy adabiyotlarda bir tarmoq ichidagi raqobatning to'rtta shakli alohida ajratib ko'rsatiladi. Bular: sof raqobat, sof monopoliya, monopolistik raqobat va oligopoliyadir.

Sof raqobat sharoitida bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqlar juda ko'p sonli korxonalar mavjud bo'ladi. Ayni paytda, ushbu mahsulot xaridor va iste'molchilarining soni ham juda ko'p bo'ladi. Sof raqobatni bozorda alohida korxonalar mabsulot narsasi ustidan nazorat o'shasi olmaydi yoki nazorat sezilarsiz darajindu bo'ladi. Sof raqobatning raqobat ham deb ataladi. Mukammal raqobatni tavsiyalovchi bir qaysi belgilar mavjud bo'lib, ulardan naosiyatlari quyidagi shartlar bo'ladi:

- bozor ishtirokchilari (ham sotuvchilar, ham xaridorlar) sonining ahamiyatli darajada ko‘p bo‘lishi;
- iqtisodiy resurslarning harakatchanligi, ulardan foydalanishda hech qanday cheklow yoki to‘silarning mavjud bo‘lmasligi;
- bozorga kirish va undan chiqishning erkinligi;
- sotuvchilarning o‘zaro mustaqilligi, ular xatti-harakatining bir-biriga bog‘liq bo‘lmasligi;
- ishlab chiqarilgan mahsulotning bir xil ko‘rinishda ekanligi;
- ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulot hajmida ishlab chiqaruvchilar ulushining ahamiyatli jihatdan farq qilmasligi;
- xo‘jalik yuritishda qo‘l keluvchi axborotlar (masalan, tovarlar narxi, ularning o‘zgarish ehtimoli, hajmi, sifati va boshqalar) to‘g‘risida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lish imkoniyati.

Sof monopoliyada tarmoq bitta firmadan iborat bo‘lganligi sababli, u mavjud mahsulot (xizmat)ning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi va yakkahukmronlik shakllanadi. Monopoliya sharoitida firma narx ustidan sezilarli nazoratni amalgalashadi.

Monopolistik raqobat o‘z ichiga ham monopoliya, ham raqobat unsurlarini oladi. Bunda tarmoqdagi bir turdag'i mahsulotning o‘nlab ishlab chiqaruvchilari bir-birlari bilan qulay narx hamda ishlab chiqarish hajmiga erishish borasida raqobatlashadilar. Biroq, ayni paytda, har bir ishlab chiqaruvchi o‘z mahsulotini tabaqlashtirish, ya’ni shu turdag'i boshqa mahsulotlardan qaysi bir jihatni (sifat darajasi, shakli, qadoqlanishi, sotish sharoitlari va h.k.) bo‘yicha farqlash orqali uning monopol ishlab chiqaruvchisiga aylanadi.

Oligopoliya – tarmoqda u qadar ko‘p bo‘lmagan korxonalarining mavjud bo‘lishi va hukmronlik qilishidir. Qaysi tovarlar va xizmatlar bozorida nisbatan kam sonli ishlab chiqaruvchilar hukmronlik qilsa, shu tarmoq oligopolistik tarmoq hisoblanadi. Sof monopoliya, monopolistik raqobat va oligopoliya nomukammal raqobat shakllari hisoblanadi.

Shuningdek, turli monopolashuv darajasidagi tuzilmalar o‘rtasida mavjud bo‘lishiga ko‘ra quyidagi raqobat turlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- 1) monopollashmagan korxonalar o'rtasidagi raqobat;
- 2) monopoliyalar hamda monopolistik birlashmalarga kirmagan ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobat;
- 3) turli monopoliyalar o'rtasidagi raqobat;
- 4) monopolistik birlashmalar ichidagi raqobat.

Raqobat kurashining ikki usuli farqlanadi: narx vositasidagi raqobat va narxsiz raqobat. Narx vositasida raqobatlashuv kurashning asosiy usuli bo'lib, ishlab chiqaruvchilarning o'z tovarlari narxini boshqa ishlab chiqaruvchilarning shunday mahsulotlari narxiga nisbatan pasaytirishi hisoblanadi. Narxsiz raqobatda kurashning asosiy omili tovarlarning narxi emas, balki uning sifati, sotishdan oldinga va sotilgandan keyingi servis xizmat ko'rsatish, ishlab chiqaruvchi fermaning obro'-e'tibori, imiji hisoblanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda g'irrom va halol raqobatlashuv usullari ham ajratib ko'rsatiladi. Raqobatlashuvning noan'anaviy, jamiyat tomonidan e'tirof etilmagan, ijtimoiy ahloq qoidalari doirasidan chetga chiquvchi, noiqtisodiy (ya'ni, jismoniy kuch ishlatish, majburlash, raqiblarning obro'siga putur yetkazish va h.k.) usullaridan foydalanish g'irrom raqobat deb yuritiladi. Halol raqobat — raqobat kurashida jamiyat tomonidan tan olingen iqtisodiy usullarni qo'llash, o'zining maqsad va manfaatlariga erishishda umumjamiyat manfaatlariga zid keluvchi holatlarni qo'llamaslik kabi qoidalarga asoslanadi.

Monopoliyalarning mavjudligi raqobat va raqobat muhitining rivojlanishini cheklaydi. Monopoliyalar turlariga qarab raqobatga ta'siri farqlanadi. Monopolianing vujudga kelishi sababi va tavsifiga ko'ra: tabiiy monopoliya, legal monopoliya, sun'iy monopoliya farqlanadi.

Tabiiy monopoliya — texnologik xususiyatlar va yirik miqdordagi kapital xarajatlar tufayli raqobatni shakllantirish imkonsizligi yoki maqsadga muvofiq emasligi bilan ajralib turadigan tovar bozorining holati bo'lib, unda boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun bozorga kirish imkoniyati mavjud emasligi, qiyinligi yoki maqsadga muvofiq emasligi natijasida tarmoq infratuzilmasiga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ekt

monopol mavqega ega bo'ladi. Tabiiy monopoliya subyekti — tabiiy monopoliya sharoitida tovarlar ishlab chiqarish va (yoki) realizatsiya qilish faoliyatini amalga oshiruvchi xo'jalik yurituvchi subyekt. Tabiiy monopoliyalar faoliyati ularning mamlakat iqtisodiyotida egallagan ahamiyatini hisobga olgan holda davlat tomonidan tartibga solinadi.

Legal (qonuniy) monopoliya – bu qonuniy tarzda tashkil etiluvchi monopolistik holat. Sun'iy monopoliya – monopol foyda olish maqsadida tashkil etiluvchi birlashmalarning shartli (tabiiy monopoliyalardan ajratib turish uchun) nomi. Sun'iy monopoliya o'z manfaatlari yo'lida bozor muhitini tuzilishini ataylab o'zgartiradi, ya'ni:

- bozorga yangi raqiblarning kirib kelishiga yo'l qo'ymaslik uchun turli to'siqlar hosil qiladi (xomashyo va energiya manbalarini egallab oladi; banklarning yangi korxonalarga kredit berishini taqiqlashga harakat qiladi va boshqalar);

- ishlab chiqarishning eng yuksak darajadagi texnologiyasiga erishib, qolgan raqiblarining bu darajaga chiqishiga imkon bermaydi;

- ishlab chiqarish miqyosi samarasidan unumliroq foydalanish imkonini beruvchi nisbatan yirik hajmdagi kapitalni qo'llaydi;

- o'z faoliyatini yuqori darajada reklama qilish orqali boshqa raqobatchilarni bozordan siqib chiqarishga harakat qiladi.

Cun'iy monopoliyalar kartel, sindikat, trest, konsorsium, konsern kabi aniq shakkarda namoyon bo'ladi.

Monopolianing iqtisodiy taraqqiyotga ta'sir qiluvchi ijobjiy va salbiy tomoni mavjud. Uning **ijobjiy** tomoni birinchidan, ma'lum tarmoqlarda nisbatan samarali amal qiladi va xarajatlarning tejalishiga olib keladi, ikkinchidan, monopolistik korxonalarda ishlab chiqarishga ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini joriy etish uchun ko'proq rag'bat va imkoniyat mavjud bo'ladi.

Monopolianing salbiy tomoni sifatida quyidagi jixatlarni ko'rsatish mumkin:

- 1) resurslarning oqilona taqsimlanmasligi. Bu holat monopoliyalarning yuqori foyda ketidan quvib, sun'iy ravishda ishlab

chiqarishni cheklash vositasida narxlarni ko'tarishi, mahsulotlarning u qadar yaxshi bo'lmagan turlarini, past texnikaviy darajasini, past sifati hamda sotishning yomon sharoitlarini vujudga keltirishi orqali namoyon bo'ladi;

2) **daromadlardagi tengsizlikning kuchayishi.** Bu holat ham narxlarning monopol tarzda oshirilishi (pasaytirilishi) hamda yuqori foya olinishi bilan bog'liq bo'lib, bu aholi qolgan qismi daromadlarining nisbatan kamayishiga olib keladi;

3) **iqtisodiy turg'unlik va fan-texnika taraqqiyotining sekinlashuvi.** Bunday holat monopolistlarning yuqori foydani qo'shimcha urinishlarsiz o'zlarining bozordagi hukmronliklari hisobiga olishlari mumkinligida namoyon bo'ladi;

4) **iqtisodiyotda demokratik harakatlarning to'sib qo'yilishi.** Bu holat monopolistlar iqtisodiyotdagi erkin va halol raqobatga to'sqinlik qilib, nisbatan kuchsiz bo'lган korxonalarni o'zlariga bo'ysundirishlari, o'z ishchilariga pasaytirilgan miqdorda haq to'lash, past sifatlari tovarlarni ishlab chiqarish, o'ta darajada oshirib yuborilgan sotish narxlari (yoki pasaytirilgan xarid narxlari), o'z mahsulotini iste'mol qilishga bilvosita usul orqali majburlash kabi o'zlarining kamsituvchi shartlarini ko'ndalang qo'yishlarida ifodalanadi.

Monopoliyalarning ustun mavqega ega bo'lishlari sababli raqobat sharoitida amal qiluvchi iqtisodiyot samaradorligini bozor vositasida tartibga solish mexanizmi ishdan chiqadi. Shuning uchun raqobatni va iste'molchilar huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida iqtisodiy monopoliyalarning raqobatni chekllovchi hatti harakatlariga qarshi davlat siyosati amalga oshiriladi. Bu siyosatni davlatning monopolizmga qarshi siyosati deb ham ataladi.

6.2. Davlatning iqtisodiy monopoliyaga qarshi kurash siyosati chora-tadbirlari

Davlat bozor iqtisodiyotini rivojlantirishning asoslaridan biri bo‘lgan raqobat mexanizmining to‘liq ishlashi uchun hamda aholini ma’lum darajada ijtimoiy himoyalash maqsadida iqtisodiy monopolizmga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Ma’lumki, sobiq sotsialistik mamlakatlarda, shu jumladan, sobiq covet ittifoqida davlat mulkinining yakkahokimligi, rejali xo‘jalik yuritish tizimining amal qilishi oqibatida iqtisodiy raqobat uchun sharoit bo‘lmadi. Tadbirkorlik va tanlash erkinligi ham mavjud emasdi. Shu boisdan O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tish uchun raqobatchilikni tiklash lozim bo‘ladi. Buning uchun davlat mulkini uning ixtiyoridan chiqarish va xususiylashtirishning o‘zi kifoya qilmaydi. Chunki yangidan tashkil topadigan aksionerlik jamiyatları, konsern, uyushmalar, xususiy firmalar yana iqtisodiy yakkahokim bo‘lib qolishlari mumkin. Shu boisdan rivojlangan mamlakatlarda to‘plangan yakkahokimlikka qarshi kurash tajribalari asosida antimonopol siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Dastlabki monopolizmga qarshi qonun 1890 yilda (trestlarga qarshi Sherman qonuni) AQShda qabul qilingan. Keyinchalik Kleyton qonuni (1914 yilda) qabul qilingan. Bu qonun mahsulot sotish sohasidagi cheklovchi faoliyatлarni, narx bo‘yicha kamshitish, ma’lum ko‘rinishdagi birlashib ketishlar, o‘zaro bog‘lanib ketuvchi direktoratlar va boshqalarni taqiqlaydi. **Robinson-Petmen qonuni** (1936 yilda qabul qilingan). Bu qonun savdo sohasidagi cheklovchi faoliyatlar, «narxlar qaychisi», narx bo‘yicha kamshitishlar va boshqalarni taqiqlaydi. 1950 yilda Kleyton qonuniga **Seller-Kefover tuzatishi** kiritildi. Unda noqonuniy birlashib ketishlar tushunchasiga aniqlik kiritilib, aktivlarni sotib olish orqali birlashib ketish taqiqlandi. Agar Kleyton qonuni yirik firmalarning gorizontal ravishdagi birlashib ketishlariga to‘siq qo‘ygan bo‘lsa, Seller-Kefover tuzatishi vertikal ravishdagi birlashib ketishlarga cheklov kiritdi.

Hozirgi davrda ana shunga o'xhash qonunlar deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda qabul qilingan bo'lib, mazkur qonunchilik asosan uch yo'naliishga ega.

Birinchidan, har qanday yirik firma, korporatsiya mahsulot ishlab chiqarishning 40-50 foizdan ortig'ini o'z qo'lida to'plamasligi zarur.

Ikkinchidan, barcha yirik korxonalar jismoniy va yuridik shaxslar uchun o'zining va boshqa hissadorlik jamiyatlari aksiyalarining to'planadigan ulushlari miqdori cheklab qo'yiladi.

Uchinchidan, bozor baholarini talab va taklif nisbatini inobatga olmay, o'zaro kelishib belgilash va ushlab turishga qaratilgan kelishuvlar, bozorlarni o'zaro taqsimlab olishlar man qilinadi.

Monopoliyaga qarshi qonunchilikni tatbiq etish uchun maxsus ma'muriy muassasalar, qo'mitalar tuziladi. Ular korxonalarining tuzilishiga, qimmatbaho qog'ozlarning taqsimlanishiga aralashadilar va barcha uchun majburiy qaror ishlab chiqaradi. Bunda Yaponiya tajribasi qo'l kelishi mumkin. Yaponiyada Ikkinci jahon urushidan keyin yakkahokim monopoliyalarni man qiluvchi qonunga amal qilishni nazorat qiluvchi odilona kelishuvlar yuzasidan tashkil topgan qo'mita keng vakolatlarga ega bo'lib, mazkur qo'mita mustaqil ravishda ish yuritadi. Agar amaldagi qonunchilikning buzilishini qo'mita aniqlasa va bu holat sud tomonidan tasdiqlansa, uni buzgan firmaga juda katta jarima solinadi. Qo'mita o'zaro raqobat qiluvchi korporatsiyalarning bir-birlari bilan kartel shartnomalari tuzishlarini man qiladi. Agarda ana shunday shartnomalar iqtisodiy zarurat sifatida tuzilsa, qisqa muddatli bo'lishi nazorat qilinadi.

Monopoliyaga qarshi davlat organlarining monopolistik faoliyatni cheklash va tartibga solishga qaratilgan faoliyat yo'naliishlari quyidagilardan iborat:

- monopoliyadan chiqarish bo'yicha tarmoq dasturlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirishni nazorat qilish;
- bozorda ma'lum tovar bo'yicha 35% dan ortiq ulushga ega bo'lган va reestrga kiritilgan xo'jalik sub'ektlarining bozordagi hatti-xarakatini nazorat qilish;

- tovar bozorlarida ustun mavqega ega bo'lgan xo'jalik sub'ektlarining monopolistik faoliyatining oldini olish va unga barham berish;
- tovar bozorlariga kirish to'siqlarini, shuningdek, xalqaro savdo va investitsiyalar uchun tarifli va tarifsiz to'siqlarni kamaytirish bo'yicha harakatlarni amalga oshirish;
- xo'jalik subektlarini bo'lib yuborish, yoki ushbu tovar bozoriga kirishni istagan yangi xo'jalik sub'ektlarini qo'llash-quvvatlash yo'li bilan monopolistik tovar bozorida xo'jalik subyektlari sonini ko'paytirish;
- xo'jalik subyektlarining qo'shilishiga va yuridik shaxslarning uyushmalar tashkil etishlarini man qilish;
- g'irrom, nohalol raqobatning oldini olish;
- tovar bozorlarida ustun mavqega ega bo'lgan xo'jalik sub'ektlarining bozor salohiyatini(potensialini) cheklash.

Buyuk Britaniya va Fransiyada korxonalarning qo'shilishi natijasida tashkil topgan yangi korxonaning bozor ulushi 25%dan, aktivlar hajmi ham ma'lum miqdordan oshmasligi kerakligi belgilab qo'yilgan.

Germaniyada bundan tashqari yillik sotish hajmining quyi chegarasi ham belgilab qo'yiladi AQSh, Yaponiya, Kanada, Avstraliyada qo'shilish to'g'risidagi shartnomalar davlatning tegishli organlari ruxsatsiz tuzilgan taqdirda noqonuniy hisoblanadi. Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniyada aktivlari qiymati va sotish hajmi bo'yicha yirik firmalarning qo'shilishigina nazorat qilinadi.

Kartellar AQSh, Fransiya, Germaniya, Ispaniya, Portugaliya, Avstraliya, Kanadada to'liq man qilingan. Bu haqdagi keluv qonunni buzilishi holati deb hisoblanadi. Kelishuv to'g'risidagi ma'lumot tasdiqlansa, monopol foyda miqdoridan 3 barobar ko'p miqdorda shtrafga tortiladi. AQShda yashirin kartelda ishtirok etish javobgarlikka tortiladigan jinoyat hisoblanadi. Ta'minot va sotish faoliyati bo'yicha firmalarning birlashishi tannarxni pasaytirishga imkon bersa ham noqonuniy faoliyat deb baholanadi.

6.3. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotda monopolistik faoliyatni tartibga solish maqsadlari va yo'nalishlari

O'zbekiston Respublikasida ham iqtisodiyotda raqobatchilik muhitini vujudga keltirish maqsadida 1992-yilning avgust oyida "Monopol faoliyatni cheklash to'g'risida"gi Qonun kuchga kiritildi. Mazkur Qonun asosida iqtisodiyotda raqobatchilikni rivojlantirishga qaratilgan bir qator normativ hujjatlar ishlab chiqilib, amalga oshirila boshlandi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida tovarlar bozorida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat muhitini saqlash, rivojlantirish maqsadida 1996-yil 27-dekabrda O'zbekiston Respublikasining "Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida"gi, 1996 yil 26 aprelda "Iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunlari qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining "Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida"gi Qonuniga binoan monopolistik faoliyatga xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatga yo'l qo'ymaslikka, uni cheklash yoki bartaraf etishga qaratilgan harakatlari yoki harakatsizligi deb ta'rif beriladi.

Monopoliyalarga qarshi kurashish va ularning faoliyati ustidan nazorat qilishga yo'naltirilgan funksional idora sifatida 1992 yilda Moliya vazirligi huzuridagi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish Bosh boshqarmasi tashkil etildi va u 1996 yil 15 mayda Moliya vizirligi huzuridagi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish qo'mitasiga aylantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000 yil 2 avgustdag'i 2676-sonli Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 300-sonli Qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'miasi tashkil etildi.

Iqtisodiyotning xususiy sektorini jadal rivojlantirishni rag'batlantirish, monopoliya kompaniyalari faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish, bankrot va monipolist kompaniyalarini qayta tashkil etish,

raqobat muhitini shakllantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 30 apreldagi 3602-sonli Farmoni va 2005 yil 2 maydagi 66-sonli Qaroriga muvofiq mazkur qo'mita O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasiga aylantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-fevraldag'i "Monopoliyaga qarshi ishlarni tartibga solish va raqobatni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4191-sonli Farmoni bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash qo'mitaning asosiy vazifalari qatoridan chiqarildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida» gi 2017 yil 18 apreldagi PF-5016-sonli Farmoniga asosan qayta tashkil etilgan qo'mitaning faoliyat vazifalari va yo'nalishlari belgilab berilgan. Bu qo'mitaga xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish vazifalaridan tashqari monopoliyaga qarshi siyosatni amalga oshirish, raqobatni va qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish, iste'molchilar huquqlarini muhofaza qilish, baholash, rietorlik va birja faoliyatini litsenziyalash, reklama bozorini tartibga solish vazifasi ham yuklatildi⁴¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 18 apreldagi PQ-2897-son qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi tuzilmasida hududiy filiallar bilan birgalikda Tadbirkorlik faoliyati asoslarini o'qitish respublika markazi tashkil etildi.

Ammo bir davlat organi doirasida davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi hamda qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish funksiyalarining jamlanishi tizimli muammolarning to'planishiga olib

⁴¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida»gi PF-5016-sonli Farmoni. 2017yil 18 aprel // <https://president.uz/uz/lists/view/415>

keldi, shuning uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 yanvardagi “Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5630-son Farmoniga muvofiq bu qo‘mita va unga kiruvchi markazlar negizida Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hamda Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi tashkil etildi.

Mazkur farmonda raqobatni rivojlantirish va monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish sohasida davlat siyosatining quyidagi asosiy yo‘nalishlari belgilab berildi:

bozorning barcha ishtirokchilariga tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun teng imkoniyatlarni taqdim qilish, ruxsat berish tartib-tamoyillarini soddalashtirish va davlat xizmatlari ko‘rsatish hisobiga ularga teng shart-sharoitlar va xo‘jalik faoliyati erkinligi berilishini ta‘minlash;

ishlab chiqariladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning sifatini oshirish, narxlarning asossiz oshib ketishini cheklash va shu hisobidan ichki talabni yuqori darajada qondirishni ta‘minlash uchun sharoit yaratish;

tovar va moliya bozorlarida faoliyat yuritayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar ustav kapitalidagi (fondidagi) davlat ishtirokini kamaytirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish⁴².

Ushbu yo‘nalishlardan lardan kelib chiqqan holda Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

tovar va moliya bozorlarida raqobat muhitini ta‘minlash sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

tovar va moliya bozorlarida raqobat muhiti holatini tizimli tahlil qilish, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ustun mavqeni suiiste‘mol qilishi, «kartel» bitimlari va til biriktirishi, nohalol raqobatchiligini aniqlash va oldini olish;

⁴² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 yanvardagi “Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5630-son Farmoni:// <https://lex.uz/docs/-4160392>

savdolar, iqtisodiy konsentratsiya va davlat ko'magini monopoliyaga qarshi tarzda tartibga solish;

bozor ishtirokchilari, shu jumladan tabiiy monopoliya sub'ektlariga yuqori likvidli tovarlardan (ishlar, xizmatlar) foydalanishda teng sharoitlarni ta'minlash;

qonun hujjatlarining raqobatga ta'sirini baholash, davlat organlarining raqobatni chekllovchi qarorlar qabul qilishiga va shunday harakatlarni amalga oshirishiga yo'l qo'ymaslik.

O'zbekiston Respublikasida antimonopol siyosat endilikda quyidagilarga qaratilishi maqsadga muvofiqdir:

- respublikada sog'lom raqobat muhitini yaratish uchun zarur tashkiliy, iqtisodiy va moliyaviy shart-sharoitlar, mustahkam huquqiy bazani shakllantiruvchi va muvofiqlashtiruvchi markaz funksiyalarini amalga oshirish;

- bozor iqtisodiyoti talablariga javob beruvchi raqobat qonunlari, umumiyligida qilingan normalar va qoidalarni samarali amalga oshirishni ta'minlovchi monopoliyaga qarshi tartibga solishning kuchli tizimini barpo etish;

- raqobatni va tadbirkorlikni rivojlantirish asosida bozor qayta o'zgartirishlari chuqurlashishiga ko'maklashish;

- insofsiz raqobatchilar tomonidan tovar va moliya bozorlari, birinchi navbatda, iste'mol tovarlari bozorini monopoliashtirish yuzasidan har qanday urinishlarning oldini olish, ularni cheklash va ularga barham berish;

- monopoliyaga qarshi davlat siyosati konsepsiyasini amalga oshirish, monopoliyadan chiqarish bo'yicha respublika, tarmoq va mintaqaviy dasturlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini muvofiqlashtirish;

- monopoliyaga qarshi qonunchilik hujjatlariga rioya qilinishi, shuningdek, o'z vakolati doirasida tabiiy monopoliyalar sub'ektlari faoliyatini ustidan nazoratni amalga oshirish;

- reklama va iste'molchilar huquqlarini muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

- iste'mol tovarlari narxlari va xizmatlarga tariflar monitoringini o'tkazish, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari bilan birgalikda narxlarning asossiz ravishda o'sib ketishi, bozorda sifatsiz iste'mol tovarlari sotilishi va xizmatlar ko'rsatilishiga olib keluvchi insofsiz raqobatning oldini olish chora-tadbirlarini ko'rish;

- monopol xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan samarali tartibga solish va nazorat qilishga, raqobat muhitini rivojlantirish, iste'molchilar huquqlarini muhofaza qilish va reklama faoliyatiga yo'naltirilgan normativ-metodologik bazani takomillashtirish va h.k.

2012 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi qonunda monopolistik faoliyat uchun asos bo'ladijan "Ustun mavqe tovar yoki moliya bozorida xo'jalik yurituvchi subyektning yoxud shaxslar guruhining raqobatlashuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarga bog'liq bo'limgan holda unga o'z faoliyatini amalga oshirish va raqobatning holatiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatish, tegishli bozorga boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning kirishini qiyinlashtirish yoxud ularning iqtisodiy faoliyat erkinligini boshqacha tarzda cheklash imkoniyatini beradigan holatidir.

Tovar bozorida qaysi xo'jalik yurituvchi subyekt yoki shaxslar guruhi tovarining ulushi: 1) ellik va undan ortiq foizni tashkil etsa; 2) o'ttiz besh foizdan ellik foizgacha hajmda bo'lib, bunda quyidagi shartlar: xo'jalik yurituvchi subyektning tovar bozoridagi ulushi kamida bir yil mobaynida barqaror bo'lib turishi; tovar bozorida boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga (raqobatchilarga) tegishli ulushlarning nisbiy miqdorda bo'lib turishi; ushbu bozorga yangi xo'jalik yurituvchi subyektlarning (raqobatchilarning) kirishiga imkoniyat bo'lishi shartlari belgilangan bo'lsa, shu xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining mavqeい ustun mavqe deb e'tirof etiladi.

Moliya bozorida xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining ustun mavqeini e'tirof etish tartibi va shartlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi”⁴³.

Ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyektning raqobatni cheklaydigan va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning manfaatlarini kamsitgan yoxud kamsitishi mumkin bo'lgan harakatlari taqilanganadi. Xo'jalik yurituvchi subyektning o'z yuqori mavqeini suiiste'mol qiladigan xatti-harakatlariga quyidagilar kiradi:

- bozorlarda taqchillikni keltirish yoki uni saqlash va narxlarni oshirish maqsadida tovarlarni muomaladan olib qo'yish;

- monopol qimmat yoki monopol arzon narxlarni belgilash. Monopol qimmat narx tovar bozorida ustun mavqega ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektning ishlab chiqarish quvvatidan to'laligicha foydalananmaslik tufayli qilgan asossiz xarajatlarini qoplash yoki tovar sifatini pasaytirish natijasida qo'shimcha foyda olish maqsadida tovarga belgilagan narx hisoblanadi.

Monopol arzon narx esa ushbu xo'jalik subyektining sotib olayotgan tovariga qo'shimcha foyda olish yoki qilingan asossiz xarajatlarni sotuvchi hisobiga qoplash maqsadida belgilaydigan narxidir. Shuningdek, raqobatchini bozordan siqib chiqarish uchun monopolistik mavqedagi xo'jalik subyekti belgilagan zarar ko'radigan darajadagi narx hisoblanadi. Bunday narxlarning belgilanishi oqibatida raqobat cheklanadi.

Insafsiz raqobat, ya'ni xo'jalik yurituvchi subyektlarning tadbirkorlik faoliyatida ustunlikni qo'lga kiritishga qaratilgan ular o'rtaida musobaqalashuvni istisno etadigan, iste'molchilarni chalg'itish usullari qo'llanuvchi raqobatdir.

O'zbekistonda monopoliyaga qarshi davlat organi monopolistik faoliyat va insafsiz raqobatni cheklash hamda to'xtatib qo'yish sohasida davlat siyosatini olib boradi.

⁴³O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi qonuni, 2012 yil 6 yanvar, O'RQ-319-sonli 6-nodda // <https://lex.uz/docs/-1931443>.

Monopoliyaga qarshi davlat organi xo'jalik subyektlarini tashkil etish, qayta tashkil etish, tugatish ustidan davlat nazoratini amalgalashiradi. Agar xo'jalik subyektlarining qo'shilishi, birlashtirilishi, xolding kompaniyalariga aylantirilishi oqibatida monopoliya vujudga keladigan bo'lsa, u holda ularning iltimosnomalari rad etiladi.

Ushbu organ aksiyalar, ulushlar va boshqa mulkiy huquqlarni olish vaqtida monopoliyaga qarshi kurashga doir qonun hujjatlari rivojalishni ustidan davlat nazoratini amalgalashiradi. Zaruriy va munkin bo'lgan hollarda monopolistik korxonalar majburiy tarzda bo'lib ham yuboriladi. Monopoliyaga qarshi qonun hujjatlari buzilganda ushbu organ uni buzgan xo'jalik sub'ektlariga qonunda belgilangan jarimalarni soladi yoki ularning ishini sudga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasida monopolistik faoliyatni cheklashga qaratilgan siyosatning amalgalashiradi natijasida bugun avval monopolashgan tekstil, qurilish materiallarni ishlab chiqarish, farmasevtika, mebel va oziq-ovqat sanoati kabi sohalarda sog'lom raqobat muhitini shakllanib, yirik monopoliyalar tugatildi. Monopolashgan bozorni tahlil qilish tubdan qayta ko'rib chiqildi, asosiy e'tibor tarmoqni o'rghanishdan tovar bozorlardagi talab va taklifga, bozor muvozanatiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillarga qaratilmoqda. Ushbu asosda Qo'mita tomonidan xar yili 100 ga yaqin tovar va moliya bozorlari segmentlari o'rGANILMOQDA.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarni tekshirish o'miga, "kartel" nomlanuvchi turli shakldagi, ayniqsa narx sohasidagi kelishuvlar va kelishib qilingan harakatlarni aniqlash bo'yicha tahlillar amalgalashirilmoxda.

Monopolist-korxonalar davlat reestriga kiritilgan korxonalar va tabiiy monopoliya subyektlari davlat reestriga kiritilgan korxonalar umumiy sonining faoliyat yuritayotgan xo'jalik sub'ektlar umumiy soniga (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) nisbati bilan hisoblanadi. Tadbirkorlikning monopolashuv darajasi 2012-2013 yillarda 0,32 ni, 2014 yilda 0,31 ni, 2015 yilda esa 0,27 ni tashkil etdi.

O'zbekistonda yuqori likvidli va monopol mahsulotlar sotib olishda va korporativ xaridlarda tadbirkorlik subyektlari qatnashishi uchun tadbirkorlik sub'ektlariga keng sharoitlar yaratish bo'yicha ham chora -tadbirlar amalga oshirilmoqda.

2013 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasining Prezidentining PQ-1948 -sonli qaroriga muvofiq tabiiy monopoliya subyektlari va davlat korxonalarini ehtiyojlari uchun tovarlarni sotib olishga xususiy tadbirkorlar keng jalg qilish va raqobatni rivojlantirishni ta'minlash maqsadida, elektron savdolar orqali korporativ xaridlarni amalga oshirishning yangi tartibi joriy etildi. Hozirgi kunda xaridlarning deyarli 98 foizi tabdikorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Tabiiy monopoliyalar to'g'risida"gi Qonuniga (yangi tahriri) asosan tabiiy monopoliya subyektlari bilan iste'molchi va davlat manfaatlарining mutanosibligi ta'minlanadi. Ushbu qonunga ko'ra tabiiy monopoliya tovar bozorining texnologik xususiyatlari tufayli muayyan tovarlar (ishlar, xizmatlar) turlariga bo'lgan talabni qondirishning raqobatli sharoitlarini yaratish mumkin bo'limgan yoki iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'limgan holati hisoblanadi.

O'zbekistonda tabiiy monopoliya sub'ektlarining faoliyati quyidagi sohalarda davlat tomonidan tartibga solinadi:

- neft, neft mahsulotlari va gazni quvur orqali transportirovka qilish;
- elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarish hamda transportirovka qilish;
- temir yo'llari infratuzilmasidan foydalanish;
- umumiy erkin foydalilanidigan pochta aloqasi xizmatlari;
- suv quvurlari va kanalizatsiya xizmatlari;
- aeronavigatsiyalar, portlar va aeroportlar xizmati;
- transport terminallari xizmatlari.

Qonunda tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va u vakolat bergen organ, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va

tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi va uning joylardagi organlari tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatini tartibga soladi.

Monopoliyaga qarshi organ qonun hujjalarning buzilishiga yo'l qo'yan tabiiy monopoliya subyektlariga jarima soladi yoki qonun buzilishi holatlarini to'xtatish va bartaraf etish bo'yicha bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar yuboradi, shu bilan birga, sudga da'vo arizasi bilan murojaat etadi.

Shuningdek, mahalliy davlat hokimiyyati organlariga bajarilishi majburiy bo'lgan, ular tomonidan ushbu qonunga zid tarzda qabul qilingan hujjalarni bekor qilish yoki o'zgartirish kiritish to'g'risida ko'rsatmalar yuboradi. Monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat muhitini yaratishdan ko'zlangan maqsadlaridan biri iste'molchilarining tanlash erkinligini ta'minlash va huquqlarini himoya qilishdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunga muvofiq iste'molchi foyda chiqarib olish bilan bog'liq bo'lmagan hamda shaxsiy iste'mol yoki xususiy xo'jalikda foydalanish maqsadida tovar sotib oluvchi yoki ish, xizmatga buyurtma beruvchi yoxud shu niyatda bo'lgan fuqaro (jismoniy shaxs) hisoblanadi.

Davlat iste'molchilarining tovar (ish, xizmat) sotib olish va undan foydalanish chog'idagi huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarning himoya qilinishini kafolatlaydi.

6.4. Raqobatni rivojlantirish va himoya qilishni kuchaytirish

Monopoliyadan chiqarish, raqobat muhitini yaratish va rivojlantirish vazifalari bilan bir qatorda, raqobatni himoya qilish vazifasi ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu boisdan 2012 yil 6 yanvarda O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. "Raqobat to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi natijasida quyidagilarga erishilishi ko'zda tutilgan edi:

- raqobatni himoya qilish tovar va moliyaviy bozorlarni ham qamrab oladi;
- iqtisodiy, kapital konsentratsiyasi (aksiyalarni sotish-sotib olish, qo'shilish, birlashtirish va h.k.) bo'yicha bitimlarni nazorat qilish kuchayadi. Bozor, kapital konsentratsiyasi bo'yicha bitimlarga monopoliyaga qarshi organlardan ruxsat olish protseduralari, tartib-qoidalari bu sohadagi xalqaro me'yorlarga muvofiqlashdiriladi;
- monopolist-korxonalarining tovar va xizmatlariga narxni shakkllantirishda narxlarni tartibga solishning bozor mexanizmini himoya qilish kuchayadi. Bu borada yangi usul va dastaklar ishlab chiqiladi.

Mazkur qonunga muvofiq tovar yoki moliya bozorida raqobatni himoya qilish maqsadida quyidagilar ta'qilanganadi:

sun'iy ravishda narxlar, tariflar, chegirmalar, ustamalar, qo'shimcha to'lovlarni belgilash yoki saqlab turish, erkin bozor narxlarining qaror topishiga to'sqinlik qilish;

ishlab chiqarish ustidan, mahsulot sotish bozorlari va kapital qo'yilmalar ustidan nazorat o'rnatish, ishlab chiqarish hajmlarini kelishib olish;

shartnomaga predmetiga taalluqli bo'limgan raqobatni cheklovchi va kamshituvchi shartlarni, asossiz talablarni majburan qabul qildirish;

boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning bozorga kirishini cheklash yoki ularni bozordan chetlashtirish taqiqlanadi;

xo'jalik yurituvchi subyektlarning kelishib olingan harakatlari va bitimlariga yo'l qo'yilmaydi. Ushbu taqiq tovarlarni tovar belgisi, firma nomi va sotuvchining intellektual mulk obyektlariga bo'lgan boshqa

mutlaq huquqlari orqali realizatsiya qilishni sotib oluvchi tomonidan tashkil etish to‘g‘risidagi bitimlarga nisbatan tatbiq etilmaydi⁴⁴.

Insofsiz raqobat, shu jumladan, boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektga zarar keltirishi mumkin bo‘lgan noto‘g‘ri taqqoslashlar, xo‘jalik yurituvchi subyekt (raqobatchi) tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovarni uning tashqi bezatilishini, nomini, tamg‘alanishini, tovar belgisini, reklama materiallaridan, tovarning firma o‘rovi va shaklini nusxa ko‘chirish orqali qalbakilashtirish, xo‘jalik subyektining faoliyatiga oid axborotni, shu jumladan tijorat sirini oshkor etish, tovar yoki moliya bozoriga boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektning kirishiga to‘siq qo‘yish taqiqlanadi⁴⁵.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 iyuldaggi “Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6019-sون Farmoniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga hisobdordir. Qo‘mita quyidagi vazifalarni amalga oshirishda bevosita O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga muntazan ravishda axborot kiritib boradi:

intiyorlar, preferensiyalar va faoliyatni amalga oshirish uchun eksklyuziv huquqlar shaklida ko‘rsatilayotgan davlat ko‘magining samaradorligi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish hamda ular raqobat muhitiga salbiy ta’sir etgan taqdirda, ularni bekor qilish bo‘yicha takliflar kiritish;

Moliya vazirligi bilan birgalikda davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonun hujjalariiga rioya etilishi hamda alohida tartib o‘matilgan strategik ahamiyatga ega xo‘jalik jamiyatlari va korxonalarining xaridlari ustidan davlat nazoratini olib borish;

⁴⁴ O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi qonuni, 2012 yil 6 yanvar, O‘RQ-319-sonli. 12-modda // https://lex.uz/docs/-1931443.

⁴⁵ O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi qonuni, 2012 yil 6 yanvar, O‘RQ-319-sonli. 13-modda // https://lex.uz/docs/-1931443.

davlat organlarining raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlari talablarini buzuvchi qarorlarini bekor qilish va ularning mansabdor shaxslariga nisbatan chora qo'llash bo'yicha takliflar kiritish;

«kartel» kelishuvlari va til biriktirishlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda aniqlash va ularga chek qo'yish;

davlat ishtirokidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashkil etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish⁴⁶.

Mazkur farmon bilan "2020 — 2024 yillarda tovar va moliya bozorlarida raqobatni rivojlantirish strategiyasi" tasdiqlandi. Strategiyada "YAratilgan birja mexanizmi bozor ishtirokchilarini yuqori likvidli va monopol turdag'i xom ashyo va materiallar bilan bir xilda ta'minlash imkonini bergenligi, bugungi kunda O'zbekiston respublika tovar xom ashyo birjasi tovar aylanmasining 65 foizini monopol mahsulotlar tashkil etganligi, so'nggi yillarda monopol korxonalar soni ikki baravardan ortiqqa kamayganligi qayd etilgan. Shu bilan birga, mamlakat iqtisodiyotidagi raqobat muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan quyidagi tizimli muammolar hal etilmagan:

iqtisodiyotda davlatning haddan ziyod yuqori ishtiroki;

narxlarning haddan ortiq tartibga solinishi;

imtiyoz va preferensiyalarning samarasiz tizimi;

biznes sub'ektlariga yuqori tartibga solish yuki va tarmoq tartibga soluvchi organlarning raqobatni rivojlantirishdan manfaatdor emasligi;

tabiiy monopoliya holatini suiiste'mol qilish;

raqobatga qarshi holatlarga qarshi kurashish huquqiy mexanizmlarning takomillashmaganligi.

Strategiyaning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

-raqobatni himoya qilish va rivojlantirish tizimini transformatsiya qilish;

-shaffoflik va kirish uchun teng sharoitlarni ta'minlagan holda samarali faoliyat yuritadigan bozorlarni yaratish;

⁴⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 iyuldag'i "Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokin qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6019-sod Farmoni/<https://lex.uz/docs/4887654>

- tadbirkorlik sub'ektlarining ma'muriy yukini va xarajatlarini, iqtisodiyotda davlatning ishtiroki darajasini kamaytirish, shuningdek, davlat ko'magi taqdim etilishini tartibga solish;
 - narxlarni (tariflarni) davlat tomonidan oqilona tartibga solish tizimini yaratish;
 - tabiiy monopoliyalar sohalarining raqobat mavjud bozor holatiga o'tishi uchun to'siqlarni bartaraf etish;
 - raqobat cheklanishini oldini oluvchi vositalarni joriy etish;
 - raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlari talablari buzilishiga nisbatan, birinchi navbatda, «kartel» kelishuvlar va til biriktirishlarga nisbatan huquqiy ta'sir choralarini kuchaytirish;
 - raqamli iqtisodiyotni monopoliyaga qarshi tartibga solishning samarali vositalarini joriy etish;
 - monopoliyaga qarshi organ faoliyatining shartloqligini va samaradorligini ta'minlash, jamiyatda raqobat madaniyatini va raqobatga qarshi harakatlarning har qanday ko'rinishlariga nisbatan murosasizlikni shakllantirish;
 - Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasining kadrlari salohiyatini tizimli shaklda oshirib borish⁴⁷.
- Strategiyada quyidagilar orqali raqobatni himoya qilish va rivojlantirish tizimini transformatsiya qilish belgilangan:
- bozor ishtirokchilarining xatti-harakatlarini tahlil qilishga o'tishni nazarda tutuvchi «aqlii» monopoliyaga qarshi tartibga solish modelini joriy qilish, halol raqobatni rag'batlantiruvchi tizimni yaratish, jarayonlarni raqamlashtirish orqali raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlari talablari buzilishining oldindan yo'l qo'ymaslik (profilaktika) mexanizmlarini joriy etish;
- xulq-atvor iqtisodiyoti (behavioral economics) tarmoyllariga asoslangan tovar va moliya bozorlarini tahlil qilish vositalarini joriy etish;

⁴⁷ "2020 — 2024 yillarda tovar va moliya bicerianda raqobatni meqlubishish strategiya". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 iyuldaggi "Raqobatni meqlubishish va qo'shilishning bozor ishtirokinin qisqartirish bo'yicha qo'shimcha cheon-anditlic keng tarzida" Farg'onalar Farmoni/<https://lex.uz/docs/4887654>

Butunjahon iqtisodiy forumi Global raqobatbardoshlik indeksi va Iqtisodiy hankorlik va taraqqiyot tashkiloti tovar bozorini tartibga solish indeksi metodologiyasi asosida tovar va moliya bozorlarida raqobat holatini muntazam diagnostika qilish;

bozor ishtirokchilariga nisbatan ma'muriy yukni kamaytirish maqsadida monopol korxonalar Davlat reestri va tabiiy monopoliyalar Davlat reestrlarini yuritishni bekor qilish;

bozor ulushiga asoslangan ustunlik mavqeni aniqlash mezonlarini qayta ko'rib chiqish va bozordagi ustunligini aniqlashda bozor ishtirokchilarining raqobatga zid xulq-atvorini baholashga o'tish;

bozor konsentratsiyasini (qo'shib yuborish va qo'shib olish) tartibga solishda jarayonlarni raqamlashtirish va raqobatga bo'lgan ta'sirini baholash sifatini oshirish yo'li bilan yanada takomillashtirilgan mexanizimini yaratish;

tarmoqlardan va faoliyatni halol amalga oshirishdan kelib chiqqan holda xo'jalik yurituvchi subyektlarni toifalashtirishni nazarda tutuvchi monopoliyaga qarshi davlat nazoratini amalga oshirishda xavf-xatarga asoslangan yondashuvni joriy etish.

2024 yilga qadar erishiladigan Strategiya samaradorligining maqsadli ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

1. Monopollashgan tovar bozorlari sonini kamida 45 foizga kamaytirish.
2. Monopol korxonalar sonini 40 foizga qisqartirish.
3. Monopol korxonalarning kamida 80 foizida monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy qilish.
4. Iqtisodiyotda taqdim etilgan imtiyozlar hajmini YaIM ko'rsatkichiga nisbatan 10 foizgacha kamaytirish.
5. Ekslyuziv huquqlar va preferensiyalarni taqdim etishni ko'zda tutgan normativ-huquqiy hujjatlarning kamida 60 foizini bekor qilish.
6. Iqtisodiy erkinlik indeksida Investitsion faoliyat erkinligi indikatori bo'yicha ko'rsatkichni 20 dan 80 gacha oshirish.

7. Global raqobatbardoshlik indeksida O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishi va uning ko'rsatkichlarini izchil ravishda yaxshilash.

8. Tovar, moliya va raqamlı bozorlar ishtirokchilari sonini kamida 25 foizga oshirish.

9. Davlat xaridlari ishtirokchilari sonini 40 foizga oshirish.

10. Davlatning iqtisodiyotdagi ishtiroki ko'rsatkichini YalM ko'rsatkichiga nisbatan 40 foizgacha pasaytirish.

11. «Tartibga solish gilotina» usuli foydalangan holda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlardagi tadbirkorlik faoliyatini qiyinlashtiruvchi va raqobatga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi normalarni kamida 30 foizga qisqartirish⁴⁸.

2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURida “Raqobat to'g'risida”gi va “Tabiiy monopoliyalar to'g'risida”gi qonunlarni birlashtirish orqali:

-davlatning tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etish hollari va unga nisbatan monopoliyaga qarshi talablarni belgilash;

-tabiiy monopoliya holatini aniqlash bo'yicha huquqiy instrumentlarni kengaytirish;

-bozordagi ustunlik mavqeini aniqlash mezonlarini takomillashtirish;

-davlat ko'magi (imtiyoz va preferensiyalar) shakllari va ularni taqdim etishga nisbatan monopoliyaga qarshi talablarni belgilash;

-auksion (birja) savdolarida manipulyatsiyalarning mezonlarini va javobgarlikni kuchaytirish; raqobatni cheklash holatlari uchun javobgarlikni kuchaytirish belgilangan.

⁴⁸ “2020 — 2024 yillarda tovar va moliya bozorlarida raqobati rivojlantirish strategiyasi” // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 iyuldag'i “Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokinini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-6/19-son Farmoni/<https://lex.uz/docs/4887654>

Asosiy tushuncha va atamalar

Raqobat, raqobat muhiti, raqobat turlari, raqobat usullari, monopoliya, iqtisodiy monopoliya, tabiiy monopoliya, ustun mavqe, monopol yuqori baho, monopol past baho, antimonopol siyosat, antimonopol siyosat usullari, raqobatni himoya qilish, raqobatni rivojlantirish.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Raqobat nima? Qanday raqobat turlarini va usullarini bilasiz?
2. Raqobat bozor iqtisodiyoti sharoitida qanday vazifalarni bajaradi va qanday ahamiyatga ega?
3. Nima uchun davlat raqobatni rivojlantirishga intilishi va uni himoya qilishi kerak?
4. Monopoliya nima va uning qanday shakllari mavjud?
5. Monopoliya va monopolistik faoliyat bozor iqtisodiyotida qanday rol o‘ynaydi?
6. Monopoliyalar faoliyatini nima uchun tartibga solish kerak?
7. Davlatning antimonopol siyosatining maqsadlari qanday?
8. Davlat monopoliya va monopolistik faoliyatni qanday usullar yordamida tartibga soladi?
9. Tabiiy monopoliyalar qanday tartibga solinadi?
10. O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi qonuning mazmuni va asosiy talablari bo‘yicha qanday tasavvurga egasiz?
11. “2020 — 2024 yillarda tovar va moliya bozorlarida raqobatni rivojlantirish strategiyas” nima uchun zarur bo‘lib qoldi?
12. “2020 — 2024 yillarda tovar va moliya bozorlarida raqobatni rivojlantirish strategiyasi”ning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
13. “2020 — 2024 yillarda tovar va moliya bozorlarida raqobatni rivojlantirish strategiyasi”ni amalga oshirish natijasida nimalarga erishiladi? Uning asosiy ko‘rsatkichlarini izohlab bering.
14. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida raqobat muhitini yanada rivojlantirish borasida qanday vazifalar belgilangan?


7-BOB. BOZOR IQTISODIYOTIDA NARXNING REGULYATORLIK VAZIFASI VA UNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLINISHI

7.1. Narxning mazmuni va uning iqtisodiyotning regulyatori sifatidagi vazifalari

Narx, baho— bozor iqtisodiyotida amal qiluvchi iqtisodiy dastak. Iqtisodiy tafakkur tarixidagi ayrim qarashlarda narxni qiymatning mehnat nazariyasiga asoslanib talqin qilishgan, unga qiymatning puldagi ifodasi deb qaralgan. XX asr boshlaridagi nazariyalar narxni pulning miqdoriy nazariyasi asosida izoxlab, narxga xarajatlar, tovarning nafliligi va raqobat ta'sir etishini e'tirof etadi. Narxni qiymat belgilaydi, amino u aniq bir qiymatdan yuqori yoki past bo'lishi mumkin, bu esa bozordagi muayyan tovarga bo'lgan talab va taklift bog'liq. Narx faqat qiymatni emas, balki talab va taklif, shuningdek, tovarning ijtimoiy foydaliligi, sifati va boshqa tovarlar o'rnini bosa olishi, muomaladagi pulning xarid qobiliyatiga ham bog'liq. Binobarin, narx qiymatdan miqdoran farqlanadi. Mahsulot tannarxi har qanday narxning asosi bo'lib, mahsulotning hayotiy sikli davomida uning narx idagi o'zgarishlarga katta ta'sir ko'rsatadi. Narx miqdori xarajatlarga va tovar sifatiga to'g'ri mutanosiblikda, rakrabatning shiddatiga esa teskari mutanosiblikda turadi. Demak, narx— real bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar va xizmatlarning ijtimoiy qiymati va ijtimoiy nafliligining puldagi ifodasidir.

Narxda alohida olingan ishlab chiqaruvchilarning individual sarflari emas yoki alohida olingan individual shaxslarning psixologik jihatdan naflilikka bergan bahosi ham emas, balki jamiyat tomonidan tan olingan ijtimoiy sarflar va jamiyat uchun zarur bo'lgan miqdorda va sifatda yaratilgan va tan olingan ijtimoiy naflilik (iste'mol qiymat) o'z ifodasini topadi. Tovarlar va xizmatlar uchun qilingan ijtimoiy sarflarning asosli ravishda o'sishi yoki tovar va xizmatdagi sifat ko'rsatkichlarining o'sishi ushbu tovar narxining oshishiga olib keladi.

Narxning darajasiga ta'sir etuvchi omillardan asosiylari bo'lib qiymat yoki ishlab chiqarish sarflari; tovarning naflilik darjasи; mazkur tovarga talab va taklif nisbati; raqobat holati; davlatning iqtisodiy siyosati va h.k. hisoblanadi. Bu omillar ichida tovar qiymati va nafliligi uning narxini belgilovchi asos bo'lib xizmat qiladi (7.1.1-rasm).



7.1.1-Rasm. Narxga ta'sir qiluvchi omillar.

Narx quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

1. Muvozanatlighni ta'minlash vazifasi. Bunda narx bozorda talab va taklifning hajmi va tarkibiga ta'sir etish orqali ularni muvozanat holatiga keltiradi. Bozor narxi – bu muvozanatlashgan narx bo'lib, u birinchidan, tovarlarning sotilishi ta'minlaydi, ikkinchidan, bozorda tovarlar taqchilligini yuzaga keltirmaydi.

2. Qiymat va naflilikni o'lchash vazifasi. Narx qiymat va naflilikning puldag'i ifodasidir, chunki qilingan sarf-xarajatlar va olingan natijalar (foyda yoki zarar) narxlar asosida hisob-kitob qilinadi.

3. Tartibga solish vazifasi. Bozor holati (kon'yunkturasi) talab va taklif hamda ularning nisbatiga bog'liq. Talabning ortishi muayyan tovari ishlab chiqarishni kengaytirishni, askincha holatda esa tovar ortiqchaligini, uni ishlab chiqarishni qisqartirish zarurligini bildiradi. Muayyan ishlab chiqarish xarajatlari saqlangan holda narx yuqori bo'lsa, foyda miqdori ortadi, narx tushsa, foyda kamayadi va hatto ishlab chiqaruvchilar zarar ko'rishi ham mumkin. Bu ishlab chiqaruvchilar

faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Narx oshsa, ishlab chiqarish kengayadi. Narx ishlab chiqarishni tartibga solib, uni o'zgartirib turadi va rivojini ta'minlaydi.

4. Raqobat vositasi vazifasi. Ishlab chiqaruvchilar o'z raqiblarini yengish uchun narxni pasaytirish usulidan foydalanishlari mumkin.

5. Ijtimoiy himoya vazifasi. Narx aholining kam daromad oluvchi ayrim qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish vazifasini ham bajaradi. Bunda ular davlat budjeti va turli hayriya mablag'lari hisobiga moliyaviy ta'minlanadi.

Iqtisodiyotda amal qilib turgan barcha narx turlari narx tizimini tashkil qiladi.

Ulgurji narx – ishlab chiqaruvchilar tomonidan katta miqdordagi tovarlar bir yo'la ko'tarasiga sotilganda qo'llaniladigan narx.

Shartnoma narx – sotuvchi va xaridorning roziligi bilan belgilanadigan, ular tomonidan tuzilgan shartnomada qayd qilingan narx.

Chakana narx – tovarlar bevosita iste'molchilarga sotiladigan narx.

Davlatning narxlarni tartibga solish faoliyati chegaralangan (limitlangan) va dotatsiyalangan narxlarni vujudga keltiradi. **Chegaralangan narx** – davlat tomonidan yuqori va quyi chegaralari belgilanib, shu doirada o'zgarishi mumkin bo'lgan narx. Bunday narx yordamida davlat inflyatsiyani jilovlaydi, narx darajasini nazorat qiladi.

Dotatsiyalangan narx – davlat budjeti hisobidan maxsus arzonlashtirilgan narx. Bunday narxdan kam daromadli oilalar, beva-bechoralar, ishsiz va nogironlarni hayotiy zarur ne'matlar bilan eng kam darajada ta'minlab turishda foydalaniladi.

Demping narx – bozorda o'z mavqeini mustahkamlash va raqiblarini bozordan siqib chiqarish uchun firmalar tomonidan foydalaniladigan maxsus narx. U «bozorga kirib olish narxi» deb ham ataladi. Demping narxda rasmiy narxning bir qismidan kechib yuboriladi.

Nufuzli narx – sotish hajmini o'zgartirmasdan, yuqori foyda olishga erishish uchun firmalar tomonidan foydalilaniladigan narx. Bu narxni qo'llash uchun bozorda raqobat cheklangan bo'lib, monopol vaziyat mavjud bo'lishi zarur. Aholining yuqori daromad oluvchi qatlami xarid qiladigan nufuzli tovarlar ham mavjudki, ular nufuzli narxlarda sotiladi.

Erkin bozor narxi – bu talab va taklif asosida vujudga keladigan bozor narxidir.

Bozor ko'lami hisobga olinganda hududiy (mintaqaviy), milliy va xalqaro narxlari mavjud bo'ladi. **Hududiy narx** faqat ma'lum hududiy bozorga xos bo'lib, u shu hudud doirasidagi omillar ta'sirida hosil bo'ladi. **Milliy bozor narxi** mamlakat doirasida amal qiluvchi va ularning xususiyatini aks ettiruvchi narxdir. Jahon bozori narxi muayyan tovarni ishlab chiqarishga sarflangan baynalminal xarajatlarni, tovarning jahon standarti talabiga mos kelish darajasini va xalqaro bozordagi talab va taklif nisbatini hisobga oladi.

Narxlar farqining miqdoriy ifodasi narx diapazoni deyiladi. Narx diapazoni narxlar oraliq‘ining puldagi ifodasidir. Narx diapazoni quyi, o'rta va yuqori narxlarni o'z ichiga oladi. Bu diapazon qanchalik katta bo'lsa, tovar muoimalasi shunchalik tez yuz beradi, talab bilan narx o'zaro bog'lanadi. Iqtisodiyot bir-biriga bog'liq va yagona bo'lganidan turli tovarlar va xizmatlar narxlari bir-birini yuzaga chiqaradi, to'ldiradi va o'zaro ta'sir ko'rsatadi. Ularning har biri o'zi bilan bog'liq keyingi mahsulot xarajatlarini shakllantiradi. Ko'pgina sohalarda ishlataladigan eng muhim iqtisodiy resurlar (metall, neft, ko'mir, gaz, yog'och, bug'doy, paxta kabi tovarlar) narxining o'zgarishi bozordagi jami narxlar nisbatiga ta'sir ko'rsatadi.

Narxning xilma-xil turlari mavjud bo'lsa-da, ular bir-biri bilan o'zaro bog'langan, chunki ularda jamiyatdagi iqtisodiy resurslarning ishlatalish samarasini o'z ifodasini topadi.

7.2.Davlat narx siyosatining maqsadi va asosiy usullari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida narxni davlat tomonidan tartibga solish markazlashgan-rejali iqtisodiyotdagidan farqli o'laroq keng qamrovli xarakter kasb etmaydi. Shu o'rinda bozor iqtisodiyoti mamlakatlarda narx shakllanishi stixiyali yuz beradi deb hisoblash noto'g'ri bo'ladi. Bu mamlakatlarda narx har doim davlatning e'tiborida bo'lib, davlat tomonidan tartibga solib turiladi. Xususan, jamiyatning ijtimoiy hayoti bilan bog'liq narxlar davlatning diqqat markazida bo'ladi. Davlatning narx orqali tartibga solishi – bu davlatning iqtisodiyotga ta'sir etishining asosiy ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Napxlarni davlat tomonidan tartibga solish deyilganda butun tizimning barqapop rivojlanishiga yordam berish maqsadida narxlapga qonunchilik, ma'muriy va moliya-byudjet ta'sirini o'tkazish tushuniladi.

Narxni davlat tomonidan tartibga solishdan maqsad:

- 1) takror ishlab chiqarishning zaruriy mutanosibligiga erishish;
- 2) inflyatsiya sur'atini pasaytirish;
- 3) narx o'sishi va ish haqlari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash;
- 4) davlat korxonalarini subsidiyalash;
- 5) davlat budjetiga zarur resurslarni jalb etish.

Narxni davlat tomonidan tartibga solish shakllari turlicha bo'ladi:

- ishlab chiqarish sohasida va tovar muomalasida davlatning bevosita ishtiroti;

- tovar bozorida talab ehtiyojini va taklif muvozanatiga ta'sip o'tkazish;
- monopoliyaga qarshi qonunchilik vositasida ta'sir etish;
- daromadlar siyosatini olib borish;
- pul muomalasi orqali bozop kon'yunkturasini taptibga solish;
- pul muomalasini aniq holatini hisobga olgan holda mazkur usullarni uyg'unlashtirish;

- napxlarni tartibga solishda bevosita va bilvosita usullardan foydalanish⁴⁹.

Davlat narx shakllanishiga bevosita va bilvosita ta'sir etadi. Narxni tartibga solishning to'g'ri va egri usullari farqlanadi. Ularning bo'linishi quyidagicha: narxni to'g'ridan-to'g'ri tartibga solish usuliga quyidagilar taalluqli:

- 1) narxni ma'muriy o'matilish;
- 2) narxni muzlatilish;
- 3) narxning yuqori darajasini o'rnatish;
- 4) samaradorlik darajasini reglamentlash;
- 5) davlat xarajatlarini tartibga solish;
- 6) amortizatsiya me'yorini o'rnatish va b.

Davlat spirtli mahsulotlarga monopol «aksiz» narxlarini va transport tariflariga, xizmatlarga, aloqaga boshqa qator tovarlarga narxlarni, bojxona tariflarini belgilaydi.

Davlatning narxga ta'sir etish shakllaridan biri – bu davlatning ishlab chiqarish xarajatlariga va u orqali orqali narxga ta'sir etishidir. Bunga tezlashtirilgan amortizatsiya xarajatlari usulini misol qilib keltirish mumkin. Davlat narx shakllanishiga, ishlab chiqaruvchiga yoki xaridorga davlat tomonidan maxsus qo'shimcha to'lab berish yo'li bilan narxlarni pasaytirishi nazarda tutiluvchi narx subsidiyasi orqali ham ta'sir ko'rsatadi.

Narxni tartibga solishda davlatning qat'iy o'rnatgan narxlari, davlat tomonidan buyurtma qilingan ishlab chiqaruvchilar mahsulotiga narxlar muhim o'rinni egallaydi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni narx, dotatsiya va subsidiya orqali tartibga solishda davlatning roli juda yuqoridir. Davlat narx darajasi va narx barqarorligi mutanosibligini qo'llab-quvvatlaydi. Barcha rivojlangan mamlakatlarda bozor tebranishini yumshatish maqsadida davlat tomonidan anchagina resurslar agrar sohaga yo'naltiriladi. Narxlar, qo'shimcha to'lovlar orqali mahsulot ishlab chiqaruvchilarni kengaytirilgan takror ishlab

⁴⁹ Шарипов Ф.Г. Жаҳон нархларини белгилани ва унга таъсир кидувчи омиллар, бозорда қўйланувчи нарх стратегиялари// "Иктиносидёт ва инновацион технологиялар" плмий электрон журнали. №3, май-июнь 2017 йил-3-4-бет.

chiqarishlarini amalga oshirishlari darajasida davlat fermerlik narxlarini qo'llab quvvatlaydi. Shu yo'l bilan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibi va hajmi tartibga solinadi.

Barcha g'arb mamlakatlarda narxlarni davlat tomonidan tartibga solish tizimi juda ham bir-biriga yaqin. Bu qishloq xo'jaligi mahsulotlarining alohida turlariga narxlarni tebranishining yuqori va quyi chegaralarini o'rnatish hisoblanadi.

Yevropa hamkorlik mamlakatlarda umumiy qishloq xo'jaligi siyosati yuritiladi. Bu siyosatning dastagi bo'lib, ichki va import narxlari o'rtasidagi farqlarni qoplovchi bojxona bojlari va kompensatsion to'lovlar shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qiluvchilarga mahsulotlarini Yevropadan jahon bozorlariga nisbatan past narxlarda olib chiqish imkoniyatini beruvchi kompensatsion to'lovlar hisoblanadi. Bunday tizim nafaqat Yevropa qishloq xo'jaligi salohiyatini saqlab qolish, qishloq xo'jaligida ilmiy-texnika inqilobini amalga oshirish, balki, G'arbiy Yevropani yirik mahsulot eksportchisiga aylantirish imkonini beradi. Yevropa hamkorlik mamlakatlarda qishloq xo'jaligi va qora metallurgiya sohasida (narxlarni 15% gacha qamrab oladi) narxlarni milliy tartibga solish xususiyatlari mavjud. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlari bo'yicha qarorni Yevropa hamkorligining vazirlar Kengashi qabul qiladi, biroq qora metallurgiya mahsulotlari narxlari esa bazis narxlari orqali o'rnatiladi.

AQShda 10-15% narxlar davlat tomonidan tartibga solinadi. Davlat tomonidan narxlarni tartibga solish ishlab chiqarish xarajatlarini subsidiyalash vositasida hamda ishlab chiqaruvchilarga sotish narxlarni kafolatlash yordamida ham amalga oshiriladi. AQShda bozor narxi kafolatlangan quyi chegaradan tushib ketgan taqdirda davlat budgetidan ishlab chiqaruvchilarga subsidiyalar ajratiladi. Maxsus hukumat tashkiloti kafolatlangan narx bo'yicha fermerlardan kafillikka qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qabul qiladi. Agar kafillikka olingan muddat davomida (odatda bir yil) bozordagi narx kafolatlangan narxdan ko'tarilsa, u holda fermer o'z mahsulotini qaytib sotib olib, uni bozorda sotishi mumkin bo'ladi. Agar bozor narxi kafolatlangan narxdan

pastligicha qolsa, tovar fermerlar tomonidan qaytib sotib olinmaydi va korporatsiya mulkiga o'tadi. AQSh da 10-15 yil mobaynida mamlakat ichida shakarning chakana narxi juda qat'iy tarzda kuzatib borildi. Bir kilogramm shakar 1 dollardan oshishi mumkin emas. Narxni makroiqtisodiy barqaror bo'lishi uchun subsidiya kiritildi.

Yaponiyada narxlarni tartibga solish uchun hukumatning maxsus narx byurosi mavjud. Byuro vazirliklarni minimal narxlar bo'yicha bergen takliflariga xulosa beradi. Fransiyada qishloq xo'jaligi mahsulotlari, gaz, elektr energiyasi, transport xizmatlari narxlari to'g'ridan-to'g'ri tartibga solinadi. Shvesariyada narxlarni nazorat qilish bo'yicha federal muassasa mavjud. Narxlar asosan davlat tomonidan moliyalashtiriladigan tarmoqlarda, xususan qishloq xo'jaligi, tarsport, ta'lim, sog'liqni saqlash sohalarida tartibga solinadi.

Rossiya Federatsiyasida narxni tartibga solishda qat'iy narxlarni (tariflar) kiritish, yuqori samaradorlik darajasini, narxni o'zgarish koefitsentini, savdo, savdo-ta'minot va sotuv narxlarining yuqori darajasini o'rnatish va deklaratsiya narxlarini o'rnatish usullari qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasida davlat buyurtmasi asosida paxta xom ashyosiga va bug'doyga narxning yuqori chegarasi o'rnatiladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari esa qo'shilgan qiymat solig'iga tortilmaydi.

Narxni tartibga solish tizimi qishloq xo'jaligida barqarorlikka erishishga qaratilgan. Bu sohadagi narx kichik farq bilan tebranadi. G'arb mamlakatlarida davlat qishloq xo'jaligiga anchagina mablag' sarflaydi. Ta'kidlash joizki, qishloq xo'jaligidan budgetga tushadigan mablag', shu sohaga qilinadigan xarajatdan bir necha bor kamni tashkil etadi. YelRXT ning 25 ta mamlakatlarida, ko'proq rivojlangan G'arb mamlakatlarida qishloq xo'jaligiga budgetdan ajratilgan mablag'lar shu tarmoqdan budgetga tushadigan mablag'dan 9 marotaba ko'pni, agar narx subsidiyasini ham qo'shadigan bo'lsak 18 barobar ko'pni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 30 martdag'i "Tovar bozorlarida monopoliyaga qarshi tartibga solishni

yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VMQ-249-son qarorida narxlari (tariflari) davlat tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy ahamiyatli tovarlar (xizmatlar) va ularning strategik turlari ro‘yxati tasdiqlandi. Narxlarni davlat tomonidan tartibga solish (tariflarni) o‘rnatish, mazkur ro‘yxatdan tashqari:

-tabiiy monopoliya sharoitlarida ishlab chiqariladigan tovarlarga (ko‘rsatiladigan xizmatlarga);

-Prezidentning qarorlarida narxlari tartibga solish nazarda tutilgan tovarlarga (xizmatlarga) nisbatan ham amalga oshiriladi.

Shuningdek qaror bilan tasdiqlangan nizomda monopol yuqori va monopol past narxlarning aniqlanishi tartibi belgilandi.

7.3. Davlatning inflyatsiyaga qarshi siyosati iqtisodiyotni tartibga solish shakllaridan biri sifatida

Tovar va xizmatlarni sifatiga bog‘liq bo‘limgan holda narxning oshishi bevosita inflyatsiyani yuzaga keltiradi. Inflyatsiya pul birligini qadrsizlantiradi va xarid qobiliyatini pasaytiradi. Ishlab chiqarishdagi no‘mutanosiblik, avvalo, pul massasining tovar va xizmatlar massasiga mutanosib emasligi inflyatsiyani keltirib chiqaruvchi sabab hisoblanadi va u tovar va xizmatlar bilan ta‘minlanmagan pulni chiqarilishi bilan bog‘liqdir.

Inflyatsiya darajasi joriy davr narxlarda baholangan tovar va xizmatlar yig‘indisini o‘tgan davr narxlardagi bahosiga nisbatan foizlarda aniqlanadi.

Inflyatsiya jamiyatni barqaror rivojlanishini izdan chiqaradi, ko‘zda tutilmagan taqsimlash jarayonlarini, kapitalni qayta taqsimlashni, bankdagi jamg‘armalarining qadrsizlanishi va boshqa muammolarni keltirib chiqaradi.

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida makroiqtisodiy barqarorlashtirish dasturi doirasida quyidagilar amalga oshirildi:

-milliy valyuta joriy qilinib, mustaqil pul muomalasi yo‘lga qo‘yildi;

-pul muomalasida ilgari yuzaga kelgan giperinflyatsion jarayonlar so'ndirilib, inflyatsiya darajasi nazorat qilish mumkin bo'lgan darajaga tushirildi;

-tovarlar va xizmatlar bozorida to'lovga qobil jami talab bilan jami taklifni muayyan darajada baravarlashtirishga erishildi;

-qat'iy moliyaviy siyosatni o'tkazish asosida davlat budgetidagi kamomad yo'l qo'yilgan eng kam daraja (yalpi ichki mahsulotning 3-4%ni atrofida) doirasida ushlab turildi;

- yonilg'i-energetika resurslari hamda g'alla importini keskin kamaytirish, shuningdek, energetika resurslari va rangli metallarni eksport qilishni oshirish hisobiga tashqi savdoda ijobiy saldoga erishildi.

Natijada o'tgan asrning 90- yillardagi giperinflyatsiya holatlariga barham berilib, inflyatsiya darajasining o'sish sur'atlarining pasayishiga erishildi. O'zbekistonda o'rtacha yillik iste'mol tovarlari va xizmatlari narxlari indeksi o'rtacha 2005-2016 yillarda 106,9%ni, 2017 yilda 114,4%ni, 2018 yilda 114,3%ni, 2019 yilda 115,2%ni, 2020yilda 111,1%ni tashkil etdi. Oziq-ovqat mahsulotlari narxlari indeksi shunga mos ravishda 103,8%, 115,9%, 114,9%, 118,6%, 115,3 foizni tashkil etdi. 2021- yil davomida inflyatsion jarayonlar oziq-ovqat tovarlari guruhibda boshqalarga nisbatan yaqqol namoyon bo'lib, ushbu davrda mazkur tovarlar 13,0 % ga qimmatlashdi. Nooziq-ovqat mahsulotlar esa ushbu davr oralig'ida 7,8 % ga, xizmatlar 7,7 % ga qimmatlashdi (7.3.1-jadval).

7.3.1-jadval.

O'zbekistonda o'rtacha yillik iste'mol narxlari indeksi dinamikasi (%da)⁵⁰.

| Ko'rsatkichlar | 2005-2016 yillar | 2017 y. | 2018 y. | 2019 y. | 2020 y. | 2021 y. |
|-------------------------|------------------|---------|---------|---------|---------|---------|
| Yig'ma indeks | 106,9 | 114,4 | 114,3 | 115,2 | 111,1 | 109,98 |
| Oziq-ovqat mahsulotlari | 103,8 | 115,9 | 114,9 | 118,6 | 115,3 | 113,0 |
| Nooziq-ovqat | 107,3 | 116,1 | 112,5 | 110,9 | 108,8 | 107,8 |

⁵⁰ 2005-2016 yillar holatiga O'zbekiston respublikasida narx indekslari to'g'risida tahliliy ma'lumot. 16/07/2017 //stat.uz. Социально-экономическое положение Республики Узбекистан за 2017 год. – Т.:Госкомстат РУз, 2018. – С 24; O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2021 yil yanvar-dekabr-T., 2022-261-het ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

| | | | | | | |
|--------------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|
| mahsulotlari | | | | | | |
| Xizmatlar | 115,7 | 108,6 | 115,8 | 115,2 | 107,1 | 107,7 |

Respublikamizda 2017-2020 yillarda iste'mol narxlarining o'sishi milliy valyutaning devalvatsiya qilinishi, iqtisodiy o'sish sur'atlarining birmuncha pasayishi bilan izohlanadi. 2020 yilda 2019 yilning dekabr oyiga nisbatan umumiy INI ko'rsatkichi o'sishida oziq-ovqat mahsulotlari hissasi 58,2 %, nooziq-ovqat mahsulotlari 27,3 %, xizmatlar 14,5 % ni tashkil etdi.

O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy guruhlari dagi o'tgan yilning dekabriga nisbatan narxlar o'zgarishi tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, go'sht, parranda va baliq o'rtacha yillik narxlari 2005-2016 yillarda 112,9 foizni, 2017 yilda 130,0 foizni, 2018 yilda 121,7 foizni, 2019 yilda 123,4%ni, 2020 yilda 118,1%ni, non mahsulotlari narxlari shu davrlarga mos ravishda 111,1 foizni, 116,6 foizni, 128,5 foizni, 124,8 foizni, 115,2%ni, sut mahsulotlari 107,5 foizni, 116,) foizni, 112,9 foizni, 118,1 foizni, 111,5 foizni tashkil etgan (7.3.2-jadval).

7.3.2-jadval.

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy guruhlari dagi o'rtacha yillik narxlar o'zgarishi, o'tgan yilning dekabriga nisbatan (%da)⁵¹

| Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy guruhlari | 2005-2016 yillarda o'rtacha | 2017 yil | 2018 yil | 2019 yil | 2020 yil |
|--|-----------------------------|----------|----------|----------|----------|
| Go'sht, parranda va baliq | 112,9 | 130,0 | 121,7 | 123,4 | 118,1 |
| Non mahsulotlari | 111,1 | 111,6 | 128,5 | 124,8 | 115,2 |
| Yog' va moy | 108,9 | 116,4 | 108,7 | 107,5 | 127,0 |
| Sut mahsulotlari | 107,5 | 116,0 | 112,9 | 118,1 | 111,5 |
| Shakar, choy va boshqa iste'mol mahsulotlari | 107,5 | 117,8 | 102,6 | 111,4 | 111,8 |
| Tuxum | 104,7 | 136,1 | 99,5 | 131,8 | 137,6 |
| Alkogollı ichimliklar | 104,4 | 116,8 | 115,8 | 115,7 | 107,9 |
| Alkogolsiz ichimliklar | 103,1 | ... | 104,8 | 114,1 | 103,9 |
| Meva va sabzavotlar | 72,7 | 114,2 | 104,7 | 114,5 | 111,9 |

⁵¹ 2005-2016 yillar holatiga o'zbekiston respublikasida narx indekslari to'g'risida tahliliy ma'lumot. 16/07/2017//stat.uz; Социально-экономическое положение Республики Узбекистан за 2017год. – Т.Госкомстат РУз, 2018. – С.26; Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иктисодий ҳолати. 2018 йил январь-декабрь. – Т. ДСК. 2019-40-бет. Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иктисодий ҳолати.2020 йил январь-декабрь.-Т. ДСК. 2021-292-бет ма'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Mazkur jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mainlakatimizda oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy guruhlari narxlarining yuqori o'sish sur'ati 2018-2019 yillarda yuz bergan, jumladan, tuxum, go'sht, parranda va baliq, shakar, choy va boshqa iste'mol mahsulotlari hamda alkogolli ichimliklar narxlari yuqori sur'atlarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. 2020 yilda koronavirus pandemiyasi va global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, shu jumladan, meva va sabzavot, go'sht, parranda va baliq yetishtirishni rag'batlantirish, iste'mol bozorlarini tartibga solish, oziq-ovqat zahiralarining vujudga keltirilishi, narxlarni tartibga solishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida yog'-moy, tuxum mahsulotlari narxlaridan tashqari barcha guruhlar narxining o'sish sur'atlari 2019 yil dekabriga nisbatan pasaygan. Jumladan, non va non mahsulotlari, go'sht, parranda va baliq, sut va sut mahsulotlari, meva va sabzavotlar narxlarining o'sish sur'atlari 2019 yilga nisbatan pasaygan.

Ammo shunga qaramasdan, oziq-ovqat mahsulotlari narxlar yuqori darajada o'smoqda. Bunga ularni ishlab chiqaruvchi va sotish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlarning oziq-ovqat mahsulotlari tannarxiga nisbatan yuqori darajada ustama (nasenka)lar qo'yishlari ham sabab bo'immoqda. Jumladan, 2019-yil 25-yanvarda Matbuot va axborot bo'yicha O'zbek agentligining press-xolida "Soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi va iqtisodiy samaradorlik imkoniyatlari" mavzusida bo'lib o'tgan press-konferensiyasida, g'aznachilik boshlig'i, moliya vazirining o'rinosasi Dilshod Sultonov oziq-ovqat mahsulotlariga tannarxga nisbatan savdoda o'rtacha 20%, ishlab chiqarishda esa 17% ustama belgilayotganliklarini, sut mahsulotlariga va tuxumga esa bu ustamalar o'rtacha 2,5 barobarni tashkil etayotganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni keltirgan⁵².

Oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o'sishi oylik ish haqining xarid qobiliyatining pasayishiga, buning natijasida kishilarining ular

⁵² Каким образом узбекские предприниматели "грабят" собственный народ// <https://kun.uz/ru/news/2019/01/26/kakim-obrazom-uzbekskiye-predprinimateli-grahyat-sobstvennyu-narod>

bo'yicha iste'moli darajasining pasayishiga olib kelmoqda. Ushbu holat oziq-ovqat ratsioni tarkibida hayvon oqsillarini iste'mol qilishning past darajasi saqlanib qolishiga olib kelmoqda. Ushbu holat mazkur turdag'i mahsulotlarning yetarli hajinda ishlab chiqilmasligi va aholi daromadlarining past darajasi bilan bog'liq. Aholi tomonidan oziq-ovqat mahsulotlari iste'mol qilinishining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatdiki, hayvon mahsulotlari narxining o'sishini keltirib chiqaruvchi konsentratsiyalangan ozuqalar qiyinatining yuqoriligi va tabiiy ozuqa resurslarining yetishmasligi, shuningdek aholi xarid qobiliyatining pastligi mahsulot to'plamlarida o'simlik mahsulotlari ulushining keskin ortishiga olib kelganligi ko'rsatadi.

Davlatning inflyatsiyaga qarshi siyosati va uning zarurligi inflyatsiya iqtisodiy o'sishni pasaytirishi va ba'zi hollarda ishlab chiqarishni inqiroz sabablaridan biri bo'lishi bilan asoslanadi. Inflyatsiyaga qarshi siyosat – u yoki bu mamlakatda inflyatsiyani keltirib chiqaruvchi aniq sabablar, uning darajasiga bog'liq holda yuritiladi. Inflyatsiyaga qarshi kurashishning turli usullari mavjud, xususan:

- 1)nomonetar usullar – iqtisodiy faollikni o'sishini, iqtisodiy samaradorlikni o'sishini soliqlar orqali rag'batlantirish;
- 2)monetar usullar.

Hozirgi davrda G'arb mamlakatlarida inflyatsiya nisbatan yuqori darajada emas, yiliga 3,5%-4% oralig'in tashkil etadi.

Inflyatsiyaga qarshi strategiyalar ishlab chiqiladi. Uning asosiy komponentlari quyidagilardan iborat:

- 1) inflyatsion kutishni so'ndirish;
- 2) targetlash siyosatini amalga oshirish;
- 3) budjet defitsiti (kamomadi)ni bosqichma-bosqich kamaytirish;
- 4) iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini o'zgartirish;
- 5) iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish, monopoliyaga qarshi siyosatni amalga oshirish.

Inflyatsion kutishni so'ndirish vazifasini hal etish uchun boror mexanizmlarini mustahkamlash va aholining ko'pchiliginini ishonchiga

sazovar bo'lgan hukumatni shakllantirish lozim bo'ladi. Bozor mexanizmlarini mustahkamlash uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

- narxlarni liberallashtirish;
- raqobat muhitini shakllantirish;
- import mahsulotlarni mamlakatga olib kelish uchun bojxona cheklarini yumshatish;
- milliy iqtisodiyotning tashqi dunyo uchun ochiqligini ta'minlash uchun chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish;
- oqilona privatizatsiya (xususiy lashtirish)ni amalga oshirish.

Valyuta kursini targetirlash siyosati milliy valyuta kursini inflyatsiya sur'ati past bo'lgan mamlakat valyutasi bog'lashga qaratilgan valyuta tartibga solish choralarini ko'rishni taqazo etadi. Buning oqibatida "narx-valyuta kursi- narx" ko'rinishidagi inflyatsion spiralning vujudga kelishining oldi olinadi va ayrboshlash kursini nisbatan barqarorlashtirishga erishiladi.

Soliq inflyatsiyasini cheklash uchun bilvosita soliqlarni (masalan, aksiz, qo'shilgan qiymat solig'ini) va budjetdan tashqari ijtimoiy fondlar uchun ajratmalarni kamaytirish, shu bilan bir vaqtda daromad solig'i va boshqa to'g'ri (bevosita) soliqlarni kamaytirilishi ancha kam inflyatsiyaga qarshi effektni ta'minlaydi. Foyda solig'i stavkasining pasatirilishi investision faollikning o'sishiga, bu o'z navbatida ishlab chiqarish hajmi va ish bilan bandlikning hamda soliqqa tortiladigan daromadlar hajmining oshishiga, budget daromadlarining o'sishi va budget kamomadining qisqarishiga olib keladi.

Inflyatsiya darajasini kamaytirish uchun tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirib, yengil va oziq-ovqat, ishlab beruvchi sanoatni, xizmat ko'rsatish sohasini, qishloq xo'jaligini, umuman pirovard mahsulotlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlarni jadal rivojlantirish lozim bo'ladi.

Inflyatsiyaga qarshi taktik siyosat inflyatsiya darajasini pasaytirish maqsadida jami talab va jami taklif o'rtasidagi farqlarni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Bunda quyidagi ikki bir-biriga bog'liq yondashuvlardan foydalaniлади:

- 1) o'zgarmas jami talab sharoitida jami taklifi kengaytirish;

2) jami taklifning doimiyligi sharoitida jami talabni qisqartirish.

O'zgarmas jami talab sharoitida jami taklifni kengaytirish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

-markazlashgan va markazlashmagan (xususiy tadbirkorlar, "chelnoklar" import bo'yicha faoliyatini rag'batlantirish) iste'mol tovarlar importini ko'paytirish;

-davlatning strategik (xom ashyo, oziq-ovqat, oltin-valyuta va boshqa) zahiralarining bir qismini savdoga chiqarish;

- milliy iqtisodiyotning tovarlik darajasini oshirish. Bu ichki bozorda davlatning qo'llab-quvvatlashi bilan aholining ajiataj talabini ma'lum darajada qondiradigan sifat jihatdan yangi turdag'i mahsulotlarning chiqarilishini ifodalaydi.

Jami taklifning doimiyligi sharoitida jami talabni qisqartirish maqsadida Markaziy bank qisqa muddatli, taktik yo'nalishga ega bo'lgan "qimmat pullar" siyosatini yuritadi. Buning uchun qayta moliyalashtirish stavkasi va majburiy zahira normasini oshiradi hamda ortiqcha talabni aholiga davlat qimmatli qog'ozlari va xorijiy valyutani aholiga sotish orqali bog'laydi. Davlatning monetar siyosatiga mos ravishda tijorat banklari ham kreditlarva depozitlar uchun foiz stavkalarini oshiradilar.

Yaponiyada urushdan keyingi inflyatsiya darajasini pasaytirish uchun ikki pog'onali bank tizimni shakllantirish va markaziy bank tomonidan pul taklifi ustidan nazoratning o'rnatilishi natijasida erishilgan. Markaziy bank "qimmat pullar" siyosatini amalga oslurib, muomaladan 15% pul massasini chiqarib olgan. Qayta moliyalashtirish stavkasining oshirilishi depozitlar bo'yicha ijobiy foiz stavkasining vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Buning natijasida aholida jamg'arishga bo'lgan moyillik ta'minlanib, joriy iste'mol talabining qisqarishiga va investitsiyalarning oshishiga va jami taklifning kengayishiga erishilgan.

Xitoyda esa tovar ortiqchaligi sharoitida kreditlar va depozitlar bo'yicha foiz stavkasining pasaytirilishi hukumat tomonidan iste'mol talabini rag'batlantirish va jamg'arishni qisqartirish chora-tadbirlari sifatida amalga oshirilgan.

Ayrim rivojlangan mamlakatlarda jami talabni qisqartirish maqsadida aholining nominal daromadlarini, jumladan, ish haqi, renta, foizli daromad va foyda, pensiya, stipendiya, bolalar nafaqalarining o'sishini cheklash va chet ellardan migrantlarning inamlakatga kelishini rag'batlantirish chora-tadbirlarini amalga oshiradilar.

Xarajatlar infliyatsiyasi darajasini pasaytirish uchun narxlar va ish haqi o'sishi ustidan nazorat o'matiladi hamda ular ma'lum muddatga muzlatib qo'yiladi. Ish haqi o'sishi suratining mehnat unumtdorligi o'sishi sur'atidan past darajada bo'lishi ta'minlanadi.

Narx va daromadlar siyosatining muhim dastagi narx bo'yicha kelishuv hisoblanadi. Bunda hukumat, kasaba uyushmlari va tadbirkorlar uyushmasi o'rtasida Bosh kelishuv imzolanadi. Kasaba uyushmasi ish haqini sharoitga qarab oshirishni talab qilmaslik, uning o'sishi sur'atini mehnat unumtdorligi o'sishi sur'atiga uzviy bog'lashga rozi bo'ladi. Tadbirkorlar uyushmasi esa narxlarni oshirmsaslik majburiyatini oladilar. Hukumat esa soliq yukini oshirmsaslik va mazkur kelishuv shartlarining bajarilishini nazorat qilish vakolatini o'z zimmasiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18 noyabrdagi "Inflyatsion targetlash rejiimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5877-sod Farmonida "Inflyatsiya darajasini yanada pasaytirish borasidagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi aholi turmush darajasini yaxshilash va barqaror iqtisodiy o'sish uchun sharoitlar yaratishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar samaradorligini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Xalqaro tajriba bozor iqtisodiyoti sharoitida pul-kredit siyosatini yuritishning samarali usullaridan biri infliyatsion targetlash rejiimi ekanligini ko'rsatmoqda, bunda pul-kredit bozoridagi Markaziy bankning faol ishtiropi, shuningdek, iqtisodiy rivojlanishning muntazam tahlili va davlat siyosati rejalarining keng yoritib borilishi

inflyatsiyaning miqdoriy maqsadlariga erishishni ta'minlaydi”⁵³, -deb ta'kidlangan.

Mazkur farmonda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki inflyatsiya darajasini 2021 yilda 10 foizgacha pasaytirish hamda 2023 yilda 5 foiz darajadagi doimiy inflyatsion maqsadni (target) o'matish yo'li bilan 2020 yilning 1 yanvaridan boshlab pul-kredit siyosati mexanizmlarini bosqichma-bosqich inflyatsion targetlash rejimiga o'tkazishni ta'minlash vazifasi qo'yilgan.

Hozirgi kunda inflyatsion targetlash pul-kredit siyosatini olib borishning eng ommabop usullaridan biri bo'lib, ushbu usul jahondagi 40 dan ortiq mamlakatlarda qo'llanilmoqda. “Target” so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, “maqsad” degan ma'noni anglatadi. Inflyatsion targetlash rejimida inflyatsiyaning maqsadli ko'rsatkichi (target) o'rnatiladi.

Inflyatsiyaning maqsadli ko'rsatkichi (targeti)ga erishish uchun pul-kredit siyosati mexanizmlari bosqichma-bosqich ushbu rejimga o'tkazilib, inflyatsiyani pasaytirishda samarali instrument sifatida foydalaniлади. O'z navbatida, ushbu rejimning qo'llanilishi narxlar barqarorligini ta'minlash orqali o'rta muddatli istiqbolda mustahkam va barqaror iqtisodiy o'sish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishi mumkin. Shu bilan birga, Markaziy bank inflyatsiya darajasining eng mos maqsad (target)ini aniqlab olib, unga pul-kredit siyosati instrumentlarini qo'llash, iqtisodiy rivojlanishni muntazam tahlil qilish va pul-kredit siyosati rejalarini keng yoritish orqali erishadi.

Inflyatsion targetlash rejimi quyidagi makroiqtisodiy maqsadlarga erishish imkonini beradi:

- narxlarning keskin oshishi va yuqori inflyatsiyani oldini olish;
- pul bozorini shakllantirish, pul bozorini segmentlash sabablarini bartaraf etish;

⁵³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18 noyabrdagi “Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish lo'g'risida”gi PF-5877-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/4600824>

- ichki va tashqi omillarni hisobga olgan holda, aholi va tadbirkorlarning to'lov qobiliyatini qo'llab-quvvatlash hamda moliya sektorining barqarorligini ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18 noyabrdagi "Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5877-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va Markaziy bankining inflyatsiyani pasaytirish va narxlar barqarorligini ta'minlash bo'yicha birgalikdagi harakatlari konsepsiyasi"da o'rta muddatli davrda inflyatsion targetlash rejimini to'liq joriy etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan:

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining inflyatsiyaning monetar va nomonetar omillarini pasaytirishdagi rolini kuchaytirish;

inflyatsiyaning qisqa muddatli maqsadlari traektoriyasini aniqlash va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan uzoq muddatli maqsadga o'tishni e'lon qilish;

Markaziy bank tomonidan yangi instrumentlarning (overnayt, depozit va kredit auksioni, svop, REPO, qisqa va o'rta muddatli obligatsiyalar va boshqalar) joriy etilishi;

pul bozoridagi operatsiyalarning asosiy mezoni sifatida foiz stavkalari koridorini qo'llash;

moslashuvchan foiz siyosatini olib borish orqali tashqi va ichki omillarga o'z vaqtida javob berish;

davlat qimmatli qog'ozlari bilan pul bozori operatsiyalarini amalga oshirish va g'aznachilikning bo'sh pul mablag'larini tijorat banklariga joylashtirish uchun yagona platforma yaratish;

qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlilik egri chizig'in shakllantirish va iqtisodiyot subyektlarining uzoq muddatli kutilmalarini samarali boshqarish;

ekonometrik modellashtirish instrumentlarini rivojlantirish, makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish tizimini to'liq tatbiq etish orqali pul-kredit va makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligini tizimli baholash;

inflyatsion targetlash rejimining mohiyati va maqsadlari, uni muvaffaqiyatli amalga oshirish shart-sharoitlari, bevosita va bilvosita ijobjiy ta'sirlari hamda unga erishishning maqsadli muddatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni keng jamoatchilikka xolisona, aniq va sodda usulda yetkazish orqali O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kommunikatsiya siyosatini takomillashtirish;

pul-kredit siyosatining o'rta va uzoq muddatli istiqbolda makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasiga ta'sirini baholash bo'yicha ekonometrik modellarni qo'llash⁵⁴.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va yillik inflyatsiya darajasini 2023 yilgacha bosqichma-bosqich 5 foizgacha pasaytirish vazifasi belgilangan⁵⁵.

Taraqqiyot strategiyasida iste'mol bozorlarida raqobatni rivojlantirish va monopoliyaga qarshi ta'sirchan choralar ko'rish. Bunda:

ichki iste'mol bozorida raqobat muhitiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni bartaraf etish va importda konsentratsiyalashuv darajasini pasaytirish;

oziq-ovqat va nooziq ovqat mahsulotlari bozorlarida taklifni oshirish va mavsumiy taqchillikkarni bartaraf etish;

tarif va notarif tartibga solishning inflyatsiya darajasiga ta'sirini hisobga olish va oqibatlarini yumshatish;

jahon bozorlaridagi vaziyatdan kelib chiqib, ichki bozorda talab yuqori bo'lgan tovarlarni xorijdan olib kirishda ularga nisbatan maqbul bojxona stavkalarini qo'llash belgilangan.

Bunday iqtisodiy o'sishga va inflyatsiya o'sishini barqarorlashtirishga erishishda, avvalambor, keng ko'lamli bozor islohotlarini joriy etish va xorijiy investitsiyalarni jaib qilish, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, ishlab

⁵⁴ "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va Markaziy bankining inflyatsiyani pasaytirish va narslar barqarorligini ta'minlash bo'yicha birlgilidagi harakatlari konsepsiysi" // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18 noyabrdegi "Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5877-soni Farmoni. 1-ilova.// <https://lex.uz/docs/4600824>

⁵⁵"O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022yil 28yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60soni Farmoni. 1-ilova.// <https://lex.uz/docs/-5841063>

chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilash, eksportga ixtisoslashgan yangi tarmoq va korxonalar barpo etish, biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga qaratilgan, har tomonlama puxta o'ylangan siyosatning amalga oshirilayotgani prinsipial ahamiyatga ega bo'ladi⁵⁶.

Asosiy tushuncha va atamalar

Narx, narxning funksiyalari, narxning regulyatorlik vazifasi, davlat buyurtmasi narxlari, qiymat, kelishilgan narx, yuqori narx, davlat subsidiyasi, monopol narxlar, inflyatsiya, inflyatsiyaga qarshi siyosat, targetlash, inflyatsion targetlash.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qiymat va narx nazariyalarini mohiyatini tushuntiring?
2. Marjinalistlarning qiymat va narx nazariyasini va uning qiymatning mehnat nazariyasidan farqini tavsiflab bering?
3. Zamonaviy narx va qiymat nazariya qiyamatning mehnat nazariyasi va yuqori naflilik nazariyalarining sintezi ekanligini tushuntirib bering?
4. Narxning regulyatorlik rolini qanday ahamiyati bor?
5. Narxni davlat tomonidan tartibga solishning qanday asosiy usullari mavjud?
6. Narxni tartibga solishnin to'g'ri va egri usullari deganda nimani tushunasiz?
7. Narxlar qanday holatlarda ma'muriy usullar yordamida tartibga solinadi?
8. Narxlarni tartibga solishning monetar va nomonetar usullari nimalardan iborat?
9. Agrar sektordagi narxni davlat tomonidan tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari va shakllari nimalardan iborat?
10. O'zbekistonda narxni davlat tomonidan tartibga solish usullari va shakllarini tushuntiring.
11. Inflyatsiyaga qarshi siyosat narxni davlat tomonidan tartibga solish shakllaridan biri ekanligini tushuntirib bering.
12. Inflyatsion targetlash deganda nimani tushunasiz?

⁵⁶ Абулкосимов Н.П. Иқтисодийни тартибга солишнинг бозор ва давлат механизmlари.-Т: Akademiya. 2012.- 382-383-бетлар.

8-BOB. IQTISODIYOTNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING BUDJET-SOLIQ SIYOSATI VOSITALARI

8.1. Davlat budjeti – iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish vositasi

Milliy iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmida tartibga solishning budjet-soliq siyosati muhim o'rinni egallaydi. Davlat budjeti-davlat pul mablag'larining (shu jumladan, davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larining) markazlashtirilgan jamg'armasi bo'lib, unda daromadlar manbai va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi. Davlat budjeti ikki asosiy qism – daromadlar va xarajatlar qismidan iborat. Budget tizimi turli darajadagi budgetlar va budget mablag'lari oluvchilar yig'indisi, budgetlarni tashkil etish va tuzish prinsiplari, budget jarayonida ular o'rtasida, shuningdek, budgetlar hamda budget mablag'lari oluvchilar o'rtasida vujudga keladigan o'zaro munosabatlarni o'zida ifodalaydi.

Soliqlar, zayomlar va boshqalar asosida davlat budjeti daromadlari shakllantirilishi orqali yirik moliyaviy resurslar jamlanadi. Ushbu resurslarning umumiy hajmi YalM ga nisbatan davlat budjeti xarajatlarida namoyon bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlarda davlat budjeti xarajatlari YalM ga nisbatan foiz hisobida AQShda 29% dan Fransiyada 51% gacha tebranganligini kuzatish mumkin. Butun YelRXT mamlakatlari bo'yicha – 36,5%, shulardan, Italiyada – 46,7%, Germaniyada – 43%, Yaponiyada – 38,2%, Kanadada – 37,8%. O'zbekiston Rspublikasida 2017yilda davlat budjeti xarajatlari YalM ga nisbatan 21,9% ni tashkil etadi. Bu esa davlat budjeti iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda muhim vosita ekanligini ko'rsatadi.

Davlat budgetining boshqaruvchanlik roli qayta taqsimlangan milliy daromadning bir qismini davlat mulki shakliga aylantirish ko'rinishida namoyon bo'ladi. Budget orqali, uning resurslaridan foydalanish orqali ishlab chiqarish sohalari o'rtasida, moddiy va nomoddiy sohalar o'rtasida, tarmoqlar o'rtasida, hududiy birliklar va

aholini ijtimoiy guruhlari o'rtasida milliy daromadni qayta taqsimlash amalga oshiriladi.

Budjet makroiqtisodiy mutanosiblikka erishish va uni qo'llab-quvvatlashda muhim dastak bo'lib hisoblanadi. Asosan iste'mol va jamg'arish fondlari o'rtasidagi zarur mutanosiblikni saqlab turishda davlat budgetining roli kattadir. Budgetning takror ishlab chiqarishga ta'siri, iqtisodiyot va madaniyatni rivojlantirish, tarkibiy qayta qurishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslar bilan ta'minlashda namoyon bo'ladi. Budjet davlatning iqtisodiy siyosatini yuritishda muhim vosita bo'lib hisoblanadi. Alovida davrlarda esa, xo'jalik-taskiliy faoliyatiga, davlat siyosati va iqtisodiy siyosatni ilmiylik darajasiga bog'liq holda islohotlarni amalga oshirishda budgetning roli kattadir.

O'zbekiston Respublikasida Moliya vazirligi davlat fiskal siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun mas'ul hisoblanadi. U davlat budgeti loyihasini tayyorlaydi, davlat budgeti mablag'larining tushumi va sarfi tartibini belgilaydi hamda ular ustidan nazoratni amalga oshiradi; respublika budgeti xarajatlarini amalga oshiradi; budget mablag'ları oluvchilarining davlat budgeti mablag'laridan foydalanishini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, umummajburiy tusdagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qiladi.

Quyidagilar *davlat budgeti daromadlarining asosiy manbalari* hisoblanadi:

1. Soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlar.
2. Davlatning moliyaviy va boshqa aktivlarining joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotilishidan olingan daromadlar.
3. Meros olish, hadya etish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'ları.
4. Yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari.
5. Rezident-yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga berilgan budget ssudalarini qaytarish hisobiga tushadigan to'lovlar va boshqalar.

Ushbu davlat budjeti daromadlarining tarkibiy o'zgarishlari oxirgi yillar bo'yicha bevosita soliqlarda pasayish, bilvosita soliqlarda esa o'sish tendensiyasiga ega bo'lmoqda (8.1.1-jadval.)

8.1.1-jadval.

Davlat budjeti daromad qismi ijrosi(%hisobida)⁵⁷

| Ko'rsatkichlar | 2009 | 2010 | 2014 | 2018 | 2020 |
|---|-------|-------|-------|-------|-------|
| Daromad – jami | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 |
| Bilvosita soliqlar | 25,8 | 25,0 | 25,8 | 20,6 | 33,0 |
| Huquqiy shaxslar daromad solig'i | 5,0 | 6,5 | 7,1 | 4,0 | 21,6 |
| Savdo vaumumovqatlanish korxonalar, mikrofirma va kichik korxonalar, tadbirkorlik faoliyatidan soliq va to'lovlar | 7,7 | 6,8 | 7,8 | 8,2 | 1,01 |
| Jismoniy shaxslar daromad solig'i | 12,1 | 11,7 | 10,9 | 8,4 | 11,4 |
| Bilvosita soliqlar | 50,2 | 50,4 | 51,8 | 53,7 | 34,9 |
| QQS | 28,5 | 28,7 | 28,0 | 35,4 | 23,4 |
| Aksizlar | 16,6 | 16,3 | 15,0 | 13,4 | 8,8 |
| Bojxona boji | 4,1 | 5,4 | 8,8 | 4,6 | 2,7 |
| Resurs to'lovleri va multk solig'i | 16,3 | 15,4 | 15,0 | 15,6 | 16,0 |
| Ijtinoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i | 3,1 | 2,8 | 2,6 | ... | ... |
| Boshqa daromadlar | 5,7 | 6,3 | 6,1 | 10,1 | 16,1 |

Ushbu davlat budjeti daromadlarining tarkibiy o'zgarishlari oxirgi yillar bo'yicha bevosita soliqlarda pasayish, bilvosita soliqlarda esa o'sish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. 2020 yildan boshlab, davlat budjeti parametrlari 3 yilga tuzilmoqda (8.1.2-jadval.)

⁵⁷Экономика Узбекистана: информационно-аналитический бюллетень за 2012год.-Т.:ЦЭИ,2013.-Стр.41; <https://kun.uz/news/2018/01/01/2018-jilgi-davlat-budjeti-rakunlarda-aks-etganda>; O'zdavstatqe'mita ma'lumotlari asosida tuzildi.

8.1.2-jadval.

2022 yil uchun O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budgetining jamlanma parametrlari hamda 2022-2023 yillarga budget mo'ljallari⁵⁸

| T/r | Ko'rsatkichlar | 2022 yil uchun prognoz | mlrd so'm | |
|-------------|--|------------------------|--------------------|------------------|
| | | | Budget mu'ljallari | 2023 yil |
| I. | Konsolidatsiyalashgan budget daromadlari | 254 582,5 | 276 673,9 | 316 482,5 |
| 1. | Davlat budjeti daromadlari * | 199 500,0 | 214 529,2 | 249 319,1 |
| 2. | Davlat maqsadli jamg'armalari daromadlari* | 31 935,9 | 35 160,2 | 38 318,4 |
| 3. | O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasiga tushumlar | 8 495,3 | 11 312,4 | 12 389,3 |
| 4. | Budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalariga tushumlar | 14 651,4 | 15 672,1 | 16 455,7 |
| II. | Konsolidatsiyalashgan budget xarajatlari | 280 128,7 | 304 584,4 | 347 228,6 |
| 1. | Davlat budjeti xarajatlari * | 188 911,5 | 202 669,0 | 238 545,1 |
| 2. | Davlat maqsadli jamg'armalari xarajatlari | 58 179,0 | 62 782,7 | 67 678,6 |
| 3. | O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'larining sarflanishi | 7 727,1 | 10 112,4 | 11 117,3 |
| 4. | Budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalari mablag'larining sarflanishi | 14 614,5 | 15 564,4 | 16 270,0 |
| 5. | Tashqi qarz hisobidan davlat dasturlariga xarajatlar | 10 696,5 | 13 455,8 | 13 617,6 |
| III. | Davlat maqsadli jamg'armalariga transfertlar | 25 900,1 | 28 244,4 | 30 356,6 |
| IV. | Konsolidatsiyalashgan budget saldozi (profitsit +, defitsit -) | -25 546,1 | -27 910,5 | -30 746,2 |
| V. | Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari saldozi (profitsit +, defitsit -) | -15 654,7 | -15 762,3 | -18 586,2 |
| VI. | Davlat qarzlarini so'ndirish | 10 172,3 | 11 394,3 | 15 098,9 |

* Davlat maqsadli jamg'armalariga transfertlarni hisobga olmagan holda

Ushbu jadvaldan ko'rinish turibdiki, 2022 yil uchun O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budgeti taqchilligining cheklangan miqdori yalpi ichki mahsulotning 3 foizi miqdorida belgilangan. Kelgusida konsolidatsiyalashgan budget taqchilligi

⁵⁸ O'zR Moliya vazirligi ma'lumotlari.

cheklangan miqdorining oshib ketishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan qo‘srimcha xarajatlar faqat qo‘srimcha daromad manbai mavjud bo‘lganda yoki boshqa xarajatlarni qisqartirish hisobiga amalga oshirilishi belgilangan.

Davlat budjeti xarajatlarining tarkibi. Davlat budjeti xarajatlari quyidagi yo‘nalishlarda sarflanadi:

1. Budjet mablag‘lari oluvchilarning joriy xarajatlari.
 2. Joriy budjet transfertlari.
 3. Kapital xarajatlar:
 - asosiy fondlar va vositalarni (ular bilan bog‘liq ishlar va xizmatlar ham shular jumlasiga kiradi) davlat ehtiyojlari uchun olish va takror ishlab chiqarish;
 - chet elda davlat ehtiyojlari uchun yer va boshqa mol-mulk olish;
 - davlat ehtiyojlari uchun yerga bo‘lgan huquqni va boshqa noimoddiy aktivlarni olish;
 - davlat zaxiralarini vujudga keltirish.
 4. Kapital xarajatlarni qoplash uchun yuridik shaxslarga beriladigan budjet transfertlari.
 5. Rezident-yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga beriladigan budjet ssudalari.
 6. Davlat maqsadli jamig‘armalariga beriladigan budjet dotatsiyalari va budjet ssudalari.
 7. Davlat qarzini qaytarish va unga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha to‘lovlari va boshqa xarajatlar.
- Davlat budjeti xarajatlari hisobiga buyurtmalar asosida mahsulot harid qilish bozori vujudga keladi. Shuningdek, bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini tarkibiy qayta qurishda budjet muhim o‘rinni egallaydi. O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti daromadlarining tarkibi uning zarur takror ishlab chiqarish mutanosibligini ta’minlash, iqtisodiy siyosatining muhim vazifalarini hal etishdagi o‘rnini haqida yaqqol tasavvurlarni imkonini beradi.

8.2. Soliqlar ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish vositasi sifatida

Soliqlar va ularning hajmi davlat budgeti xarajatlari miqdoriga bog'liq bo'lib, budget daromad qismining 90 va undan ortiqroq qismini tashkil etadi. Soliqlar – milliy daromadning bir qismini davlat mulkiga aylanish xususiyatiga ega. Shuning uchun soliqlarning undirilishi – bu milliy daromadning bir qismini davlat ixtiyoriga o'tkazish jarayoni hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda soliqlar YALM ga nisbatan 30% dan 50%gacha tashkil etadi. Soliqlar iqtisodiy o'sishga muhim ta'sir ko'rsatadi.

Soliqlar moliyaviy kategoriya sifatida YALM ning qanday qismi davlat tasarrufiga kelib tushishini xarakterlaydi. Soliqlar qayta taqsimlash munosabatlарини faol qatnashchisi sifatida kapital yig'ishni kuchaytirish yoki kamaytirish, aholining to'lovga qodirligini kengaytirish yoki kamaytirish orqali takror ishlab chiqarishning o'sish sur'atlarini rag'batlantiradi yoki kamaytiradi va shu kabi dastaklar orqali butun takror ishlab chiqarish jarayoniga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Soliqlarning funksiyalari ularning mohiyatini, amaliyotda harakat qilayotganligini ko'rsatadi. Shunday ekan, funksiya doimo yashab, soliq mohiyatini ko'rsatib turishi zarur⁵⁹.

Davlatning soliq siyosati iqtisodiyotda quyidagi muhim vazifalarni bajaradi:

- fiskal, ya'ni davlat budgeti daromadlarini shakllantirish;
- daromadlarni taqsimlash va qayta taqsimlash;
- ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish va raqobatni kuchaytirish;
- nazorat qilish;
- davlat iqtisodiy siyosatini tartibga solish.

O'zbekistonda vujudga keltirilgan soliq tizimi o'zining strukturasi va qurilish prinsipiga asosan jahon soliq tizimi amaliyotida keng

⁵⁹ Яхсан Қ.А. Солиқка тортниш пазарияси ва амалийти. -Т.: Фан ва технологиялар Маркази нацирети, 2003. 12-бет.

tarqalgan tizimni aks ettiradi. Budget daromadlarini to'liq va o'z vaqtida safarbar qilish bilan birga soliq tizimini ishlab chiqarish va iste'molga o'z ta'sirini o'tkazish, soliqqa tortish tizimining o'zgaruvchan va harakatchanligini ta'minlash va uni yanada oqilona qilish kerak⁶⁰.

Shu o'rinda aynan soliqning fiskal mohiyati va uning iqtisodiy jarayonlarni rag'batlantirish vositasi sifatidagi vazifasi o'rtasida bo'lgan muvozanatni belgilaydigan mezonnini aniqlab olish zarur. Zero, yuqori darajadagi soliqlar iqtisodiyotning taraqqiyotiga to'sqinlik qiladi. Soliqlar oqilona qisqartirilganda budgetga ko'proq pul tushishi mumkin.

Bizning respublikamizda soliq tizimi bevosita va bilvosita soliqlarni o'z ichiga oladi. Bevosita soliqlar aslida olingan daromad summasiga nisbatan foizlarda belgilanadi. Shuning uchun ham korxonalarining moliyaviy xo'jalik faoliyatiga bevosita ta'sir qiladi. Bu korxonalarining daromadlari va mol-mulkiga solinadigan soliqlar hamda fuqarolardan olinadigan daromad solig'idir. Bevosita soliqlar tovar (xizmat) bahosining elementi hisoblanadi va unga avtomatik tarzda qo'yiladi. Bunday soliqlar qatoriga qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, respublika hududidan chetga chiqariladigan mahsulotlarga solinadigan soliqlar kiradi. Bu bevosita va bilvosita soliqlar yig'indisi davlat budgetiga tushadigan tushumlarning asosiy qismini tashkil qiladi.

Soliqning fiskal funksiyasi orqali soliqqa tortishning asosiy vazifasi, ya'ni davlat moliyaviy mablag'larining shakllanishi, shuningdek, davlatning umum davlat va maqsadli dasturlarini amalgaga oshirish uchun mablag'larni jamg'arish vazifalari amalgaga oshiriladi. Soliq tushumlari davlat budgeti daromadlarining asosini tashkil qiladi.

Davlat o'z tasarrufiga ishlab chiqarilgan YaIM ning anchagini qismini soliqqa tortish yo'li bilan oladi va qayta taqsimlaydi. Bunda soliqlarning fiskal funksiyasi va taqsimlash funksiyalari uyg'unlashadi.

⁶⁰ Яхъеев Қ.А. Соликка тортиниз назарияси ва амалийти. -Т.: Фан ва технологиялар маркази пашриёти, 2003. 15-бет.

Soliqlar to‘g‘risidagi darsliklarda qayd etilishicha, korxonalarning qo‘sishimcha qiymati yoki daromadlari avval taqsimlanadi, so‘ngra budgetga beriladi. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, avval ishlab chiqaruvchilarining manfaatlari ta‘minlanadi va so‘ngra daromadlarning bir qismi budgetga o‘tkaziladi. Bundan tashqari, soliqlarning taqsimlovchilik funksiyasi aholining turli kategoriyalari o‘rtasida umumiy daromadlarning qayta taqsimlanishini ta‘minlashi nuqtai nazaridan ijtimoiy funksiyani ham bajaradi, degan qarashlar ham mavjud. Soliqqa tortish orqali “alohida ijtimoiy guruuhlar o‘rtasida tengsizlikni kamaytirish maqsadida ularning daromadlari bo‘yicha o‘zaro munosabatlarni o‘zgartirish yo‘li bilan ijtimoiy muvozanat qo‘llab-quvvatlashga erishiladi”⁶¹. Boshqacha aytganda, soliq yukining imkoniyati yuqori bo‘lgan soliq to‘lovchilarga ko‘proq tushishi hisobidan fuqarolarning ijtimoiy yordamga muhtoj qismi foydasiga mablag‘lar olinishi sodir bo‘ladi.

Soliqlar orqali davlat aholi va korxonalarning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini, shuningdek, daromad va xarajatlarning manbalari ustidan nazorat qiladi. Soliq summasini pul ko‘rinishida baholashning mavjudligi davlatning moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojini daromadlar ko‘rsatkichlari bilan miqdoriy qiyoslash mumkinligi imkonini beradi. Soliqlarning nazorat funksiyasini amalga oshirish natijasida soliq tiziminining samaradorligi baholanadi, faoliyat turlari va moliyaviy oqimlar ustidan nazorat o‘rnataladi. Bundan tashqari, soliqqa tortishning nazorat funksiyasi orqali soliq tizimi va budget siyosatiga o‘zgartirishlar kiritishning zarurligi aniqlanadi.

Soliqlar yordamida tadbirkorlar faolligini rag‘batlantirish yoki aksincha, cheklab qo‘yish va demak, tadbirkorlik faoliyatining u yoki bu tarinog‘i rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatish mumkin⁶². Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va jahon bozorida milliy korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish uchun shart-sharoit yaratishda ham soliqlarning rag‘batlantirish funksiyasi muhim rol o‘ynaydi.

⁶¹Бузатов А. Экономика -М.: Бек, 1994, стр.309.

⁶²Маликов Т.С. Солиқлар ва солиқлар тортининг долларб масалалари. -Т.: Академия, 2002, 53-бет.

Diskresion va nodiskresion fiskal siyosat. Davlat tomonidan amalga oshiriladigan fiskal siyosat odatda ikki yo‘nalishda bo‘ladi: diskresion fiskal siyosat va nodiskresion fiskal siyosat. Diskresion fiskal siyosatda hukumatning maxsus qarorlari natijasida davlat xarajatlari, soliqlar va davlat budjeti qoldig‘i miqdorining maqsadli o‘zgarishi amalga oshiriladi. Bu qarorlar iqtisodiyotdagi bandlik darajasi, ishlab chiqarish hajmi va inflyatsiya sur’atlarini o‘zgartirishga qaratilgan bo‘ladi.

Nodiskresion fiskal siyosatda davlat xarajatlari, soliqlar va davlat budjeti qoldig‘ining avtomatik ravishda o‘zgarishi ro‘y beradi. Bu o‘zgarishlar «avtomatik stabilizatorlar» harakati ta’sirida jami daromadning davriy tebranishlari natijasida paydo bo‘ladi.

«Avtomatik stabilizator» – davlat tomonidan maxsus choralarni qo‘llamasdan avtomatik ravishda iqtisodiyotdagi davriy tebranishlarni silliqlashga imkoniyat beradi. Masalan: soliq solishning progressiv shkalasi, transferlar tizimi, ishsizlik bo‘yicha nafaqalar va boshqalar.

Yuridik shaxslar uchun daromad (foyda) solig‘i stavkasi 1996 yildagi 37 foizdan 2015-yilga kelib 7,5 foizga pasaytirildi va bu ko‘rsatkich 2016-2017-yillarda saqlanib qoldi. Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqning yuqori chegarasi 1999 yildagi 45 foizdan 2017-yilda 22,3 foizga kamaytirildi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i 2016-2017-yillarda eng kam ish haqining 1 baravarigacha miqdorda 0 stavka, eng kam ish haqining 1 baravaridan (+1 so‘m) 5 baravarigacha miqdorda 7,5 % qilib belgilangan edi.

O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrdagi “O‘zbekiston respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognizi va davlat budjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga budget mo‘ljallari to‘g‘risida”gi PQ-4086-sonli Qaroriga binoan barcha fuqarolar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan soliqning 4 shkalai va hisoblab chiqarilishi murakkab bo‘lgan tizimdan voz kechilib, 12% miqdordagi yagona soliq stavkasiga o‘tildi. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i stavkasi 15%dan 14%ga kamaytirildi.

2021 yil uchun soliq siyosatida soliqlarning asosiy stavkalari saqlab qolindi, xususan QQS (15%), foyda solig'i (15%, ayrim toifalar uchun — 20%), jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (12%), yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i (2%), qishloq xo'jaligi yerlari uchun yer solig'i (0,95%), ijtimoiy soliq (xo'jalik yurituvchi sub'ektlar — 12%, budget tashkilotlari — 25%) va oborot solig'i (bazaviy stavka — 4%). Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lash tartibi, 15%li stavkasi saqlanib qolindi.

2022 yilda quyidagi asosiy soliq stavkalari o'zgarishsiz qoldiriladi:

- qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi – 15 foiz;
- foyda solig'i stavkasi – 15 foiz;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkasi – 12 foiz;
- aylanmadan olinadigan soliqning bazaviy stavkasi – 4 foiz;
- dividendlar ko'rinishidagi daromadlardan olinadigan foyda solig'i stavkasi – 5 foiz;

-qishloq xo'jaligi yerlarini sug'orishda belgilangan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi 40 so'm, shu jumladan soliq stavkasiga suv yetkazib beruvchilar tomonidan yetkazib berilgan suv hajmi xarajatlarini qoplash uchun 1,05 koeffitsient qo'llashni saqlab qolish;

-qishloq xo'jaligi korxonalari yer solig'i qishloq xo'jaligi ekinzorlarining normativ qiymatiga nisbatan belgilangan 0,95 foiz soliq stavkasi saqlab qolinadi.

Shu bilan birligida, 2023 yil 1 yanvardan boshlab:

- qo'shilgan qiymat solig'i 15 foizdan 12 foizga;
- mobil aloqa xizmatlariga aksiz solig'i stavkasi 15 foizdan 10 foizga;
- bank, mobil aloqa operatorlari va bozorlar va savdo komplekslari uchun belgilangan foyda solig'i stavkasi 20 foizdan 15 foizga pasaytiriladi.

Bunda qat'iy miqdorda belgilangan aksiz, yer solig'i, mol-mulk, suv solig'i stavkalari inflyatsiya darajasidan kam bo'lmagan miqdorda indeksatsiyasi qilinadi⁶³.

Soliq tizimini tahlil qilishda to'rt jihatni ko'rsatib berish muhimdir: fiskal, sofiqtisodiy, ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy-teknik.

Fiskal jihat soliqlar tizimini budjet daromadlari, soliqqa tortish mexanizimini shakllantirish nuqtai nazarini xarakterlaydi. Iqtisodiy jihatdan soliqlarning ishlab chiqarishga ta'sirini ifodalaydi.

Ijtimoiy-iqtisodiy jihat turli aholi qatlamlarini ogilona soliqqa tortish tizimini ta'minlashning tashkiliy-teknik shakllari bilan bog'liqidir. Ma'lumki, soliq qonunlariga joriy o'zgarishlar kiritilishi tabiiy hol, lekin ular ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning uzoq vaqtga mo'ljallangan maqsadini ko'zlashi kerak.

To'g'ri tashkil etilgan soliq siyosati iqtisodiy tanglikni yengib o'tishda muhim rol o'ynashi mumkin. Buning uchun moliyaviy nuqtai nazardan qaraladigan bo'lsa, u soliqqa tortiladigan ob'ektlarning barchasini qamrab olishi va budjetni zarur mablag'lar bilan ta'minlashga qaratilmog'i lozim. Iqtisodiy nuqtai nazardan soliq ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirmog'i kerak. Ijtimoiy nuqtai nazardan qaraladigan bo'lsa soliqlar bo'yicha beriladigan imtiyoziar haddan tashqari ko'p bo'lib ketmasligiga erishish lozim be'ladi. Tashkiliy nuqtai nazardan qaraladigan esa, soliq apparatini kuchaytirish zarurati tug'iladi.

Soliq tizimi ekologik halokatning oldini olishda ham muhim rol o'ynaydi. Buning uchun yer-suv solig'i joriy qilinib, agar korxonalarini yerdan unumli foydalanishga yo'naltirish lozim.

Umuman, soliqlar daromadlarning bir qismigagina solinishi, ayni vaqtida, xalq xo'jaligi va aholiga kerakli mahsulot hamda mollarni ko'proq va yaxshiroq ishlab chiqarishga intilayotgan korxonalarini, kishilarini har jihatdan rag'batlantirishi ham lozim.

⁶³2022 yilda KKС. foibda soliqni, daromad soliqni va yana bir kancha soliqlar ўзгаринишга колдирилди://https://review.uz/oz/post/2022-yilda-qqs-boyd-soligi-daromad-soligi-va-yana-bir-qancha-soliqlar-ozgarishsiz-qoldiriladi

Yuqoridagilarga muvofiq, bir qator davlatlarda, shu jumladan O'zbekiston Respublikasida ham zamonaviy moliyaviy siyosatning muhim yo'naliishlardan biri soliq yukini pasaytirish hisoblanadi.

8.3. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish usullari va vositalari tizimida soliq imtiyozlari

Soliq imtiyozlari iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning muhim shakli hisoblanadi. Ular investitsiyalarni, tadbirkorlik faoliyatini, chet el kapitalini jalb etishni, pul va moddiy resurslarni tejashni, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni va bandlikni oshirishni rag'batlantirish maqsadida qo'llaniladi.

Iqtisodiyotni va ijtimoiy jarayonlarni tartibga solish maqsadida qo'llanilgan soliq imtiyozlari turli shakllarda namoyon bo'ladi. Eng keng tarqalganlari quyidagilar:

1) Chegirma ko'rinishida soliq kreditlari berish, ya'ni foydani kamaytirilgan soliqlar hisobiga oshirish. Masalan, AQSh da 1962 yildan buyon 20 yil mobaynida turli investitsion (soliq) kreditlar qo'llanib kelinmoqda, ya'ni foydalanish muddati 8 va undan ortiq yil bo'lgan, ishlab chiqarishga kiritilgan uskunalar qiymatining 7 % ga teng miqdorda foyda solig'i qisqartiriladi.

Yaponiyada ham xuddi shunday yangi texnika va texnologiyalarga qilingan investitsiyaning 7% miqdorida soliq krediti qo'llaniladi. Kanadada mos tarzda soliq chegirmalari 7% dan 20% gacha o'zgarib turadi. Bir qator mamlakatlarda tadbirkorning ITTLI ga qilgan xarajatlari o'rtacha yillik foydani belgilangan ulushidan ortiq bo'lsa, qisqartirilgan soliq shaklidagi soliq krediti qo'llaniladi. Masalan, AQSh da bazis davriga nisbatan o'rtacha yillik me'yordan ITTLI ga qo'shimcha qilingan xarajatlarning 20% ga teng miqdorda foyda solig'i kamaytiriladi. Fransiyada ITTLI ga qo'shimcha qilingan xarajatlarning 50% ga teng miqdorda foyda solig'i qisqartiriladi, Kanadada esa qo'shimcha qilingan xarajatlarning 100% ga teng miqdorda foyda solig'i kamaytiradi.

Soliq krediti shaklidagi imtiyozlar ta'lim olish (asosan oliy ma'lumot) uchun yakka tartibdagi haq to'lovchilarga ham qo'llaniladi. AQSh dan keyingi ta'lim uchun to'lov miqdorining dastlabki 5 ming dollariga 20 % chegirma miqdorida «Ta'lim soliq krediti» hamda 13-17 yoshdagи xar bir o'quvchiga yiliga 500 dollar miqdorda soliq imtiyozi joriy etilgan.

2) Imtiyozning ikkinchi shakli – soliqdan butunlay ozod etish yoki pasaytirilgan soliq stavkalarini o'rnatishdir. Bunday imtiyozlar kichik tadbirdorlikni rag'batlantirish maqsadida qo'llaniladi. Bunga qishloq xo'jaligi maxsulotlarini qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etilishini ham kiritish mumkin. Bunday imtiyozlar respublikamizda ham keng qo'llaniladi.

3) Soliq imtiyozlarining uchinchi shakli – tezlashtirilgan amortizatsiya usulini qo'llanilishi, ya'ni olinadigan foydaning hajmini tezlashtirilgan amortizatsiya miqdoriga qisqartirish usulidir. Hukumat tomonidan belgilangan oshirilgan amortizatsiya xarajatlarini ishlab chiqarish xarajatlariga qo'shishga ruxsat beradi. Buning natijasida ishlab chiqarish xarajatlari oshadi, biroq soliq miqdorini qisqarishi hisobiga olinadigan foya miqdori o'zgarmaydi.

Mutanosiblikni tartibga solish uchun boshqa imtiyozlar ham qo'llaniladi. Misol uchun, AQSh da foydaning ijtimoiy infratuzilma obyektlari qurilishiga yo'naltirilgan qismi soliqlardan ozod etiladi. Ba'zi mamlakatlarda mehnatga haq to'lash va ishlab chiqarishni texnik qayta qurollantirishga sarflanadigan mablag'larni soliqqa tortishning alohida tizimlari qo'llaniladi. Misol uchun, Fransiyada texnik qayta qurollanishga sarflanadigan mablag'larga solinadigan soliqlar juda ham past. Germaniya va Fransiyada qo'shimcha ish o'rinalarini yaratish uchun qilingan xarajatlarga maxsus soliq imtiyozlari kiritilgan.

Ekologiyaga, sog'lomlashtirish va xayriya fondlariga, madaniyat muassasalariga, xalq ta'limi va sog'liqni saqlashga badallar to'lash hisobiga daromadni (foydani) soliqqa tortishni kamaytirish shaklidagi imtiyozlar ham mavjud.

Respublika mintaqalariga xorijiy sarmoyalar va zamonaviy texnologiyalar jalb etilishi rag'batlantirilishini kuchaytirish, xorijiy investorlar hamda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar uchun kafolatlar va imtiyozlar tiziimini yanada mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-apreldagi "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4434-ton Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonga ko'ra xorijiy investorning pul shaklidagi ulushi 5 million AQSh dollaridan kam bo'limgan yangidan tashkil etilayotgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar davlat ro'yxatidan o'tgan sanadan boshlab 10 yil mobaynida soliq qonunchiligidagi o'zgarishlar yuz bergan hollarda, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, mol-mulk solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, yagona ijtimoiy to'lov, yagona soliq to'lovi, shuningdek, Respublika yo'l hamda Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armalariga majburiy ajratmalar to'lashning mazkur korxonalar davlat ro'yxatidan o'tish sanasida amal qilgan me'yorlari va qoidalarini qo'llashga haqli ekanliklari belgilab berildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar uchun kafolatlar, imtiyozlar va afzalliklar tizimi ko'lami yanada kengaytirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 11 apreldagi PF-3594-ton Farmonida ko'zda tutilgan soliq imtiyozlari avvallari 8 ta tarmoq faoliyatiga tegishli bo'lgan bo'lsa, ushbu Farmon bilan 2012 yilning II-choragidan boshlab, xorijiy investitsiyalar uchun imtiyozlar 20 ta yo'nalishdagi iqtisodiyot tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan chet el investitsiya ishtirokidagi korxonalarga tatbiq etiladigan bo'ldi.

To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etadigan iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari investitsiyalar hajmidan kelib chiqib, foyda solig'i, mulk solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, mikrofirma va kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliq to'lovi, shuningdek Respublika yo'l jamg'armasiga

majburiy ajratmalar to'lashdan ozod qilish ko'tinishida soliq imtiyozlari berilgan.

To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy jalb qilingan investitsiyalar hajmi:

300 ming AQSh dollaridan 3 mln. AQSh dollarigacha bo'lganda – 3 yil muddatga;

3 milliondan 10 mln. AQSh dollarigacha bo'lganda - 5 yil muddatga;

10 mln. AQSh dollaridan ortiq bo'lganda - 7 yil muddatga soliq imtiyozlariidan foydalanishi mumkinligi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 maydag'i PQ-1754-sonli qaroriga asosan 1) qishloq joylardagi mahallalar hududida maishiy xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar (sartaroshlar, tikuvchilar, poyafzal, maishiy texnikani ta'mirlash bo'yicha usta va boshqalar) qat'iy belgilangan soliq to'lashdan 3 yil muddatga; 2) qishloq joylarda yakka tartibda uy-joy qurilishi asosida barpo etilayotgan massivlarda tashkil qilinayotgan kirkonalar xizmatlarini ko'rsatadigan mikrofirmalar, kichik korxonalar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tegishli ravishda yagona soliq to'lovi hamda qat'iy belgilangan soliq to'lovini to'lashdan 5 yil muddatga ozod etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 5 sentabrdagi PF-4469-sonli Farmoniga asosan Oilaviy biznesni yuritishga keng yo'l ochib berish maqsadida oilaviy korxonalar o'zi ishlab chiqargan xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'ati buyumlarini realizatsiya qilishdan olingan tushum bo'yicha yagona soliq to'lovini to'lashdan 2014 yil 1 yanvargacha ozod qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 26 oktabrdagi "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq erkin iqtisodiy zonalarda ro'yxatdan o'tgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi quyidagicha bo'lgan taqdirda yer solig'i, mol-mulk solig'i, daromad solig'i, obodonchilik va

ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, yagona soliy to'lovi (kichik korxona va mikrofirmalar uchun), Respublika yo'l jamg'armasi va Respublika maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy to'lovlardan ozod etiladi: 300 ming AQSh dollaridan 3 million AQSh dollarigacha hajmdagi investitsiyalar – 3 yilga; 3million AQSh dollaridan 5 million AQSh dollarigacha – 5 yilga; 5 million AQSh dollaridan 10 million AQSh dollarigacha – 7 yilga, 10 million va undan ko'p AQSh dollari hajmdagi investitsiyalar so'ngi 5 yilda amaldagi stavkalardan 50 foiz kam hajmdagi daromad solig'i va yagona soliq to'lovi stavkalari qo'llanilgan holda – 10 yilga beriladi. Keyingi 5 yil davomida foyda solig'i va yagona soliq to'lovi hajmi amaldagi stavkadan 50 foiz miqdorida belgilanadi. Eksport tovarlarini ishlab chikarish uchun EIZda ro'yxatga olingan korxonalar faoliyat ko'rsatadigan butun muddatga, asbob-uskuna, xom ashyo, ishlab chiqarish komponentlari_ importi uchun bojxona to'lovlaridan ozod etiladi.

Koronavirus pandemiyasi va global inqirozning salbiy oqibatlarini yumshatish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 19 martda "Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5969-son, 2020 yil 4 apreldagi "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5978-son, 2020 yil 27 apreldagi "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5986-son, 2020 yil 18 maydag'i "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5996-son, 2020 yil 27 iyuldag'i "Koronavirus pandemiyasining salbiy ta'sirini kamaytirish uchun aholi, tadbirkorlik sub'ektlari, umurniy ovqatlanish, savdo va xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6029-son farmonlari qabul qilindi.

Pandemiyaning mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta'sirlarini yumshatish yuzasidan Inqirozga qarshi kurashish jamg'armasi tashkil etildi.

O'zbekistonda 2020 yilda koronaviruchs pandemiyasi va global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida tadbirkorlik subyektlari va aholini qo'llab-quvvatlash maqsadida karantin choralaridan zarar ko'rgan 59,8 mingta kichik biznes sub'ektlari va korxonalar 567,5 milliard so'm miqdorida mulk solig'i va yer solig'idan ozod qilindi. 20,3 mingta xususiy tadbirkorlik subyektlariga foydalanilmayotgan yer uchastkalari va obyektlari uchun yuqori stavkalarni tadbiq etish va jarimalarni (1,1 trillion so'm) undirish to'xtatildi.

328,8 mingta mikrofirma va kichik korxonalar (1,68 million ishchi) uchun ijtimoiy soliq stavkasi 12 foizdan 1 foizga (662 milliard so'm) kamaytirildi. 239 mingta yakka tartibdagagi tadbirkorlarga eng kam ijtimoiy soliq miqdori bazaviy hisoblangan summaning 50 foizigacha (155 milliard so'mdan ortiq) kamaytirildi.

Turizm bilan shug'ullanuvchi 3 167 ta yakka tartibdagagi tadbirkor uchun jismoniy shaxslar daromadlariga solinadigan daromad solig'ini hisoblash to'xtatildi (3,1 milliard so'm).

2020 yilning oxiriga qadar 3 704 ta sayyoqlik, mehmonxona xizmati va aviatsiya sohasi subyektlari yer solig'i va mulk solig'idan ozod qilindi, shuningdek, ular uchun ijtimoiy soliq xajmi 12 foizdan 1 foizga pasaytirildi (154,5 milliard so'mdan ortiq).

Umumiy ovqatlanish va alkogol mahsulotlari savdosi sohasi bilan shug'ullanuvchi 11,2 mingdan ortiq korxonalar uchun ajratmalar (5 foizdan 3 foizgacha) va yig'imlar miqdori (25 foizga) kamaytirildi, bu esa ularga 17,1 milliard so'm miqdoridagi mablag'larni o'z ixtiyorida goldirishga imkon yaratdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021 yil 20 avgustda tadbirkorlar bilan ochiq muloqotda 2020 yil fevral oyida "Maxsus iqtisodiy zonalardan to'g'risida"gi qonun qabul qilingunga qadar iqtisodiy zonalarda ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlarga berilgan imtiyozlar saqlab qolinnishini ta'kidladi. Bunga qonun bilan kafolat berilgan.

Jumladan, ushbu tadbirkorlar investitsiya miqdoridan kelib chiqib, mol-mulk, yer va suv soliqlaridan 10 yilgacha ozod qilingan edi.

Endi ushbu imtiyozlarga foyda solig'i ham qo'shiladi va korxonalar ixtiyorida yiliga qariyb 300 milliard so'm mablag' qoladi. Masalan, "Sirdaryo" erkin iqtisodiy zonasidagi "Temur Med Farm" korxonasi o'tgan 6 oyda 4 milliard so'm foyda solig'i to'lagan bo'lsa, 2021 yilning ikkinchi yarim yilligida esa kamida shuncha mablag' uning o'zida qoladi.

Shuningdek, ichki bozorda teng raqobat bo'lishi uchun eksport mahsulotlari ishlab chiqarishga olib keligan xomashyo import bojidan ozod etiladi. Misol uchun, "Jizzax" erkin iqtisodiy zonasida joylashgan "Jizzax Toshtepa Textile" korxonasi mahsulotini to'liq eksportga sotadi. Bu imtiyoz evaziga ushbu korxona olib kelgan 1 million dollarlik xomashyo va yarim tayyor mahsulotga 2,2 milliard so'mlik bojxona imtiyozi beriladi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan belgilab berilgan ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash, tadbirkorlik sub'ektlari uchun qulay imkoniyat va shart-sharoitlar yaratish vazifalaridan, shuningdek soliq va budget siyosatining asosiy yo'nalishlaridan kelib chiqib, uni muntazam ravishda takomillashtirilib borilmoqda.

8.4. Iqtisodiyotni tartibga solishda moliya va soliq tizimini takomillashtirish

Mamlakatimiz mustaqilligi qo'lga kiritilgan dastlabki davrdan boshlab jismoniy shaxslar zimmasidagi soliq yukini kamaytirish, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash muhim ustuvor vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. Respublikada aholi bandligini oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'nalishida olib borilgan iqtisodiy islohotlar natijasida bir necha yuz minglab yangi ish joylari yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining 2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida»gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida 2019 yil 30 dekabrdagi PQ-4555-son qaroriga muvofiq quyidagilar 2020-2024 yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasining asosiy yo'nalishlari etib belgilangan:

soliq-budget siyosatiga strategik yondashuvni tatbiq etish maqsadida o'rta muddatli budget asoslarini ishlab chiqish hamda yillik budgetni shakllantirishning yangi «natijaga yo'naltirilgan budget» tizimini joriy etish;

makrofiskal prognozlar ishonchlilikini ta'minlash bo'yicha institutsional salohiyatni va budget jarayoni ishtiropchilarining mas'uliyatini oshirish;

budget mablag'larini taqsimlovchilar va mahalliy davlat hokimiyyati organlarining budget sohasidagi vakolatlarini va hisobdarligini oshirish va ularning mas'uliyatini kuchaytirish;

fiskal tavakkalchiliklarni baholash, moliyaviy aktivlar va majburiyatlar hisobini yuritish hamda ularni samarali boshqarish tizimini joriy etish;

budget hisobi standartlarini unifikatsiya qilish, ichki nazorat va audit tizimini takomillashtirish orqali moliyaviy intizomni mustahkamlash;

budget ma'lumotlarining ochiqligi, to'liqligi va xalqaro standartlarga mosligini ta'minlash;

budget jarayoni ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

Ushbu yo'nalishlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2020 — 2024 yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2020 yil 24 avgustdagi 506-son qarori bilan tasdiqlangan "2020—2024 yillarda O'zbekiston Respublikasining davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasi"ning maqsadlari etib belgilangan.

Mazkur strategiyada oliq xizmatlarini ko'rsatish sifatini oshirish bo'yicha quyidagi vazifalar belgilangan:

Soliq ma'murchiligini va qoidalarini takomillashtirish orqali yashirin iqtisodiyotni ulushini qisqartirish hamda budjet daromadlarini oshirish.

Soliq turlari bazasini takomillashtirish, resurs soliqlarini samaradorligini oshirish. Soliq imtiyozlarini maqbullashtirish jarayonini yakunlash orqali faoliyatning barcha ishtiroychilariga bir xil sharoit yaratish va raqobatni rivojlantirish.

Soliq xizmatlarini rivojlantirish va soliq ma'murchiligiga raqamli texnologiyalarni kiritish.

Strategiyani amalgga oshirishdan kutilayotgan natijalar:

davlat moliyasi to'g'risida ishonchli, shaffof, dolzarb va muddatli kompleks ma'lumotlar mavjud bo'ladi;

o'rta muddatli budjetni rejalashtirish to'laqonli tatbiq etiladi;

o'rta muddatli istiqbolda makrofiskal prognozlash va tahlil qilishning barqaror va bashorat qilinadigan tizimi yaratiladi;

mahalliy budjet parametrlarini shakllantirish va tasdiqlash jarayonida vazirliklar, idoralar va mahalliy hokimliklarning budjet sohasidagi vakolatlari va mustaqilligi kengaytiriladi va o'z navbatida ularning mas'uliyati sezilarli darajada oshiriladi;

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga mos ravishda budjet mablag'larini taqsimlash samaradorligi oshiriladi, soliq-budjet siyosatining maqsadlariga erishishning samaradorligi va natijadorligini baholashning son va sifat ko'rsatkichlari joriy etiladi.

Ta'kidlash lozimki, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tartibini takomillashtirish masalalaridan biri bo'lgan soliqqa tortilmaydigan miqdorning joriy etilishi aholidan olinadigan daromad solig'i tartibini davr talabiga mos holda takomillashtirishga o'zining munosib hissasini qo'shami.

Jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiya usulida soliqqa tortishda, rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalangan holda, jami yillik daromaddan ushbu daromadni olish bilan bog'liq bo'lgan

xarajatlarni, budjetga to'langan boshqa soliq va to'lovlarini chiqarib tashlash lozim.

Respublikamiz soliqqa tortish amaliyotida jismoniy shaxslarning ish haqi shaklidagi daromadlarini soliqqa tortishda uch bosqichli stavkalardan ikki bosqichlisiga o'tish va asta-sekin yagona stavka joriy etish lozim. Hozirgi paytda yagona stavka qo'llanilayotgan mamlakatlar amaliyotida bu mexanizm o'zining samarasini ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda mehnat sharoitlari o'ta zararli, o'ta og'ir, zararli va og'ir bo'lgan ishlab chiqarishlarda ishlovchi xodimlarning (ayollarning) daromadlariga soliq solishning amaldagi imtiyozli tartibi belgilangan. Ularning mehnatiga haq to'lash shaklidagi daromadlariga belgilangan soliq stavkalarini qaytadan ko'rib chiqish lozim. Bizningcha, og'ir va zararli, o'ta og'ir va o'ta zararli sharoitlarda ishlovchilar uchun imtiyozli soliq stavkasiga daromad solig'inining quyi stavkasi va o'rta stavkasi joriy etilishi maqsadga muvofiq.

Jismoniy shaxslarning mehnatga haq to'lash shaklidagi daromadlaridan ayrim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xarajatlarni (masalan dori-darmon uchun, meditsina xarajatlari) chegirish va ularning yillik daromadlarini umumiy deklaratsiyalash tizimiga tezroq o'tkazish lozim.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini takomillashtirishni iqtisodiy munosabatlar bilan o'zaro bog'liq va uyg'unlikda takomillashtirish zarur. Chunki aholi bandligini ta'minlash va daromadlarini oshirish ularning farovonligini o'stirishning ishonchli yo'lidir. Shu bilan birga, soliqqa tortiladigan daromadlarning ortishi budget manfaatlariha ham to'liq mos keladi.

Ma'lumki, yer solig'i soliq to'lovlarining moliyaviy natijalariga bog'liq bo'lмаган holda undiriladi, ya'ni yerning fizikaviy, kimiyoviy xususiyati hamda ularning joylanishi soliqlarni belgilashda asos qilib olinadi. Ammo, qayd etish joizki, hozirga qadar respublikamizda yerlarning boniteti ancha yillar oldingi ma'lumotlar bo'yicha yuritilmoqda. Shuni e'tiborga olib yerlarning bonitetini qaytadan obyektiv aniqlash va shu asosda soliq stavkasini ham qayta ko'rib

chiqish maqsadga muvofiq. Soliq tizimini takomillashtirish, uning bir qator vazifalarini real bajarilishiga erishib borishni ham o'z ichiga oladi. Bular quyidagilar:

- soliq yukini soliq to'lovchilar o'rtasida to'g'ri taqsimlashga erishish, shu bilan birga uni imkonи boricha kamaytirish;
- soliqlarning mazmunini soliq to'lovchilarga to'liq oshib bergen holda tushuntirish, ularda soliq madaniyatini shakllantirish va uni oshirib borish;
- soliqlarni ixchamlashtirish, ya'ni ularni yagonalashtirish.

Soliq tizimining samaradorligini oshirishga qulaylik tug'diruvchi omillardan biri bu soliq yukining to'g'ri taqsimlanganligi va imkonи boricha uni kamaytirishdir. Soliq yukini to'g'ri taqsimlanganligi iqtisodiy rivojlanishga olib keladi. Soliq yukini iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha, ishlab chiqaruvchi va iste'molchilar o'rtasida to'g'ri taqsimlanishi katta ahamiyat kasb etadi

Mavjud soliq tizimini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi bir qator masalalarga e'tibor berishni kuchaytirish lozim:

- soliqlarni joriy etish va ularni to'lash tartibiga ilmiy tomondan yondashishni kuchaytirish;
- mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda xorijiy tajribalardan unumli foydalanish;
- ixchamlashtirilgan soliqlar amal qilish doirasini kengaytirish;
- soliq sohasidagi har qanday o'zgarishlarni soliq to'lovchilarga ommaviy tarzda tushuntirib borishni keng yo'lga qo'yish;
- soliq sohasidagi qonunbuzarliklarning kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslik, unga qarshi qat'iy kurashish;
- tezkor amortizatsiyani qo'llash, soliq kreditlarining miqdorini ko'paytirish kabi vositalarni qo'llash;
- qat'iy stavkali soliqlarni kamaytirish, bu orqali tadbirkorlarni haqiqiy daromadidan kelib chiqqan holda soliq undirib olishni kuchaytirish.

Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali, soliq organlari va soliq to'lovchilarining shaxsiy aloqasini imkon

qadar cheklash, soliq tizimiga onlayn ma'lumot beruvchi kassa-nazorat apparatlari o'rnatish lozim bo'ladi.

Soliqqa tortish bo'yicha o'xhash bazalardan olinayotgan soliqlarni qayta ko'rib chiqish va ularni qisqartirish, ortiqcha olingan soliqlarni qaytarish tizimini ishlab chiqish, soliq sohasida yo'l qo'yilgan qonunbuzarliklar uchun jarima choralarни qayta ko'rib chiqish choralar ko'riladi. Muhim vazifalardan yana biri soliq imtiyozlarini optimallashtirish, ularni faqat ma'lum maqsadlar uchun berish hamda samarasiz sarflangan imtiyozlarni budjetga qaytarish mexanizmlarini ishlab chiqish, shuningdek, soliq tizimidagi audit mexanizmini tubdan takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimini o'rnatish chora-tadbirlari amalga oshiriladi. Soliq to'lovchilarning soliq qonunchiligidan xabardorlik darajasini oshirish maqsadida turli vebinar va onlayn-chatlar tashkil qilinadi.

Soliq tizimini yanada takomillashtirish natijasida 2026 yil borib tadbirkorlik subyektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirishga erishiladi⁶⁴.

Yuqoridagi islohotlar natijasida paydo bo'ladigan yangi soliq tizimi iqtisodiyotni qayta tiklash va rivojlanishini jadallashtirish, tadbirkorlik subyektlariga bir xil soliq bosimi qo'yilishi ta'minlash, sog'lom raqobatbardosh tadbirkorlik muhiti yaratish, soliq imtiyozlarini optimallashtirish hamda tadbirkorlar va investorlar huquqlarini hinoya qilish uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlash imkoniyatini yaratadi. Yuqoridagi fikrlar asosida aytish mumkinki, soliq tizimini yanada takomillashtirish faqatgina uning samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladi.

⁶⁴ O zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60sonli Farmoni. 1-ilova. / <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

Asosiy tushuncha va atamalar

Budjet, budjet tizimi, davlat budjeti, mahalliy budjet, soliqlar, soliqlarning vazifalari, bevosita soliqlar, bilvosita soliqlar, qo'shilgan qiymat solig'i, soliq stavkasi, soliq yuki, soliq imtiyozi, soliq organlari, iqtisodiy o'sish.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Davlat budjeti nima va u qanday vazifalarni bajaradi?
2. Budjet orqali davlat iqtisodiyotga qanday ta'sir ko'rsatadi?
3. Soliqlar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi aloqadorliklarni tushuntirib bering?
4. Soliqlarning vazifalari nimalardan iborat?
5. Soliq imtiyozlari iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish usuli va vositasi ekanligini tavsiflab bering?
6. Tezlashtirilgan amortizatsiyani shaklidagi imtiyozlar mazmunini yoritib bering?
7. ITTLI ni rag'batlantirishda qanday soliq usullari va shakllari mavjud?
8. O'zbekistonda asosiy soliq imtiyozlarini sanab o'ting.
9. O'zbekistonda budget-soliq vositalari orqali iqtisodiyot davlat tomonidan qanday tartibga solinishini tushuntirib bering.
10. O'zbekistonda budget daromadlari va xarajatlari nimalardan iborat?
11. O'zbekistonda soliq yukini kamaytirish uchun qanday chora-tadbirlar analga oshirilmoqda?
12. O'zbekistonda budget tizimni takomillashtirish uchun qanday chora-tadbirlar analga oshirilmoqda?
13. Koronavirus pandemiyasi va global moliyaviy -iqtisodiy inqiroz sharoitida soliq imtiyozlarini joriy etildi?

9-BOB. IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISHNING PUL-KREDIT SIYOSATI VOSITALARI

9.1. Pul va pul muomalasi, pulga bo‘lgan talab va pul taklifi

Pul – umumiy ekvivalent rolini o‘ynovchi tovardir. Pul — bu hamma tovarlarni sotish va sotib olish mumkin bo‘lgan, umumiy ekvivalent rolini o‘ynovchi maxsus tovardir.

Pulning mohiyatini to‘laroq tushunish uchun uning quyidagi asosiy vazifalarini ko‘rib chiqamiz:

- 1) qiymat o‘lchovi;
- 2) muomala vositasi;
- 3) boylik to‘plash vositasi;
- 4) to‘lov vositasi.

Tovar almashuv qiyamatining pul bilan ifodalanishi uning narxini anglatadi. Tovarning almashuv qiyamatini o‘lhash uchun muayyan miqdordagi pul materialini birlik qilib olish zarur. Bunday birlik **narxlar o‘lchovi** (masshtabi) deb ataladi. Pul muomaladan chiqarilganda boylik to‘plash vazifasini bajara boshlaydi. Tovarlar nasiyaga to‘lov muddati kechiktirib sotilganda, pul to‘lov vositasi vazifasini bajaradi.

Pulning o‘z vazifalarini bajarish jarayonidagi to‘xtovsiz harakati pul muomalasi deyiladi. Mamlakat pul tizimining muhim tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- 1) milliy pul birligi (so‘m, dollar, iena, funt sterling, marka va h.k.);
- 2) naqd pul muomalasida qonuniy to‘lov vositasi sifatida amal qiluvchi qog‘oz, tanga va kredit pullar tizimi;
- 3) pul emissiyasi, ya’ni belgilangan qonuniy tartibda pulni muomalaga chiqarish tizimi;
- 4) pul muomalasini tartibga soluvchi davlat idoralari.

Pul muomalasi naqd va kredit pullar yordamida amalgalashadi. Naqd pul muomalasida bank biletlari va metall tangalar (pul belgilari) xizmat qiladi. Naqd pulsiz hisoblar cheklari, kredit kartochkalari, veksellar, akkreditivlar, to‘lov talabnomalari yordamida amalgalashadi.

oshiriladi. Ularning hammasi pul agregati deb yuritiladi. Muomalada mavjud bo‘lgan pul massasi naqd va kredit pullarni qo’shish yo’li bilan aniqlanadi.

Muomala uchun zarur bo‘lgan pul miqdori quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$\Pi_m = \frac{T_b - X_k + X_t}{A_T},$$

bu yerda:

P_m — muayyan davrda muomala uchun zarur bo‘lgan pul miqdori;

T_b — sotilishi lozim bo‘lgan tovarlar summasi (tovarlar miqdori × narxi);

X_k — kreditga sotilgan tovarlar summasi;

X_t — to‘lash muddati kelgan tovarlar va xizmatlar hamda boshqa to‘lovlar summasi;

A_T — pulning aylanish tezligi.

Pul miqdoriga ta’sir etuvchi omillarni hisobga olib, pul muomalasining quyidagi qonuniga ta’rif berish imumkin: boshqa sharoitlar o‘zgarmay qolganda, muayyan davrda muomala uchun zarur bo‘lgan pul miqdori sotishga chiqariladigan tovarlar summasiga to‘g‘ri mutanosib, pulning aylanish tezligiga teskari mutanosibdir.

Bizning respublikamizda umumiyl pul miqdori quyidagi (tarkib)lar asosida hisoblanadi:

M_0 — muomaladagi naqd (qog‘oz va metall) pullar.

$M_1 = M_0 +$ aholining joriy hisob varaqlaridagi pul qoldiqlari, korxonalarining hisob varaqlaridagi pul mablag‘lari, banklardagi talab qilib olish mumkin bo‘lgan pul omonatları.

$M_2 = M_1 +$ tijorat banklaridagi muddatli omonatlar va jamg‘arma hisob varaqlaridagi pullar, ixtisoslashtirilgan moliyaviy muassasalardagi depozitlar va boshqa aktivlar. Mazkur agregat tarkibiga kiruvchi pul mablag‘larini bevosita bir shaxsdan boshqa biriga o‘tkazish hamda ayirboshlash bitimlarida foydalanish mumkin emas. Ular, asosan, jamg‘arish vositasi vazifasini bajaradi.

$M_3 = M_2 + \text{bank sertifikatlari} + \text{aniq maqsadli zayom obligatsiyalari} + \text{davlat zayom obligatsiyalari} + \text{xazina majburiyatlar.}$

Demak, pul massasining har bir alohida agregati o'zining likvidligi darajasiga ko'ra farqlanadi. Likvidlik — bu turli aktivlarning o'z qiyamatini yo'qotmasdan (eng kam xarajatlar asosida) tezlik bilan naqd pulga aylana olish qobiliyatidir.

Pul bozori — bu mamlakatdagi pul miqdori hamda foiz stavkasining turli darajalarida pul mablag'lari bo'lgan talab va pul taklifining o'zaro nisbatini ifodalovchi mexanizm. Pul taklifi — bu bozorda pul sifatida muomalada bo'lgan turli xil moliyaviy mablag'lar, ya'ni pul agregatları yig'indisi hisoblanadi.

Mamlakatdagi pul taklifi, asosan, Markaziy bank tomonidan taribga solinsa-da, u iqtisodiyotdagи barcha taklifni qamrab ololmaydi. Chunki bu jarayonga uy xo'jaligi xatti-harakati hamda tijorat banklarining siyosati hain ta'sir ko'rsatadi.

9.2. Kredit va bank tizimining vazifalari

Kredit bo'sh turgan pul mablag'larini ssuda fondi shaklida to'plash va ularni pulga muhtoj bo'lib turgan huquqiy va jismoniy shaxslarga ishlab chiqarish va boshqa ehtiyojlarini uchun ma'lum muddatga, foiz to'lovleri bilan qaytarish sharti bilan qarzga berish munosabatlarini ifodalaydi.

Pul shaklidagi kapital ssuda kapitali deyilsa, uning harakati kreditning mazmunini tashkil qiladi.

Kredit munosabatlari ikki subyekt o'rtasida, ya'ni pul egasi (qarz beruvchi) va qarz oluvchi o'rtasida yuzaga keladi.

Kredit resurslarining asosiy manbalari quyidagilardan iborat:

- 1) korxonalarining ariortizatsiya ajratmalari;
- 2) mahsulot sotishdan olingan pul tushumlari;
- 3) korxonalarining ishlab chiqarish, fan va texnikani rivojlantirish fondlari, moddiy rag'batlantirish fondlari;

4) korxonalar foydasi. Ular davlat budjeti va kredit tizimi bilan hisob-kitob qilinguncha, shuningdek, uning tegishli qismi korxona ehtiyojlari uchun foydalilanlguncha bankdagi hisoblarida saqlanadi;

5) bankdagi budjet muassasalari, kasaba uyushmalari va boshqa ijtimoiy tashkilotlarning joriy pul resurslari;

6) aholining bo'sh pul mablag'lari.

Kreditning bir qator vazifalari mavjud:

Birinchidan, kredit qayta taqsimlash vazifasini bajaradi. Uning yordamida korxonalar, davlat va aholining bo'sh pul mablag'lari ssuda fondi shaklida to'planib, keyin bu mablag'lar kredit mexanizmi orqali iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlarini hisobga olib qayta taqsimlanadi.

Ikkinchidan, kredit pulga tenglashtirilgan to'lov vositalarini (veksel, chek, sertifikat va h.k.) yuzaga chiqarib, ularni xo'jalik amaliyotiga joriy etish vazifasini bajaradi.

Uchinchidan, kredit naqd pullar o'rniga kredit pullarni rivojlantirish va pul muomalasini jadallashtirish bilan muomala xarajatlarini tejash vazifasini bajaradi.

To'rtinchidan, kredit ssuda fondining harakati (qarz berish va qarzni undirish) orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish vazifasini bajaradi.

Beshinchidan, kredit o'z muassasalari orqali iqtisodiy subyektlar faoliyati ustidan nazorat qilish vazifasini bajaradi.

Oltinchidan, kreditning o'ziga xos vazifasi — iqtisodiyoti tartibga solishdir. Bunda kredit uchun foiz stavkalarini tabaqlashtirish, davlat tomonidan kafolatlar va imtiyozlar berish kabi usullardan foydalilanildi.

Kredit turli shakllarda amalga oshiriladi. Tarixiy taraqqiyot davomida kreditning ikki — pul va tovar shakllaridan foydalani keligan. Hozirgi vaqtida mamlakat ichki aylanmasida bank, tijorat, davlat, iste'mol va xalqaro kredit shakllarini o'z ichiga oluvchi pul kreditidan keng foydalilanildi.

Bank krediti — pul egalari (banklar va maxsus kredit muassasalari) tomonidan qarz oluvchilar (tadbirkorlar, davlat, uy xo'jaligi sektorii)ga pul ssudalari shaklida beriluvchi kredit. Xo'jaliklararo kredit — bir

korxona (muassasa) tomonidan ikkinchisiga beriluvchi kredit. Tijorat krediti — korxonalar, birlashmalar va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning bir-biriga beradigan krediti. Tijorat krediti, avvalo, to'lovni kechiktirish yo'li bilan tovar shaklida beriladi.

Iste'mol krediti — xususiy shaxslarga, birinchi navbatda, uzoq muddat foydalilanidigan iste'mol tovarlari (mebel, avtomobil, televizor va boshqalar) sotib olish uchun ma'lum muddatga beriladigan kredit. U chakana savdo magazinlari orqali tovarlarning haqini kechiktirib to'lash bilan sotish shaklida yoki iste'mol maqsadlarida bank ssudalari berish shaklida amalga oshiriladi. Iste'mol kreditidan foydalanganlik uchun ancha yuqori foiz undiriladi.

Ipoteka krediti — ko'chmas mulklar (yer, bino) hisobiga uzoq muddatli ssudalar shaklida beriluvchi kredit. Bunday ssudalar berish vositalasi, banklar va korxonalar tomonidan chiqariladigan ipoteka obligatsiyalari hisoblanadi.

Davlat krediti — davlat pul mablag'lari qarzdori, aholi va xususiy biznes esa kreditorlari bo'lib chiqadigan kredit munosabatlарining o'ziga xos shakli. Davlat krediti mablag'lari manbai bo'lib, davlat qarz obligatsiyalari xizmat qiladi. Davlat kreditning bunday shaklidan, avvalo, davlat budjeti kamomadini qoplash uchun foydalанилди.

Xalqaro kredit — ssuda kapitalining xalqaro iqtisodiy munosabatlар sohasidagi harakatini namoyon etuvchi shakli. Xalqaro kredit tovar yoki pul (valyuta) shaklida beriladi. Kreditor va qarz oluvchilar banklar, xususiy firmalar, davlat, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar hisoblanadi.

So'nggi vaqtarda kreditlashning lizing, faktoring, forfeiting, trast kabi shakllari keng rivojlanib bormoqda.

Lizing — bu kreditning pulsiz shakli bo'lib, odatda, ishlab chiqarish vositalari va boshqa moddiy boyliklarni keyinchalik foydalananuvchilar tomonidan muntazam ravishda haq to'lab borib, sotib olish sharti bilan uzoq muddatli ijaraga berishdan iborat. Odatda, ishlab chiqarish vositalarini ularning egalari bevosita emas, balki maxsus lizing kompaniyalari orqali ijaraga beradilar.

Faktoring — boshqa iqtisodiy subyektlarning qarzdorlik bo'yicha majburiyatlarini sotib olish yoki qayta sotish munosabatlari. Bunda bank korxonalarning «debitorlik hisob varaqalari»ni o'zi uchun foydali shartlar asosida naqd pulga sotib oladi, keyin esa bu qarzlarni qarzdordan undirib oladi.

Forseyting — faktoring munosabatlarining uzoq muddatli shakli. Bunda qarzdorlik bo'yicha huquqlarni sotib olgan bank ularni odatda 1-5 yil vaqt o'tgandan so'ng undirishi mumkin bo'ladi.

Trast — bu mijozlarning kapitallarini boshqarish bo'yicha operatsiyalar majmui.

Kredit berish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- ssuda berishning maqsadli tavsifi;
- kreditning rasmiylashtirilgan muddatda qaytarilishi;
- ssudaning moddiy ta'minlanganligi va to'lovligi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul muomalasini ta'minlashda banklar muhim rol o'yнaydi. Banklar pul mablag'larini toplash, joylashtirishi va ularning harakatini tartibga solish bilan shug'ullanuvchi iqtisodiy muassasadir. Banklar faoliyatining asosiy tomonlaridan biri kredit munosabatlariga xizmat qilish bo'lib, ular kredit muassasalarining asosini tashkil qiladi. Banklar tiziimi, odatda, ikki bosqichli bo'lib, o'z ichiga markaziy (emission) bank va tijorat (depozitli) banklarning tarmoq otgan shaxobchalarini oladi. Mamlakatimizda 2022yil 1 yanvar holatiga ko'ra 177ta bank va nobank tashkilotlari mayjud bo'lib, ularning 33tasi banklardir. Banklarning 12tasida davlat ulushi mavjuddir(qarang:9.2.1-jadval).

9.2.1-jadval

Kredit tashkilotlari va banklar infratusilmasi⁶⁵

| | 01.01.2000y | 01.01.2022y |
|--|-------------|-------------|
| 1. Kredit tashkilotlari, jami shu jumladan: | 121 | 177 |
| - Tijorat banklari, shundan: | 29 | 33 |
| <i>Davlat ulushi mayjud banklar</i> | 13 | 12 |
| <i>Boshqa banklar</i> | 16 | 21 |

⁶⁵<https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/267229/>.

| | | |
|--|------|-------|
| - Nobank kredit tashkilotlari, shundan: | 92 | 144 |
| <i>Mikrokredit tashkilotlari</i> | 37 | 70 |
| <i>Lombardlar</i> | 55 | 73 |
| 2. Tijorat banklari filiallari, jami | 876 | 860 |
| 3. Bank xizmatlari markazlari (xizmat ofislari va mini-banklar) | 1151 | 1244 |
| 4. 24/7 shaxobchalar | | 2 287 |
| <i>* Tijorat banklarining va nobank kredit tashkilotlarining xorijiy davlatlarda filiallari mavjud emas.</i> | | |

2017 yil sentyabr oyida valyuta siyosatining liberalallashtirilishi va milliy valyutaning erkin harakati natijasida so'nggi 4 yil ichida bank sektori rivojlanishida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. 2019 yil fevral oyida O'zbekiston tarixida birinchi marta hukumat tomonidan 1 mlrd. AQSh dollari miqdoridagi suveren yevrobondlari muvaffaqiyatli joylashtirilgandan so'ng, bir nechta tijorat banklari uzoq muddatli kapital jalb qilish maqsadida xalqaro kapital bozoriga kirishdi. Xususan, 2019 yil noyabr oyida O'zsanoatqurilishbank London fond birjasida 300 mln. yevrobondlarini chiqarib tijorat banklari orasida birinchi qadamni tashladi. 2020 yil oktyabr oyida Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki London fond birjasidan 300 mln. dollar mablag' jalb qildi. Noyabr oyida esa Ipoteka bank ham 300 mln dollar miqdorida yevrobondlarini joylashtirdi va xalqaro kapital bozori ishtirokchisiga aylandi. Shuningdek, so'nggi yillarda moliya sektorining investitsion jozibadorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlar xorijiy investorlarning bank sohasiga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga yordam berdi:

2018 yilda Shveysariyaning ResponsAbility Investments kompaniyasi tomonidan boshqariladigan va rivojlanish investitsiyalariga ixtisoslashgan aksiyadorlik jamiyati IFCdan Hamkorbank aksiyalarining 7,66 foizini sotib oldi.

2019 yilda Qozog'iston Halyk Bank Toshkentda Tenge bank filialini tashkil etdi.

2019 yil aprel oyida Payme kompaniyasini sotib olgan TBC Bank (Gruziya) bir yildan so'ng O'zbekiston dagi birinchì raqamli bank sifatida o'zining Toshkent filialini ochdi.

2020 yilda Germaniyaning moliyaviy rivojlanish instituti (Deutsche Investitions- und Entwicklungsgesellschaft mbH, DEG) va Triodos Investment Management "Ipak yo'li" bankining 25 mln dollar miqdorida yangi chiqarilgan aksiyalarini sotib olish orqali bank ustav kapitaliga sarmoya kiritdi.

Davlat banki mamlakat pul-kredit tizimini markazlashgan tartibda boshqaradi va davlatning yagona kredit siyosatini amalga oshiradi. Davlat banki Markaziy bank hisoblanadi. Markaziy bank quyidagi vazifalarni bajaradi:

1) boshqa bank muassasalarining majburiy zaxiralarini saqlaydi. Bu zaxiralar pul taklifini boshqarish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'лади. Markaziy bank mamlakatning rasmiy oltin-valyuta zaxiralarini saqlash vazifasini ham bajaradi;

2) cheklarni qayd (inkassatsiya) qilish mexanizmini ta'minlaydi va banklararo hisob-kitoblarni amalga oshiradi, ularga kreditlar beradi;

3) davlatning monetar siyosatini amalga oshiradi;

4) barcha banklar faoliyatini uyg'unlashtiradi va ular ustidan nazoratni amalga oshiradi;

5) xalqaro valyuta bozorlarida milliy valyutalarni ayriboshlaydi;

6) pul taklifi ustidan nazorat qilish mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi, milliy valyutani muomalaga chiqaradi. Iqtisodiyotning ehtiyojlariga mos ravishda pul muomalasini tartibga soladi.

O'zbekiston Markaziy banki o'zining asosiy vazifalarini bajarish bilan bir qatorda, bank xizmatlarini erkinlashtirishga qaratilgan siyosatni ham olib boradi. Bank tomonidan pul-kredit siyosatining vositalari sifatida ochiq bozorda qimmatli qog'ozlar operatsiyasi, ichki valyuta bozoridagi operatsiyalar, qayta moliyalashtirish stavkasi va tijorat banklariga majburiy zaxira talablari vositalari ham ishga solinadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida banklar va korxonalar teng huquqli sheriklar sifatida chiqadi. Kredit berishda fan-texnika

taraqqiyotini jadallashtirish, ishlab chiqarishni rivojlantirishning yangi sifat darajasiga erishishini ta'minlaydigan tadbirlarga ustunlik beriladi.

Banklar o'z tasarrufidagi resurslardan foydalanish samaradorligi uchun moddiy jihatdan mas'ul hisoblanadi va shu sababli kredit-pul operatsiyalari ko'proq ularning iqtisodiy jihatdan foydaliligi va samaradorligiga qarab beriladi.

Tijorat banklari o'zlarining xo'jalik mavqeiga ko'ra aksionerlik tipidagi muassasalar hisoblanadi. Huquqiy mavqeiga ko'ra, faoliyatning biron-bir turiga xizmat ko'rsatuvchi, ixtisoslashgan yoki milliy bank bo'lishi mumkin.

Xalq banki — mamlakatda omonat ishlarini tashkil etish, naqd pulsiz hisob-kitob qilish va aholi uchun kassa vazifasini amalga oshirish, aholiga shaxsiy ehtiyojlarga kredit berish kabi operatsiyalarni amalga oshiradi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki eksport-import operatsiyalarini bevosita amalga oshiruvchi korxona va muassasalarga kredit beradi, qo'shma korxonalariga kredit berishda qatnashadi, yig'ma valyuta rejasining ijrosi, valyuta resurslaridan tejab foydalanishini nazorat qiladi, shuningdek, tashqi iqtisodiy operatsiyalarga oid hisobkitoblarni tashkil qiladi va amalga oshirishni ta'minlaydi.

Tijorat banklari tizimida tor ixtisoslashuvi bo'yicha investitsion va ipoteka banklarini ajratib ko'rsatish lozim.

Investitsion banklar — maxsus kredit muassasalari bo'lib, obligatsiya hamda qarz majburiyatları boshqa turlarini chiqarish yo'li bilan uzoq muddatli ssuda kapitalini jalb qiladi va ularni mijozlar (asosan, davlat va tadbirkorlar)ga taqdim qiladi.

Investitsion kompaniyalar o'zlarining qimmatli qog'ozlarini chiqarish yo'li bilan huquqiy investorlar pul resurslarini to'playdi va ularni korxona (milliy va chet el)lar aksiya va obligatsiyalariga joylashtiradi. Bunday kompaniyalar to'liq investorlar manfaatini ifodalaydi va ularning asosiy maqsadi qo'yilgan kapital hisobiga foyda olish hisoblanadi.

Ipoteka banklari- bu ko'chmas mulk (yer va inshoot) hisobiga uzoq muddatli ssuda berishga ixtisoslashgan kredit muasasalari. Ipoteka banking resurslari o'zlarining ipoteka obligatsiyalari hisobiga shakllanadi. Olingen ssudadan uy-joy va boshqa inshootlar qurish, korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish uchun foydalaniadi.

9.3. Pul-kredit siyosati vositalarining iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli

Davlatning kredit tizimi ustidan ham ma'lum nazorat o'rnatishi muhim ahamiyatga egadir. Buning uchun pul emissiya qilish huquqiga ega bo'lgan va pul muomalasini tartibga soladigan Markaziy Bank tashkil etilgan. Bundan tashqari, davlat ixtiyorida bir qancha ixtisoslashgan banklar bo'lishi lozim. Oqibatda, ishbilarmonlarning bank operatsiyalarini kredit va moliyaviy tizim orqali tartibga solish imkoniyati vujudga keladi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichida kredit-pul siyosati sohasida quyidagi ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish asosiy vazifalar qilib belgilandi:

- Markaziy bank boshchiligidagi hamda keng tarmoqli mustaqil tijorat va xususiy banklar ikki bosqichli tizimini vujudga keltirish, respublika hududida yirik chet el banklarining bo'limlari hamda vakolatxonalarini ochish uchun qulay sharoitlarni yaratish;

- barqaror pul muomalasini ta'minlash, kredit va nakd pul emissiyasi, jami pul massasining asossiz o'sishini keskin cheklash;

- O'zbekiston Respublikasining milliy pulini muomalaga kiritish uchun zarur iqtisodiy va tashkiliy shart-sharoitlar hamda imkoniyatlarni yaratish.

Ushbu ustuvor yo'nalish va chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Uning asosida ikki bosqichli bank tizimi amalda shakllandi. Markaziy bank emissiya banki bo'lib, uning zimmasiga boshqa

rivojlangan mamlakatlardagi markaziy banklarga xos bo'lgan vazifalar yuklatildi. Sobiq tarmoq doirasida ish yurituvchi davlat banklari tugatilib, Agrosanoat banki va sanoat-qurilish banki ixtisoslashtirilgan hissadorlik-tijorat banklariga aylantirildi. Shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki tuzildi va u muvaffaqiyatli ish olib bormoqda.

Hozirgi davrda, jahon bank amaliyotida pulga bo'lgan talab va taklifni, xususan, pul massasi, moliya bozorlari hamda bank tizimi likvidililagini samarali tartibga solishda ochiq bozordagi operatsiyalar, hisob stavkasi siyosati, majburiy zaxiralar siyosati, valyuta siyosati kabi bozor iqtisodiyotining bir qator zamонавиъ vosita va mexanizmlari keng qo'llanmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Markaziy banki to'g'risida"gi yangi tahriridagi Qonuniga muvofiq Markaziy bank:

- pul-kredit siyosatini, shu jumladan valyuta siyosatini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;
- O'zbekiston Respublikasida infliyatsiya darajasini monitoring, tahlil va prognoz qiladi, tegishli axborot materiallarini hamda statistik ma'lumotlarni e'lon qiladi;
- O'zbekiston Respublikasining to'lov balansini, xalqaro investitsiyaviy mavqeini, tashqi qarzini va zaxira aktivlarini o'z ichiga olgan bank, pul-kredit statistikasini, tashqi sektor statistikasini shakllantirishni hamda e'lon qilishni amalga oshiradi;
- har yili O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga Davlat budgeti loyihasini tayyorlashga doir tavsiyalarni o'z ichiga olgan iqtisodiy va moliyaviy masalalar bo'yicha axborotni taqdim etadi;
- naqd pul muomalasini tashkil etadi;
- valyutani tartibga solishni va valyutani nazorat qilishni amalga oshiradi;
- valyuta operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya hisobi, statistik hisobotlar va boshqa hisobotlar maqsadlari uchun, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududida bojxona hamda boshqa majburiy

to‘lovlarni hisoblab chiqarish uchun valyuta kursini muntazam ravishda belgilab boradi;

– banklarni va kredit byurolarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiradi;

– banklarning, mikrokredit tashkilotlarining, to‘lov tashkilotlarining, to‘lov tizimlari operatorlarining, valyuta birjalarining va kredit byurolarining faoliyatini litsenziyalaydi, shuningdek kredit tashkilotlarining, to‘lov tashkilotlarining, to‘lov tizimlari operatorlarining, valyuta birjalarining, kredit byurolarining va banklar guruhlarining faoliyatini tartibga soladi hamda ushbu faoliyat ustidan nazoratni amalga oshiradi;

– ruxsat etish xususiyatiga ega hujjalarni beradi;

– xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatni (harakatlarni) boshlaganlik va tugatganlik to‘g‘risidagi xabarnomalarni qabul qiladi, xabardor qilish tartibida faoliyatni (harakatlarni) amalga oshiruvchi xabardor qiluvchilar ustidan nazoratni amalga oshiradi, faoliyatni (harakatlarni) to‘xtatib turish, qayta tiklash va tugatish to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi;

– hukumatning fiskal agenti vazifalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan bank operatsiyalarini va boshqa bitimlarni mustaqil ravishda yoki O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining topshirig‘iga binoan amalga oshiradi;

– O‘zbekiston Respublikasida to‘lov tizimlari barqaror ishlashini ta’minlash choralarini ko‘radi;

– ichki nazorat qoidalariga hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog‘liq axborotni maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etish tartibiga Markaziy bank tomonidan litsenziyalanadigan tashkilotlarning, shuningdek lombardlar va ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlarining rioxasi etishi yuzasidan monitoring hamda nazoratni amalga oshiradi;

– Xalqaro valyuta fondining O‘zbekiston Respublikasi valyutasidagi mablag‘lari depozitariysi hisoblanadi, operatsiyalarini va bitimlarni, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan operatsiyalar va bitimlarni amalga oshiradi;

– kredit tashkilotlari xizmatlari iste’molchilari huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta’minlash, moliyaviy xizmatlarning ochiqligini hamda aholi va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy savodxonligi darajasini oshirish choralarini ko‘radi;

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro zaxiralarini (bundan buyon matnda xalqaro zaxiralar deb yuritiladi), shu jumladan kelishuvga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining zaxiralarini boshqarishni, hisobga olishni va saqlashni amalga oshiradi⁶⁶.

O‘zbekiston Respublikasining “Markaziy banki to‘g‘risida”gi yangi tahriridagi Qonunning monetar siyosatning: ochiq bozordagi operatsiyalari; Markaziy bankning hisob operatsiyalari; Markaziy bankning operatsiyalari bo‘yicha foiz stavkalari; majburiy rezerv talablari va Markaziy bankning qayta moliyaviy ta’minlashi kabi vositalari qayd etilgan.

Davlatning pul-kredit siyosatining vositalari - Markaziy bank tomonidan pulga bo‘lgan talab va taklifni tartibga solish hamda pul-kredit siyosatini amalga oshirish mexanizmidir. O‘z navbatida, ushu vositalar bevosita va bilvosita turlarga bo‘linadi. **Bevosita vositalar** – Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga nisbatan foiz stavkalari yoki kredit miqdorini belgilash va cheklashdan iborat bo‘lgan ma’muriy usullardir. **Bilvosita vositalar** – Markaziy bank va tijorat banklari o‘rtasida ixtiyoriy ravishda foydalilaniladigan, ya’ni bozor orqali pulga bo‘lgan talab va taklifni o‘zgartirish, muomaladagi pul massasi miqdori va banklarning to‘lovga qobiliyatiligini tartibga solish usulidir.

Bevosita vositalarga-foiz stavkalarini chegaralash, maqsadli kreditlar, har bir bank uchun kreditning yuqori chegarasini belgilash

⁶⁶ O‘zbekiston Respublikasining “Markaziy banki to‘g‘risida”gi (yangi tahriri) 11 noyabr 2019 yildagi O‘RQ-582-son/<https://lex.uz/acts/-72266>

kabi ma'muriy usul va choralar kiradi. Ular bir qator kamchiliklarga ega bo'lib, bozor iqtisodiyoti sharoitlariga mos kelmaydi. Xususan, ular har bir bankka nisbatan qo'llanuvchi yakka tartibdagi nazorat qilish chorasi bo'lib, moliya bozorida raqobatni bo'g'ib qo'yadi, moliya sohasining rivojlanishini susaytiradi va banklarning moliyaviy vositachilik rolini pasaytiradi. Shuningdek, bir qator banklar ustidan nazoratning o'rnatilishi natijasida alohida tarmoq va hududlarda kreditlashtirish samarasini pasaytiradi, katta miqdordagi moliyaviy mablag'larning nazorat qilib bo'lmaydigan sohaga, ya'ni xufiyona iqtisodiyotga yoki xorijga chiqib ketishiga olib keladi.

Bilvosita vositalarga - ochiq bozordagi operatsiyalar (davlatning va Markaziy bankning qimmatli qog'ozlarini birlamchi bozorlarda sotish), ikkilamchi bozordagi operatsiyalar (bevosita oldi-sotdi yoki REPO operatsiyalari), qayta moliyalash siyosati, majburiy zaxira talablari, valyuta siyosati, kredit auksionlari, valyuta svoplari, veksellarni qayta hisobga olish mexanizmi, lombard yoki overdraft mexanizmlari va boshqalar kiradi. Ular bozor iqtisodiyoti talablariga mos keladi va bevosita vositalarga nisbatan bir qator afzalliklarga ega. Jumladan, Markaziy bankka pul-kredit siyosati samaradorligini oshirish, pul massasi, moliya bozorini samarali tartibga solish, davlatning kreditni taqsimlash va pul-kredit orqali boshqarish jarayonlariga aralashuvini kamaytirish, moliya bozorining rivojlanishi va kengayishiga, banklarning vositachilik rolini oshirish, kapital qo'yilma va moliyaviy jamg'armalar hajmining ko'payishiga qo'shimcha qulayliklar yaratadi.

Markaziy bank o'zining va davlatning qimmatli qog'ozlarini, xorijiy valyutalarni erkin sotish va sotib olish, mablag'larni depozitlarga jalb qilish va qaytarish, majburiy zahira talablari me'yorini va qayta moliyalash stavkasini o'zgartirish orqali banklarning moliyaviy holatiga ta'sir qiladi (9.3.1-jadval).

Monetar siyosat vositalarining turlari

| Bevosita vositalar | Bilvosita vositalar |
|--|--|
| Foiz stavkalarini chegaralash | Ochiq bozordagi operatsiyalar |
| Maqsadli kreditlar | Majburiy zaxiralar |
| Har bir bank uchun kreditlash miqdorini belgilash | Veksellarni qayta hisobga olish mexanizmi |
| Har bir bank uchun hisobga olish me'yorlarini belgilash va boshqalar | Qisqa muddatli depozitlar mexanizmi Kredit auksionlari Lombard va overdraft mexanizmlari Valyuta svoplari va bevosita oldi-sotdi operatsiyalari |

Manba: jadval Xalqaro valyuta fondi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Markaziy bank yuqorida qayd etilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali muoimaladagi ortiqcha pul massasi hajimini iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan miqdorgacha kamaytiradi. Pul massasining kamayishi hisobiga inflatsiya darajasi pasayadi va milliy valyuta kursining barqarorligi oshadi. Bu esa, xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholining bank tiziymiga bo'lgan ishonchining tobora oshishiga, mamlakatda jamg'armalar va iqtisodiy faoliyning o'sishi, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va makroiqtisodiy barqarorlikning mustahkamlanishiga qulay shart-sharoitlar yaratadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, pul-kredit siyosatini amalga oshirishda bilvosita vositalar ixtiyoriy ravishda qo'llanilishi va sonining ko'pligi jihatidan bozor iqtisodiyoti talablariga to'liq javob berishi bilan bevosita vositalarga nisbatan afzalligi yaqqol ko'rinoqda. Shu bois hozirgi paytda jahonning eng taraqqiy etgan davlatlarida ham pul-kredit siyosatining bilvosita vositalarini takomillashtirish jarayonlari davom etmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda monetar siyosat sohasida ham bir qator ijobjiy natijalarga erishildi. Xususan, investitsiya loyihalari va davlat budjeti taqchilligini Markaziy bank kreditlari hisobidan moliyalashtirish amaliyotiga chek qo'yildi. Bu esa Markaziy bank mustaqilligini oshirdi. Tijorat banklarining bo'sh pul mablag'larini

Markaziy bankning depozit sertifikatlariga va maxsus depozitlariga jalgilish bo'yicha operatsiyalar muntazam ravishda o'tkazib borilmoqda.

Markaziy bankning obligatsiyalari muomalaga chiqarildi, muomaladagi ortiqcha likvidlilikni kamaytirishning bozor mexanizmlari yaratildi, inflyatsiya va foiz stavkalari sezilarli darajada pasaytirildi. Amaldagi mayjud almashuv kurslari bixillashtirilib, milliy valyutaning barqarorligi ta'minlandi. Aholining banklardagi omonatlari miqdori sezilarli darajada o'sdi. 2003-yilda Xalqaro joriy operatsiyalar bo'yicha milliy valyutaning konvertatsiya qilinishi ta'minlanib, XVFning VIII moddasi talablariga zid keluvchi barcha chekllovlar olib tashlandi.

Umuman, 2003-yilda amalga oshirilgan qat'iy monetar siyosat milliy valyuta barqarorligini ta'minlashga, inflyatsiya darajasi va foiz stavkalarini yanada pasaytirishga, pul bozorini rivojlantirish, valyuta bozorini erkinlashtirishga hamda pul mablag'laring bankdan tashqari muomalasini qisqartirishga yo'naltirildi. O'z navbatida, 2003 yilda depozit operatsiyalari pul taklifi va bank tizimi likvidliligini tartibga solishda eng ko'p qo'llanilgan vosita bo'ldi.

O'zbekistonda bank tizimini rivojlantirish va mustahkamlash, banklarning kapitallashuv darajasi, likvidligi, ya'ni to'lov qobiliyatini oshirish uchun oldindan chora-tadbirlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan 2009-2012-yillarga mo'ljallab qabul qilingan Inqirozga qarshi choralar dasturi doirasida moliya-bank tizimini mustahkamlash bo'yicha talay ishlar amalga oshirildi. Oqibatda, so'nggi ikki yilda tijorat banklarining umumiy kapitali 2 barobar ko'paydi. 2009-yilning o'zida yetakchi banklarning nizom jamg'armalarini oshirish uchun qo'shimcha ravishda 500 milliard so'mdan ortiq davlat mablag'lari ajratildi. Banklarimiz kapitalining yetarlılik darajasi 23 foizdan oshdi. Mamlakatimizda 28 ta tijorat banki "Fitch Reytings", "Mudis" va "Standartend Purs" kabi yetakchi xalqaro reyting kompaniyalarning "barqaror" degan yuqori reyting bahosini olishga muvaffaq bo'ldi.

2020 yil-yakunlari bo'yicha tijorat banklari aktivlari hajmi 366,1 trln. so'mni tashkil etdi, shundan 277 trln. so'm miqdori –

kreditlar ulushiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, aktivlar nominal o'sish sur'ati 2019 yilga nisbatan 34,2 foizni, real o'sish sur'ati (devalvatsiyani hisobga olmagan holda) esa 28 foizni tashkil etdi. Shunisi e'tiborlikki, banklarning jami aktivlari tarkibida valyuta aktivlarining ulushi astasekin kamayib bormoqda. Agar 2017 yilda bu ko'rsatkich 64 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2020 yilda 50,2 foizga tushdi.

Banklarning kapitallashuv darajasi 2021yilda 12,6 trln. so'mga yoki 22 %ga oshib, 2022 yilning 1 yanvar holatiga 71 trln. so'mga etdi etdi. Bunda, ustav kapitali miqdori 10 trln. so'mga yoki 23%ga o'sib, 54,8 trln. so'mni tashkil etdi. 2021 yilda tijorat banklarining jami aktivlari 22%ga o'sib, 2022 yilning 1yanvar holatiga 444,9 trln. so'mni tashkil etdi. Aktivlarning 71% kredit qo'yilmalari hissasiga to'g'ri keladi.

2021 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, iqtisodiyotga berilgan kreditlar qoldig'i 277 trln. so'mni tashkil etdi, bu 2019 yilga nisbatan 30,9 foizga va 2017 yilga nisbatan 150 foizga ko'proqdir. Xorijiy valyutadagi kreditlarni qayta baholashlarsiz kreditlarning real o'sishi 24,9 foizni tashkil etdi. Jami kredit portfelidagi xorijiy valyutadagi kreditlarning ulushi 2017 yildagi 62,3 foizdan 49,9 foizgacha kamaydi.

2021 yil 1 yanvar holatiga jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar qoldig'i 2017 yilga nisbatan 304 foizga (13,6 trln. so'mdan 54,9 trln. so'mga), sanoatga berilgan kreditlar hajmi esa 126 foizga (45,2 trln. so'mdan 102,2 trln so'mga), savdo va xizmat ko'rsatish sohalaridagi kreditlar hajmi 280 foizga (5,2 trln. so'mdan 19,9 trln. so'mga) oshdi.

Banklar tomonidan iqtisodiyotning kreditga bo'lgan kreditga bo'lган talabini qondirish va tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadlariga 2021yilda 66,7 trln. so'm miqdorida yoki kreditlash bo'yicha belgilangan maqsadli ko'rsatkichga (130 trln. so'm) nisbatan 28%ga ko'p kreditlar yo'naltirildi. Ushbu Ушбу kreditlarning 76% (126 trln. so'm) korporativ mijozlarga va 24% (41 trln. so'm) aholiga ajratilgan.

Koronavirus inqirozi bank-moliya tizimiga innovatsion texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish, bankdan tashqari moliyalashtirish manbalarini kengaytirish, aholi orasida moliyaviy

savodxonlik darajasini oshirish, shuningdek ijtimoiy himoyaga muhtojlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning yanada shaffof mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatdi. Pandemiya va O'zbekistonda joriy qilingan lokdaun masofaviy bank xizmatlarini jadal rivojlanishiga yordam berdi. Xususan 2021 yil 1 yanvar holatiga masofaviy xizmatlardan foydalanuvchilar soni 14,5 mln kishini tashkil etdi (shundan 13,7 mln kishi jismoniy shaxslar, 822 ming kishi tadbirkorlik sub'yektlari) bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 30 foizga ko'proqdir. Markaziy bank tomonidan raqamli banklar va fiallarning ishlashiga litsenziya berilishi ham bank-moliya tizimini yanada raqamlashtirishga turki bo'ldi va mijoz va bank o'rtaсидаги munosabatlarda zamonaviy yondashuvlarni vujudga kelishiga sabab bo'ladi⁶⁷.

Markaziy bank tomonidan 2021-yilda asosiy e'tibor pul-kredit siyosati instrumentlarini inflyatsiyani oraliq prognoz ko'rsatkichlariga erishish maqsadlariga yo'naltirish hamda bank tizimidagi xatarlarni oldindan aniqlash va ularni yumshatish choralarini ko'rib borish orqali mainlakatda makroiqitsodiy hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan. Inflyatsiya darajasining yil yakuniga qadar 10 foizlik prognoz ko'rsatkichiga erishish maqsadida Markaziy bankning asosiy stavkasi hisobot yili davomida yillik 14 foiz darajasida o'zgarishsiz saqlab qolingan. Pul-kredit sohasidagi chora-tadbirlar inflyatsiya darajasini 2020 yildagi 11,1 foizdan 10 foizgacha pasayishiga olib kelgan.

Aholi va tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadlariga 166,7 trillion so'm yoki 2020 yilga nisbatan 1,3 barobarga ko'p kreditlar yo'naltirilgan. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantrish dasturlari doirasida esa so'nggi 4 yilda jami 24,3 trillion so'mdan ko'p imtiyozli kreditlar ajratilgan va bu orqali 983 mingdan ziyod oilalar tadbirkorligi yo'nga qo'yildi. Respublika bo'yicha o'rta hisobda har

⁶⁷ Xamidov X. 2017-2020 yillarda O'zbekiston bank-moliya sektori rivojlanish dinuniasi shaxsi //https://review.uz/uz/postobzor-dinamiki-razvitiya-finansovo-bankovskogo-sektora-uzbekistana-za-2017-2020-god

ming xonardonning 110 tasi ushbu dasturlar doirasida o‘z tadbirkorlik faoliyatini boshlagan.

Kredit portfeli tarkibidagi muammoli kreditlarning banklar moliyaviy barqarorligiga bo‘lgan salbiy ta’sirining oldini olish borasida banklar va hukumat tomonidan chora-tadbirlar ko‘rib borildi. Biroq muammoli kreditlar ulushi 2021 yil yakunida 5,2 foizgacha oshgan⁶⁸.

Umuman, davlat bank-moliya tizimining barqarorligini oshirish tijorat banklarini yirik investitsiya institutlariga aylantirish orqali iqtisodiyotni barqaror va mutanosib rivojlanishi uchun mustahkam shart-sharoit yaratadi.

9.4. O‘zbekistonda pul-kredit tizimini takomillashtirish yo‘nalishlari

Mamlakatimizda hududlarni kompleks va mutanosib rivojlantirish dasturlari ijrosining faollashuvi, iqtisodiyotni, jumladan, tadbirkorlik faoliyatini kreditlash hajmlarining sezilarli kengaytirilishi, o‘z navbatida, pul massasining tez sur’atlarda oshishiga olib keldi. 2017 yilda boshlangan iqtisodiyotni liberallashtirish va bozor mexanizmlari rolini oshirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichi o‘rta muddatli istiqbolda bank tiziimi va pul-kredit siyosatini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi. Valyuta kursi shakllanishida tamomila yangi yondashuvdan foydalanilishi, o‘z navbatida, Markaziy bankning asosiy e’tiborini ichki bozordagi narxlar barqarorligiga qaratish asnosida pul-kredit siyosatini takomillashtirish imkoniyatini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2017 yil 13 sentabr kuni “Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorni imzoladi. Qaror bilan Markaziy bankning o‘rta muddatli istiqbolda pul-kredit siyosati maqsadlariga erishish mexanizmlari va prinsiplarni, jahondagi markaziy banklar tomonidan ichki narxlar barqarorligini ta’minlashda qo‘llanishuvchi

⁶⁸ <https://yuz.uz/uz/news/markaziy-bankning-2021-yildagi-faoliyati-yuqosadan-boshqasini-chiqarish>

inflyatsion targetlash tartibiga (Inflyatsion targetlash – bu o'rta muddatli istiqbolda inflyatsiya maqsadini belgilash va unga erishishga qaratilgan pul siyosati rejimi) qayta ko'rib chiqish bo'yicha taklifi tasdiqlandi.

Markaziy bank, Moliya vazirligi va Iqtisodiyot vazirligi tomonidan 2017-2021-yillar davrida pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish va inflyatsion target rejimiga bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar majmui tasdiqlandi. Markaziy bankka 2018 yil 1 martgacha pul-kredit siyosatini amalga oshirish va rivojlantirish o'rta muddatli Konsepsiyasini hamda konsepsiyanı 2018-2021 yillarda amalga oshirish bo'yicha «yo'l xaritasini» ishlab chiqish va tasdiqlash vazifasi topshirildi.

Unda inflyatsion target rejimiga quyidagi yo'llar bilan bosqichma-bosqich o'tish nazarda tutilgan:

- umumiqtisidiy, soliq-budget va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirish amaliyotini takomillashtirish, iqtisodiy o'sish maqsadlari, davlat budjeti balansi va iqtisodiyotdagi narx darajasining barqarorligi bo'yicha maqsadlar muvofiqligi hamda o'zaro aloqalarini ta'minlashga alohida e'tibor berish;
 - likvidlikni taqdim etish va jalb qilish operatsiyalari bo'yicha samarali foydalanadigan foizli pul-kredit siyosati vositalarini kengaytirish;
 - tijorat banklari tomonidan foiz stavkalarini shakllantirish uchun bozor mexanizmlarini, shu jumladan, kreditlar bo'yicha keng qo'llash;
 - makroiqtisodiy tahlil va prognozlarning eng yaxshi xorijiy tajriba modellariga muvofiq takomillashtirish;
 - pul-kredit siyosatining shaffofligi va oldindan taxmin qilinish imkoniyatini oshirish, jumladan, qo'llaniladigan vositalar va olib boriladigan siyosatning asosiy maqsadlari to'g'risida axborot berish maqsadida jamoatchilik bilan munosabatlarni mustahkamlash⁶⁹.
- Quyidagilar O'zbekiston Markaziy banki pul-kredit siyosatining asosiy tamoyillari etib belgilandi:

⁶⁹ <https://kun.uz/news/2017/09/15/uzbekistonda-inflacion-targetlas-tartibi-zorij-etiladi>

-inflyatsiyaning doimiy amal qiladigan maqsadini belgilash va uni keng jamoatchilikka yetkazish;

-pul bozoridagi foiz stavkalarini tartibga solish va inflyatsion jarayonlarni boshqarish maqsadida pul-kredit siyosatining keng qamrovli instrumentlarini qo'llash;

-pul-kredit siyosati sohasida obyektiv qarorlar qabul qilish maqsadida ichki va tashqi bozorlarda mavjud bo'lgan ochiq ma'lumotlarni hisobga olgan holda batafsil makroiqtisodiy tahlil va prognozlarni amalgalashirish;

-pul-kredit siyosati maqsadlarini keng jamoatchilikka yetkazish, makroiqtisodiy holatning oldindan ko'ra bilinishini ta'minlash va bozor ishtirokchilari ishonchini shakllantirish maqsadida O'zbekiston Markaziy banking kommunikatsiya siyosatini takomillashtirish.

Inflyatsion targetlashga o'tish orqali pul-kredit siyosatini amalgalashirishning 2020 yil va 2021-2022 yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18 noyabrdagi PF-5877-sonli "Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq ishlab chiqildi.

Joriy makroiqtisodiy holat, jumladan, inflyatsiyaning amaldagi dinamikasi va prognoz ko'rsatkichlari, shuningdek, barqaror va muvozanatli iqtisodiy o'sishni ta'minlash zaruriyatni Markaziy bank tomonidan narxlar barqarorligini ta'minlash bo'yicha aniq va yanada ta'sirchan choralar ko'rishni taqozo etmoqda. Shu munosabat bilan, mazkur hujjatni ishlab chiqishda, Markaziy bank tomonidan asosiy e'tibor tarkibiy islohotlarning yangi bosqichiga o'tish davrida inflyatsion targetlash rejimini faol tadbiq etish orqali pul-kredit siyosati sharoitlarini belgilashga qaratildi. Bunda:

2023 yildan inflyatsiyaning 5 foizlik doimiy maqsadli ko'rsatkichi (targeti);

2021 yilda inflyatsiyani 10 foizgacha pasaytirish maqsadi belgilandi.

2023 yilda YalM deflyatori va inflyatsiya sur'atlarini pasayishini inobatga olib kreditlar qoldig'i o'sishi 18-20 foiz atrofida bo'lishi kutilmoqda. Yuqoridagi omillar natijasida, 2021-2022 yilda uy xo'jaliklarining yakuniy ist'emol xarajatlari o'sishi 4,5-5,6 foiz atrofida bo'lishi ko'zda tutilgan. 2023 yilda ushbu ko'rsatkich biroz pastroq darajada (3-4 foiz atrofida) shakllanadi va asosan, aholi tomonidan daromadlarning bir qismini jamg'arishga yo'naltirilishi bilan izohlanadi. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi o'sish sur'atlari mazkur ssenariyida bir maromda tiklanib borishi, ya'ni, 2021 yilda o'sish sur'atlari 2-4 foiz, 2022-2023 yillarda esa mos ravishda 2,5-4,5 va 3,5-5,5 foiz atrofida bo'lishi prognoz qilinmoqda. 2021 yilda yillik inflyatsiya darajasi bir xonali son darajasigacha pasayib, 9-10 foiz doirasida shakllanishi kutilmoqda (qarang: 9.4.1-jadval).

9.4.1-jadval.

Inflyatsion targetlashga o'tishdan kutilayotgan natijalar⁷⁰

| ko'rsatkichlar | 2019y (fakt) | Asosiy ssenariy prognozlari (yillik o'sish, foizda) | | | |
|--|-----------------|---|---------|-----------|-----------|
| | | 2020y | 2021y | 2022y | 2023y |
| Yillik inflyatsiya darajasi | 15,2 | 11-12,5 | 9-10 | 10-11 | 5 |
| YalM real o'sishi | 5,6 | 1-1,5 | 4,5 | 5-6 | 5-6,5 |
| Yakuniy iste'mol xarajatlari o'sishi | 6,6 | 0,5-1,5 | 4,3-5,3 | 4,1-5,1 | 2,7-3,7 |
| -uy xo'jaligi | 6,8 | 0,4-1,4 | 4,5-5,5 | 4,6-5,6 | 3-4 |
| Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi o'sishi | 33,9 | 1,4-3,4 | 2-4 | 2,5-4,5 | 3,5-5,5 |
| -markazlashgan investitsiyalar | 20 | 4-6 | 2,5-4,5 | (4,5-6,5) | (2,5-4,5) |
| -markazlashmagan investitsiyalar | 39,8 | 1-3 | 1,5-3,5 | 5-7 | 6-8 |
| Eksport hajmi o'sishi | 24,8 | (10-14) | 8-10 | 10-12 | 12-14 |
| Import hajmi o'sishi | 25 | (8-12) | 6-8 | 4-6 | 5-7 |
| Kredit qo'yilmalari qoldig'i o'sishi | 54,5 | 28-29 | 20-22 | 17-19 | 18-20 |

⁷⁰ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Pul-kredit siyosatining 2021yil va 2022-2023 yillarda davriga mo'ljalangan asosiy yo'nalishlari// bu.uz/upload/medialibrary/e0D/Asosiy_yonalishlar_Kontseptual_1 oyiga_22_10_2020.pdf

Asosiy yo'nalishlarda inflayatsion targetga erishish va pul-kredit siyosati instrumentlari, mexanizmlari va jarayonlarini inflayatsion targetlash rejimi standartlariga muvofiqlashtirish bo'yicha amalga oshiriladigan barcha chora-tadbirlar batafsil yoritilgan. Xususan:

operatsion mexanizmni rivojlantirish sohasida:

asosiy foiz stavkasi va foiz koridori, pul-kredit siyosati operatsion mexanizmining samarali ishlashini ta'minlovchi bozor instrumentlari to'plami, shu jumladan, kredit va depozit auksionlari, overnayt depozit va kreditlar joriy etiladi hamda zarur hollarda Markaziy bank obligatsiyalari muomalaga chiqariladi;

ichki valyuta bozorini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish ko'zda tutilgan bo'lib, bunda tijorat banklarining valyuta kursi shakllanishida market-meyker sifatidagi rolini bosqichma-bosqich oshirib borish, valyuta intervensiylarini o'tkazishga bo'lган yondashuvni takomillashtirish, shuningdek, hosilaviy instrumentlarni (svop, opsiyon va fyucherslar) joriy etish masalalari inobatga olingan;

imtiyozli kreditlash amaliyotini bozor tamoyillari asosida qayta ko'rib chiqish orqali kredit bozoridagi segmentatsiya darajasi pasaytirib boriladi;

tahliliy-prognozlash salohiyatini oshirish sohasida:

makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish tizimi (FPAS) va zamonaviy modellashtirish instrumentlari joriy etiladi;

aholi va tadbirkorlik sub'ektlarining inflayatsion kutilmalari va inflayatsiya omillarini empirik modellar asosida doimiy o'rGANIB borish uslublari ishlab chiqiladi.

kommunikatsiya sivosatini takomillashtirish sohasida:

keng jamoatchilik va biznes vakillariga inflayatsiyaning asosiy omillari va pul-kredit siyosati choralarining o'z vaqtida yetkazilishini ko'zda tutuvchi kommunikatsiya siyosatining zamonaviy tamoyillari ishlab chiqiladi;

bozor ishtirokchilari bilan muloqot qilishning samarali mexanizmlarini tatbiq etish bo'yicha tizimli ishlar yo'nalishlari belgilandi.

texnologiyalarini va dasturiy mahsulotlarni joriy etish, banklardagi davlat aksiyalari paketini zarur tajriba va bilimga ega bo‘lgan investorlarga tanlov savdolari asosida sotish, shuningdek, davlat ulushi mavjud bo‘lgan tijorat banklari va korxonalarni bir vaqtning o‘zida isloh qilish orqali bank sektorida davlatning ulushini kamaytirish;

yeterli darajada xizmat ko‘rsatilmayotgan va zaif qatlamlarda davlat ishtirokini ko‘paytirish va manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish, aholi va kichik biznes uchun masofaviy xizmatlarni keng joriy qilish, kamxarj xizmat ko‘rsatish nuqtalari tarmog‘ini rivojlantirish, shuningdek, respublikaning yagona moliya tizimidagi o‘zaro to‘ldiruvchi qism sifatida nobank kredit tashkilotlarining shakllanishi va rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali moliyaviy xizmatlar ommabopligrini va sifatini oshirish⁷².

Bank sektorini isloh qilish bo‘yicha belgilangan maqsadlarga o‘z vaqtida erishilishini va qilingan sa‘y-harakatlar muvaffaqiyatini baholash maqsadida mazkur Strategiya quyidagi maqsadli ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi:

1) bank tizimi aktivlarining jami hajmida davlat ulushi bo‘lmagan banklar aktivlari hissasini joriy 15 foizdan 2025 yilga kelib 60 foizgacha oshirish;

2) banklar majburiyatlarining umumiy hajmida xususiy sektor oldidagi majburiyatlar hissasini joriy 28 foizdan 2025 yil yakuniga 70 foizgacha oshirish;

3) 2025 yilga kelib davlat ulushi mavjud kamida uchta bank kapitaliga zarur tajriba, bilim va obro‘ga ega bo‘lgan kamida uchta strategik xorijiy investorlarni jaib qilish;

4) umumiy kreditlash hajmida nobank kredit tashkilotlari hissasini joriy 0,35 foizdan 2025 yilga kelib 4 foizgacha oshirish (qarang: 9.4.2-jadval).

⁷²“2020 — 2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi”// O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi 2020 yil 12 maydagi PP-5992-son Farmoni. 1-ilova.// <https://lex.uz/docs/-4811025>

9.4.2-jadval.

2020 — 2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar

| T/r | Ko‘rsatkichlar nomlanishi | Joriy holati | Maqsad: | | |
|-----|---|--------------|----------------|--------------|-----------------|
| | | | 2021 yilga | 2023 yilga | 2025 yilga |
| 1. | Xususiy (davlat ulushi ishtirok etmagan) banklar aktivlarining bank sektori aktivlari umumiy hajmidagi ulushi | 15 foiz | 17 — 20 foiz | 35 — 40 foiz | 60 foiz |
| 2. | Banklarning xususiy sektor oldidagi majburiyatlarining majburiyatlar umumiy hajmidagi ulushi | 28 foiz | 30 — 40 foiz | 60 foiz | 70 foiz |
| 3. | Yetarli tajriba, bilim va obro‘ga ega bo‘lgan strategik xorijiy investorlarni jalg qilish | - | - | 3 | 3 |
| 4. | Depozitlarning banklar majburiyatlariga nisbati | 41 foiz | 41 — 45 foiz | 45 — 50 foiz | 50 — 60 foiz |
| 5. | Nobank kredit tashkilotlari aktivlarining kredit tashkilotlari aktivlari umumiy hajmidagi ulushi | 0,35 foiz | 0,5 — 0,7 foiz | 1 — 1,5 foiz | 4 foiz |
| 6. | Xorijiy valyutadagi majburiyatlarining majburiyatlar umumiy hajmidagi ulushi | 58 foiz | 50 — 55 foiz | 45 — 50 foiz | 40 — 45 foiz |
| 7. | Bank aktivlarining YaIMga nisbati | 53 foiz | 53-54 foiz | 54-55 foiz | 55 foizdan ko‘p |
| 8. | Bank depozitlarining YaIMga nisbati | 18 foiz | 19 — 21 foiz | 22 — 24 foiz | 25 — 27 foiz |

Jahon banki reytingida mazkur Strategiyaning maqsadli ko‘rsatkichlariga erishish uchun quyidagilar ko‘zda tutilmoqda:

1. Kredit axboroti manbalarini kengaytirish va ko‘chmas mulk ob’ekti to‘g‘risidagi ma’lumotlarni kredit reestrida aks ettirishning yangi mexanizm va vositalarini joriy etish.

2. Qonun hujjatlariga qarz oluvchining qarzini majburiy undirish jarayonida kreditorlarning garov bilan ta'minlangan huquqlarini himoya qilishni takomillashtirishni nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritish.

3. Davlat personallashtirish markazi, Davlat soliq qo'mitasi, Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi, Majburiy ijro byurosi, Davlat xizmatlari agentligi, shuningdek, kommunal xizmatlar tashkilotlari, sug'urta kompaniyalari va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ma'lumotlar bazasi bilan integratsiyalashgan holda qarz oluvchilarining skoring tizimini yanada takomillashtirish.

2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida inflyatsiyaning monetar omillarini pasaytirish hisobiga doimiy inflyatsion maqsadga (target) erishish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan:

-qat'iy pul-kredit sharoitlarini saqlab qolish, shu jumladan, iqtisodiyotga kredit qo'yilmalari o'sish sur'atini (16-18 foiz) yalpi ichki mahsulot nominal hajjni o'sish sur'atlari bilan mutanosib bo'lishini;

-pul-bozoridagi operatsiyalar bo'yicha 2-3 foizlik real ijobiy foiz stavkalari shakllanishini ta'minlash;

- Markaziy bankning pul-kredit instrumentlarining inflyatsiyaga ta'sirini kuchaytirish; iqtisodiyotda inflyatsion kutilmalarni pasaytirishga qaratilgan kommunikatsiya siyosatini takomillashtirish ko'zda tutilgan⁷³.

⁷³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022yil 28yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60sonli Farmoni. 2-ilova. // <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

Asosiy tushuncha va atamalar

Pul, pulning vazifalari, muomala uchun zarur bo‘lgan pul miqdori, pul muomalasi, pul emissiyasi, kredit, kreditning turlari, bank krediti, bank, Markaziy bank, tijorat banki, bank turlari, monetar siyosat, monetar vositalar, xalqaro kredit.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Pul nima va u qanday vazifalarni o‘taydi?
2. Pul muomalasi qonunini tushuntirib bering.
3. Pul muomalasi davlat tomonidan qanday tartibga solinadi?
4. Pul emissiyasi nima va u qanday nazorat qilinadi?
5. Kredit nima va u qanday vazifalarni bajaradi?
6. Kredit turlarini izohlab bering.
7. Markaziy bank qanday vazifalarni bajaradi?
8. Monetar siyosat nima va u orqali iqtisodiyot qanday tartibga solinadi?
9. O‘zbekistonda pul-kredit vositalar orqali davlat iqtisodiyotni qanday tartibga solmoqda?
10. Juhon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davom etayotgan sharoitda O‘zbekistonda bank tizimini yanada mustahkamlash uchun qanday chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda?
11. Pul-kredit vositalar orqali davlat iqtisodiyotni qanday tartibga solmoqda?

10-BOB. JAMIYATNING IJTIMOIY SOHASI VA DAVLATNING IJTIMOIY SIYOSATI

10.1. Jamiyatning ijtimoiy sohasi, uning mazmuni va ijtimoiy rivojlanishdagi roli

Ijtimoiy soha- ijtimoiy hayotning nisbatan mustaqil sohasi, unda xilma-xil ijtimoiy manfaatlari va ijtimoiy subyektlarning munosabatlari amalga oshadi, shaxsnинг ijtimoiy shakllanishi yuz beradi; shu bilan bir vaqtда ijtimoiy ne'matlar yetkazib berish va xizmatlar ko'rsatishda band bo'lgan kishilar faoliyatining sohasi "ijtimoiy munosabatlari" ma'nosidan ancha keng, chunki moddiy negiz va ijtimoiy munosabatlarni amalga oshiruvchi kishilarni qamrab oladi.


Ijtimoiy soha inson hayotini tashkillashtirish, ijtimoiy iste'molga bo'lgan talablarni, jumladan, turar-joy, bilim olish, kasb-korlikka va malakaga ega bo'lish, sog'liqni saqlash va mustahkamlash, dam olish, madaniy va ma'naviy yetuk bo'lishga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga bevosita xizmat ko'rsatuvchi iqtisodiyot tarmoqlari majmuidir. Ijtimoiy soha (sektor) - davlat va jamoat tashkilotlari (shu jumladan, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari) ixtiyorida bo'lgan iqtisodiyot resurslari majmuasi bo'lib, iqtisodiy muhim (maydon)ning shunday qismiki, unda quyidagi xususiyatlar mujassam bo'ladi.

1. Iqtisodiy faoliyatni ayirboshlanishini tashkil etishning nobozor turi ustuvor bo'ladi, bozor amal qilmaydi yoki qisman amal qiladi;

2. Ijtimoiy (jamoat) ne'matlar ishlab chiqariladi, taqsimlanadi va iste'mol qilinadi;

3. Jamoat (ijtimoiy) ne'matga talab va taklif o'rtaidan iqtisodiy muvozanat davlat, maxalliy o'zini o'zi bosiqarish organlari, ko'ngillijamoat tashkilotlari tomonidan tegishli ijtimoiy dastaklar, birinchi navbatda budget-moliya siyosati yordamida ta'minlanadi.

Ijtimoiy soha ijtimoiy yordam, ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy xizmatlarni o'z ichiga oladi (10.1.1-rasm).



10.1.1-rasm. Ijtimoiy sohaning tarkibi.

Ijtimoiy yordam mehnatga layoqatsiz yoki qaramog‘ida bolalar bo‘lganligi uchun ishlay olmaydiganlarga yordam ko‘rsatishni ifodalaydi. Ijtimoiy yordam asosan davlat budgetidan moliyalashtiriladi va xayriya, ya’ni sotsial transfertlar hisoblanadi. Ijtimoiy yordamning namoyon bo‘lish shakllari quyidagilardan iborat:

- ◆ kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar;
- ◆ bolali oilalarga nafaqalar;
- ◆ nogironlarga nafaqalar;
- ◆ oziq-ovqat talonlari;
- ◆ uy-joy xo‘jaligiga dotatsiyalar.

Ijtimoiy sug‘urta pensiya ga chiqish, vaqtinchalik mehnat layoqatini yo‘qotish va ishsizlik bilan bog‘liq bo‘lgan ish haqini yo‘qotishlarni qoplashni ifodalaydi. Ijtimoiy sug‘urta ish haqidan ijtimoiy ajratmalar hisobidan moliyalashtiradi va topilgan huquq hisoblanadi. Uning namoyon bo‘lish shakllari quyidagilardan iborat:

- ◆ pensiya;
- ◆ ishsizlik bo‘yicha nafaqa;
- ◆ tibbiy sug‘urta.

Ijtimoiy xizmatlar sohasi inson kapitalini shakllantirish va investitsiyalashda muhim ahamiyatga egadir. Ijtimoiy xizmatlar o‘z ichiga quyidagi sohalarni oladi:

- ◆ ta’lim;
- ◆ sog‘liqni saqlash;
- ◆ madaniyat, sport;
- ◆ mehnat birjasi xizmatlari.

Ijtimoiy soha amal qilishining maqsadi taqsimlash funksiyalarini amalga oshirish mexnanzimlari yordamida ma'lum bir mintaqaga (hududda) insonning ijtimoiy manfaatlarini ro'yobga chiqarishning yagona ijtimoiy-iqtisodiy maydonini shakllashtirishdan iboratdir. Ijtimoiy sohada iqtisodiy faoliyat tarkibi davlat, ijtimoiy, aralash, xususiy sektorlardan iborat.

Ijtimoiy soha rivojlanishi quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

-ijtimoiy xarajatlar hajmi va tarkibi inson ijodiy potensiali ahamiyatining oshishi, inson rivojlanishi uchun xarajatlarning o'sishi;

-ijtimoiy iqtisodiyot aralash sektoridagi raqobat va bozor mexanizmi imkoniyatlarining kengayishi. Bu holda ijtimoiy xarajatlar kamayishi uchun imkoniyatlar yaratiladi;

-davlat mulkini oqilona xususiylashtirish.

Turli mamlakatlardagi ijtimoiy sohaga qilinadigan davlat xarajatlardagi farqlar soliq yukining og'irligiga; ijtimoiy xarajatlar hajmiga; moliyaviy siyosatning qatiyligiga; harbiy xarajatlarning qisqartirilishiga; xususiylashtirish ko'lamiga bog'liq.

Ijtimoiy sohanining zarurligini belgilovchi omillar bozor va nobozor omillaridan iborat bo'ladi. Bozor omillari uning kamchilik va salbiy jihatlari bilan ifodalanadi. Ular quyidagilardan iborat:

Xususiy tadbirkorlikning takror ishlab chiqarishni normal taminlay olmasligi;

Xususiy tadbirkorlikning jamoat nematlarini ishlab chiqara olmasligi;

Raqobatning kamchiliklari;

Bozor axborotlarini olishning qiyinligi;

Tashqi effektlar. Firmalar faoliyatining boshqalarga ziyon yetkazishi. Salbiy eksternaliy.

Bozor bilan bog'liq bo'limgan omillarga quyidagilar kiradi:

• Davlat boshqaruv organlarining o'zaro va iqtisodiyotning boshqa sektori muassasalari bilan iqtisodiy va moliyaviy aloqa qilishga majburligi;

• Bozor iqtisodiyoti institutsional asoslarini takomillashtirib borish zarurligi;

• Daromadlarni qayta taqsimlash zarurligi.

Shunday qilib iqtisodiyotning ijtimoiy sohasi xususiy tadbirkorlik va bozorning o‘z o‘zini tartiblashi asosida hal qila olmaydigan muammolarni hal qiladi. Davlatning iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni tartibga solishdagi kamchiliklari esa fuqarolik institutlari, fuqarolarning o‘z o‘zini boshqarish organlari tomonidan tuzatilib, to‘dirilib boriladi. Ijtimoiy soha iqtisodiyotining rivojlanishi iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy adolatga asoslangan ijtimoiy samaradorlikni ta’minlaydi.

Ijtimoiy sohaning rivojlanganlik darajasi, uning holati avvalam bor moddiy ishlab chiqarishning rivojlanganligi bilan bog‘liqdir. Biroq teskari munosabat ham mavjud, ya’ni o‘z navbatida u ishlab chiqarishni rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy sohaning rivojlanganlik darajasi davlatning iqtisodiy siyosati va iqtisodiy munosabatlar tizimi bilan uzviy bog‘liqdir.

Hozirgi kunda jamiyatning rivojlanishida ijtimoiy sohaning roli oshib borinoqda. Ijtimoiy sohaning ustun darajada rivojlanib borishi ijtimoiy sohada band bo‘lganlar ulushining oshib borishi bunga misol bo‘la oladi. Jamiyat rivojlanishida inson omilining roli muhim bo‘lib, u doim oshib boradi. Iqtisodiy o‘sishda ilmning va sog‘liqni saqlashning ta’sirini o‘sib borishi haqida Jahon bankining 1998/1999 yillar uchun «Rivojlanishda ilmning xissasi» («Znanie na slujbe razvitiya») nomli hisobotida to‘xtalib o‘tiladi. Xodimlarning ma’lumoti, malakasining oshishi YaIM da ushbu omillar hisobiga o‘sish ulushida namoyon bo‘ladi. Masalan, Amerika iqtisodchisi Ye.Denison taxminiga ko‘ra 1929-1982 yillarda milliy daromad o‘sishining 14% ma’lumot, malakanı oshirish hisobiga 21% mehnat unundorligining o‘sishi hisobiga erishilgan.

Insonning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlari uning manfaatlarida namoyon bo‘ladi. Jamiyat, shu jumladan iqtisodiyot rivojlanishi uchun inson, jamiyat, davlat manfaatlarining mushtarakligini hamda ular o‘rtasidagi nisbatlarning uyg‘unligini ta’minlash zarurdir. Turli

nazariyalarda bu borada turlicha yondashuvlar mavjuddir. Neoklassik nazariyada shaxs manfaati asosiy va belgilovchi xisoblanadi. V.Pareto, A.Bergson va P.Samuelsonlar jamiyat manfaatini shaxslar manfaatlarining majmuasi deb ta'riflaganlar. Iqtisodiy sotsiodinamika nazariyasiga ko'ra shaxs va jamiyat manfaatlari komplementar, yani o'zaro teng, bir-birini to'ldiruvchi. Bozorda har bir subyekt o'z shaxsiy manfaatini ko'zlaydi. Jami talab individual va ijtimoiy naflilik tasirida shakllanadi. Davlat ilmiy-tadqiqot faoliyatini, ish o'rinnarini yaratishni, madaniyatni, tashqi muhitni saqlash va rivojlantirishni moliyalashtirish orqali iqtisodiy o'sishning sotsiodinamik multiplikatorini yaratadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, jamiyat tashkiliy unsurlari va davlat organlari o'rtasida ijtimoiy sheriklik, hamkorlik qaror topganda ijtimoiy adolat, shaxs, jamiyat va davlat o'rtasida mutanosib munosabatlar rivojlanishi uchun asos yaratiladi va fuqarolik jamiyati shakllanadi. Jamiyatning rivojlanish yo'nalishi, shaxs, jamiyat, davlat manfaatlari uyg'unligining ta'minlanishi davlat rivojlanishi modeliga bog'liq.

Qo'mondonlik-mamuriyatçılık modelida ijtimoiy ahamiyatli ne'matlar asosan kartochka tizimi orqali taqsimlanadi. Ijtimoiy yo'naltirilgan modelda keng ijtimoiy xizmatlar davlat hisobidan beriladi. Ijtimoiy davlat ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslanadi. Liberal modelda davlat qatiy belgilangan limitdagi ijtimoiy kafolatlarni ta'minlaydi, shaxslar ijtimoiy nematlarning minimumdan yuqori qismini o'z daromadi hisobiga sotib oladilar. Sotsiogumanitar davlat modelida asosiy boylik inson bo'lib iqtisodiyot insonni har tomonlama rivojlantirishga bo'yundirilgan bo'ladi, lekin bu modelni amalda ro'yoga chiqarish masalalari fanda hozircha ishlasmagan.

Ijtimoiy soha rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari insonning har tomonlama rivojlanishi, hayot sharoitlarining yaxshilanishi, moddiy va ijtimoiy farovonligining oshishida o'z ifodasini topadi. Bu ko'rsatkichlarning umumlashtirilgan ifodasi sifatida inson potensial (salohiyati) rivojlanishi indeksi qo'llaniladi. Inson potensiali rivojlanishi indeksi (IPRI) kutilayotgan umr uzoqligi, aholi jon boshiga xarid qobiliyati pariteti bo'yicha AQSh dollarida YaIM va savodxonlik

darajalarining o'rtacha arifmetik indeksi bilan o'lchanadi. Jahon mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajalari ushbi indeks bilan ham o'lchanadi. Shuningdek, ijtimoiy sohaning rivojlanishi aholi jon boshiga inson kapitali-davlat, korxona, shaxs tomonidan sog'liqni saqlash, talim, ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlariga qilingan aholi jon boshiga investitsiyalar hamda aholi tur mush darajasi va sifati ko'rsatkichlari bilan o'lchanadi. Ijtimoiy soha aholi daromadlarini qayta taqsimlash, inflyatsiyani qisqartirish, kambag'allikni qisqartirish, mintaqalararo ijtimoiy farqlarni bartaraf etish va boshqa ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishni maqsad qilib qo'ygan. Ijtimoiy dasturlarni bajarish innovatsion iqtisodiyotga o'tish va ijtimoiy mehnat unundorligining o'stirilishiga bog'liqdir.

10.2.Davlatning ijtimoiy siyosatining mohiyati, maqsadi va vazifalari

Davlatning ijtimoiy siyosat deganda davlatning jamiyatdagi ijtimoiy muammolarning hal qilinishiga bo'lgan munosabati, ijtimoiy infratuzilmalar samarali va bir maromda amal qilishini ta'minlashga qaratilgan kundalik davlat faoliyati, ijtimoiy ahamiyatga molik vazifalarni bajarilishini ta'minlanishidagi strategiya va taktik yondashuv nazarda tutiladi. Davlatning ijtimoiy siyosati bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solishga yo'naltiriladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solishning zarurati shu sohadagi bozor va bozor mexanizmi qondira olmaydigan shunday ijtimoiy ehtiyojlar mavjudligi bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, bozor pensiya yoshidagi kishilarning ijtimoiy himoyasiga, ishsizlarga, mehnat nogironlariga, tug'ilgandan nogironlarga, ko'p bolali oilalarga yordam berish kabi jamiyat xarajatlariga befarq. Bozor hattoki aholi daromadlari darajasini keskin tabaqlashuvining o'sishiga sabab bo'ladi va mavjud tarixiy madaniy qadriyatlarga bozor befarqliq bilan qaraydi.

Bozor ijtimoiy barqarorlikni ta'minlamaydi. Davlat ijtimoiy sohadagi ishchilar va predmetlar o'rtasidagi, mehnat va kapital o'rtasidagi muammolarni xal etuvchisi sifatida chiqadi. Bularning hammasi, ijtimoiy soha va uning normal rivojlanishi uchun tartibga solishning bozor mexanizmi bilan davlat mexanizmlarini uyg'unlashtirish zarur ekanligini keltirib chiqaradi. Faqatgina tartibga solishning bozor va davlat mexanizmlarini optimal uyg'unlashtirish orqaligina samarali natijalarga erishish mumkin. Ijtimoiy sohaning shunday elementlari mavjudki, unda faqat davlat shaxsni har tomonlama rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni samarali boshqarishi mumkin. Davlat millatning sog'lig'i uchun, malakali kadrlarni tayyorlash uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Aholini ijtimoiy huquqlarini himoya qilish, mulkchilik huquqlarini himoya qilish ham davlatning zimmasidadir. Faqat davlat shaxsni har tomonlama rivojlanishi bilan bog'liq xarajatlarni samarali usullar bilan tartibga solishi mumkin. Va faqat uning yordami bilangina ijtimoiy yo'naltirilgan bozor tizimini yaratish va aholi daromadlari o'rtasidagi yuqori tabaqalanishlarni qisqartirish mumkin.

Ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solishning usullari va shakllari ko'pgina omillarga bog'liq. Ulardan: iqtisodiy rivojlanish darajasi, ushbu sohada davlat va nodavlat sektorlarining mutanosibligi, davlatning iqtisodiy siyosati va boshqalar.

Davlat ijtimoiy siyosati orqali ijtimoiy sohani tartibga solishda asosiy qonunchilik aktlari, budget-kredit va soliq shakllari, ijtimoiy sohaning bir qismini, ya'ni davlatga tegishli bo'lgan korxona va tashkilotlarni to'g'ridan to'g'ri boshqarish kabi usullardan foydalilanadi.

Masalan, MDH mamlakatlarida va shu qatori O'zbekistonda ham ijtimoiy sohani tartibga solishning quyidagi shakllari qo'llaniladi:

1)mulkchilik shaklidan qat'iy nazar ishchilar uchun eng kam ish haqi darajasi, pensiya, ish kunining davomiyligi, mehnat tatilining davomiyligi qonunda belgilash yo'li bilan tartibga solish;

2)budget xodimlari uchun va davlat tashkilotlaridagi ishchilar uchun mehnatga haq to'lash tizimi tariflarini o'rnatish;

- 3)pensiya, nafaqalar, stipendiyalar darajasini o'rnatish, urush va mehnat fronti qatnashchilari uchun imtiozlar tizimini o'rnatish;
- 4)ishchilar uchun progressiv soliq stavkalarini o'rnatish;
- 5)ijtimoiy soha tarmoqlari o'rtasida davlat budgeti xarajatlari eng optimal proporsiyasini o'rnatish;
- 6)ko'proq ijtimoiy-zaruriy maxsulot va xizmatlarning yuqori narxlarini o'rnatish orqali aholi daromadlarini tartibga solish, inflyatsiya jarayonida esa pesionerlar, davlat ijtimoiy soha ishtirokchilari ishchilarining daromadlarini indeksatsiyalash.

Eng kam ish haqining miqdori iqtisodiy rivojlanish darajasiga qarab belgilanadi. Masalan, G'arbning rivojlangan mamlakatlarida eng kam ish haqi ancha yuqori ekanligini bilamiz. Biroq shu o'rinda turli narx darajalarini ham hisobga olish zarur. G'arb mamlakatlarda soatbay ish haqining quyi chegarasi soatiga 5 dollar hisoblanadi.

Shu qatorda davlat tomonidan o'rnatalagn eng kam ish haqi darajasidan aholini turmush darajasini tahlil etishda va mutlaq qashshoqlik ko'rsatgichi sifatida foydalaniladi. Eng kam ish haqi iqtisodiy rivojlanganlik darjasasi va bandlikka ham bog'liqdir. **Kambag'allik chegarasi, nisbiy kambag'allik chegarasidan quyida yashayotgan aholi** — rasmiy kambag'allik chegarasidan quyida yashayotgan aholining foizlardagi ulushiga taalluqlidir:

1. Kuniga 1 AQSh dollari — 1985 yilgi xalqaro narxlarda berilgan bo'lib, AQSh dollarining xarid qobiliyati pariteti bo'yicha hisoblangan (1993 yilgi xalqaro narxlarda 1,08 AQSh dollariga teng yoki 2005 yilgi xalqaro narxlarda 1,25 AQSh dollariga teng).
2. Kuniga 2 AQSh dollari — 1985 yilgi xalqaro narxlarda berilgan bo'lib, AQSh dollarining xarid qobiliyati pariteti bo'yicha hisoblangan (1993 yilgi xalqaro narxlarda 2,15 AQSh dollariga teng). Kuniga 4 AQSh dollari — 1990 yilgi xalqaro narxlarda berilgan bo'lib, AQSh dollarining xarid qibiliyati pariteti bo'yicha hisoblangan⁷⁴.

⁷⁴ Абулқосимов Ҳ.П., Абулқосимов М.Ҳ. Иктисодиётта онд атама ва тушунчаларининг шохли жутати. Т.АВУ МАТБУОТ- KONSALT, 2017.-262-263-бетлар.

Rivojlangan mamlakatlar qatori markazlashgan-rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda ijtimoiy sohani islohotlar olib borilmoqda, ijtimoiy maqsadlarga daromadlarni taqsimlash munosabatlari o'zgarmoqda. Asosan pensiya tizimida sezilarli o'zgarishlar va pensiya islohotlari olib borilmoqda. Pensiya yoshi oshmoqda, davlat pensiya fondi bilan birga nodavlat pensiya fondlari shakllanmoqda. Jamg'arib boriladigan pensiya fondi tizimi joriy etilmoqda.

Shunday bo'lsada, pensionerlar soni oshmoqda, pensiya uchun resurslarni oshirish talab etilmoqda, pensiya yoshi uzayimoqda. Masalan Angliya va boshqa qator mamlakatlarda 65 yoshdan pensiyaga chiqish haqida taklifi qo'yilmoqda. Eng ko'p jon boshiga ijtimoiy maqsadlarda qilingan xarajatlar Skandinaviya mamlakatlariga xosdir. Bu mamlakatlarda pensiya fondini shakllantirishni davlat o'z zimmasiga olgan. Germaniyada biroz boshqacha yondashuv mavjud. Pensiya fondini yaratishni aholining o'zi qabul qilgan, ya'ni uning o'zi ushbu fondga badalini olib borib berishi lozim. Ijtimoiy sug'urta fondini shakllantirishda xususiylashtirish jarayonlari olib borilmoqda, shu qatori Lotin Amerikada ham. Bunda tadbirkorlar ijtimoiy sug'urta fondi badallaridan ozod etiladi. Bu fondning resurslari ishchilarning badallari hisobiga va vaqtiga vaqtiga bilan beriladigan davlat resurslari hisobiga shakllanadi.

Qator mamlakatlarda mutloq qashshoqlik ko'rsatkichi o'rnila hayot kechirish minimumi ko'rsatgichi qabul qilingan. Turli mamlakatlarda bu ko'rsatgich turlichadir. Qashshoqlik jihatini o'rtacha ish haqiga nisbatan foiz ko'rinishda aniqlash mezoni keng tarqalgan. Masalan, Bolgariyada hayot kechirish mininumi o'rtacha ish haqining 53-65% ga teng, Chexiyada 55-56% ga, Polshada 36% ga teng. Keltirilgan ko'rsatkichdan kam daromadga ega bo'lganlar qashshoqlar toifasiga kiritiladi.

10.3. O'zbekistonda ijtimoiy siyosatning maqsadi, yo'nalishlari va ijtimoiy sohada davlat boshqaruvi

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub islohatlar maqsadi inson va uning manfaatlari, farovonligini ta'minlash hamda insonni har tomonlama kamolga yetkazishga qaratilgandir. Istiqlol arafasida, O'zbekiston aholisi o'rta hisobda go'sht mahsulotlarini, sut va sut mahsulotlarini, tuxumni umuman mamlakat aholisiga nisbatan ikki barobar kam iste'mol qilmoqda. Oyiga o'rta hisobda 75 so'mdan kamroq yalpi daromad oladigan aholining ulushi mamlakatda 12 foizdan sal ko'proq bo'lsa, bizning respublikamizda 45 foizni tashkil etgan. Bir millionga yaqin kishi ijtimoiy ishlab chiqarishda o'zining ko'lidan keladigan ishni topa olmagan.

Ijtimoiy infrastruktura tarmoqlari: sog'lijni saqlash, xalq ta'limi, maktabgacha bolalar muassasalari juda og'ir ahvolga tushib qolgan. Maktab va kasalxonalarning 60 foizi nobop binolarda joylashtirilganini aytishning o'zi kifoya. Juda o'tkir iqtisodiy va ijtimoiy muammolar ro'yxatini yana davom ettirish mumkin. Buni avvalo shundan ko'rsa bo'ladiki, insonning har tomonlama uyg'un kamol topishi, uning shaxs sifatida ma'naviy rivojlanishi bir yoqda tursin, ko'pincha yashash uchun kerak bo'lgan eng oddiy narsalar ham yetishmagan⁷⁵.

O'zbekistonda mustaqillik e'lon qilingandan so'ng aholi turinush darajasini yuqori daraja ta'minlash, inson manfaatlarini ro'yobga chiqarish va uni har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyoti, ochiq tashqi siyosatga ega kuchli demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatni barpo etish maqsadida keng qamrovli islohotlar amalga oshirila boshlandi. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun O'zbekistonda mustaqillikning dastlab davridayoq davlat ijtimoiy siyosatining asoslari yaratilib, amalga oshirila boshlandi. O'zbekistonda ijtimoiy siyosat ustuvor yo'nalish hisoblanadi va u bosqichma-bosqich

⁷⁵Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эршиш остоинасида.-Т.: Ўзбекистон, 2011-167-168-бетлар.

amalga oshiriladi. O'zbekistonda ijtimoiy siyosatning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iboratdir:

- ◆ Ijtimoiy siyosatni o'tkazishda davlatning boshqarish funksiyasiga egaligi;
- ◆ Ijtimoiy islohotlarning bosqichma-bosqichligi;
- ◆ Aholining yashash darajasini keskin tushib ketishiga yo'l qo'ymaslik;
- ◆ Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish idoralari mahallalar orqali aholiga aniq manzilli ijtimoiy yordam ko'rsatish;
- ◆ Ijtimoiy islohotlarning iqtisodiy va huquqiy asoslarini yaratish.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat qilib belgilangan:

- ◆ Aholining iqtisodiy faolligini qo'llab-quvvatlash;
- ◆ Mahsulot, xizmat va uy-joyning kuchli ichki iste'mol bozorini shakllantirish;
- ◆ Aholining to'lov talablarini keng miqiyosda qondirish va uning o'sishini ta'minlash;
- ◆ Aholining daromad va mulkka egalik darajasining keskin tabaqalashuvining oldini olish;
- ◆ Ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan zarur kafolatni ta'minlash.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda davlat ijtimoiy siyosati quyidagi asosiy yo'nalishlarda olib borilmoqda:

- ◆ Davlat ijtimoiy iste'mol fondlarini tashkil etish va ulardan jamiyatning har bir a'zosining foydalanishini kafolatlaydigan qonunlarni qabul qilish;
- ◆ Davlatning markazlashgan ijtimoiy sug'urta fondini tashkil etish;
- ◆ Ko'rsatilgan xizmatlar va samarali mehnatlari uchun davlat tomonidan beriladigan imtiyozlar;
- ◆ Ish haqi va pensiya minimumining davlat tomonidan kafolatlanishi;
- ◆ Ko'p bolali oilalarga to'lanadigan nafaqlar;

- ◆ Kam ta'minlangan aholi tabaqalariga moddiy yordam ko'rsatish;
- ◆ Bolalikdan nogiron va boshqa mehnat qobiliyatini yo'qotganlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash;
- ◆ Talabalar uchun to'lanadigan davlat stipendiyalari;
- ◆ Ishsizlik nafaqasi;
- ◆ Eng muhim oziq-ovqat mahsulotlari turlarini belgilangan narxlarda sotilishini ta'minlash;
- ◆ Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xizmatlar baholaridagi farqlarni budjet hisobidan qoplash;
- ◆ Ijtimoiy sohaning eng muhim tarmoqlari (sog'liqni saqlash, ta'lif, jismoniy tarbiya, sport va madaniyat) moddiy bazasining rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash.

Dermak, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub demokratik islohotlar ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyat barpo etishga qaratilgan. Buni ijtimoiy sohadagi islohotlarni amalga oshirish orqali ta'minlash mumkin. Chunki, har qanday jamiyatning rivojlanganlik darajasi ijtimoiy masalalarning qay darajada hal etilayotganiga bog'liq. Ijtimoiy masalalar mamlakat taraqqiyotining muhim omili sifatida iqtisodiy rivojlanishga ta'sir etadi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasida davlat ijtimoiy siyosati ijtimoiy islohotlarni davomli amalga oshirib borish orqali aholi turnush darajasini barqaror o'stirib borishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida "gi Farmonida "ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sog'lig'ini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lif, madaniyat, ilm-fan, adapbiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish" vazifalari belgilangan.

10.4. Davlatning bandlik siyosati va abolining ish bilan bandligini tartibga solish

Mehnat bozori bozor iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismidir. Mehnat bozorida mehnat sotilmaydi, ishlovchilarning mehnat qilish qobiliyati, mehnat xizmati sotiladi⁷⁶, chunki mehnat kishilarning ma'lum maqsadga yo'naltirilgan faoliyati jarayoni bo'lib, unda ishchi kuchi bilan ishlab chiqarish vositalari qo'shilishi natijasida kishilarning ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan mahsulot yaratiladi va xizmat ko'rsatiladi⁷⁷.


Mehnat bozorida ishchi kuchini sotish va sotib olish erkin xodimni ishga yollash shaklida namoyon bo'ladi. Ishga yollash ma'lum shartlar, ya'ni ish kunining uzunligi, ish sharoitlari va rejimi, ish haqining miqdori, bajariladigan ish turi, lavozim va kasb majburiyatları asosida amalga oshiriladi. Mehnat bozori yollanma ishchi, xodim va ish beruvchi, tadbirkorning iqtisodiy erkinligiga asoslanadi. Demak, ishchi kuchi mehnat bozorining obyekti hisoblanadi.

Uning subyektlari quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarish vositalari egalari, ish beruvchilar va ularning manfaatlarini ifodalovchi uyushmalar (tadbirkorlar uyushmalari);
- yollanma ishchi, xodimlar, ya'ni ishchi kuchi egalari va ularning manfaatlarini ifodalovchi tashkilotlar, kasaba uyushimalari;
- davlat. Davlat o'zining turli boshqarish organlari orqali ish beruvchi va yollanma xodimlar o'rtasida vosita bo'lib, ular o'rtasidagi ishga yollash bo'yicha bo'ladigan mehnat munosabatlarini tartibga soladi.

⁷⁶ Курс экономической теории: Учебник. 4-е доп и перераб изд. Киров : "ACA" 1999,- С 231.
⁷⁷ Шодмонов Ш.Ш., Гафуров У.В. Иктисодийт назарияси. / Маърузда матни/-1., 2007, 23-бет.

MEHNAT BOZORI



10.4.1-rasm. Mehnat bozori obyekti va subyektlari.


Mehnat (ishchi kuchi) bozori quyidagi vazifalarni bajaradi:

- ishchi kuchini zamonaviy ehtiyojlarga asosan takror ishlab chiqarishni ta'minlashga ko'maklashish;
- ishchi kuchini iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar o'rtasida taqsimlanishi va qayta taqsimlanishini ta'minlash;
- ishchi kuchining mobilligi, ya'ni harakatchanligini faollashtirish;
- mehnat unumдорligini o'stirishga rag'batlantirish;
- mehnatga layoqatli aholining ish bilan ta'minlanishi orqali aholi daromadlari va turmush darajasini o'stirish.

Mehnat bozorining shakllanishi, rivojlanishi va amal qilishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- demografik omillar. Ular o'z ichiga aholining soni, o'sish sur'ati, tarkibi, unga iqtisodiy faol aholining ulushi va uning harakatchanligi (mobilligi) kiradi;
- ijtimoiy omillar. Ular jumlasiga aholining turmush darajasi, jamiyatning ijtimoiy tarkibi, ijtimoiy hamkorlik munosabatlarining rivojlanganlik darajasi kiradi;

- tashkiliy-huquqiy omillar, ular tarkibiga tadbirkorlik, mehnat munosabatlarini tartibga solishning huquqiy bazasi ishlab chiqilganligi va sifati, amal qilish samaradorligi; davlat boshqaruv organlari va muassasalarining mehnatni hamda aholining ish bilan bandligini tashkil etish, tartibga solishdagi rolini ifodalovchi omillar kirdi (10.4.2-rasm).




10.4.2-Rasm. Mehnat bozorining vazifalari va unga ta'sir etuvchi omillar

Mehnat bozori amal qilish mexanizmining muhim komponentlariga quyidagilar kirdi:


- ishchi kuchiga talab. U mehnat bozoridagi ishchi kuchiga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojning umumiylajmi ifodalaydi;
- ishchi kuchi (mehnat) taklifi, ishlashni istayotgan ishchi kuchining umumiy miqdori;
- ishchi kuchi bahosi ishchi va xodimlarning ish haqida ifodalanadi, ish haqi tovar qiymatining puldagi ifodasi, bozor bahosidir;

- ishchi kuchi qiymati Ishchi kuchi qiymati uni takror ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan moddiy va nomoddiy ne’matlar, xizmatlar qiymati bilan belgilanadi;



10.4.3-rasm. Mehnat bozori tarkibi (segmentlari)


-raqobat. Raqobat ish beruvchilar o‘rtasida yuqori malakali ishchi kuchini jalb etish uchun olib borilsa, yollanma xodimlar o‘rtasida yuqori haq to‘lanadigan ish o‘rinlari uchun raqobat kurashi yuz beradi. Shuningdek, ish beruvchi va yollanma xodimlar o‘rtasida ishga yollanish shartlari yuzasidan raqobat bo‘ladi (10.4.4-rasm).



10.4.4-rasm. Mehnat bozori amal qilishi mexanizmining komponentlari

Bozor muvozanati ishchi kuchiga bo‘lgan talab va uning taklifi ma’lum muvozanatlari ish haqi darajasida miqdor va tarkib jihatidan birlariga muvofiq (teng) bo‘lganlarida yuzaga keladi. Davlat mehnat

bozorini iqtisodiy va ma'muriy vositalar, dastaklar yordamida tartibga solib turadi (10.4.5-rasm).



10.4.5-rasm. Mehnat bozorini davlat tomonidan tartibga solish yo'nalishlari¹

Mehnat munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solish quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi:

- ishga yollashning minimal standartlarini qonuniy belgilash;
- ish vaqtining uzunligi, ish haqi, boshqa to'lov va imtiyozlar;
- mehnat sharoiti va xavfsizligini ta'minlash sohasidagi norma (me'yor)larni qonuniy belgilash;

¹ Обидов О.О. Мехнат бозори ва унинг шаклланиши // Аграр соҳада ислоҳотларин явада чукурдаштириш музумолари ва суннлари. -Т., "Мехнат", 2002, 157-бет.

- shaxslarni ma'lum turdag'i mehnat faoliyatini bilan shug'ullanishlariga qonuniy ruxsat berish va cheklash;

- ish beruvchi va xodimlarning faoliyatini fuqarolik huquqi hamda mehnat qonunchiligi asosida tartibga solish.

O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi 2020 yil 20 oktabrdagi O'RQ-642-son qonuniga binoan aholi bandligi sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat etib belgilangan:

ish o'rirlari tashkil etilishini rag'batlantirish va aholi bandligiga ko'maklashish, shu jumladan ish o'rirlarini tashkil etishga doir davlat buyurtmasini hamda ish qidirayotgan shaxslarni va ishsiz shaxslarni kasbga tayyorlashga, qayta tayyorlashga hamda ularning malakasini oshirishga doir davlat buyurtmasini shakllantirish orqali ko'maklashish;

ishsiz shaxslarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya qilish, ishsizlikni kamaytirish choralarini ko'rish, aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirishga ko'maklashish;

yoshlarni, ayniqsa qishloq joylardagi yoshlarni, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlari, kasb-hunar maktablari, kasb-hunar kollejlari, texnikumlar, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirishni ta'minlash bo'yicha choralarни amalga oshirish;

aholi bandligi sohasida zamонавиy kasbiy standartlarni joriy etish, mehnatni normalashtirish hamda mehnatga haq to'lash mexanizmlarini takomillashtirish;

aholi bandligi sohasida ayollar va erkaklar uchun teng huquqlar hamda imkoniyatlarni ta'minlash;

ishga joylashtirish jarayonlariga ilg'or axborot texnologiyalarini joriy etish, aholining ishga joylashishiga ko'maklashish bo'yicha xizmatlar bozorida zamонавиy infratuzilmani va raqobat mohitini yaratish;

O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ishga joylashishida ko'maklashish, O'zbekiston Respublikasidan tashqarida vaqtinchalik mehnat faoliyatini

amalga oshirish davrida ularning huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinishini ta'minlash⁷⁸.

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi aholi bandligi sohasidagi vakolatli davlat organi bo'lib, quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

aholi bandligi sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshiradi;

aholi bandligi sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

aholi bandligi sohasida davlat boshqaruvi organlarining va boshqa tashkilotlarning faoliyatini hamda hamkorligini muvofiqlashtiradi;

ish qidirayotgan shaxslarni va ishsiz shaxslarni ishga joylashtirish, shuningdek aholini haq to'lanadigan jamoat ishlariiga jaib etish jarayonlari monitoringini amalga oshiradi;

tarmoqlar va hududlar kesimida ish o'rinnarini tashkil etishga doir har yilgi davlat buyurtmasini shakllantiradi;

ish qidirayotgan shaxslarni va ishsiz shaxslarni kasbga tayyorlashga, qayta tayyorlashga hamda ularning malakasini oshirishga doir har yilgi davlat buyurtmasini shakllantiradi;

fuqarolarga O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ishga joylashishida ko'maklashish, O'zbekiston Respublikasidan tashqarida vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish davrida ularning huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinishini, shuningdek O'zbekiston Respublikasiga qaytib kelganidan keyin reintegratsiya qilinishini ta'minlash bo'yicha choralarini amalga oshiradi;

aholi bandligi masalalari yuzasidan mahalliy davlat hokimiyyati organlariga va mahalliy mehnat organlariga uslubiy hamda amaliy yordam ko'rsatadi;

ishga joylashishga muhtoj bo'lgan shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtiradi;

⁷⁸O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi lo'g'risida"gi 2020 yil 20 oktabrdeagi O'RQ-642-son qonuni // <https://lex.uz/docs/5055690>

ishga joylashtirish jarayonlariga ilg‘or axborot texnologiyalarini joriy etadi, «Yagona milliy mehnat tizimi» idoralararo dasturiy-apparat kompleksining ishlashini ta’minlaydi;

aholi bandligiga ko‘maklashish bo‘yicha xizmatlar bozorida zamonaviy infratuzilmani va raqobat muhitini yaratadi;

Tasdiqlangan malakaga ega bo‘lgan shaxslarning milliy reestrini, Kasbiy standartlarning milliy registrini, Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozori professional ishtirokchilarining yagona reestrini, Akkreditatsiya qilingan malakani baholash markazlarining registrini shakllantiradi hamda yuritadi;

aholi bandligi to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioxal etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

aholi bandligi sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi⁷⁹.

Davlat mehnatga layoqatli aholining ish bilan ta’minlanishi darajasiga hamda mehnat, ya’ni ishchi kuchi bozoriga faol yoki passiv ta’sir ko‘rsatadi. Passiv ta’sir choralariga ishsizlik bo‘yicha turli nafaqa va to‘lovlar kiradi. Mehnat bozoridagi faol siyosatni amalga oshirishning asosiy choralar tadbiri esa quyidagilar:

- ish izlovlachilarni ishga joylashtirish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish;
- ishlovchi va ishsizlarni o‘qitish, kasbga qayta tayyorlash;
- bevosita ish joylarini yaratish;
- doimiy ish bilan bandlikni subsidiyalashtirish;
- tadbirkorlikni, shu jumladan, o‘z korxonalarini, ishbilarmonlik faoliyatini boshlamoqchi bo‘lgan ishsizlarni qo‘llab-quvvatlash;
- jamiat ishlarini tashkil etish.

Bugungi kunda O‘zbekistonning deyarli barcha xududlarida ishchi kuchi ortiqchaligi mavjud va ishchi kuchi bozorida taklif talabdan yuqoridir. Shu bois ishlashni xohlovchilarning mehnat bozorida erkin harakat qilishlari va mustaqil ish bilan ta’minlanishlari uchun davlat fuqarolarga bir qancha kafolatlarni nazarda tutadi. Ya’ni davlat:

⁷⁹ O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi 2020 yil 20 oktabrdagi O‘RQ-642-sou qonuni// <https://lex.uz/docs/5055690>

- ish bilan ta'minlash turini, shu jumladan, turli mehnat rejimidagi ishni tanlash erkinligini;
- ishga qabul qilishni qonunga xilof ravishda rad etishdan va mehnat shartnomasini g'ayriqonuniy ravishda bekor qilishdan himoyalanan;
- maqbul ishni tanlash va ishga joylashishga bepul yordam berish;
- har kimga kasbga va ishga ega bo'lishda, mehnat qilish va ish bilan ta'minlanish shart-sharoitlari, mehnatga haq to'lash, xizmat pog'onasidan yuqorilab borishda teng imkoniyatlar yaratish;
- yangi kasbga (mutaxassislikka) bepul o'qitish, mahalliy mehnat organlari yoki ularning yo'llanmasi bilan boshqa o'quv yurtlarida stipendiya to'lab malakasini oshirish;
- boshqa joydagi ishga qabul qilinganda sarf qilingan moddiy xarajatlar uchun qonun hujjalariiga muvofiq kompensatsiya to'lash;
- haq to'lanadigan jamoat ishlarida qatnashish uchun muddatli mehnat shartnomalari tuzish imkoniyatini kafolatlaydi.

O'zbekistonda aholining ish bilan bandlik darajasi 2000 yildagi 72,3 foizdan 2017 yilda 72,4 foizga o'sgani holda koronavirus pandemiyasi va global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz tufayli 2020 yilda 69,2 foizga pasaydi. Ishsizlik darajasi 2000 yildagi 5,4% dan 2017 yilda 5,8% ga va 2020 yilda esa 10,5%ga o'sdi. Shu davrda aholining iqtisodiy faoliyat darajasi 2000-2020 yillarda 72,0 % dan 77,3% ga oshdi. Aholining iqtisodiy nofaoliyat darajasi 25,5% dan 22,7 % ga tushdi (qarang: 10.4.1-jadval).

10.4.1-jadval.

Mehnat bozorining asosiy indikatorlari(yillik o'rtacha)⁸⁰.

| Ko'rsatkichlar | 2000y | 2010y | 2015y | 2017y | 2020y | 2021y |
|--|---------|---------|---------|---------|---------|---------|
| Mehnat resurslari, ming kishi | 12594,0 | 16504,2 | 17663,1 | 18672,5 | 19142,3 | 19345,8 |
| Iqtisodiy faol aholi soni, ming kishi | 9018,4 | 12286,6 | 12850,1 | 14357,3 | 14797,9 | 14980,7 |
| Aholining iqtisodiy faoliyat darajasi, % da | 72,3 | 70,7 | 70,0 | 73,5 | 73,8 | 74,1 |
| Iqtisodiyotda bandlarning o'rtacha yillik soni, ming kishi | 8983,0 | 11628,4 | 12223,8 | 13520,3 | 13239,6 | 13538,9 |
| Bandlik darajasi, % da | 72,0 | 66,9 | 66,6 | 69,2 | 66,0 | 67,0 |
| Ishsizlar soni, ming kishi | 658,2 | 658,2 | 626,3 | 837,0 | 1558,3 | 1441,8 |
| Ishsizlik darajasi, % da | 5,4 | 5,4 | 4,9 | 5,8 | 10,5 | 9,6 |
| Iktisodiy nofaol axoli, ming kishi | 3575,6 | 4439,4 | 4714,2 | 4315,2 | 4344,4 | 4365,1 |
| Iqtisodiy nofaollik (passivlik) darajasi, % da | 27,7 | 25,5 | 25,7 | 23,1 | 22,7 | 22,5 |

Ta'kidlash lozimki, koronavirus pandemiyasi tufayli qo'llanilgan cheklovlar natijasida 2020 yil yanvar-iyun oylarida ishsizlik darajasi 13,2% ni tashkil etdi. Ishga muhtoj bo'lganlar soni 1,94 mln kishini tashkil etdi. 16–30 yoshdagilar orasida ishsizlik darajasi 20,1 foizga, ayollar orasida 17,4 foizga yetdi. Mehnat resurslari soni 2019 yilning shu davriga nisbatan 0,6 foizga ko'paydi va 19 mln kishini tashkil etdi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga COVID-19 ning salbiy ta'siri sababli ish bilan band bo'lganlar soni 5 foizga kamayib, 12,7 mln kishiga yetdi. Yakka tartibdagi tadbirdorlik bilan shug'ullanuvchilar soni

⁸⁰ Узбекистонда ижтимоий ривожланиш ва туршум дарajasi. Статистик тўплам-Т., 2014.-43-бет.; Узбекистон Республикаси йилинк статистик тўплами 2010-2016 йиллар-Т.: Ўз Р давлат статистика ёмитаси, 2017.-52-бет. Социально-экономическое положение Республики Узбекистан за 2017год-Г. Госкомстат РУз, 2018.-С.155, 156 ; Mehнат resurslarning iqtisodiy faol va nofaol aholi bo'yicha taqsimlanishi //file:///D:/Статистика/статистики%202010-2020%20мавзу%20 бўйича%20 тўплам/мехнат%20 ресурслар ма'lumotlari asosidagi tuzildi.

o'tgan yilning shu davriga nisbatan 167,5 ming kishiga (46,4%) kamaydi. Shu bilan birga, 131,2 ming kishi pullik jamoat ishlariga jalb qilinganligi sababli rasmiy sektorda ishchilar sonining keskin kamayishiga yo'l qo'yilmadi. Chet elga ishslashga ketgan fuqarolar soni 2 million kishini tashkil etdi. Bu 2019 yilning birinchi yarmiga nisbatan 553,2 ming kishiga va 2020 yilning birinchi choragiga nisbatan 232 ming kishiga kam.

Iqtisodiyotning norasmiy sektorida band bo'lganlar soni (chet elda ishlayotgan mehnat muhojirlaridan tashqari) 2019 yil oxiriga nisbatan 2,1% ga yoki 105,3 ming kishiga kamaydi va 5,1 million kishini tashkil etdi. Bu bir martalik va mavsumiy ishlarda vaqtincha ish bilan band bo'lganlar sonining kamayishi (108,4 ming kishiga), oilaviy korxonalarda va ishbilarmonlar o'rtaida mehnat munosabatlarini rasmiylashtirmasdan (87,4 ming kishiga), shuningdek ro'yxatdan o'tmasdan ishlayotgan tadbirkorlar sonining qisqarishi (110,6 ming kishi) hisobiga yuz berdi. Karantin chora-tadbirlari davrida uuda o'tirgan fuqarolar soni oshganligi hamda fuqarolarning shaxsiy tomorqalarni rivojlantirish uchun Bandlikka ko'maklashish jamg'amasidan subsidiyalar berish dasturi hajnii keskin ortganligi uchun dehqon va shaxsiy tomorqalarda band bo'lganlar soni 201,1 mingga ortdi⁸¹.

2021 yilda mehnat resurslari soni 19345,8 ming kishini, iqtisodiy faol aholi 14980,7 ming kishini, nofaol aholi soni 4365,1 ming kishini, jami iqtisodiyotda bandlar 13534,9 ming kishini tashkil etdi. Ish bilan iqtisodiyotning rasmiy sektorida bandlar 5706,8 ming kishini, norasmiy sektorda bandlar soni esa 6101,9 ming kishini tashkil etdi. Ishga joylashtirishga muhtojlar soni 1441,8 ming kishi tashkil etdi. Mehnat bo'limlari tomonidan shu davrdv 408922 kishiga xizmat ko'rsatilgan. Natijada 146363 kishi ishga joylashtirilgan, 100576 kishi jamoat ishiga jalb qilingan, 72918 kishiga ishsizlik nafaqasi tayinlangan,

⁸¹ Ўзбекистонда ишсизлик даражаси 13,2 фондни ташкил қўлини //https://www.gazeta.uz/uz/2020/08/03/ishsizlik/

16339 kishiga subsidiya ajratilgan, 72691 kishi kasbga tayyorlashga yuborilgan⁸².

Xulosa qilib aytganda, ishchi taklifi miqdori unga bo‘lgan talabga nisbatan yuqori sur’atlarda o‘sib bormoqda. Ishchi kuchi muvozanatini ta’minlashga to’sqinlik qiluvchi quyidagi muammolar mavjud:

aholi sonining doimiy o‘sishi hisobiga ishchi kuchi sonining muntazam ko‘payib borishi;

ishsizlarning bandlikka ko‘maklashuvchi markazlarda ish qidiruvchi sifatida ro‘yxatdan o’tmaslik holatilarining mavjudligi;

korxona va firmalarning raqobatkurashlari oqibatida bankrot bo‘lishlari natijasida ishsizlarning ko‘payishi;

qishloq joylarida ishsizlarning ko‘pligi, sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarining qishloq joylariga kirib borishining sekinligi;

koronavirus pandemiyasi va global moliyaviy – iqtisodiy inqirozi ta’sirida chet ellardan migrantlarning mamlakatga qaytib kelishining ko‘payishi;

ishsizlar orasida muayyan kasb yoki ma’lumotga ega bo‘limganlarning mavjudligi, buning oqibatida ularning ishchi kuchi raqobatiga bardosh bera olmasligi.

Iqtisodiyotda ish bilan band mehnat resurslari iqtisodiyot tarmoqlari tarkibini tahlil qilish shuni ko‘rsatmoqdaki, sanoatda band bo‘lganlarning ulushi 2010-2020 yillarda 13,8 % dan 13,5% ga tushdi, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida band bo‘lganlar ulushi esa 26,8 % dan 29,9% ga ko‘tarildi. Qurilish hamda tashish va saqlash, savdoda, ta’lim, sog‘liqni saqlash sohalarida band bo‘lganlarning ulushi oshdi (10.4.2-jadval).

⁸² Mehnat bozori/<https://mehnat.uz/uz>

10.4.2-jadval.

Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha band aholi soni (foizda)⁸³

| Tarmoqlar | 2010y | 2015y | 2016y | 2017y | 2020 y |
|--|-------|-------|-------|-------|--------|
| Iqtisodiyotda jami ish bilan bandlar | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 |
| shu jumladan tarmoqlarda: | | | | | |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 26,8 | 27,6 | 27,4 | 27,3 | 29,9 |
| Sanoat | 13,8 | 13,6 | 13,6 | 13,5 | 13,5 |
| Qurilish | 8,9 | 9,3 | 9,5 | 9,5 | 9,6 |
| Savdo | 10,6 | 10,8 | 10,9 | 11,0 | 10,3 |
| Tashish va saqlash | 4,4 | 4,7 | 4,8 | 4,8 | 4,7 |
| Yashash va ovkatlanish bo'yicha xizmatlar | 2,1 | 2,3 | 2,3 | 2,3 | 2,1 |
| Axborot va aloqa | 0,5 | 0,5 | 0,5 | 0,5 | 0,5 |
| Moliya va sug'urta faoliyati | 0,6 | 0,5 | 0,5 | 0,5 | 0,5 |
| Ta'lim | 9,5 | 8,5 | 8,3 | 8,2 | 8,7 |
| sog'liqni saqlash va ijgimoiy xizmatlar ko'rsatish | 5,1 | 4,6 | 4,5 | 4,5 | 4,9 |
| san'at, ko'ngil ochish va dam olish | 0,6 | 0,5 | 0,5 | 0,5 | 0,5 |
| boshqa turdag'i xizmatlar ko'rsatish | 17,1 | 17,1 | 17,3 | 17,4 | 17,7 |

Ta'kidlash joizki, mehnat resurslarining 22,5 foizini iqtisodiy nofaol aholi, ishsizlik darajasining 9,6 foizni tashkil etishi mehnat resurslaridan unumli foydalanish borasida foydalanimayotgan zahiralar hamda muammolar mavjudligidan dalolat beradi. Shu boisdan mehnat resurslaridan to'liq, oqilona va samarali foydalanish omillaridan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarni (Qonunning 7-moddasida) ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash va ayrim turdag'i ishlarni (kasblarni) ehtiyyot tariqasida saqlab turish, mehnat bozoridagi ahvol barkarorlashuviga ko'maklashuvchi chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish belgilangan.

⁸³ Ўзбекистонда ижтимоий ривожланиши ва турмуш даражаси. Статистик тўплам-Т., 2014-47-бет; Ўзбекистон Республикаси министри статистик тўплами 2010-2016 йиллар-Т.; Ўз Р давлат статистика кўмитаси, 2017 -52-бет; Социально-экономическое положение Республики Узбекистан за 2017год -Т.: Госкомстат РУз, 2018.-С.155, 156, Мехнат бозори статистикаси://https://mehnat.uz/uz.

Yangi ish o'rirlari tashkil etish va aholi bandligiga ko'maklashishning asosiy yunalishlari quyidagilardan iborat:

- Yangi ishlab chikarish obyektlarini ishga tushirish, mavjud quvvatlaridan unumli foydalanish, korxonalarini kengaytirish;
- Kichik biznes korxonalarini tashkil etish;
- Yakka tadbirkorlikni rivojlantirish;
- Kasanachilik va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish;
- Ishlab chiqarish, bozor va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish;
- Fermer va aholi xo'jaliklari imkoniyatlaridan kengroq foydalanish;
- Ishlamasdan turgan korxonalar faoliyatini tiklash va moliyaviy sog'lomlashtirishdan iboratdir.

Mehnat bozorida aholi bandligi borasidagi vazifalar esa quyidagilardan iborat qilib belgilangan:

- Yoshlar, ayollar va boshqa toifadagi ishsizlarni aniq ro'yxatini olish Oliy va o'rta maxsus ta'llim muassasalarining bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash chora-tadbirlarini amalga oshirish, ixtisoslashtirilgan bo'sh ish o'rirlari yarmarkalarini tashkil etish
- Xaq to'lana digan jamoat ishlarini tashkil etish;
- Kasbga o'qitish, qayta o'qitish va qayta tayyorlash;
- Ishlovchilarning mehnat huquqlarini ta'minlash;
- Bo'sh ish o'rirlari va ish qidiruvchilar haqidagi yangilanib turuvchi elektron ma'lumotlar banki imkoniyatlaridan keng foydalanish;
- Raqobatlasha olmaydigan aholi toifalariga e'tiborni kuchaytirish.

Mehnat bozorida raqobatlasha olmaydigan aholi toifalarining ish bilan bandligini ta'minlash choralar (ish o'rirlarini zahira qilish va boshqa aniq choralar) ni amalga oshirish bandlik siyosatining muhim vazifalaridan iboradir. Endilikda, yangi ish o'rirlarini yaratishga real yondashuv ishlab chiqilgan.

10.5. Daromadlar siyosati va aholi turmush darajasining o'sishi

Daromadlarni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy ob'ektlari quyidagilar: daromadlar, ish haqi minimumi; bandlik, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash; soliqlar, narxlar; ijtimoiy kafolatlar, ijtimoiy munosabatlar (shu jumladan, ish beruvchi va yollanib ishlovchilar o'rtaсидagi munosabatlar), ijtimoiy ta'minot; huquqiy ta'minot (xavfsizlik, hayot, mulk va jamg'armalarni himoyalash).

Daromadlarni davlat tomonidan tartibga solishning bosh maqsadi daromadlarni davlat budjeti orqali qayta taqsimlashdan iboratdir. Shu bilan birga, kam ta'minlanganlarning daromadlarini oshirish, ularning ishchi kuchini takror ishlab chiqarish, ishlab chiqarish omillarining turlicha ekani tufayli yuzaga kelgan disproporsiyani bartaraf etish, ish bilan bandlikni tartibga solish va ijtimoiy tanglikning oldini olish kabi muammolar ham hal etiladi. Ko'rيلayotgan doirada davlatning faoliigi markaziy va mahalliy budjetdan qilingan ijtimoiy xarajatlar hajmi bilan o'lchanadi. Milliy daromadni qayta taqsimlashda davlatning imkoniyatlari budget tushunlari bilan cheklanadi.

Daromadlar siyosati konstitutsiya va unga tenglashtirilgan qonuniy hujjatlarda belgilangan ma'lum tamoyillar asosida yuritiladi. Bu tamoyillar quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy adolat;
- ijtimoiy hamkorlik va aholi barcha qatlamlarining bidadligi;
- o'z moddiy ahvoli uchun shaxsiy mas'uliyat;
- mehnat huquqi va uni munosib rag'batlantirish;
- kasaba uyushmalari huquqi;
- iqtisodiy maqsadga muvofiqlik va boshqalar.

Ma'lumki, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning eng yuqori shakli iqtisodiy dasturlashdir. Uning vazifasi iqtisodiy siyosatning barcha elementlaridan global maqsadlarda har tomonlama foydalanishdir. Bunday dasturlarning obyektlari sifatida tarmoqlar, hududlar, ijtimoiy soha, ilmiy tadqiqotlarning turli yo'nalishlari va shu kabilar tanlab olinishi

mumkin. Mazkur dasturlarning barchasi (bevosita va bilvosita) aholi daromadlariga bog'liq va ularga ta'sir ko'rsatadi.

Davlatning daromadlar siyosatida yollanma ishchilarni himoya qilish vositalaridan biri sifatida eng kam ish haqini belgilash hisoblanadi. Eng kam miqdordagi ish haqi ish kuchining jismoniy faolligini qo'llab-quvvatlab qolmasdan, shu bilan birga uning mehnat qilish qobiliyatini tiklashi va rivojlantirishi uchun u iste'mol savatchasiga muvofiq kelishi lozim, bu savatcha eng zarur mahsulotlar, tovarlar va xizmatlar turini o'z ichiga oladi. O'zbekistonda davlat tomonidan belgilanayotgan eng kam ish haqi miqdori hozirgi vaqtida iste'mol savatchasiga muvofiq emas. Shu boisdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev Oliy Majlisga murojaatnomasida "Biz ilg'or xorijiy tajriba asosida aholining munosib hayot darajasi uchun zarur bo'lgan daromadlarni aniqlash bo'yicha "iste'mol savatchasi" tushunchasini qonunchilikda mustahkamlash va uni amalda ta'minlash mexanizmlarini yaratishimiz lozim. Ayni vaqtida aholining real daromadlari, ish haqi, stipendiya, pensiya va ijtimoiy nafaqalarni bosqichma-bosqich oshirish bo'yicha ham amaliy choralar ko'rildi"⁸⁴, - deb ta'kidlagan.

Mamlakatimizda aholi daromadlari va turmush darajasini oshirishga qaratilgan ijtimoiy siyosatning amalga oshirilishi natijasida, aholi jon boshiga o'rtacha to'g'ri kelgan pul daromadlari, ish haqi va pensiyalar o'shining ijobiy dinamikasi vujudga kela boshladi (qarang: 10.5.1-jadval).

Mamlakatimizda aholi daromadlari va turmush darajasini oshirishga qaratilgan ijtimoiy siyosatning amalga oshirilishi natijasida, aholi jon boshiga o'rtacha to'g'ri kelgan pul daromadlari, ish haqi va pensiyalar o'shining ijobiy dinamikasi vujudga kela boshladi (qarang: 10.5.1-jadval).

⁸⁴ Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга мурожаатномаси. Натижаси. 2017 йил 23 декабрь.

10.5.1-jadval.

Aholi jon boshiga o'rtacha to'g'ri kelgan pul daromadlari, ish haqi va pensiyalarining 2000-2020 yillarda o'sishi dinamikasi⁸⁵

| Ko'rsatkichlar | 2005 y. | 2010 y. | 2016 y. | 2017y. | 2018 y. | 2020 y. |
|--|---------|---------|---------|--------|---------|---------|
| I. Aholi jon boshiga daromadlar, jami, ming so'mda | 371,8 | 1668,1 | 4565,2 | 5750,2 | 7963,3 | 12279,1 |
| O'tgan yilning mos davriga nisbatan haqiqiy o'sish, foizda | 117,4 | 120,1 | 110,0 | 110,3 | 107,3 | 112,7 |
| II. O'rtacha yillik hisoblangan oylik ish haqi, ming so'mda | 81,5 | 504,8 | 1293,8 | 1453,2 | 1822,2 | 2667,6 |
| O'tgan yilning mos davriga nisbatan haqiqiy o'sish, foizda | 138,7 | 129,4 | 110,4 | 112,3 | 125,0 | 114,83 |
| III. O'rtacha belgilangan oylik pensiya miqdori, ming so'mda | 31,7 | 171,9 | 494,2 | 567,3 | 695,5 | 733,2 |
| O'tgan yilning mos davriga nisbatan haqiqiy o'sish, foizda | 143,5 | 125,9 | 112,8 | 114,8 | 122,6 | 121,3 |

Ushbu jadval ma'lumotlari keyingi yillarda holi jon boshiga daromadlar, ish haqi va pensiyalar miqdorining o'sish sur'atlarining pasayganligini ko'rsatmoqda. Ammo tahlil davrida, ya'ni 2016 yilda 2000 yilning mos davri darajasiga nisbatan o'rtacha aholi jon boshiga daromadlarning haqiqiy o'sishi 11,7 martani, o'rtacha ish haqining haqiqiy o'sishi 23,6 martani va pensiya miqdorining haqiqiy o'sishi 18,1 martani tashkil etdi⁸⁶.

Aholining daromadlar tarkibida yollanma ishchilarining daromadlari ulushi 2010-2021 yillarda 45,0% dan 27,6% ga

⁸⁵ Узбекистон Республикасида ахоли турмуш даражаси ва фаровонлигининг ривожланиши таҳлили. 21/07/2017 //stat.uz; Социально-экономическое положение Республики Узбекистан за 2017год. – Т.Госкомстат РУз. – 2018.-С.158, 164, 166; Узбекистон Республикасининг иктиномий-иктиносий ҳолати. 2018 йил январь-декабрь. – Т. ДСК. 2019.-266, 282, 292-бетлар; Узбекистон Республикасининг иктиномий-иктиносий ҳолати. 2020 йил январь-декабрь. – Т. ДСК. 2021. – 393, 289-бетлар; маълумотлари асосида тузила.

⁸⁶ АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ УРОВНЯ ЖИЗНИ И БЛАГОСОСТОЯНИЯ НАСЕЛЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН //stat.uz

kamaydi, mustaqil ravishda band bo'lishdan olingen daromadlar ulushi 25,0% dan 37,4% ga o'sdi (10.5.2-jadval).

10.5.2-jadval

Aholining umumiy daromadi tarkibi (%) da⁸⁷

| | 2005 y. | 2010 y. | 2016 y. | 2017 y. | 2018 y. | 2019 y. | 2021 y. |
|---|------------|------------|------------|------------|------------|------------|------------|
| Umumiy daromadlar , jami | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 |
| <u>Shu jumladan:</u> | | | | | | | |
| Birlamchi daromadlar | 71,6 | 74,2 | 79,7 | 75,2 | 76,5 | 74,7 | 73,7 |
| Ishlab chiqarishdan olingen daromadlar | 69,2 | 71,8 | 75,7 | 71,0 | 72,9 | 71,2 | 71,3 |
| Mehnat faoliyatidan olingen daromadlar | 67,3 | 70,0 | 73,3 | 68,8 | 71,1 | 69,1 | 65,0 |
| Yollanma ishchilarining daromadlari | 41,5 | 45,0 | 38,9 | 34,3 | 34,5 | 27,1 | 27,6 |
| Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingen daromadlar | 25,8 | 25,0 | 34,4 | 34,5 | 36,6 | 39,0 | 37,4 |
| Shaxsiy iste'mol uchun ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingen daromadlar | 1,9 | 1,8 | 2,4 | 2,2 | 1,8 | 2,1 | 6,5 |
| Mol-mulkdan olingen daromadlar | 2,4 | 2,4 | 4,0 | 4,2 | 3,5 | 3,5 | 2,2 |
| Transferlardan olingen daromadlar | 28,4 | 25,8 | 20,3 | 24,8 | 23,5 | 25,3 | 26,3 |
| Umumiy daromadlar tarkibida kichik tadbirkorlikdan olingen daromadlar | 49,8 | 47,1 | 55,2 | 57,1 | 62,6 | 59,5 | 58,0 |

Aholining tadbirkorlik faoliyatidan, mulki va mustaqil ravishda bandlikdan olinadigan daromadlari tez sur'atlar bilan o'smoqda. Buning oqibatida o'rta sinf ko'lani tobora kengayib bormoqda.

⁸⁷ Ўзбекистон Республикасида аҳоли турмуш дарожаси ва фаровоилигининг ривожланиши таҳсилни. 21/07/2017 : statuz; Ўзбекистон Республикаси Йиллик статистик тўплами 2010-2016 йиллар. – Т: Ўз Р давлат статистики кўмитаси. 2017. – 56-бет; Социально-экономическое положение Республики Узбекистан за 2017 год. – Т. Госкомстат РУз. 2018.-С.162; Ўзбекистондик ижтимоий ривожланиши ва турмуш дарожаси. 2014-2017 йиллар. – Т., 2018. – 61-бет; Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-ижтисодий ҳолати. 2018 йил январ-декабр. – Т., ДСК. 2019. – 274, 289-бетлар; O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-ijtisodiy holatlari. 2021yil yanvar-dekabr. – Т., DSQ. 2022. – 368-bet ma'lumotlari asosida nuwallif tomonidan tuzilgan.

Bozor munosabatlari tizimi teng imkoniyatlar beradi, lekin u kishilarning ishlab pul topish qobiliyatlarini ijtimoiy maqomini tenglashtira olmaydi. Bu qobiliyat tabiiy, chunki kishilarning aql-idroki va kuch-quvvati har xil bo'ladi. Biroq ozmi-ko'pmi bir xildagi tug'ma qobiliyatlarning yuzaga chiqishi ijtimoiy muhitga, kishilarning ijtimoiy holatiga ham bog'liq bo'ladi. Shu jihatdan olganda, inson kapitaliga investitsiyalar ko'p kiritilgan yerda (masalan, rivojlangan mamlakatda) tug'ma qobiliyat to'laroq yuzaga chiqadi. Ijtimoiy tabaqalashuvga kishilarning qaysi ijtimoiy guruhga mansubligi ham ta'sir qiladi. Qobiliyatlarni yuzaga chiqarish darajasi mamlakatlarning rivojlanish modeliga ham bog'liq.

Ijtimoiy tabaqalanihning yana bir omili oilaning demografik tarkibidir. Oilada pul topuvchilar qanchalik ko'p bo'lib, boqimandalar oz bo'lsa, bu yerda jon boshiga to'g'ri keladigan daromad shunchalik ko'p bo'ladi. Aholini daromadi va turinush darajasi jihatidan bo'lish ma'lum ierarxiyani hosil etadiki, buni daromadlar piramidasida ko'rish mumkin. Bu piramida besh pog'onali (o'ta boylar, boylar, o'rta hollar, kambag'allar va o'ta kambag'allar – qashshoqlar) yoki uch pog'onali (boylar, o'rta hollar va kambag'allar) bo'lishi mumkin. Bunday tabaqalashuvni bozor qonunlarining o'zi taqozo etadi. Uning salbiy tomoni ijtimoiy to'qnashuv ehtiinoli bo'lsa, ijobiyligi boylar iste'molining oshkora samarasidir. Ya'ni boylar iste'moli namuna sifatida boshqalarni faol bo'lishga undaydi, natijada iqtisodiy o'sish yuz berib, iste'moldagi tafovutlar qisqarishga moyil bo'ladi. Iste'moldagi farqlar saqlansa-da, ular miqdorda emas, balki sifatda qoladi.

Jini koefitsienti (**Jini indeksi**) – aholining turli guruhlari daromadlari darajasidagi tafovutni (differensiyalashuvni) aks ettiradi. Bunda Lorens egri chizig'ining bissektrisadan uzoqlashishini o'lchaganda tengsizlik darajasini ifodalaydigan ko'rsatkich olinadi. Mazkur ko'rsatkich iqtisodiy adabiyotlarda daromadlarning markazlashishi koefitsienti yoki Jini koefitsienti (**Jini indeksi**) nomini olgan. Bu ko'rsatkich muayyan mamlakat yoki mintaqadagi jamiyatning biror belgi (masalan, hozirgi davr iqtisodiy hisob - kitoblarda eng ko'p

qo'llanadigan yillik daromad darajasi) bo'yicha tabaqalanishi darajasidan dalolat beradigan statistika ko'rsatkichidir. Ushbu ko'rsatkich 1912 yilda italiyalik statistikachi olim va demograf Korrado Jinining (1884-1965) "O'zgarish va nodoimiylik" deb nomlangan maslahur asarida asoslangan. Ushbu makroiqtisodiy ko'rsatkich aholi pul daromadlari taqsimlanishini, xususan daromadlarning mamlakat barcha aholisi o'rtasida mutlaq teng taqsimlanishidagi farqi darajasini ifodalaydi. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotiga a'zo mamlakatlar uchun taklif etilgan tasniflashga muvofiq tengsizlikning quyidagi darajalari farqlanadi: 1) *tengsizlikning eng quyi darajasidagi iqtisodiyot (Jini koeffitsienti 0,20- 0,22 ga teng)*; 2) *tengsizlik darajasi past iqtisodiyot (0,24-0,26)*; 3) *tengsizlik darajasi o'rtacha iqtisodiyot (0,29-0,31)*; 4) *tengsizlik darajasi yuqori iqtisodiyot (0,33-0,35)*.

O'zbekistonda pul daromadlarining oshishi va aniq yo'naltirilgan ijtimoiy qo'llab -quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora - tadbirlar aholi barcha qatlamlarining o'rtacha daromadlarining izchil o'sib borishida muhim omil bo'lди. Natijada Jini koeffitsienti 1990-2019 yillarda 0,40 dan 0,260 ga pasaydi, bu esa iqtisodiy jihatdan taraqqiy topgan davlatlardagi o'rtacha ko'rsatkichga mos keladi. Bu indeks koronavirus pandemiysi va global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz ta'sirida 2020 yilda bu ko'rsatkich 0,276 ni, 2021 yilda 0,273 ni tashkil etdi (10.5.3-jadval).

10.5.3-jadval

O'zbekiston Respublikasi aholisi daromadlarining notekis taqsimlanishi

(uy xo'jaliklari tanlama kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan)

| Ko'rsatkich nomi | 2017y | 2018y | 2019y | 2020y | 2021y |
|--------------------|-------|-------|-------|-------|-------|
| Jini koeffitsienti | 0,262 | 0,262 | 0,262 | 0,276 | 0,273 |

O'zbekiston Respublikasi aholi daromadlarini aholining 10 foizli guruhlari bo'yicha notekis taqsimlanishini ifodalovchi desil koeffitsienti 2010 yildagi 8,5 dan 2015 yilda 7,0 ga, 2021 yilda 6,8ga pasaydi. 2010 yilda 1-3-desil guruhlariga kiruvchi aholining ulushi 13,7%ni tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilda ularning ulushi 14,6%ga, ya'ni 0,9 punktga o'sdi (qarang: 10.5.4-jadval).

10.5.4 -jadval

O'zbekiston Respublikasida aholi daromadlarini aholining 10 foizli guruhlari bo'yicha notekis taqsimlanishi (uy xo'jaliklari tanlama kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan)⁸⁸

(%da)

| Desil guruhlari | 2010y | 2015y | 2016y | 2017y | 2019y | 2020y | 2021y |
|---|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|
| I | 2,9 | 3,7 | 3,8 | 3,9 | 3,7 | 3,4 | 3,3 |
| II | 4,8 | 5,3 | 5,4 | 5,5 | 5,3 | 5,1 | 5,1 |
| III | 6,0 | 6,3 | 6,4 | 6,4 | 6,4 | 6,2 | 6,2 |
| IV | 6,9 | 7,2 | 7,3 | 7,2 | 7,3 | 7,1 | 7,2 |
| V | 7,9 | 8,0 | 8,1 | 8,1 | 8,2 | 8,1 | 8,2 |
| VI | 9,1 | 9,0 | 9,1 | 9,1 | 9,2 | 9,1 | 9,3 |
| VII | 10,5 | 10,0 | 10,2 | 10,2 | 10,5 | 10,5 | 10,6 |
| VIII | 12,2 | 11,4 | 11,5 | 11,6 | 12,1 | 12,1 | 12,5 |
| IX | 14,9 | 13,5 | 13,8 | 13,9 | 14,7 | 14,8 | 15,2 |
| X | 24,8 | 25,6 | 24,4 | 24,1 | 22,6 | 23,5 | 22,5 |
| Aholi daromadlarining 10% li guruhlar bo'yicha differensiatsiya koeffitsienti | 8,5 | 7,0 | 6,4 | 6,2 | 6,0 | 6,9 | 6,8 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, 4-8-desil guruhlari aholisi ulushi 2010 yildagi 46,6% ni, 2021 yilda 47,8%ni tashkil etdi. 2010 yilda 9-10- desil guruhlari aholisining ulushi 39,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilda ularning ulushi 37,7% ga kamaydi.

Aholi daromadlarining aholi 20 foizli guruhlari bo'yicha notekis taqsimlanishini tahlil qilish 1-guruh, ya'ni yuqori daromadli aholi guruhining ulushi 2017-2021 yillarda 9,3%dan 8,4%ga pasaydi. Bu hol koronavirus pandemiyasi va global moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'sirida yuz berdi (qarang: 10.5.5-jadval).

⁸⁸ O'zbekiston Respublikasi aholisi daromadlarini aholining 10 foizli guruhlari bo'yicha notekis taqsimlanishi (Uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, %da) // <http://stat.uz>

10.5.5-jadval

O'zbekiston Respublikasi aholi daromadlarini aholining 20 foizli guruhlari bo'yicha taqsimlanishi

(uy xo'jaliklari tanlama kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan)⁸⁹ %da

| Kvintel guruhlari | 2017y | 2018y | 2019y | 2020y | 2021y |
|-------------------|-------|-------|-------|-------|-------|
| I | 9,3 | 9,3 | 9,1 | 8,5 | 8,4 |
| II | 13,6 | 13,6 | 13,6 | 13,3 | 13,4 |
| III | 17,3 | 17,2 | 17,4 | 17,2 | 17,5 |
| IV | 21,8 | 22,0 | 22,6 | 22,6 | 23,0 |
| V | 37,9 | 37,8 | 37,3 | 38,3 | 37,6 |

Iqtisodiy adabiyotlarda **kambag'allik** – bu turmush kechirish, mehnat layoqatini saqlab turish, avlodlar uzviyligini davom ettirish uchun zarur bo'lgan eng kam ehtiyojlarni qondirish imkoniyatiga ega bo'limgan shaxs yoki ijtimoiy guruhlar iqtisodiy ahvolining ko'satkichi, ijtimoiy guruh yoki individning hayot uchun zarur bo'lgan eng kam ehtiyojlarini qondira olmasligining iqtisodiy sharoitini aks ettiruvchi xususiyat, deb ta'rif beriladi. Kambag'allik nisbiy tushuncha hisoblanib, har bir jamiyatdagi turinush darajasining umumiyligi standartiga bog'liq bo'ladi⁹⁰.

Kambag'allikni aniqlash konsepsiyalari jahon amaliyotida uchta bo'lib, ular quyidagilardan iborat: 1. *Kambag'allikning mutlaq konsepsiysi*. Ushbu konsepsiya kambag'allik chegarasi tushunchasi bilan uzviy bog'liqdir. Kambag'allik chegarasi mavjud daromad, yalpi daromad yoki iste'molning shunday darajasiki, bu darajadan past bo'lganda odam kambag'al hisoblanadi. Mutlaq kambag'allik ko'pincha iste'mol yoki daromad darjasini kambag'allik chegarasidan past bo'lgan odamlar yoki uy xo'jaliklari soni orqali o'lchanadi. Jahon banki mutlaq kambag'allik chegarasi sisfatida kuniga 1,25 AQSh dollari hisobiga (dollar kursi xarid qobiliyati pariteti bo'yicha hisoblanadi) kun kechirishni belgilab qo'ygan.

⁸⁹ O'zbekiston Respublikasi aholisi daromadlarini aholining 20 foizli guruhlari bo'yicha notejis taqsimlanishi (uy xo'jaliklari tanlama kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan)/STAT.UZ

⁹⁰ Абулқосимов Х.П., Абулқосимов М.Х. Иқтисодиётта онд атёма ва тушунчаларини изоҳи lug'ati/Абулқосимов Х.П., Абулқосимов М.Х.-Т.: "ABU MATBUOT-KONSALT", 2017.- 261-262-бетлар.

2. *Kambag'allikning nisbiy konsepsiysi*. Kambag'allikning nisbiy ko'rsatkichi kambag'allik nisbiy chegarasini belgilaydi va ahолining amaldagi daromadini ana shu darajaga nisbatan taqqoslaydi. Aholining real daromadlari ortib borayotgan sharoitda taqsimlash o'zgarmasa, nisbiy kambag'allik avvalgidek saqlanib qoladi. Bundan nisbiy kambag'allik konsepsiysi tengsizlik konsepsiyasining tarkibiy qismi degan xulosa chiqarish mumkin. Biroq bu tengsizlik qancha kam bo'lsa, nisbiy kambag'allik shunchalik kam bo'lishi ma'nosini bermaydi yoki aksincha. Nisbiy kambag'allik konsepsiyasining asoschisi, ingliz sotsiolog P.Taunsend bu kategoriyani iqtisodiy resurslarning yetishmasligi oqibatida mazkur jamiyat ko'pchilik a'zolari uchun odatiy turmush tarzini davom ettirishning imkoniyati bo'lmasligi sifatida ta'riflagan. U o'zining kambag'allikning tahlil etish usulini ko'p o'lchamli deprivatsiya tushunchasiga asoslagan. Bunday holatni u "shaxs, oila yoki guruhning jamiyat yoki umuman millat manzarasidagi kuzatilayotgan va asoslanadigan nochor ahvoli" sifatida tushuntirgan. P.Taunsend tomonidan ko'p o'lchamli deprivatsiya usuli qo'llanilib, unda moddiy deprivatsiyaga (ovqatlanish, kiyim-kechak, turar-joy sharoitlari, uzoq muddat foydalaniladigan ashyolar, yashash joyi muhiti, mehnat sharoitlari va xususiyatlari) ijtimoiy deprivatsiya ko'rsatkichlari (ish bilan bandlik, bo'sh vaqtini o'tkazish, ta'lim va hokazolar xususiyatlari) qo'shilgan.

3. *Subyektiv kambag'allik*. Mazkur konsepsiya ko'ra, faqat shaxsning o'zi kambag'alligini belgilashi mumkin. Sub'ektiv kambag'allik darajasini aniqlashga turli yondoshuvlar mavjud. Qancha odam o'zini yoki do'stlarini kambag'al deb hisoblashini aniqlasa bo'ladi. Shuningdek, ijtimoiy fikrga asoslangan holda sub'ektiv kambag'allik chegarasini aniqlash, shundan so'ng uni aholi daromadi bilan taqqoslash mumkin⁹¹.

⁹¹ Иисон тараккиётни. Дарслик: и.ф.д., проф. Қ.Х.Абдурахмонов таҳрири остида.-Т.: "Fan va texnologiya", 2013.-228-230-бетлар; Абулқосимов Ҳ.П., Абулқосимов М.Ҳ. Иктисодиг'етга онц атамалар ва тупуңчларнинг изоҳи лутати. Ўкув қўйланима. Абулқосимов Ҳ.П., Абулқосимов М.Ҳ. – Т: "ABU МАТБУОТ-KONSALT",2017.- 263-264-бетлар.

Kambag'allikning mutlaq darajasi – bu turmush kechirishning eng quyi darajasi hisoblanib, insonnинг o'zining asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun hayotiy zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak, turar-joy va hokazolar bo'yicha aniqlanadi.

Kambag'allikning nisbiy darajasi – bu ushbu davlat (mintaqada) turmush kechirishning o'rtacha darajasi uchun talab qilinadigan iste'mol savatining eng kam miqdori darajasini ko'rsatadi. Nisbiy kambag'allik faqat jismoniy ehtiyojlarnigina emas, balki ijtimoiy ehtiyojlarni ham hisobga oladi⁹².

Kambag'allikning partitsipator baholari (KPB) – kambag'allikning kishilar o'zlarining chorasizligi va ijtimoiy kamsitilishini qabul qilishini nazarda tutadigan sifatiy jihatlarini qayd etish uchun partitsipator tadqiqotlar usulidan foydalanish metodi. Kambag'allik darajasi va uni bartaraf etish uchun qanday chora-tadbirlar ko'rish zarur ekanligini aniqlash va tahlil qilish uchun aholining yo'qsil, nochor qatlamlari va ularning jamoalarini jalb qilishda KPB juda foydali vositalardir⁹³.

Kambag'allik sabablari turlicha bo'lib, ular quyidagi guruhlardan iborat:

- a) *iqtisodiy* (ishsizlik, ish haqining kamligi, mehnat unumdarligining pastligi, tarmoqning raqobatbardosh emasligi);
- b) *ijtimoiy-tibbiy* (nogironlik, qarilik, kasallanish darajasining yuqoriligi); v) *demografik* (to'la bo'limgan oilalar, oleda boqimandalarning ko'pligi); g) *ijtimoiy-iqtisodiy* (ijtimoiy kafoladalar darajasining pastligi);
- d) *ta'lim-malaka* (ta'lim darajasining pastligi, kasbiy tayyoragarlikning yetarli emasligi); ye) *siyosiy* (harbiy mojaroler, majburiy migratsiya); yo) *mintaqaviy-jo'g'rosiy* (mintaqalarning bir xil rivojlanmaganligi).

⁹² Иисоп Таракийёти. Дарслек: и.ф.д., проф. К.Х.Абдурахмонов таҳқирит остида.-Т.: "Fan va texnologiya", 2013-230-бет. Ijtimoiy siosat O'quv qo'llanma. I.f.d., prof. A.V.Vaxabovning imzaniy tahtiri остида.-Toshkent: "MUMTOS SO'Z", 2019-131-bet.

⁹³ Абулқосимов Ҳ.П., Абулқосимов М.Ҳ. Истисодиётга онд атамалар ва тушунчаларини изъязи тифори. Ўқуб кўлланима. Тузувчилар: Абулқосимов Ҳ.П., Абулқосимов М.Ҳ. – Т: "ARU MATERIOT-KONSALT", 2017.- 264-бет.

Jahon banki mutlaq kambag‘allik chegarasi sifatida kuniga 1,25 AQSh dollari hisobiga (dollar kursi xarid qobiliyati pariteti bo‘yicha hisoblanadi) kun kechirishni belgilab qo‘ygan. Jahon bankingning kambag‘allikni baholash metodologiyasiga ko‘ra, 2017 yildan boshlab kishining kunlik daromadi 1,9 dollardan kam bo‘lsa, u kambag‘al hisoblanadi. Tashkilot tomonidan berilgan ma‘lumotga ko‘ra 2018 yilda dunyo aholisining taxminan 10% ga yaqini kambag‘allik darajasida hayot kechirmoqda⁹⁴. Kambag‘allik chegarasi quyi o‘rta daromadli mamlakatlar uchun kuniga 3,6 doll., o‘rta daromadli mamlakatlar uchun esa kuniga 5,5 dollarni tashkil etadi.

Milliy kambag‘allik chegarasi — bu mazkur davlat tomonidan rasmiy maqbul deb hisoblangan kambag‘allik chegarasidir. Milliy darajadagi baholash ko‘rsatkichlari uy xo‘jaliklari daromadlarini sharhlash natijalariga ko‘ra aholi kichik guruhlarini tadqiq qilishi asosida amalga oshiriladi. Masalan, Median daromadning 50 foizi — uy xo‘jaliklari ixtiyoridagi median daromadning 50 foizi⁹⁵.

Qator mamlakatlarda mutloq qashshoqlik ko‘rsatkichi o‘rnida xayot kechirish minimumi ko‘rsatkichi qabul qilingan. Turli mamlakatlarda bu ko‘rsatkich turlichadir. Qashshoqlik jihatini o‘rtacha ish haqiga nisbatan foiz ko‘rinishda aniqlash mezoni keng tarqalgan. Masalan, Bolgariyada hayot kechirish minimumi o‘rtacha ish haqining 53-65% ga teng, Chexiyada 55-56% ga, Polshada 36% ga teng. Keltirilgan ko‘rsatkichdan kam daromadga ega bo‘lganlar qashshoqlar toifasiga kiritiladi⁹⁶.

Jahon banki va YuNISEF birgalikda 2018 yilda amalga oshirgan respublikamizning 4000 uy xo‘jaligini qamrab olgan ijtimoiy so‘rov natijalariga ko‘ra aholining 76%ning oylik daromadi 460750 so‘mni (56,0 AQSh dollarini), bir kunlik daromadi 15700 so‘mni (1,90 AQSh dollarini) tashkil etgan. Bundan tashqari 30%

⁹⁴ Ijtimoiy siosat. O‘quv qo‘llanma. If.d., prof. A.V.Vaxabovning umumiy tahriri ostida. -Toshkent: "MUMTOS SO‘Z", 2019.-136- bet.

⁹⁵ Абулқосимов Ҳ.П., Абулқосимов М.Ҳ. Иктисодийга оид атамалар ва тушунчаларнинг изоҳи ўзати. Ўкув Қўйламида Туузычилар: Абулқосимов Ҳ.П., Абулқосимов М.Ҳ. – Т.“АБУ МАТБУОТ-KONSALT”.2017.- 262-263-бетлар.

⁹⁶ Абулқосимов М.Ҳ. Камбагалликка карши кураш-шахс иктисодий хавфензилитги таъмимлашингт мухим бўйичини // Ж. Иктисад ва молия /Экономика и финансы, 2020г. 2-сон.136-бет.

aholining jon boshiga oylik daromadi eng kam ish haqi miqdoridan past bo'lgan, ya'ni bir kishiga bir oyda 184300 so'm (22,50 AQSh dollari), bir kunlik 6150 so'm (0,75 AQSh dollari) to'g'ri kelgan. Agar kambag'allik darajasi median daromadning 50% miqdorida belgilansa, bu ko'rsatkich 21%ni tashkil etgan bo'lur edi⁹⁷.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida birinchi marta manlakatimizda kambag'al aholi qatlami borligini, ular aholining taxminan 12-15 foizini, ya'ni 4-5 million kishini tashkil etishini ta'kidladi⁹⁸. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi tomonidan (uy xo'jaliklari tanlama kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan kam ta'minlangan aholi uning umumiy sonidagi ulushi 2001 yildagi 27,5%dan 2016 yilda 12,3%ga, 2019 yilda 11,0%ga kamaygan. Ammo koronavirus pandemiyasi va global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz tufayli 2020 yilda 2019 yilga nisbatan birmuncha o'sib, 11,5%ni tashkil etdi.(10.5.6-jadval).

10.5.6-jadval

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy muhtoj aholi ulushi* (uy xo'jaliklari tanlama kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan)⁹⁹

| | 2001y | 2010y | 2016y | 2017y | 2018y | 2019y | 2020y |
|------------------------------------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|
| Kam ta'minlangan aholi ulushi,% | 27,5 | 17,7 | 12,3 | 11,9 | 11,4 | 11,0 | 11,5 |

* Jahon banki tavsiyasiga ko'ra kam ta'minlanganlik darajasi ko'rsatkichi kunlik 2100 kkal dan kelib chiqib hisoblangan.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi O'zbekistonda kishi boshiga minimal iste'mol xarajatlari 440 ming so'm etib belgilangani, oyiga shundan kam pul topgan o'zbekistonlik nochor hisoblanishini ma'lum qilgandi. Jahon banking Markaziy Osiyodagi qashshoqlik va tenglik bo'yicha dasturi menejeri Uilyam Zeyts AOKAda bo'lib o'tadigan matbuot anjumanida

⁹⁷ Построение системы социальной защиты, соответствующей интересам детей и молодежи в Узбекистане. ЮНИСЕФ, 2019 г.-С 16 // www.unicef.org/publications

⁹⁸ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевининг Олий Majlisiga murojaatnoması. 2020 йил 24 январи./Халқ сўзи, 2020 йил 25 январь.

⁹⁹ O'zbekiston Respublikasida kam ta'minlangan aholi ulushi (uy xo'jaliklari tanlama kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan)/stat.uz

bugungi kunda e'lon qilingan yangi kambag'allik chegarasi O'zbekistondagi kabi daromad darajasi o'xshash mamlakatlarga qaraganda birmuncha yuqori. Bu shuni anglatadiki, ushbu yangi chegara yuqorida aytib o'tilgan mamlakatlar guruhiга qaraganda ancha ko'proq maqsadlarni qamrab oladi hamda hukumat o'z oldiga ancha yuqori maqsadlarni qo'yemoqda, deb o'z fikrini bildirgan¹⁰⁰.

10.6. Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ijtimoiy himoyalash

Ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti to'la-to'kis ham bozor iqtisodiyoti, ham ijtimoiy iqtisodiyot hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotini ijtimoiy yo'naltirish zaruriyat, albatta, inson manfaatidan kelib chiqadi. Bozorning shunday oqibatlari borki, bunda ma'lum toifa himoyaga muhtoj bo'lib qoladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan va ish topishda qiynalayotgan hamda mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar **aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini tashkil etadi**. Shuning uchun ham sivilizatsiya ijtimoiy himoya tizimini talab qiladi.

Ijtimoiy himoyalashdagi muhim masala aholini bozor bahosining tez o'sishi, inflyatsiya ta'siridan himoya etish va buning oldini olish bilan bog'liqdir. Ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida tovar va xizmatlar narxining ko'tarilishi to'xtatib bo'lmaydigan holatdir. Bunda oylik ish haqi va belgilangan daromadga ega bo'lganlarni o'sib borayotgan tovarlar va xizmatlar narxining salbiy ta'siridan muhofaza etish yirik ijtimoiy muammodir. Ayniqsa, pensioner va nafaqaxo'rlar, talabalar ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'ladi.

Bunda vaqtı-vaqtı bilan maosh, stipendiya, nafaqalar miqdorini bir oz oshirish masalani hal qilmaydi. Shuning uchun indeksatsiya

¹⁰⁰ «Узбекистон эълон килинг қашшоқлик чегараси унга ўхшаш мамлакатларнидан югори» — Жадон банки эксперти/<https://kun.uz/news/2021/05/31/uzbekiston-elon-qilgan-qashshoqlik-chegarasi-unga-oxshash-mamlakatlarnidan-yuqori-jahon-banki-eksporti>

usulini qo'llash yuz beradigan og'irlikni biroz yumshatib, turmush darajasiga bo'lgan og'ir ta'sirni yengillashtiradi. Chunki qabul qilinadigan indekslar tufayli daromad narx-navo darajasiga qarab o'zgarib turadi hamda ko'tarilayotgan baholar keltiradigan zararlarning asosiy qisimini qoplab boradi.

Bundan tashqari, bozor narxlardan himoya qilishda ta'minotning alohida usullarini qo'llash ahvolni yumshatishga yordam beradi. Masalan, aholining ayrim tabaqalari uchun maxsus ta'minot tayinlash yoki vaqtiga qo'llash bilan oziq-ovqat va sanoat mollari tarqatish kabi usullardan rivojlangan mamlakatlarda foydalaniladi.

Ijtimoiy himoya yuqorida qayd qilingan usullar bilan chegaralanmaydi, sharoitga qarab aniq shakllarni topib, ularni qo'llab boradi. Ayniqsa, kam daromadlilarni bozorning salbiy ta'siridan asrash va turmush darajasining pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslik davlatning muhim vazifasidir. O'zbekiston iqtisodiyotini tubdan isloh qilishga beshta muhim tamoyilni asos qilib olingandi. Ulardan biri demografiya sohasidagi real ahvolni, aholining turmush darajasini hisobga olgan holda ularni ijtimoiy himoyalash yuzasidan zarur chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iboratdir.

Davlat ijtimoiy siyosatida aholini ijtimoiy himoyalashning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- davlat ijtimoiy iste'mol fondlarini tashkil etish va ulardan jamiyatning har bir a'zosi foydalanishini kafolatlaydigan qonunlarni qabul qilish;
- davlatning markazlashgan ijtimoiy sug'urta fondini tashkil etish;
- ko'rsatilgan xizmatlar va samarali mehnatlari uchun davlat tomonidan beriladigan imtiyozlar;
- ish haqi va pensiya minimumining davlat tomonidan kafolatlanishi;
- ko'p bolali oilalarga to'lanadigan nafaqalar;
- kam ta'minlangan aholi tabaqalariiga moddiy yordam ko'rsatish;
- bolalikdan nogiron va boshqa mehnat qobiliyatini yo'qotganlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash;
- talabalar uchun to'lanadigan davlat stipendiyalari;

- ishsizlik nafaqasi;
- eng muhim oziq-ovqat mahsulotlari turlarining belgilangan narxlarda sotilishini ta'minlash;
- ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xizmatlar bahosidagi farqlarni budjet hisobidan qoplash;
- ijtimoiy sohaning eng muhim tarmoqlari (sog'liqni saqlash, ta'lim, jismoniy tarbiya, sport va madaniyat) moddiy bazasini qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida yaqinda Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tashkil etildi. Mazkur vazirlik fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish instituti faoliyatini muvofiqlashtiruvchi mas'ul davlat organi sifatida ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta'minlangan qatlamlarini aniqlash va manzilli ko'mak berish borasida samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 yanvardagi «Aholi muammolari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Farmonida xalq Xalq qabulxonalarini hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar, davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan birgalikda uyma-uy yurish, ijtimoiy va boshqa ob'ektlarni o'rghanish orqali muammolarni aniqlash, ularga yechim topishga qaratilgan tizim joriy qilindi.

Xalq orasida «Temir daftar» deb nomlangan kambag'al oilalar reestrini tuzishda kambag'al oilalarni uyma-uy o'rghanish asosida, aholining ijtimoiy zaif qatlamlari muammolari ham hisobga olindi. Mazkur reestr kambag'allikni kamaytirish va sektorlar kesiimida aholi farovonligini oshirish bo'yicha maqsadli dasturga asos bo'ldi. Aholi uchun hayotiy muhim ahamiyatga ega bo'lgan mahalliy darajada hal qilinmagan muammolar viloyat yoki respublika darajalariga o'tkazildi.

2019 yilda butun mamlakat bo'ylab 6,1 milliondan ortiq xonadonda aholining muammolarini o'rghanish uchun tuzilgan ishchi guruqlar tomonidan o'rghanishlar o'tkazildi. Fuqarolar bilan o'tkazilgan so'rovlari

natijasida hal qilinishini talab etiladigan 935,6 mingta muammo aniqlanib, ularning aksariyati hal qilindi. Aholi uchun eng og'riqli muammolar orasida: suyultirilgan gaz ta'minoti (respondentlarning 18,9 foizi), bandlik (11 foiz), sog'liqni saqlash (8,5 foiz), elektr energiyasi ta'minoti (8,1 foiz), bank kreditlari (7 foiz), moddiy yordam (5,7 foiz), ichimlik suvi (5,5 foiz), kadastr masalalari (5,3 foiz), uy-joy (4,4 foiz), tabiiy gaz (3,4 foiz), ko'mir ta'minoti (2,3 foiz), pasport nazorati (2,1 foiz) va maktabgacha ta'limga oid masalalar (1,5 foiz) o'rinciga olgan.

2020 yilda temir daftар ro'yxatlariga 1,7 milliondan ortiq a'zosi bo'lgan 400 mingdan ortiq oila kiritildi. Ushbu oilalarga bir martalik ko'mak berish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Koronavirus pandemiyasi davrida yordam va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini moddiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2020 yil 30 iyuldagи PF-6038-son Farmoni bilan respublika budjetidan 380 milliard so'm mablag' ajratildi. Moddiy ko'mak miqdori har bir oila a'zosi uchun 220 ming so'm miqdorida etib belgilandi.

2020 yilda, pandemiya bilan bog'liq qator cheklovlar natijasida aholi turmush darajasi sohasida vaziyat yanada murakkablashdi. Shu bois ijtimoiy muammolarni aniqlash ishlari yanada muhim ahamiyat kasb etib, faol davom ettirilmoqda. Joriy yilning 1 avgust holatiga ko'ra, aholini ijtimoiy himoya qilish masalalari bo'yicha murojaatlар soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan ikki baravar ko'paydi. Shuningdek, moddiy yordam va ijtimoiy nafaqalarni olish uchun arizalar soni ijtimoiy himoyaga murojaat etuvchilarining umumiy sonining 48 foizini tashkil etdi, bu o'tgan yilga nisbatan 1,9 baravar ko'p.

Endilikda kuchli ijtimoiy siyosat aholining ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishga, ishonchli, aniq manzilli, ya'ni shunga muhtoj aholi guruhlarini ijtimoiy himoya qilishga qaratiladi. Buning uchun aholi daromadlari va mehnat haqlarining faol iqtisodiy faoliyatni rag'batlanirishdagi rolini oshirish lozim bo'ladi. Shuningdek, aholining oqilona, samarali ish bilan bandligini ta'minlash ham muhim ahamiyat

kasb etadi. Buning uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish, iqtisodiyotning aniq sektorida yangi ish o'rinalarini yaratish, mehnat bozori infratuzilmalari, shu jumladan, mehnat birjalari faoliyati samaradorligini oshirish lozim bo'ladi. Kam ta'minlangan aholini maqsadli, ishonchli ijtimoiy himoyalash uchun, avvalambor, aniq ehtiyojlardan va imkoniyatlardan kelib chiqqan holda muhtoj oilalarga subsidiya, mikrokreditlar berish, ularga mikrofirma, kichik korxona, fermer xo'jaliklarini tashkil etishlari uchun sharoitlar yaratish kerak bo'ladi.

Davlat turli soliq, kredit imtiyozlari tizimini yaratish orqali fuqarolarning, jamoat tashkilotlari hamda xo'jalik subyektlarining homiylik, xayriya ishlariga mablag'lar ajratishlarini rag'batlantirish chora-tadbirlarini kuchaytirishi ham maqsadga muvofiqdir.

Ijtimoiy himoya tizimida mehnat jamoalari ham muhim rol o'yinaydi. Mehnat jamoalari o'z xodimlarini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashi quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- ◆ Mehnat jamoasi tomonidan ijtimoiy himoya qilish uchun huquqiy sharoitlarning yaratilishi;
- ◆ iqtisodiy ahvoli nochor xodimlarga vaqtinchalik yordam ko'rsatish;
- ◆ yaxshi ishlagan xodimlarga turli imtiyozlar yaratish;
- ◆ xodimlarning mehnat sharoitlarini yaxshilash, ishlab chiqarishni insonparvarlashtirish;
- ◆ xodimlarni imtiyozli asosda uy-joy bilan ta'minlash;
- ◆ xodimlarning malakasini oshirish, yangi ixtisoslikka o'qitish bilan bog'liq xarajatlar;
- ◆ korxona xodimlarning sog'lig'ini mustahkamlash:
 - a) tibbiy xizmat ko'rsatishni tashkil etish yoki tibbiy sug'urta qilish;
 - b) og'ir mehnat sharoitda ishlaydiganlarga turli imtiyozlar yaratish;
 - v) xodimlarning dam olish va hordiq chiqarishni tashkil etish bilan bog'liq xarajatlar qilish.

Endilikda aholini ijtimoiy himoyalash, uning samarasini oshirishning quyidagi muhim vazifalarini amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- ♦ Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash asosida barqaror va mutanosib o'sishini ta'minlash;
- ♦ davlat mablag'lari bilan bir qatorda mehnat jamoalari, jamoat va hayriya tashkilotlari va jamg'armalarining mablag'larini keng jalgilish;
- ♦ odamlarning kuch va qobiliyatlari to'la- to'kis faollashuvini ta'minlashga qodir bo'lgan kuchli mexanizmni vujudga keltirish;
- ♦ xususiy mulk miqiyoslarini kengaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirdorlikning rivojlanishini rag'batlantirish;
- ♦ aholining daromadlari va turmush darajasida asossiz katta farqlarga yo'l qo'ymaslik. Jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydigan o'rta mulkdorlar qatlamini shakllantirish;
- ♦ kambag'allikka, qashshoqlikka qarshi kurash. Aholining eng muhtoj qatlaming davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini kuchaytirish.

10.7. Ijtimoiy xizmatlar sohalarining rivojlanishi

Iqtisodiyotning jadal rivojlanishi mamlakatda tub ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishga va ijtimoiy sohada katta yutuqlarga erishishga zamin yaratadi. Ijtimoiy sohalarning , shu jumladan ta'lim tizimining rivojlanishi inson kapitalini shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir.

Inson kapitalining shakllanishi maktabgacha ta'lim muassalari tizimining rivojlanishi darajasiga ham bog'liqdir. Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida 1-6 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi ko'rsatkichi 2010 yildagi 15,4% dan 2021 yilda 29,4% ga o'sdi. Inson kapitalini rivojlanishining ta'lim ko'rsatkichlaridan umumta'lim muassasalarining soni va ulardagi o'quvchilar soni 2000/2001 o'quv yilidan 2016/2017

o'quv yiliga kamayib borgan bo'lsa, 2017/2018 y o'quv yildan boshlab umumta'lim mакtablarida 11 yillik ta'limning joriy etilishi bilan ularning soni o'sib borish tendensiyasiga ega bo'ldi (qarang: 10.7.1-jadval).

10.7.1-jadval.

Inson kapitali rivojlanishining ta'lim ko'rsatkichlari¹⁰¹

| Ta'lim ko'rsatkichlari | 2000/ 2001y | 2010/ 2011y | 2016/ 2017y | 2017/ 2018y | 2018/ 2019y | 2021/ 2022y |
|---|----------------|----------------|----------------|----------------|----------------|----------------|
| Umumta'lim muassalari (o'quv yili boshida) soni | 9802 | 9806 | 9719 | 9718 | 9774 | 10289 |
| Ularda o'quvchilar soni, ming kishi | 6037,4 | 4695,3 | 4825 | 5271 | 5850,9 | 6304,6 |
| O'rta maxsus kasb-hunar ta'lim muassalari soni | 481 | 1507 | 1566 | 1556 | 1537 | 827 |
| Ularda o'quvchilar soni, ming kishi | 324,1 | 1510,8 | 1459,4 | 1163,2 | 728,1 | 404,5 |
| 10 000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari, kishi | 102 | 540 | 454 | 359 | 223 | 115 |
| Oliy ta'lim muassasalari soni, jami | 61 | 65 | 70 | 72 | 98 | 154 |
| Shu jumladan, xorijiy oliy ta'lim muassasalari filiallari | - | 6 | 7 | 7 | 9 | 25 |
| Talabalar soni, ming kishi | 183,6 | 274,5 | 268,3 | 297,7 | 360,2 | 808,4 |
| 10 000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan oliy ta'lim muassasalari talabalari | 74 | 94 | 84 | 93 | 110 | 229 |

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari soning keyingi yillarda kamishi hisobiga o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim muassalari va ulardag'i o'quvchilar soni ham kamaydi. Oliy ta'limni rivojlantirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi oqibatida ularning soni 2021/2022 o'quv yili boshida 154 taga, ulardag'i talabalar soni esa 808,4 mingga yetdi. 10 000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan oliy ta'lim muassasalari talabalari soni

¹⁰¹ Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари асосида тузниди.

2021/2022 o'quv yili boshida 229 kishini tashkil etdi. Bu hol inson kapitalini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarning yaxshilanayotganligidan dalolat beradi.

Ta'lim tizimida bir qancha kamchiliklar mavjud bo'lib, ular inson kapitalini shakllantirishda to'siq bo'limoqda. Jumladan, xalq ta'limida:

- umumta'lim muassasalariga yuklatilgan vazifalarning deklarativ xarakterga egaligi, ularni amalga oshirish bo'yicha tashkiliy-huquqiy mexanizmlarning yetishmasligi amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;

- o'quvchilar soni quvvatiga nisbatan kam bo'lgan mакtablarda kadrlar tarkibi salohiyati pastligi tufayli talab darajasidagi ta'lom sifati ta'minlanmayapti; ayrim mакtablarda o'quvchilar soni sinda o'quv jarayoni sifatining keskin pasayishiga olib keladigan darajada oshib ketgan;

- mакtablarning 28 foizida qo'shimcha jihozlashga ehtiyoj mavjud, ishlatilayotgan jihozlarning 50 foizi ma'nан va jismonan eskirganligi uchun almashtirilishi kerak;

- 2907 ta umumta'lim mакtabi qurilish-ta'mirlash ishlariga muhtoj;
- 11 yillik ta'lom tizimiga o'tilishi munosabati bilan qo'shimcha o'quvchi o'rinalariga ehtiyoj mavjud;

- xalq ta'lomi muassasalariga davlat budgetidan ajratilgan xarajatlarning asosiy qismini ish haqiga sarflanib, o'quv jihozlari va materiallarini yangilashga, mакtab binolarini ta'mirlashga yetarli mablag' yo'naltirilmayapti.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-sон Farmoniga 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi" siga muvofiq quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilangan:

O'zbekiston Respublikasining 2030 yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahoning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish;

uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish;

xalq ta'limi muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va budjetdan mablag' bilan ta'minlashning samaradorligini oshirish;

yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta'minlashda maktabdan tashqari ta'limning zamonaviy usullari va yo'nalishlarini joriy etish;

davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish hisobiga davlat ta'lim tizimida raqobat muhitini kengaytirish;

yoshlar ta'limi-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyatga tatbiq etish;

xalq ta'limi tizimida faoliyat ko'rsatishning jozibadorligini oshirish maqsadida umumiy o'rta ta'lim muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to'lash, moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilish darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-sod Farmoni bilan tasdiqlangan "**O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi**"da quyidagi kamchiliklar ko'rsatilgan:

oliy ta'lim muassalarida ta'lim sifatining pastligi;

oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyati atigi 36,4 foizni tashkil etmoqda;

ilmiy darajaga ega xodimlarning o'rtacha yoshi 49 bo'lib (fan doktorlari — 56 yosh, falsafa doktorlari va fan nomzodlari — 43 yosh), yuqoriligicha qolmoqda, fan doktorlari orasida nafaqa yoshidagilarning ulushi 45 foizni tashkil etmoqda;

ilmiy-tadqiqot ishlari ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlaridagi mavjud muammolar yechimiga qaratilmagan;

so'nggi yillarda nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalarga iqtiboslar soni kamaymoqda;

ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanayotgan professor-o'qituvchilar, ilmiy xodimlar va yosh olimlar faoliyatini rag'batlantirishning ta'sirchan mexanizmlari yaratilmagan va boshqalar.

Konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali O'zbekiston Respublikasi oliv ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirishda quyidagi natijalarga erishish nazarda tutilmoqda:

oliv ta'lif sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliv ta'lif muassasalarini, shu jumladan nufuzli xorijiy oliv ta'lif muassasalarini filiallari faoliyatini tashkil etish asosida oliv ta'lif bilan qamrov darajasining 50 foizdan yuqori bo'lishi ta'minlanadi, sohada raqobat muhitini yaratiladi;

O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini mamlakatiimiz oliv ta'lif muassasalarining flagmaniga aylantiriladi;

respublikadagi kamida 10 ta oliv ta'lif muassasasi xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000 ta o'rindagi oliv ta'lif muassasalarini ro'yxatiga, shu jumladan O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetining birinchi 500 ta o'rindagi oliv ta'lif muassasalarini ro'yxatiga kirishiga erishiladi;

kredit-modul tizimi joriy etiladigan oliv ta'lif muassasalarini ulushi 85%ga yetkaziladi;

muhandislik-texnik ta'lif yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushi 50%ga yetkaziladi;

bakalavriat ta'lif yo'nalishlari bitiruvchilaridan magistratura mutaxassisliklariga qabul qilingan talabalar ulushi 2019 yildagi 7%dan 2030 yilda 22%ga yetkaziladi;

nodavlat oliv ta'lif muassasalarini soni 2019 yilda 5 ta bo'lgan bo'lsa, 2030 yilga borib 35 taga yetkaziladi;

xorijiy dasturlar asosida tashkil etilgan oliy ta'lim muassasalari soni hozirgi 23 tadan 45 taga yetkaziladi;

oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyati (ilmiy darajaga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar ulushi) hozirgi 36%dan 70%ga o'sishi ta'minlanadi;

Scopus», «ScienceDirect», «Web of Science» va boshqa xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasida indekslanuvchi jurnallardagi maqolalar soni 2019 yilda 750 ta bo'lgan bo'lsa, 2030 yilda ular soni 7000 tani tashkil etadi;

oliy ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan «Xirsh» indeksi (h-indeks) 5 va undan yuqori bo'lgan professor-o'qituvchilar soni 2019 yildagi 142 tadan 2030 yilda 900 tani tashkil etadi;

respublika oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan xorijiy talabalarning ulushi 15%ga yetkaziladi;

O'zbekiston oliy ta'lim tizimi Markaziy Osiyoda xalqaro ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi «xab»ga aylantiriladi va boshqalar.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish yo'nalishida quyidagi maqsadlar belgilangan:

-har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o'qish imkoniyatini yaratish. Kasbga o'qitish ko'lamini 2 baravar oshirib, jami 1 million nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarlarga o'qitish va bu jarayonda nodavlat ta'lim muassasalarining ishtirokini 30 foizga yetkazish;

-mактабгача та'лимдаги қамров дарajasини hozirgi 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish va ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, budget mablag'larining maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlash;

-maktablarni rivojlantirish milliy dasturini joriy etish orqali xalq ta'limi tizimida qo'shimcha 1,2 million o'quvchi o'mni yaratish, 2026 yilga qadar o'quv dasturlari va darsliklarni ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ko'rib chiqib, amalda joriy etish, ta'lim sifatini oshirish, pedagog kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish;

-oliy ta'lif bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta'lif sifatini oshirish, 2026 yilga qadar 10 ta salohiyatli oliy ta'lif muassasasini QS va THE xalqaro reytinglariga kirishga maqsadli tayyorlash hamda 2026 yilgacha nodavlat oliy ta'lif tashkilotlari sonini kamida 50 taga yetkazish va boshqalar belgilangan¹⁰².

O'zbekiston Respublikasida 1998 yilda Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturi, Onalar va bolalar skrininingi (1998 y.), Sog'lom avlod (2000 y.), Onalik va bolalikni saqlash (2001 y.), Homiyalar va shifokorlar yili (2006 y.), Yoshlar yili (2008 y.), Barkamol avlod yili (2010 y.), Mustahkam oila yili (2012 y.), Obod tur mush yili kabi davlat dasturlari, Salomatlik dasturlari, shuningdek, ayollar va yosh avlod salomatligini mustahkamlashga yo'naltirilgan ko'plab chora-tadbirlar qabul qilinib, amalga oshirildi va amalga oshirilib kelinmoqda.

Mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish jarayonida ko'p sarf-xarajat talab etadigan va hamma vaqt ham samarali bo'Imagan statcionar tibbiy yordamdan ambulatoriya-poliklinika va profilaktika tibbiyotiga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Qishloq joylarda yaxshi samara bermayotgan feldsher-akusherlik punktlari o'rниga qishloq vrachlik punktlari (QVP) tashkil etildi. Respublikamizda barcha viloyat, shahar, tumanlarini qamrab olgan shoshilinch tibbiy yordam tashkil etish tizimi, onalik va bolalikni muhofaza qilish bo'yicha yuksak samarali zamonaviy tibbiyot muassasalarining mustahkam tizimi yaratildi.

Mamlakatda tibbiyot sohasining rivojlantirilishi natijasida go'daklar o'limi koeffitsienti jami (1000 tirik tug'ilganga nisbatan 1 yoshgacha o'lganlar soni 2010 yildagi 11,0 dan 2020 yilda 9,3 taga kamaygan, bolalar o'limi 2010-2019 yillarda 14,8 tadan 12,4 taga kamaygan. Onalar o'limi koeffitsienti (100000 tirik tug'ilganga nisbatan) 2010-2016 yillarda kamayish tendensiyasiga ega bo'lib, 2017 yilda esa 21 taga oshgan, 2018 yildan boshlab bu borada ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida yana kamayish tendensiyasiga ega bo'lib, 2020 yilda 18,5 tani tashkil etgan (qarang: 10.7.2-jadval).

¹⁰² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022yil 28yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60sonli Farmoni. 1-ilova:// <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

10.7.2-jadval.

O'zbekiston Respublikasida salomatlik ko'rsatkichlari dinamikasi¹⁰³

| Salomatlik ko'rsatkichlari | 2010y | 2016y | 2017y | 2018y | 2019y | 2020y |
|---|-------|-------|-------|-------|-------|-------|
| Go'daklar o'limi koeffitsienti jami(1000 tirik tug'ilganga nisbatan 1 yoshgacha o'lganlar soni) | 11,0 | 10,7 | 11,5 | 9,9 | 9,3 | 9,3 |
| Bolalar o'limi koeffitsienti jami(1000 tirik tug'ilganga nisbatan 5 yoshgacha o'lganlar soni) | 14,8 | 14,1 | 15,4 | 13,1 | 12,4 | 12,4 |
| Onalar o'limi koeffitsienti (100000 tirik tug'ilganga nisbatan) | 21,0 | 17,4 | 21,0 | 20,2 | 19,6 | 18,5 |
| Tug'ilganda kutilayotgan umr ko'rish davomiyligi, jami, yil | 73,0 | 73,7 | 73,7 | 74,6 | 75,1 | 73,0 |
| Tug'ilganda kutilayotgan umr ko'rish davomiyligi, ayollar, yil | 75,1 | 76,1 | 76,1 | 77,0 | 77,4 | 75,5 |
| Tug'ilganda kutilayotgan umr ko'rish davomiyligi, erkaklar, yil | 70,6 | 71,4 | 71,3 | 72,3 | 72,8 | 71,2 |

Jadval ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, tug'ilganda kutilayotgan umr ko'rish davomiyligi 2010-2019 yillarda 73 yildan 77,4 yilgacha o'sgan. Ammo koronavirus pandemiyasi va global moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'sirida 2020 yilda 2019 yilga nisbatan 75,1 yildan 73 yilgai, shu jumladan, ayollarniki 77,4 yildan 75,5 yilga, erkaklarniki 72,8 yildan 71,2 yilga qisqargan.

2018 yilda qabul qilingan "2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasining sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiysi" ga asosan:

barqaror taraqqiyot sohasida milliy maqsadlar va vazifalarga erishish;

aholiga reabilitatsiya va tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini rivojlantirish;

¹⁰³ O'z davlat qo'mita ma'lumotlari

umr ko‘rishni 75 yoshgacha oshirish;

onalar o‘limi ko‘rsatkichini 15 foizga kamaytirish;

chaqaloqlar va besh yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘limini 30 foizga kamaytirish;

aholi orasida yurak-tomir, onkologiya kasalliklari, qandli diabet va surunkali nafas yo‘llari kasalliklaridan bevaqt o‘lishni 15 foizga kamaytirish;

aholining sil, OIV, gepatit va boshqa yuqumli kasalliklarga chalinish darajasini kamaytirishga erishish vazifalari belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021yil 25maydag‘i “Sog‘liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5124-son qaroriga binoan 2021yil 15iyundan boshlab birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalarida dori va tibbiy buyumlar uchun biriktirilgan aholi jon boshiga ajratilgan mablag‘ miqdori o‘rtacha 3 baravarga oshirish va davlat tibbiyot muassasalarini 2021-2023 yillarda 45ming dona kompter jihozlari bilan ta‘minlash kabi vazifalar belgilangan.

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish yo‘nalishida sog‘liqni saqlash sohasida quyidagi maqsadlar belgilangan:

-ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlarni aholiga yanada yaqinlashtirish va qulayligini oshirish maqsadida respublika hududlarida tibbiyot klasterlarini tashkil etish;

-aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirish, budget mablag‘laridan samarali foydalanish, tibbiy xizmatlarni markazlashtirish va aholini tibbiy sug‘urtalash amaliyotini joriy qilish;

-tibbiy asbob-uskunalarga texnik xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish, dori-darmon va tibbiy buyumlar muormalasini tartibga solish hamda aholiga arzon va sifatlari mahsulotlar yetkazib berish tizimini takomillashtirish;

-birlamchi tibbiy-sanitariya xizmatida aholiga malakali xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash, sohaga ajratiladigan mablag‘larni oshirish;

-tibbiy xizmatlardagi xususiy sektoring ulushini 25 foizga yetkazish hamda mamlakatda ishlab chiqariladigan dori-darmon va tibbiyot vositalarining ulushini 80 foizga yetkazish;

-sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xalqaro maqomga ega laboratoriyalarini tashkil etish;

-hududlarda birlamchi tibbiy xizmatni “bir qadam” tamoyili asosida tashkil etish va h.k.¹⁰⁴.

Mustaqillik yillarda uy-joy kommunal xo‘jalik sohasi ham rivoj topdi. Mustaqillikning dastlabki yillarda amalga oshirilgan “Kichik” xususiylashtirish natijasida 96 foizdan ziyod oila ilgari davlat tasarrufida bo‘lgan uy-joylarni xususiy mulk qilib olishdi.

Aholining uy-joy bilan ta’milanish darajasi 1990 yilda xar bir kishiga 12,1 kvadrat metrni tashkil etgan bo‘lsa, 2010 yilda bu raqam 15,2 kvadrat metrga yetdi yoki 1,26 barobar ortdi. Respublikadagi oilalarning qariyb 77,4 foizi alohida uy va kottejlarda istiqomat qilmoqda.

Ta’kidlash joizki, qishloq aholisi turmish sharoitlarini yaxshilash, ularni shahar hayot sharoitlarga yaqinlashtirish maqsadida keyingi yillarda qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida xususiy uy-joylarni qurish bo‘yicha dastur amalga oshirilmoqda. 2017 yilda imtiyozli ipoteka kreditlari asosida arzon uy-joylar qurish loyihasini amalga oshirishga kirishildi.

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida 85-maqsad sifatida mamlakatda yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026 yil yakuniga qadar kambag‘allikni kamida 2 baravarga qisqartirish belgilangan. Buning uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

-kambag‘allikni qisqartirish davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

¹⁰⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022yil 28yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60sonli Farmoni. I-ilova. // <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

- norasmiy ishlayotgan 2,5 million nafar fuqaroning bandligini legallashtirishga yordam berish orqali ularda ijtimoiy kafolat va imtiyozlardan to'liq foydalanish imkoniyatini yaratish;
- ayollar orasidagi ishsizlik darajasini 2 baravar kamaytirish, 700 mingdan ziyod ishsiz xotin-qizlarni davlat hisobidan kasb-hunarga o'qitish;
- ish bilan band bo'limgan xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilish va o'zini o'zi band qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- davlat ijtimoiy yordami va xizmatlarini ko'rsatishda mahalliy darajada ("mahallabay" tamoyili asosida) ijtimoiy ishlarni olib borish mexanizmini yo'lga qo'yish;
- hududlar, shaharlar va tumanlar kesimida kambag'al toifadagi oilalar, ayollar va yoshlarni yagona elektron hisobga olish tizimini yaratish, kambag'allikning qayta tiklanish xavfini bartaraf etish;
- ijtimoiy nafaqa tayinlash mezonlariga javob beradigan barcha ehtiyojmand aholining kamida 85 foizini ijtimoiy yordam dasturlari bilan qamrab olish.

Xulosa o'mida aytish lozimki, ijtimoiy sohaning rivojlanishi ko'p jihatdan uni moliyalashtirishga bog'liqdir. Har yili Davlat budgeti xarajatlarining yarmidan ortig'i ijtimoiy sohaga yo'naltirilmoqda. Aholi hayot sharoitlarini yaxshilash, turmush farovonligini yanada oshirish maqsadida ijtimoiy sohaning istiqboldagi rivojlantirilishi makroiqtisodiy barqarorlikni va izgil yuqori iqtisodiy o'sishi sur'atlarini ta'minlash, iqtisodiyotni tarkibiy jixatdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnika va texnologik yangilash asosida mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatdoshligini oshirish bilan uzviy bog'liqdir.

Asosiy tushuncha va atamalar

Ijtimoiy soha, ijtimoiy-madaniy maqsadlarga davlat xarajatlari, aholini ijtimoiy himoyasiga xarajatlar, hayot kechirish minimumi, eng kam ish haqi, yuqori narx, eng kam pensiya, sog'liqni saqlashga xarajatlar, qashshoqlik.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Ijtimoiy sohaning qaysi elementlarining rivojlanishiga faqatgina davlat samarali ta'sir eta olishi mumkin?
2. Davlat ijtimoiy siyosatining mohiyati nimadan iborat?
3. Ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solishning zarurati nimalar bilan bog'liq?
4. Jamiyat rivojlanishida inson omili rolining oshishi nimalarga bog'liq?
5. O'zbekistonda davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
6. Davlatning bandlik siyosatining maqsadi va amalga oshirish yo'nalishlarini tushuntirib bering?
7. Mehnat bozori nima va uning asoaiy elementlari nimalardan iborat?
8. Mehnat bozori davlat tomonidan qanday tartibga solinadi?
9. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davom etayotgan hozirgi davrda rivojlangan mamlakatlarda ishsizlikning o'sib borishi sabablarini izohlab bering.
10. O'zbekistonda aholining ish bilan bandligini oshirish uchun qanday tadbirlar amalga oshirilmoqda?
11. O'zbekistonda yoshlarni ish bilan ta'minlash borasida nimalar amalga oshirilmoqda?
12. Davlatning daromadlar siyosatining mazmunini tushuntirib bering.
13. Davlat aholi daromadlarini oshirish bo'yicha qanday siyosat yuritmoqda?
14. O'zbekistonda aholi daromadlari va turmush darajasining o'sishi tendensiylarini izohlab bering.

11-BOB. DAVLATNING IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH VAZIFALARI

11.1. Iqtisodiy xavfsizlikning mohiyati, tarkibiy elementlari

Mamlakat, davlat xavfsizligi, shuningdek, ularning tarkibiy qismlari bo'lgan hudud, korxona (tashkilot), alohida olingan shaxs xavfsizligini ta'minlash muammosi hozirgi davrda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ammo xavfsizlik masalasi insoniyat mavjud bo'lgan barcha davrlarda mavjud bo'lgan. "Xavfsizlik" atamasи adabiyotlarda dastlab XII asrdan boshlab qo'llanila boshlangan. Darhaqiqat, "xavfsizlik" tushunchasi Rober ma'lumotnomasiga ko'ra 1190 yilda paydo bo'ldi. Bu tushuncha o'zini har qanday xavf-xatardan himoyalangan deb hisoblovchi inson ruhining xotirjam holatini ifodalagan¹⁰⁵. Ushbu ma'noda mazkur termin G'arbiy Yevropa halqlari leksikonida XVII asrgacha qo'llangan. Tarixning keyingi davrlarida davlat tuzilmalarining shakllanishi bilan bog'liq ravishda xavfsizlik tushunchasi moddiy, siyosiy va iqtisodiy sohalarda davlat qurilishi, boshqarish organlari tendensiyalariga mos keladigan real xavf-xatar (jismoniy va ma'naviy)ning yo'qligi natijasida vujudga keladigan tinchlik holati ma'nosini anglatgan¹⁰⁶.

Xavfsizlik xavf-xatar yo'q bo'lgan holat yoki vaziyat ma'nosida tushunilgan. O'zbek tilining izohli lug'atida "xavf-qo'rqinch, qo'rqish, vahima, hadiksirash, biror xatarli hodisa yoki falokat sodir bo'lish ehtimoli, xatar, xavotirlanish, xavfsirash, xavotir, tashvish" ma'nosida, "xavfsizlik - xavf-xatarning yo'qligi; xavf bo'Imagan holat, xavfsizik ta'minlangan" deb izohlangan¹⁰⁷. Ammo hech qanday xavf-xatar yo'q bo'lgan bunday holatga na alohida olingan inson, na kishilar guruhi, na biron-bir davlat hech qachon erishgan emas. Aksincha, xavfsizlikni ta'minlash, o'zlarini himoya qilish

¹⁰⁵Основы экономической безопасности. – М., 1996. С.3; Абулкосимов Х.П. Давлатнинг иктисодий хавфсизлиги. Узбук кўйлумча-Т.: Akademika, 2012.-5-бет.

¹⁰⁶ Экономическая безопасность хозяйственных систем. Учебник. – М.: изд-во РАГС, 2001.- с.8.

¹⁰⁷ Узбек тилининг изоҳи ягутати: 80000 дағ ортик сўз ва сўз биримиси. Ж.ИВ. Тартибот-Шукр. Гахрир ҳайъати. Т.Мирзаев (раҳбар) ва бошк.: УзР ФА Тил ва адабиёт ин-ти.-Т.: "Узбекистон маддий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти.2008.-Б.372.

maqsadida insonlar ko'plab turli quroqlar ishlab chiqardilarki, buning natijasida insoniyat hayoti uchun jiddiy xavf kuchaydi. Xavfsizlik insonning muhim ehtiyojlaridan biriga aylangan. Bu tushuncha aniq kategoriya sifatida o'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra inson, davlat, jamiyatning hayotiy muhim manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Shu boisdan xavfsizlik tushunchasiga turli ilmiy soha vakillari o'zlarining sohalaridan kelib chiqib, turlicha izoh beradilar.

Milliy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismi, uni ta'minlashning eng muhim sharti yoki omili, ko'rsatkichi iqtisodiy xavfsizlikdir.

Iqtisodiy xavfsizlik atamasi birinchi marta AQSh Prezidenti Franklin Ruzvelt tomonida 1929-1933-yillardagi jahon inqirozidan chiqishga qaratilgan "yangi kurs" deb atalgan iqtisodiy siyosatni asoslash va amalga oshirish munosabati muomalaga kiritilgan. Shundan so'ng 30-yillarda Amerika Qo'shma Shtatlarida iqtisodiy xavfsizlik masalalari jahon iqtisodiy inqirozi va yangi yirik tahdidlarga javob choralarini ishlab chiqish zaruriyati tufayli jiddiy ilmiy tadqiqotlar predmetiga aylandi. 70-yillarga kelib jahonning rivojlangan mamlakatlarida "iqtisodiy xavfsizlik" milliy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismi sifatida qarala boshlandi. 80-90-yillarda iqtisodiy va ijtimoiy xavfsizlik masalalalari keng muhokama qilina boshlandi. 1990 yilda Lissabonda bo'lib o'tgan "Janubiy Yevropa-Sharqi Yevropa. Yevropa muvozanati: yangi chaqiriqlar" mavzusidagi xalqaro konferensiyada G'arbiy Yevropa ittifoqi qoshidagi xavfsizlik muammolarini tadqiqot qilish bo'yicha institut direktori professor J.Ropper "harbiy-siyosiy xavfsizlik" tushunchasiga ijtimoiy-iqtisodiy jihatni qo'shishni va xavfsizlikning tegishli institutsional tuzilmalarini tashkil qilishni taklif etgan¹⁰⁸.

"Iqtisodiy xavfsizlik" tushunchasining mazmuni iqtisodga oid ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Bir guruh olimlar mazkur iqtisodiy tushuncha mazmunini mamlakatning yetarli mudofaa salohiyatini, davlat siyosatining ijtimoiy yo'naltirilganligi, milliy manfaatlarni himoya

¹⁰⁸ Понятие экономической безопасности предприятия // www.superinf.ru

qilishni kafolatlashga qodir bo'lgan iqtisodiyot va hokimiyat institutlarining holati sifatida ta'riflaydilar¹⁰⁹. Shuningdek, uni hokimiyat institutlarining iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan milliy manfaatlarni himoya qilish va ro'yogha chiqarish hamda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratishga qodirligi va tayyorligi deb ham talqin qiladilar.

Ikkinci guruh olimlar mazkur tushunchani xalqning mustaqil ravishda tashqi kuchlarning aralashuvvisiz va tazyiqisiz o'z iqtisodiy taraqqiyot yo'li va shakllarini belgilab olishiga imkon beradigan holat sifatida tavsiflaydilar¹¹⁰.

Uchinchi guruh olimlar esa "iqtisodiy xavfsizlik" tushunchasini iqtisodiyotning ijtimoiy ehtiyojlarni samarali qondirishga qodirligi deb ta'riflaydilar¹¹¹.

To'rtinchı guruh olimlar esa mazkur tushunchani iqtisodiyotning progressiv rivojlanishi va normal darajada amal qilishining muhim sharti, iqtisodiyot sohasida shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlarning ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanishideb tavsiflaydilar.

Taniqli rus iqtisodchisi L.I.Abalkin ushbu tushuncha mohiyatini ochib beruvchi uch elementni ko'rsatib bergen:

- iqtisodiy mustaqillik. Hozirgi jahon xo'jaligi sharoitida iqtisodiy mustaqillik absolyut xarakterga ega emas, chunki xalqaro mehnat taqsimoti milliy iqtisodiyotlarni bir-biriga o'zaro bog'liq qilib qo'yadi;

- milliy iqtisodiyotning barqarorligi. Bu shaklidan qat'i nazar mulkchilikning himoya qilinishi, tadbirkorlik faolligi uchun ishonchli sharoit va kafolatlarning yaratilishi, mamlakatdagi holatning yomonlashuviga, beqarorlikka olib keluvchi omillarning jilovlanishini taqozo etadi;

- o'z-o'zidan rivojlanishga va taraqqiy etishga qodirligi. Bu esa investitsiyalar va innovatsiya uchun qulay muhitning yaratilishi, ishlab

¹⁰⁹ Экономическая безопасность. Производство, финансы, блоки. -М., ЗАО «Финстатинформ», 1998 - с 12.

¹¹⁰ Жандаров А.М., Петров А.А. Экономическая безопасность России: определения гипотезы, расчеты // Безопасность. 1994, №3 -с.8.


¹¹¹ Архипов А., Городецкий А., Михайлов Б. Экономическая безопасность: отсеки, проблемы, способы обеспечения // Вопросы экономики. №12, 1994.

chiqarishning muntazam modernizatsiyalashuvi, yangilanishi va takomillashib borishi hamda xodimlarning bilim, kasb-malaka, umumiy madaniy darajalarining o'sib borishi milliy iqtisodiy barqarorligi va mavjudligining zaruriy shartiga aylanishini ifodalaydi¹¹².



11.1.1-rasm. Iqtisodiy xavfsizlik mazmuni

Ye.Buxvald esa xavfsizlik tizimdagи obyektning ichki va tashqi tahdidlarning mavjudligi sharoitida yashay olish va rivojlanish qobiliyatiga egalik va ko'zda tutilmagan, aniqlanishi qiyin bo'lgan noxush omillar ta'siriga bardoshlilik holatini ifodalaydi (11.1.2-rasm).



11.1.2-rasm.Rivojlanish, barqarorlik va xavfsizlik tushunchalarining o'zaro bog'liqligi

¹¹² Станов М. Экономическая безопасность: сущность, критерии, формы // Транзитная экономика, 1998. – с.3.

Ilmiy iqtisodiy adabiyotlarda ushu ta'rif eng to'g'ri ta'rif sifatida e'tirof etilmoqda¹¹³. Iqtisodiy xavfsizlik iqtisodiyotning turli subyektlariga tegishli bo'lib, ular quyidagilardan iborat: alohida fuqarolar; xususiy tadbirkorlik, biznes; davlat korxonalari; milliy iqtisodiyot; davlat.

Ichki iqtisodiy sohalarda xavfsizlik tabiiy, texnikaviy-iqtisodiy, infratuzilmaviy, ijtimoiy, mikro va makroiqtisodiy rivojlanishning boshqa omillari, shuningdek, turli beqarorlik, tanglikni keltirib chiqaruvchi ichki va tashqi tahdidlar ta'siridan himoya qiluvchi ichki immunitetlar bilan bog'liqdir.

Tashqi iqtisodiy sohada xavfsizlik mamlakatning jahon bozoridagi raqobatbardoshligi, milliy valyutasining barqarorligi, davlatning moliyaviy ahvoli bilan tavsiflanadi.


O'tish, ya'ni tranzit iqtisodiyotiga ega bo'lgan, bozor iqtisodiyotiga o'tish maqsadida islohotlarni amalga oshirayotgan mamlakatlarda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash alohida ahamiyat kasb etadi. Ularda, shu jumladan, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar mamlakatning geopolitik holatini, uning hozirgi zamon jahon iqtisodiy tiziqidagi o'rnini tubdan o'zgartirib yuboradi.

Turli iqtisodiy tahdidlar, nohush holatlar oqibatida ko'rilgan zararlarning o'rnini qoplash uchun zarur bo'lgan xarajatlarni prognoz qilish ham muhim ahamiyatga ega. Buning natijasida favqulodda holatlar oqibatida ko'rildigan zararlarni qoplash, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga yo'naltirilgan resurslarni baholash va o'z vaqtida shakllantirish uchun imkoniyat yaratiladi. Shunga bog'liq ravishda "kompensatsion resurslar" va "kompensatsion salohiyat" (potensial) tushunchalarini bir-biridan farq qilish lozim bo'ladi.

Kompensatsion resurslar o'z mazmuniga ko'ra sug'urta, zaxira, rezerv resurslarini anglatadi. Kompensatsion salohiyat (potensial) mamlakat iqtisodiyotining tanglik, noxush holatlarga qayishqoqligini, uning oldini olish va uni yengib o'ta olish, xo'jalik jarayonlarining

¹¹³Спанов М. Экономическая безопасность: сущность, критерии, формы. // Транзитная экономика. 1998. №4 - с.4.

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning barqarorligi va mustahkamligini tiklay olish qobiliyatini anglatadi. Kompensatsion salohiyat milliy iqtisodiyotning, xalq xo'jaligining biron-bir sektori yoki biron-bir yirik hududda noxushliklar vujudga kelganida ularni tiklay olishga qodirligini ifodalaydi (11.1.3-rasm).



11.1.3-Rasm. Kompensatsiya salohiyati komponentlari

Mamlakat iqtisodiy tizimining turli darajalaridagi iqtisodiy munosabatlar iqtisodiy xavfsizlik obyektlari hisoblanadi;

- makroiqtisodiy darajadagi mamlakat iqtisodiyoti;
- hududiy va tarmoq darajasidagi hudud va tarmoq iqtisodiyoti;

- oila va shaxs darajasidagi mamlakat fuqarolari har birining iqtisodiy manfaatlari. Xulosa qilib, keng ma'noda iqtisodiy xavfsizlikni milliy iqtisodiyotning samarali, dinamik o'sishiga, uning jamiyat, davlat, shaxs ehtiyojlarini qondirishning, tashqi bozorda raqobatga bardoshlilagini ta'minlovchi, turli tahdid va yo'qotishlardan kafolatlovchi ichki va tashqi sharoitlar yig'indisi deb ta'riflash mumkin bo'ladi.

11.2. Iqtisodiy xavfsizlikning namoyon bo'lish shakllari va ko'rsatkichlari

Iqtisodiy xavfsizlikning namoyon bo'lish shakllarini uning subyektlari va obyektlari nuqtai nazaridan turkumlash mumkin. Iqtisodiyot subyektlari nuqtai nazaridan iqtisodiy xavfsizlik quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

- shaxsnинг iqtisodiy xavfsizligi;
- korxona (firma)ning iqtisodiy xavfsizligi;
- davlatning iqtisodiy xavfsizligi (11.2.1-chizma).

Shaxsnинг iqtisodiy xavfsizligi uning hayotiy manfaatlarining, ya'ni yashash va shaxsiy daxlsizlik, erkin mehnat qilish, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish, mulkdor bo'lish, hayotiy iste'mol ehtiyojlarini qondirish, salomatligini saqlash, bilim olish va kasbga ega bo'lish, qariganda va mehnat layoqatini yo'qotganda ijtimoiy ta'minot olish huquqlarining himoyalanganligini ifodalaydi.



11.2.1-rasm. Iqtisodiyot sub'ektlarining xavfsizligi

Korxona (firma)ning iqtisodiy xavfsizligini tahlil qilganda ularni ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, moliyaviy, savdo-tijorat hamda notijorat va jamoatchilik tashkilotlari mavqelarida faoliyat yuritishlari nuqtai nazaridan turkumlash maqsadiga muvofiq bo'ladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda xavfsizlik xo'jalik faoliyati sohalarida yuzaga kelishi nuqtai nazaridan asosan uch yo'nalish, ya'ni ishlab chiqarish-xo'jalik, xo'jalik-iste'mol va moliyaviy sohalar bo'yicha turkumlanadi¹(11.2.2-rasm).

¹ Экономическая безопасность хозяйственных систем. Учебник. -М., Изд-во "РАГС", 2001.- с.39.



11.2.2-rasm. Xo'jalik faoliyati sohalaridagi iqtisodiy xavfsizlik turlari.

Bizning nazarimizda, ushbu uch yo'nalish barcha mamlakatlar uchun umumiy bo'lgani bilan, ayrimlari uchun qo'shimcha yo'nalishlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, O'zbekiston uchun xalqaro bozorlarga chiqish jarayonida yangi transport yo'llari, kommunikatsiyalari ham muhim hisoblanadi. Shuningdek, aholining turmush darajasi, daromadlar bo'yicha tabaqlanishi bilan bog'liq ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash ham katta ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra, bizning fikrimizcha, iqtisodiy xavfsizlikni ishlab chiqarish-xo'jalik, xo'jalik-iste'mol, moliyaviy, transport kommunikatsiyalari va ijtimoiy sohalar bo'yicha turkumlash maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston uchun texnologik xavfsizlikni ta'minlash g'oyat muhimdir. Chunki respublikamizga sobiq totalitar tuzumidan mo'rt, zaif, bir yoqlama rivojlangan, asosan, xom ashyo va oraliq mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan iqtisodiyot meros bo'lib qolgan edi. Paxtaning 95 foizi qayta ishlanmasdan respublikadan tashqariga olib

ketilar edi. Sobiq sho'rolar davrining 50 yili mobaynida yengil sanoatning umumiy tarmoq ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 54 foizdan 37 foizga, oziq-ovqat sanoati ulushi esa 30 foizdan 14 foizgacha tushib qoldi.

Bu esa mustaqillikni mustahkamlashda texnologik xavfsizlikni ta'minlashning o'ta zarurlidan dalolat beradi. Buning uchun respublikamizda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va chuqur tarkibiy jihatdan o'zgartirishlar amalga oshirilmoqda. Bularning natijasi o'laroq sanoatda yuksak texnologiyaga asoslangan va istiqbolli tarmoqlarning chunonchi, mashinasozlik, yoqilg'i-energetika, kimyo va yengil sanoat kabilarning hissasi ortib bordi. Shuningdek, respublika uchun tamomila yangi bo'lgan avtomobilsozlik sanoati vujudga keltirildi. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish yo'li bilan samolyotsozlik, radioelektronika va elektronika sohalarini rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Bu esa ishlab chiqarishni jadal modernizatsiya qilish, zamonaviy quvvatlarni ishga tushirish, iste'mol bozorini sifatli va raqobatga bardoshli mahsulotlar bilan to'ldirish asosida nafaqat texnologik, shu bilan birga, oziq-ovqat xavfsizligini ham ta'minlash imkoniyatini beradi.

Oziq-ovqat xavfsizligi mamlakat aholisining asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan yetarli darajada ichki imkoniyatlardan foydalangan holda ta'minlanishini, importga bog'liqlikni minimum darajasiga erishishni ifodalaydi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun ikki yo'naliishda choratadbirlar amalga oshirildi:

- qishloq aholisi tomorqa maydonlarini kengaytirish va yangilarini ajratib berish;

- qishloq xo'jaligi ekinlari tarkibini qayta ko'rib chiqish.

Davlatning oziq-ovqatga oid siyosati kartoshka, meva-sabzavot mahsulotlari bilan ham o'z-o'zini ta'minlashni ko'zda tutadi. Aholiga yetarli darajada chorvachilik mahsulotlari va o'simlik yog'i yetkazib berish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishslash va saqlash uchun zarur bo'lgan bazani barpo etish, shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari asosiy turlarining yetarli zaxirasini shakllantirish, ularning chakana

baholari barqarorligini ta'minlashga erishish, chetdan keltirilayotgan mahsulotlar hajmlarini qisqartirib borish kabilar ham oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning muhim yo'nalishlari hisoblanadi.

Ekologik xavfsizlik tabiiy muhitga turli noxush ta'sirlardan, tabiiy ofat va halokatlardan hamda insonlarning va xo'jalik subyektlarining atrof-muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatishidan himoyalanganlikni ifodalaydi. Bu xususiyatlardan iqtisodiy adabiyotlarda "ekologik imperativ" degan tushuncha bilan izohlanadi.¹ Mazkur tushuncha tabiiy muhit bilan insonning fiziologik va ijtimoiy xususiyatlari o'rtaсидаги nisbatni ifodalaydi.

Moliyaviy xavfsizlik mamlakat va uning hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi va rivojlanishi uchun zaruriy moliyaviy sharoit va resurslarning yaratilganligi, moliyaviy tizimning yaxlitligini saqlash hamda ichki va tashqi iqtisodiy mansaatlар tahdidilarniga muvaffaqiyatli qarshilik qilishni ifodalaydi. Bu xavfsizlik pul, budget, kredit, soliqqa tortish va valyuta tizimlarida vujudga keladigan tahdidlarning oldini olish, ulardan muhofazalanish kabilarni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy tavsifdagi xavfsizlik aholining eng boy va eng quyisi tabaqalari daromadlari o'rtaсидаги farq, kambag'allik va qashshoqlik muammosi, turli yuqumli kasalliklar ko'lamining kengayishini oldini olish zaruratida o'z ifodasini topadi.

Mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda, uning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvida ichki va tashqi transport yo'l va aloqa kommunikatsiyalari tizimining yaratilishi oqibatida transport yo'l va aloqa kommunikatsiyalari xavfsizligi ta'minlanadi.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun uning indikatorlari monitoringini tashkil etish zarur.

Iqtisodiy xavfsizlikning umumiyligi ko'rsatkichlari (indikatorlari) quyidagilardan iborat:


- turmush darajasi va sifati;

¹ Экономическая безопасность хозяйственных систем. Учебник. -М.: Изд-во "РАГС", 2001, - с.49.

- inflyatsiya sur'ati;
- iqtisodiy o'sish;
- budjet defitsiti; davlat qarzi;
- jaxon iqtisodiyotiga kirib borganlik;
- "xufyona iqtisodiyot" faoliyati;
- mulk tarkibi;
- soliq tizimi;
- bozor infratuzilmalarining rivojlanishi.

Hududiy darajada umumiy ko'rsatkichlardan tashqari yana quyidagi ko'rsatkichlar iqtisodiy xavfsizlikni ifodalaydi:

- aholi daromadlari; chakana narxlar darajasi;
- uy-joy bilan ta'minlanganlik;
- qochoqlar, emigrantlar va boshqalar soni;
- hududning mamlakat YaIMdagi ulushi;
- hududning to'lov balansi;
- eksport-import saldosi (11.2.3-rasm).



11.2.3-rasm. Iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlari

Yuqoridagi ko'rsatkichlar miqdoriningtahlikali quyi (porogovaya cherta) chegarasini ko'rsatish va aniq belgilash lozim bo'ladi. Ushbu tahlikali quyi chegara – iqtisodiy manfaatlar nuqtai nazaridan xo'jalik faoliyati proporsiyalarining eng quyi maqbul nisbatlarini ifodalovchi miqdoriy indikatorlar bo'lib, ularga rioya qilmaslik takror ishlab chiqarish turli elementlarining iqtisodiy rivojlanishiga to'sqinlik qiladi va mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga tahdid soladi.

Tahlikali quyi chegaraning miqdoriy o'lchamlarini aniqlash uchun quyidagilarga asoslanish lozim bo'ladi:

- milliy iqtisodiyot holati va undagi mutanosibliklar hamda takror ishlab chiqarish elementlari va omillari holatining birlamchi, muhim xususiyatlarni tavsiflash;
- iqtisodiyot sohasidagi milliy manfaatlarni to'liq va keng qamrovdi ifodalash;
- iqtisodiyot sohasidagi milliy manfaatlarga xavf soluvchi tahdidlarni to'liq va har tomonlama hisobga olish;
- iqtisodiy xavfsizlikning quyi tahlikali chegarasini ifodalovchi indikatorlardan hokimiyat organlari mamlakat iqtisodiyoti holatini aniq baholashda va boshqa mamlakatlar bilan qiyoslashda foydalanish imkoniyatining mavjudligi.

Ushbu indikatorlarning mamlakat hisob, statistika va prognozlashtirish tizimi bilan muvofiq kelishi, maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodiy xavfsizlikning quyi tahlikali chegarasi indikatorlari milliy iqtisodiyot sohalari va ularning har qaysisidagi milliy manfaatlar nuqtai nazaridan turkumlanadi. Adabiyotlarda iqtisodiy xavfsizlik quyi tahlikali chegarasi indikatorlari o'z ichiga 50ta ko'rsatkichni olgan holda quyidagicha turkumlangan¹¹⁴:

1) iqtisodiyotning barqaror rivojlanishga qodirligini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Ushbu guruhga yalpi ichki mahsulot hajmi, sanoat ishlab chiqarish va uning tarkibi, mashinasozlik mahsulotlari hajmida yangi

¹¹⁴ Qarang: Илларинов А. Критерии экономической безопасности // Вопросы экономики. 1999. №10. Сенчагов В.К. Экономическая безопасность: геополитика, глобализация, самосохранение и развитие (книга четвертая) / Ин-т экономики РАН - М., ЗАО «Финистатинформ», 2002.- с.72-78; Экономическая безопасность хозяйственных систем. Учебник. -М., Изд-во РАГС, 2001.- с.176-180; Прожорев А., М.Корнилов О проблеме критериях и оценок экономической безопасности // Общество и экономика, № 4-5. 2003.- с. 232-233.

turdagi mahsulotlar ulushi, mudofaa va fan uchun xarajatlar ulushi, investitsiyalar, foydali qazilma boyliklarining zaxiralari bo'yicha quyi tahlikali chegarani ifodalovchi indikatorlar kiradi;

2) moliyaviy tizim barqarorligi ko'rsatkichlariga davlat budjeti kamomadi, davlat qarzi, pul muomalasi, o'zaro hisob-kitob va soliq intizomini ifodalovchi ko'rsatkichlar kiradi;

3) ijtimoiy soha ko'rsatkichlari aholi daromadlari darajasi va uning mulkiy jihatdan tabaqlanishi, ishsizlik va ijtimoiy soha xarajatlari bo'yicha quyi tahlikali chegaralarni o'z ichiga oladi;

4) tashqi savdo va iqtisodiy faoliyat ko'rsatkichlari guruhiga mamlakat ichki iste'molida importning ulushi va milliy ishlab chiqarish hajmida eksportning ulushi bo'yicha quyi tahlikali chegaralarni ifodalovchi indikatorlar kiradi.

Jahon miqiyosida qabul qilingan iqtisodiy xavfsizlikning quyi va yuqori tahlikali chegaralari 11.2.1-jadvalda keltirilgan.

11.2.1-jadval

Iqtisodiy xavfsizlikning quyi va yuqori tahlikali chegaralari¹

| Ko'rsatkichlar | Quyi va yuqori tahlikali chegara | |
|---|--|------------|
| | Mazmuni | darajasi % |
| Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar | Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz (quyi chegara) | 16 |
| Ishsizlik darajasi | Iqtisodiy faol aholiga nisbatan, foiz (yuqori chegara) | 8 |
| Monetizatsiya darajasi | Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz (quyi chegara) | 25 |
| Tashqi qarz | Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz (yuqori chegara) | 40 |
| Ichki qarz | Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz (yuqori chegara) | 30 |
| Tashqi qarzlar bo'yicha to'lovlar | To'lovlanarning yillik eksport hajmiga nisbatan, foiz (yuqori chegara) | 25 |
| Mudofaaga xarajatlar | Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz (yuqori chegara) | 3 |
| Fuqarolik fanlariga xarajatlar | Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz (quyi chegara) | 1,5 |

¹ Гордиенко Д.В Основы экономической безопасности государства. Курс лекций: учеб-метод пособие – М.: Финансы и статистика: ИНФРА-М. 2009. –С 76,77, 78,79,81, 82, 83, 85, 86 ,87,88,89,90,91,92 asosida tuzildi.

| | | |
|---|--|-----|
| Innovatsion mahsulotlar | Sanoat mahsulotlari umumiy hajmiga nisbatan, foiz (quyi chegara) | 15 |
| Sanoat ishlab chiqarishda mashinasozlik va metallni qayta ishlash | Sanoat ishlab chiqarish hajidagi ulushi, foiz (quyi chegara) | 25 |
| Davlat budjeti defitsiti | Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz (yuqori chegara) | 3,0 |
| Davlat qarzini qoplash xarajatlari | Davlat budjeti xarajatlari xajmiga nisbatan, foiz (yuqori chegara) | 20 |
| Yashash minimumidan past darajada daromad oluvchi aholi | Aholi umumiy sonidagi ulushi, foiz (yuqori chegara) | 7,0 |
| Aholi daromadlari bo'yicha tabaqalanishi | Desil koefitsienti (yuqori chegara) | 8,0 |

Iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlarini milliy iqtisodiyot subyektlarining hayotiy muhim manfaatlarini ta'minlash nuqtai nazaridan ham turkumlash mumkin. Masalan, A.Proxojev va M.Kornilovlar shaxsnинг, ya'ni alohida individ, fuqaroning hayotiy muhim manfaatini ro'yobga chiqarishi nuqtai nazaridan iqtisodiy xavfsizlikni ifodalovchi quyidagi ko'rsatkichlarni turkumlagan:

- jon boshiga oylik daromad miqdorining rasmiy ravishda belgilangan yashash minimumi miqdoriga nisbati;
- aholi oziq-ovqat xarajatlarining yillik jon boshiga daromadlar hajmidagi ulushi;
- aholi jon boshiga kundalik iste'mol qilinayotgan kaloriyalar miqdori;
- aholi jon boshiga o'rtacha yillik daromadida uy-joy va kommunal to'lovlarga qilingan xarajatlar ulushi;
- aholi jon boshiga o'rtacha yillik daromadidagi jamg'armalarning ulushi va boshqalar¹¹⁵. Shuni aytilib o'tish joizki, ushbu iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlarining o'rtacha jahon va MDH mamlakatlarining aynan shunday ko'rsatkichlariga, shuningdek, rasmiy belgilangan quyi tahlikali chegara indikatorlariga taqqoslash orqali milliy iqtisodiyotning

¹¹⁵Прохоров А., Корнилов М. О проблеме критериев и оценок экономической безопасности // Общество и экономика, № 4-5, 2003. - с. 23.

real holatini aniqlash mumkin bo‘ladi. Buning natijasida hukumat mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan iqtisodiy siyosatning maqsadlari va ularni amalga oshirish yo‘nalishlarini belgilaydi.

11.3. Davlatning iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash siyosatining maqsadi va vazifalari

Xavfsizlikni, shu jumladan, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Buning uchun, avvalambor, uning siyosiy-tashkiliy va huquqiy asoslari yaratiladi. Ushbu maqsadda konsepsiya ishlab chiqiladi. Uni ishlab chiqish esa iqtisodiyot holatini obyektiv baholashga hamda uning rivojlanish tamoyili va tendensiyalarini prognoz qilishga asoslanadi. Buning uchun iqtisodiy xavfsizlikni belgilovchi vaziyat va xolatlardagi sabab-oqibatlari aniqlanadi. Shuningdek, iqtisodiy xavfsizlikni saqlash va mustahkamlashga mas’ul, javobgar davlat organlari, tashkilot va muassasalar belgilanadi.

Konsepsiyanı ishlab chiqishda iqtisodiy xavfsizlik va tahdidlarning haqiqiy holatini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasida iqtisodiyotda ijtimoiy ishlab chiqarish hajmi va dinamikasi, iqtisodiy salohiyatdan foydalanish samaradorligi, iqtisodiyotning ochiqligi, intellektual salohiyatning holati, innovatsion darjasи, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta’sir ko‘rsatish darjasи, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi tendensiyalarining istiqbolli prognozlari va ularning asosiy ustuvorliklari o‘z ifodasini topishi lozim.

Iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyası o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- xavfsizlikni ta’minlash maqsadi va vazifalari;

- ularni amalga oshirish yo‘llari va usullari;

- oliy hokimiyat va mahalliy hokimiyat organlari, iqtisodiyot tanoqlari boshqaruv tizimlari, huquq-tartibot, milliy xavfsizlik organlarining umum davlat, xududiy darajadagi iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha vazifalari;

- mayjud va potensial xavfsizlikka tahdidlarni tahlil qilish;
- davlatning xavfsizlikni ta'minlashdagi imkoniyatlari, iqtisodiy resurslardan, vosita va kuchlardan ratsional foydalanishi nazarda tutiladi;
- iqtisodiy tahdidlarni bartaraf etish, ularning oldini olish va salbiy ta'sirini yumshatish yo'llari, vosita va usullari.

Xavfsizlik konsepsiysi asosida uni ta'minlashning davlat strategiyasi ishlab chiqiladi. Ushbu strategiya tahdidlarning mohiyatini, obyektlarini indikatori va ularning oldini olish yoki bartaraf etish mexanizmlarini belgilab beradi:

Iqtisodiy adabiyotlarda davlat iqtisodiy strategiyasining uch jihatiga tarkibiy qismlari ajratib ko'rsatilgan.

1. Iqtisodiy xavfsizlik va inamlakat hayot faoliyati muhim sohalarining himoyalanganligini ta'minlaydigan milliy, davlat manfaatlarini aniqlash.

2. Shaxs, jamiyat va davlatning muhim hayotiy manfaatlari ziyon keltiradigan iqtisodiy xavfsizlikka tahidilar va xavf-xatarlarni tavsiflash. Bunda qisqa, o'rta va uzoq muddatli davrlarda davlat va ijtimoiy-iqtisodiy tizim barqarorligiga zarar yetkazuvchi, salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar va sharoitlar aniqlanadi.

3. Iqtisodiy xavfsizlikning turli tahidilar, xavf-xatarlardan barqaror himoyalanishini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy siyosatni shakllantirish, institutsional o'zgarishlarni amalga oshirish bo'yicha takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish. Ushbu strategiyada iqtisodiy xavfsizlik talablariga javob beradigan iqtisodiyotning mezon va parametrlari ham aniqlanadi. Iqtisodiy manfaatlarga va xavfsizlikka tahidlarning oldini olish va ularni bartaraf etish hamda yumshatishning ustuvor maqsadlariga quyidagilar kiradi:

- aholining barcha ijtimoiy guruhlari va tabaqalari turmush darajasini oshirish orqali jamiyat barcha a'zolarining birdamligiga erishish;
- milliy iqtisodiyotga xususiy investitsiyalarni kiritishni rag'batlantirish, investitsion jarayonlarni faollashtirish;

- qat'iy soliq, pul-kredit siyosatini yuritish, milliy valyuta qadrini oshirish va mustahkamlash;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish va samarali bojxona nazorat tizimini shakllantirish;
- mamlakat fani va intellektual salohiyati rivojlanishini qo'llab-quvvatlash;
- mamlakat hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ular o'rtafigagi o'zaro hamkorlik aloqalarini kuchaytirish orqali ichki iqtisodiy makonni mustahkamlash;
- xo'jalik sub'ektlarining xalqaro bozorlarga chiqishdagi mustaqilligi va erkinligini ta'minlash.

Shuni aytib o'tish joizki, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda iqtisodiy vosita va chora-tadbirlar bilan bir qatorda korrupsiya, tashkiliy jinoyatchilikka, xufyona iqtisodiyotga qarshi siyosi, huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy tavsifdagi chora-tadbirlar, vositalardan ham foydalaniadi. Bunda iqtisodiy boshqaruv organlari huquq-tartibot, milliy xavfsizlik xizmati, chegara, bojxona organlari bilan birgalikda faoliyat yuritadilar.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun asosiy shart-sharoitlar quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

- aholining sivilizatsion ehtiyojlari me'yorida yashash imkoniyatining yaratilishi. Bu kishilar uchun tanlash erkinligi hamda uzoq muddat mehnat qobiliyatini saqlagan holda faoliyat yuritish huquqi va majburiyatini ifodalaydi. Buning uchun bozorming o'z-o'zini tartiblash va iqtisodiyotni davlat tomonidan tartiblash mehanizmlari uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiluvchi resurs, energetik, transport, ishlab chiqarish va bozor infrastrukturalari shakllantiriladi;

- xotirjam yashash imkoniyatlarining yaratilishi. Buning uchun favqulorra noxush vaziyatlar vujudga kelishining oldini olish hamda ishonchli axborotga ega bo'lish uchun iqtisodiy sharoitlar vujudga keltirilishi lozim bo'ladi. Bundan ko'zlangan maqsad, birinchidan, iqtisodiy va texnogen xavf-xatarga qarshi turish, ikkinchidan, iqtisodiy jinoyatchilik va terrorizmning kuchayishiga qarshi turli imkoniyatlarni yaratish hisoblanadi;

- mamlakatning hududiy va iqtisodiy yaxlitligiga xavf soluvchi omillarning oldini olish. Bu omillar mamlakat hududlari rivojlanishi va aholi turmush darajasidagi farqlarning kattalashib ketishi tufayli vujudga keladi. Mamlakatning hududiy va iqtisodiy yaxlitligini ta'minlash uchun, birinchidan, yagona iqtisodiy makonni tashkil etish maqsadida pul va bank tizimini mustahkamlash, moliyaviy va savdo infratuzilmasini rivojlanirish; ikkinchidan, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajalarini bir-birlariga yaqinlashtirishga qaratilgan oqilona hududiy siyosatni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ushbu shart-sharoitlarni yaratish asosida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmining asosiy elementlari huquqiy baza, boshqarishning iqtisodiy uslublari hamda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish hisoblanadi.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning huquqiy bazasini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlar tashkil etadi. Endilikda esa "Xavfsizlik to'g'risida"gi Qonunni qabul qilish lozim bo'ladi.

Davlat iqtisodiyotini tartibga solishning quyidagi yo'naliishlarida ham faoliyat yuritiladi:

- iqtisodiyotdagi jarayonlarni obyektiv, keng qamrovli monitoringi, shu jumladan, shaxs, davlat va jamiyatning muhim hayotiy manfaatlariga ichki hamda tashqi tahdidlarni aniqlash va proqnozlashtirish uchun axborotlar bazasini yaratish;

- iqtisodiy manfaatlarga tahdidlarning oldini olish va salbiy oqibatlarini yengish hamda barham berish bo'yicha jarima va uzoq muddatli chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish. Bunda davlatning iqtisodiy xavfsizlik strategiyasini amalga oshirish bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish chora-tadbirlarining natijalari baholanadi.

Davlatning iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faoliyat quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi hamda davlatning barqarorligiga xavf tug'diruvchi omillarni aniqlash va monitoring qilish;

- ushbu omillarning zararli, salbiy ta'siriga barham berish yoki yumshatishga qaratilgan iqtisodiy siyosatni shakllantirish va institutsional o'zgarishlarni analga oshirish.

11.4. O'zbekistonda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari

Bozor munosabatlariiga o'tishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar sharoitida davlat xo'jalik subyektlari faoliyatining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashi va fuqarolarga ziyon keltirishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Ushbu maqsadlarda davlat, eng avvalo, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, kichik va o'rta biznesning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini ko'paytirish, iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish va raqobatbardoshligini rivojlantirish, fond bozori, yer va ko'chmas multk bozorlarini shakllantirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishi kerak. Bundan tashqari, hokimiyatning barcha bo'g'inlarida qonun loyihalarining sifati va asoslanganlik darajasini oshirish hamda qonunga barchani, hatto davlat hokimiyati organlarining ham qat'iy rioya etishlari bo'yicha tadbirlar amalgala oshirilishi zarur bo'ladi.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun davlat quyidagi larni ko'zda tutishi lozim:

-ijtimoiy institutlar strategiyasini bir-biriga yaqinlashtirish, ularning faoliyatini koordinatsiyalashtirishga imkon beradigan institutsional o'zgarishlarni amalgala oshirish;

-xo'jalik jarayonlarining barcha ishtirokchilari uchun lobbizmni qonuniy cheklash, qonunchilikni maksimal unifikatsiyalash (ya'ni imtiyozlari va turli preferenslarni qisqartirish va yo'qotish) uchun iqtisodiy va ijtimoiy xatti-harakatlarning umumiy tamoyillarini ishlab chiqish va qabul qilish;

-iqtisodiy subyektlari va davlat boshqaruv organlari tomonidan qonunlarga, faoliyat tartib – qoidalariga rioya qilinishini nazorat qilish;

-iqtisodiy munosabatlar sohasida vujudga keladigan munozara va ziddiyatlarni hal qilish mexanizmini yaratish;

- kadrlarni korxonalar xo'jalik faoliyatini tahlil qilish va investitsiya loyihamalarini baholashning zamonaviy usullariga o'qitishni tashkil qilish;
- jamiyatda iqtisodiy barqarorlikni oshirish va ijtimoiy keskinlikning o'sishiga yo'l qo'ymaslik;
- mamlakat iqtisodiy manfaatlarini hisobga olgan holda yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, siyosiy munosabatlarni har tomonlarma rivojlantirish.

Shunga muvofiq ravishda sobiq totalitar tizimdan bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlar yaqin istiqbolda quyidagi vazifalarni amalga oshirishlari lozim bo'ladi:

- 1) samarali va raqobatbardosh ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash va istiqboli yo'q, eskirgan ishlab chiqarishni to'xtatib qo'yish;
- 2) tarkibiy o'zgartirishlarni analga oshirish uchun zarur bo'lgan iqtisodiyot infratuzilmalarini rivojlantirish;
- 3) iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash;
- 4) mavjud ilmiy texnika salohiyatining eng qimmatli elementlarini saqlash;
- 5) iqtisodiyot tarkibining deformatsiyalashuviga barham berishda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, ishlab chiqarish tarkibini to'lovg'a qodir talab bilan uyg'unlashtirish;
- 6) korxonalarining bozor sharoitlariga moslashuvini tezlashtirish;
- 7) eksport salohiyatini diversifikasiyalash;
- 8) ekologik xavfsizlikni oshirishni ta'minlash.

Ushbu vazifalarni bajarish milliy iqtisodiyotning ko'pchilik tarmoqlarining raqobatga bardoshli emasligini bartaraf etishga imkon yaratadi. Bundan kelib chiqqan holda, tarkibiy siyosat mikro va makro iqtisodiyot darajalarida uch asosiy yo'nalishda amalga oshirilishi kerak, degan xulosa chiqarish mumkin. Buning uchun davlat hokimiyyat organlari mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun ma'lum tarmoq va sohalarni selektiv qo'llab-quvvatlashi darkor bo'ladi.

Makroiqtisodiyot darajasida tarkibiy siyosatni amalga oshirish jarayonida quyidagi vazifalar hal qilinishi zarur:

- jami talabni oshirish;

-jamg'arish normasini o'stirish va uni investitsiyaga aylanishini ta'minlash;

-rivojlanishdan to'xtab qolgan sektorlardagi barcha turdag'i resurslarning rivojlanayotgan sektorlarga oqib o'tishini rag'batlantirish;

-yalpi investitsiyalarni ko'paytirish;

-eksportni rag'batlantirish;

-umum qabul qilingan tartib-qoidalar doirasida milliy ishlab chiqaruvchilarni hinoya qilish maqsadida importni tartibga solish.

Mikroiqtisodiyot darajasida tarkibiy siyosatni amalga oshirish jarayonida quyidagi vazifalarni bajarish zarur bo'ladi:

-iqtisodiy nuqtai nazardan samarali korxona va ishlab chiqarishlarning rivojlanishini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash;

-samarasiz ishlab chiqarishlar va korxonalarni tugatish yoki reorganizatsiya, ya'ni qayta tashkil etish;

-yangi monopolistik tuzilmalarning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik;

-tarmoqlararo kapital oquvchanligini ta'minlash maqsadida fond bozorining rivojlanishini tartibga solish va rag'batlantirish;

-narx o'sishini to'xtatish chora-tadbirlarini ko'rish;

-iqtisodiy sub'ektlar xatti-harakatining bozorga xos normalarini joriy qilishni rag'batlantirish.

Mamlakatimizda 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining amalga oshirilishi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga egadir. Mamlakatda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uzoq muddatli strategik vazifa hisoblanadi. Bu vazifani amalga oshirish uchun iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash davlat strategiyasi, ya'ni doktrinasini ishlab chiqish va qabul qilish zarur bo'ladi. Ushbu davlat strategiyasi oliy milliy davlat manfaatlariga javob bera olishi kerak.

Iqtisodiy xavfsizlik davlat strategiyasida erishiladigan pirovard maqsad va uni amalga oshirish bosqichlari o'z ifodasini topishi lozim. Shu davrda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning kafolati bo'lgan davlatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'ladi:

-xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha xo'jalik va siyosiy xarakterdag'i qarorlarni qabul qilish;

-ijtimoiy jarayonlarni boshqarish mexanizmiga tahdidlarning paydo bo'lganligi to'g'risida signal beruvchi indikatorlarni kiritish;

-iqtisodiy tahdidlarni yumshatish, bartaraf etish, neytrallashga qaratilgan samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqishni amalga oshirish.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash konsepsiysi doimo uzoq muddatli milliy davlat manfaatlariiga asoslanadi. Boshqacha aytganda mazkur konsepsiya mamlakatning kelajagi to'g'risidagi tasavvurga, isloh qilishga, shuningdek, barqaror, mustahkam rivojlanish strategiyasiga bog'liq bo'ladi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Xavf,xavfsizlik, milliy xavfsizlik, iqtisodiy xavfsizlik, davlatning iqtisodiy xavfsizligi, korxona xavfsizligi,shaxs xavfsizligi, molivaviy xavfsizlik, ekologik xavfsizlik, kompensatsion salohiyat, xavfsizlik ko'rsatkichlari, xavfsizlikning quyi chegarasi, iqtisodiy tahdid, mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash konsepsiysi.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1.Xavfsizlik tushunchasining mazmuni nima?

2.Milliy xavfsizlik tushunchasining mohiyati va tarkibi nimalardan iborat?

3.Iqtisodiy xavfsizlik nima?

4.Iqtisodiy xavfsizlikning tarkibi nimalardan iborat?

5.Iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlari o'z ichiga qanday ko'rsatkichlarni oladi?

6.Xavfsizlikning quyi chegarasi deganda nimani tushunasiz?

7.Iqtisodiy xavfsizlikning shakllarini ko'rsatib bering.

8.Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini tavsiflab bering.

9.O'zbekistonda iqtisodiy xavfsizlikning ta'minlanganligini makroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida tavsiflab bering.

10.Iqtisodiy tahdid nima va uning namoyon bo'lish shakllari nimalardan iborat?

11.Davlatning iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash siyosatining mohiyatini va asosiy yo'nalishlarini aytib bering.

12.Mamlakatning iqtisodiy xavfsizlik konsepsiysi deganda ni'mani tushunasiz va uning mazmunini tushuntirib bering.

12-BOB. BOZOR IQTISODIYOTIDA DAVLATNING MAKROIQTISODIY MUVOZANATNI TA'MINLASH VA INQIROZGA QARShI SIYOSATI

12.1. Makroiqtisodiy muvozanat va uning namoyon bo'lish shakllari

Iqtisodiyotdagi barcha murakkab takror ishlab chiqarish aloqalari makroiqtisodiy muvozanat zaratligini oshiradi. Makroiqtisodiy muvozanat davlatning boshqaruvi ta'sirisiz ijobiy natijalarga erisha olmaydi. Bozor iqtisodiyotida bunday muvozanatni namoyon bo'lishining muhim shakli bo'lib, jami talab va jami taklif barqarorligi hisoblanadi. Birinchi galda obyektiv qonuniyat, ya'ni jamiyat daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi muvozanatning zarurati makrodarajada yuzaga keladi. Bu muvozanatning aniq shakli bo'lib, jami taklif (yaratilgan YaIM) va jami talab (iste'mol etilgan YaIM) o'rtasidagi muvozanat hisoblanadi. Bozor mustaqil holda, davlat aralashuviziz ta'kidlangan muvozanatni ta'minlay olmaydi.

Jami talab va jami taklif o'rtasidagi muvozanat yuzaga kelgan sharoitdagina makroiqtisodiy muvozanatga erishiladi. Jami talab va jami taklif o'rtasidagi mutanosiblikda ne'matlarni oldi-sotdisi, ma'lum bir muddat davomida milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan va yakuniy iste'mol etishga yo'naltirilgan jamg'arish, iste'mol va sof eksport bilan bog'liq jami munosabatlar yig'indisi namoyon bo'ladi. Bu esa tovar va xizmatlar bozori tushunchasidan xususiy bozorlar yig'indisi (poyabzal bozori, gazlama bozori, qurilish mollari bozori, qishloq xo'jaligi maxsulotlari bozori va b.) tushunchasini farqli ekanini bildiradi. Xususiy bozorlarda oraliq maxsulotlarning (xom ashyo, material, yoqilg'i va b.) oldi-sotdi joylari mavjud.

Butun iqtisodiyot darajasida o'zaro bog'liqlikdagi bozorlarning (ishlab chiqarish omillari bozori, mehnat bozori, pul bozori, moliya bozori va b.) unumiy tizimida tovar va xizmatlar bozori markaziy zveno bo'lib hisoblanadi.

Iqtisodiyotda jami talab va jami taklif chambarchas bog'liqlikda uchraydi. Jami talab – bu mavjud daromadlar va narxlar darajasida talab

eta olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar xajmidir. Jami taklif – bu mavjud narxlar darajasida ishlab chiqarilgan va taklif etilgan tovar va xizmatlar umumiy miqdoridir. Jami talab – bu iste'mol tovarlariga va xizmatlarga va investitsion tovar va xizmatlarga bo'lgan talab. Jami taklif ishlab chiqarilgan YalM ga teng bo'lib, jami talab uning iste'mol etilgan qismidir.

Iqtisodiyotning sektorlari va ularning xarajatlariga mos ravishda jami talabning tarkibiy qismi quyidagicha:

1. Uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari;
2. Xususiy sektorning investitsion xarajatlari;
3. Davlat budjeti tashkilotlarining tarkibi va ularni rivojlantirish uchun investitsiya va moddiy sarflarga davlat xarajati;
4. Sof eksport

Ba'zi adabiyotlarda jami talab tarkibining uchinchi qismida keltirilgan davlat budjeti tashkilotlariga qilinadigan sarflar va moddiy investitsiya davlat xarajatlari davlat xaridi deb ham yuritiladi. U quyidagilarni o'z ichiga oladi: davlat investitsiyasi, milliy mudofaaga xarajatlari, davlat tashkilotlari xodimlariga ish haqlari va h. Bu o'rinda davlat tashkilotlari xodimlariga beriladigan ish haqlari uy xo'jaliklarini iste'mol xarajatlariga sarfini aks ettiradi bu esa ikki marotaba hisoblashni keltirib chiqaradi. Uy xo'jalaiklarining iste'mol xarajatlari, xususiy sektorning investitsion xarajatlari, davlat xaridi va sof eksport yig'indisi iste'mol etilgan YalM miqdoridan ko'p bo'lishini keltirib chiqaradi. Taklif etilayotgan jami talab tarkibi haqiqatga yaqinroqdir. U takror hisoblashdan xoli.

Jami talabda investitsiya xususiy sektorda qanday bo'lsa davlatda ham shunday hisobga olinadi. Shu sababli makroiqtisodiy investitsiya mikroiqtisodiyidan farqlanadi. Shuday ekan uy xo'jaliklari va firmalar uchun investitsiya nafaqat real kapitalga qo'yilma qilish balki moliyaviy aktivlarga qo'yilma qilish ham hisoblanadi (aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlar). Makroiqtisodiy nuqtai nazarda moliyaviy aktivlarni (qimmatli qog'ozlar va boshqalar) sotib olish investitsiya

hisoblanmaydi. Investitsiya makroiqtisodiy nuqtai nazardan faqat real kapital xarid qilish va asosiy kapitalga mablag‘ sarflash hisoblanadi.

Jami talab xajmi uy xo‘jaliklarini ish kuchini sotishdan olgan daromadlariga, yakka tartibdagi tovar ishlab chiqarish faoliyatiga, soliqqa tortish hajmiga, mamlakatdagi narxning umumiy darajasiga, muomaladagi naqd pul miqdoriga, narx o‘zgarishining kutilishiga, kutilayotgan foydaga, bank kredit foizlarining o‘sishiga bog‘liq.

Jami talab va narx darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlik teskari, biroq jami taklif va narx darajasi to‘g‘ri bog‘langan, ya’ni narx darajasi qancha yuqori bo‘lsa, shuncha taklif ko‘p bo‘ladi. Ishlab chiqarishga ta’sir etuvchi omillar bu jami taklifga ham ta’sir etuvchi omillar hisoblandi.

12.2. Iqtisodiy sikl va inqirozlarning kelib chiqish sabablari

Jami talab va jami taklif, ishlab chiqarish bilan iste’mol, iste’mol va jamg‘arish hamda daromadlar bilan xarajatlar o‘rtasida ziddiyat vujudga kelganida va bu ziddiyat kuchayib ketganida inqirozlar yuzaga keladi. Muvozanatning buzilishi iqtisodiyotda tang ahvol, krizisga olib keladi. Krizis —bu murakkab jarayon. Unga turli jihatdan yondashish mumkin. Krizislар turli-tuman tarzda ro‘y bersa-da, ularni umumiy, o‘xshash tomonlarini nazarda tutib guruhlarga ajratish mumkin:

1. Xo‘jalik tizimida muvozanatning buzilishi miqyosiga ko‘ra, krizislarni umumiy hamda ayrim sohalarda yuz beradigan krizislarga bo‘lish mumkin. Umumiy krizislар butun milliy xo‘jalikni qamrab oladi, ikkinchisi esa qisman, ya’ni ayrim sohalar yoki tarmoqlarga xos tanglik tarzida yuz beradi. Masalan, moliyaviy krizis — davlat moliyasini chuqur tanglikka tushishi. U surunkali budjet taqchilligida namoyon bo‘ladi. Eng yomoni, davlatning chet el qarzlar bo‘yicha to‘lov qobiliyatini yo‘qotishidir. 1929-1933 yili Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Italiya, 1998 yili Rossiya tashqi zayomlar bo‘yicha to‘lovni to‘xtatishgan. 1931 yili AQSh tashqi qarzlar bo‘yicha hamma to‘lovlarни bir yilga muddatini uzaytirgan. 1998 yili Indoneziyada ro‘y bergen

moliyaviy krizis tufayli aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan YaIM 14,6%ga pasaydi.

Pul-kredit krizi. Mamlakatda pul-kredit tizi mining tang ahvolga tushishi bo'lib, bunda tijorat va bank krediti qisqaradi. Banklardan mijozlar yoppasiga o'z pullarini olishni boshlaydilar. Tadbirkorlar va aholi naqd pul ketidan quvishga tushadilar. Aksiya va obligatsiyalarning kursi, bank protsenti tushib ketadi. Banklar sinib, yalpi bankrotga uchraydilar.

Valyuta krizisi. Bunda milliy valyutaning obro'si tushib ketadi. Chet elning obro'li valyutalar yetishmaydi. Bankda valyuta zaxirasi tugab boradi, milliy valyuta kursi tushib ketadi. Aholining obro'li valyuta ketidan quvishi ahvolni yanada qiyinlashtiradi. Bunga yorqin misol sifatida Argentina va Tailandda yuz bergan krizislarni ko'rsatish mumkin.

Birja krizisi. Bu tanglik birjada qimmatbaho qog'ozlar kursini birdan tushib ketishi va ularda emissiya qilishni qisqarishi, fond birjalari faoliyatidagi chuqur tushkunlikda ifodalanadi.

Ekologik krizis. Atrof-muhitni, eng avvalo, inson salomatligini yo'qotish, umrining qisqarishiga olib keladigan darajadagi vaziyatning vujudga kelishi bilan ifodalanadi. U sanoatni shiddatli tarzda o'sishiga yo'l qo'yaydi.

Tarmoqlar krizisi. Bunday krizis milliy xo'jalikni biron-bir tarmog'ini qamrab olib, ishlab chiqarishning tarkibiy o'zgarishi yoki normal xo'jalik aloqalarining buzilishi tufayli yuz beradi. Misol qilib, 1958-1962 yillarda dengiz kemachiligi (kema qatnovi), 1977 yil to'qimachilik sanoati inqirozini ko'rsatish mumkin.

Agrar krizis. Bunday krizis qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosining keskin tarzda qisqarib ketishi, qishloq xo'jalik mahsulotlari narxlarining keskin tushib ketishi bilan ifodalanadi.

Struktura-tarkibiy krizis. Ishlab chiqarish tarmoqlari o'rtasidagi normal nisbatlar buzilishi tufayli tarkibiy krizis yuz beradi. Bunda bir tarmoq boshqa tarmoqning hisobiga rivojlanadi. Natijada, bu tarmoqda

ahvol og'irlashadi. Misol uchun 70-yillarning o'rtaida ro'y bergan xom ashyo, energetika krizislarini ko'rsatish mumkin.

2. Iqtisodiyotda muvozanatning buzilishi muntazam yoki aksincha tarzda yuz berishiga ko'ra davriy, oraliq, nomuntazam krizislarga bo'linadi.

Davriy (siklli) krizislar ma'lum vaqt mobaynida takrorlanib turadi.

Oraliq krizislar — to'liq sikl bo'yicha yuz bernaydi. Siklning biron-bir fazasida to'xtatiladi. Ular nisbatan uncha chuqur emas, ammo qisqa muddat davom etadi.

Nomuntazam krizislar biron-bir alohida sabablarga ko'ra yuz beradi. Masalan, tabiiy ofat-sel, to'fon, qurg'oqchilik kabilalar tufayli iqtisodiyot tang ahvolga tushishi mumkin.

3. Takror ishlab chiqarish nisbatlarining buzilishi xarakteriga ko'ra krizislar ikkiga: ortiqcha ishlab chiqarish va taqchil ishlab chiqarish krizislariga bo'linadi. Tovarlarni ortiqcha ishlab chiqarish krizisi turli naf keltiradigan ne'matlarni ko'p ishlab chiqarish, lekin ularni to'la realizatsiya qila olmaslik bilan xarakterlanadi.

Taqchil ishlab chiqarish krizisi davrida yetishmovchilik natijasida tang ahvol yuzaga kedadi, chunki muvozanat buziladi. Shunday qilib, iqtisodiyotni tang ahvolga tushishiga faqat ortiqcha ishlab chiqarish emas, balki taqchil ishlab chiqarish ham sabab bo'ladi.

Krizislarning mohiyatini yoritish uchun odatda, davriy, ya'ni takrorlanadigan krizislar o'rganiladi. Vaqt-vaqt bilan takrorlanadigan krizislar siklning takrorlanish muddatiga ko'ra: qisqa, o'rta va uzoq sikllarga bo'linadi.

Taniqli iqtisodchilardan Y.Shumpeter iqtisodiyotning siklli rivojlanishini tadqiq qilib, iqtisodiyotda tebranishlar uch darajada yuz berishini ko'rsatdi va bu sikllarni ularni kashf etgan iqtisodchilar J.Kitchin, K.Juglyar, N.D.Kondratevlar nomi bilan atadi hinda iqtisodiyotda uchala sikl o'zaro bog'liq, o'zaro aloqadorlikda namoyon bo'lishini qayd etadi.

P. Samulson esa iqtisodiy sikl bozor iqtisodiyoti sharoitida hamma mamlakatlar hamda iqtisodiyotning barcha sohasi uchun taalluqli deydi.

1. Qisqa muddatli sikk (2-4 yil) iste'mol tovarlariga bo'lgan bozor talabi va taklifi muvozanatining buzilishi va tiklanishi tarzida yuz beradi. Bu siklda ishlab chiqarish hajmi bozor konyunkturasiga qarab o'zgaradi:

— narxlar darajasi kam o'zgaradi, ko'pchilik firmalar o'z xaridorlarini yo'qotmaslik uchun tovarlar narxini uzoq vaqt (yilda bir marta) o'zgartirmaslikka harakat qiladilar;

— ish bilan bandlik ham nisbatan barqaror, tebranish kichkina, asosan, alohida korxona va tarmoqlarda ish haqi o'zgarishiga bog'liq;

— soyda normasi ham bu davr mobaynida kam o'zgaradi;

— qisqa muddatli davr uchun miqdoriy ko'rsatkichlar kam o'zgaradi.

2. O'rta muddatli sikk (7-12 yil) tebranishlar katta, bu esa muvozanatning chuqur buzilganini ko'rsatadi:

— jamiyatda iqtisodiyotgina emas, balki ijtimoiy sohada ham barqarorlik buziladi;

— eng asosiysi, iqtisodiy o'sish tushkunlik bilan almashadi.

Iqtisodiy siklning klassik varianti 4 fazadan iborat bo'lib, ularning har birida ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, narxlar darajasi, ish bilan bandlik, protsent normasi turli xil bo'lishiga kuzatilgan.

Siklning birinchi fazasi krizis (tanglik, tushkunlik) bo'lib, iqtisodiy o'sish darajasi va sur'ati tushib ketadi, so'ngra mahsulot ishlab chiqarish hajmi qisqaradi. Realizatsiya qilinmagan tovarlar zaxirasi ko'payib boradi va korxonalarining yoppasiga bankrot bo'lishiga olib keladi. Natijada ishsizlik ko'payadi, ish haqi pasayadi. Qimmatbaho qog'ozlar bozorida aksiya kursi tushib ketadi. Tadbirkorlarning pulga ehtiyojlari ortadi, qarz to'lash uchun bank protsenti o'sadi.

Krizisdan keyingi faza—depressiya(turg'unlik) fazasi keladi. Bu fazada ishlab chiqarishdagi tushkunlik ham narxlar tushishi ham to'xtaydi. Tovar zaxiralari va pul kapitalining massasi ko'payib, bank protsenti stavkasi eng past darajaga tushadi. Tovar taklifini talabdan ortib ketishi to'xtaydi.

Jonlanish fazasi keladi. Bunda ishlab chiqarish avvalgiga nisbatan o'sadi, tovar zaxiralari bozorni uzlusiz ta'minlash darajasida bo'ladi. Sotib olish quvvati o'sishi bilan jonlanish kuzatiladi. Pul kapitaliga talab ortadi, protsent o'sadi, narxlar ham o'sa boshlaydi.

Jonlanishdan so'ng yuksalish fazasiga o'tiladi. Mahsulot ishlab chiqarish avvalgiga nisbatan o'sadi, ishsizlik kamayadi, talab ortishi natijasida narxlar o'sadi. Kreditga talab oshib, protsent ham o'sadi. Investitsion tovarlar ishlab chiqarishning ko'payishi bilan xom ashyo resurslariga talab ortadi, narxlar ham o'sadi. Jonlanish fazasida yuzaga kela boshlagan disproportsiya kuchaya boradi. Iqtisodiyot yangi tushkunlikka yaqinlashadi va yana tushkunlik davri boshlanadi. Ana shunday tarzda sikl qaytariladi.

Birinchi krizis 1825 yili Angliyada yuz berdi, so'ngra 1836 yili Angliya va AQShda, 1841 yili AQShda, 1847 yili AQSh, Angliya, Fransiya va Germaniyada. 1857 yilgi krizis birinchi jahon siklik krizisi bo'lib tarixda qoldi, keyin – 1873, 1882, 1890 yillardagi krizis ro'y berdi. Iqtisodiyotga nisbatan katta talafotlar keltirgan krizis – 1900-1901 yildagi tushkunlik bo'ldi.

3. Uzoq muddatli sikl. (40-60 yil).

XIX asr oxiri XX asr boshlarida ko'pchilik iqtisodchilar statistik ma'lumotlar asosida narxlar va protsent stavkalarining ko'tarilishi hamda tushishiga e'tibor qaratishda. Keyinchalik esa u bilan bog'liq iqtisodiy jarayonlarda ham o'zgarishlar sodir bo'lishi sabablarini izohlab berishga harakat qilishdi.

Rus iqtisodchisi N. D. Kondratev (1892-1938 yil) katta yuksalish asosini ishlab chiqarishga yangi texnologiya, jahon xo'jaligiga yangi mamlakatlarning qo'shilishi (iqtisodiy ravnraqi), oltin qazib olish hajimining o'zgarishi, umuman, texnik taraqqiyot, ishlab chiqarishning tarkibiy o'zgarishi bilan bog'laydi.

Muvozanatning tiklanishi fazasida asosiy kapitalning passiv qismi yangilanadi, o'rta siklda esa, asosan, aktiv qismi yangilanadi.

Shu bilan birga, katta sikllarning davri aniqlanadi:

- 1- to'lqin 1772-1783 yillardagi depressiyadan 1812-1825 yildagi beqarorlikkacha;
- 2- to'lqin 1825-1838 yillardagi depressiyadan 1866-1873 yillardagi beqarorlikkacha;
- 3- to'lqin 1873-1885 yillardagi depressiyadan 1913-1929 yillardagi beqarorlikkacha;
- 4- to'lqin 1929-1938 yillardagi depressiyadan 1966-1974 yillardagi beqarorlikkacha;
- 5- to'lqin 1974-1982 yillardagi depressiyadan boshlangan. Bu to'lqin, iqtisodchilarning fikricha, 2010 yillargacha davom etishi va 2010-2015 yillardan yangi 6-to'lqin boshlanishi mumkin. Bu sikl mikroelektronika, boshqariladigan termoyadro energetikasi, gen injenerligini ishlab chiqarishga jalb etilishi bilan ajralib turadi.

12.3.Davlatning antisiklik barqarorlashtirish siyosati vositalari va ularning O'zbekistondagi xususiyatlari

Davlat tomonidan makroiqtisodiy antisiklik tartibga solish iqtisodiy fanda qisqa muddatli barqarorlashtirish, yoki diskresion iqtisodiy siyosat deb ham ataladi. Antisiklik siyosatning maqsadi siklik o'zgarishlarga muvofiq chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali barqaror, mutanosib, muvozanatlari iqtisodiy o'sish va rivojlanishga erishishdir. Barqarorlik, mutanosiblik va muvozanatilik maqsadiga erishish natijasida milliy iqtisodiyot imkoniyat qadar Yalpi ichki mahsulotning potensial darajasiga va to'liq bandlikka, inflyatsiya (deflyatsiya)ning barqaror past darajasiga yaqinlashadi.

Iqtisodiyotning siklik tebranishlarini yumshatish davlat tomonidan iqtisodiy konyunktura pasayishi sharoitidagi ekspansiya siyosatini, konyunktura o'sishi va yuqoriga ko'tarilishi sharoitidagi restriksiya siyosatini qo'llash orqali erishiladi. Antisiklik tartibga solish maqsadiga erishish uchun fiskal(budget-soliq) va monetar (pul-kredit) siyosati instrumentlaridan foydalaniлади. Hozirgacha to'plangan jahon amaliyoti tajribasi retsessiya bosqichida ko'proq budget-soliq

siyosatining tartibga solish vositalari ko'proq samarali ekanligi, ko'tarilish, yuksalish bosqichida esa pul-kredit siyosati vositalaridan foydalanish ko'proq samara berishi isbotlangan.

Ta'kidlash joizki, agar inflyatsiya jarayonlarining kelib chiqishi sababli monetar omillari bilan ko'proq bog'liq bo'lsa, u holda Markaziy bank iqtisodiyotni tartibga solishda yetakchi rol o'ynaydi. Agar mamlakatda talab inflyatsiyasi emas, balki taklif inflyatsiyasi yuz bersa, u holda inflyatsiyaga qarshi tartibga solishda monopoliyaga qarshi davlat organlarining roli ortadi. Shuningdek, soliq organlari ham antiinflyatsion tartibga solishda yetakchi rol o'ynaydi.

Iqtisodiy pasayish va depressiya bosqichida davlat quyidagi dastaklardan foydalanadi:

1. **Soliqlarni qisqartirish**, buning oqibatida kishilarning iste'molga bo'lgan moyilligining ortishiga olib keladi hamda uy xo'jaligi va kompaniyalarning iste'mol va investitsiyaga bo'lgan talabi rag'batlantiriladi.

2. **Davlatning investitsion va ijtimoiy yo'nalishlaridagi xarajatlarining o'sishi**. Bu o'z navbatida multififikatsion samaraning tug'diradi. Davlat xarajatlarining YaIM dagi ulushi nisbatan ortadi. Noxush konyunktura sharoitida budjet-soliq siyosati chora-tadbirlaring amalga oshirilishi natijasida budjet defitsiti o'sadi. Bu esa defitsitni qoplash uchun davlat qarzları ning ham oshishiga olib keladi. Ammo shunday ekspansionistik xarakatlardan natijasida jami talab YaIM ning o'sishi, so'ngra aholining ish bilan bandligining o'sishi rag'batlantirilishi iqtisodiy va moliyaviy muamminolarning keskinligi yumshatiladi.

3. **Pul-kredit ekspansiyasi**. Markaziy bank tomonidan foiz stavkasining kamayishi iqtisodiyotda arzon pullarning qo'shimcha tarzda kirib kelishiga sabab bo'ladi. Bu hol monetar siyosatning yumshashishiga va investitsion faollikni rag'batlantirishga olib keladi.

Jadal iqtisodiy yuksalish bosqichida, tovar zapaslarining keskin kamayishi, ish xaqi, ishlab chiqarish xarajatlari va umumiy narx darajasining o'sishi xavfi vujudga kelganda hukumat soliqlarni oshiradi

va davlat xarajatlarini kamaytiradi. Bunday fiskal restriksiya iqtisodiy o'sishning sezilarli darajada sekinlashiga, yashirin iqtisodiyot ko'laming kengayishiga, ish o'rinalarining qisqarishiga olib keladi. Ammo restriktiv budget-soliq siyosati orqali jami talab, investitsiyalar, ishlab chiqarish va bandlik o'sishining to'xtatilishi budget defitsitining qisqarishiga, hatto ijobjiy saldoning tiklanishiga olib keladi. Buning natijasida vujudga keladigan budgetdagi ortiqcha mablag'lari davlat tashqi qarzlarini to'lashiga yo'naltirilib, ular qoplanadi hamda zahira fondlari tashkil etiladi.

Hozirgi davrda davlatning antisiklik tartibga solish siyosati ikki ilmiy model, konsepsiyalarga, ya'ni J.M.Keyns qarashlariga tayanuvchi neokeyschilik va M. Fridman qarashlariga tayangan neokonservativ (monetar) nazariy konsepsiyalarga asoslangan. Neokeyschilar konsepsiysi ustuvor ravishda budget-soliq siyosati vositalari yordamida jami talabni tartibga solishga yo'naltirilgan. Bu makroiqtisodiy yondashuv hisoblanadi. Monetar nazariya ustuvor ravishda pul-kredit siyosati vositalari yordamida jami taklifni tartibga solishga, ayrim kompaniyalar uchun rag'bat (stimul) larni yaratishga yo'naltirilgan. Bu mikroiqtisodiy yondashuvdir.

O'zbekistonda davlatning maroiqtisodiy tartiblash va barqarorlashtirish siyosati ham zamonaviy makroiqtisodiy tartiblash modellarini chuqur tahlil qilish va respublikamizning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qo'llanishiga asoslangan. Mamlakatimiz iqtisodiyotining mustaqillikka erishgan dastlabki davrdagi makroiqtisodiy ahvolining o'ziga xosligi O'zbekistonga totalitar tuzumdan zaif, bir yoqlama rivojlangan, xom ashyoga ixtisoslashgan, paxta yakkahokimligiga asoslangan iqtisodiyot meros bo'lib qolganligi bilan izohlanadi. Sobiq Ittifoqning inqirozi tufayli respublikalar o'rtasida ro'y bergan iqtisodiy aloqalarning buzilishi XX asr 90-yillari boshida ishlab chiqarish hajmining keskin kamayib ketishiga olib keldi.

Mustaqillikka erishilgandan so'ng mamlakat iqtisodiyotini chuqur tanazzuldan chiqarish, uning makroiqtisodiy barqarorligini ta'milash

maqsadida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlashtirish siyosati ishlab chiqildi. Barqarorlashtirish dasturini ishlab chiqishda tanglik hodisalarining oldini olish, iqtisodiyotning holatini ifoda qiladigan ko'rsatkichlarni yaxshilashga, shu bilan birga mamlakatni tanglikka olib kelgan ichki sabablarni chuqur o'rghanish, chalg'ishlar va nomutanosibliklar bo'lishi mumkinligiga o'z vaqtida etibor qaratish, tanglik hodisalari kelib chiqishining oldini olish tadbirlarini faol amalga oshirish g'oyat muhim ekanligi belgilab olindi.

Barqarorlashtirish siyosatni ishlab chiqishda jahon tajribasida barqarorlashtirish siyosatini amalga oshirishning ikki yondashuvni tahlil qilinib, qattiq monetarizmga tayanmaslik kerakligi asoalandi. O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlashtirish dasturi doirasida quyidagilar amalga oshirildi:

- milliy valyuta joriy qilinib, mustaqil pul muomalasi yo'lga qo'yildi;
- pul muomalasida ilgari yuzaga kelgan giperinflyatsion jarayonlar so'ndirilib, inflyatsiya darajasi nazorat qilish mumkin bo'lgan darajaga tushirildi;
- tovarlar va xizmatlar bozorida to'lovga qobil jami talab bilan jami taklifni muayyan darajada baravarlashtirishga erishildi;
- qat'iy moliiyaviy siyosatni o'tkazish asosida davlat budgetidagi kamomad yo'l qo'yilgan eng kam daraja (yalpi ichki mahsulotning 3-4%ni atrofida) doirasida ushlab turildi;
- yonilg'i-energetika resurslari hamda g'alla importini keskin kamaytirish, shuningdek, energetika resurslari va rangli metallarni eksport qilishni oshirish hisobiga tashqi savdoda ijobiylarga erishildi.

O'zbekistonda bunday siyosatning amalga oshirilishi natijasida islohotlarning birinchi bosqichida 1991 yilga nisbatan iqtisodiy pasayish boshqa MDH davlatlaridek og'ir kechmadi. Yalpi ichki mahsulot 1995 yilda 1991yilga nisbatan 18,8%ga kamaydi. Makroiqtisodiy barqarorlashtirish siyosatining asosi sifatida qattiq monetar yondashuvni qabul qilgan boshqa MDH davlatlarida YALM hajmi 40-60%, shu jumladan, Rossiyada 53%, Ukrainada 52 %ogacha,

Belorussiyada -54,6%, Qozog'istonda 75,4%ga teng bo'ldi. O'zbekistonda YalMning eng katta pasayishi 1992 yilda kuzatilgan. Shu yili YalM 11 %ga kamaygan. 1995 yilda esa 1,2 %ga pasaygan, xolos.

O'zbekiston iqtisodiyoti 1996 yildan boshlab o'sish tendensiyasini namoyish qila boshladi. YalM ning yillik o'rtacha o'sish sur'atlari 1996-2003 yillarda 4%ni tashkil etdi. 2004 yildan boshlab 2019 yilgacha iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash natijasida mamlakat iqtisodiyoti yiliga barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini namoyish qildi¹¹⁶ (qarang:12.3.1-jadval).

12.3.1-jadval.

O'zbekiston Respublikasining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari(%hisobida)¹¹⁷

| ko'rsatkichlar | 1991y. | 2000y. | 2010y | 2017y | 2019y | 2020y | 2021y |
|---|--------|--------|-------|-------|-------|-------|-------|
| YalM(ishlab chiqarilgan) | 99,5 | 103,8 | 108,5 | 105,3 | 105,6 | 101,6 | 107,4 |
| YalM aholi jon boshiga | 96,7 | 102,4 | 106,7 | 102,7 | 103,6 | 99,7 | 105,3 |
| Sanoat ishlab chiqarishi | 101,5 | 105,9 | 108,3 | 107,0 | 106,6 | 100,7 | 108,7 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 98,9 | 103,1 | 106,8 | 102,0 | 102,5 | 103,0 | 104,0 |
| Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar | 105,0 | 101,0 | 109,2 | 107,1 | 133,9 | 91,8 | 105,2 |
| Qurilish | 96,6 | 103,0 | 105,1 | 105,6 | 119,0 | 109,1 | 106,8 |
| Yuk tashish | 101,7 | 100,2 | 110,3 | 102,5 | 106,1 | 104,5 | 110,6 |
| Yo'lovchi tashish | 99,5 | 102,5 | 106,3 | 103,3 | 102,7 | 87,0 | 108,7 |
| Chakana savdo | 82,3 | 107,6 | 113,6 | 102,4 | 105,0 | 103,2 | 112,0 |
| Pulli xizmatlar | 84,2 | 115,7 | 112,5 | 108,9 | 195,1 | 102,3 | 119,2 |
| inflyatsiya (o'tgan yilning dekabriga%) | | | 107,3 | 111,4 | 115,2 | 111,1 | 110,0 |

¹¹⁶Основные тенденции и показатели экономического и социального развития Республики Узбекистан за годы независимости (1990 – 2010 гг.) и прогноз на 2011 – 2015 гг.: Стат. Сб. – Т: Узбекистан, 2011. С. 13; Анализ макроэкономических показателей Республики Узбекистан за годы независимости (1991-2016гг.)://www.stat.uz.

¹¹⁷ «Основные тенденции и показатели экономического и социального развития Республики Узбекистан за годы независимости (1990 – 2010 гг.) и прогноз на 2011 – 2015 гг. Статсборник – Т: Узбекистан2011. – С. 14, 15, 18. , Альманах Узбекистана -2013.-Т., ЦЭИ, 2013г.-С 82, Альманах Узбекистана-2017г.-Т., 2017.-С.22 ; Социально-экономическое положение Республики Узбекистан за январь-декабрь 2017 года -Т., Госкомстат РУ, 2018.-С.14.малъумотлари исосида тутилди.

| | | | | | | | |
|------------------------|------|-------|-------|-------|-------|------|-------|
| Tashqi savdo aylanmasi | 60,2 | 97,9 | 104,7 | 111,0 | 126,2 | 86,9 | 116,0 |
| Eksport | 67,5 | 100,9 | 110,6 | 114,9 | 128,0 | 86,6 | 110,0 |
| Import | 57,9 | 94,8 | 97,2 | 107,2 | 124,9 | 87,2 | 120,4 |

Islohotlarni yanada chuqurlashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashga doir dasturlarning amalga oshirilishi tufayli 2007-2016 yillarda YalM 2,2 martadan ziyodga o'sdi. Iqtisodiy o'sishning asosiy omillari va manbalari tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, yuqori, barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlari shu davrda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning 1,9barobarga (o'rtacha o'sish sur'ati 6,5%), sanoat-1,7 barobarga (5,6%), qurilish – 3,9 barobarga (15,0%), xizmat ko'rsatish sohasi- 2,5 barobarga (9,7%) o'sishi hisobiga erishildi¹¹⁸. 2017-2019 yillarda YalM ning yillik o'sish sur'ati 5 foizdan yuqori darajalarni tashkil etdi. 2019 yilda bu ko'rsatkich 5,6%ni, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 106,6%ga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishi 102,5%ga, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 133,9%ga, tashqi savdo aylanmasi 126,2% ga, eksport 128,0%ga, import 124,9%ga o'sdi. Tashqi savdoning ijobiliy saldosи 2017 yilda 880,2 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2018 yilda – mln 2019 yilda - 6043,8 mln AQSh dollarini tashkil etdi. 2020 yilda esa koronavirus pandemiyasi va global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz tufayli iqtisodiy ko'rsatkichlar pasayish tendensiyasiga ega bo'ldi.

¹¹⁸ Аналіз макроэкономических показателей Республики Узбекистан за годы независимости (1991-2016гг //Госкомстатистики Республики Узбекистан //www.stat.uz.

12.4. Global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz va koronavirus pandemiyasining salbiy oqibatlarini bartaraf etish va O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish istiqbollari

Ko'plab mamlakatlarni qamrab olgan 2009-2012 yillarda sodir bo'lgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi O'zbekistonga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Bunga sabab O'zbekiston bugun xalqaro hamjamiyatning va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qisimiga aylangan. Buning tasdig'iini, respublikamizning tashqi dunyo bilan aloqalarining tobora kengayib borayotganida, rivojlangan mamlakatlar ko'magida va hamkorligida mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarini rivojlantirish, modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha dasturlarning analga oshirilayotganida, O'zbekistonning xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvida, mahsulot va tovarlar importi va eksportining o'sib borishida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining O'zbekistonga ta'siri boshqa ko'pgina davlatlarga nisbatan bir muncha yumshoq bo'layotganini hayotning o'zi tasdiqlamoqda. Bunga sabab O'zbekistonda qabul qilingan o'ziga xos islohot va modernizatsiya modeli asosida mamlakatimizda amalga oshirilgan tub o'zgarishlar milliy iqtisodiyotimizning barqaror va mutanosib rivojlanishini tashqi salbiy holatlarga, turli inqirozlarga bardoshli bo'lishini ta'minladi. O'zbekistonda ushbu siyosat orqali moliyaviy-iqtisodiy, budget, bank-kredit tizimi, shuningdek, iqtisodiyotning real sektori korxonalari va tarmoqlarining barqaror hamda uzuksiz ishlashini ta'minlash uchun asos yaratilgan.

O'zbekistonda qisqa muddatli spekuliyativ kreditlardan voz kechib, chet el investitsiyalarini uzoq muddatli va imtiyozli foiz stavkalari bo'yicha jalb etish tamoyiliga doimo amal qilib kelinganligi tufayli ham respublikaning tashqi qarzi 13,3% miqdorida bo'ldi. Vaholanki, ko'plab davlatlarning tashqi qarz masalasidagi puxta o'ylanmagan siyosati ularning iqtisodiyotini zaif, tashqi omillarga qaram, xatarli vaziyatlar

oldida himoyasiz va nochor ahvolga solib qo'yanini ko'rish, kuzatish qiyin emasligini Yurtboshimiz o'zining asarida asoslab berdi.

O'zbekistonda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining oqibatlarini oldini olish va yumshatish imkonini bergen omillar quyidagilardan iborat bo'ldi:

- Tijorat banklarining likvidliligi va kapitallashish darajasini oshirishga qaratilgan siyosatning 2005 yildan boshlab izchillik bilan amalga oshirilganligi.
- Puxta o'ylangan pul-kredit siyosatining amalga oshirilishi natijasida infliyatsiyaning prognoz ko'rsatkichlari chegarasida saqlab qolinayotganligi.
- Oqilona budjet-soliq siyosatining olib borilganligi natijasida Davlat budjeti profitsit bilan bajarilmoxda, soliq yukining pasayib borish tendensiysi kuzatilmoqda.
- Tashqi savdo tarkibida chuqur ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirishga muvaffaq bo'linganligi.
- Mamlakat iqtisodiyotiga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar miqdorining barqaror o'sish sur'atiga ega bo'layotganligi.
- Mamlakat tashqi qarzining mo'tadil darajasini ta'minlashga muvaffaq bo'linganligi.
- Fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash uchun davlat tomonidan katta miqdorda moddiy va moliyaviy resurslar ajratilayotganligi.

Mamlakatimizda jahon iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha 2009-2012 yillarga mo'ljallab qabul qilingan Inqirozga qarshi choralar dasturi O'zbekistonni 2009 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishi bo'lib qoladi.

Inqirozga qarshi dasturning eng muhim yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

Birinchidan – korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish.

Ikkinchidan – joriy kon'yunktura keskin yomonlashib borayotgan hozirgi sharoitda eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarining tashqi

bozorlarda raqobatdosh bo'lishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha konkret chora-tadbirlarni amalga oshirish va eksportni rag'batlantirish uchun qo'shimcha omillar yaratish:

- aylanma mablag'larini to'ldirish uchun korxonalarga Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 70 foizidan ortiq bo'lmanan stavkalarda 12 oygacha bo'lgan muddatga imtiyozli kreditlar berish;

- tayyor mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, xorijiy investitsiya ishtirokida tashkil etilgan korxonalarini budgetga barcha turdag'i soliq va to'lovlardan – qo'shimcha qiymat solig'i bundan mustasno – ozod qilish muddatini 2012 yilgacha uzaytirish;

- banklar kreditlari bo'yicha to'lov muddati o'tgan va joriy qarzlar miqdorini qayta ko'rib chiqish, budgetga to'lanadigan to'lovlarining penyasidan kechish hamda boshqa muhim imtiyoz va preferensiyalar berish.

Uchinchidan – qat'iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag'batlantirish hisobidan korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish.

To'rtinchidan – elektroenergetika tizimini modernizatsiya qilish, energiya inte'molini kamaytirish va energiya tejashning samarali tizimini joriy etish.

Beshinchidan – jahon bozorida talab pasayib borayotgan bir sharoitda, ichki bozorda talabni rag'batlantirish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarini qo'llab-quvvatlash iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolishda g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy ta'sirini bartaraf etish hamda inqirozdan so'ng barqaror va mutanosib iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash maqsadida ishlab chiqarishni uzlusiz modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash, iqtisodiyot raqobatbardoshligini doimiy ravishda oshirish, eksport salohiyatini o'stirish maqsadida innovatsiyalarni joriy etish asosida chuqur tarkibiy o'zgartirishlar qilish uchun eng muhim investitsiyaviy loyihalar dasturi amalga oshirildi.

O'zbekistonda koronavirus pandemiyasi va global inqirozning salbiy oqibatlarini yumshatish maqsadida 2020 yil 19 martda "Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5969-son, 2020 yil 4 apreldagi "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik cub'ektlarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5978-son, 2020 yil 27 apreldagi "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi va tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5986-son, 2020 yil 18 maydag'i "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5996-son, 2020 yil 27 iyuldag'i "Koronavirus pandemiyasining salbiy ta'sirini kamaytirish uchun aholi, tadbirkorlik sub'ektlari, umumiy ovqatlanish, savdo va xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6029-son farmonlari qabul qilindi.

Koronavirus pandemiyasi va global moliyaviy-iqtisodiy inqirozga kurash bo'yicha O'zbekiston tomonidan amalga oshirilishi ko'zda tutilgan choralar to'plamini 4 ta yo'nalishdan iborat bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- Umumiqtisodiy chora-tadbirlar;
- Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralari;
- Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari;
- Eng ko'p ta'sir ko'rgan sohalarni qo'llab-quvvatlash choralari.

Mamlakatimizda koronavirus pandemiyasiga qarshi bo'yicha umumiqtisodiy chora-tadbirlar doirasida Inqirozga qarshi kurash jamharmasi tashkil etildi, tashqi qarz mablag'larini jalb etish, Davlat budgetining 2020 yildagi parametrlarini maqbullashtirish hamda iqtisodiy faollikni oshirishga va moliyaviy barqarorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. 2020 yilning 17-iyun holatiga mazkur (10trln.so'mlik) jamg'armaning daromadlari 7,44 trln.so'mni tashkil etdi, ya'ni shu kunga qadar jami summaning

74,4 foizi shakllantirildi. Shundan, 7,32 trln.so'm xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobiga, 123,5 mlrd.so'm esa, davlat budjeti hisobiga shakllantirilib, jami sarflangan xarajatlar miqdori 3,3 trln.so'mni tashkil etdi. 30 may holatiga ko'ra, 500 mingdan ortiq tadbirdorlik sub'ektlari va 8 million nafardan ziyod fuqaro 30 trln. so'mga yaqin yoki qariyb 3 mlrd AQSh dollarari (YalMning 6 foizi) miqdorida imtiyoz va preferensiyalar olgan¹¹⁹.

Koronavirus global pandemiyasining salbiy oqibatlariga qarshi kurashish chora-tadbirlari uchun grantlar va uzoq muddatli imtiyozli moliyalashtirishni jalb qilish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi va joriy yilning aprel oyida umumiy qiymati 3 mlrd. AQSh dollaridan ortiq uzoq muddatli imtiyozli kreditlar va grantlarni jalb qilish bo'yicha dastlabki kelishuvlarga erishildi.

Budjet tushumlari birinchi navbatda koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish bo'yicha tadbirlarga, shu jumladan, dori vositalari va tibbiyot buyumlari sotib olish, tibbiyot muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va ularni jihozlashga; ish haqi, pensiyalar, stipendiya va nafaqalarni o'z vaqtida to'lashga; oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish, kommunal to'lovlar va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan xarajatlarni qoplashga; Inqirozga qarshi kurashish respublika komissiyasining qaroriga asosan boshqa tadbirlar va xarajatlarni moliyalashtirishga yo'naltirildi.

Iqtisodiy faoliytkni oshirishga va molivaviy barqarorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida Markaziy bank asosiy stavkasini aprel oyida 1 foizga tushirdi, pul-kredit siyosati instrumentlaridan faol foydalanan uchun mablag'lar (har oyda 1 trln. so'mgacha) taqdim etilishi belgilandi, majburiy zaxiralarni bo'yicha talablarni yengillashtirish hisobiga tijorat banklarini 2,6 trln.so'm miqdoridagi qo'shimcha likvidli resurslar bilan ta'minlanishi belgilandi. Shu bilan birga tijorat banklariga 2 trln.so'mgacha bo'lgan miqdorda 3 yilgacha bo'lgan muddatga likvidlik taqdim etish maxsus mexanizmi joriy etildi.

¹¹⁹ Туляков Э. COVID-19: ЎЗБЕКИСТОН ТОМОНДАНА АМАЛГА ОШИРИСГАН ЧОРДЛАР // <https://strategy.uz/index.php?news=1013>

O'zbekistonda koronavirus pandemiyasi tufayli karantin tadbirlari joriy etilishi bilan asosiy e'tibor aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha, birinchi galda, aholi daromadlarini kamayib ketmasligiga, bandligini saqlab qolish va ishsizlik darajasini oshib ketmasligiga qaratilgan choralar ko'rildi. Oilalarning ijtimoiy nafaqa olishga muhtojligini baholash tartib-taomillari soddalashtirildi. 2020 yilning mart oyida nafaqa va moddiy yordam oluvchilar soni 10 foizga oshirilishi sababli ularning soni 596 mingtadan 655 mingtaga oshdi.

Koronavirus pandemiyasi davrida iqtisodiyot tarmoqlarini bosqichma-bosqich ishlatalish, korxonalar faoliyatini tiklab, tayyor mahsulot eksportini ko'paytirish eng muhim va ustuvor masalaga aylandi. Shu bois O'zbekistonda iqtisodiy o'sish va investitsiyaviy faollikni rag'batlantrish, ishlab chiqarish sur'atlarini tiklash bo'yicha keng ko'lamli choralar ko'rildi. Jumladan, karantin tadbirlari davrida jarima sanksiyalarni qo'llamaslik choralari ko'rildi, soliqqa oid imtiyozlar, mikrofirma va kichik korxonalar uchun qo'shimcha imtiyozlar taqdim etildi, to'lov muddatlarini kechiktirish, eksportni qo'llab-quvvatlash choralari amalga oshirildi. 2020 yil oxiriga qadar soliq tekshiruvlarini o'tkazishga moratoriy e'lon qilindi. Natijada karantin choralaridan zarar ko'rgan 59,8 mingta kichik biznes sub'ektlari va korxonalar 567,5 milliard so'm miqdorida mulk solig'i va yer solig'idan ozod qilindi. 20,3 mingta xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga foydalanimayotgan yer uchastkalari va ob'ektlari uchun yuqori stavkalarni tadbiq etish va jarimalarni (1,1 trillion so'm) undirish to'xtatildi. 328,8 mingta mikrofirma va kichik korxonalar (1,68 million ishchi) uchun ijtimoiy soliq stavkasi 12 foizdan 1 foizga (662 milliard so'm) kamaytirildi. 239 mingta yakka tartibdagi tadbirkorlarga eng kam ijtimoiy soliq miqdori bazaviy hisoblangan summaning 50 foizigacha (155 milliard so'mdan ortiq) kamaytirildi. 4 022 ta eksport qiluvchi, tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha debtorlik qarzlari mavjud korxonalarga 1,7 trillion so'm miqdoridagi jarimalarni qo'llash to'xtatildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020 yil 26 martdagি PF-5975-son Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining makroiqtisodiy siyosatni ishlab chiqish, muvofiqlashtirish va yuritish sohasidagi asosiy vazifalari etib quydagilar belgilandi:

makroiqtisodiy indikatorlarni tahlil qilish va prognozlash asosida iqtisodiyotni boshqarishning bozor mexanizmlarini joriy etish, iqtisodiyotning real sektori holati, ichki va tashqi bozorlar kon'yunkturasi hamda global va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari bilan bog'liq holda iqtisodiyotning asosiy sohalarini rivojlantirish strategiyasini shakllantirish;

iqtisodiyotning real sektoridagi holatni oldindan baholash indikatorlarini ishlab chiqish va samarali foydalanish tizimini joriy etish; inson kapitalini rivojlantirish va mehnat unumdarligini oshirish, ishlab chiqarish va moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash, zarur infratuzilmani shakllantirishga asoslangan iqtisodiy rivojlanishning konseptual yo'nalish va vazifalarini ishlab chiqish va ularning amalga oshirilishini ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Moliya vazirligi va boshqa idoralar bilan birgalikda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, shu junladan inflyatsiya darajasini pasaytirish va qo'yilgan maqsadlarga erishish borasida muvofiqlashtirilgan siyosatni amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi tononidan ishlab chiqiladigan eksportni qo'llab-quvvatlash, eksport va importda tarif va notarif tartibga solish siyosatlarini shakllantirish jarayonida faol ishtirot etish;

qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasida ko'zda tutilgan tadbirlar va islohotlarning mehnat unumdarligi, mahsulot yetishtirish va

qayta ishlash hajmlarining o'sishiga, ish o'rnlari yaratilishiga ta'sirini baholash va tegishli takliflar ishlab chiqish¹²⁰.

2020 yil 29 avgustda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "2020-2021 yillarda iqtisodiy o'sishni tiklash va iqtisodiyot tarmoqlari hamda sohalarida tizimli tarkibiy islohotlarni davom ettirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 526-sun qarori qabul qilindi. Unga muvofiq Iqtisodiyotning oldida turgan hozirgi turli tahdid va muammoli vaziyatni inobatga olib, amaliy harakatlar rejası Hukumat, barcha vazirliklar, idoralar va xo'jalik birlashmalari, mahalliy davlat hokimiyyati organlarining harakatlarini muvofiqlashtirish uchun:

- 1) koronavirus pandemiyasining iqtisodiyot va aholi uchun salbiy oqibatlarini bartaraf etish (tiklash nuqtalari);
- 2) tizimli islohotlarni davom ettirish uchun sharoitlarni yaratish;
- 3) iqtisodiyot rivojiga qo'shimcha turki beradigan yangi imkoniyatlar va zaxiralarni aniqlash («o'sish nuqtalari») belgilandi¹²¹.

O'zbekistonda koronavirus pandemiyasi va global moliyaviy-iqtisodiy inqirozning salbiy ta'sirini kamaytirish va 2000 yilda iqtisodiyotni tiklashga qaratilgan chora-tadbirlar hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasida iqtisodiy o'sish tendensiyasini saqlab qoldi. YalM 2019 yilga nisbatan 101,6%ga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 103,6%ga, qurilish ishlari 109,1%ga, xizmatlar 102,3%ga, chakana savdo 103,2%ga o'sdi (qarang: 12.3.1-jadval).

2021 yilda O'zbekiston YaIM o'sishi, Jahon banki oktabr oyida prognoz qilganidek, 6,2 foizni tashkil etdi. Jahon banki, shuningdek, 2022 va 2023 yillarda O'zbekiston iqtisodiyotining o'sishi mos ravishda 5,6 va 5,8 foizni tashkil etishini prognoz qilmoqda. 2021 yilda YaIM o'sishi 7,4 foiz, sanoatda — 8,7 foiz, xizmat ko'rsatishda — 19,2 foiz, qurilishda — 6,8 foiz, qishloq xo'jaligida — 4 foizni tashkil

¹²⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishiga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020 yil 26 martidagi PF-5975-sun Farmoni// <https://lex.uz/docs/4776669>

¹²¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "2020-2021 yillarda iqtisodiy o'sishni tiklash va iqtisodiyot tarmoqlari hamda sohalarida tizimli tarkibiy islohotlarni davom ettirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020 yil 29 avgustidagi 526-sun qarori. I-mentorachasi // <https://lex.uz/docs/4978202>

etgani ma'lum qilingan edi. Shuningdek, inflyatsiya darajasi 10 foizni tashkil etdi.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash deb nomlangan uchinchi yo'nalishida iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni – 1,6 baravar va 2030 yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish uchun zamin yaratish maqsadi belgilangan¹²².

Endilikda, iqtisodiyotni barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan imakroiqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilangan:

- Iqtisodiyot va budjet barqarorligini ta'minlash;
- Kambahallikn i qisqartirish va aholining ish bilan bandligini ta'minlash;
- Bank sohasidagi islohotlarni jadallashtirish;
- To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni ko'paytirish;
- Eksport salohiyatini oshirish va valyuta tushumlarini ta'minlash;
- Sanoatda raqobatbardoshlikni kuchaytirish;
- Xususiy biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish;
- Raqamli texnologiyalarni iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarida keng joriy etish.

Ushbu ustuvor yo'nalishlarining amalga oshirilishi milliy iqtisodiyotni yanada barqaror rivojlanishiga, iqtisodiy inqirozlar kelib chiqishining oldini olish va ularning salbiy ta'sirini yumshatishga imkoniyat yaratadi.

¹²² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022yil 28yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'rsida"gi PF-60 sonli Farmoni. 1-ilova. // <https://lex.uz/uz/docs-5841063>

Asosiy tushuncha va atamalar

Iqtisodiy sikl, bozor konyunkturasi, makroiqtisodiy muvozanat, jami talab, jami taklif, davlatning antisiklik siyosati, inqiroz, monetar siyosat, pul-kredit siyosati, budjet-soliq siyosati, fiskal siyosat, inqiroz, inqiroz turlari, inqirozga qarshi choralar dasturi.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Jami talab va jami taklif o'ttasidagi aloqadorliklarni yoritib bering?
2. Jami talab va taklif barqarorligini ta'minlashda davlatning roli haqidagi klassik va keyns nazariyalari qaysi jihatlari bilan farq qiladi?
3. Inqiroz nima uchun sodir bo'ladi? Inqirozlarning qanday turlarini bilasiz?
4. Kondratevning inqirozlar to'g'risidagi konsepsiyasini tushuntirib bering.
5. Davlatning antisiklik siyosatining mohiyati nimadan iborat?
6. Davlatning makroiqtisodiy tartibga solish siyosatining dastaklari nimalardan iborat?
7. O'zbekistonda amalga oshirilgan barqarorlashtirish siyosatining mohiyati, maqsadlari va usullari nimalardan iborat?
8. Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozining O'zbekiston iqtisodiyotiga qanday ta'sir ko'rsatdi?
9. O'zbekistonda qabul qilingan Inqirozga qarshi choralar dasturining imazmunini va asosiy yo'nalişlarini tushuntirib bering.
10. Yaqin kelajakka mo'ljallangan dasturimizni amalga oshirish uchun qanday vazifalar belgilangan?
11. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash bo'yicha qanday maqsad va vazifalar belgilangan?

13-BOB. DAVLATNING TARKIBIY-INVESTITSION SIYOSATI

13.1. Milliy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirishning zarurligi va uning O'zbekistondagi xususiyatlari.

Davlatning tarkibiy siyosati ijtimoiy ishlab chiqarish taraqqiyotini asoslash va ustuvor yo'nalishlarini tanlash, milliy iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarining mutanosibligini ta'minlashga qaratilgan siyosat hisoblanadi. Boshqacha aytganda, tarkibiy o'zgarishlar siyosati-davlat tomonidan amalga oshiriladigan, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish, uning samaradorligini oshirishga qaratilgan choratadbirlar majmui.

Iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini o'zgartirishdan ko'zlangan maqsad tarmoq va sohalarning oqilona nisbatlarini shakllantirish, uning samaradorligini, raqobatbardoshligini oshirish asosida aholi turmush darajasini o'stirish va jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvini ta'minlashdan iborat.

Ma'lumki, mustabid tuzum davrida O'zbekiston umumittifoq mehnat taqsimotida xomashyo bazasi vazifasini bajarar edi. 1990 yilda SSSRda ishlab chiqariladigan paxta tolasining 62,4 foizi O'zbekiston hissasiga to'g'ri kelardi, hamda yetishtirilgan paxtaning 7 foizigina respublikada qayta ishlanar edi¹²³.

Respublikada ishlab chiqarilgan paxta tolsi asosan Rossiyaning markaziy shaharlarida qayta ishlanib va paxtamizdan olinadigan gazmol va tikuvchilik mahsulotlarini chetdan olib kelishga majbur edik.

O'zbekiston resurslarga boy mamlakat bo'la turib, iqtisodiy taraqqiyotda ko'pgina Sharq mamlakatlaridan orqada qolib ketdi. 1990 yili aholi jon boshiga ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda 75-80 o'rinni egalladi, ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, uning tarkibiy strukturasi,

¹²³ Тухтиев Н., Таксанов А. "Национальная экономическая модель Узбекистана". Т., «Ўқитувч», 2000. 31-32-бетлар

tarkibining yangilanishi, ya'ni diversifikatsiyasi jihatidan dunyo talablaridan ancha orqada qoldi.

O'zbekistonning ishlab chiqarishi ko'p jihatdan agrar xomashyo xarakteriga ega edi va sanoati yaxshi rivojlanmadi. 1960-1990 yillar ichida sanoatning milliy daromadni yaratishdagi hissasi o'zgarmadi. 1990 yilda respublikada yaratilgan milliy daromadda sanoatning hissasi - 25,7 foiz, qishloq xo'jaligi - 44,2 foiz, qurilish - 14,1 foiz, transport va aloqa - 4,7 foiz, boshqa moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari - 11,1 foizni tashkil etdi¹²⁴.

Respublika iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi va sanoatning qayta ishlovchi tarmoqlari ulushining yuqoriligi xosdir. Agar 1990 yilda sobiq ittifoq milliy daromadida qishloq xo'jaligi mahsulotining ulushi 24,9 foizni tashkil qilgan bo'lsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 44,2 foizdan yuqori bo'lgan. Qishloq xo'jaligida band bo'lganlar soni esa, mos ravishda 18,2 foiz va 39,3 foizni tashkil qilgan. Shuningdek, sanoat mahsulotining asosiy qismi yengil va oziq-ovqat sanoati mahsulotlaridan iborat bo'lib, ularning ulushiga ushbu tarmoq mahsulotining 56 foizi to'g'ri kelgan. Qishloq xo'jaligi O'zbekistonda butun eksport salohiyatining 80 foizini bergen. Eksportning 67 foizini bitta tovar - paxta xomashyosi, importning esa, 57 foizini don mahsulotlari tashkil qilar edi. Yakka ekin (paxta) yetishtirishga asoslangan eksport-import tizimi hukmron edi.

O'zbekistonning Rossiya va boshqa respublikalardan keltiriladigan ishlab chiqarish va iste'mol mollariga bog'liqligi kuchli edi. Iqtisodiy o'sishning tashqi omillarga bog'liqligi ayniqsa, yakunlovchi ishlab chiqarish bosqichlari ahaniyatining haddan tashqari oshishiga, mahalliy mashinasozlikning zaif bo'lib qolishiga olib keldi. O'zbekistonda barcha sanoat mahsulotlari tarkibida mashinasozlik sanoatining hissasi 20 foizga ham yetmadi. Buning oqibatida tashqaridan mahsulot kiritishning asosiy yo'naliishi sanoat asbob-uskunalarini, texnologiyani, fan-teknika yutuqlarini kiritishdan iborat bo'lib qoldi. Mahalliy sanoatning

¹²⁴ "Народное хозяйство СССР в 1990 году". Статистический ежегодник. Москва, Финансы и статистика. 1991. 11-бет. "Народное хозяйство Узбекской ССР в 1990 г.". Т., «Ўзбекистон», 1991. 10-бет.

markazlashgan iqtisodiyotga ishlab chiqarish va texnologik jihatdan bog'liqligi uyg'unlashib ketdi.

O'zbekistonda mashinasozlikning suyagi hisoblanadigan dastgoh ishlab chiqarish, ayniqsa zaif rivojlandi. Natijada ishlab chiqarish vositalari va sanoat materiallari ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, hozirgi zamondan yirik turkum ishlab chiqarish talablariga javob beradigan avtomat va yarim avtomat murakkab dastgohlar ishlab chiqarish kechikdi.

Vujudga kelgan nomutanosibliklardan yana biri yirik, o'rta va mayda korxonalar o'rtasidagi nisbatdir. Sobiq ittifoq vazirlik va malikamalari tomonidan barpo qilingan korxona va birlashmalar asosan ulkan hajmli bo'lib, yirik ishlab chiqarishga mo'ljallangan edi. Bu, albatta, respublikada sanoat ishlab chiqarishning an'anaviy turlarini rivojlantirish, mehnat jamoalarining harakatchanlik qobiliyatini oshirish, bozor kon'yunkturasiga tezkor moslashuv kabi talablarga javob bermasdi.

O'zbekistonda sanoat ishlab chiqarishida vujudga kelgan nomutanosibliklardan yana biri - qazib oluvchi va qayta ishlovchi tarmoqlar rivojlanishi o'rtasidadir. Mineral xomashyolarning katta qismi qayta ishlanmagan yoki yarim tayyor mahsulot holida respublikadan chiqib ketardi. Ko'pgina tog'-ruda kombinatlari xomashyoni qayta ishlashning past darajasi bilan ajralib turardi. Buning sababi shuki, ittifoq ahamiyatidagi ulkan korxonalar qazib oluvchi sanoatni respublika ichkarisida mineral xomashyoni chuqur qayta ishlashga, vertikal integratsiya jarayonini, diversifikatsiyani rivojlantirishga emas, balki xomashyo chiqarishga bo'ysundirgan.

Sanoat taraqqiyotida ko'zga tashlanayotgan nomutanosibliklardan yana biri sanoat korxonalarini mahalliy kadrlar bilan ta'minlashda ko'rindi. Bu yerdagi g'alati vaziyat shundaki, nisbatan ancha past rivojlangan sanoat ham, mahalliy ishchi - kadrlar bilan ta'minlanmadidi. XX asrning 50-60-yillarda barpo qilingan Navoiy, Zarafshon, Muborak, Angren, Yangier va boshqa industrial shaharlar sobiq markaz vazirlik va malikamalariga bo'ysunuvchi yirik sanoat korxonalari bazasida barpo

qilingan bo'lib, ularga kerakli malakali ishchi kadrlar sobiq ittifoqning boshqa hudud va sanoat rayonlaridan ko'chirib keltirilardi. Bu ham, mahalliy millat vakillaridan ishchi-kadrlar tayyorlash muammosini orqaga surdi.

O'tgan asrning 80-yillarning oxiriga kelib, O'zbekiston qishloq xo'jaligida ham murakkab vaziyat va nomutanosibliklar vujudga keldi. Dehqonchilikda, chorvachilikda sur'at pasaya boshladi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish darajasi borgan sari uning texnik jihozlash sur'atlaridan ham, aholining tabiiy o'sish sur'atlaridan ham orqada qola boshladi. 1980-1990 yillarda yalpi qishloq xo'jalik mahsuloti ishlab chiqarish sur'ati respublikada aholi tabiiy o'sishi sur'atidan ikki marta, asosiy ishlab chiqarish fondlari bilan ta'minlashdan uch martadan ziyod past bo'ldi.

Tabiiyki, bunday sharoitda asosiy muammo mo'l-ko'lchilik, ichki oziq-ovqat bozorini shakllantirish, ortiqchasini tashqi bozorga olib chiqish emas, aholini minimal zaruriy iste'mol mahsulotlari bilan ta'minlash bo'lib qoladi.

Umuman olganda, qishloq xo'jaligi ayanchli holatga tushib qolgan edi. Buning sabablari anchagina. Eng avvalo, shuni ta'kidlash lozimki, bu yerda qaror topgan ishlab chiqarish tarkibi oziq-ovqat mahsulotlarini mo'l-ko'l qilishga emas, balki sanoat markazlarini arzon xomashyo bilan ta'minlashga, markaziy mahkamalar irodasini bajarishga qaratilgan edi. Shuning uchun ham, dehqonchilik ekinlari orasida asosiy o'rinni texnika ekinlari jumladan, paxta egallab keldi.

Yuqorida bayon etilgan iqtisodiyotdagi salbiy holatlar aholi turmush darajasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi. O'zbekiston sobiq respublikalar orasida aholi jon boshiga hisoblaganda quyidagi ko'rsatkichlar: sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish (ikki marta), ijtimoiy sohaning rivojlanishi (aholi daromadlari, uy-joy bilan ta'minlanganlik, kommunal xizmatlar ko'rsatish, madaniy-maishiy obyektlar va boshqalar) bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan ancha orqada edi.

Bunday salbiy ko‘rinishlar va O‘zbekistonning jahon bozoriga raqobatbardosh mahsulotlar bilan kirishini tezroq ta’minlash maqsadi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning dastlabki davridayoq xalq xo‘jaligi tarmoq tuzilishini tubdan o‘zgartirishni zarurat qilib qo‘ydi.

Davlat mustaqilligi qo‘lga kiritilgach, iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini tubdan o‘zgartirish zarur bo‘lib qoldi. Bu esa davlat tomonidan yangi tarkibiy investitsiyaviy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishni taqoza etdi.

13.2. Iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishning maqsadi, vazifalari va yo‘nalishlari

Davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi bilan O‘zbekiston uchun iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning keng istiqbollari ochildi va ijtunoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish yo‘li tanlab olindi. Respublikada barqaror iqtisodiy o‘sish va aholi farovonligini ta’minlash uchun iqtisodiyotimizning tarkibiy tuzilishida tub o‘zgarishlar qilish muhim vazifalardan biri sifatida belgilab olindi.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda asosan ikki muhim muammoni hal etishga e’tibor qaratilishi lozim. Birinchidan, mustaqil davlatchilikni shakllantirgan holda bozor iqtisodiyoti infratuzilmasini vujudga keltirish; ikkinchidan jamiyat a’zolarining yashashi va mehnat qilishlari uchun har tomonlama qulay sharoitlar yaratishdan iborat.

Milliy iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish zarurligi eng avvalo tarkibiy o‘zgarishlarni xalq xo‘jaligining ustuvor tarmoqlarida amalga oshirish, ularning maqsad va vazifalarini belgilash hamda o‘zaro muvofiqlashtirishni taqozo etadi.

O‘zbekistonda iqtisodiyot tuzilishidagi o‘zgarishlar quyidagi eng muhim vazifalarni hal etish bilan bog‘liqdir:

Birinchidan, boshqa mamlakatlardan xomashyo resurslari eng muhim turlarining, butlovchi mahsulotlarning va oziq-ovqat mahsulotlarining olib kelinishini qisqartirib, ana shu mahsulotlar o‘rnini

bosadigan korxonalarini rivojlantirish asosida respublikaning iqtisodiy mustaqilligiga erishish;

Ikkinchidan, o'zimizda ishlab chiqarishni tashkil etish hisobiga mahsulotlar va xalq iste'mol mollarining hayotiy muhim turlariga bo'lgan aholi va umumxalq xo'jaligi talablarini qondirish;

Uchinchidan, iqtisodiyotning mutanosib va barqaror ishlashini ta'minlash;

To'rtinchidan, iqtisodiyotning xomashyo yetishtirishga qaratilgan bir tomonlama yo'naliшини bartaraf etish, g'oyat boy ma'dan - xomashyo resurslari va qishloq xo'jalik xomashyosini chuquarroq, mukammalroq qayta ishlanishini tashkil etish, ishlab chiqariladigan mahsulotning butlik darajasi va raqobatbardoshligini oshirish;

Beshinchidan, respublikaning eksport imkoniyatini kengaytirish, tashqi iqtisodiy aloqalarda to'lov balansining ijobiliy bo'lishiga erishish; oltin-valyuta zaxirasini mustahkamlash;

Oltinchidan, mehnat resurslarining oqilona bandligini ta'minlash, mehnat qilishning yangi texnologiyalarga, xalqning tarixiy an'analari va udumlariga mos keladigan sohalarini barpo etish;

Yettinchidan, tarmoqlar ichidagi va hududiy jihatdan vujudga kelgan nomutanosibliklarni bartaraf etish, respublika hududida ishlab chiqaruvchi kuchlarni jadal rivojlantirish va oqilona joylashtirish¹²⁵.

Buning natijasida mustaqillik yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida ijobiliy o'zgarishlar yuz berdi va tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash uchun shart-sharoitlar vujudga keltirildi.

Bugungi kunda iqtisodiyotni barqarorlashtirishga ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish, bozor infratuzilmasini yaratish va takomillashtirish, ishlab chiqarish mexanizmini ixtisoslashtirish, iqtisodiy qonunlar mutanosibligini ta'minlash orqali erishish mumkinligi amalda yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Tarkibiy o'zgarishlardan ko'zlangan aniq maqsadlar quyidagilardan iboratdir:

¹²⁵ Каримов И.А. "Ўзбекистон иқтисодий испоҳотларин чуқурлаштириш йўлида". -Т. Ўзбекистон, 1995. 230-231-бет.лар.

1. Iqtisodiyotning xomashyo yetishtirishdan iborat bir tomonlamaligiga chek qo'yish;
 2. Iste'molga tayyor, ya'ni tugallangan mahsulot ishlab chiqarishga o'tish;
 3. Import o'mini bosa oladigan tovarlarni iloji boricha mamlakatning o'zida ishlab chiqarib, importga qaramlikni cheklash;
 4. Mahsulot sifati va raqobatbardoshligini jahon bozori talablari darajasiga yetkazib, mamlakat eksport salohiyatini oshirish;
 5. Ishlab chiqarishning istiqbolli sohalariga ustuvorlik berib, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash;
 6. Mehnat resurslarining oqilona bandligini ta'minlash, yangi texnologiyalarga o'tish, xalqimizning milliy va tarixiy an'analariga mos keladigan yangi sohalarni barpo etish;
 7. O'zimizda ishlab chiqariladigan tovarlar hisobidan milliy bozorni to'ldirish orqali xalq iste'mol mollarining muhim turlariga bo'lgan aholi talablarini to'laroq qondirish.
- Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishidagi o'zgarishlar o'zida quy'idagilarni ifodalashi lozim:
1. Fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini mujassamlashtirgan yangi, yuqori samara beruvchi ishlab chiqarishni tashkil etish va iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish imkonini beradigan tarmoqlar rivojlanishni ta'minlash;
 2. Mamlakatning tabiiy sharoitini, uning mineral, xomashyo resurslarini demografik ahvolini, qishloq xo'jaligi uchun yaroqli unumdon yerlar mavjudligini hisobga olish;
 3. Iltimoiy ishlab chiqarish xaratjatlarini minimallaشتirish asosida yuqori iqtisodiy natijalarga erishishni ta'minlaydigan iqtisodiyot tarkibiy tuzilishiga erishish;
 4. Milliy iqtisodiyot tarkibini shakllantirishda uning jahon iqtisodiy hamjamiyatiga qo'shilib borishini e'tiborga olish;
 5. Iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini o'zgartirishni mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga, ta'lim berish tizimini

takomillashtirishga, aholining yuqori turmush darajasini ta'minlashga yo'naltirish.

Mustaqillik yillarda ishbilarmonlik muhitining yaratish va investitsiyalarni keng jalb etish natijasida iqtisodiyot tarmoq tuzilishida tub sifat o'zgarishlar yuz berdi. 1990-2000 yillarda sanoatning YalMdagi ulushi 17,6% dan 14,2% ga qisqardi. 2001 yildan boshlab esa faol tarkibiy investitsion siyosatning amalga oshirilishi natijasida sanoatning YalM dagi o'sib borib, 2020 yilda 27,4% ni tashkil etdi(qarang:13.2.1-jadval).

13.2.1-jadval

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti tarkibi (jamiga nisbatan foizda)da¹²⁶

| Ko'rsatkichlar | 1990y | 2000y. | 2010y. | 2019y | 2020y | 2021y |
|--|-------|--------|--------|-------|-------|-------|
| I. YaIM, jami | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 |
| shu jumladan | | | | | | |
| Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 88,7 | 87,5 | 88,0 | 91,5 | 92,6 | 92,8 |
| Mahsulotlarga sof soliqlar | 11,3 | 12,5 | 12,0 | 8,5 | 7,4 | 7,2 |
| II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 33,4 | 34,4 | 30,6 | 26,9 | 27,1 | 26,9 |
| Sanoat (qurilishni qo'shgan holda | 23,4 | 23,1 | 24,1 | 34,4 | 34,1 | 34,5 |
| sanoat | 17,6 | 16,2 | 18,7 | 28,1 | 27,4 | 27,8 |
| qurilish | 5,8 | 6,9 | 5,4 | 6,3 | 6,7 | 6,7 |
| Xizmatlar | 33,2 | 42,5 | 45,3 | 38,7 | 38,8 | 38,6 |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 4,5 | 12,3 | 8,6 | 6,7 | 6,7 | 7,0 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 6,5 | 8,8 | 10,0 | 7,6 | 6,9 | 7,2 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 22,2 | 21,4 | 26,1 | 24,4 | 25,3 | 24,4 |

¹²⁶ Статистический ежегодник Узбекистана до 2008г – Т.2009. С 33-34; Основные тенденции и показатели экономического и социального развития Республики Узбекистан за годы независимости (1990-2010гг.) и прогноз на 2011-2015гг. Стат. Сб. -Т: Узбекистан. 2011-с.36, Анализ макроэкономических показателей Республики Узбекистан за годы независимости (1991-2016гг.)// Госкомстат Республики Узбекистан www.stat.uz ma'lumotlari asosida tuzildi.

Iqtisodiyot tarkibiy tuzilishining o'zgarishini YaIMning qo'shilgan qiymat tarkibini tahlil qilish asosida ham ko'rish mumkin. 2000-2021 yillarda YaIMning qo'shilgan qiymatda sanoat (qurilishni qo'shib hisoblaganda)ning ulushi 23,1%dan 34,5%ga, xizmat ko'rsatish sohasining ulushi 42,5%dan 38,6%ga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining ulushi 34,4%dan 26,9%ga kamaydi.

Tarkibiy o'zgartirishlar natijasida avtomobilsozlik, neft kimyo va neft gaz, elektroteznika, farmasevtika va boshqa shu kabi yangi sanoat tarmoqlari vujudga keldi.

Mustaqillik yillarida respublikamizda iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarning amalga oshirilishi natijasida quyidagilarga erishildi;

- respublikaning yonilg'i-energetika resurslariga bo'lgan ehtiyoji to'la ta'minlandi;

- energetika mustaqilligiga erishildi;

- ozuqabop g'alla importiga qaramlik barham topdi. G'alla mustaqilligiga erishildi;

- ishlab chiqarishda tayyor mahsulotlar ulushi ortib bormoqda;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi qisqarib bormoqda;

- xizmat ko'rsatish sohalari rivojlanib, ular hajmining YaIMdagagi ulushi ortib bormoqda;

- xorijiy investitsiyalarni jalb etish yo'li bilan yangi avtomobilsozlik sanoati vujudga keltirildi hamda samolyotsozlik, radio-elektronika, elektronika sohalari, shuningdek, qayta ishlash sohalarini rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda;

- tarkibiy o'zgarishlarning amalga oshirilishi oqibatida sanoat mahsulotlarining tarmoq tarkibida yonilg'i-energetika, kimyo va neft-kimyosi, mashinasozlik, metallomni qayta ishlash, oziq-ovqat sanoati tarmoqlari ulushi o'sib bormoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakechi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha quyidagi vazifalar belgilangan:

- milliy iqtisodiyotning tarkibida sanoat, xizmatlar ko'rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirish;
 - ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilashga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish;
 - sanoatni yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazish orqali yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish;
 - iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish;
 - prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zlashtirish, shu asosda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta'minlash;
 - ishlab chiqarish mahalliylashtirishni rag'batlantirish siyosatini davom etish tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish;
 - iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumдорligini oshirish;
 - erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarni tashkil etish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'mni va ulushini oshirish, xizmatlarning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish;
 - turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikasiyalash va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish;
 - eksport faoliyatini liberalallashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibini va geografiyasini diversifikasiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish;
 - yo'l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, boshqaruv tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.
- Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni yanada samaraliroq bo'lishi uchun quyidagi sharoitlar yaratilishi lozim:

1. Davlatning tarkibiy o'zgarishlar borasidagi faol investitsion siyosatini amalga oshirish;
2. Xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish va ular uchun munosib qulay sharoitlar yaratish;
3. Xususiy investitsiyalar yo'nalishini savdo-vositachilik sohalaridan ishlab chiqarishni rivojlanishiga burish;
4. Xorijiy investorlar uchun yanada qulay investitsiya muhitini yaratish;
5. Bozor munosabatlarining asosi bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;
6. Zarar ko'rib ishlovchi korxona va tarmoqlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni asta-sekin to'xtatish, sanatsiya va bankrotlik siyosatini qo'llash.

13.3. Investitsiyalarning mohiyati, turlari, investitsion faoliyat va davlat siyosati

Investitsiya (lot.kiyintirmoq) ishlab chiqarishni rivojlanish maqsadida milliy yoki chet ellarda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga kapital kiritish (qo'yish) ma'nosini anglatadi. Investitsiya (kapital kiritish) xususiy sektor va davlat ichida va xorijda turli iqtisodiyot tarmoqlariga yoki qimmatbaho qog'ozlariga kapital mablag'larning uzoq muddatga kiritilishi ham hisoblanadi.

Investitsiyalar moliviylar investitsiya, ya'ni aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatbaho qog'ozlarni sotib olish ko'rinishida va real investitsiya, ya'ni mamlakat ichkarisida va chet ellarda ishlab chiqarishga kapital kiritish (qo'yish), shuningdek, yosh mustaqil davlatlarga qarz va subsidiyalar berish shakllarida amalga oshiriladi. Investitsiyalarning asosiy va aylanma kapitalni qayta tiklash va ko'paytirishga, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qilingan sarflarning pul shaklidagi ko'rinishi ham mavjud. U pul mablag'lari, bank kreditlari, aksiya va boshqa qimmatli qog'ozlar, texnika va texnologiyalar ko'rinishida amalga oshiriladi. Pul mablag'lari

ko'rinishidagi investitsiya nominal investitsiya, ana shu pul mablag'lariga sotib olish mumkin bo'lgan investitsion resurslar *real investitsiya* deyiladi.

Investitsiyalarga tadbirkorlik va boshqa faoliyat turlariga yo'naltirilgan hamda buning natijasida foyda yoki ijtimoiy samara vujudga keltiriladigan barcha turdag'i mulkiy va intellektual qimmatliliklar kiradi. Bu qimmatliliklar pul mablag'lari, ko'chuvchi va ko'chmas (qo'zg'almas) mulk obyektlari bo'lgan moddiy ne'mat va buyumlar (qimmatliklar), yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqlari, shuningdek, boshqa mulkiy huquqlar, mualliflik huquqlari, nou-xau va boshqa intellektual qimmatliliklar bo'lishi mumkin.

Investitsion sarflar, ya'ni ishlab chiqarish vositalarini xarid qilish, yalpi talabning narxdan tashqari muhim omili hisoblanadi. Narxlarning mavjud darajasida korxona sotib olishi mumkin bo'lgan yangi ishlab chiqarish vositalarining kamayishi yalpi talabning kamayishiga, aksincha korxona sotib oladigan investitsioan tovarlar hajmining ko'payishi yalpi talabning ko'payishiga olib keladi.

Mamlakatning investitsiya qilish qobiliyati milliy daromadni kapital kiritish uchun ishlatiladigan ulushi miqdori bilan ifodalanadi. **Investitsiyalar samaradorligi** milliy daromad (foyda) o'sgan qismining investitsion sarflar summasiga nisbatining foizdagi ifodasi. Kapital qo'yilmalardan yuqori foyda olishning kutilishi investitsion tovarlarga talabni oshiradi va aksincha, istiqbolda investitsion dasturlardan foyda olish noaniq bo'lsa, investitsiyalarga sarflar kamayish tamoyiliga ega bo'ladi, demak, yalpi talab ham kamayadi.

Investitsion faoliyat investitsiyalarni ro'yobga chiqarish bo'yicha qilinadigan amaliy harakatlardir. **Investor** biron-bir faoliyatga, korxonaga foyda olish maqsadida uzoq muddatli kapital kiritishni amalga oshiruvchi xususiy tadbirkor, tashkilot yoki davlat. Qisqacha aytganda investor investitsiyalarni amalga oshiruvchi shaxs hisoblanadi. Investitsion faoliyat o'z mablag'lari, qarz va investorlarning jalb qilingan mablag'lari, shuningdek, davlat budgeti va budgetdan tashqari fondlar mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi mumkin. O'z

mablag'lariga korxonaning foydasi, amortizatsiya ajratmasi, pul jamg'armalari, aholining jamg'armalari kiradi. Investorlarning qarz moliyaviy mablag'lariga obligatsiya zayomlari, bank va budjet kreditlari kiradi. Jalb qilingan mablag'larga aksiyalar paylar va fuqarolar va yuridik shaxslarning boshqa ulushlarini sotishdan tushgan mablag'lar kiradi.

Investitsiyalash jarayonlarida investitsiya muassasalari muhim rol o'yinadilar. **Investitsiya muassasalari** bu ularning asosiy faoliyat turi qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar qilishdan iborat bo'lganxo'jalik yurituvchi sub'ektlardir. *Investitsiya muassasalari* – bu qimmatli qog'ozlar bozorining eng faol professional ishtirokchilaridir. Investitsiya muassasalari ichida investitsion banklar va vositachilari, maslahatchilari faoliyati ham ahamiyatlidir. **Investitsiya banklari** milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlarini moliyalash va uzoq muddatli qarz berishga ixtisoslashgan banklardir. **Investitsiya vositachisi** esa qimmatli qog'ozlar bozorida brokerlik va dilerlik faoliyatini amalga oshiruvchi investitsiya muassasasidir. **Investitsiya maslahatchisi** – bu maslahat faoliyati bilan shug'ullanuvchi investitsiya muassasasidir. Maslahat faoliyati qimmatli qog'ozlar bozori va uning ishtirokchilari ahvolini tahlil, taxmin qilish, moliyaviy vositalarni ekspertizadan o'tkazish, ishlab chiqarish va tavsiyalar berish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishni, qimmatli qog'ozlar chiqarish, joylashtirish hamda ularning muomilada bo'lishi, mutaxassislarni qayta tayyorlash, shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan investitsiya siyosatini amalga oshirish masalalari bo'yicha maslahat xizmatlari ko'rsatishni nazarda tutadi.

Mamlakatda investitsiya faoliyatini amalga oshirishda investitsiya fondlari ham tashkil etiladi. **Investitsiya fondi** – investorlarning pul mablag'larini jalb etish va ularni investitsiya aktivlariga qo'yish maqsadida aksiyalar chiqarishni amalga oshiruvchi yuridik shaxs – aksiyadorlik jamiyati investitsiya fondidir. Investitsiya fondi o'z faoliyatini qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan beriladigan litsenziya asosida amalga oshiradi. Investitsiya fondining quyidagi shakllari mavjud bo'lishi mumkin: o'zi

chiqargan aksiyalarni qaytarib sotib olish majburiyatiga ega bo'lgan investitsiya fondi; o'zi chiqargan aksiyalarni qaytarib sotib olish majburiyatiga ega bo'lмаган investitsiya fondi. Investitsiya fondining turi fondning ta'sis hujjatlarida ko'rsatiladi. O'z egalarining pay fondidagi ulushini tasdiqlovchi hujjatsiz qimmatli qog'oz investitsiya payidir. Investitsiya payiga bo'lgan huquqlar Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi tomonidan investitsiya paylari egasining depo hisobvarag'idan beriladigan ko'chirma bilan tasdiqlanadi. Investitsiya fondining yoki pay fondining investitsiya portfelini tashkil etuvchi qimmatli qog'ozlar, ulushlar, pul mablag'lari (shu jumladan chet el valyutasi), omonatlar va ko'chmas mulk *investitsiya aktivlaridir*.

Investitsiya fondi yangi yuridik shaxsni ta'sis etish yoki boshqa investitsiya fondini qayta tashkil etish yo'li bilan tashkil etiladi. Investitsiya fondi tijorat tashkiloti bo'lib, u o'zining alohida hisobga olinadigan mol-mulkiga, shu jumladan ustav kapitaliga berilgan mol-mulkka ega bo'ladi. Yuridik va jismoniy shaxslar investitsiya fondining muassisllari (aksiyadorlari) sifatida ish yuritishi mumkin.

Davlat mamlakat iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalg etish jarayonini va xo'jalik subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan investitsion faoliyatni tartibga solish maqsadida investitsion siyosat olib boradi. **Investitsion siyosat** kapital qo'yilmalarning eng ustuvor yo'nalishlarini tanlash, iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini o'zgartirish, uning samaradorligini oshirish, iqtisodiy o'sishga va milliy daromadning eng yuqori ko'rsatkichlariga erishishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir.

Davlat tomonidan milliy iqtisodiyotga ichki va tashqi investitsiyalar kiritilishi uchun qulay investitsiya muhitini yaratilishi uning investitsion siyosatining asosiy maqsadi hisoblanadi. **Investitsiya muhiti** investitsiyalar jozibadorligi hamda xavf-xatar darajasini belgilab beruvchi ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy va siyosiy omillar imajmui hisoblanadi. Investitsion muhit mamlakat iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarning samarali aylanishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar kompleksi hamdir.

Davlat qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida tovar ishlab chiqaruvchilarga soliq bosimini va yukini kamaytirishga qaratilgan qonunchilik bazasini yaratadi, Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasidan investitsiya maqsadlarida foydalaniлади, fan, ta'lim, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashга investitsiya qilish orqali milliy intellektual salohiyatni saqlashга intiladi.

Investitsiya jarayonlarini faollashtirishda davlat tomonidan belgilanadigan moliyaviy imtiyoz va preferensiylar muhim rol o'ynaydi. Ular pul resurslarini ishlab chiqarishga samarali investitsiyalash imkoniyatlarini kengaytiradi va shu orqali uning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratiladi.

Moliyaviy imtiyozlarga fan-texnika ishlasmalariga yo'naltirilayotgan foydani yoki uning bir qismini ma'lum muddatga soliqqa tortishdan ozod qilish, asosiy fondlarning jadallashgan amortizatsiya amaliyotini amalga oshirishga ruxsat berish va boshqalar kiradi.

13.4.O'zbekistonda iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish tendensiyalari

O'zbekistonda investitsion faoliyatni huquqiy bazasini yaratish va davlat tomonidan tartibga solish maqsadida 1998 yil 24 dekabrda «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi qonunlar qabul qilindi. Mazkur Qonun O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 9 dekabrdagi O'RQ-380-sonli «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi Qonuniga muvofiq yangi tahrirda qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 9 dekabrdagi O'RQ-380-sonli «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi yangi tahrirdagi qonuniga muvofiq investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

investitsiya faoliyatining qonunchilik negizini takomillashtirish;
soliq to'lovchilar va soliq solish ob'ektlarini, soliq stavkalari va ularga doir imtiyozlarni tabaqlashtiruvchi soliq tizimini qo'llash;

asosiy fondlarni jadal amortizatsiya qilish;
normalar, qoidalar va standartlarni belgilash;
monopoliyaga qarshi choralarini qo'llash;
kredit siyosati va narx belgilash siyosatini o'tkazish;
yerga va boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish shartlarini belgilash;
investitsiya loyihamini ekspertiza qilish mexanizmlarini belgilash;

O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturiga kiritilgan investitsiya loyihamining amalga oshirilishi monitoringini yuritish.

Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shakllarda ham amalga oshiriladi¹²⁷.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Investitsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruva tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019 yil 28 yanvardagi PF-5643-sod Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Tashqi savdo vazirligi va Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi negizida O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi tashkil etildi. Mazkur vazirlikning investitsiyalar sohasidagi asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib quyidagilar belgilangan:

yagona davlat investitsiya siyosatini amalga oshirish, davlat rivojlanish dasturlari va investitsiya dasturlari, shu jumladan, tarmoq va hududiy investitsiya dasturlari ishlab chiqilishi va samarali amalga oshirilishini muvofiqlashtirish;

xorijiy investitsiyalarni jalg qilish ishlarini muvofiqlashtirish, xalqaro iqtisodiy va moliya institutlari, xorijiy hukumat moliya tashkilotlari bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama formatda o'zaro samarali hamkorlikni amalga oshirish;

davlat organlari va tashkilotlarining, O'zbekiston Respublikasining xalqaro hamda xorijiy moliya va iqtisodiy institutlardagi doimiy vakillarining, shuningdek, Tashqi ishlar vazirligi

¹²⁷ O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 9 dekabrdagi O'RQ-380-soni "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonunining 14-moddasi.

bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasining xorijiy muassasalarida tashqi iqtisodiy faoliyat masalalari bilan shug'ullanuvchi xodimlarning faoliyatini muvofiqlashtirish;

davlat organlari va tashkilotlarining respublikaga tashqi beg'araz ko'mak (grantlar, texnik ko'mak, maqsadli beg'araz yordam) mablag'larini jalb qilish bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirish, shuningdek, ularning maqsadli foydalanimishini hisobga olish va monitoring qilish;

O'zbekiston Respublikasining investitsiyaviy hamkorlik masalalari borasidagi xalqaro shartnomalarini tayyorlash, kelishish va imzolashda ishtirot etish;

investorlar bilan doimiy qayta aloqani yo'lga qo'yish, investitsiyalarni jalb qilishda hududlar va mahalliy kompaniyalarga ko'maklashish, investitsiya takliflarini ishlab chiqishni tashkillashtirish¹²⁸.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarda investitsiya faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, qulay investitsion muhitni yaratish va rivojlantirish borasida analga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etish kengayib bordi. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar umumiy hajmi 2016 yilda 1995 yilga nisbatan 8,7 barobarga, 2000 yilga – 5,8 barobarga, 2005yilga - 4,6 barobarga, 2010 yilga- 182,2% ga o'sdi. Investitsiyalarning YalMdagi ulushi 1995 yilda – 29,4%ni, 2000 yilda – 22,9%ni, 2005yilda – 19,9%ni, 2010 yilda – 22,2%ni, 2015 yilda – 21,3%ni tashkil etgan¹²⁹. 2020 yilda 2016 yilga nisbatan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi joriy narxlarda 4 martaga, aholi jon boshiga hisoblaganda 3,8 martaga o'sdi. Ularning YalMdagi ulushi 2019 yilda 38,3%ni, 2021 yilda 33,3%ni tashkil etdi (qarang: 13.4.1-jadval).

¹²⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Investitsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019 yil 28 yanvardagi PF-5643-son Farmoni// Xalq so'zi, 2019 yil 29 yanvar.

¹²⁹ Социально-экономическое положение Республики Узбекистан за 2017 год. - Т., Госкомстат РУ 2018.- С.60.

13.4.1-jadval.

O'zlashtirilgan investitsiyalar asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari¹³⁰

| ko'rsatkichlar | 2000y. | 2010y. | 2016y. | 2019y. | 2020y. | 2021y. |
|---|--------|---------|---------|----------|----------|----------|
| Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar jami, mldr. so'm | 744,5 | 16463,7 | 51232,0 | 195927,3 | 202000,1 | 245000,0 |
| Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar (o'sish sur'ati, % da) | 101,0 | 104,2 | 104,1 | 138,1 | 95,6 | 105,2 |
| Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning YalMdagi ulushi, % da | 22,9 | 22,2 | 21,1 | 38,3 | 36,2 | 33,3 |
| Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar (ming. so'm) | 30,2 | 583,2 | 1608,6 | 5834,6 | 6140,3 | 6861,0 |

Koronavirus pandemiyasi va global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz ta'sirida 2020 yilning yanvar-dekabrida investitsion faollikni pasayishi kuzatildi, 2019 yilga nisbatan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning o'sish sur'ati 95,6 % ni tashkil etdi, natijada ularning YalMdagi ulushi ham kamaydi.

Investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi o'zgarib bordi. Agar 1990 yilda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning 46,3% davlat budgeti, budgetdan tashqari fondlar va boshqa markazlashtirilgan manbalar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, 2021 yilga kelib, bu ko'rsatkich 11,2%ni tashkil etdi(qarang: 13.4.2-jadval).

¹³⁰ Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar//stat.uz наългуючлари зосида шуалинг томонидан тузилган.

13.4.2-jadval

O'zbekistonda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi¹³¹

| Ko'rsatkichlar nomlari | Investitsiyalar tarkibi jamiga nisbatan % da | | | | |
|--|--|--------|--------|--------|--------|
| | 1990y. | 2000y. | 2010y. | 2019y. | 2021y. |
| Investitsiyalar jami | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 |
| Shu jumladan: | | | | | |
| Davlat budjeti, budjetdan tashqari va boshqa markazlashgan fondlar | 46,3 | 30,5 | 13,0 | 20,9 | 11,2 |
| Markazlashmagan investitsiyalar | 53,7 | 69,5 | 87,0 | 73,4 | 88,8 |
| Korxona mablag'lari | 41,1 | 27,1 | 32,2 | 20,7 | 29,1 |
| Aholi mablag'lari | 12,6 | 12,0 | 16,0 | 8,6 | 9,0 |
| Bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari | | 7,2 | 9,7 | 13,1 | 8,0 |
| Xorijiy investitsiyalar va kreditlar | | 23,2 | 29,1 | 31,0 | 42,7 |
| Shu jumladan, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar | | 3,4 | 25,3 | 19,6 | 12,3 |

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar umumiy hajmida davlat budjeti mablag'lari ulushi 2005 yilda 12,3%ni tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilda 8,8%ni tashkil etdi. Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari 88,8 % ni tashkil etdi. Xorijiy investitsiyalar ulushi 42,7%ni, shu jumladan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulusi jami investitsiyalarning 12,3 % ini tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida ham o'zgarishlar sodir bo'ldi. Jumladan qurilish-montaj ishlariga yo'naltirilgan investitsiyalar ulushi birmuncha qisqarib, uskuna, instrument va inventarlar ulushi oshdi (qarang: 13.4.3-jadval.)

¹³¹«Основные тенденции и показатели экономического и социального развития Республики Узбекистан за годы независимости (1990-2010гг.) и прогноз на 2011-2015гг.(текст). Стат.сб.- Т.: Узбекистан, 2011 с.43-44, с.-52 ; Социально-экономическое положение Республики Узбекистан за 2017 год. - Т., Госкомстат РУ, 2018-С.62. Ўзбекистон Республикасининг юкимий-иқтисодий ҳолати. Январь-декабрь 2020 й.-Т., 2021-143-бет ма'lumotlari asosida tuzildi.

13.4.3-jadval

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibidagi o‘zgarishlar (umumiy hajmiga nisbatan %da)¹³²

| | 1992y | 2000y | 2010y | 2019y | 2020y | 2021y |
|--|-------|-------|-------|-------|-------|-------|
| Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar jami | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 |
| Shu jumladan, qurilish-montaj ishlariga | 66,0 | 58,1 | 52,1 | 40,2 | 42,3 | 43,2 |
| Asbob-uskuna va jihozlar | 17,0 | 30,6 | 39,0 | 52,1 | 51,7 | 51,3 |
| Boshqa kapital ishlar va sarflar | 17,0 | 11,3 | 8,9 | 7,7 | 6,0 | 5,5 |

Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida 2021 yilda respublika bo‘yicha qurilish – montaj ishlarining ulushi – 43,2 % ni, mashina, uskuna va inventar sotib olishga xarajatlar – 51,3 % hamda boshqa xarajatlar ulushi – 5,5 % ni tashkil etdi. Asbob-uskuna va jihozlarga yo‘naltirilgan investitsiyalar ulushining ko‘payishi ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, tenik va texnologik qayta jihozlash jarayonlarining kuchayishi bilan bog‘liqdir.

Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar takror ishlab chiqarish tarkibida yangi qurilishlarga yo‘naltirilgan investitsiyalarning ulushi 2000 yildagi 42,0%dan 2016yilda 61,2% ga o‘sdi. 2019-2020 yillarda bu ko‘rsatkich pasayish tendensiyasiga ega bo‘lib, mos ravishda 53,6% va 51,1 % ni tashkil etdi. 2000-2016 yillarda kengaytirish va modernizatsiya qilishga yo‘naltirilgan investitsiyalar ulushi 57,1%dan 24,4% ga kamaydi. 2019 yilda bu ko‘rsatkich 28,7%ni, koronavirus pandemiyasi va global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz ta’sirida 2020 yilda 26,3% ga kamaydi (qarang: 13.4.4-jadval).

¹³² Статистический ежегодник Узбекистана за 2008г.-Т;2009г.с.276; Инвестиции в основной капитал // www.stat.uz ; Социально-экономическое положение Республики Узбекистан за 2017 год. - Т., Госкомстат РУ, 2018 - С.69; Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтиносий холати Январь-декабрь 2020 йи. - Т. 2021.-147-бет маълумотлари асосида тузишди.

13.4.4-jadval

O'zbekistonda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning takror ishlab chiqarish bo'yicha tarkibidagi o'zgarishlar (umumiy hajmiga nisbatan %da)¹³³

| | 1997y. | 2000y. | 2010y. | 2019y. | 2019y. | 2020y. | 2021y. |
|--|--------|--------|--------|--------|--------|--------|--------|
| Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar – jami, v tom chisle | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 |
| Yangi qurilishlar | 56,2 | 42,0 | 57,1 | 61,2 | 53,6 | 51,1 | 50,8 |
| kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilish | 41,5 | 57,5 | 29,0 | 24,4 | 28,7 | 26,3 | 26,4 |
| Boshqa yo'nalishlar | 2,3 | 0,5 | 13,9 | 14,4 | 17,7 | 22,6 | 22,8 |

Iqtisodiy faoliyat yo'nalishlari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibidagi o'zgarishlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, investitsiyalarning katta qismi iqtisodiyotning asosiy bazaviy tannoqlarini (sanoat, transport va aloqa)ga yo'naltirilmoqda. Buning natijasida investitsiyalarning salmoqli ulushi ishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilmoqda (qarang: 13.4.5-jadval).

¹³³ «Статистический ежегодник Узбекистана за 2008г. – Т., 2009. С.278; Госкомстат РУз. Основные тенденции и показатели экономического и социального развития Республики Узбекистан за годы независимости (1990 – 2010 гг.) и прогноз на 2011 – 2015 гг.: Стат. Сб. – Т.: Узбекистан, 2011. С.5; Узбекистон иктисаодиёти: алборот-таддилий бюллетени 2016 йил-Т., ИТМ, 2017 йил-22-бет; Узбекистон Республикасининг ижтимоий-иктисадий ҳолати. Январь-декабрь 2020 й.-Т., 2021-149-бет; 2021yil-T.2022-139bet.ma'lumotlari asosida tuzildi.

13.4.5-jadval

Iqtisodiy faoliyat yo'nalishlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar tarkibidagi o'zgarishlar¹³⁴

| | 2010 y. | | 2016y. | | 2020y. | |
|---|---------------|------|---------------|------|---------------|------|
| | Mldr. So'm | %da | Mldr. So'm | %da | Mldr. so'm | %da |
| Jami | 15338,7 | 100 | 49770,6 | 100 | 202000,1 | 100 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 530,0 | 3,5 | 1646,4 | 3,3 | 18025,5 | 8,9 |
| Tog'-kon sanoati | 1514,6 | 9,9 | 7173,4 | 14,4 | 23434,1 | 11,6 |
| Ishlab beradigan sanoat | 2334,9 | 15,2 | 8992 | 18,1 | 62805,2 | 31,1 |
| Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash | 895,9 | 5,8 | 2722,6 | 5,4 | 10214,7 | 5,1 |
| Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish | 113,8 | 0,7 | 717,3 | 1,4 | 3630,9 | 1,8 |
| Qurilish | 219,7 | 1,4 | 932 | 1,9 | 9442,5 | 4,7 |
| Ulgurji va chakana savdo, remont motorli transport vositalari va motosikllarni ta'mirlash | 660,1 | 4,3 | 2459,2 | 4,9 | 8578,9 | 4,2 |
| Tashish va saqlash | 3533,3 | 23,0 | 5785 | 11,6 | 9575,5 | 4,7 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 157,5 | 1,0 | 929,7 | 1,9 | 2335,8 | 1,2 |
| Axborot va aloqa | 1068,5 | 7,0 | 1098,5 | 2,2 | 4820,3 | 2,4 |
| Moliya va sug'urta faoliyat | 174,1 | 1,1 | 345,4 | 0,7 | 2244,9 | 1,1 |
| kasbiy, ilmiy va texnik faoliyat | 498,9 | 3,3 | 501,9 | 1,0 | 3536,6 | 1,8 |
| Ta'lim | 408,3 | 2,7 | 1330,6 | 2,7 | 4947,8 | 2,4 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 308,2 | 2,0 | 1140,2 | 2,3 | 5672,6 | 2,8 |
| san'at, ko'ngil ochish va dam olish | 149,9 | 1,0 | 378,9 | 0,8 | 3358,1 | 1,7 |

¹³⁴ «Статистический ежегодник Узбекистана за 2010-2016гг. - Т., 2017.-С.238-239; Социально-экономическое положение Республики Узбекистан за 2017 год. - Т., Госкомстат РУ, 2018 - С.69-70; O'zdaystalg'ima ma'lumotlar.

| | | | | | | |
|---|--------|------|---------|------|---------|-----|
| Barcha faoliyat turlaridan boshqa: uy-joy qurilishiga investitsiyalar | 2316,4 | 15,1 | 11081,7 | 22,3 | 19141,9 | 9,5 |
| Boshqa faoliyat turlari | 454,6 | 3,0 | 2535,8 | 5,1 | 10234,9 | 5,0 |

2010-2020 yillarda ishlab beradigan sanoatning investitsiyalardagi ulushi 15,2%dan 31,1%ga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining ulushi 3,5%dan 8,9%ga, tog'-kon sanoatiga investitsiyalar ulushi 9,9%dan 11,6%ga oshdi. Shuningdek, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, qurilish sohalariga kiritilgan investitsiyalar ulushi tahlil davrida kamaydi.

13.5. Xorijiy investitsiyalarni tartibga solishning jahon tajribasi

Rivojlangan mamlakatlar xalqaro kapital harakatini asosan kapital eksporti-importini milliy va xalqaro darajada rag'batlantirish orqali amalga oshiradilar. Kapitalning qarzlar, portfel investitsiyalar va boshqalar shaklida harakat qilishi borasidagi davlat siyosati uning harakatidagi barcha cheklashlarni olib tashlash maqsadida olib boriladi. Bevosita xorijiy investitsiyalarga nisbatan davlat har qanday cheklashlarni amalga oshirish huquqini o'z zimmasida qoldiradi, chunki bu milliy iqtisodiy xavfsizlik bilan bog'liq. Shunisi xarakterlikni, kapitalni chetga chiqarish uni jalg qilishga nisbatan kam darajada tartibga solinib turiladi.

Davlat tartibga solishning quyidagi usullaridan foydalanadi:

- 1) moliyaviy: jadallashtirilgan amortizatsiya; soliq imtiyozlari; subsidiyalar, qarzlar berish; kreditlarni sug'urtalash va kafolatlash;
- 2) nomoliyaviy: yer uchastkalari ajratish; zaruriy infrastruktura bilan ta'minlash; texnik yordam ko'rsatish.

Bu borada yirik kapital eksporteri-importeri bo'lmish AQSh tajribasi juda muhimdir. AQShning bevosita xorijiy investitsiyalarni tartibga solish siyosati ikki darajada amalga oshiriladi: federal, hamda mahalliy (shtatlar, okruglar, shaharlar). Federal tartibga solish deganda xorijiy investitsiyalarga nisbatan cheklashlar tushuniladi. Bunda milliy

havfsizlik masalasi birinchi o'ringa ko'tariladi. AQSh prezidenti amerika firmalarining qo'shilishi, yutilib ketilishi va sotib olinishi jarayonlarini (agar bunda firma faoliyati ustidan nazorat xorijiy investor qo'liga o'tsa) to'xtatib qo'yish huquqiga ega.

Mahalliy darajada sug'urta biznesi va qishloq xo'jaligi yerlarini sotishni tartibga solish orqali amalgam oshiriladi. Trestlarga qarshi qonunlarni davlat organlari tomonidan qo'llanilishi ham katta ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda mahalliy ma'muriyatning xorijiy investorlar faoliyatini tartibga solish imkoniyatlari katta emas. Investitsiyalarni rag'batlantirish tajribasi ko'proqdir. AQShga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning muhim mexanizmlaridan biri – xorijdagi vakolatxonalaridir. Ular investitsiyalarni u yoki bu shtatga jalb etilishiga ko'maklashadilar (Yaponianing o'zida shunday vakolatxonalardan 40tasi faoliyat ko'rsatmoqda).

AQShning alohida shtatlariga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish dasturi quyidagilarni o'z ichiga oladi: soliq imtiyozlari; korxonani qurayotgan yoki modernizatsiyalashtirayotgan xorijiy investor uchun bozordagi stavkalardan pastroq darajada qarzlar va subsidiyalar ajratish; kasbga o'qitish va bandlikka ko'maklashish; transport tarmog'ini takomillashtirish; yer uchastkasini qurilish uchun tayyorlash; tekinga foydalanish uchun yer uchastkasini ajratish va boshq.

Xalqaro investitsiyalarni tartibga solish bo'yicha muhim amaliy hujjatlardan biri – Osiyo-Tinch okeani hankorligi tashkiloti doirasida ishlab chiqilgan xorijiy investitsiyalarning «ko'ngilli kodeksi»dir. Kelajakda Ummumjahon savdo tashkiloti (UST) tomonidan foydalanilishi mumkin bo'lgan ushbu «kodeks» da quyidagi investitsion tamoyillar qayd etilgan:

- transparentlik;
- donor-mamlakatlarga nodiskriminatsion yondashuv;
- xorijiy investorlar uchun milliy rejim;
- investitsion rag'batlarni sog'liqni saqlash, havfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlash bilan mos tushishi;

- savdoni va kapital qo'yilmalar o'sishini chegaralovchi investitsiyalarga bo'lgan cheklovlarni minimallashitirish;
- investitsiyalarni ekspropriatsiya qilinishidan voz kechish (bunda ijtunoiy maqsadlar uchun va milliy qonunchilik doirasida, nodiskriminatsiya asosida, xalqaro huquq qoidalariga amal qilgan holda va yetarli va samarali kompensatsiya to'lanishi sharti bilan ekspropriatsiya amalga oshirilishi mumkin);
- ro'yxatdan o'tkazilish va konvertatsiyalashuvning ta'minlanishi;
- kapitalni olib chiqishdagi to'siqlarni yo'qotish;
- ikki marotaba soliqqa tortishni bekor qilish;
- resipient mamlakatning milliy qonunchiligiga, ma'muriy tartib va qoidalariga xorijiy investoring amal qilishi;
- investitsion loyihani amalga oshirish bilan bog'liq xorijiy mutaxassislarни mamlakatdan chiqishiga va vaqtincha tashrif buyurishiga ruxsat berish;
- maslahatlar va muzokara yoki arbitraj yordamida kelishmovchiliklarni bartaraf etish.

Xorijiy investitsiyani o'z iqtisodiyotiga jalb etayotgan har bir davlat xorijlik sheriklariga huquqiy va tashkiliy kafolatlar yaratib beradi. Bu jarayon jahon tajribasida sinovdan ijobiy ravishda o'tg'an. O'zbekiston Respublikasi xorijiy investitsiyalar to'g'risidagi qonuning 11-moddasida shunday yozilgan: Respublika hududida o'z investitsiya faoliyatini olib borayotgan xorijiy investorlar huquqlarining himoyasini O'zbekiston Respublikasi kafolatlaydi. Bu kafolat albatta, xalqaro huquq normalari asosida beriladi. Agarda O'zbekistonning yangi qabul qilingan qonunchiligi investitsiya sharoitlarini yomonlashtirsa, o'n yilgacha xorijiy investitsiyalar ular jalb qilingan davrda qabul qilingan qonunchilik shartlari saqlanib qoladi. Bu talab mudofaa, milliy havfsizlik, jamoat tartibini saqlash va atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlash bilan bog'liq qonunchilikni o'zgartirmaydi. O'zbekiston Respublikasi davlat organlari xorijiy investorlarning huquqlariga putur yetkazadigan huquqiy normativlarni qabul qilgan taqdirda, investorlarga yetkazilgan zarar shu organlardan sud orqali undiriladi.

O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturlarini amalga oshirishda dunyoning ko'plab mamlakatlari ishtirok etmoqda. Investitsiyalarni jalb etish vazifasini davlatimiz ko'p ukladli bozor iqtisodiyotini yaratish va rivojlantirish asosida xaqiqiy mulkdorlarni shakllantirish bilan bog'laydi.

13.6. O'zbekistonda iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni davlat tomonidan rag'batlantirilishi

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning birinchi bosqichida mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish uchun qulay investitsiya muhitini yaratish hukumat tashqi iqtisodiy faoliyatini diqqat markazida bo'ldi. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish tadbirlarini amalga oshirishda hukumat quyidagi tamoyillarga asoslandi:

- tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish sohasida aniq maqsadni ko'zlab siyosat yuritish;
- respublika iqtisodiyotiga bevosita kapital mablag'ni keng jalb etishni ta'minlaydigan xuquqiy ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni tobora takomillashtirish;
- respublikaga jahon darajasidagi texnologiyani yetkazib berayotgan va iqtisodiyotni zamонавиy таркибини vujudga keltirishga ko'maklashayotgan xorijiy investorlarga nisbatan ochiq eshiklar siyosatini yurgizish;
- mablag'larni respublika mustaqilligini ta'minlaydigan, import o'rnnini qoplovchi va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan eng muhim ustuvor yo'nalishda jamlash.

Shuningdek respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyani jalb etishni faollashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz:

- investitsiya loyihibalarini malakali ekspertlar nazoratidan o'tkazish va mukammal tayyorlanishiga erishish;
- qo'shma korxonalar va xorijiy investitsiya ishtirokidagi boshqa turdag'i tadbirkorlik faoliyatini ro'yxatdan o'tkazishdagi to'siqlarni butunlay olib tashlash.

- Mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarni milliy korxonalarga jalg etishda quyidagi ustuvor yo'nalishlarni belgilash maqsadga muvofiqdir:
- qishloq xo'jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlash sohalarini rivojlantirish;
- mineral xom ashyo resurslarini, shu jumladan, neft va gazni qazib chiqarish, qayta ishlash bo'yicha ekologik ishlab chiqarishni tashkil etish;
- transport va telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish;
- iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ilm talab va jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish;
- turizm sohasini rivojlantirish, xalqaro va ichki turizmning zamонавија инфраструктурунин юратишга ерішіш.

O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq xorijiy investitsiya qatnashgan korxonalar O'zbekiston Respublikasi hududida xo'jalik assotsiatsiyalari, konsernlar va boshqa birlashmalar tuzishlari mumkin. Xorijiy investitsiyalarning huquqiy himoyasi ta'minlangan. Bu himoya har bir korxonada bo'lgani kabi xorijiy investitsiya qatnashgan korxonalar uchun taaluqli. Milliy iqtisodiyotning ustuvor sohalari va hududlariga investitsiya kiritgan xorijiy investorlarga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi tomonidan qo'shimcha imtiyozlar berilishi mumkin. Shu bilan birga qonunda xorijiy investorlarning faoliyat turlari ham belgilangan. Xorijiy investorlar yoki xorijiy investitsiya qatnashgan korxonalar mavjud qonunchilikka muvofiq, o'z maqsadlari va nizomlaridan kelib chiqib, barcha turdag'i faoliyatlarni olib borishlari mumkin.

Xorijiy investorlar investitsiya hajmini, turlarini, yo'llarini belgilaydilar va ularni xohlagan korxonaga mustaqil ravishda kiritishlari mumkin. Investor o'zi kiritgan investitsiya obyektlari va natijalariga egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish huquqiga ega. Shu bilan birga reinvestitsiya va savdo operatsiyalarini O'zbekiston hududida milliy qonunchilik asosida undan tashqrarda esa xalqaro qonunlar asosida amalgalash huquqlariga ega. Investor egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqlarini qonun bo'yicha boshqa huquqiy va jismoniy

shaxsga berishi mumkin. Tomonlarning o'zaro huquqlarini bir-biriga o'tkazish vaqtidagi aloqalarni faqat ular o'rtasida tuzilgan hujjat-shartnomalar hal qila oladi. Xorijiy investorlar va korxonalar qonunchilikda ko'rsatilgan holatlarda yer uchastkalarini sotib olishlari mumkin. Xorijiy investorlar investitsiya faoliyatini amalga oshirishda quyidagilarga rioya etish zarur:

- O'zbekiston Respublikasi hududida amal qilayotgan qonunchilikka amal qilishi;
- O'zbekistonda mavjud qonunchilik talablari asosida soliq to'lash va boshqa to'lovlarni amalga oshirishi;
- Investitsiya loyihasining sanitariya-gigienik ekologiya talablariga amal qilish bo'limidagi ekspertiza xulosalarini olishi.

O'zbekiston Respublikasi Germaniya, Hindiston, Janubiy Koreya, Turkiya, Indoneziya, Malayziya, Isroil, AQSh va bir qator boshqa mamlakatlar bilan investitsiyalarni rag'batlantirish va o'zaro himoyalash to'g'risida bitimlar tuzdi.

Xorijiy investitsiya jalb etilgan korxonalarga quyidagi imtiyoz va rag'batlantirish omillari berilgan:

- tovarlar eksporti ishlab chiqarish hajmining kamida 30 foizini tashkil etadigan korxonalarga, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, foyda soliq 'ini amaldagi stavkalardan ikki barobar kamroq to'lash huquqi;
- xorijiy investitsiyali korxonalar daromadining ishlab chiqarishni kengaytirishga va texnologiyani yangilashga sarflanadigan qismidan soliq olmaslik;
- Respublika davlat investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalar bo'yicha soliqlar to'lashdan yetti yil muddatga ozod etish;
- ishlab chiqarilgan mahsulotning 25% bolalar uchun mo'ljallangan bo'lsa, korxona ishga tushgandan boshlab soliqlar to'lashdan besh yil muddatga ozod etish. Keyingi yillarda bu korxonalarning foydasidan olinadigan soliq amaldagiga qaraganda ikki marta pasaytirilgan stavkalarda undiriladi;
- agar ustav kapital hajmi kamida 500 000 AQSh dollarini tashkil etsa, mol-mulk soliq'idan ozod qilish;

- yer solig‘idan ikki yilga ozod qilish;
- o‘zi ishlab chiqargan mahsulotni ruxsatnomasiz chetga sotish;
- investitsiya loyihibalarini amalga oshirish uchun yer uchastkalaridan foydalanish va ularni tasarruf etish huquqini tanlov asosida sotib olish;
- jismoniy, huquqiy shaxslar va davlatning mulkini xususiy lashtirishda bemalel ishtirot etishlari mumkin.

Hozirgi kunda iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlar investitsiya faoliyatiga yangicha yondashishni taqozo etmoqda. Bunday yondashuv quyidagi qoidalardan kelib chiqmoqda:

- investitsiya talabini faollashtirish, investitsiya resurslarini iqtisodiy taraqqiyotning ustun sohalariga to‘plash;
- investitsion jarayonlarga korxonalar, tashkilotlar, aholi jamg‘armalarini to‘laroq jalb etish va undan respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishda foydalanish;
- chet el kapitalining kirib kelishi uchun qulay iqtisodiy muhit hozirlash.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 apreldagi PF-4434-sonli Farmoni bilan xorijiy investoring pul shaklidagi ulushi **5 million AQSh dollaridan kam bo‘lмаган** yangidan tashkil etilayotgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar davlat ro‘yxatidan o‘tgan sanadan boshlab 10 yil mobaynida soliq qonunchiligidagi o‘zgarishlar yuz bergan hollarda, yuridik shaxslardan olinadigan foya solig‘i, qo‘shilgan qiymat solig‘i, mol-mulk solig‘i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i, yagona ijtimoiy to‘lov, yagona soliq to‘lovi, shuningdek Respublika yo‘l hamda Ta’lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg‘armalariga majburiy ajratmalar to‘lashning mazkur korxonalar davlat ro‘yxatidan o‘tish sanasida amal qilgan me’yorlari va qoidalarni qo‘llashga haqli ekanliklari belgilab berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini ”Faol investitsiyalar va ijtimoiy

rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi 2019 yil 17 yanvardagi PF-5635 sonli Farmoniga muvofiq shunday tartib o'rnatildiki, unga muvofiq 2019 yil 1 martdan boshlab:

xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning ta'sischilari (ishtirokchilari) va ularning oila a'zolari uchun muddatini mamlakatdan chiqmasdan uzaytirish imkoniyati bo'lgan, amal qilish muddati uch yilni tashkil qiladigan "investitsiya vizasi" joriy etildi;

O'zbekiston Respublikasi hududida tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha korxonalar tashkil qilish uchun 3 million AQSh dollaridan ortiq miqdorda investitsiya kiritgan xorijiy davlatlar fuqarolariga, shu jumladan, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning ta'sischilari (ishtirokchilari)ga O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi 10 yil muddatga soddalashtirilgan tartibda berildi;

O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi yoki "investitsiya vizasi"ga ega xorijiy investorlar hamda ularning oila a'zolari O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun nazarda tutilgan shartlarda tibbiy va ta'lim xizmatlaridan foydalanish huquqiga ega bo'ldi;

xorijiy investorlar, ular tomonidan xorijiy davlatlar fuqarolari orasidan jalb etiladigan mutaxassislar va ularning oila a'zolarini vaqtincha ro'yxatga olish investitsiya loyihasi ro'yobga chiqarilayotgan hududdagi aholi yashash punktida, mamlakatning boshqa hududlarida bo'lganda qayta ro'yxatdan o'tish majburiyatisiz, vizaning amal qilish muddatiga (viza mavjud bo'lmaganda esa 1 yil muddatga) amalga oshirildi.

Shuningdek, davlat dasturida nazarda tutilgan tadbirlar, ayniqsa, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, qulay investitsiya muhitini yaratish, shuningdek, mamlakatimiz hududlarining ijtimoiy rivojlanish darajasini oshirish sohasidagi tadbirlarning samarali va o'z vaqtida ijro etilishini ta'minlash uchun shaxsan mas'ul hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi mansabdar shaxslari, vazirlik va idoralari rahbarlari, O'zbekiston Respublikasining xorijdagি

diplomatik vakolatxonalari 2- ilovaga muvofiq mamlakat hududlariga biriktirildi¹³⁵.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to'g'risida"gi PQ-72-son Qaroriga muvofiq Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi tomonidan shakllantirilgan, kelgusi besh yilda 70 milliard AQSh dollari miqdorida xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilishini nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasining 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturi qabul qilindi(qarang:13.6.1-jadval).

13.6.1-jadval.

2022 — 2026 yillarda markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarni o'zlashtirishning yig'ma maqsadli ko'rsatkichlari mlrd. so'm

| T/r | Moliyalashtirish manbalari | 2022 — 2026 yillarda jami | shundan: | | | | |
|------|---|------------------------------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|
| | | | 2022 yil | 2023 yil | 2024 yil | 2025 yil | 2026 yil |
| | Jami kapital qo'yilmalar | 2 025 200 | 298 772 | 346 848 | 400 318 | 457 659 | 521 603 |
| | shu jumladan: | | | | | | |
| 1. | Markazlashgan investitsiyalar: | 344 309 | 50 767 | 61 480 | 72 378 | 76 106 | 83 579 |
| 1.1. | Budjet mablag'lari | 136 669 | 23 790 | 25 017 | 28 074 | 29 400 | 30 388 |
| 1.2. | O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari (so'mda) | 17 614 | 1 613,2 | 3 100 | 3 450 | 4 514 | 4 937 |
| | mln. AOSh dollarida | 1 352 | 142* | 258 | 271 | 335 | 345 |
| 1.3. | O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar (so'mda) | 190 027 | 25 363 | 33 364 | 40 854 | 42 192 | 48 255 |
| | mln. AOSh dollarida | 14 738 | 2 240 | 2 780 | 3 212 | 3 129 | 3 376 |
| 2. | Markazlashmagan investitsiyalar: | 1 680 891 | 248 006 | 285 368 | 327 940 | 381 553 | 433 024 |
| 2.1. | Korxona mablag'lari, shu jumladan, korxonalarning o'z ixtiyorida | 478 234 | 69 433 | 76 926 | 92 465 | 110 384 | 129 026 |

¹³⁵ 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yonalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi 2019 yil 17 yanvardagi PF-5635sonli Farmoni /<https://lex.uz/rw/docs/-4168749>.

| qoldiriladigan soliqlar | | | | | | | |
|-------------------------|---|---------|---------|---------|---------|---------|---------|
| 2.2. | Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'ları | 338 864 | 49 606 | 53 696 | 64 861 | 79 242 | 91 458 |
| 2.3. | To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar (so'mda) mln. AQSh dollarida | 714 278 | 107 621 | 130 186 | 141 024 | 157 094 | 178 353 |
| 2.4. | Aholi mablag'ları | 149 515 | 21 346 | 24 560 | 29 590 | 34 833 | 39 187 |

O'zbekiston respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zining "Yangi O'zbekiston strategiyasi" nomli kitobida "Bizning iqtisodiy strategiyamiz iqtisodiyotga katta hajmdagi investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan. Investitsiyalarning o'sish sur'atlari 10 yilda yalpi ichki mahsulotning kamida 25 foizini tashkil etishi uchun zarur sharoit yaratamiz. Investitsiya muhitini takomillashtirish tarmoqlar va sohalar kesimida investitsiya siyosati samarasini oshirish, xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobidan 2022-2026 yillarda amalga oshiriladigan yirik investitsiya loyiҳalarini aniqlashtirish, iqtisodiyotda davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish masalalari diqqat-e'tiborimizda bo'ladi¹³⁶", -deb ta'kidlagan.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko'rish maqsadi belgilangan. Buning uchun Investitsiyalardan samarali foydalanish hamda eksport hajmlarini oshirish bo'yicha, "pastdan-yuqoriga" tamoyili asosida, yangi tizimni yo'lga qo'yish, davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo'jaligi va boshqa sohalarga 14 milliard AQSh dollarga teng investitsiya jalb etish kabi chora-tadbirlar amalga oshiriladi¹³⁷.

Mamlakatimizda ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya qilish va yangilash, zamonaviy innovatsiyalarga asoslangan va yuksak

¹³⁶ Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi.-T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021.-135-bet.

¹³⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022yil 28yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60sonli Farmoni. 1-ilova./ https://lex.uz/uz/docs/-5841063

samarali texnika, texnologiyalarni joriy etish, investitsiyalarni oshirish orqali iqtisodiyotda tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiyalashni davom ettirish davlatning tarkibiy-investitsiyaviy siyosatining ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

Asosiy tushuncha va atamalar.

Iqtisodiyot tarkibiy tuzilishi, tarkibiy o'zgarishlar, tarkibiy siyosat, investitsiya, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar, investitsiya faoliyati, investitsion siyosat, diversifikatsiya, kafolatlar, imtiyozlar.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar


1. Tarkibiy o'zgarishlarning mazmun-mohiyati nimada?
2. O'zbekiston iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar qanday natijalarni berdi?
3. Investitsiya faoliyati nimani anglatadi?
4. Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan boshqarish choralarini nimalardan iborat?
5. Investitsiya fondlari investitsiya faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
6. Xorijiy investitsiyalar qanday boshqariladi?
7. Xorijiy investitsiyalarni boshqarishni chet el tajribasini xususiyatlari nimalardan iborat?
8. Xorijiy investitsiyalar uchun O'zbekiston Respublikasida qanday imkoniyatlар yaratilgan?
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida investitsiya siyosati samarasini oshirish to'g'risidagi g'oyalalarining mazmunini aytib bering.
10. Investitsiyaviy ombudsman deganda nimani tushunasiz?
11. Investitsiya kodeksini qabul qilishdan maqsad nimalardan iborat?

14-BOB. DAVLATNING SANOAT SIYOSATI VA SANOAT RIVOJLANISHINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH YO'NALISHLARI

14.1. Real iqtisodiyot sektorida sanoatning tutgan o'rni va ahamiyati

Sanoat, deb xom ashyo, material, yoqilg'i, energiya va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yoki aholiga xizmat ko'rsatuvchi korxonalar (zavod, fabrika, kon, shaxta, elektr stansiya, ferma va hk) majmuasiga aytildi. Sanoat xalq xo'jaligining muhim sohasidir. XX asrning 80yillarida qabul qilingan tasniflashga ko'ra, Sanoat yiriklashtirilgan 18 tarmoqqa bo'linadi: elektroenergetika; yoqilg'i Sanoati; qora metallurgiya; rangli metallurgiya; kimyo va neft kimyosi Sanoati; mashinasozlik va metallga ishlov berish; o'rmon, yog'ochni qayta ishslash va sellyulozaqog'oz Sanoati; qurilish materiallari Sanoati; qurilishkonstruksiyalari va detallari Sanoati; oyna va chinnifayans Sanoati; yengil S; oziq-ovqat Sanoati; mikrobiologiya Sanoati; unyorma va aralash yem Sanoati; tibbiyot Sanoati; poligrafiya Sanoat Bo'sanoat tarmoqlari ham o'z navbatida — ishlov beruvchi sanoat va undiruvchi sanoat turlariga guruhlanadi¹³⁸ (qarang: 14.1.1-rasm).

¹³⁸ Нуриддин Мусев. Саноат://<https://qomus.info/encyclopedia/cat-s/sanoat-uz/>



14.1.1-rasm. Sanoat majmuasining tarkibiy tuzilmalari

Mashinasozlik va metallga ishlov berish sanoat sohasi ham ko'p tarmoqli bo'lib, o'z ichiga mashinasozlik, elektrotexnika sanoati, dastgohsuzlik va asbobsozlik, priborsozlik, ko'tarma-transport mashinasozligi, tarktor va qishloq xo'jaligi mashinasozligi, mashina va uskulalami ta'mirlash tarmoqlarini oladi. Mustaqillik yillarda mashinasozlik sohasida avtomobilsozlik sanoati va avtobus ishlab chiqarish tarmoqlari vujudga keltirildi.

Sanoat majmuasi undirma, ya'ni qazib chiqaruvchi va ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat tarmoqlari turlariga bo'linadi.

Hozirgi davrda undirma (qazib chiqaruvchi) sanoat tarmoqlari majmuasi tog‘-kon sanoati va ochiq-konlarda ishlash tarmoqlari deb atalmoqda.

Undiruvchi sanoat, undirma sanoat — yer ostidan, suvdan va o‘rnmonlardan har xil xom ashyolar va yoqilg‘ilar olish bilan shug‘ullanuvchi sanoat tarmoqlari majmui. Undiruvchi sanoatning asosiy tarmoqlari foydali qazilmalar (ko‘mir, neft, gaz, slanes, torf, temir rudasi, rangli, nodir va asil metallar hamda noruda xom ashyolar) qazib olish, ovchilik, baliqchilik, dengiz hayvonlarini ovlash, dengiz mahsulotlarini yig‘ish, yog‘och tayyorlash va boshqalar. Undirma sanoat mahsulotlari, asosan, ishlov beruvchi sanoatda qo‘llaniladi. Undiruvchi sanoat oziq-ovqat va sanoat xom ashyosi olishning muhim bazasi hisoblanadi¹³⁹.

Undirma sanoat tarmoqlaridan boshqa barcha tarmoqlar **ishlab beradigan (qayta ishlash) sanoat tarmoqlari** hisoblanadi.

Sanoat majmuasi shuningdek, og‘ir va yengil sanoat tarmoqlari turlariga bo‘linadi. **Og‘ir sanoat** — ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaradigan sanoat tarmoqlari guruhi bo‘lib, undirma sanoat tarmoqlarining barchasini va ishlov beruvchi sanoatning bir qismini o‘z ichiga oladi. Unga elektroenergetika, yoqilg‘i sanoati, qora va rangli metallurgiya, mashinasozlik va metallni qayta ishlash, kimyo, neft kimiysi, yog‘ochsozlik, qog‘oz-sellyuloza, qurilish materiallari sanoati va boshqalar kiradi. Og‘ir sanoat mamlakatning ishlab chiqaruvchi kuchlarini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi, xalq xo‘jaligini kengaytirilgan ishlab chiqarish, texnika bilan qurollantirish, mamlakat mudofaa qudratini yuksaltirish, xalq farovonligini o‘stirishning negizi hisoblanadi¹⁴⁰.

Yengil sanoat —xilma-xil xom ashyodan keng iste’mol mahsulotlari va buyumlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan sanoat tarmoqlari majmui bo‘lib, unda xom ashyoga ham dastlabki ishlov berish, ham tayyor mahsulot ishlab chiqarish chiqarish amalga oshiriladi. Yengil sanoatda paxta, ipak, zig‘ir, kanop, jut tolalari,

¹³⁹ Уидиравчи саноат:// <https://qomus.info/encyclopedia/cat-u/undiruvchi-sanoat-uz/>

¹⁴⁰ Абдурахим Ортиков. Равшан Отабоев. Ог‘ир саноат:// <https://qomus.info/encyclopedia/cat-o/ogir-sanoat-uz/>

hayvonlar terisi va juni, sun'iy tolalar, sun'iy charm xom ashyo sifatida foydalilanladi. Uning asosiy tarimoqlari to'qimachilik, tikuvchilik, ko'nchilik, mo'ynado'zlik, charm-poyabzal sanoatlari hisoblanadi. Yengil sanoat mahsulotlari, shuningdek, mebelsozlik, aviatsiya, avtomobil, oziq-ovqat va boshqa sanoat tarmoqlarida, qishloq xo'jaligi, transport, sog'lioni saqlash va boshqa sohalarda ishlataladi¹⁴¹.

Hozirgi davrga kelib, ya'ni 2010 yildan boshlab statistikada sanoat majmuasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha quyidagi 4 guruh tarmoqlariga ajratilib tahlil qilinadi:

- tug'-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash;
- ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati;
- elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash;
- suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish (14.1.1-jadval).

14.1.1-jadval.

Sanoat majmuasining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibiy tuzilishi.

| Sanoat majmuasi | | | |
|---|--|---|---|
| Tug'-kon snoati va ochiq konlarda ishlash | Ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat tarmoqlari | elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash | suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish |
| Ko'mir | Oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish | Elektrenergiya | suv bilan ta'minlash |
| Neft | To'qimachilik | Issiqlik | kanalizatsiya |

¹⁴¹ Нурицдин Мусаев, Эркин Алимбоеев. Енгил саноат:// <https://qomus.info/encyclopedia/cat-yo/yengil-sanoat-uz/>

| | | | |
|----------------|--|--|-----------------------------------|
| | mahsulotlari, kiyim-kechaklar va charm mahsulotlari ishlab chiqarish | energiyasi | tizimi |
| Tabiiy gaz | Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa mahsulotlari ishlab chiqarish | Ko'mirni yer ostida gazga aylantirish natijasida hosil bo'lgan gaz | chigindilarni utilizatsiya qilish |
| Gaz kondensati | Metallurgiya sanoati | | |
| Chaqiq tosh | Asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlarini ishlab chiqarish | | |
| Shag'al | Mashina va asbob-uskunalarini ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'matish, avtotransport vositalari, treylerlar va yarimpritseplar, boshqa tayyor metall buyumlarini ishlab chiqarish | | |
| Kaolin | Boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarish | | |

Tog'-kon snoati va ochiq konlarda ishlash tarmoqlari undirma sanoat turkimiga kiradi va o'z ichiga ko'mir, neft, gaz kondensati, shag'al va kaolin qazib chiqarish iqtisodiy faoliyatlarini o'z ichiga oladi. Ishlab chiqaradigan (ba'zi statistika ma'lumotlari to'plamlarida qayta ishlash sanoati ham deb yuritiladi) sanoati o'z ichiga og'ir sanoatning bir qisimini, yengil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlari o'z ichiga oladi. Elektr, gaz, bug' bilan ta'mirlash va havoni konditsiyalash bo'yicha iqtisodiy faoliyatlar elektrienergetika va yoqig'i sanoati tarmoqlaridagi iqtisodiy faoliyat turlarini ifodalaydi.

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishganidan keyin sanoatda tub islohotlar amalga oshiriddi, ko'pgina tarmoqdardagi Sanoat korxonalar davlat tasartufidan chiqarildi va xususiy lashtirilib, davlat aksiyadorlik, korporativ, jamoa, xususiy va boshqa tashkiliy huquqiy mulk shakllariga aylantirildi. Respublika iqtisodiyotida muhim o'rinda turadigan Sanoat tarmoklarida tuzilmaviy qayta tarkiblash amalga oshirildi, ko'plab kichik va o'rta korxonalar tashkil topdi. Chet el kapitali bilan hamkorlikda ko'pgina Sanoat tarmoklarida qo'shma korxonalar tashkil etildi.

14.2.Davlatning sanoat siyosatining mazmuni, maqsadi va vazifalari

Sanoat siyosati – xo'jalik subyektlari faoliyatini, shuningdek, bu faoliyatning alohida jihatlariga tegishli bo'lgan, ya'ni ishlab chiqarish omillarini xarid qilish, ishlab chiqarishni, taqsimot, tovar va xizmatlarni realizatsiya qilishga tegishli bo'lgan xo'jalik subyektlari va ularning mahsulotlarining hayot siklining barcha fazalarini davlat-huquqiy tartibga solish chora-tadbirlarining yig'indisidir.

Sanoat siyosati quyidagi uch yo'nalishda amalga oshiriladi:

1. Xo'jalik faoliyatining innovatsion rag'batlarini, innovatsion rivojlanish modellarini shakllantirishga qaratilgan tadbirkorlik va ilmiy-innovatsion tuzilmalarning o'zaro hamkorligini vujudga keltirishga imkon beradi.
2. Sanoat siyosati maqsadlariga muvofiq sanoatning tarmoq va territorial tarkibiy qayta tuzilishini moliyalashtirishni ta'minlaydigankapitalning sektorlararo, tarmoqlararo, territorial oqimini rag'batlantiradigan tarkibiy siyosat.

- 3.Ishlab chiqarishni va infratuzilmani rivojlantirishga kapital quyilmalarni ta'minlovchi va rag'batlantiruvchi investitsion siyosat¹⁴².

¹⁴² Горячева Т.В. Инновационная деятельность как главный фактор промышленного роста/ Т. В. Горячева// Инновационная деятельность.- М.,2010 -№3

Sanoat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishning darajalari.

Makrodarajada sanoatni rivojlantirishning umummilliy maqsadlari belgilanadi, mamlakat miqyosida normativ baza va sanoat siyosatining maqsadli dasturlari shakllantiriladi, ularni resurslar ta'minot strategiyasi ishlab chiqiladi, sanoat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish borasida davlat-xususiy sektorning o'zaro hamkorligi tashkil etiladi.

Mezodarajada pirovard mahsulot ishlab chiqarish va territorial-sanoat komplekslari, sanoat klasterlari tashkil etish va ularning o'zaro faoliyati tartibga solinadi.

Mikrodarajada korxonalarning mustaqil bozor subyektlari sifatida faoliyat yuritishlari uchun qulay muhitni vujudga keltirish choratadbirlari amalga oshiriladi.

Sanoat siyosati makroiqtisodiy tartiblash usullari, ya'ni bozor subyektlari faoliyatini rag'batlantirishning qoidalari, sharoitlari va rag'batlarini vujudga keltirish hamda ma'muriy usullar orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, davlat-xususiy sherikchilik, hududiy, yuqori va mahalliy hokimiyat organlari manfaatlarini imuvofiqlashtirish usullaridan ham foydalaniladi.

Sanoat siyosati quyidagi muammolarni hal etishga qaratilishi lozim bo'ladi:

- 1) qonunchilikni rivojlantirish, huquqiy normalar ijodkorligi sohasini isloh etish;
- 2) aniq sanoat sektorlaridagi siyosat (sanoatni tarkibiy o'zgartirish, ustuvor tarmoqlarni, kichik va o'rta korxonalarni qo'llab-quvvatlash);
- 3) ish bilan bandlik va mehnat unumdonorligi;
- 4) moddiy aktivlarga, asosiy kapitalga investitsiyalar (sanoat, transport infrastrukturasi, aloqa);
- 5) nomoddiy aktivlarga investitsiyalar (sanoat tadqiqotlariga va ishlamalariga, kadrlarga; sifatni oshirishga, ekologik toza texnologiyalarga; standartizatsiya va statistikani rivojlantirishga);

- 6) raqobatbardoshlik va raqobat sohasidagi siyosat (ichki bozordagi chora-tadbirlar; eksportni rivojlantirish va savdoni liberalallashtirish);
- 7) xalqaro investitsiyalar;
- 8) ekologik siyosat, sanoat ekologiyasi;
- 9) energetik siyosatning sanoat jihatlari;
- 10) hududiy rivojlanish siyosati;
- 11) rivojlangan va o'tish bosqichidagi mamlakatlar bilan sanoat sohasidagi hamkorlik;
- 12) bozor iqtisodiyotiga o'tish bosqichidagi mamlakatda sanoat rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.

O'zbekistonda sanoat siyosatini amalga oshirishga mas'ul davlat organi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va sanoat vazirligi edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020 yil 26 martdagি PF-5975-son Farmoniga muvofiq ushbu vazirlik O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi etib qayta tashkil etildi. Mazkur vazirlikning sanoatning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish yagona industrial siyosatni yuritish borasidagi asosiy vazifalari quyidagilardan iborat etib belgilandi:

-milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va diversifikasiya qilish, shuningdek, hududlar va tarmoqlarni rivojlantirish uyg'unligini ta'minlash maqsadida ishlab chiqarish kuchlarini samarali joylashtirish, hududlarning mavjud tabiiy va iqtisodiy resurslaridan unumli foydalanish asosida mamlakat sanoatini rivojlantirishning strategiya va modellarini ishlab chiqish;

-O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi hamda Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi bilan birqalikda iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va aholini yoqilg'i-energetika resurslari bilan bozor mexanizmlari asosida uzlksiz ta'minlashga qaratilgan strategiya va chora-tadbirlarni amalga oshirish;

-asosiy sanoat tarmoqlari va yirik korxonalarini isloh qilish bo'yicha strategiya va dasturlarni ishlab chiqishda ishtirok etish;

-sanoat tarmoqlarining rivojlanish darajasini monitoring qilib borishda xalqaro tajribada keng qo'llaniladigan asosiy indikatorlarni aniqlash, «yashil iqtisodiyot» hamda energiyasamaradorlikning asosiy prinsiplari va usullarini amaliyatga joriy etish va monitoring qilish uslubiyatini ishlab chiqish va amalga oshirish;

-respublika sanoat korxonalarining mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish, hajmlari, ichki bozor talabining qondirilish darajasi bo'yicha hamda ichki va tashqi bozorlarda muhim sanoat mahsulotlari narxlarining o'zgarish tendensiyalari bo'yicha tahlillar tayyorlash va ominaviy axborot vositalarida keng yoritib borilishini tashkil etish¹⁴³.

14.3.O'zbekistonda davlatning sanoat siyosatining o'ziga xos xususiyatlari

Markazlashtirilgan ma'muriy -buyruqbozlik tilimi davrida O'zbekistonning ishlab chiqarishi ko'p jihatdan agrar xomashyo xarakteriga ega edi va sanoati yaxshi rivojlanmadi. 1960-1990 yillarda sanoatning milliy daromadni yaratishdagi hissasi o'zgarmadi. 1990 yilda respublikada yaratilgan milliy daromadda sanoatning hissasi - 25,7 foiz, qishloq xo'jaligi - 44,2 foiz, qurilish - 14,1 foiz, transport va aloqa - 4,7 foiz, boshqa moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari - 11,1 foizni tashkil etdi¹⁴⁴.

Sanoat mahsulotining asosiy qismi yengil va oziq-ovqat sanoati mahsulotlaridan iborat bo'lib, ularning ulushiga ushbu tarmoq mahsulotining 56 foizi to'g'ri kelgan. O'zbekistonda barcha sanoat mahsulotlari tarkibida mashinasozlik sanoatining hissasi 20 foizga ham yetinadi. Buning oqibatida tashqaridan mahsulot kiritishning asosiy

¹⁴³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kamibag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020 yil 26 martdag'i PF-5975-son Farmoni// <https://lex.uz/docs/-4776669>.

¹⁴⁴ "Народное хозяйство СССР в 1990 году". Статистический ежегодник. Москва, Финансы и статистика. 1991. 11-бет. "Народное хозяйство Узбекской ССР в 1990 г.". Т., «Узбекистон», 1991. 10-бет.

yo'nalishi sanoat asbob-uskunalarini, texnologiyani, fan-teknika yutuqlarini kiritishdan iborat bo'lib qoldi. Mahalliy sanoatning markazlashgan iqtisodiyotga ishlab chiqarish va texnologik jihatdan bog'liqligi uyg'unlashib ketdi. Mashinasozlikning suyagi hisoblanadigan dastgoh ishlab chiqarish, ayniqsa zaif rivojlandi. Natijada ishlab chiqarish vositalari va sanoat materiallari ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, hozirgi zamон yirik turkum ishlab chiqarish talablariga javob beradigan avtomat va yarim avtomat murakkab dastgohlar ishlab chiqarish kechikdi.

O'zbekistonda sanoat ishlab chiqarishida vujudga kelgan nomutanosibliklardan yana biri - qazib oluvchi va qayta ishlovchi tarmoqlar rivojlanishi o'rtaсидадир. Mineral xomashyolarning katta qismini qayta ishlanmagan yoki yarim tayyor mahsulot holda respublikadan chiqib ketardi. Sanoat taraqqiyotida ko'zga tashlanayotgan nomutanosibliklardan yana biri sanoat korxonalarini mahalliy kadrlar bilan ta'minlashda ko'rindi. XX asrning 50-60-yillarda barpo qilingan Navoiy, Zarafshon, Muborak, Angren, Yangiyer va boshqa industrial shaharlar sobiq markaz vazirlik va mahkamalariga bo'ysunuvchi yirik sanoat korxonalari bazasida barpo qilingan bo'lib, ularga kerakli malakali ishchi kadrlar sobiq ittifoqning boshqa hudud va sanoat rayonlaridan ko'chirib keltirilardi. Bu ham, mahalliy millat vakillaridan ishchi-kadrlar tayyorlash muammosini orqaga surdi.

Davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi bilan O'zbekiston uchun iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning keng istiqbollari ochildi va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish yo'li tanlab olindi. Respublikada barqaror iqtisodiy o'sish va aholi farovonligini ta'minlash uchun iqtisodiyotimizning tarkibiy tuzilishida tub o'zgarishlar qilish muhim vazifalardan biri sifatida belgilab olindi.

Mustaqillik yillarda ishbilarmonlik muhitini yaratiganligi va investitsiyalarni keng jalb etish natijasida iqtisodiyot tarmoq tuzilishida tub sifat o'zgarishlar yuz berdi. 2001 yildan boshlab esa faol tarkibiy investitsion siyosatning analoga oshirilishi natijasida sanoat (qurilishni qo'shganda) Yaimdag'i ulushi 2000 yildagi 20,2%dan 2020 yilda

35,5%ga oshdi. Sanoatning YaM dagi ulushi shunga muvofiq ravishda 14,2%dan 28,5%ga oshdi.

Tarkibiy o'zgartirishlar natijasida avtomobilsozlik, neft-kimyo va neft gaz, elektrotexnika, farmasevtika va boshqa shu kabi yangi sanoat tarmoqlari vujudga keldi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, sanoat mahsulotlari umumiy hajmida yoqilg'i-energetika kompleksi tarmoqlarining ulushi 2000yildagi 23,8% dan 2016 yilda 18,0% ga kamaydi. Mashinasozlik va metallga ishlov berish tarmog'ining ulushi o'zgarishsiz qoldi. Tahlil davrida oziq-ovqat sanoatining ulushi 14,2%dan 22,0%ga oshdi (qarang: 14.2.1-jadval).

14.2.1-jadval.

O'zbekiston Respublikasi sanoati tarkibiy tuzilishidagi tendensiyalar (jamiga nisbatan % da)¹⁴⁵

| Ko'rsatkichlar | 1990y. | 2000y. | 2005y. | 2010y. | 2016y. |
|---|--------|--------|--------|--------|--------|
| Jami sanoat | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 |
| Shu jumladan | | | | | |
| Yoqilg'i-energetika | 8,8 | 23,8 | 27,5 | 27,9 | 18,0 |
| Qora va rangli metallurgiya | 4,5 | 11,4 | 19,4 | 13,3 | 11,0 |
| Kimyo va neftkimyosi | 7,6 | 5,5 | 5,2 | 5,1 | 7,0 |
| Mashinasozlik va metallga ishlov berish | 16,0 | 9,9 | 13,0 | 16,1 | 10,0 |
| Qurilish materiallari sanoati | 5,2 | 5,4 | 3,6 | 4,9 | 6,0 |
| Yengil sanoat | 37,6 | 19,1 | 16,6 | 13,3 | 16,0 |
| Oziq-ovqat sanoati | 14,2 | 13,3 | 8,2 | 12,8 | 22,0 |
| Boshqalar | 6,1 | 11,4 | 6,5 | 5,6 | 8,0 |

14.2.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, sanoat tarkibidagi o'zgarishlar notekis o'zgarishlar tendensiyasiga ega bo'lgan. Bir tomonidan bazaviy tarmoqlar bo'lgan yoqilg'i-energetika, qora-rangli metallurgiya sanoati hamda yengil sanoatning ulushi kamaygan. Bu progressiv tendensiya. Ikkinci tomonidan, mashinasozlik va metallga ishlov berish, qurilish materiallari sanoatining sanoat mahsulotlari umumiy hajmidagi ulushi o'zgarishsiz qolgan yoki kamaygan.

¹⁴⁵ Статистический ежегодник Узбекистана за 2008г.-Т.,2009.-с216; Основные тенденции и показатели экономического и социального развития Республики Узбекистан за годы независимости (1990-2010гг) и прогноз на 2011-2015гг. Статсборник.-Т: Узбекистан.2011.-с.36; Альманах Узбекистан 2017год.-Т. ЦЭИ, 2017 -С 26. маълумотлари асосида муаллиф томонидин тузилиши.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat majmuasi tarkibida amalga oshirilgan o'zgarishlar oqibatida sanoat mahsulotlari umumiy hajmida tog'-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash sohasining ulushi 2010 yildagi 15,0%dan 2021 yilda 9,5%ga kamaydi, ishlab beradigan sanoat tarmoqlarining ulushi mos ravishda 73,8%dan 83%ga oshdi(qarang: 14.2.2-jadval).

14.2.2-jadval.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibi (%)da¹⁴⁶

| tarmoqlar | 2010y | 2016y | 2019y | 2020y | 2021y |
|---|-------|-------|-------|-------|-------|
| Sanoat, jami | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 |
| Tog'-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash | 15,0 | 9,6 | 13,0 | 9,0 | 9,5 |
| Ishlab beradigan (qayta ishlash) sanoat | 73,8 | 80,3 | 79,9 | 83,0 | 83,0 |
| elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash | 10,7 | 9,4 | 6,4 | 7,4 | 6,8 |
| suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish | 0,5 | 0,7 | 0,7 | 0,6 | 0,7 |

2021 yilda 2010 yilga nisbatan elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash ulushi 10,7%dan 6,8%ga qisqardi, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sohasining ulushi 0,5%dan 0,7%ga oshdi.

Ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari mahsuloti hajmida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 2010 yildagi 19,6%dan 2021 yilda 12,9%ga, to'qimachilik mahsulotlari ulushi mos ravishda 17,2%dan 13,8%ga kamaydi (qarang: 14.2.3-jadval)

¹⁴⁶ Ozbekiston Respublikasida sanoat ishlab chiqarish/ nashr etilgan: 23/07/2017//stat.uz; Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иктисодий холати 2020 йилги январь-декабри. Стат.тўплам.-Т., Ўздавстист кўмита. 2021 -64.77-78-бет; O'zgovstat qo'mita ma'lumotlari.

14.2.3-jadval

Ishlab chiqarish sanoatining tarkibi¹⁴⁷

| | 2010y | 2016y | 2019y | 2020y | 2021y |
|---|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|
| Ishlab chiqaradigan sanoat | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 |
| Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish | 19,6 | 24,9 | 13,9 | 13,9 | 12,9 |
| Ichimliklar ishlab chiqarish | 3,3 | 3,7 | 2,5 | 2,4 | 2,7 |
| Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish | 1,4 | 1,1 | 0,7 | 0,6 | 6,0 |
| To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish | 17,2 | 14,9 | 11,8 | 11,9 | 13,8 |
| Kiyim ishlab chiqarish | 2,2 | 4,8 | 3,6 | 3,4 | 3,6 |
| Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish | 0,3 | 1,1 | 0,6 | 0,5 | 0,6 |
| Yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), poxol va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish | 0,3 | 0,6 | 0,6 | 0,4 | 0,6 |
| Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish | 0,5 | 1,1 | 0,8 | 0,8 | 0,8 |
| Yozilgan materialarni nashr qilish va aks ettirish | 0,7 | 1,0 | 0,5 | 0,4 | 0,4 |
| Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish | 6,3 | 3,2 | 3,9 | 3,7 | 3,0 |
| Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish | 7,0 | 8,2 | 7,4 | 6,9 | 7,4 |
| Asosiy farmasevtika mahsulotlari ishlab chiqarish | 0,2 | 1,4 | 0,8 | 0,8 | 1,0 |
| Rezina va plastika buyumlari ishlab chiqarish | 2,0 | 2,9 | 2,1 | 2,3 | 2,2 |
| Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish | 5,8 | 7,1 | 5,4 | 5,5 | 5,5 |
| Metallurgiya sanoati | 11,0 | 9,0 | 22,5 | 26,0 | 25,6 |
| Mashina va uskunalardan tashqari tayyorlangan buyumlar ishlab chiqarish | 2,0 | 2,5 | 2,2 | 2,2 | 2,9 |
| Kompyuter, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish | 1,6 | 0,5 | 0,8 | 1,1 | 1,6 |
| Elektr uskunalar ishlab chiqarish | 1,4 | 2,2 | 2,9 | 2,7 | 3,0 |
| Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish | 0,8 | 1,1 | 1,7 | 1,4 | 1,2 |
| Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish | 12.7 | 4,6 | 13,0 | 11,1 | 8,5 |
| Boshqa transport uskunalari ishlab chiqarish | 0,3 | 0,2 | 0,3 | 0,3 | 0,3 |

¹⁴⁷ Ishlab chiqarish sanoatining tarkibi file://D:/Статистика/Саноат%202010-2020%20file/ 9.3%20Structure %20of%20 manufacturing%20industry_uzb+.pdf

| | | | | | |
|---|-----|-----|-----|-----|-----|
| Mebel ishlab chiqarish | 0,6 | 1,3 | 0,9 | 0,8 | 0,8 |
| Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish | 0,8 | 1,2 | 0,6 | 0,5 | 0,5 |
| Mashina va uskunatlari ta'mirlash va o'matish | 1,8 | 1,2 | 0,5 | 0,5 | 0,5 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, metallurgiya ulushi tahlil davrida 11,0%dan 25,6%ga, asosiy mahsulotlari 0,2%dan 1,0 %ga oshdi. Avtotransport yostitalari, troyxerlar va yarim pritseplar ulushi 2010 yildagi 12,7%dan 2016 yilda 4,1%ga kamayib, 2019 yilga kelib, 13,0%ga o'sdi. 2021 yilda ularni ishlab chiqarish birmuncha qisqarib, ishlab beruvchi sanoat mahsulotlari umumiy hajmidagi ulushi 8,5%ga pasaydi.

Iqtisodchi olim Yuliy Yusupovning sikricha, O'zbekistonda 1995-2017 yillarda amalga oshirilgan sanoat siyosati doirasida berilgan "aqil bovar qilmaydigan hajmdagi va o'yylanmagan imtiyozlar tezda rentall (asbob-uskunalar o'rniga bir uyum metallolom olib kirish evaziga) foyda olish va pul kapitalini olib chiqib ketishga rag'bat uyg'organ. Kapitalning sun'iy arzonlashtirilishi (asbob-uskunalar uchun rasmiy kursda konvertatsiya, arzon kreditlar va soliqlardan ozod qilish taqdirm etilgan) va qimmat mehnat (mehnatga soliqlarning yuqoriligi, soliqqa tortishning soddalashtirilgan va umumiy rejimlari o'rtaсидаги soliq yukidagi ulkan farq), ko'p mehnat talab qiladigan ishlab chiqarishlar o'rniga ko'p mablag' talab qiladiganidan foydalanishga olib keldi va buning natijasida rasmiy sektorda bandlik darajasi juda past bo'lib goldi"¹⁴⁸.

Oqibatda 2017 yilda O'zbekiston sanoati tomonidan 1 AQSh dollari 8000 so'm kursida kishi boshiga 289 dollar qo'shilgan qiymat ishlab chiqarilgan. Taqqoslashlar shuni ko'rsatmoqdaki, aholi jon boshiga hisoblanganida O'zbekiston sanoat sektori sobiq SSSR davlatlari ichida eng kam rivojlanganlardan biridir. Go'yoki «sanoatlashtirishdan judo etilgan» Estoniya har bir aholisi jon boshiga

¹⁴⁸ Осупов Юлий. Узбекистонга юнайтед саноат спекулянтыларини кирсанчи? // <https://kun.uz/news/2019/07/08/ozbekistoniga-qunday-sanoat-siyosati-karak-ijobiy-biznes-iqlim-yaratishga-asoslanganimi-yoki-boshi-berk-kochaga-boshlaydigan>.

sanoatni rivojlantirishga ulkan mablag'lar sarflagan O'zbekistondan 16 barobar ko'proq mahsulot ishlab chiqarmoqda¹⁴⁹.

Agar sanoatda 1995 yildan 2017 yilgacha yaratilgan qo'shilgan qiymat hajmi dollar ifodasida qanday o'zgargani hisoblansa, O'zbekistondagi o'sish ko'rsatkichi sobiq SSSRdagи ko'plab davlatlardan ortdaligiga guvoh bo'lamiz. Agar o'sha Estoniya bilan taqqos davom ettirilsa, 1995 yilda O'zbekiston bilan ko'rsatkich farqi ancha kam — 6 barobar bo'lган. Ya'ni, Estoniya va sobiq SSSRning boshqa davlatlari (Ukrainadan tashqari) sanoati aholi jon boshiga O'zbekistondagidan tezroq rivojlangan (14.2.4-jadval).

14.2.4-jadval.

1995 va 2017 yillarda aholi jon boshiga sanoatda yaratilgan qo'shimcha qiymat hajmi, AQSh dollarida

| Davlatlar | 1995y | 2017y | O'sish, marta |
|--------------|-------|---------|---------------|
| Ozarboyjon | 123,1 | 2048,5 | 16,6 |
| Turkmaniston | 348,6 | 3664,5* | 10,6 |
| Gruziya | 88,7 | 899,7 | 10,1 |
| Qozog'iston | 386,4 | 2827,6 | 7,3 |
| Litva | 610,6 | 4406,8 | 7,2 |
| Armaniston | 140,6 | 995,7 | 7,1 |
| Estoniya | 856,8 | 4635,2 | 5,4 |
| Qirg'iziston | 66,0 | 322,7 | 4,9 |
| Latviya | 626,2 | 3044,4 | 4,9 |
| Belorus | 457,6 | 1839,7 | 4,0 |
| Rossiya | 920,7 | 3280,4 | 3,6 |
| Moldova | 135,7 | 409,3 | 3,0 |
| Tojikiston | 80,2 | 216,8* | 2,7 |
| O'zbekiston | 141,5 | 289,0 | 2,0 |
| Ukraina | 357,2 | 600,0 | 1,7 |

Tojikiston bo'yicha ma'lumotlar 2016 yilniki, Turkmaniston bo'yicha — 2015 yilniki Manba: Jahon banki ma'lumotlari. O'zbekiston bo'yicha hisob-kitobda 1 AQSh dollari 8000 so'nidan hisoblangan.

Mamlakat sanoatida yuqori texnologiyali va o'rta-yuqori texnologiyali tarmoqlar ulushi ancha pastligicha qolmoqda. 2020 yilda

¹⁴⁹ Осупов Юлий. Узбекистонга қандай саноат тиёсати керак?// <https://kun.uz/news/2019/07/08/ozbekistonga-qanday-sanatosi-siyosati-kerak-ijobiy-biznes-iqlim-yaratishga-asoslanganimi-yoki-boshi-berk-kochaga-boshlaydigan>

2019 yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,9 % ni (2019 yilning yanvar- dekabr oylarida - 1,5 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 22,4 % (25,4 %), o'rta-quyi texnologiyali - 40,1 % (36,6 %) va quyi texnologiyalisi - 35,6 % (36,5 %) ni tashkil etdi¹⁵⁰.

Sanoat siyosatidagi kamchiliklarning sabablari:

1996yildan so'ng amalga oshirilgan giperfaol sanoat siyosati:

bozor islohotlarining oyog'ini osmondan qilib yubordi (va hozir biz sobiq SSSRning boshqa davlatlari 1990-yillarda amalga oshirgan islohotlarni o'tkazniqdamiz);

bozor mexanizmlari, eng avvalo sog'lom raqobat ishlab ketishiga yo'l qo'ymadni (aynan raqobat innovatsiyalar va iqtisodiy rivojlanishni harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi);

aksilbozor, iqtisodiyotni ma'muriy boshqarish usuli va yuqori soliq yuki tufayli erkin xususiy tadbirdorlikning rivojlanishini bo'g'di;

aholi daromadlari o'sishini chekladi (binobarin, sanoat mahsulotlariga bo'lgan talabni ham);

korrupsiya rivojlanishiga, kapital olib chiqib ketilishiga, monopolizm va iqtisodiyotni zaiflashtirishning boshqa shakllariga xizmat qilgan¹⁵¹.

Olimning fikriga ko'ra, yangi sanoat siyosati biz shu paytgacha o'tkazgan va ma'lum bir darajada hozir ham o'tkazishda davom etayotganimiz — raqobatni cheklash uchun bojxona to'lovlarini oshirish, import oldiga tarifga xos bo'limgan to'siqlar qo'yish, sohalar hamda hattoki ayrim korxonalar yoki korxonalar guruhiga imtiyozlar taqdim etilishi kabi siyosatdan tubdan farq qilishi kerak. Sanoat siyosati eksport, innovatsiyalar, inson kapitaliga sarmoyalar va sohaga taalluqliligidan qat'i nazar (ayrim istisnolar bo'lishi mumkin), biznes

¹⁵⁰ Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иктисолий холати. 2020 йил январь-декабрь - Т., 2021.-60-бет.

¹⁵¹ Осупов Юний. Ўзбекистонга қандай саноат сиёсати керак?// <https://kun.uz/news/2019/07/08/ozbekistonqa-qanday-sanoat-siyosati-kerak-ijobiy-biznes-iqlim-yaratishga-asoslanganimi-yoki-boshi-berk-kochagacha-boshlaydigan>

yuritish xarajatlarini kamaytirishni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak¹⁵².

Shunday qilib, davlatning iqtisodiy siyosat sohasidagi bosh vazifasi — ijobjiy biznes-iqlim yaratishdir. Buning uchun davlatning o'zini qayta qurish kerak. O'zbekistonning keyingi o'n yilliklardagi iqtisodiy rivojlanish istiqbollari mana shu ishni amalga oshira olishimiz yoki olmasligimizga bog'liq.

14.4.Sanoatni modernizatsiya qilish va rivojlantirish istiqbollari

Prognozlashtirilayotgan 2019-2030 yillar mobaynida sanoatning iqtisodiy o'sishiga ulushini o'rtacha 2,2 punktga ta'minlaydigan iqtisodiyotni industrlashtirishning jadallashtirilgan sur'ati iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri hisoblanadi. Bundan tashqari, sanoatda sifatli tarkibiy siljish, yarim tayyor mahsulotlar va pirovard mahsulot ishlab chiqarish ulushini ko'paytirish prognozlashtirilmoqda. Bu tarmoqning o'sishi sur'atida qayta ishlovchi sanoat ulushi 2018 yildagi 47,6 foizdan 2030 yilda 89,6 foizga ko'payishiga olib keladi.

2019-2030 yillarda YaIM o'sishining prognoz sur'atlarini ta'minlash uchun prognoz davrda sanoat mahsuloti o'sishining o'rtacha yillik sur'atlari qayta ishlovchi sanoat o'sishi sur'atlarining oldini oluvchi sur'atlarini 8,1 foizgacha o'stirish hisobiga 7,4 foizni tashkil etishi kerak. Prognozlashtirilayotgan davrda qayta ishlovchi sektorning ulushi 2018 yildagi 76,6 foizdan 2030 yilda 78,9 foizga ko'payadi.

Shu bilan birga, O'zbekiston sanoatining rivojlanishi sanoat o'sishi omillari va manbalarini zaiflashtirishga qodir bo'lgan bir qancha qarama-qarshi tendensiyalar va xavf-xatarlar bosimi ostida

¹⁵² Юсупов Юлий. Ўзбекистонга қондай саноат сиёсати керак?// <https://kun.uz/news/2019/07/08/ozbekistonga-qanday-sanoat-siyosati-kerak-ijobjiy-biznes-iqlim-yaratishga-asoslanganimi-yoki-boshi-berk-kochaga-boshlaydigan>

turibdi. Bu istiqbolda rivojlanishning prognoz sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Birinchi – tovarlar, kapitallar, texnologiyalar va ish kuchining nafaqat an'anaviy bozorlarinigina emas, balki davlat boshqaruvi tizimini, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va inson salohiyati rivojlanishini qamrab oladigan global raqobatning kuchayishi.

Ikkinci – ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda innovatsiyalarning rolini kuchaytiruvchi va ko'plab an'anaviy o'sish omillari ta'sirini pasaytiruvchi texnologik o'zgarishlarning yangi to'lqini kutilmoqda. Oxirgi avlod yangi texnologiyalarning rivojlanishdagi qoloqligi milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini pasaytirishi hamda o'sib borayotgan geosiyosiy raqobat sharoitlarida uning zaifligini oshirishi mumkin.

Uchinchi – yoqilg'i va xomashyo eksporti kuchayishiga asoslanadigan sanoat rivojlanishining eksport-xomashyo modeli salohiyati tugashi.

Uzoq muddatli istiqbolda sanoat mamlakatni barqaror rivojlantirishga erishishda asosiy harakatlantiruvchi kuch bo'lishi kerak. Bunga xomashyoviy yo'naltirilganlikdan chekinishga ko'maklashuvchi tarkibiy qayta o'zgartirishlar va iqtisodiyotni diversifikasiyalashni, rivojlanishning innovatsion va yuqori texnologik modeliga o'tish uchun tayyorgarlik ko'rish va shart-sharoitlar yaratish hisobiga erishilishi mumkin. Iqtisodiyot va sanoatning ko'pchilik sektorlarida raqobat afzalliklari mavjud bo'lgan (yoki tezlikda tashkil etilishi mumkin bo'lgan) burilish yasaydigan ilmiy-texnologik yo'nalishlarda sa'y-harakatlarni jamlagan holda yetib oluvchi va innovatsion rivojlanish modellariga va malakali muhandis va konstrukturlik salohiyatini tiklashga asoslangan aralash model amalga oshiriladi. Bunda aholi farovonligi va hayoti darajasini oshirish maqsadlarida respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik vazifalarini hal etishda tarmoq, tarmoqlararo, mintaqaviy, mintaqalararo, umumidaylat va xalqaro manfaatlarni garmonik birga qo'shish ta'minlanadi.

Sanoatning rivojlanishi ham davlat, ham xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy faolligini oshirish va samarali milliy innovatsion tizimni jadal rivojlantirish doirasida sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi oshishini rag'batlantirish va davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish mexanizmi orqali iqtisodiyotni tarkibiy va institutsional qayta o'zgartirishlar yo'li bilan resurs salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish hisobiga bajariladi.

Jamg'armalarning ichki manbalari cheklanganligi tufayli zamonaviy raqobatbardoshli mahsulotlar ishlab chiqarishga qodir bo'lgan, biroq aylanma kapital yetishmasligi va ichki talab o'sishining tor imkoniyatlari tufayli ishlamayotgan mavjud quvvatlarning nisbatan raqobatbardoshli qismini aylanmaga jalb etish omilidan eng ko'p darajada foydalanish zarur. Baholashlar katta investitsiya xarajatlarini talab etmaydigan quvvatlarni yuklashning eng ko'p zaxirasi mashinasozlikda, asosan avtomobilsozlikda va bir qator to'qimachilik ishlab chiqarishlarida mavjudligini ko'rsatadi.

Rangli metallurgiya va qurilish materiallari sanoatining moddiy-xomashyo bazasini yanada mustahkamlash, qazib olinayotgan mineral xomashyoni qayta ishlashning kompleksliliginibundan oshirish, sanoat ishlab chiqarishi va mehnat unumdorligi o'sishi sur'atlarini ko'paytirish zarur.

Hisob-kitoblar mehnat unumdorligini faqat 1 foizga oshirish sanoatning qo'shilgan qiymati 1,2 foizga o'sishini ta'minlash imkonini berishini ko'rsatadi. Asosiy ishlab chiqarish fondlarini modernizatsiya qilish va sanoatni texnik jihatdan qayta jihozlash jarayonlarini kuchaytirish ushbu rezervdan foydalanishning asosiy omillari hisoblanadi.

Uzoq muddatli istiqbolda sanoatda islohotlar og'irligi markazini innovatsion omillarni (bio va nanotexnologiyalar, mikroelektronika, nozik kimyo texnologiyalari, axborot-kommunikatsiya va lazer-optik texnologiyalar, tiklanadigan

energetika yutuqlaridan foydalanish, yangi materiallar ishlab chiqarish va shu kabilar) faollashtirish asosida tarkibiy qayta o'zgartirishlarni jadallashtirishga va ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashga ko'chirish taklif etiladi. Buning uchun:

1.Yuqori texnologiyalarni o'zlashtirishga ko'maklashuvchi ilmiy-texnik va ta'lif tizimlarini hamda korxonalar salohiyatini yanada rivojlantirish hisobiga sanoatning innovatsion-yo'naltirilgan, yuqori texnologik tuzilmasini shakllantirish uchun bazaviy shart-sharoitlarni yaratish.

2.Innovatsion omillarni faollashtirishga va xorijiy texnologiyalarni o'zlashtirish va moslashtirish hamda mahalliy innovatsion salohiyatni kuchaytirish orqali ishlab chiqarish jarayoniga innovatsiyalar joriy etilishini ta'minlaydigan bozor va ishlab chiqarish infratuzilmasi institutlarini shakllantirish.

3.Ilmiy tashkilotlar, ta'lif muassasalari bilan yirik va kichik biznesning ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi mustahkam kooperatsiyani ta'minlash chora-tadbirlarini ko'rish.

2030 yilgacha Konsepsiya doirasida quyidagi maqsadli ko'rsatkichlarga erishish nazarda tutiladi:

1.YaIM o'sishi sur'atiga qayta ishlovchisanoatning ulushi hissasini 2018 yildagi 21,9 foizdan 2030 yilda 35,4 foizgacha, sanoatda 47,6 foizdan 89,6 foizgacha ko'paytirish

2.Paxtani chuqur qayta ishslash darajasini 100 foizgacha yetkazish.

2030 yilga qadar milliy iqtisodiyot tarkibida sanoatning ulushini 40 foizga yetkazish bo'yicha aniq maqsadli dasturlarni amalga oshirish belgilangan¹⁵³.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida "Sanoat sohasidagi siyosatni samarali amalga oshirish, sanoatni innovatsion asosda tashkil etish, uni rivojlantirishda drayver va o'sish nuqtalarini jaib etish orqali sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, "yashil texnologiya"larni ishlab

¹⁵³ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси.-Т. "O'zbekiston" пашриети. 2021.-148-бет

chiqarishga tatbiq etishni rag'batlantirish, xomashyoni chuqur qayta ishlash va raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, tashqi bozorlarda yuqori talabga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim"¹⁵⁴, -deb ta'kidlagan.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida 22-maqсад sifatida Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish belgilangan. Ushbu maqsadga erishish bo'yicha quyidagilar belgilangan:

- sanoatning yetakchi tarmoqlari va iqtisodiyotni yanada liberallashtirish hamda transformatsiya jarayonlarini yakunlash;

- energiya resurslari va tabiiy gaz bozorlarini ijtimoiy himoya kafolatlarini belgilagan holda erkinlashtirib, sohaga xususiy investitsiyalarni keng jalb qilish hamda ehtiyojmand aholini himoya qilish uchun ijtimoiy iste'mol normalarini kiritish;

- iqtisodiyot tarmoqlari va aholiga neft-gaz mahsulotlarini uzluksiz yetkazib berilishini ta'minlash;

- mis sanoati klasterini tashkil etish orqali mis va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 2 baravar ko'paytirish hamda 8 milliard dollarlik mahsulot ishlab chiqarish uchun asos yaratish;

- kimyo va gaz-kimyosi sohalarini rivojlantirish va tabiiy gazni qayta ishslash darajasini 8 foizdan 20 foizga yetkazish orqali kimyo sanoatida 2 milliard AQSh dollariga teng mahsulot ishlab chiqarish;

- avtomobil sanoatida kooperatsiyani yanada rivojlantirish orqali ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga, eksport hajmini 2 baravarga ko'paytirish va mahalliylashtirish darajasini oshirish;

- Chirchiq shahrida qishloq xo'jaligi mashinasozligi ishlab chiqarishini yagona sanoat klasteri usulida tashkil etish;

¹⁵⁴ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегигаси.-Т.: "O'zbekiston" нашриёти. 2021.-134-бет

- qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish;

-to'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish, charim-poyabzal sohasini rivojlantirish orqali ishlab chiqarish hajmini 3 baravarga ko'paytirish;

- farmasevtika sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 3 baravar ko'paytirish va mahalliy bozorni ta'minlash darajasini 80 foizga yetkazish;

- elektrotexnika sanoatida yuqori qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga va eksportini 3 baravarga oshirish;

- mebel mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2,8 baravarga ko'paytirish¹⁵⁵.

Sanoatni modernizatsiyalash bo'yicha oldinga qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun davlatning harakatlari asosiy yo'nalishlarini hisobga olgan holda ushbu dasturda davlatning roli va o'rnni belgilab, yaratiladigan qo'shilgan qiymat nuqtai nazaridan milliy iqtisodiyot tuzilmasida sanoat ishlab chiqarishining rolini oshirish talab qilinadi, shu jumladan:

1.Sanoatni modernizatsiya qilishga investitsiyalarning zarur hajmini ta'minlash (investitsiya siyosati).

2.Ichki va tashqi bozorlarda pozitsiyalarga erishish uchun sanoat korxonalariga ko'maklashish (eksportga yo'naltirilgan ishl chiqarish va importning o'rnni bosish).

3.Ichki infratuzilmaviy va resurs cheklanishlarini bartaraf qilish (hududiy rejallashtirish va logistika).

4.Rivojlanishning iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlari o'ttasidagi muvozanatni qo'llab-quvvatlash (sanoat siyosatining ijtimoiy jihatlari).

¹⁵⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022yil 28yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljalangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60sentiy Farmoni 1-ilova. / <https://lex.uz/u/decs-5841063>

Asosiy tushuncha va atamalar

Sanoat, og‘ir sanoat, yengil sanoat, undirma (qazib oluvchi) sanoat, ishlab chiqaradigan(qayta ishlash) sanoati, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarda ishslash; ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoati; elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash; suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish, sanoat siyosati, innovatsiya, sanoatni modernizatsiyalash.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Sanoat va sanoat majmuasi deganda nimani tushunasiz?
2. Sanoat real sektorda qanday mavqega ega?
3. O‘zbekistonda sanoatning qanday tarmoqlari mavjud?
4. Sanoat siyosati deganda nimani tushunasiz?
5. Sanoat siyosatining maqsad va vazifalarini tushuntirib bering.
6. O‘zbekistonda amalga oshirilgan sanoat siyosatini izohlab bering.
7. O‘zbekiston sanoati rivojlanishida qanday natijalarga erishgan?
8. Sizningcha O‘zbekistonda amalga oshirilgan sanoat siyosatidagi muammo va kamchiliklar nimalardan iborat?
9. Nima uchun sanoat siyosatida muammolar vujudga kelgan?
- 10.O‘zbekiston Respublikasini 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasida sanoatni rivojlantirishning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
- 11.Sanoatning 2030 yilgacha bo‘lgan davrdagi prognoz ko‘rsatkichlarini izohlab bering.
- 12.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” nomli asarida bayon qilingan sanoat siyosatining asosiy maqsadlari nimalardan iborat?

15-BOB. DAVLATNING ENERGETIKA SOHASIDAGI SIYOSATI VA YOQILG‘I-ENERGETIKA SOHASI RIVOJLANISHINING TARTIBGA SOLINISHI

15.1. Energetika va energiya tashuvchilarining iqtisodiy resurs sifatidagi mohiyati va ahamiyati

Energiya (yunoncha “energia” –harakat, faoliyat) – har qanday ko‘rinishdagi materiya, xususan, jism yoki jismlar tizimini tashkil etuvchi zarralar harakatining hamda bu zarralarning o‘zaro va boshqa zarralar bilan ta’sirlarining miqdoriy o‘lchovi. Suv, shamol, o‘rmon, ko‘mir, neft, gaz kabi cheklangan yer boyliklaridan katta sur’atlar bilan foydalanimishi natijasida ular tobora kamayib bormoqda. Binobarin, kishilik jamiyati oldida turgan dolzarb masala yangi energiya manbalari – quyosh va atom yadrosi hisoblanadi¹.


Energetika – energiyaning har xil turlarini hosil qilish, ularni bir turdan ikkinchi turga o‘zgartirish, muayain masofaga uzatish va yetkazib berish, ulardan barcha sohalarda foydalanimish hamda shular bilan bog‘liq nazariy va amaliy muammolarni hal qilishni o‘z ichiga olgan xalq xo‘jaligi, fan va texnika sohasidir. Ko‘mir, neft, tabiiy gaz, torf, o‘tin, slanes, suv, elektr va yadro energiyasi, shamol va quyosh energiyasi energiya resurslari hisoblanadi. Energiya resurslari yoqilg‘i (ko‘mir, neft, gaz, yadro, torf, slanes, o‘tin) va yoqilg‘i bo‘lmagan vositalarga (suv, shamol, quyosh energiyasi) bo‘linadi.

Yoqilg‘i bilan bog‘liq energiya resurslari tiklanmaydigan, yoqilg‘i bilan bog‘liq bo‘lmaganlari esa tiklanadigan resurslar hisoblanadi.

Gidroenergetika energiyaning suv resurslari energiyasidan foydalanimishga doir bo‘limidir. Suv resurslari energiyasidan foydalanimish uchun suv oqimi maxsus qurilgan inshootlar va jihozlar majmui – gidroelektr stansiyalar (GES) yordamida elektr energiyasiga aylantiriladi. Mamlakat gidroenergetikasining istiqboldagi taraqqiyoti,

¹ Нўймонбўжас А. Энергия. Ўзбекистон миший инциклопедияси 10-жизд. –Т.: Ўзбекистон миший инциклопедияси иманий давлат намириёти. 2005. 222-223-бетлар.

asosan, kichik suv havzalari gidroresurslaridan foydalanish bilan bog'liq (15.1-rasm).



15.1-rasm. Energetika turlari¹

Energiya ist'emoli miqdori – bu rivojlangan davlatning belgisi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda yoqilg'i-energetik kompleks bugungi kunda xar bir davlat iqtisodiyotining asosi bo'lib qoladi. Energetik resurslarni ishlab chiqarish ko'lami, uning samaradorligi, is'temoli-ishlab chiqarish kuchlari miqdori va, shundan kelib chiqayotgan iqtisodiyot sohalari rivojlanishini ta'minlaydi. Zamonaviy global dunyoda har bir davlat uchun eng muhim bo'lgan muammo bu o'z energoresurslari bilan o'zini ta'minlanishi.

Dunyo sanoat ko'tarilishining boshlang'ich bosqichlarida sivilizatsiya rivojlanish strategiyasida energoresurslar tugallanmas boylik deb hisoblangan. Oxirgi ikki asrda aholi soni 6 barobar ko'payib,

¹Muellif tomonidan tuzilgan.

olti milliardan oshib ketdi, energiya iste'moli esa har bir aholi boshiga 5(besh) barobarga ko'paydi.

Yirik iste'molchilar qiyin ahvolga tushib, neft o'rnnini bosuvchi yoqilg'i izlashga tushdilar. Bunday krizidan chiqishning bir nechta yo'li mavjud edi: ko'mirga qaytish, neftni gazga almashtirish, AESni rivojlantirish va alternativ energiya manbalarini izlash. Ko'plab Yevropa, Amerika va Meksika davlatlari aytib o'tilgan hamma yo'llarni tanladilar. Birinchi bosqichda ko'mir hissasini oshirib, gazga o'tish yo'llarini izlashdi. Ba'zi bir davlatlar (Fransiya, Shveysariya) atom energetikasiga urg'u berishdi. Agar AESlarning dunyo bo'ylab joylashish manzillariga qaraydigan bo'lsak, eng ko'p AES Yevropa qit'asida (Rossiya bilan birga) joylashgan¹⁵⁶.

Yangi texnologiyalarning joriy etilishi, energiya iste'moli va yer yuzida aholi soning oshib borishi bevosita bog'liq hodisalardir. Rivojlangan mamlakatlarda sanoatda ishlab chiqarishning o'sishi, va o'z navbatida, iste'molning o'sishi (aholi son boshiga) kuzatildi, sekin rivojlanayotgan va rivojlanayotgan malakatlarda esa aholi sonining keskin o'sib borishi kuzatildi.

Xalqaro energetika agentligining ma'lumotlari bo'yicha 2030 yilga borib energiyaga bo'lgan talab 50 foizgacha o'sadi. Atrof muhit bo'yicha BMTTDga muvofiq har yili global ko'lamda iste'mol qilinadigan foydali qazilmalar, ruda, yoqilg'i va biomassa miqdori bugungi kun bilan 2050 yil o'rtasida uch baravar ko'payishi mumkin. Neft narxi prognozlari xalqaro bozorlarda neftga talab va taklifning o'zaro aloqadorligiga bog'liq. AQShda slanes gazini qazib olish va xom neft zaxiralari, shuningdek, OPEK neftini yetkazib berish narx belgilanishiga bog'liq bo'lgan taklifning eng muhim omillari orasida Jahon banki nefting barcha uchta asosiy narxlari (Brent, WTI va Dubai) 2020 yildan keyin o'sish tendensiyasi davom etishini va 2030 yilga borib bir barrel neft 70 dollarga yetishini kutmoqda. Jahon banki 2020-2025 yillarda

¹⁵⁶Узбекистон атом энергетикаси орқали электр энергияси ёхтиёжини тўлиқ таъминлай оладими?// <https://www.xabar.uz/mualliflar/gayrat-yoldosh/uzbekiston-atom-energetikasi>

xomashyo tovarlarining o‘zining yangi prognozida tabiiy gaz narxi o‘sishi davom etishini taxmin qildi. Biroq ushbu baholarning realligi ayniqsa neft va boshqa xomashyo tovarlari narxlari dinamikasi o‘z yo‘nalishini o‘zgartirgan 2018 yilda jahon iqtisodiyotidagi voqealar munosabati bilan katta savollar tug‘diradi. Bundan tashqari, avtomobilsozlik sohasida muqobil texnologiyalar rivojlanadi, bunda ichki yonish dvigatellaridan innovatsion texnologiyalarga (elektromobil larga va gibridda dvigatellarga) o‘tish nazarda tutiladi¹⁵⁷.

15.2.O‘zbekistonda davlatning energetika sohasini tartibga solish yo‘llari

O‘zbekistonning yoqilg‘i-energetika majmuasi neft va tabiiy gaz qazib olish sanoati muhim ahamiyatga ega. Tog‘ kon sanoati va ochiq konlarni qayta ishlash tarkibida 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida neft va tabiiy gaz qazib olish sanoatining ulushi 79,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 99,1 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2020 yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, neft va tabiiy gaz qazib olish sanoatining ulushi 68,1 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 26,5 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 22 482,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi¹⁵⁸.

Mazkur majmuuada elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minalash va havoni konditsiyalash korxonalarini faoliyat yuritib, ular tomonidan 2020 yilda ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 27,2 trln. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (7,4 % ini) tashkil etdi. 2020 yilning yanvar-dekabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minalash tizimlari va havoni konditsiyalash o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 12,5 % ga oshganligi kuzatildi¹⁵⁹.

¹⁵⁷ Узбекистон Республикасинин 2030 йилга кадар ижтимоий-иктисодий комплекс ривожлантириш концепцияси.

¹⁵⁸ Узбекистон Республикасинин ижтимоий-иктисодий ҳолати. 2020 йил январь-декабрь.-Т., 2021.-76-бет.

¹⁵⁹ О ша маёнга, 77-бет.

Keyingi yillarda neft, tabiiy gaz, avtomobil benzini, dizel yoqilg'isi, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish hajmlarining kamayib borishi energetika xavfsizligiga tahdidlar hisoblanadi (qarang: 15.2.1-jadval).

15.2.1-jadval.

O'zbekistonda yoqilg'i-energetika sohasining asosiy turdag'i mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi¹⁶⁰.

| | 1991y | 2000y | 2010y | 2019y | 2020y | 2021y |
|---------------------------------|---------|---------|---------|---------|---------|---------|
| Ko'mir, ming t | 5900 | 2500 | 3600 | 4055,1 | 4131,8 | 5054,8 |
| Neft, ming t | 2800 | 7600 | 4000 | 699,5 | 733,6 | 774,0 |
| Tabiiy gaz, mln kub metr | 41900 | 56400 | 66000 | 60537,5 | 49738,7 | 53802,0 |
| Gaz kondensati, ming t | | 3366,0 | 2019,5 | 2116,8 | 1408,2 | 1324,4 |
| Avtomobil benzini, ming t | 1791,2 | 1709,0 | 1727,9 | 1025,1 | 1016,3 | 1105,8 |
| Dizel yoqilg'isi, ming t | 2200 | 1972,0 | 1127,9 | 1030,5 | 931,1 | 755,4 |
| Elektr energiyasi, mln kvt soat | 54164,0 | 46864,0 | 51976,3 | 63080,5 | 64961,0 | 70149,5 |
| Issiqlik energiyasi, Gkal | 59600 | 39600 | 27700 | 31569,6 | 27703,3 | 28340,4 |

Ushbu jadvaldan ko'rinish turibdiki, 2000yilda 1991 yilga nisbatan ko'mir qazib chiqarish 2 martadan ziyodga kamaydi. Ammo keyingi yillarda ko'mir qazib chiqarish oshib bordi. 2021yilda 2000yilga nisbatan 2 barobarga ko'paydi. Neft qazib chiqarish 2000 yilda 1991 yilga nisbatan 2,7 martaga oshdi. Ammo 2021 yilda 2000 yilga nisbatan 10 martaga kamaydi. Tabiiy gaz ishlab chiqarish hajmi 2021 yilda 2010 yilga nisbatan 18,5%ga qisqardi. Keyingi yillarda avtomobil benzini, dizel yoqilg'isi ishlab chiqarish ham keskin kamayib bormoqda.

Elektr energiya ishlab chiqarish yildan-yilga o'sib bormoqda. Ammo 85% ishlab chiqarilgan elektr energiya gaz va ko'mir, mazut yoqish hisobidan olinmoqda. O'zbekistonning elektr energiyaga bo'lган

¹⁶⁰ Альманах Узбекистан -2013г.Т., ЦЭИ, 2013г.-С 95; Социально-экономическое положение Республики Узбекистан за 2017год.-Т., 2018-С.40,41; Узбекистон Республикасининг ижтимоий-иктисодий ҳолати. 2018 йил январь-декабрь.-Т., ДСИ. 2019.-68, 70-бетлар; О'з давлат қо'мида ма'lumotlari.

yillik ehtiyoji 69 milliard kVt/soatni tashkil etadi. Bu miqdordagi elektr energiyani ishlab chiqarish uchun 16,5 milliard kubmetr tabiiy gazni, 86 ming tonna mazutni, 2,3 million tonna ko'mirni yoqishga to'g'ri kelmoqda¹⁶¹. Shu boisdan uni ishlab chiqarish tannarxi Tojikiston va Qиргизистондагига nisbatan ancha yuqoridir. Mamlakatimizda ko'mir, gaz zahiralari ham kamayib bormoqda. Bu esa energetik xavfsizlikni ta'minlash muammosining dolzarbligidan dalolat beradi.

O'zbekistonda keyigi yillarda muqobil energiya manbalai hisobiga elektr energiya ishlab chiqarish chora-tadbirlari ko'rilmioqda. Buning natijasida 2019 yilda shamol elektr stansiyalari tomonidan 15,5 mln kVt soat elektr energiyasi ishlab chiqarilgan (15.2.2-jadval).

15.2.2-jadval.

Muqobil energiya manbalarida elektr energiyasi ishlab chiqarish¹⁶² mln. kVt. Soat

| | 2015y | 2016y | 2017y | 2018y | 2019y | 2020*y |
|---|-------|-------|-------|-------|-------|--------|
| Quyosh elektr stansiyalari tomonidan ishlab chiqarilgan elektr energiyasi | 0,003 | 0,3 | 0,7 | 0,2 | 0,1 | 0,03 |
| Shamol elektr stansiyalari tomonidan ishlab chiqarilgan elektr energiyasi | | | | | 15,5 | - |

* dastlabki ma'lumotlar

O'zbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasida energetik sohasida muamminolar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- yoqilg'i energetika kompleksi tarmoqlarida asosiy asbob-uskunalar eskirishining yuqori darajadaligi;

- mintaqaga mamlakatlarida yoqilg'i-energetika sohasida energoresurslarni ishlab chiqish (qazib olish) markazlari bilan ularni iste'mol qtluvchilar o'rtaida o'zaro aloqadorlikning sustligi;

¹⁶¹ Садиков И. Атомная энергия в мирных целях станет основой для новых достижений в социальнно-экономическом развитии Узбекистана //https://podbobno.uz/cat/economic/razvitiye-energeticheskoy-otrasli-uzbekistana/

¹⁶² Muqobil energiya manbalarida elektr energiyasi ishlab chiqarish // stat.uz

- iqtisodiyotni energo tejamkorlik rivojlanish yo'liga o'tkazilmaganligi;

- energetika tarmoqlarida investitsiya yetishmasligi va ulardan foydalanish samaradorligining pastligi;

- ichki energiya iste'molchilarining va energiya tashuvchilari import qiluvchilarning xarid qobiliyatining pastligi;

- energiya va energiya resurslari iste'moli uchun haq to'lamaslik holatlarining keng miqyosda ekanligi;

- Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida energiya tashuvchi resurs egalari bilan ulardan energiya ishlab chiqaruvchi hamda iste'molchi mamlakatlar o'rtasida o'zaro mustahkam manfaatli kelishuvning yo'qligi.

O'zbekiston Respublikasini 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasida yoqilg'i energetikasi tarmoqlarida mavjud bo'lgan muammolar bayon qilingan. Jumladan, elektr stansiyalarining o'rtacha yillik yuklamasi 70-72 foizni tashkil etadi, bir kishiga elektr energiyasi ishlab chiqarish 1 838 kW soatni tashkil etadi, bu Qirg'izistondan keyin (1 375) MDH mamlakatlarida ikkinchi eng kam ko'rsatkich hisoblanadi. Taqqoslash uchun ushbu ko'rsatkich bir kishiga Rossiya Federatsiyasida 7 245, Qozog'istonda 5 405, Tojikistonda 2 000 kW soatidan ortiqni tashkil etishi qayd etilgan.

"O'zbekenergo" AJ tizimida ma'nnaviy eskirgan asosiy fondlar (30 yildan ortiq foydalilanligan) ulushi 62,4 foizni tashkil etadi. Iste'molchilarga taqsimlash jarayonida iste'molchilarga berishda elektr energiyasining o'rtacha yillik nobudgarchiligi umumiy hajminga nisbatan 16 foizni tashkil etadi.

Tabiiy gaz qazib olish 63 mlrd kub. metrni tashkil etdi (tabiiy gaz zaxirasi 1,8 trln kub.m., undan 57,7 foizi «O'zbekneftgaz» AJga va 42,3 foizi xorijiy kompaniyalarga tegishli. Tabiiy gaz zaxiralarining asosiy qismi Buxoro-Xiva mintaqasida joylashgan, zaxiralar umumiy hajmining 65,8 foizi ushbu mintaqaga ulushiga to'g'ri keladi.

Rekonstruksiya qilinishi kerak bo'lgan (20 yil va undan ortiq foydalanilayotgan) magistral gaz quvurlari ulushi 73,7 foizni tashkil etadi, bunda yaqin orada rekonstruksiya qilinishi kerak bo'lgan magistral gaz quvurlari (13 yildan 20 yilgacha foydalanilayotgan) ulushi 14,2 foizni tashkil etadi, rekonstruksiya qilinishi kerak bo'lgan gaz taqsimlash stansiyalari (20 yil va undan ortiq foydalanilayotgan) ulushi 51,5 foizni tashkil etadi, bunda yaqin vaqtarda rekonstruksiya qilinishi kerak bo'lgan gaz taqsimlash stansiyalari (o'n yildan 20 yilgacha foydalanilayotgan) ulushi 24,2 foizni tashkil etadi.

Bir yilda o'rtacha 750 ming tonnaga yaqin neft (69 ta kon) va 2 mln tonna gaz kondensati qazib olinadi. Yillik ehtiyoj 7-8 mln tonna suyuq uglevodorodlar. Jahon banki ma'lumotlari bo'yicha respublikada 590 mln barrelga yaqin (80,5 mln tonna) neft zaxirasi mavjud.

Respublikada umumiy yillik quvvati 9 317 ming tonna bo'lgan quvatlarning yuklamasi o'rtacha darajasi 34,2% bo'lgan ikkita yirik va ikkita kichik neftni qayta ishlash zavodi faoliyat ko'rsatadi. Bir yilda o'rtacha 4 mln tonnaga yaqin ko'mir qazib olanadi, zaxira 3 mlrd tonna.

Konsepsiyaada energetika tarmog'i bugungi kunda o'zining salohiyatidan to'liq foydalanmayotganligi, respublika va yaqinda joylashgan mintaqalarning ehtiyojlarini qoplashda taqchillik mavjudligi; ushbu sohada davlat aktivlarini boshqarishning yo'lda qo'yilgan samarali tajribasi mavjud emasligi; sohada mulkida davlat ulushi bo'lgan deyarli barcha korxonalar besunaqay va lahzalik muammolar va vazifalarni hal etish uchun boshqarilishi; korxonalarни istiqbolli rivojlantirish bozor ko'nikmalari hisobga olinmasdan ma'muriy usullar bilan rejalahtirilishi to'g'risida yakuniy xulosa berilgan.

Mazkur muammolarni hal etish va yoqig'i-energetika majmuasini barqaror rivojlantirishga qaratilgan energetika sohasidagi davlat siyosatining asosiy vazifalari quyidagilarda o'z ifodasini topgan:

- mamlakat (mintaqa) iqtisodiyoti va aholisi ehtiyojlari uchun zarur hajmdagi energiya resurslarini (tashuvchilarni) kafolatli va iqtisodiy jihatdan qulay shartlarda yetkazib berish;

- yoqilg'i konlarini qidiruv va qazib chiqarish bo'yicha investitsiya loyihalari, yangi gidrostansiyalar qurish, mavjud quvvatlarni modernizatsiya qilish, energiya tashuvchi va energiya resurslarini tashishning yangi yo'nalishlarini belgilash hamda tashkil etish bo'yicha birgalikda hamkorlik qilish;

- yoqilg'i va energiya resurslarini ichki mintaqaviy va tashqi iste'molchilar uchun mintaqadagi davlatlar hududlari orqali to'siqsiz, diskriminatsiyasiz tranzit qilishni ta'minlash;

- energiya tashuvchi resurslarni mintaqaga ichida ayirboshlashni samarali tashkil etish, mamlakat energiya salohiyatidan foydalanishning yuqori samaradorligiga erishish;

- Markaziy Osiyo mamlakatlari energiya tizimining parallel va sinxron, ya'ni o'zaro muvofiqlashtirilgan rivojlanishi hamda mamlakat, mintaqaga darajasida ishonchli energiya ta'minotini ta'minlash;

- energiya resurslar (tashuvchilar) tashqi bozorida o'zaro kelishilgan, muvofiqlashtirilgan siyosatni ishlab chiqarish va yuritish;

- har bir mamlakatda va Markaziy Osiyo hududida energiyani tejash siyosatini amalga oshirish; huquqiy me'yoriy hujjalarni muvofiqlashtirish, axborot va tajriba almashishni yo'lga qo'yish.

O'zbekistonda energetika sohasidagi siyosatni amalga oshirish yo'nalishlari:

- qo'ng'ir ko'mirni ochiq usulda qazib chiqarishni yanada rivojlantirish;

- tabiiy gaz qazib chiqarishni ma'lum darajada o'stirish va barqarorlashtirish;

- suyuq uglevodlar qazib chiqarishning erishilgan darajasini ushlab qolish;

- ko'mirni yer osti gazlashtirishni rivojlantirish;

- uglevodlar xom ashvosini chuqr qayta ishlash jarayonlarini kengaytirish;

- ishlab chiqarilayotgan energiya mahsulotlari sifatini jahon standartlari darajasiga ko'tarish;
- elektroenergiya bo'yicha erishilgan balansni saqlash;
- energiyaresurs tejamkorligiga erishish;
- energetika sohasida o'zaro manfaatli, ishonchli hamkorlikka erishish.

Mamlakat iqtisodiyoti energetik xom ashyo resurslarining importiga bog'liq bo'lib qolsa, iqtisodiy mustakillikka erishish mushkul muammoga aylanadi. Har bir mamlakat energetika tarmog'ining rivojlanishiga qarab uning iqtisodiy va texnikaviy jihatdan qay darajada taraqqiy etganligini aniqlash mumkin. Mamlakat energetika sanoatining rivojlanganligi elektr energiyasi ishlab chiqarishning umumiy hajmi va mamlakat aholisi jon boshiga iste'mol qilinadigan elektr energiyasining miqdori bilan belgilanadi. Energetikaning rivojlanishi, bir tomonidan, arzon va qulay tabiiy energetik resurslarning mavjudligiga, ikkinchi tomonidan, uni iste'mol qiluvchilarning elektr energiyadan foydalanish samaradorligiga ham bog'liq.

15.3. Energetika siyosatini takomillashtirish va sohani rivojlantirish istiqbollari

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni analga oshirishdan ko'zlangan maqsadga erishish, uning energetika mustaqilligini ta'minlash bilan birga, respublikaning birmuncha uzoq istiqbolda elektr energiyaning yirik eksportchisiga aylanishi imkonini beradi. Energetika sektorida mujassamlashgan barcha potensial afzalliklarga erishish uchun bir qator prinsipial jihatdan muhim tadbirlarni amalga oshirish zarur bo'ladi.

Mamlakatimizda energetikani yanada rivojlantirish, qayta tiklanadigan energiyadan foydalanishga o'tish maqsadida Namangan viloyatining Pop tumanida Koreya Respublikasining Savdo, sanoat va energetika vazirligi ko'magida 2014 yilning dekabr oyida quvvati 130 kVt bo'lgan quyosh fotoelektrik stansiyasi qurildi va ishga tushirildi. Ushbu stansiya yagona elektr energetikasi tarmog'iga ulangan va yiliga 234,3 ming kVt soat elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatiga ega.

Surxondaryo, Namangan va Navoiy viloyatlarida yirik quyosh fotoelektrik stansiyalarini qurish bo'yicha loyihalar tayyorlanmoqda. Jahon banki ishtirokida O'zbekiston Respublikasining shamollar Atlasi ishlab chiqildi, Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida quvvati 750 kVt bo'lgan tajribaviy shamol energoqurilmasini qurish bo'yicha investitsiya loyihalari yakunlovchi bosqichiga kirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining¹⁶³ 2017-2021 yillarda qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida¹⁶⁴gi 2017 yil 26 maydag'i qaroriga muvofiq qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirishning maqsadli parametrlari, bunda 2025 yilga kelib elektr energiyasini ishlab chiqarish quvvatlari tarkibida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining hissasini 12,7 foizdan 19,7 foizga yetkazish ko'zda tutilmoqda, jumladan, gidroelektrostansiylar bo'yicha 12,7 foizdan 15,8 foizga, quyosh energetikasi bo'yicha 2,3 foizga, shamol energetikasi bo'yicha 1,6 foizga; qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirish bo'yicha investitsiya loyihalarining ro'yxati, bunda 2017-2025 yillarda umumiyligi qiymati 5,3 milliard dollar bo'lgan 810 ta loyihani amalga oshirish ko'zda tutilmoqda¹⁶³.

O'zbekistonda yillik elektr energiyaga bo'lgan ehtiyoji 69 mlrd kvt/s bo'lib, uni ishlab chiqarish uchun 16,5 mlrd kub metr tabiiy gaz, 86 ming tonna mazut, 2,3 mln tonna ko'mir sarflanadi. Ekspertlarning baholashiga ko'ra 2030 yilda elektr energiya iste'moli 117 mlrd kvt/soatni tashkil etadi. Shu boisdan mamlakatimizda Atom elektr stansiyasi qurish boshlandi¹⁶⁴.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 iyuldag'i PF-5484-sonli "O'zbekiston Respublikasida atom energetikasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida¹⁶⁴gi farmoni bilan O'zbekiston

¹⁶³O'zbekiston Respublikasi Prezidentining¹⁶³ 2017-2021 yillarda qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida¹⁶⁴gi 2017 yil 26 maydag'i qaroriga // Xalq so'zi gazetasiga 2017 yil 30 may.

¹⁶⁴ Садиков И. Атомная энергетика в мирных целях станет основой для новых достижений в социально-экономическом развитии Узбекистана // <https://podrobno.uz/cat/economic/ravzvitiye-energeticheskoy-otrasli-uzbekistana/>

Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Atom energetikasini rivojlantirish agentligi tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 1 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasi yoqilg'i-energetika tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5646-son Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasining energetika vazirligi tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 martdag'i "O'zbekiston Respublikasida elektr energetika tarmog'ini yanada rivojlantirish va isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi qaroriga muvofiq "O'zbekenergo" AJni qayta tashkil etish asosida issiqlik elektr stansiyalari hamda elektr va issiqlik energiyasi ishlab chiqaruvchi elektr markazlarini boshqaruvchi "Issiqlik elektr stansiyalari" aksiyadorlik jamiyati, "O'zbekenergo" AJning tugatilayotgan "O'zelektrtarmoq" UK va "Energosotish" filiali negizida respublikaning magistral elektr tarmoqlaridan foydalanish va ularni rivojlantirish, ular orqali elektr energiyani yetkazib berish va davlatlararo tranzitni amalga oshirish, eksport va import qilish bilan shug'ullanuvchi "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyati hamda elektr energiyani yakuniy iste'molchilarga taqsimlovchi va sotuvchi hududiy elektr tarmoqlari korxonalarini boshqarishni amalga oshiruvchi "Hududiy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyatini tashkil etiladi. "Issiqlik elektr stansiyalari", "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" va "Hududiy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyatlari ustav kapitallaridagi davlat aksiyalari paketlari bo'yicha aksiyador huquqi O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasini 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq 2030 yilga borib iqtisodiyotda elektr energiyasining prognozlashtiriladigan iste'moli 1,8 baravar, tabiiy gaz - 1,7 baravar, yoqilg'i-moylash materiallari iste'moli - 2,1 baravar ko'payadi. Konsepsiya doirasida 2030 yilgacha elektr energiyasi ishlab chiqarishni 117,2 mlrd kVt soatgacha ko'paytirish (2018 yilga taqqoslaganda o'sish 1,9

baravar), shu jumladan, muqobil yoqilg‘ilar va energiya manbalari hisobiga 30 foizgacha ko‘paytirish nazarda tutiladi, elektr energiyasi tannarxi 6 foizga, tabiiy gaz tannarxi 30 foizga pasayadi.

O‘rtacha muddatli istiqbolda (2019-2025 yillar) energetika sohasini rivojlantirish asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyatning potensial raqobatli (gaz, neftni qayta ishlash mahsulotlari, elektr energiyasini xususiy operatorlarga sotishi) va monopol (qazib olish, generatsiya, magistral tarmoqlar orqali uzatish, diisspetcherlik boshqaruvi tizimi) sohalarini aniq ajratgan holda korxonalarni tarkibiy o‘zgartirishning yo‘nalishlarini belgilab yoqilg‘i-energetika kompleksini bozorga xos isloh qilish strategiyasini amalga oshirish.

2. Energetika sohasida davlat boshqaruvi va xo‘jalik faoliyati funksiyalarini chegaralash, ijtimoiy va davlat-xususiy sheriklikning huquqiy va institutsional bazasini takomillashtirish, tarif siyosatini amalga oshirishning aniq bozor mexanizmlarini ishlab chiqish va shu asosda sog‘lom raqobat muhiti prinsiplarini ilgari surish.

3. Respublika ichki iste’molchilarini tabiiy gaz bilan ishonchli ta’minlash maqsadida gaz-transport tizimini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish hamda gazning eksport hajimlarini kengaytirish.

4. Gazni sanoat yo‘li bilan qayta ishlash uchun bo‘shatish maqsadida yoqilg‘i-energetika kompleksining ishlab chiqarish tuzilmasini diversifikatsiyalash jarayonini chuqurlashtirish.

5. Elektr va issiqlik energiyasi ishlab chiqarishda sanoat chiqindilari va maishiy chiqindilardan foydalanish texnologiyalarini rivojlantirish.

6. Issiqlik va elektr energiyasining yangi avtonom manbalarini ishlab chiqish va joriy etish, quyosh energiyasi singari tiklanadigan, muqobil energiya manbalarini joriy etishni tezlashtirish, ko‘mbinatsiyalashtirilgan siklli integratsiyalashtirilgan quyosh-issiqlik elektr stansiyalarini, bioenergetikani joriy etish va shu kabilar.

7. Ulgevodorod xomashyoni chuqur qayta ishlash bo'yicha texnologik rekonstruksiya qilish va yangi quvvatlarni faol ishga tushirish loyihamalarini amalga oshirish, yoqilg'i-energetika kompleksining qayta ishlovchi tarmoqlarini rivojlantirishda innovatsiyalarni faol joriy etish.

8. Neft va gaz quduqlarini burg'ulash, uglevodorodlarni qazib olish, tashish va qayta ishlash tizimlari, shuningdek, iqtisodiyotning turdosh tarmoqlari uchun yuqori texnologik asbob-uskunalarini o'zlashtirish va ishlab chiqarishni nazarda tutadigan importning o'rnini bosish nomenklaturasi va hajmlarini kengaytirish.

9. Neft-gaz konlarining zaxiralari zarur o'sishini ta'minlaydigan yangi konlarni (shu jumladan, slanes uglevodorodlar konlarini) ishga tushirish va neft-gaz konlaridan olinadigan sanara koeffitsientlarini salmoqli ravishda ko'paytirish.

10. Tarmoqning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish maqsadida qulay muhit yaratgan holda iqtisodiyot subyektlari o'rtaida energetika bozorini va iqtisodiy o'zaro munosabatlarni shakllantirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida atom energetikasini rivojlantirish asosida, xususan, umumiy quvvati 2,4 Gvt ga teng AES inshootini buniyod etish va undan xavfsiz foydalanish hamda qayta tiklanadigan va muqobil energiya manbalaridan foydalangan holda 2026 yilga qadar elektr energiya ishlab chiqarish ulushini 20 foizdan oshirish, mamlakatni ishonchli, xavfsiz, tejamkor va samarali elektr energiyasi manbai bilan ta'minlash, ishlab chiqarish quvvatlarni kengaytirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga 2030 yilga qadar 20 ming mVt ga yetkazish lozimligini ta'kidlagan¹⁶⁵.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida 24-maqsad sifatida Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzlusiz ta'minlash hamda "Yashil iqtisodiyot"

¹⁶⁵ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi.-T.: "O'zbekiston" nashriyoti. 2021.-153-154-betlar.

texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish belgilangan. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyida chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

- 2026 yilga kelib elektr energiyasi ishlab chiqarish ko'rsatkichini qo'shimcha 30 milliard kVt.soatga oshirib, jami 100 milliard kVt.soatga yetkazish;
- 2026 yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 25 foizga yetkazish evaziga yiliga qariyb 3 milliard kub metr tabiiy gazni tejash;
- O'zbekiston energetika tizimining qo'shni davlatlar energetika tizimlari bilan barqaror ishlashini ta'minlash;
- sanoat tarmoqlarida yo'qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish hamda uy-joy-kommunal xo'jaligi, ijtimoiy soha ob'ektlari va boshqa sohalarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish va energiya samaradorligini oshirish;
- elektromobillar ishlab chiqarish va ulardan foydalanish bo'yicha choralarни ko'rish;
- iqtisodiyot tarmoqlarining havoga chiqaradigan zararli gazlar hajmini bir birlik Yalpi ichki mahsulot hisobida 10 foizga qisqartirish¹⁶⁶.

¹⁶⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022yil 28yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljalangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60sonli Farmoni. 1-ilova. / <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

Asosiy tushuncha va atamalar

Energiya, energetika, energetika xavfsizligi, “energetika xavfsizligi” tushunchasining tarkibiy elementlari, energetika xavfsizligini ta’minlash tamoyillari, energetika xavfsizligini ta’minlash usullari, energetika manbalarining yangi turlari, quyosh energiyasidan foydalanish.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Energetika milliy iqtisodiyotda qanday o‘rin tutadi?
2. “Energetika sohasida dunyoda va O‘zbekistonda qanday muammolar mavjud?
3. O‘zbekistonda Energetika sohasida qanday tishlar amalga oshirildi?
4. Energetika resurslari bilan mamlakatni to‘liq ta’minlash uchun nimalar qilish kerak?
5. O‘zbekistonda energetika sohasida davlat siyosatining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
6. Mamlakatimizda energetika sohasida nimalarni amalga oshirish kerak?
7. O‘zbekistonda 2019-2030 yillarda energetika sohasida qanday natijalarga erishish ko‘zda tutilnoqda?
8. Atom energetikasini rivojlantirish nima uchun dolzarb va buning uchun nimalarni amalga oshirish kerak?
9. Energetikani rivojlantirishning istiqbol yo‘nalishlari nimalardan iborat?
10. Energiya olishning istiqboldagi muqobil manbalari nimalardan iborat?

16-BOB. DAVLATNING TRANSPORT SIYOSATI VA UNI TARTIBGA SOLISH YO'NALISHLARI

16.1.Transport sohasining real sektorda tutgan o'rni va ahamiyati

Transport xalq xo'jaligining yuk va kishilarni tashishga bo'lgan ehtiyojini qondiradi, mintaqalarni bir-biri bilan bog'laydi, tovarlar, mahsulotlar, xizmatlar ishlab chiqaruvchilari va iste'molchilarini bog'lovchi zanjir bo'lib, bularsiz bozor munosabatlari sodir bo'lmaydi.

Transport yo'lovchi va yuk tashishni analga oshiruvchi moddiy ishlab chiqarish va ayni paytda xizmat ko'rsatish sohasi hisoblanadi. Transport majmuasi ko'p tarmoqli soha bo'lib, o'z ichiga yuk va yo'lovchi transportining barcha turlarini oladi: temir yo'l, avtomobil, dengiz, daryo, truboprovod, havo yo'llari, sanoat va shahar transporti.

Shuningdek, transpotni yer ustki, suv va havo transporti turlariga ham ajratish amaliyoti mavjud. Yer ustki transportga temir yo'l va avtomobil transporti kiradi. Suv transportiga dengiz va ichki daryo transporti kiradi. Havo transporti o'z navbatida samolyot va vertolyot transportiga bo'linadi.

Suv transporti yuqorida sanab o'tilgan transport turlariga nisbatan ancha oldin paydo bo'lgan. Suv transporti boshqa transport turlarilaridan o'zinинг yuqori hajmkorligi, uzoq masofaga yuk tashish tannarxining pastligi, shuningdek, qit'alararo katta gabaritli yuklarni tashish qulayligi bilan ajralib turadi.

Avtomobil transporti hozirgi vaqtida eng ko'p tarqalgan transport turi hisoblanadi. Ushbu transport turiga talab oshgani bilan, yoqilg'i, moylash materiallari qiymatining va xizmat ko'rsatish narxining yuqoriligi, atmosferaga zararli tutun chiqarib, ifloslantirishi uning salbiy jihatlari hisoblanadi.

Temir yo'l transporti XIX asming o'rtalaridan boshlab strategik muhim transport turiga aylandi. Hozirgi vaqtida temir yo'l transporti deb rels yo'llari orqali lokomotiv va motorvagon vositasi yordamida

vagonlarda yuk va yo'lovchi tashishni amalga oshiradigan transport turiga aytildi.

Havo transporti eng qimmat va yuqori tezlikda uzoq hududlarga yuk va yo'lovchilarni ishonchli tarzda tashiydigan transport turidir. Uning asosiy faoliyat turi yo'lovchi tashish hisoblanadi. Bu transport turida tez buzilish xususiyatiga ega bo'lgan mahsulotlar va qimmatli yuklar, pochta tashiladi.

Quvur (truboprovod) transportining avzalligi shundaki, uning o'tkazish xususiyati yuqori, tannarxi arzon, yukning saqlanuvchanligi yuqori, kapitalhajmkorligi va mehnat sarflari past darajada bo'ladi. Bu transport turi orqali gaz, neft mahsulotlari va xom ashyo materiallari emulsiyasi tashiladi. Quvur (truboprovod) transportining kundalik turi vodoprovod va oqova suv (kanalizatsiya) quvurlari hisoblanadi.

Barcha davlatlar kabi respublikada ham transport turlari xiznatlaridan foydalanishda o'ziga xos bo'lgan afzallik va kamchiliklar mavjud (16.1.1-jadval).

16.1.1- jadval

Yuk va yo'lovchilarni manzilga yetkazishda transport turlarining o'ziga xos afzallik va kamchiliklari¹⁶⁷

| t/ r | Transport turlari | Afzalliklari | Kamchiligi |
|---------|-----------------------------|--|---|
| 1. | Temir yo'l transporti | 1. Yirik korxonalar va savdo tashkilotlari bazasi bilan bog'langan temir yo'l magistrallarining mavjudligi 2. Yil fasllariga qaramasdan mintaqalar o'rtaida muntazam transport aloqalari va tashish imkoniyati mavjudligi 3. Temir yo'lning yuqori darajada o'tkazuvchanlik va katta hajmdagi yuk tashish qobiliyatni 4 Past darajadagi energiya sarfi va tashish qiymatiga egaligi 5.Ekologiyani kam ifloslantirishi va | Temir yo'l qurilishi uchun katta xaratjatlar ketishi Tashuv sur'atining pastligi (sutkasiga 250-500 km/sutka) Sortirovka qiladigan (saralaydigan) stansiyalar tezkorligini yetishmasligi Tashuvning faqat temir yo'llar mavjud rayonlarda amalga oshirilishi Bekor turib qolishning |

¹⁶⁷ Azizov U.O., Abulqosimov H.P., Xoliyorov N.A., Ismoilov A.A. Iqtisodiyotning ilmiy va amaliy asoslari. Darslik.- T.: «Iqtisod-Moliya», 2022 -173-bet..

| | | h.k. | uzoq muddatga cho'zilishi |
|-------------------------|--|---|---------------------------|
| 2. Avtomobil transporti | 1. Harakatchanlik va manyovming kattaligi | Yuk tashish xarajati (tannarxi)ning yuqoriligi | |
| | 2. Oralig omborlar va qayta yuklashsiz tashish imkoniyatining mavjudligi | Avtomobilga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xarajatlarining yuqoriligi | |
| | 3. Yuklarni yetkazish tezligining yuqoriligi | Atrof-muhitga zararli chiqindi gazlarning ko'p chiqarishi | |
| | 4. Yuk qabul qiluvchining ehtiyojlariga mos ravishda kichik partiyalu yuklarni yetkazib berish imkoniyati mavjudligi va h.k. | Avtoyo'llarning holatiga bog'liqligi va h.k. | |
| 3. Havo transporti | 1. Yetkazishning yuqori darajadagi tezligi va yuklarning yo'lida bo'lish vaqtining pastligi | Yuk tashuv qobiliyatining katta emasligi | |
| | 2. Havo yo'llarini tashkil etishning moslashuvchanligi | Tashish tannarxining yuqoriligi | |
| | 3. Qo'nishsiz (posadkasiz) uchish masofasining uzoq davom etish imkoniyati mavjudligi va h.k. | Uchishning ob-havoga bog'liqligi va h.k. | |

Transportni kategoriya (toifa)lar nuqtai nazardan umumfoydalanish transporti, maxsus transport va shaxsiy yoki individual transportga ajratish mumkin. Umumfoydalanish transporti tushunchasi ko'pincha jamoat transporti tushunchasining sinonimi sifatida ishlataladi. Bu turdag'i transport tovarlarni tashiydigan savdoga xizmat qiladi va yo'lovchi tashish shaklida namoyon bo'ladi. Maxsus transport toifasiga ichki ishlab chiqarish va ichki ma'nuriyat transporti kiradi. Shaxsiy transportga xususiy shaxslar foydalananadigan barcha transport vositalari, ya'ni velosiped, motosikl, B kategoriyalidagi avtomobillar, xususiy samolyot, vertolyot va yaxta, qayiq, katerlar kiradi.

Transportning rivojlanishi, mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashdagi ahamiyati va dolzarbligi ko'pgina omillar bilan belgilanadi. Avvalom bor, transportning har xil turlari mamlakatning yalpi ichki mahsulotini, milliy daromadini va turli darajadagi budgetlarni

shakllantirishda ishtirok etadi. Transport tizimi mamlakatning resurslarini hamda mahsulotlarni hududlar va iqtisodiyot tarmoqlari hamda sohalari o'rtasida taqsimlanishi va qayta taqsimlanishini ta'minlashda ishtirok etishi bilan ham ichki va tashqi savdo aloqalariga, iqtisodiy o'sish sur'atlari va rivojlanishga ta'sir ko'rsatadi. Agar transport resurslar va mahsulotlarni bunday taqsimlanishini ta'minlashga qodir bo'lmasa, tadbirdorlik rivojlanmaydi, savdo aylanmasining va mamlakat iqtisodiyotining o'sish sur'atlari, rivojlanishi susayadi.

Iqtisodiyot rivojlanishiga mos ravishda transportda yuk va yo'lovchi tashish hajmlari oshib boradi. Transportda yuk tashish 2017-2021 yillarda 128,8%ga, shu jumladan, temir yo'llarda 105,9%ga, avtomobil tarsnsportida 131,9%ga oshdi (qarang: 16.1.2-jadval).

16.1.2-jadval.

Transport turlari bo'yicha yuk tashish va yuk aylanmasi¹⁶⁸

| ko'rsatkichlar | 2017y | 2019y | 2020y | 2021y | 2021 yilda 2017 yilga nisbatan % da |
|--------------------------------------|---------|---------|---------|---------|--|
| Transportda tashilgan yuklar, mln. t | 1174,0 | 1318,9 | 1378,8 | 1511,9 | 128,8 |
| Temir yo'l transporti | 68,0 | 70,1 | 70,4 | 72,0 | 105,9 |
| Avtomobil tarsnsporti | 1040,9 | 1176,8 | 1245,6 | 1373,5 | 131,9 |
| Havo tarsnsporti, ming t | 27,2 | 9,6 | 5,1 | 8,3 | 30,5 |
| Quvur transporti | 65,1 | 72,0 | 62,8 | 66,4 | 102,0 |
| Transport yuk aylanmasi, mln t-km | 66934,4 | 72908,2 | 69128,2 | 73535,4 | 109,8 |
| Temir yo'l transporti | 22949,8 | 23499,7 | 23996,1 | 24519,9 | 106,8 |
| Avtomobil tarsnsporti | 13628,8 | 16168,0 | 16661,1 | 17869,0 | 131,1 |
| Havo transporti, ming t | 156,9 | 119,1 | 219,1 | 303,6 | 193,5 |
| Quvur tarsnsporti | 30198,9 | 33121,4 | 28851,9 | 30892,9 | 102,3 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, tahlil davrida havo transportida yuk tashish 3 martadan ziyodga kamaygan. Urumiy yuk

¹⁶⁸ Узбекистон Республикасининг йекимий-иқтисодий ҳолатиниварь-декабрь 2017 йил-124бет; 2018 йил-205-бет; 2019 йил-294-295-бетлар; 2020 йил-202-203-бетлар 2021 йил-194-195-бет ма'lumotlari asosida tuzilgan.

tashish hajmida eng yuqori ulushni avtomobil transporti – 90,3 % egallaydi, boshqa transport turlarida yuk tashish ulushi 9,7 % ga to‘g‘ri keldi. 2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, transport sohasida qariyb 18 251 ta korxona va tashkilotlar jalb qilingan. O‘tgan yilning shu davriga nisbatan ularning soni 950 birlikka ko‘paydi, o‘sish 5,5 % ni tashkil etdi.

Transport turlari bo‘yicha yo‘lovchi tashish tarkibida ham avtomobil transporti yetakchilik qilmoqda. Uning jami yo‘lovchi tashish hajmidagi ulushi – 99,1 % ni tashkil etadi. Yo‘lovchi aylanmasi bo‘yicha nisbatan yuqoriroq o‘sish sur’ati avtomobil transportida – 89,9 % kuzatildi. Transportning barcha turlari bo‘yicha yo‘lovchi tashish 2021 yilning yanvar- dekabr oylarida 2017 yilning mos davriga nisbatan 101,8 % ga o‘sib, 5 758,4 mln. kishini tashkil etdi. Yo‘lovchi aylanmasi tahlil davrida o‘zgarmadi. Ma’lumot uchun: 2020 yilning tegishli davrida Qozog‘istonda yo‘lovchilar tashish ko‘rsatkichi 8 386,5 mln. yo‘lovchiga teng bo‘ldi (qarang: 16.1.3-jadval).

16.1.3-jadval.

Transport turlari bo‘yicha yo‘lovchi tashish va yo‘lovchi aylanmasi¹⁶⁹

| ko‘rsatkichlar | 2017y | 2018y | 2019y | 2021y | 2021yilda 2017yilga nisbatan %da |
|---|----------|----------|----------|-----------|---|
| Transportda yo‘lovchi tashish, mln kishi | 5653,4 | 5818,1 | 6109,4 | 5 758,4 | 101,8 |
| Temir yo‘l transporti | 21,2 | 22,3 | 22,9 | 8,0 | 37,7 |
| Avtomobil tarasnporti | 5565,2 | 5719,1 | 5999,5 | 5 642,8 | 101,4 |
| Havo transporti | 2,2 | 2,6 | 3,3 | 3,0 | 136,4 |
| Shahar elektr transporti | 64,4 | 74,1 | 83,7 | 104,5 | 162,3 |
| shundan | | | | | |
| metropoliten | 61,6 | 69,1 | 79,2 | 101,8 | 165,2 |
| tramvay | 2,3 | 4,4 | 3,8 | 2,2 | 99,9 |
| trolleybus | 0,5 | 0,6 | 0,7 | 0,5 | 100,0 |
| Transportda yo‘lovchi aylanmasi, mln yo‘lovchi-km | 129492,0 | 134426,5 | 140897,5 | 129 570,0 | 100,01 |

¹⁶⁹ Ўзбекистон Республикасининг юкиминий-иктисодий ҳаҷмати январ-декабр 2017 йил-129-бет; 2018 йил-208-бет; 2019 йил-298-бетлар; 2021 йил-197-198-бетлар ma’tumotlari asosida tuzilgan.

| | | | | | |
|--------------------------|----------|----------|----------|-----------|-------|
| Temir yo'l transporti | 4310,2 | 4350,1 | 4385,7 | 3 122,2 | 72,4 |
| Avtomobil tarntporti | 117157,3 | 120696,3 | 124902,4 | 120 424,4 | 102,8 |
| Havo transporti | 7546,9 | 8835,1 | 10991,6 | 5 259,4 | 69,7 |
| Shahar elektr transporti | 477,6 | 545,0 | 6178 | 764,0 | 159,9 |
| shundan | | | | | |
| metropoliten | 449,0 | 503,8 | 577,4 | 741,8 | 165,2 |
| tramvay | 13,8 | 26,2 | 20,5 | 7,9 | 57,2 |
| trolleybus | 14,8 | 15,0 | 19,9 | 14,3 | 99,9 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, 2020 yilda koronavirus pandemiyasi tufayli joriy etilgan cheklovlar natijasida transportning barcha turlari bo'yicha yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi 2019 yilga keskin kamaydi, natijada bu ko'rsatkichlar 2017 yilga nisbatan ham past darajada bo'ldi. Vaholanki, 2019 yilda 2017 yilga bu ko'rsatkichlar 2017 yilga nisbatan o'sish tendensiyasiga ega edi.

Mamlakatning milliy, shu jumladan iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda transport tizimining rivojlanishi muhim rol o'ynaydi. Transportning rivojlanishi jo'g'rofiy nuqtai nazaridan mamlakatning barcha hududlari o'rtaсидagi aloqalarni ta'minlaydi. Shuningdek, transportning alohida turlarining texnik va texnologik rivojlanish darajalarining o'sishi, ularning o'zaro bog'liqlikdagi faoliyatini tashkil etilishi mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanishini ta'minlaydi.

Transport infratuzilmasining rivojlanishi mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi darajasiga ijobji ta'sir qiladi. Shuningdek, transport xodimlarini ijtimoiy jihatdan muhoza qilish orqali transport tizimining ijtimoiy xavfsizligini ta'minlashga ta'sir qiladi. Yo'lovchi tashish sohasida tariflar maqbul darajasining belgilanishi, tashish xavfsizligi va qulayligi aholining mamlakat ichidagi migratsiya jarayonlarini normal darajada ta'minlash imkoniyatini yaratadi.

16.2.O‘zbekistonda transport siyosati va sohani rivojlantirish tendensiyalari

O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillardanoq transport sohasini rivojlantirish, sohada iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash maqsadida mustabiq totalitar tuzumidan qolgan muammolarni hal etish, mamlakatning barcha hududlarini bog‘lovchi yaxlit transpot va kommunikatsiya tizimini shakllantirishga kirishildi. Buning uchun, avvalom bor, Surxondaryo viloyati va Qoraqalpog‘iston Respublikasiga olib boradigan temir yo‘llarning qo‘shni Turkmaniston hududi orqali o‘tishiga barham berish lozim edi. Shuning uchun jahon talablariga javob beradigan temir va avtomobil yo‘llarini qurish, mavjudlarini takomillashtirishga, jahon bozorlariga chiqish yo‘llarini ko‘paytirishga, yagona va yaxlit transport tizimini yaratish, uning raqobatdoshligini oshirishga qaratilgan strategiya belgilab olindi hamda amalga oshirila boshlandi.

Mazkur strategiya asosida Markaziy Osiyodagi qo‘shni mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarini jadal rivojlantirish va takomillashtirishning 1995-2010yillarga mo‘ljallangan milliy dasturiga asosan 1996 yilda “Toshkent-Andijon-O‘sh” magistralining 100 kilometrdan ortiq tog‘li uchastkalarida “Qamchiq va Rezak” tunnelini qurish ishlari boshlandi. “Olma-ota-Bishkek-Toshkent-Termiz” va “Samarqand-Buxor-Ashxabad-Turkmanboshi” avtomobil yo‘lining respublika hududidan o‘tadigan qismini ta’mirlash ishlari amalga oshirildi. O‘zbekistonni Qozog‘iston orqali Rossiya Federatsiyasi bilan bog‘laydigan 340 kilometrli “Qo‘ng‘irot-Beynov” avtomobil yo‘li qurilishi yakunlandi.

O‘zbekiston Respublikasida 2011-2015 yillarda transport va kommunikatsiya infratuzilmasi qurilishini jadal rivojlantirish dasturiga muvofiq qariyb 500 kilometrlik to‘rt yo‘lakli zamонавиу avtomobil yo‘llarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari yakunlandi.

Umuman, mustaqillik yillarda respublikada yo‘l-transport infratuzilmasini yaxshilash, avtomobil yo‘llari tarmog‘ini rivojlantirish

bo'yicha keng qamrovli ishlar olib borilishi natijasida umumiy foydalanishdagi halqaro va davlat ahamiyatidagi avtomobil yo'llarining holati tubdan yaxshilanib respublika, viloyat va tuman markazlarini havfsiz transport aloqasi bilan ta'minlashga erishildi.

Muhim tranzit arteriyalari bo'lmish – Qamchiq dovonidan o'tgan, ikkita tunnel qurilishini o'z ichiga olgan "Toshkent-O'sh", "Toshkent-Termiz", "Samarqand-Buxoro-Olot", "Qo'ng'irot-Beynov", "G'uzor-Buxoro-Nukus-Beynov" kabi avtomobil yo'llari, bundan tashqari shu yo'llardagi yirik aholi punktlari bo'lmish – Jizzax, Guliston, Qo'qon, Kattaqo'rg'on, Bo'ka, Olot va Sayrob shaharlarini aylanib o'tish yo'llari yangidan qurildi. "Guliston-Ohangaron" yangi avtomobil yo'lining qurilishi esa Respublikaning Farg'ona vodiysini janubiy, shimoliy-g'arbiy mintaqalar bilan qisqa muddatda bog'lash barobarida ularga poytaxtni aylanib o'tish imkonini berdi.

2700 km dan iborat "O'zbek Milliy magistrali"ni rekonstruksiya qilish va rivojlantirish loyihasi bugungi kunda ham izchil davom etmoqda. Bunda "Beynov-Qo'ng'irot-Buxoro-Samarqand-Toshkent-Andijon", "Buxoro-Olot", "Buxoro-Qarshi-G'uzor-Termiz" va "Samarqand-G'uzor" kabi yo'nalishlardagi 2 tasimali yo'llar birinchi kategoriya hisoblangan – 4 tasmaliga o'tkazilib, tegishli geometrik talablarga javob bergen holda bir o'qqa tushadigan yuk og'irligi 10 tonnadan 13 tonnaga o'tkazilishiga e'tibor qaratilmoqda. 500 kilometrдан ortiq yo'llar esa sement-beton qatlamlilikka o'tkazilmoqda¹⁷⁰.

Dasturlar doirasida, shuningdek, Buxoro, Qarshi, Beruniy, To'rtko'l shaharlarini aylanib o'tish yo'llari, ko'priklari va yo'l o'tkazgichlar barpo qilinmoqda. Avtomobil yo'llari qurilishi va rekonstruksiyasini jadallashtirish maqsadida xalqaro moliya institutlarining 2,04 mlrd. AQSh dollariga teng miqdordagi mablag'lari jalg' etilgan. Jumladan:

¹⁷⁰ <http://www.uzavtoyl.uz/ey/post/avtomobil-yollar-i-davlat-qomitasi-raisi-aabduvalievning-yol-transporti-vamuxundislik-kommunikatsiya-infratuzilmasini-rivojlantirish-istiqbollari-mavzusidagi-xalqaro-ilmiytexnikaviy-anjunandanagi-maruzasi.html>

-Osiyo taraqqiyot banki mablag'lari hisobidan A-380 avtomobil yo'lining Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati hududlaridagi 40 km qismi asfalt-beton qoplamliga o'tkazilib, 141 km yo'l esa sement-beton qoplamlari tarzda rekonstruksiya qilindi, "Qamchiq" dovonida – Toshkent va Namangan viloyatlaridagi tog'li hududlardan o'tgan 58 km avtomobil yo'li, Buxoro viloyati hududidagi 125 km avtomobil yo'llari sement-beton qorishmali qoplamaga o'tkazilmoqda;

-Islom taraqqiyot banki mablag'lari hisobidan-Surxondaryo viloyatidagi 100 km asfalt-beton qoplamlari yo'llar rekonstruksiya qilinmoqda;

-Jahon banki mablag'lari hisobiga Toshkent, Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlaridagi mahalliy ahamiyatga esa avtomobil yo'llarini rivojlantirish loyihalari amalga oshirilmoqda;

-Sauliya rivojlanish jamg'armasi va arab iqtisodiy rivojlanishi Quvayt jamg'armasi mablag'lari hisobiga Qashqadaryo viloyatidagi 35 km avtomobil yo'llari rekonstruksiya qilinmoqda¹⁷¹.

Hozirgi vaqtga kelib, avtomobil yo'llari orqali tashuvalar eng yuqori o'rnlarda turib, yuklarning 91 foizi, yo'lovchilarning esa 98 foiz hissasi aynan mazkur yo'llarga to'g'ri keladi. O'zbekiston Respublikasi avtomobil transporti va yo'llariga daxldor bo'lgan 30dan ortiq xalqaro konvensiyalar, kelishuvlar va shartnomalarining teng huquqli a'zosi hisoblanadi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan, milliy transport kommunikatsiyalarni rivojlantirish, milliy tizimlarni xalqaro transport tizimlari bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan qator dasturlar ishtiroychisi sanaladi. Respublika hududi orqali 20dan ortiq xalqaro transport marshrutlari va yo'nalishlari o'tadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 yanvarda qabul qilingan "Ahолига транспорт хизмати ко'рсатиш hamda шаҳарлар ва qishloqlarda avtobuslarda yo'lovchilar tashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq

¹⁷¹<http://www.uzavtoyul.uz/cy/post/avtomobil-yollar-i-davlat-qomitusi-raisi-oabdullahevning-yol-transporti-va-muxondislik-kommunikatsiya-infrastrukturini-rivojlantirish-istiqbollari-muvzusidagi-xalqaro-ilmiytexnikaviy-anjunimandagi-maruzasi.html>

respublikaning shahar va qishloqlarida, birinchi navbatda qishloq joylarda avtotransport xizmatlari bilan ta'minlashni yanada yaxshilash, yo'lovchilar tashish xavfsizligini oshirish mo'ljallangan edi.

Sohadagi boshqaruv tizimining shu paytgacha bo'lgan holati ba'zi bir tashkiliy masalalarni hal etishni talab qildi. Shu paytgacha avtomobil yo'llarini boshqarish, ularni yaxshi holatdagi transport-ekspluatatsiyasini ta'minlab turish uchun yagona davlat boshqaruvi mavjud emas edi. Masalan, 42654 km uzunlikdagi umumiy foydalanuvdagi avtomobil yo'llari, ya'ni umumiy avtomobil yo'lining 23 foizi – sobiq "O'zavtoyo'l" DAK balansida bo'lgan bo'lsa, qolgan 142 ming km avtomobil yo'llari (umumiy tizimning 77 foizi) – mahalliy hokimiyatlar qoshidagi kommunal xo'jalik bo'limlari va obodonchilik boshqarmalari ixtiyorida edi.

Avtomobil yo'llari va sun'iy inshootlarni loyihalashtirish, qurish va ulardan foydalanish ishlari kompleks yondashish asosida yo'l xo'jaligini boshqarishning samarali tizimini shakllantirish, ularni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, bu borada loyihalashtirish va yo'l-qurilish ishlari sifatini oshirish imkonini beradigan to'laqonli buyurtmachi xizmatini yaratish maqsadida 2017 yilning fevral oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yo'l xo'jaligini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni va qator qarorlari qabul qilindi. Ularga asosan Avtomobil yo'llari qurish va foydalanish davlat-aksiyadorlik kompaniyasi ("O'zavtoyo'l" DAK) negizida O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasini tashkil etildi. Yo'l xo'jaligini boshqarishning yangi tizimi tashkil etildi. Davlat qo'mitasi - avtomobil yo'llarini boshqarish bo'yicha maxsus vakolatlarga ega bo'lgan davlat organi sifatida belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 martadagi qaroriga muvofiq O'zbekiston avtomobil transporti agentligi qayta tashkil etildi. Unga binoan 2018-2021 yillarda avtomobil transporti infratuzilmasini rivojlantirish dasturi qabul qilindi. Dastur ijrosi doirasida 50dan ortiq yo'lovchi tashish yo'nalishi ochildi, 9 avtostansiya

qurildi, 82 yangi avtobus sotib olindi. Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistonga 5 xalqaro avtobus qatnovi yo'lga qo'yildi.

Mustaqillik yillarda transport sohasida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida yagona va yaxlit temir yo'l transportini shakllantirish bo'yicha ham strategik yo'nalishlar amalga oshirildi. Bu borada 1994-2001 -yillarda uzunligi 700 kilometrga yaqin "Navoiy - Uchquduq - Nukus - Sultonuvaystog" temir yo'li va Amudaryo uzra qurilgan ko'priq qurib bitkazildi. 2007 yil avgust oyida uzunligi 223 kilometrdan iborat bo'lgan "Toshguzar-Boysun-Qumqo'rg'on" temir yo'li qurilib, ishga tushirildi. Ushbu yo'nalishda 6 ta stansiya, 9ta bekat barpo etildi. Ushbu magistral temir yo'lni qurish jarayonida 43 ta ko'priq qurilgan bo'lib, ulardan 9tasi dengiz sathidan 1500 metr balandlikda bunyod etildi.

Bu yo'l respublikamizning chet davlatlarga, avvalo, Transavg'on temir yo'li koridori orqali yaqin kelajakda to'g'ridan-to'g'ri Xind okeani, Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari portlariga chiqish va eksport imkoniyatini, shu bilan birga, mamlakatimizning tranzit rolini kengaytirish borasidagi salohiyatini keskin oshirdi.

2016 yil iyun oyida 123,1 kilometrlik Angren-Pop elektrlashtirilgan temir yo'li hamda 19,2 kilometrlik Qamchik tunneli rasman ishga tushirildi. Ushbu temir yo'l Farg'ona vodiysi viloyatlarini respublikamizning qolgan hududlari bilan mustahkam bog'ladı, shuningdek, bu yo'l Xitoy - Markaziy Osiyo - Yevropa yangi temir yo'l tranzit yo'lagining ajralmas va muhim bo'g'ini bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarda temir yo'l transporti kommunikatsiyalarini va infratuzilmasini yanada rivojlantirishga 7,5 milliard dollarlik kapital qo'yilmalar, shu jumladan, 2,4 milliard dollar miqdorida xorijiy investitsiyalar yo'naltirildi. "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatni tomonidan yangi temir yo'llarni qurish va rekonstruksiya qilish, harakat xavfsizligimi ta'minlash imkonini beradigan innovatsiya loyihibalarini tarmoqqa joriy etish, yangi ish o'rnlari yaratish, soha uchun zamonaviy bilimli kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish, buning uchun tegishli shart-sharoitlar

yaratish va boshqa ijtimoiy masalalarni hal etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mustaqillik yillarda havo transportini rivojlantirish, zamonaviy talablar asosida yangilanish bilan birga, aeroportlarni tubdan qayta qurish va havo harakatini boshqarish tizimini isloh etish ishlari ham amalga oshirildi. Qisqa muddatda yuksak malakali uchuvchi va texnik xodimlar tayyorlash borasida xalqaro andozalar va ilg'or texnologiyalarga asoslanshgan baza yaratildi. "O'zbekiston havo yo'llari" samolyotlari turli davlatlarda joylashgan 40 dan ziyod aeroportga mutazam qatnay boshladi.

Aviatsiya xavfsizligi va parvozlarni sifatlari amalga oshirishni ta'minlash, aviatsiya texnikasiga xizmat ko'rsatishda eng ilg'or texnologiyalarni keng joriy etish ishlari amalga oshirildi. Aviakompaniya zamonaviy havo kemalari bilan ta'minlandi. Jumladan, aviakompaniya "Boing-757", "Boing-764", "A-310", "RJ-85" kabi eng zamonaviy samolyotlar bilan to'ldirildi. "O'zbekiston havo yo'llari" aviakompaniyasi yiliga qariyb 75 ming tranzit yo'nalishning havo harakatini boshqarmoqda. Aviakompaniya tarkibida so'ngi avlod aviatsiya texnikasiga xizmat ko'rsatadigan va ularni ta'mirlash markazi tomonidan 320 ta xorijiy aviakompaniya samolyotlariga aeronavigatsiya xizmati ko'rsatilmoqda.

"O'zbekiston havo yo'llari" aviakompaniyasi tarkibidagi Toshkent, Nukus, Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz, Qarshi, Nainangan, Andijon, Farg'ona, Navoiy shaharlariда zamonaviy aeroportlar jahon andozalari darajasida modernizatsiya qilingan. Vatanimizda Toshkent, Buxoro, Samarqand va Urganch aeroportlari xalqaro aeroport maqomiga ega. Respublikamizda "Navoiy" xalqaro intermodal logistika markazi va "Angren" logistika markazining imkoniyatlari ancha kengdir. Jumladan, "Navoiy" xalqaro intermodal logistika markazida turli-tuman tovarlarni yuklash va tushirish, ularni tarqatish hamda omborlarga joylash ishlari tezkorlik bilan amalga oshirilmoqda.

Transport xizmatlarining jadal o'sishiga tarmoq xususiyatiga ega muammolar to'sqinlik qiladi:

-transport tarmog'ida davlat va bozor tomonidan tartibga solish mexanizmlari to'liq muvozanatga keltirilmagan;

-amaldagi infratuzilma obyektlarining ishlab chiqarish quvvatlaridan, ayniqsa mamlakatning tranzit salohiyatidan yetarlicha foydalanilmayapti;

-avtomobil yo'llarining holati va rivojlanish sur'atlari, ayniqsa qishloq joylarda avtomobillashtirishning belgilangan standartlari va sur'atlariga mos kelmaydi;

-asosiy fondlarning eskirishi kuzatilmoque, transport tizimlarining texnologik darajasi yetarli emas.

Transport sohasidagi muammolarni hal qilish yo'llari:

1.YaIM o'sgani sayin transportning uzliksiz ishlashi oshadi, yuklar va yo'lovchilarini tashishga safralanadigan xarajatlar kainayadi;

2.Transport xizmatlaridan foydalanish imkoniyati va sifati, yuk va yo'lovchilarini yetkazish tezligi oshadi, bu esa jamoatchilikning vaqtি tejalishiga olib keladi;

3.Transportning ekologik toza turlaridan ustuvor foydalanish ekoliyanı tegishli holatda saqlash imkonini beradi;

4.2030 yilgacha transportni boshqarish tiziminining o'z vaqtida isloh qilinishi transport majmuuni rivojlantirishga tizimli yondashuv ta'minlanishi tufayli turli transport turlari o'zaro aloqasi, muvofiqlashtirilishi va ishlashi yaxshilanishiga olib keladi;

5.Tashqi iqtisodiy aloqalarni transport bilan ta'minlash, mamlakatning tranzit va eksport salohiyatini amalga oshirish davom ettiriladi.

16.3. O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdosini rivojlantirishda transport yo‘laklarini kengaytirish istiqbollari

O‘zbekiston Respublikasi keyingi besh yilda, ya’ni 2021-2026 yillarda, iqtisodiy o‘sishni 1,5 barobar oshirish va YalMni 100 mldr. dollarga yetkazishni shuningdek, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,4 barobar oshirishni rejalashtirmoqda. Mamlakat eksport salohiyati 1,7 barobar oshib, 2026 yilda 30 mldr. dollarga yetadi. Eksport tarkibida xom ashyo ulushi 23% kamayadi va tayyor mahsulot hajmi 2,5 barobarga oshadi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, mamlakatda yuk tashishning umumiy hajmi 1,4 barobar, xalqaro yuk tashish (eksport, import va tranzitni hisobga olgan holda, quvur transportidan tashqari) hajmi esa 1,6 barobar oshadi¹⁷². Shuning uchun ham tarnsport tizimini, xalqaro transport yo‘laklarini, ya’ni koridorlarini kengaytirish muhim ahamiyatga egadir.

O‘zbekistonda keyingi yillarda asosiy transport yo‘llarining o‘tkazuvchanligini oshirish, tashqi savdo yuklarini tashishning eng katta ulushi to‘g‘ri keladigan temir yo‘l transportining harakatlanuvchi va tashuvchi qismlarini modernizatsiya qilish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, koronavirus pandemiyasi va global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida xalqaro temir yo‘l transportida yuk tashishda 5600 ga yaqin yopiq vagonlar, 1280 sovutgichli va maxsus vagonlar jalb etildi. Dastlabki proqnoz hisob-kitoblarga ko‘ra, temir yo‘l sohasiga keyingi 5 yil ichida qo‘s himcha 7 ming yuk vagonlari kerak bo‘ladi. Buning uchun vagon va konteynerlarga ega bo‘lgan xususiy logistika operatorlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish belgilangan. Shuningdek, temir yo‘l transportida xalqaro yuk tashishda davlat-xususiy sherikchilik munosabatlari keng rivojlantirish chora-tadbirlari amalga oshiriladi. Endilikda davlat faqat temir yo‘l infratuzilmasi va lokomotiv xizmatlari bilan bog‘liq masalalarni tartibga soladi, yuk vagonlari bilan ta’minlash bozor tamoyillari asosida amalga oshiriladi. Shu munosabat bilan, temir yo‘l vagonlarini import qilishda

¹⁷² Узбекистон Республикасининг ташки савдосини ривожлантиришда транспорт хизматлари. янги истиқболлар ва доғзарб вазифалар // <https://mif.uz/uz/menu/transportirovka>

xususiy tadbirkorlar uchun beriladigan imtizozlar 2025 yilning 1 yanvarigacha uzaytirildi.

Mamlakatimizning jahon bozorlariga temir yo'l transporti orqali yuk tashish yo'laklari 4 asosiy yo'nalishda, ya'ni janub, janubiy-g'arbiy, shimoliy, shimoliy-g'arbiy yo'nalish; g'arbiy yo'nalish; sharqiy yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda. 1-Janub, Janubiy-G'arbiy yo'nalishning "Termez-Mazari Sharif" marshruti orqali Avg'onistonga "Toshkent-Buxoro-Turkmanobod-Mari-Saraxs-Bandar Abbas" orqali Pokistonga, "Toshkent-Buxoro-Turkmanobod-Mari-Saraxs-Istanbul-Sofiya" marshruti orqali turkiya va bolgariyaga yuk tashiladi. (qarang: 16.3.1-jadval).

16.3.1-jadval.

Xalqaro temir yo'l yo'laklari (koridorlari) va yo'nalishlari¹⁷³

| | Masofa km | Tashish vaqt kun | 20-22 m yukni tashish uchun o'rtacha xarajat AQSh doll |
|---|--|---------------------------------|---|
| 1.Janub, Janubiy-G'arbiy yo'nalish | | | |
| "Termez-Mazari Sharif" | 85 | 1 | 1200 |
| "Toshkent-Buxoro-Turkmanobod-Mari-Saraxs-Bandar Abbas" | 3065 | 6-7 | 2400-2600 |
| "Toshkent-Buxoro-Turkmanobod-Mari-Saraxs-Mersin" | 4208 | 12-14 | 3000-3300 |
| "Toshkent-Buxoro-Turkmanobod-Mari-Saraxs-Istanbul-Sofiya" | 5156 | 14-15 | 4000-4300 |
| 2.Shimoliy, Shimoliy-G'arbiy yo'nalish | | | |
| "Toshkent-Qo'ng'irot-Beyneu-Saratov-Moskva-Riga (Vilnyus)" | 4781(Riga); 4857(Vilnyus) | 10-14 | 2000-2300 |
| "Toshkent-Qo'ng'irot-Beyneu-Saratov-Moskva-Smolensk-Brest-(Polsha, Germaniya, Fransiya, | 4421(Minsk) 4800(Varshava) 5400(Berlin) 6493(Amsterdam) | 9-10 10-12 13-15 14-16 | 2200- 2400(Minsk) 2300-2500 (Varshava) |

¹⁷³ Транспорт йўлаклари//file:///D:/Транспорт%20йўлаклари.html

| | | | |
|--|--|---------------------------------|--------------------------------------|
| “Ispaniya va boshqalar)” | 6842 (Parij) 8117(madrid) | 15-17 17-19 | 3100-3400 (Berlin) |
| “Toshkent-Qo'ng'irot-Beyneu-Astraxan – Volgograd – Kiev – (Polsha, Chexiya, Avstriya Slovakiya va boshqalar)” | 4 140 (Kiev) 5 400 (Praga) 5 400 (Vena) 5 400 (Bratislav) | 9-10 13-15 13-15 13-15 | 2 200-2 500 (Kiev) 3 000-3 300 |
| “Toshkent – Qo'ng'irot – Beyneu – Astraxan – Tbilisi – Batumi – Trabzon –Samsun – Istanbul – (Bolgariya, Ruminiya)” | 5 500 (Sofiya) 5 600 (Buxarest) | 14-15 14-15 | 4 000-4 300 |
| 3. G'arbiy yo'nalish | | | |
| “Toshkent – Qo'ng'irot – Beyneu – Oqtau – Boku – Tbilisi – Poti – (Bolgariya, Ruminiya va boshqalar)” | 4 558 (Konstansa) 4 645 (Burgas) | 19-21 | 4 500-4 700 |
| “Toshkent – Buxoro – Turkmanobod– Mari –Turkmanboshi – Boku – Tbilisi – Poti – (Bolgariya, Ruminiya, Vengriya va boshqalar)” | 4 320 (Burgas) 4 233 (Konstansa) | 19-21 kun | 4 700-4 900 |
| 4. Sharqiy yo'nalish | | | |
| “Toshkent – Olmaota – Xorgos – Urumchi” | 1 850 | 5-6 | 2 800-3 000 |

Jadvaldan ko'rinish turibdiki, 2-Shimoliy, Shimoliy-G'arbiy yo'nalishning turli marshrutlari orqali Rossiya, Latviya, Litva, Polsha, Germaniya, Fransiya, Ispaniya, Chexiya, Avstriya Slovakiya, Turkiya, Bolgariya, Ruminiya va boshqa Yevropa mamlakatlariiga temir yo'llarda yuklar yetkazib beriladi. 3-G'arbiy yo'nalishning “Toshkent – Qo'ng'irot – Beyneu – Oqtau – Boku – Tbilisi – Poti marshrutlari orqali Bolgariya, Ruminiyaga va “Toshkent – Buxoro – Turkmanobod– Mari – Turkmanboshi – Boku – Tbilisi – Poti orqali Bolgariya, Ruminiya, Vengriya va boshqa mamlakatlarga yuklar tashiladi. 4- Sharqiy yo'nalishning “Toshkent – Olmaota – Xorgos – Urumchi” marshruti orqali Xitoy bilan aloqa qilinadi (qarang: 16.3.1-rasm)



16.3.1-rasm. Xalqaro temir yo'llar yo'laklari (koridorlari) kartasi¹⁷⁴

Xalqaro savdo bozorlariga yuk tashishda avtomobil transportining ham o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Xalqaro yuk tashuvchilar uyushmasi ma'lumotiga ko'ra, 2021yil 1 sentabr holatiga xalqaro yuk tashishda ishtirok etuvchi transport vositalarining soni 2017 yilga nisbatan 3,5 barobar oshdi. 2017yilda berilgan bojxona, soliq va boshqa imtiyozlar tufayli yuk tashuvchi avtomobillar parki Yevro 4-6 yuk avtomobillari bilan yangilandi. Xalqaro yuk tashish hajmi 1,5 barobar oshdi. Jumladan, xalqaro yuk tashishda 888 transport kompaniyalari ishtirok etadi, ularning 62% Yevro-4 standartidan past bo'limgan avtomobillar bilan jihozlangan¹⁷⁵. O'tgan besh yil mobaynida xalqaro tashuvlarga jalb etilgan xususiy sektor tomonidan yuk avtomobillari sotib olinishi tufayli 50 mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratildi.

¹⁷⁴ Транспорт йўлаклари//file:///D:/Транспорт%20йўлаклари.html

¹⁷⁵ Узбекистон Республикасининг ташки савдоини ривожлантиришда транспорт хизматлари яшги истиқболлар ва долзарб вазифалар// <https://mif.uz/uz/mcnru/transportirovka>

Avtomobil transporti yo'lklari transavg'on, 8 ta Yevropa va 5 ta Xalqaro Osiyo tarmog'i yo'nalishlaridan iborat. Jumladan, Transavg'on yo'lagidagi "O'zbekiston – Afg'oniston – Pokiston" yo'nalishi uch mamlakat o'rtaсидаги ташқи савдо алоқаларига xizmat ko'rsatadi. (qarang: 16.3.2-jadval)

16.3.2-jadval

Avtomobil transporti yo'lak (koridor)lari va yo'nalishlari¹⁷⁶

| | |
|-------------------------------|---|
| Transavg'on | "O'zbekiston – Afg'oniston – Pokiston" |
| Ye40 (Yevropa yo'nalishi) | "Fransiya – Belgiya – Germaniya – Polsha – Ukraina – Rossiya – Qozog'iston – O'zbekiston – Turkmaniston – Qirg'iziston – Qozog'iston" |
| Ye60 (Yevropa yo'nalishi) | "Fransiya – Shveysariya – Avstriya – Germaniya – Vengriya – Ruminiya – Gruziya – Ozarbayjon – Turkmaniston – O'zbekiston – Tojikiston – Qirg'iziston – Xitoy" |
| Ye123(Yevropa yo'nalishi) | "Rossiya – Qozog'iston – O'zbekiston – Tojikiston" |
| Ye003(Yevropa yo'nalishi) | "O'zbekiston – Turkmaniston" |
| Ye004(Yevropa yo'nalishi) | "Qozog'iston – O'zbekiston" |
| Ye005(Yevropa yo'nalishi) | "O'zbekiston" (G'uzor – Samarqand) |
| Ye006(Yevropa yo'nalishi) | "Tojikiston (Ayni) – O'zbekiston (Qo'qon)" |
| Ye007(Yevropa yo'nalishi) | "O'zbekiston (Toshkent – Qo'qon – Andijon) – Qirg'iziston (O'sh – Irkeshtom)" |
| AH5 (Xalqaro Osiyo tarmog'i) | "Xitoy – Qozog'iston – Qirg'iziston – O'zbekiston – Turkmaniston – Ozarbayjon – Gruziya – Turkiya – Bolgariya" |
| AH7 (Xalqaro Osiyo tarmog'i) | "Rossiya – Qozog'iston – Qirg'iziston – O'zbekiston – Tojikiston – Afg'oniston – Pokiston" |
| AH62(Xalqaro Osiyo tarmog'i) | "Qozog'iston – O'zbekiston – Afg'oniston" |
| AH63 (Xalqaro Osiyo tarmog'i) | "Rossiya – Qozog'iston – O'zbekiston" |
| AH65 (Xalqaro Osiyo tarmog'i) | "Xitoy – Qirg'iziston – Tojikiston – O'zbekiston" |

¹⁷⁶ Транспорт йўлаклари// йўл:// 'D:/Гранспорт@20йўлаклари.html'

“Fransiya – Belgiya – Germaniya – Polsha – Ukraina – Rossiya – Qozog’iston – O’zbekiston – Turkmaniston – Qirg’iziston – Qozog’iston” hamda “Fransiya – Shveysariya – Avstriya – Germaniya – Vengriya – Ruminiya – Gruziya – Ozarbayjon – Turkmaniston – O’zbekiston – Tojikiston – Qirg’iziston – Xitoy” marshrulari Yevropaning rivojlangan mamlakatlari bilan Kavkazoti, Markaziy Osiyo mamlakatlari va Xitoy xalq respublikasi o’tasidagi tashqi savdo aloqalarini mustahkamlashda muhim ahamiyatga egadir.

Xalqaro Osiyo tarmog’i avtomobil taransporti yo’laklarining “Xitoy – Qozog’iston – Qirg’iziston – O’zbekiston – Turkmaniston – Ozarbayjon – Gruziya – Turkiya – Bolgariya” hamda “Rossiya – Qozog’iston – Qirg’iziston – O’zbekiston – Tojikiston – Afg’oniston – Pokiston” kabi ko’plab yo’nalish (marshrut)lari xalqaro savdo aloqalarini mustahkamlashda muhim ahamiyatga egadir. Avtomobil taransportining xalqaro yo’lak (koridor)lari 16.3.2-rasmdagi kartada o’z ifodasini topgan.



16.3.2-rasm. Xalqaro avtomobil transporti yo’lak (koridor)lari¹⁷⁷.

¹⁷⁷ Транспорт шулаклари//file:///D:/Транспорт%20шулаклири.html

Xalqaro savdo bozorlariga avtomobil transportida yuk tashish jarayonlarini yanada yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19avgustdagи “Avtomobil transportida yuk tashuvchilarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi № PQ-5225-sonli Qaroriga muvofiq, ishlab chiqarilganiga 7 yildan oshmagan quyidagi transport vositalarini 2025 yil 1 yanvarga qadar O'zbekiston Respublikasiga import qilishda ularga bojxona bojining, utilizatsiya yig'imining va avtotransport vositalarini sotib olganlik uchun avtotransport yig'imlarining nol stavkalari belgilandi:

- «Yevro-5» va undan yuqori ekologik toifa talablariga mos keladigan avtotransport vositalari (TIF TN kodlari 8701 20, 8704 22 (sainsovallardan tashqari);
- tirkamalar va yarim tirkamalar (TIF TN kodlari 8716 31, 8716 39).

Shuningdek, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ishlab chiqarilganiga 7 yildan oshmagan quyidagi transport vositalari 2025 yil 1 yanvarga qadar O'zbekiston Respublikasiga import qilishda majburiy sertifikatlashdan ozod etiladi:

- «Yevro-5» va undan yuqori ekologik toifa talablariga mos keladigan yuk va maxsus avtotransport vositalari;
- avtomobil transportida yuk tashish uchun foydalananiladigan tirkamalar va yarim tirkamalar¹⁷⁸.

Ushbu chora-tadbirlarning analga oshirilishi ekspertlarning hisob-kitoblariga asosan mamlakat eksport va import tovarlarini tashishda yo'l transportining ulushini oshirish, xizmatlar sifatini 3 va 4 PL darajasigacha yaxshilash imkonini beradi.

Fuqaro aviatsiyasi ham tashqi savdo aloqalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga egadir. Hozirgi davrga kelib O'zbekiston havo yo'llariga qarashli “Uzbekistan Airways” AJ xorijdagи vakolatxonalar 24 ta davlatda tashkil etilgan. Jumladan, Rossiya Federatsiyasining Moskva, Sankt-Peterburg, Yekaterinburg, Kaliningrad, Qozon,

¹⁷⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19avgustdagи “Avtomobil transportida yuk tashuvchilarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi № PQ-5225-sonli Qarori// Xalq so'zi, 2019yil 20 avgust.

Krasnodar, Krasnoyarsk, Novosibirsk, Rostov-na-Donu, Samara, Sochi, Tyumen, Ufa, Voronej shaharlarida, Xitoy Xalq Respublikasining Pekin, Urumchi, Shanxay shaharlarida, Hindistonning Dehli, Amritsar, Mumbay shaharlarida, Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay, Shardja shaharlarida vakolatxonalar faoliyat yuritmoqda.

Aytish lozimki, koronavirus pandemiysi va global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz havo transporti orqali yuk tashish hajmlarining kamayib ketishiga olib keldi. Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti (XFAT) ma'lumotlariga ko'ra, pandemiya fuqaro aviatsiyasiga qaqshatqich zarba berdi. Misol uchun, Yel ko'rgan zarar 57–98 mlrd. dollarni tashkil qilishi mumkin. Ichki reyslarga ko'rsatilgan zarar esa pandemianing qanday kechishiga qarab, 10 mlrd. dollardan 18 mlrd. dollargacha bo'lgani taxmin qilimmoqda. O'zbekiston havo transporti ham pandemiyadan sezilarli zarar ko'rdi.

Mamlakatimizda havo transporti orqali yuk tashishni qo'llab-quvvatlash maqsadida 2019 yil 1 oktabrdan Buxoro, Nukus, Qarshi va Termiz xalqaro aeroportlarida erkinlikning beshinchi darajasiga ega "Ochiq osmon" rejimi joriy etildi. Bu chet el kompaniyalariga O'zbekistondan ro'yxatdan o'tmagan boshqa mamlakatlarga ham parvoz qilish imkonini beradi. Qarshi, Nukus, Termiz, Buxoro, Navoiy va Urganch aeroportlarida "Ochiq osmon" rejimi hech qanday cheklovlsiz joriy etildi. Andijon, Farg'ona, Namangan va Samarqand aeroportlarida, texnik imkoniyatlarini hisobga olgan holda XFATga a'zo davlatlarning barcha xorijiy aviakompaniyalariga yo'lovchi reyslarini O'zbekiston tashuvchilari faoliyat ko'rsatmayotgan marshrutlarda chastota cheklovisiz amalga oshirish va beshinchi havo erkinligi huquqi berildi. "Navoiy" va "Termiz" aeroportlarida xorijiy aviakompaniyalarga yetinchi havo erkinligigacha yuk tashuvalarini amalga oshirish huquqi berildi. Yetinchi darajali erkinlikka ega "Ochiq osmon" rejimi har qanday xorijiy aviakompaniyalarga ro'yxatdan o'tish mamlakatidan qat'i nazar, har qanday chastota bilan parvozlarni amalga oshirish imkonini beradi. Yangi yo'nalishlar ochish yoki parvozlar sonini oshirishni rejalashtirgan xorijiy aviakompaniyalar Transport

vazirligi huzuridagi Aviatsiya agentligiga zarur hujjatlarni taqdim etishlari zarur bo‘ladi¹⁷⁹.

Osiyo taraqqiyot bankining ma’lumotlariga ko‘ra, mintaqada misol uchun “Bir makon, bir yo‘l” doirasida yuk tashish vaqtini bir kunga qisqartirish mamlakatlar o‘rtasidagi savdo hajmini 5,7% gacha oshirishi mumkin. Tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish uchun transport yo‘lak (koridor)larini yanada kengaytirish O‘zbekiston yuklarini Latviya, Litva, Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Qozog‘iston, Ozarbayjon, Gruziya, Pokiston, Turkiya, Eron va Xitoy dengiz portlaridan foydalangan holda tashish hajmlarini oshirish imkoniyatlarini yaratadi. Bu borada analga oshirilayotgan chora-tadbirlar mamlakatimiz tashqi savdo tovarlarini, ayniqsa, eksportbop qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga olib chiqish jarayonida “Yagona oyna”, “Yashil Yo‘lak”, “Yagona bekat”, “E-TIR”, “E-Freight”, “GLONASS”, “GSM”, “RFID” mexanizmlarini keng joriy etishni taqozo etadi.

16.4. O‘zbekistonda transport tizimini boshqarish tizimini takomillashtirish va sohani rivojlantirish istiqbollari

“Avtomobil yo‘llarini qurish va ulardan foydalanish sohasida ishlarni tashkil etishning ilg‘or xorijiy uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018yil 27 noyabrdagi qaroriga muvofiq yo‘l qurilishini rivojlantirish Strategiyasi yetakchi xorijiy konsalting kompaniyalari ishtirokida ishlab chiqiladi. Ushbu Rivojlantirish strategiyasi avtomobil yo‘llari sohasiga zamонавиј standartlar va texnologiyalarni joriy etish, 2020—2040 yillarda yo‘llarni qurish va rekonstruksiya qilish dasturlarini ishlab chiqishga yo‘naltiriladi¹⁸⁰.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 noyabrdagi qaroriga asosan “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi

¹⁷⁹ Ўзбекистон Республикасининг ташки сайдосини ривожлайтиришда транспорт хизматлари янги истиқболлар ва доззарб вазифалар// <https://mift.uz/uz/menu/transportirovka>

¹⁸⁰ <https://daryo.uz/k/2018/11/29/ozbekistonda-avtomobil-yolları-xorij-tajribasi-as-sida-quriladi>

qayta tashkil etilib, parvozlarini amalga oshirish, aeroportlarni boshqarish va aeronavigatsiya xizmatlari bir-biridan ajratildi. Ushbu qarorga binoan Milliy Aviakompaniyani qayta tashkil qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

-“O‘zbekiston Havo yo‘llari” MAK direksiyasi asosida “Uzbekistan Airways” AJ tashkil qilinadi.

-Ikkinchı navbatda “Uchish majmuasi” DUK, “Havo aloqalari bosh agentligi” va “O‘zaviatexsnab” asosida “Uzbekistan Airports” AJ tashkil qilinadi.

-Undan tashqari, “Maxsus aviaishlar aviakompaniyasi” asosida “Uzbekistan Helicopters” MChJ tashkil qilinadi.

-“O‘zaeronavigatsiya” davlat korxonasi Vazirlar Mahkamasi ixtiyoriga topshiriladi.

Qarorda aytlishiga ko‘ra yangi tuzilgan kompaniyalarning har biri o‘z sohasida turli vazifalari bajarishi kerak bo‘ladi.

“Uzbekistan Airways” AJ vazifalari quyidagilardan iborat :

-mavjud havo kemalaridan samarali foydalanish, jumladan yangi yo‘nalishlar ochish;

-aviaparkni yangilash va ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishning zamonaviy tizimlarini joriy etish;

-yo‘lovchilarga ko‘rtilayotgan xizmatlar sifatini oshirish;

-yo‘lovchi,yuklar va pochta tashishda moslashuvchan tariflar taklif qilish;

-to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy sarmoyalarni jalg etish;

-parvozlar xavfsizligini ta‘minlash;

-aviakompaniyani xalqaro aviatashuvchilar jamiyatiga integratsiya qilish;

-hududiy miqyosda yetkchilikka erishish;

“Uzbekistan Airports” AJ asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

-aeroportlar rivojanishining uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish;

-aeroportlar infratuzilmalarini yaxshilash uchun sarmoyalari jalg qilish;

-yo'lovchilarga xizmat ko'rsatishning yuqori sifatini saqlab turish;

-aeroport barcha xizmatlarining samarali faoliyatini tashkil etish;

-aeroportlarda parvozlar xavfsizligi ta'minlash;

-aeroportlarni zamonaviy darjada ta'mirlash va havo kemalariga yuqori darajada xizmat ko'rsatishni ta'minlash;

-aeroportlar hududida zamonaviy ovqatlanish tarmoqlari, bank xizmatlari va boshqa xizmatlarni davlat xususiy hamkorligi asosida tashkil etish¹⁸¹.

Yangi tashkil qilinayotgan aksiyadorlik jamiyatlarining boshqaruvi organlari tarkibiga kerakli malakaga ega bo'lgan, ushbu sohalarda salmoqli tajribaga ega bo'lgan mutaxassislar taklif qilinadi. 2020 yildan boshlab ushbu kompaniyalarning moliyaviy hisoboti xalqaro standartlar asosida olib boriladi va har yili xolis audit yordamida tekshiriladi. "O'zbekiston xavo yullari" kompaniyasiga berilgan barcha imtiyozlar yangi kompaniyalar uchun ham saqlanib qoladi. Undan tashqari yangi tashkil qilinayotgan mahalliy aviakompaniyalar 2023 yilning 1 yanvariga qadar samolyotlarni va xizmat inventarlari olib kelishda bojxona to'lovlaridan ozod qilinadi. (kod TN VED 8802, 8803 va 8805)¹⁸².

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 1 fevraldag'i "Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5647-son Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi tashkil etildi. Quyidagilar Vazirlikning asosiy vazifalari etib belgilangan:

transportning barcha turlarini yagona transport tarmog'iga integratsiyalashuvi va yangi samarali transport-logistika tizimlaridan foydalangan holda uyg'unlikda rivojlantirishga yo'naltirilgan yagona davlat transport siyosatini ishlab chiqish;

¹⁸¹<https://sputniknews-uz.com/economy/20181129/10115080/zbekiston-avo-yullari-kliga-blinadi.html>

¹⁸²<https://sputniknews-uz.com/economy/20181129/10115080/zbekiston-avo-yullari-kliga-blinadi.html>

transport va logistika xizmatlari bozorini rivojlantirishni rag'batlantirish, ularning barcha toifadagi iste'molchilar uchun ommabopligrini ta'minlash, shuningdek, sohaga investitsiyalarni jahb etishga yo'naltirilgan transport sohasidagi yagona tarif siyosatini amalga oshirish;

xalqaro transport koridorlarini rivojlantirish, logistika tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va chora-tadbirlami amalga oshirish, mamlakat transport salohiyatidan samarali foydalanish, tadbirkorlik subyektlarining transport-logistika xizmatlaridan foydalanishdagi sarf-xarajatlarini kamaytirish;

transport va yo'l xo'jaligi sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish va mamlakat investitsiyaviy jozibadorligini oshirish;

butun transport tizimini raqamlashtirish bo'yicha ilg'or axborot texnologiyalarini joriy etish, O'zbekiston Respublikasi Transport tizimining bir-biriga bog'langan yagona tizimini istiqbolli rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

avtomobil yo'llari sohasida yagona texnika siyosatini amalga oshirish, foydalanuvchilar manfaatlarini hisobga olgan holda, avtomobil yo'llari, aerodromlar va aeroportlar, vokzallar, temir yo'llar va transport infratuzilmasining boshqa obyektlarini moliyalashtirish, loyihalash, qurish, ta'mirlash va foydalanish masalalarining kompleks yechimini ta'minlash;

transport sohasida nazoratni amalga oshirish, fuqaro aviatsiyasi va eksperimental havo kemalaridagi halokatlar va baxtsiz hodisalarini, shuningdek, temir yo'l va daryo transportidagi avariya va halokatlar bo'yicha tekshiruvlarni tashkil etish va amalga oshirish;

transport va yo'l xo'jaligi sohasidagi xalqaro va hududiy hamkorlikni rivojlantirish hisobiga transport xizmatlari jahon bozorida O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini ta'minlash;

transport sohasidagi joriy va istiqbolli ehtiyojlarni inobatga olgan holda ta'lim, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning ilg'or usullarini tizimli ravishda joriy etish.

Transport orqali iqtisodiyotning barqaror, mustahkam rivojlanishini ta'minlash, uning raqobatbardoshligi, xalq farovonligi va turmushi sifatini oshirish transport infratuzilmasini rivojlantirishning strategik maqsadi hisoblanadi:

O'rtacha muddatli istiqbolda (2019-2025 yillar)

1. O'zbekiston Respublikasida yagona transport tizimini yaratish, ma'muriy to'siqlarni yo'q qilish, transport rivojidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish.

2. Avtobus saroyining eskirganlik koefitsientini 3 baravar kanaytirish.

Uzoq muddatli istiqbolda (2030 yilgacha)

3. Ommaviy jamoat yo'lovchi transporti xizmatlarining ishonchliligi va qulayligini oshirish.

4. Maqbul tarif siyosatini qo'llagan holda temir yo'l va havo transporti xizmatlarining raqobatbardoshligini oshirish.

5. Harakatlanadigan tarkib parklarini va transportning texnik vositalarini rivojlantirishda, ayniqsa ichki tashishlarni amalga oshirishda innovatsion rivojlanishni oshirish.

6. Ekologik parametrlar bo'yicha transport ishi samaradorligini oshirish.

7. Barcha uchun resurslardan arzon va teng huquqli foydalanish imkoniyatini ta'minlashga alohida e'tibor bergen holda iqtisodiy rivojlantirishni va odamlar farovonligini qo'llab-quvvatlash maqsadida sifatli, ishonchli, barqaror va mustahkam infratuzilmani, shu jumladan, hududiy va transchegaraviy infratuzilmani rivojlantirish.

8. Aholining ijtimoiy zaif qatlamlari ehtiyojlariga alohida e'tibor bergen holda yo'l harakati xavfsizligini oshirish, jumladan, jamoat transportidan foydalanishni kengaytirish asosida xavfsiz, arzon, qulay va ekologik barqaror transport tizimlaridan foydalanishni ta'minlash.

9. O'zbekiston Respublikasining chegara hududlarida transport-logistika xablarining ulgurji-taqsimlash tarmoqlarini

yaratish, tovar harakatlanishini tashkil etishda transport-logistika infratuzilmasi rolini oshirish, har bir viloyatda yirik logistika markazlarini yaratish.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida 36-maqсад sifatida barcha transport turlarini uzviy bog'lagan holda yagona transport tizimini rivojlantirish, yirik shaharlar o'rtaida kunlik transport qatnovlari asosida manzilga yetib borish va qaytib kelish imkoniyatini yaratish belgilangan. Mazkur maqsadni amalga oshirish bo'yicha quyidagilar belgilangan:

- Toshkent shahri va hududlarda jamoat transporti tizimini takomillashtirish va uning infratuzilmasini rivojlantirish;

- shaharlararo va shahar atrofi temir yo'l qatnovlari jozibadorligini oshirish;

- transport va logistika xizmatlari bozori va infratuzilmasini rivojlantirish, temir yo'l infratuzilmasini elektrlashtirish darajasini 60 foizga yetkazish va avtomobil yo'llari tarmog'ini jadal rivojlantirish;

- transport sohasida tashqi savdo uchun "yashil koridorlar" hamda tranzit imkoniyatlarini kengaytirish va tranzit yuk hajmini 15 million tonnaga yetkazish¹⁸³.

¹⁸³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022yil 28yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60sonli Farmoni. 1-ilova. / <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

Asosiy tushuncha va atamalar

Transport, transport tizimi, avtomobil transporti, temir yo‘l transporti, havo transporti, quvur transporti, jamoat transporti, transport sohasidagi iqtisodiy xavfsizlik, iqtisodiy tahdidlar, iqtisodiy xavfsizlikni monitoring qilish, iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Transport tizimi deganda nimani tushunasiz?
2. Transport tizimining mamlakat iqtisodiyotida qanday o‘rin tutadi?
3. Mustaqillik yillarda transport tizimida qanday ishlar amalga oshirildi?
4. O‘zbekistonda avtomobil transporti va kommunikatsiyalari sohasini rivojlantirish bo‘yicha qanday ishlar amalga oshirilgan?
5. Temir yo‘llar transportini rivojlantirish bo‘yicha mamlakatimijda qanday ishlar amalga oshirilgan?
6. Havo transporti sohasini rivojlantirish va uning xavfsizligini ta’minlash uchun respublikamizda qanday ishlar amalga oshirilgan?
7. Transport tizimi qanday boshqariladi?
8. Tranport vazirligi nima uchun tashkil etildi va uning vazifalari nimalardan iborat?
- 9.O‘rta muddatli davrda transport tizimidagi asosiy vazifalar nimalardan iborat?
10. Uzoq muddatli davrda transport tizimdagи vazifalar nimalardan iborat?
11. Transport tizimidagi muammolarni hal etish yo‘llari nimalardan iborat?
12. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida tansportsohasini rivojlantirish bo‘yicha qanday maqsad va vazifalar belgilangan?

17-BOB. DAVLATNING XIZMATLAR SOHASINI TARTIBGA SOLISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

17.1. Xizmatlar sohasi va uning milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni hamda ahamiyati

Xizmatlar sohasi – korxonalar, tashkilotlar hamda jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan jamlanma soha hisoblanadi. Boshqacha aytganda, xizmatlar sohasi tijorat, kasbiy va maishiy xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakat iqtisodiyotining tarmog'i hisoblanadi. Xizmatlar sohasi insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida paydo bo'lib, jamiyatning davlat tashkilotlari ma'muriy apparati, ruhoniyalar tomonidan ijtimoiy xizmatlar ko'rsatilishi, mulk huquqlarini himoya qilish bo'yicha xizmatlar (professional armiya, sudyalar) kabi xizmat turlarini o'z ichiga olgan¹⁸⁴.

Jamiyatning rivojlanishi bilan xizmatlarning yangidan yangi sohalari paydo bo'ldi. Qadimgi jamiyatda deyarli zamонавиу xizmatlarga mos keladigan transport, savdo, ilm-fan, sog'liqni saqlash, ta'lim, inoliya, madaniyat, dam olish va h.k. kabi keng ko'lamli xizmatlar ko'rsatildi. Faqat XIX-XX asrlarda ularga nisbatan birmuncha yangi turlar – aloqa, marketingning ayrim turlari, auditorlik xizmatlari qo'shildi. XX asrning o'rtalarigacha xizmatlar sohasi nisbatan ikkilamchi iqtisodiy faoliyat deb hisoblanar edi. Garchi u ishchilarining juda katta qismini qamrab olsa-da, asosan past darajadagi malakaga ega bo'lган xodimlar (ayniqsa, xizmatlar ko'rsatishning eng katta sohasi bo'lган savdo sohasida) edi. Aynan xizmatlar sohasining iqtisodiyotdagi past roli tufayli XVIII asrdan XX asr o'rtalarigacha bu sohadagi ish umuman jamiyat boyligini ko'paytirmaydi deb hisoblandi. Xizmatlar sohasining rivojlanish darjasini juda past bo'lganligining asosiy sabablari davlat mulkinining ustuvorligi va xizmatlar sohasini moliyalashtirish qoldiq prinsipi asosida amalga oshirilganligi bo'ldi. Xizmatlar sohasida

¹⁸⁴ Аюбжонов А.Х., Сандумархопов С.С. Ўзбекистонда хизматлар соҳаси-иқтисодига ривожланишнинг муҳим омилии://http://tsue.uz/

barqaror rivojlanish XX asrning ikkinchi yarmida nafaqat rivojlangan, balki rivojlanayotgan mamlakatlarda ham kuzatildi. Natijada xizmatlar sohasining ko'lami kengaydi va mamlakat YalMning katta qismini egalladi¹⁸⁵.

Xizmatlar bozorida xizmatlarni ayirboshlash bo'yicha sodir bo'ladigan bozor munosabatlari moddiy ne'matlar shaklidagi tovarlar ayirboshlashdan farq qiluvchi xususiyatlarga egadir. Bu xususiyatlardan quyidagilardan iborat:

- xizmatlar yuqori kapital hajmkorlikka ega va ilmtalab bo'lib, sanoat yoki shaxsiy ehtiyojini qondirishga yo'naltiriladi;
- xizmatlar bir vaqtning o'zida ishlab chiqariladi va ko'rsatiladi (ya'ni iste'mol qilinadi), shu bilan birga ularni saqlab bo'lmaydi;
- tovarlar bilan bo'ladigan operatsiyalardan farqli o'laroq xizmatlarni bojxona nazoratidan o'tkazib bo'lmaydi;
- ba'zi, shu jumladan uy-joy kommunal va maishiy xizmatlar turlarini xalqaro savdo muomalasiga kiritib bo'lmaydi;
- xizmatlar sohasi moddiy ishlab chiqarish sohalariga nisbatan ko'proq davlat tomonidan xorijiy raqobatdan himoya qilinadi.

BMT klassifikatoriga binoan xizmatlar 12 turkumdag'i 160 turga bo'linadi:

1. Ishbilamonlik xizmat turlari -46 turda.
2. Aloqa xizmatlari -25 turda.
3. Qurilish va injiniring xizmatlari 5-turda.
4. Distribyuterlik xizmatlari – 5 turda.
5. Ummumta'lim xizmatlari – 5 turda.
6. Tashqi muhitni himoya qilish bo'yicha – 4 turda.
7. Moliyaviy, shu jumladan sug'urta xizmatlari – 17 turda.
8. Sog'liqni saqlash, ijtimoiy xizmatlari – 4 turda.
9. Turizm, sayohat xizmatlari – 4 turda.
10. Dam olishni tashkil etish, madaniyat, sport xizmatlari – 5 turda.


¹⁸⁵ Аюбжонов А.Х., Сандумархонов С.С. Ўзбекистонда хизматлар соҳаси-иқтисоднёт ривожланишиниш муҳим омили //http://tsue.uz/

11. Transport xizmatlari – 33 turda.

12. Boshqa xizmat turlari.

Jahon banki barcha xizmatlarni ikki guruhga bo'ladi. Birinchi guruhga kapital va ishchi kuchining xalqaro miqyosdagi harakati bilan bog'liq xizmat turlari, ikkinchi guruhga esa investitsiyalar va savdo bilan bog'liq xizmatlarni kiritgan. Jahon savdo tashkiloti klassifikatsiyasiga muvofiq xizmatlarning 600 ga yaqin turlari turkumlangan.

Bundan tashqari xizmatlar asosiy va ulardan kelib chiquvchi logistik xizmatlar guruhiga ajratiladi (qarang:17.1.1-rasm).



17.1.1-rasm. Xizmatlar turlari¹


Hozirgi vaqtida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarni tasniflash "O'zstandart" agentligining 2015 yil 19 yanvardagi 05-612-sonli qarori bilan tasdiqlangan va joriy etilgan O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichiga (MST) muvofiq amalga oshiriladi. Bozor xizmatlari hajmi barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik

¹ Карапиг: Кичергина Т.Е.Экономическая безопасность. Ростов н/Д Феникс, 2007 -С.237.

tasniflagichiga asosan tasniflangan xizmatlarning tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo'yicha shakllantiriladi:

1. Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari.
2. Moliyaviy xizmatlar.
3. Transport xizmatlari.
4. Yashash va ovqatlanish xizmatlari.
5. Savdo xizmatlari.
6. Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar.
7. Ta'lim sohasidagi xizmatlar.
8. Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar.
9. Ijara xizmatlari.
10. Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar.
11. Shaxsiy xizmatlar.
12. Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahsil sohasidagi xizmatlar.
13. Boshqa xizmatlar.

Hozirgi zamонавиј ishlab chiqarish turlari ko'payib, unda qo'llaniladigan texnika va texnologiyalar, xom ashyo, butlovchi materiallar jadal yangilanib borayotgani tufayli intellektual faoliyat natijalari bozorlari ham yuqori sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Bu sohada xo'jalik faoliyati subyektlari o'rtasida ilmiy tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirish, yangiliklarni yaratish bo'yicha o'zaro hamkorlik aloqalari rivoj topmoqda. Ushbu jarayonlar bilan bog'liq ravishda nouxau shaklidagi ilmiy-texnik axborotlarini, litsenziya, patentlarni ayriboshlash hamda xalqaro injiniring va shu kabi zamонавиј xizmat turlari ham jadal rivojlanmoqda.



17.1.2-rasm. Xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi bo'yicha xizmatlarning asosiy turlari

Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash, aholining turmush darajasini oshirish va samarali bandligini ta'minlashda xizmatlar sohasining har tomonlhma rivojlanishi muhim masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Hozirgi kunda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun xizmatlar sohasini jadal rivojlantirishni eng muhim vazifalardan biri sifatida qo'yishmoqda.

Xizmatlarning ijtimoiy yo'naltirilganligi qo'shimcha ish o'rnlari yaratishga, xarajatlarni qisqartirishga, uy xo'jaliklari xizmat ko'rsatishi vaqtini qisqartirishga va aholi hayoti sifati yaxshilanishini ta'minlashga ko'maklashadi.

Dunyoda servis sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi o'rtacha 61 foizni tashkil etadi. Mamlakatimizda bu ko'rsatkich 36 foizdir. Lekin 86 foiz qo'shilgan qiymat shu sohada yaratiladi.

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish O'zbekiston iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanib, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'mi va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish kabi vazifalar belgilab olingan.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasini tubdan isloh qilishning, o'tish davri qiyinchiliklarini bartaraf etishda ushbu sohadan samarali foydalanishning, soha tarmoqlari va ularning tarkibidagi xo'jalik sub'ektlari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va boshqarishning, xizmatlar sohasini ustun rivojlantirishning huquqiy asoslari yaratildi.

17.2. O'zbekistonda xizmatlar sohasining rivojlanish tendensiyasi va muammolari

O'zbekistonda xizmat sohasi iqtisodiyotning real sektoriga nisbatan jadal sur'atlarda rivojlanib, bormoqda. Bu jahon iqtisodiyotdagi globallashuv tendensiyalarini hisobga olgan holda, milliy iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, o'z navbatida aholi farovonligini oshirish, shuningdek, bozorni xizmatlar sohasi bilan to'ldirishga bog'liq. Keyingi vaqtarda xizmatlar sohasi qulay iqtisodiy sharoitlarda rivojlandi. Bunga:

- iqtisodiyotda bir qator sohalarda rivojlanishning tarmoq dasturlarini amalga oshirish;

- yangi bozor institutlari (depozitar, sug'urta, auditorlik faoliyati, elektron hukumat, elektron tijorat va shu kabilar)

faoliyatining qonunchilik va tashkiliy asoslarini yaratishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar;

-tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, savdoni erkinlashtirish va tovar bozorlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Hukumat qarorlarini amalga oshirish hisobiga xizmatlar bozorini davlat tomonidan tartibga solishning yumshatilishi;

-kreditlashni kengaytirish hisobiga talab va taklifni rag'batlantirish;

-samarali ijtimoiy siyosat, xizmatlarning to'liqligi sifatini talab qiluvchi aholining madaniy-ta'lif darajasini oshirish ko'maklashdi.

Urbanizatsiyaning chuqurlashtirilayotgan jarayoni xizmatlarning yangi turlari, masalan, xavfsizlikni ta'minlash sohasida, shu jumladan, AKT, bank sohasida virtual tusdagi xizmatlar sohasida yangi turlari paydo bo'lishiga ko'maklashadi. Keyingi yillarda bandlikni ta'minlash va aholi daromadlarini ko'paytirishda xizmatlar sohasining ijtimoiy yo'naltirilganligi saqlanib qolmoqda. Xizmatlar sohasida 2019 yilda transport xizmatlari ulushi 28,1%ni, savdo xizmatlari 25,1%ni, moliyaviy xizmatlar 18,2%ni tashkil etgan. Ta'lif sohasidagi xizmatlar ulushi esa 3,7%ni, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar 1,5%ni tashkil etgan.

O'zbekistonda 2016-2021 yillarda xizmatlar hajmi 2,9 baravar o'sgan. Shu jumladan: aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 2,7 marta, moliyaviy xizmatlar 6 marta, transport xizmatlari 2,2 marta (shu jumladan, avtotransport xizmati 1,9 marta), yashash va ovqatlanish xizmatlari 2,4 marta, savdo xizmatlari 2,6 marta, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar 2,4 marta, ta'lif sohasidagi xizmatlar 3,6 marta, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar 3,5 marta, ijara xizmatlari 2,4 marta, kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar 2,2 marta, shaxsiy xizmatlar 2,4 marta, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar 5,7 marta, boshqa xizmatlar hajmi 3 marta oshgan (17.2.1-jadval).

17.2.1-jadval

Iqtisodiy faoliyatning asosiy turlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi (mlrd.so'm hisobida)

| Ko'rsatkichlar | 2016 y. | 2017 y. | 2018 y. | 2019 y. | 2021 y. |
|--|---------|----------|----------|----------|----------|
| Xizmatlar – jami | 97050,0 | 118811,0 | 150889,8 | 193697,8 | 283301,6 |
| asosiy turlari bo'yicha: | | | | | |
| aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 6 306,8 | 8 196,7 | 10 332,6 | 10 891,7 | 17 117,2 |
| moliyaviy xizmatlar | 9 898,4 | 15 023,8 | 21 296,3 | 34 036,6 | 59 851,7 |
| transport xizmatlari | 30617,8 | 36 217,2 | 44 159,4 | 54 473,5 | 67 418,3 |
| <i>shu jumladan</i> avtotransport xizmati | 19216,7 | 20 232,9 | 21 786,8 | 25 527,5 | 37 114,4 |
| yashash va ovqatlanish xizmatlari | 3 038,7 | 3 649,6 | 4 673,3 | 5 933,6 | 7 479,3 |
| savdo xizmatlari | 27368,2 | 32 006,9 | 39 743,4 | 48 748,2 | 72 718,6 |
| ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 3 405,1 | 4 026,5 | 4 949,2 | 5 950,7 | 8 150,9 |
| ta'lim sohasidagi xizmatlar | 3 263,0 | 4 402,0 | 5 416,5 | 7 164,9 | 11 772,6 |
| sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar | 1 416,3 | 1 701,5 | 2 220,0 | 3 104,3 | 5 018,8 |
| ijara xizmatlari | 2 270,1 | 2 589,2 | 3 297,4 | 3 733,5 | 5 455,5 |
| kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'nirlash bo'yicha xizmatlar | 2 187,8 | 2 329,2 | 2 630,7 | 3 200,1 | 4 771,5 |
| shaxsiy xizmatlar | 2 915,5 | 3 134,4 | 3 700,6 | 4 575,6 | 7 171,7 |
| me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 1 132,6 | 1 611,7 | 2 953,6 | 4 543,1 | 6 514,3 |

| | | | | | |
|------------------|---------|---------|---------|---------|---------|
| boshqa xizmatlar | 3 229,7 | 3 922,3 | 5 516,8 | 7 342,0 | 9 861,2 |
|------------------|---------|---------|---------|---------|---------|

Manba. www.stat.uz

Xizmatlar sohasining o'tgan yillarga nisbatan o'sish ko'rsatkichlari 2020 yilda pandemiya sharoiti ta'siri sababli pasaygan. Faqatgina aloqa va axborotlashtirish xizmatlari, moliyaviy xizmatlar va ta'lrim xizmatlarida barqaror o'sish ko'rsatkichlarini ko'rish mumkin. 2020 yilda boshqa xizmat turlarida nisbiy o'sish ko'rsatkichlari o'tgan yilga nisbatan pasaygan (17.2.2-jadval).

17.2.2-jadval

2016-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining o'sish ko'rsatkichlari (foiz hisobida)

| Ko'rsatkichlar | 2016y. | 2017y. | 2018y. | 2019y. | 2020 y. | 2021 y. |
|---|--------|--------|--------|--------|---------|---------|
| Xizmatlar – jami | 114,7 | 110,7 | 108,9 | 113,2 | 102,3 | 119,2 |
| asosiy turlari bo'yicha: | | | | | | |
| axborot va aloqa sohasidagi xizmatlari | 114,6 | 121,3 | 115,9 | 108,3 | 115,3 | 121,8 |
| moliya xizmatlari | 119,8 | 136,5 | 121,5 | 147,0 | 125,6 | 128,4 |
| transport xizmatlari | 107,8 | 109,9 | 104,5 | 106,7 | 91,6 | 116,0 |
| shu jumladan avtotrasport xizmati | 117,2 | 102,1 | 101,6 | 105,1 | 103,5 | 117,8 |
| yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 121,1 | 112,1 | 107,0 | 107,3 | 86,5 | 118,0 |
| savdo xizmatlari | 120,5 | 100,3 | 104,9 | 107,4 | 101,7 | 112,7 |
| ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 117,5 | 106,6 | 107,9 | 104,7 | 91,1 | 124,2 |
| ta'lim sohasidagi xizmatlar | 107,8 | 125,6 | 110,5 | 109,5 | 107,4 | 128,7 |
| sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar | 122,2 | 116,9 | 113,4 | 114,7 | 89,9 | 126,4 |
| ijara va lizing bo'yicha xizmatlar | 117,6 | 102,1 | 110,4 | 98,3 | 98,9 | 121,0 |

| | | | | | | |
|---|-------|-------|-------|-------|------|-------|
| kompyuterlar, shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar | 115,6 | 102,6 | 104,2 | 107,1 | 96,1 | 125,2 |
| shaxsiy xizmatlar | 113,8 | 100,7 | 102,2 | 105,4 | 92,1 | 118,7 |
| me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovalar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 115,3 | 124,7 | 118,1 | 115,5 | 93,7 | 121,8 |
| boshqa xizmatlar | 114,9 | 111,8 | 121,2 | 116,3 | 98,3 | 109,9 |

Manba. www.stat.uz

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi respublika miqyosida 2016 yildagi 3 047,3 so'mdan 2021 yilda 8 114,0 mlrd.so'mga o'sdi. Hududlar kesimida Buxoro va Toshkent viloyatlari, Toshkent shahrida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi boshqa hududlarga nisbatan yuqori(qarang: 17.2.3-jadval).

17.2.3jadval.

Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi ming.so'm hisobida)

| Hududlar | 2016 y. | 2017 y. | 2018y. | 2019 y. | 2020 y. | 2021 y. |
|--------------------------------|---------|---------|---------|---------|---------|---------|
| O'zbekiston Respublikasi | 3 047,3 | 3 668,3 | 4578,5 | 5 768,2 | 6 393,2 | 8 114,0 |
| Qoraqalpog'i ston Respublikasi | 1 718,4 | 1 973,5 | 2 478,6 | 3 010,4 | 3 405,8 | 4 290,8 |
| viloyatlar: | | | | | | |
| Andijon | 1 963,5 | 2 218,6 | 2 636,0 | 3 165,3 | 3 562,6 | 4 648,1 |
| Buxoro | 2 599,8 | 2 919,4 | 3 522,8 | 4 406,3 | 5 101,8 | 6 484,3 |
| Jizzax | 1 672,7 | 1 927,5 | 2 452,6 | 3 148,8 | 3 527,2 | 4 498,6 |
| Qashqadaryo | 1 680,5 | 1 879,0 | 2 220,9 | 2 710,7 | 3 056,4 | 3 933,2 |
| Navoiy | 2 773,2 | 3 228,5 | 4 052,0 | 5 115,9 | 5 738,1 | 7 270,2 |

| | | | | | | |
|--------------|---------|---------|---------|---------|---------|----------|
| Namangan | 1 677,4 | 1 868,2 | 2 225,7 | 2 785,0 | 3 128,6 | 4 565,4 |
| Samarqand | 1 990,3 | 2 263,5 | 2 671,5 | 3 331,3 | 3 609,8 | 4 675,6 |
| Surxondaryo | 1 577,9 | 1 802,6 | 2 391,6 | 2 685,8 | 2 922,8 | 3 836,1 |
| Sirdaryo | 1 701,4 | 1 981,2 | 2 468,6 | 3 253,6 | 3 791,3 | 4 924,3 |
| Toshkent | 2 885,4 | 3 285,3 | 3 921,3 | 4 988,8 | 5 619,2 | 7 336,3 |
| Farg'ona | 1 887,1 | 2 116,1 | 2 529,7 | 3 142,9 | 3 529,1 | 4 616,2 |
| Xorazm | 1 770,3 | 2 035,7 | 2 506,6 | 3 113,5 | 3 497,7 | 4 384,5 |
| Toshkent sh. | 12235,9 | 15815,0 | 20172,2 | 25881,1 | 30278,4 | 36 855,3 |

Manba: www.stat.uz

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rindan, hududlar kesimida Qoraqalpog'ston Respublikasi, Surxondaryo, Qashqadaryo, Namangan, Farg'ona, Xorazm va Andijon viloyatlarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajimi boshqa hududlarga nisbatan pastdir.

2017 yil o'rtasidan boshlab talabga bo'lgan infliyatsiyaviy bosimning nisbatan yuqoriligi saqlanib qolmoqda, natijada xizmatlarning ko'pchilik turlari bo'yicha o'sish sekinlashmoqda. Savdo xizmatlari, avtotransport xizmatlari, tegishli tarmoqlarning norasmiy sektorida ko'rsatilayotgan ko'chmas inulk bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar ulushi yuqoriligi saqlanib qolmoqda.

Iqtisodiy sohada xizmatlar sohasining o'sishi bozor sharoitidagi ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovni qabul qilish tezligi va material sarfining kamligi, bu qo'shilgan qiymatning oshishi va pirovardida yalpi ichki mahsulotning oshishiga olib keladigan muhim omillar bilan bog'liqdir.

17.3. O'zbekistonda xizmatlar sohasi rivojlanishini davlat tomonidan qo'llab quvvatlash va uning istiqbollari

Xizmatlar sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'plab qonuniy-me'yoriy xujjalalar qabul qilingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020 yil 16 iyundagi PQ-4752-

son qarorida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi, Markaziy banki hamda Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining xizmatlar sohasini rivojlantirish uchun tijorat banklariga Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasidan 100 million AQSh dollari ekvivalentida kredit liniyasini ajratish to'g'risidagi taklifiga rozilik berildi. Shuningdek, quyidagilar belgilandi:

- kredit liniyasi tijorat banklariga 7 yil muddatga, shu jumladan 3 yillik imtiyozli davri bilan foiz stavkasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning asosiy stavkasidan 4 foiz past qilib beriladi;

- tijorat banklari tomonidan kreditlar xizmat ko'rsatish sohasidagi tadbirdorlik subyektlariga, ayniqsa maishiy, ta'lim, tibbiy, axborot-kommunikatsiya va boshqa talab yuqori bo'lgan sohalarda faoliyat ko'rsatadigan korxonalarni tashkil etish (moliya va savdo sohalaridagi tadbirdorlik sub'ektlari bundan mustasno) va jihozlash uchun Markaziy bankning asosiy stavkasi bo'yicha 1 milliard so'mgacha miqdorda ajratiladi;

- mazkur qarorda nazarda tutilgan kredit liniyasi mablag'larining kamida 20 foizi ayollar va yosh tadbirdorlarga ajratiladi;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 8 iyundagi "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4742-sun qarori bilan o'zini o'zi band qilgan shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lgan 67 ta faoliyat (ishlar va xizmatlar) turlari uchun "Har bir oila - tadbirdor" dasturi doirasida kreditlar ajratiladi¹⁸⁶.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021 yil 11 maydagi PQ-5113-sun Qaroriga muvofiq 2021 — 2023 yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilangan:

¹⁸⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021 yil 11 maydagi PQ-5113-sun // Xalq so'zi, 2020yil 17iyun.

- iqtisodiy o'sishni ta'minlashda xizmatlar sohasini muhim drayverga aylantirish va 2023 yilga qadar xizmatlar hajmini ikki baravarga oshirish;
- aholiga tayyor biznes rejalar va loyihalar taqdim etish, ularni kasbga o'qitishdan tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishgacha bo'lgan bosqichlarni qamrab oluvchi «kompleks xizmatlar» ko'rsatishni tashkil etish;
- respublikada xizmatlar sohasining rivojlanganligini baholash tizimini joriy etish orqali davlat organlari va tashkilotlarining bu boradagi faoliyati samaradorligini oshirish va mansabdar shaxslarning mas'uliyatini kuchaytirish;
- xizmatlar sohasida ortiqcha byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, har bir hududning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib xizmatlar turlarini kengaytirish, hududlarda, ayniqsa qishloq joylarda transport, moliyaviy, shuningdek, bank, turizm hamda savdo xizmatlari qanrovini kengaytirish;
- respublikaning barcha hududlarida mavjud ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlari salohiyatini oshirish, ularning sifatini yaxshilash, bunda xususiy sektorni jalb qilish uchun qulay iqtisodiy va infratuzilmaviy sharoitlarni yaratish.

17.3.1-jadval.

2021 — 2023 yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari¹⁸⁷

| T/r | Xizmatlar nomi | 2020 yil | | Prognoz (o'sish sur'ati, foiz) | | | 2023 yilda 2020 yilga nisbatan, baravar |
|-----|--|-------------------|----------------------|--------------------------------|----------|----------|---|
| | | hajmi, mldr. so'm | o'sish sur'ati, foiz | 2021 yil | 2022 yil | 2023 yil | |
| | Jami xizmatlar | 218 853,5 | 102,3 | 120,7 | 128,6 | 134,7 | 2,1 |
| | <i>shu jumladan asosiy turlari bo'yicha:</i> | | | | | | |

¹⁸⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chom-tadbirlari to'g'risida"gi 2021 yil 11 maydag'i PQ-5113-son qaroriga 1-ilova.

| | | | | | | | |
|------|---|----------|-------|-------|-------|-------|-----|
| I | Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 12 885,9 | 115,3 | 123,1 | 133,6 | 138,6 | 2,3 |
| II | Moliyaviy xizmatlar | 45 817,2 | 125,6 | 122,5 | 135,2 | 140,7 | 2,3 |
| III | Transport xizmatlari | 53 772,5 | 91,6 | 120,4 | 125,9 | 130,8 | 2,0 |
| IV | Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 5 878,5 | 86,5 | 128,9 | 136,3 | 139,8 | 2,5 |
| V | Savdo xizmatlari | 56 553,9 | 101,7 | 119,7 | 125,8 | 132,9 | 2,0 |
| VI | Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 6 089,7 | 91,1 | 119,5 | 125,4 | 133,4 | 2,0 |
| VII | Ta'lim sohasidagi xizmatlar | 9 073,0 | 107,4 | 119,2 | 128,7 | 134,9 | 2,1 |
| VIII | Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar | 3 209,4 | 89,9 | 128,8 | 136,0 | 142,0 | 2,5 |
| IX | Ijara xizmatlari | 4 172,1 | 98,9 | 117,9 | 125,3 | 131,5 | 1,9 |
| X | Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar | 3 407,4 | 96,1 | 116,2 | 124,5 | 133,0 | 1,9 |
| XI | Shaxsiy xizmatlar | 4 983,3 | 92,1 | 116,6 | 124,5 | 132,5 | 1,9 |
| XII | Me'morhilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 4 925,7 | 93,7 | 117,7 | 123,8 | 129,8 | 1,9 |
| XIII | Boshqa xizmatlar: | 8 084,7 | 98,3 | 116,9 | 123,2 | 130,2 | 1,9 |

Mazkur qarorga binoan quyidagilar belgilangan:

- 2021yil 1iyuldan boshlab respublika hududlarida quyidagilarni nazarda tutuvchi xizmatlar sohasining rivojlanganligi reytingi joriy etish;
- kredit liniyasining 150 million AQSh dollari miqdoridagi mablag'lari (1-transh) 2021yil 1iyulgacha 3-ilovaga muvofiq taqsimot bo'yicha ajratish;
- kredit liniyasi mablag'lari tijorat banklariga 7 yil muddatga, shu jumladan 3 yillik imtiyozli davr bilan foiz stavkasi Markaziy bankning asosiy stavkasidan 4 foiz bandga past qilib berish;

- kredit liniyasining 2-transhi 1-transhning ishlatalishi samaradorligini baholash natijalari bo'yicha Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi taklifiga asosan Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan taqsimot bo'yicha ajratish;

- tijorat banklari tomonidan kreditlar 4-ilovaga muvofiq xizmatlar sohasidagi loyihalarни amalgalashirish (moliya sohasini rivojlantirish bo'yicha loyihalar va xizmatlar sohasida aylanma mablag'larni to'ldirish hollari bundan mustasno) uchun 5 yilgacha muddatga Markaziy bankning asosiy stavkasida bitta loyiha bo'yicha 2 milliard so'mgacha miqdorda ajratish.

«O'zmilliybank» AJ tijorat banklariga qayta moliyalashtirish maqsadida 2021 yil yakuniga qadar 28 ta yirik va o'rta shaharlarda turizm, transport, tibbiyat, ta'lim obektlari va yirik savdo komplekslarini tashkil etish loyihalar uchun xalqaro moliya institutlarining 200 million AQSh dollari miqdoridagi mablag'larni jalb qiladi. Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tijorat banklari kreditlari hisobiga amalgalashirilayotgan loyihalarga qo'shimcha ravishda loyiha tashabbuskorlarining kamida yuqorida ko'rsatilgan miqdorlardagi o'z mablag'lari hisobidan qo'shimcha loyihalar ishga tushirilishini ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasini 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq 2030 yilgacha xizmatlar sohasi rivojlanishning yangi industrlashtirishdan keyingi bosqichiga kiradi, YAMda va aholi bandligida xizmatlar sohasi ustunlik qiladi. Asta-sekin, 2030 yilga borib xizmatlar sohasi ustunlik mavqeini egallaydi, xizmatlar sohasining industrlashtirishdan keyingi rivojlanish fazasiga yoki "servis iqtisodiyotiga" ("xizmatlar iqtisodiyotiga") o'tishi qayd etiladi, mamlakatning yalpi ichki mahsuloti xizmatlar sohasi rivojlanishi hisobiga ko'payadi, respublika iqtisodiyotida uning ulushi 2030 yilga borib 45 foizdan ortiqni tashkil etadi.

2018-2030 yillarda xizmatlar 2,5 baravar o'sadi. Turizmning jadal rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan yashash va ovqatlanish xizmatlari (3,2 baravar), moliyaviy xizmatlar, sog'liqni saqlash xizmatlari (3,1 baravar), arxitektura sohasidagi xizmatlar (3 baravar), savdo xizmatlari, kompyuter va boshqa maishiy texnikani ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (2,5 baravar), aloqa, axborotlashtirish xizmatlari, transport xizmatlari (2,3 baravar) bo'yicha o'sishning yuqori sur'atlariga erishiladi.

Sohaning maqsadli parametrlariga erishish uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlar talab etiladi:

1. Qishloq xizmatlar sohasi zamonaviy servis infratuzilmasi tashkil etilishi, qishloq aholisining xizmatlaridan foydalanishining oshishi va shaharlarni boshqarishning mavjud tizimini takomillashtirishni va shaharlar rivojlanishini maqbul rejalashtirishni nazarda tutuvchi urbanizatsiya siyosati kompleks amalga oshirilishi hisobiga jadal rivojlanadi.
2. Soha tarmoqlarini boshqarishni va xizmat ko'rsatish texnologiyalarini modernizatsiya qilish xizmatlar sohasining strategik barqarorligini ta'minlash maqsadlarini to'liq darajada amalga oshirish imkonini beradi.
3. Axborotlashtirish tizimlarini, pirovard iste'molchi va tadbirkorlik tuzilmalari, shu jumladan, qishloq biznesi uchun interaktiv xizmatlar ma'lumotlar bazalarini keng joriy etish.
4. Iqtisodiyot va innovatsiyalarda ilmiy-texnik siyosat amalga oshirilishi hisobiga xizmatlarning yangi turlari o'sishi.
5. Moliyaviy sohada yangi texnologiyalarni joriy etish, aholining mablag'larini bank sohasiga jalb qilish, aholining banklarga bo'lgan ishonchini oshirish.
6. Ta'lim va sog'liqni saqlash sohasida ijtimoiy yo'naltirilgan xizmatlar jadal o'sishini ta'minlash, innovatsion iqtisodiyotni yanada rivojlantirish hisobiga inson kapitali sifatini oshirish.

7. Zamonaviy, jahon standartlari darajasidagi servis infratuzilmasi va kommunikatsiyalarni shakllantirish hamda aholining xizmatlardan foydalanishini oshirish.

8. Xizmatlar sohasida tarkibiy qayta o'zgartirishlarni amalga oshirish, bunda aloqa xizmatlarining zamonaviy turlari, moliyaviy xizmatlar, sog'liqni saqlash sohasida xizmatlarning yuqori texnologik turlari, soha tarmoqlarining samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha xizmatlar jadal rivojlanadi.

2030 yilgacha maqsadli parametrlar bilan aloqa va axborotlashtirish xizmatlarini 2,5 baravar o'stirishni ta'minlash mo'ljallangan.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida xizmatlar sohasi tarmoqlarini rivojlantirish, tarmoqni texnik jihozlash raqamli iqtisodiyotga to'liq darajada o'tkazish imkonini beradi, natijada, respublika iqtisodiyotida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ulushi 3,5 foizgacha o'sadi.

Aloqa xizmatlari sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari:

1. "Raqamli iqtisodiyot"ga to'liq o'tish.

2. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida axborot beruvchi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda YAMning yarmidan ortig'ini shakllantirish.

3. "Aqli shaharlar" texnologiyalarini joriy etish, bunda davlat va jamoat boshqaruvi innovatsion AKT asosida amalga oshiriladi.

4. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining eksportga yo'naltirilgan yo'nalishlarini yanada rivojlantirish.

5. Axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirishda shaharlar va qishloq mintaqalari o'rtaсидаги differensiatsiya darajasini qisqartirish.

6. Importning o'rnini mahalliy dasturiy mahsulotlar bilan almashtirish.

7. Qishloq mintaqalarida axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning o'sishi.

8. Jahonning ilg'or mamlakatlari darajasida dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish bo'yicha yoshlar va mutaxassislarining kompyuter savdoxonligiga erishish.

9. Jahonning ilg'or mamlakatlari darajasida turizm biznesi sohasida AKT-xizmatlar ko'rsatish.

10. 5G sohasida texnologiyalarni joriy etish, beshinchi avlod tarmoqlarini qurish va qo'llash, xavfsiz shahar, elektron hukumat, iqtisodiyot va jamiyatni raqamlashtirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish.

2030 yilgacha oziq-ovqat va yashash xizmatlari 3,2 baravar, savdo xizmatlari 2,5 baravar, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar bo'yicha 2,4 baravar oshirilishini ta'minlash belgilanmoqda.

Asosiy tushuncha va atamalar

Xizmatlar, xizmatlar sohasi, savdo xizmatlari, transport xizmatlari, aloqa xizmatlari, qurilish va injiniring xizmatlari, distribyuterlik xizmatlari, ta'lim xizmatlari, sog'lioni saqlash xizmatlari, moliyaviy, shu jumladan sug'urta xizmatlari, ijtimoiy xizmatlar, turizm, sayohat xizmatlari, dam olishni tashkil etish, madaniyat, sport xizmatlari,

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Xizmatlar sohasi deganda nimani tushunasiz?

2. Bozor xizmatlari deganda nimani tushunasiz?

3. Xizmatlar sohasi tarkibi qanday sohalardan iborat?

4. Xizmatlar sohasi real sektorda qanday o'ringa va ahamiyatga ega?

5. Xizmatlar sohasi rivojlanishini davlat qanday rag'batlantirmoqda?

6. O'zbekistonda xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha nimalar amalga oshirildi?

7. Xizmatlar sohasida qanday muammolar mavjud?

8. Xizmatlar sohasini istiqbolda rivojlanish yo'nalishlarini izohlab bering.

- 9.2030 yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan O'zbekiston respublikasini rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq xizmatlar sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash uchun nimalar amalga oshiriladi?
10. Siz yashayotgan hududda xizmatlar sohasining holati qanday?
11. Sizning shahringiz (tumaningiz)da xizmatlar sohasini rivojlantirish uchun nima qilish kerak, deb hisoblaysiz?

18-BOB. AGRAR SOHANI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH VA QO'LLAB – QUVVATLASH

18.1. Agrar sohani davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab – quvvatlashning mohiyati va zaruriyati

Agrar soha davlat tomonidan doimiy ravishda tartibga solib turishga muhtoj tarmoq hisoblanadi. Bunga qator sabablar ta'sir ko'rsatadi. Avalambor, qishloq xo'jaligi iqlab chiqarishi tabiiy sharoitlar bilan bog'liq. Ishlab chiqarishning natijasi hamisha ham xo'jalikning faoliyatigi bog'liq emas. Bir me'yorda qilingan mehnatning natijalar qishloq xo'jaligida tabiiy ta'sirlar natijasida turlichcha bo'ladi. Uning mahsulotlarini uzoq vaqt saqlash imkoniyatlari cheklangan. Natijada, qishloq xo'jaligi o'z mahsulotlarini tezlikda sotishga majbur bo'ladilar. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan juda ko'plab tadbirkorlar shug'ullanganliklari uchun ularga narx erkin, talab va taklif asosida shakllanadi. Bu narxlar ko'pincha qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun foydali boilmaydi. Shu sabablarga ko'ra qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solib turish va qo'llab-quvvatlash zarurati mavjud. Bozor iqtisodiyoti munosabatlari yaxshi rivojlangan ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi tarmog'i davlat tomonidan tegishli qonun-qoidalar asosida tartibga solib turilishi va qo'llab-quvvatlanishi lozim.

Umuman olganda, qishloq xo'jaligini markazlashgan rejalar asosida davlat tomonidan ma'muriy usullar orqali boshqarish tamoyillaridan voz kechib, bu sohaga erkin bozor munosabatlari kirib kelayotgan bir paytda davlatning agrar ishlab chiqarish munosabatlariga aralashuvi hayotiy zaruratga aylanadi.

Erkin bozor tarafdorlari agrar sohaga xos bo'lgan bir qator xususiyatlarga (qishloq xo'jalik mahsulotlari bozorida sof raqobat imkoniyatlarining mavjudligi, agrar ishlab chiqarishga xos bo'lgan tabiiy – biotexnologik omillar dehqonlardan mustaqil qarorlar qabul qilishni talab etishi va boshq.) tayanib, bu tarmoqda erkin bozor munosabatlari amal qilishi uchun qulay shart – sharoitlar mavjud, degan

g'oyani ilgari suradilar. Ularning fikricha, bozorning o'z – o'zini tartibga sola olish xususiyati, agrar iqtisodiyotga davlat aralashuvini talab etmaydi va bunga zaruriyat ham yo'q. Mustaqil xo'jalik yuritish va tadbirkorlik erkinligi esa bozor sharoitida fermerlarning yuksak sur'atlar bilan rivojlanishiga olib kelishi kerak.

Ammo, respublikamiz bozor munosabatlarga o'ta boshlaganidan beri o'tgan davr saboqlari hamda ilg'or xorijiy mamlakatlarning tajribalari qishloq xo'jaligini davlatning faol aralashuvisz rivojlantirib bo'lmasligini ko'rsatmoqda. Chunki, bozor sharoitida agrar soha davlat tamonidan qo'llab-quvvatlanmasdan turib, sohalararo raqobatga bardosh berolmaydi.

Qishloq xo'jaligini davlat tamonidan tartibga solish va qo'llab – quvvatlash zaruratini dastavval qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq holda qaramoq maqsadga muvofiqdir.

Qishloq xo'jaligi murakkab biotexnik texnologik hamda ijtimoiy – iqtisodiy tizim sifatida tavsiflanadi. Unda tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy xarakterdagi omillar bilan birgalikda yer, suv, o'simlik va chorva mollari organizm, yorug'lik, issiqqlik, havo, tabiiy iqlim va jo'g'rofiy joylashuv kabi tabiiy omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqarish jarayonida turli tavsifdagи ushbu omillar uyg'unlashib ketadi. Ishlab chiqarish – xo'jalik faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning serqiraligi va murakkab tizimdan iboratligi qishloq xo'jaligi korxonalarining samarali faoliyat ko'rsatish imkoniyatlarini cheklaydi. Xususan, ishlab chiqarish tabiiy omillarning bir qismini (ob-havo, tabiiy-iqlim sharoiti va h.k.) boshqarish dehqonlarning imkoniyatlar doirasidan tashqari bo'lib, ularni oldindan rejalashtirib yoki oldini olib bo'lmaydi. Ammo, bu omillarning qulay yoki noqulay sharoitlarda kelishi xo'jalikning yakuniy moliyaviy natijalariga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tabiiy iqlim sharoitiga (jonli organizmlar, jug'rofiy muhit, ob-havo va boshq.) bog'liqligi dehqonlar faoliyatiga rag'batlantirish va sug'urtalash kabi bir qator himoya vositalarni yaratishni talab qiladi.

Dehqon manfaati tomonidan yondashsak, yil davomida mahsulot yetishtirish uchun sarflangan xarajatlar tabiiy ofat va qurg‘oqchilik tufayli bekorga sovurilishi mumkin. Bunday paytlarda uning ko‘rgan zararini qisman bo‘lsada qoplamaslik kelgusi yil hosiliga ham taxdid soladi. Ob-havoning noqulay kelishi nafaqat qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida, balki butin mamlakat miqyosida ham qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin. Oziq-ovqat tanqisligi vujudga kelmasligi uchun davlatning maxsus zahiralari bo‘lishi maqsadga inuvofiq. Hosil mo‘l bo‘lgan yillarda davlat oziq – ovqat mahsulotlarining talabdan oshiq qismini dehqonlardan xarid qilib, maxsus omborlarda saqlashi va noqulay kelib, tanqislik vujudga kelgan yillari bu zahiralardan talabni qondirish maqsadida foydalanishi mumkin. Bu tadbir hozirgi vaqtda dunyoning bir qator ilg‘or davlatlarida (AQSh, Yevropa Hamjamiyati davlatlarida, Kanada) qo‘llab kelinadi va o‘zining ijobiy samarasini bermoqda.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining tabiiy – iqlimiylar sharoitlarga bog‘liqligi bu tarmoqda baholar va daromadlarning barqarorligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, qulay ob-havo sharoitida bozorga talabdan ortiqcha mahsulotning kirishi bahoning keskin pasayishiga olib kelishi mumkin. Bunday holatni ko‘proq g‘alla, sabzavot, poliz, meva va uzum mahsulotlari bozorida kuzatish mumkin. Ba’zan baholarning bunday pasayishi mahsulot tannarxini qoplashga ham imkon bermasligi oqibatida dehqonlar katta zarar ko‘radi. Tabiiyki, bunday sharoitlarda agrar sohada erkin bozor munosabatlari amal qilayotgan bo‘lsa, ular xonavayron bo‘lishi turgan gap. Yoki ikkinchi bir yili ob-havoning noqulay kelishi (qurg‘oqchilik, sel, jala va hokazo) hosilning keskin kamayib ketishiga va natijada narxlarning haddan tashqari qimmatlashishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bunday hollarda dehqonlar hosilning kamayib ketishidan zarar ko‘rsalar, iste’molchilar narxlarning balandligidan aziyat chekadilar. Ko‘rinib turibdiki, har ikkala holda ham dehqon ko‘proq zarar ko‘radi va bu holat qishloq xo‘jaligini davlat tamonidan tartibga solish va qo‘llab-quvvatlash zaruriyatini yuzaga keltiruvchi omillardan biri sifatida yuzaga chiqadi.

Ma'lumki, qishloq xo'jaligi mahsulotlari biologik jarayonlar bilan bog'liqligi tufayli tez buziluvchan bo'ladi. Ularni uzoq muddat saqlash yoki olis masofalarga teshish imkoniyatlari ancha chegaralangan. Qishloq xo'jaligi korxonalaridan farqli ravishda sanoat, savdo yoki xizmat ko'rsatish karxonalarini o'z mahsulotlariga baho belgilashda ancha qulay mavqega ega. Chunki, iste'molchi so'rayotgan narx qoniqtirmasa, ularni toki bozorda qulay vaziyat vujudga kelgunga qadar tovarlarini sotmay saqlab turishlari mumkin. Qishloq xo'jaligi karxonalar esa sabzavot, meva yoki sut kabi tez buziluvchan mahsulotlarni bozorda qulay vaziyat kelishini kutib, uzoq vaqt ushlab turaolmaydilar. Bu xil mahsulotlar ma'lum muddat o'tgandan so'ng o'zining iste'mol qiyamatini yo'qatishi mumkinligi sababli fermerlar bozorda tashkil topgan narxlar darajasi bilan qanoatlanishga majbur bo'ladilar.

Ikkinchi tamondan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi karxonalar respublikamizda ko'pchilni taşhkil etadi va erkin bozor hukm surib turgan sharoitda ular hech qachon o'zaro kelishib, mahsulotlariga yuqori narx belgilay olmaydilar, ya'ni qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorida nisbatan ideal raqobat hukm suradi. Odatda, qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lган talabning o'zgarishi unchalik katta bo'lmaydi. Boshqacha qilib aytganda, unga bo'lган talab elastiklikka ega emas (yoki juda past elastiklikka ega).

Aksincha, qishloq xo'jaligiga moddiy-texnika resurslari yetkazib beruvchi hamda ularga turli xizmatlar ko'rsatuvchi karxonalar hududlar miqyosida kamchilikni tashkil etib, ba'zan monopol mavqega ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Qishloq xo'jaligi korxonalarini xarid qiladigan sanoat mahsulotlari (texnika, mineral o'g'it, yoqilhi va h. k.) narxi ko'p hollarda tez sur'atlar bilan o'sadi. Natijada qishloq xo'jaligi mahsulotlari baholari bilan bu tarmoq uchun zarur bo'lган sanoat tovarlari yoki xizmatlar baholari o'rtaida yirik nomunosiblik (baholar dispariteti) vujudga keladi. Bu esa, o'z navbatida, qishloq xo'jaliklari mahsulotlari ishlab chiqaruvchi karxonalar faoliyatining iqtisodiy samarasini pasaytiradi yoki umuman, zararli qilib qo'yadi. Bunday holat

hech bir mamlakat manfaatiga mos tushmaydi. Bunday vaziyatda davlat qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun noqulay bo'lgan texnika ta'minoti hamda xizmat ko'rsatuvchi karxonalarining monopol mavqeini cheklash choralarini ko'rishga majbur bo'ladi.

Qishloq xo'jaligini davlat tamonidan qo'llab-quvvatlash zaruriyati bu tarmoqda kapital aylanishining xususiyatlaridan ham kelib chiqadi. Ma'lumki, sanoat, savdo, moliya bozorlari kabi bir qator tarmoqlarda kapital aylanishi qishloq xo'jaligidagiga nisbatan bir necha marta yuqoridir. Kapital qancha tez aylansa, shunchalik ko'p foyda keltirishi tufayli qishloq xo'jaligida kapitalning sekin aylanishi bu tarmoqqa investitsiya imkoniyatlarini keskin chegaralaydi. Ammo, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, yangi yerlarni o'zlashtirish va sug'orish tarmoqlarini barpo etish, ishlab chiqarishni texnik qurollantirish, fan - texnika yutuqlari va ilg'or texnologiyalarni joriy etish, ekologik vaziyatni barqaror ushlab turish kabi muhim tadbirlarni amalga oshirish uchun yirik kapital mablag'lar talab etiladiki, bu tadbirlarni yolg'iz qishloq xo'jaligi korxonalarining mablag'lari hisobdan amalga oshirib bo'lmaydi. Buning uchun davlat budgeti hisobidan maxsus mablag'lar ajratilishi maqsadga muvofiq. Va niroyat, fermer xo'jaliklarining ijtimoiy rivojlanishi, ya'ni ular uchun yo'llar barpo etish, gaz, suv, elektr ta'minoti, ijtimoiy – madaniy ob'ektlar qurish kabi umum davlat ahamiyatiga ega bo'lgan muammolar mavjudki, bu muammolarni davlat horiyligisiz yechib bo'lmaydi.¹⁸⁸

18.2. Davlatning agrar sohani tartibga solishdagi asosiy vazifalari va usullari

Milliy agrar iqtisodiyotining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda davlatning qishloq xo'jaligini tartibga solish va qo'llab-quvatlashdagi asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni belgilash munkin:

¹⁸⁸ Хакимов Р. Аграрият мажмуси иктисодиёти (Дарслан). – Т.: ТДНУ, 2010. – 168-171 б.

Huquqiy tartibga solish vazifasi-davlat agrar iqtisodiyot barqoror rivojlanishini va har bir xo'jalik yurituvchi sub'ekt teng sharoitlarda faoliyat yuritishini ta'minlashga imkon beruvchi me'yorlar hamda qonunlarni qabul qilish orqali, ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlarning huquqiy asoslarini yaratishni nazarda tutadi.

Barqarorlashtirish vazifasi-agrар iqtisodiyotda inqirozli holatlarni bartarab etish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning pasayishiga yo'l qo'ymaslik va agrosanoat majmui tarkibining mutanosibligini ta'minlash bilan bog'liq.

Tartibga solish vazifasi-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning samarali faoliyat yuritishlarini ta'minlash maqsadida bozor tuzilmalari bilan davlat boshqaruvining o'zaro manfaatliligi hamda uyg'unligini shakllantirishdan iborat.

Rag'batlantirish vazifasi-milliy iqtisodiyot doirasida qishloq xo'jaligida fan-texnika taraqqiyotini, xususiy tadbirkorlikni, adolatli raqobat kurashini yoki boshqa ustivor yo'nalishlarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash choralarini ifodalaydi.

Taqsimlash vazifasi – ijtimoiy adolat va himoyalash vositasi sifatida daromatlarni qayta taqsimlash, shuningdek, ichki mahsulot tarkibini o'zgartirish maqsadida resurslar taqsimotiga tuzatishlar kiritish bilan bog'liq.

Ijtimoiy kafolatlash vazifasi – qishloq xo'jaligida ta'minot va aholi nachor qatlamlarini himoyalashning samarali tizimsini yaratish, ishlab chiqarish va taqsimotning ijtimoiy yo'naltirilganligini ta'minlash, ta'lim, sog'liqni saqlash va madaniy tadbirlarga bo'lgan extiyojni qondirish bilan bog'liq chora – tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Muhofaza qilish vazifasi agrar ishlab chiqarishni salbiy xarakterdagи tashqa ta'sirlardan (masalan, atrof – muhit va boshq.) saqlash, milliy tovar ishlab chiqaruvchilarni tashqi eksportyorlardan yoki jahon bozoridagi kuchli raqobatdan himoyalash kabi vazifalardan iborat.

Nazorat etish vazifasi – qishloq xo‘jaligida qonuniy – me’yoriy hujjatlar, hukumat qarorlari va davlat andozalarining bajarilishi ustidan nazorat o‘rnatish bilan bog‘liq.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni muqobillashtirish vazifasi – xalqaro bozorlar qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportyorlarining manfaatlarini himoyalash, bojxona ta’riflari va soliqlar orqali eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlar yaratishni rag‘bantlantirish, ular uchun qulay iqtisodiy muhit hosil qilish tadbirlaridan iborat.

Istiqlolni belgilash vazifasi – qishloq xo‘jaligini istiqbolda rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlarini belgilash, barqaror agrar taraqqiyotining samarali variantlarini izchil amalga oshirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida davlatning qishloq xo‘jaligini qo‘llab – quvvatlashdagi eng muhim vazifalaridan biri – tadbirkorlik tashabbusi va tanlov erkinligiga, mustaqil xo‘jalik yuritish huquqi va o‘z xususiy mulkiga ega bo‘lgan bozor xo‘jaligining subyekti tadbirkorlarni shakllantirish hamda ularning sog‘lom raqobat va teng xo‘jalik yuritish sharoitlarida faoliyat ko‘rsatishini ta’minlovchi huquqiy – me’yoriy asoslarini yaratishdir. Davlat tadbirkorlarning butun ijobiylari mehnat qobiliyatlarini yuzaga chiqarishi hamda ular xo‘jalikni boshqarish jarayonlarini to‘siqsiz amalga oshirishlari uchun zarur bo‘lgan barcha shart – sharoitlarni, ya’ni tadbirkorlik va tanlov erkinligini qonunan mustahkamlab qo‘yishi kerak. Shu bilan birga davlat tegishli qonuniy hujjatlar orqali bozor sharoitida xo‘jalik yuritish qoidalarini belgilaydi.

Davlatning yana bir muhim vazifasi qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga barqaror talab va taklifning shakllanishini qo‘llab – quvvatlashdir. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga barqaror talabni shakllantirish uchun aholining daromatlarini o‘stirish va qayta taqsimlash, iste’mol uchun zarur bo‘lgan ba’zi mahsulotlarning baholarini tartibga solish kabi tadbirlar qo‘llaniladi. Davlat iste’mol uchun zarur bo‘lgan hamda strategik ahamiyatga ega bir qator mahsulotlarga davlat buyurtmalarini shakllantirish orqali ham qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga barqaror talabni yuzaga keltirishga hissa qo‘shadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlariga barqaror taklif hajmini qo'llab – quvvatlash bevosita xo'jaliklarda ishlab chiqarishni optimallashtirish, ularning moddiy – texnik salohiyatini oshirish, sohaga energiya va resurslarni tejash imkonini beruvchi ilg'or texnologiya hamda fan-texnika yutuqlarini joriy etish (baholar paritetini saqlash, soliq, moliya-kredit va sug'urta tizimi) orqali ishlab chiqarish – moliyaviy faoliyatda qulaylik hamda imtiyozlar yaratish orqali ta'minlanadi.

Davlatning uchinchi muhim vazifasi – qishloq xo'jaligi korxonalarining samarali faoliyat yuritishga yetaklovchi sog'lom raqobat muhitini shakllantirishdir. Buning uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorining ochiqligini hamda adolatli raqobat muhitini yaratish, nosog'lom raqobat va monopoliyaga qarshi kurashning samarali vositalarini qo'llash choralarini amalgalash oshiriladi.

Davlat qishloq xo'jaligi korxonalarining jahon qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat bozorlarida teng huquqli subyekt sifatida qatnashishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratib bermog'i lozim. Buning uchun davlat:

- Qishloq xo'jaligi korxonalarining eksportga yo'naltirilgan raqobatbardosh mahsulotlari yetishtirishga rag'batini oshirish;
- Mahalliy bozorlarda ularni tashqi eksportyorilar raqobatidan yetarli darajada himoyalash (proteksionizm) vositalarini ishga soladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlatning eng muhim vazifalaridan biri qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarish hamda ijtimoiy infratuzilmalarni barpo etishga ko'maklashishdir. Bu vazifani amalgalash oshirish dehqonlarga moddiy – texnik resurslar yetkazib beruvchi, mahsulotlarni saqlash, tashish, qayta ishlash va sotishga ko'maklashuvchi xizmat ko'rsatuvchi korxonalar tarmog'ini yaratish, bank, moliya va qimmatli qog'ozlar bozori, fond birjalari va yaramarkalar, axborot – maslahat markazlari hamda dehqonlar manfaatlarini himoya qiluvchi uyushmalar, fondlarni tashkil etish va rivojlantirishni nazarda tutadi.

Davlatning qishloq xo'jaligini tartibga solish va qo'llab-quvvatlash borasidagi vazifalari ma'lum bir tamoyillarga tayanib amalgalash oshiriladi. Bu tamoyillarni quyidagicha tavsiflash mumkin:

- Qishloq xo'jaligining iqtisodiy mohiyatini, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va aholini oziq-ovqat bilan ta'minlashda uning tutgan o'rmini va ahamiyatini ilmiy tushunish;
- Zaruriyat va yetarlilik darajasidagi proteksionizm siyosati;
- Qishloq xo'jaligini maqsadli – dasturiy tartibga solish;
- Davlat homiyligining doimiy kafolatlanishi;
- Qo'llab-quvvatlash tadbirlarining tabaqalangan holda qo'llanilishi;
- Davlat aralashuvining rag'batlantirivchi yo'nalishga egaligi;
- Davlat aralashuvining ijtimoiy yo'naltirilganligi.

Davlat o'zining qishloq xo'jaligini tartibga solish va qo'llab – quvvatlashga oid vazifalarini turli shakl va usullarda amalga oshiradi. Tanlangan mezoning xususiyatlardan kelib chiqib, ularni quyidagicha turkumlash mumkin:

1. Davlatning agrar soha iqtisodiy jarayonlariga ta'siri darajasiga ko'ra, tartibga solishning bevosita va bilvosita usullari mavjud. Davlatning qishloq xo'jaligiga bevosita ta'sir ko'rsatishi xo'jalik yurituvchi subyektlarini o'z tanlov erkinligidan kelib chiqib emas, balki davlat tomonida belgilangan qonuniy – me'yoriy qoidalar asosida boshqaruq qarorlari qbul qilishga majbur etadi. Bunga soliq qonunchiligi, buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish bo'yicha yo'riqnomalar va boshqalar misol bo'ladi.

Bilvosita usullar yordamida davlatning qishloq xo'jaligiga ta'siri takror ishlab chiqarishning makroiqtisodiy nisbatlarini ta'minlash maqsadida xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatini iqtisodiy dastaklar yordamida tartibga solishni ko'zda tutadi. Bunda davlat iqtisodiy subyektlar tomonidan qarorlar qabul qilish jarayoniga to'g'ridan-to'g'ri aralashmaydi, balki bu qarorlarni davlatning iqtisodiy siyosatiga mos bo'lishini rag'batlantiradi.

2. Tashkiliy – institututsional mezonga ko'ra davlatni qishloq xo'jaligini tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy usullari farq qiladi. Ma'muriy usullar xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun qonuniy va me'yoriy shart – sharoitlarni vujudga keltirish bilan bog'liq huquqiy

infratizimni shakllantirishga oid chora – tadbirlar majmuasini o‘z ichiga oladi. Uning vazifasi tadbirkorlik faoliyati uchun barqaror huquqiy sharoitlar yaratish, raqobat muhitini muhofaza qilish kabi tadbirlardan iborat.

Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan tartibga solish ma’muriy usullarning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- ular davlat hokimiyatining qudrati va salohiyatiga tayanadi;
- ularni amalga oshirish bilan bog‘liq qo‘srimcha moddiy rag‘batlantiruvchi choralar yaratishni shart qilib qo‘ymaydi;
- taqiqlash, ruxsat berish va majburlash tadbirlarini (kvotlash, litsenziya berish, me’yoriy normalarni belgilash va h. k.) o‘z ichiga oladi.

Ma’muriy boshqaruв o‘z tabiatiga ko‘ra, bozorga xos tartibga solish harakatiga to‘siqlik qiladi. Biroq rivojlangan bozor sharoitida ham boshqarishning ma’muriy usullari o‘z ahamiyatini saqlab qoladi va zarur bo‘lganda ulardan foydalaniлади. Xususan, bozor iqtisodiyoti rivojlangan hanima mainlakatlarda ma’muriy usullar vositasida monopoliyaga qarshi siyosat amalga oshiriladi.

Iqtisodiy usullar yordamida davlat bozor jarayonlarining rivojlanishini davlatning iqtisodiy siyosatiga mos yo‘nalishga solish uchun ta’sir etish choralarini qo‘llaydi. Iqtisodiy jarayonlarni davlat tamonidan tartibga solishning ma’muriy usullari bozor xo‘jaligining o‘z –o‘zini boshqarish mexanizmiga qarshilik qilsa, iqtisodiy usullar ulardan faol foydalanishni rag‘batlantiradi.

Iqtisodiyotni tartibga solish va qo‘llab-quvatlashning iqtisodiy usullari quyidagilar kiradi.

- budget – soliq siyosati;
- pul –kredit siyosati;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni muqobillashtirish;
- iqtisodiy rejalashtirish, dasturlash hamda istiqbolni belgilash.

Budget - soliq tizimi xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tamonidan bevosita tartibga solishning samarali dastaklaridan biri hisoblanadi. Davlat budgetining xarajatlar qismi orqali daromadlarni

qayta taqsimlash, qishloq xo'jaligi sohasida fan – texnika taraqqiyotini yutuqlarini joriy etish va ilmiy tadqiqotlar olib borish, agrar iqtisodiyotning muhim tarmoqlariga davlat investitsiyalarini yo'naltirish hamda qishloqda ijtimoiy infratuzilmlarini barpo etish mumkin bo'adi.

Soliq tizimi orqali qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini rag'batlantirish (soliq imtiyozlar va boshq.) amalga oshiriladi. Chunki, progressiv soliq tizimidan noto'g'ri foydalanish, ya'ni uning me'yorini haddan tashqari oshirib yuborish iqtisodiy taraqqiyotga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu, birinchi navbatda, yuqori unum bilan mehnat qilish va yuqori daromad olishga bo'lgan manfaatni, investitsiyalarga bo'lgan rag'batni yo'qqa chiqishi bilan izohlanadi.

Pul – kredit tizimi davlatning qishloq xo'jaligiga bilvosita ta'sir ko'rsatish usullaridan biridir. Pul – kredit tizimi orqali:

- maqsadli kreditlar berish;
- kredit berishning yuqori chegaralarini belgilash;
- bank foizlarining darajasi ustidan bevosita nazorat o'rnatish;
- kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini tartibga solish;
- tijorat banklarini qayta moliyalash me'yorlarini tartibga solish kabi iqtisodiy rag'batlantirish choralarini qo'llaniladi.

Iqtisodiy rejalashtirish, dasturlash handa istiqbolni belgilash (prognozlash) orqali davlat iqtisodiy jarayonlarga bilvosita ta'sir ko'rsatadi va ular xususiy tarmoq sub'ektlari uchun tavsiya mazmuniga egadir. Davlat istiqbolni bashorat qilish orqali kelgusida ko'zda tutilgan vazifalar samarali amalga oshirilishning optimal variantlarini izlasa, iqtisodiy dasturlar orqali ma'lum bir tarmoq, hudud yoki ustuvor vazifalarni rivojlantirish masalalarini hal etadi.

Hozirgi kunda non mahsulotlari, go'sht va go'sht mahsulotlari, quritilgan sut, choy va antikvar mahsulotlar eksportiga cheklov qo'yilgan. Mamlakatda qishloq xo'jalik mahsulotlari eksportini qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilarini himoyalash siyosati ham olib borilmoqda. Shu maqsadda qishloq xo'jalik mahsulotlari importiga bojxona tariflari belgilangan.

Davlat o‘zining real hokimiyati kuchidan foydalangan holda qishloq xo‘jaligini ma’muriy usullar yordamida tartibga solsa, iqtisodiy yoki institutsional usullar yordamida ularni qo’llab-quvvatlash choralarini amalga oshiradi. Erkin bozor munosabatlari rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda davlatning ma’muriy usullar yordamida tartibga solish darajasi kamayib boradi. Ammo, uning ahamiyati saqlanib qoladi. Negaki, xususiy mulk va tadbirkorlik erkinligi daxlsizligini himoyalash monopoliyani cheklash, qonun ustuvorligini ta’minlash, ekologik muvozanatni saqlab turish kabi muhim tadbirlarni faqatgina kuchli davlat hokimiyati va ma’muriy usullar orqaligini ta’minlash mumkin.

Shu bilan birga iqtisodiy va institutsional usullar orqali fermer xo‘jaliklarini qo’llab – quvvatlash ko‘proq ahamiyat kasb etib boraveradi.

Davlatning qishloq xo‘jaligini tartibga solish va qo’llab – quvvatlash tadbirlari ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan hamda ijobiliy natijalarni ta’minlashga yo‘naltirilgan bo‘lsagina o‘z samarasini beradi.¹⁸⁹

18.3. O‘zbekiston Respublikasining agrar siyosati va uni amalga oshirish yo‘llari

Davlat tomonidan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishni tartibga solish, qo’llab-quvvatlashga qaratilgan siyosat agrar siyosat deb ataladi. Agrar siyosat – bu umumiqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi bo‘lib, qishloq xo‘jaligi tarmog‘i oldiga qo‘yilgan vazifalarga erishishni ta’minlashga qaratilgan yer bilan bog‘liq munosabatlarni isloh qilish asosida iqtisodiy dastaklar yordamida tartibga solingan agrar munosabatlarni shakllantirish hamda shu munosabatlarni ijrosini ta’minlashga qaratilgan agrotexnologik, tashkiliy va iqtisodiy tamoyil va vositalar majmui hisoblanadi. Agrar siyosatning maqsadi – mamlakat aholisining asosiy turidagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talabni to‘laroq

¹⁸⁹ ҲАҚИМОВ Р. Агросаноат маъжумаси иктисодига (Дарслик). – Т.: ТДИУ, 2010. –172-175 б.

qondirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan sanoat korxonalarini yetarli xom ashyoga bo'lган ehtiyojini to'laqonli qondirish, shakllangan agrar resurslar salohiyatidan maqsadli va maqbul foydalanishga erishish orqali davlatimizning iqtisodiy qudrati va aholisi yashash farovonligini yaxshilashdir.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan davlat agrar siyosati birinchidan navbatda mamlakatda mustahkam oziq – ovqat bazasini, yer va suvdan oqilona foydalanish shart-sharoitlarini yaratish, mulkchilikda davlat monopoliyasini keskin cheklash va xususiy mulk egaligi hamda mulkchilikning boshqa shakllariga keng yo'l ochish, turli mulkchilik shaklidagi qishloq xo'jaligi korxonalariga teng rivojlaniishiga erishish va ularni har tomonlama qo'llab – quvvatlash masalalariga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi agrar siyosatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholini, sanoatni qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlash;
- Qishloq aholisining turmush darajasini oshirish;
- Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini oshirish evaziga chet el valyutalari tushumini ko'paytirish;
- Qishloq xo'jaligiga tushayotgan tushumlarni boshqa tarmoqlar o'rtasida taqsimlashni mo'tadillashtirish;
- Qishloq xo'jaligida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish;
- Qishloq xo'jaligida raqobat muhitini kuchaytirish;
- Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish va takomillashtirish;
- Qishloq xo'jaligida bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirish;
- Qishloq xo'jaligida tadbirkorlar sinfini shakllantirish va rivojlantirish;
- Qishloq xo'jaligida mehnat unumdarligi oshirish va tarmoqning iqtisodiy samaradorligini ko'tarish.

O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligini isloh qilish juda murakkab sharoitlarda amalga oshirilmoqda. Bu sharoitlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- moliyaviy mablag'larning talab darajasidan kam bo'lishi, yetishmasligi;
- qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasining eskirib qolganligi;
- qishloqda mehnat motivatsiyasining, manfaatdorligining nisbatan pastligi;
- qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlariga shakllanayotgan narxlar paritetining qishloq xo'jaligi uchun qulay holda rivojlanmaganligi;
- qishloq xo'jaligida bozor infratuzilmasining yetarli darajada yaxshi rivojlanmaganligi;
- qishloq aholisining xarid qilish qobiliyatining nisbatan pastligi;
- qishloq xo'jaligiga nisbatan arzon va sifatlari mashina va texnikalarni olib kelish imkoniyatlarining cheklanganligi;
- qishloq xo'jaligi uchun kimyoziy vositalar, ma'danli o'g'itlar, yoqilg'i moylash materiallarini yetkazib berish (ayrimlarini ishlab chiqarishning) kamayishi;
- mustaqillikning dastlabki yillarida inflyatsiya darajasining nisbatan yuqori bo'lishi;
- yer va suv resurslarining sifatining pasayishi.

Shu kabi qiyinchiliklarga qaramasdan mamlakat Prezidenti va hukumati tomonidan iqtisodiy islohotlar puxta o'ylangan holda olib borildi va u o'zining ijobiy samarasini bera boshladi.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab – quvvatlash borasida quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda:

- qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatining me'yoriy – huquqiy negizini takomillashtirish;
- qonunda ko'rsatilgan huquqlari buzilishiga yo'l qo'ymaslik;
- ularning ichki faoliyatiga aralashuvning har qanday ko'rinishiga yo'l qo'ymaslik;

-qishloq xo'jaligida maqbul baho siyosatini yuritish, doimiy ravishda qishloq xo'jaligi va sanoat tovarlar orasidagi baholar paritetini saqlab borish;

-daromadlar pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslik;

-ilg'or texnologiya va texnikalar bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish;

fuqoralar tadbirkorlik faoliyati bilan erkin shug'ullanishlari va undan manfaatdorligining kafolatlari va sharoitlarini ta'minlash, ularning ishbilarmonlik faolligini oshirish hamda qonuniy huquqlari va manfaatlarini muhofaza qilish;

-moliya – kredit tizimini takomillashtirish hamda korxonalarning kredit manbalari va sarmoyalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;

-ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalarni kengaytirish va rivojlantirish;

-ulgurji va mayda ulgurji savdoni rivojlantirish, korxonalarning xomashyo, axborotlar va texnologiyalardan erkin va o'rta biznes korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarda sotish tizimini takomillashtirish;

-qishloq xo'jaligi hisobi va tahlili tizimini takomillashtirish, ular uchun davlat statistika, buxgalteriya va soliq hisobotining soddalashtirilgan tartibini joriy etish;

-kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini rivojlantirish;

- pul – kredit tiziminining barqaror faoliyatini ta'minlash uchun sug'urta tizimi ahamiyatini oshirish;

-yerga mulkchilik, yer va suvdan saimarali foydalanish mexanizmini shakllantirish.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligini tartibga solish, muvofiqlashtirish va qo'llab – quvvatlash ishlari bilan tegishli davlat boshqaruvi organlari, Qishloq va suv xo'jaligi Vazirligi, Fermerlar Kengashi hamda boshqa tuzilmalar shug'ullanadilar. Dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab – quvvatlash jamg'armasi, Bandlikka ko'maklashish jamg'armasi, tijorat

banklari, "Madad", "Birjasavdosug'urta", "Agrosug'urta" sug'urta agentliklari va boshqa institutsional tuzilmalar korxonalarga biznes-reja tuzish, imtiyozli kreditlar olish va ularni amalga oshirishga ko'maklashadilar. Bunda tijorat banklari, turli jamg'armalar imtiyozli kredit ajratish bilan yordam bersa, sug'urta agentliklari kredit xatari va boshqa favqulodda holatlardan sug'urtalaydi.

Qishloq xo'jaligida islohatlarning huquqiy – me'yoriy bazasini yaratish karxonalarning iqtisodiy erkinligini taminlash hamda ularning qonuniy biznes bilan shug'ullanishlariga imkon beruvchi huquqlari va imtiyozlarini kafolatlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi karxonalari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va muvofiqlashtirish borasida mustahkam huquqiy-me'yoriy asos yaratilgan. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Fuqoralik Kodeksi", "Yer kodeksi", "Soliq Kodeksi", "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi, "Shirkat xo'jaligi to'g'risida"gi, "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi (yangi tahrirda), "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda boshqa me'yoriy hujjatlar respublikamizda qishloq ho'jaligi karxonalari faoliyatining turli jihatlarini tartibga solib turadi va ularning xo'jalik faoliyatiga davlat organlari va tashkilotlarning hamda boshqa organlar va tashkilotlarning, ular mansabdar shaxslarning aralashuviga yo'l qo'yilmaydi. Davlat tadbirkorlarning erkinligi, huquqlarini himoya qiladi va ularning faoliyatiga asossiz aralashuvlarni cheklab turadi.

Respublikamizda fermer xo'jaliklarini huquqiy jixatdan himoya qilish bilan bir qatorda ularni iqtisodiy dastaklar orqali har tomonlama rag'batlantirish choralarini ham amalga oshirilmoqda. Davlatning iqtisodiy rag'batlantirish choralarini quydagi mexanizmlardan tashkil topadi :

- moliya – kredit tizimi orqali qo'llab- quvvatlash;
- tabaqalangan va imtiyozli soliq tizimidan foydalanish;
- baholar paritetini saqlash;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish va boshqalar.

Davlatning fermer xo'jaliklari faoliyatini iqtisodiy dastaklar orqali qo'llab – quvvatlash choralarini fermer xo'jaliklarining rivojlanishiga qulay shart – sharoitlar yaratish maqsadida davlat tomonidan beriladigan iqtisodiy rag'batlantirish choralaridan tashkil topadi. Bunday choratadbirlar sarafiga soliqlar to'lashda yengilliklar berish, imtiyozli shartlar va foizlarda kreditlar berish, davlat buyurtmasi bo'yicha xarid qilinadigan mahsulotlarga kafillangan baholar belgilash, eksport-import operatsiyalarida qulay tariflar va to'lovlar o'rnatish kabi iqtisodiy dastaklar kiradi.

Davlatning fermer xo'jaliklari rivojlanishiga ko'maklashuvchi institutsional va infratuzilmalarni qo'llab-quvvatlashi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu vazifani amalga oshirish fermer xo'jaliklariga moddiy – texnik resurslarini etkazib beruvchi, mahsulotlarni saqlash, tashish, qayta ishlash va sotishga ko'maklashuvchi xizmat ko'rsatuvchi korxonalar tarmog'ini yaratish, bank, moliya va qimmatli qog'ozlar bozori, fond birjalari va yarmarkalar, axborot-maslahat markazlari hamda fermerlar manfaatlarini himoya qiluvchi uyushimalar, fondlarni tashkil etish va ularni rivojlantirish uchun qulay sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Davlat bu yo'l bilan fermerlikni rivojini bilvosita qo'llab-quvvatlaydi.

18.4. Qishloq xo'jaligida tarkibiy o'zgarishlar va rivojlanish tendensiyalari

O'zbekistonda aholini eng muhim qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlashni yaxshilash asosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun sa'yi harakatlar O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan mustaqillikka erishishdan oldin boshlandi. Mamlakatimizda qishloq xo'jaligida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish orqali aholini eng muhim oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashni yaxshilash, aholi turmush darajasining keskin pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun 1989 yil 17 avgustda "Qishloqda yashovchi har bir oilani tomorqa bilan ta'minlash , ularga yakka tartibda

uy-joy qurish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berish haqida” qaror qabul qilinadi. Qishloqda yashovchi har bir kishiga o’rtacha 25 sotixdan yer ajratib berish va tomorqa maydonlarini qariyb 4,5 barobar ko’paytirish ko’zda tutilgan edi. Ushbu qarorning ijro etilishi natijasida 1989-1990 yillarda 1,5 mln.dan ko’proq oilaga qo’shimcha yer ajratildi. 700 ming oilaga yangi tomorqa yerlari berildi. Shu bilan birga paxta yetishtirish plani 700 ming tonnaga kamaytirildi. Bu paxta yakkaxokimligini bartaraf etish yo’lidagi dastlabki, ammo o’ta muhim amaliy qadam edi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab, agrar islohotlarni amalga oshirish jarayonlarida qishloq xo’jaligi ekinlari strukturasini qayta ko’rib chiqish va takomillashtirish kerak bo’ldi. Mamlakatimizda don mustaqilligini qo’lga kiritishga qaratilgan Dasturning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi katta ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahamiyat kasb etdi. “**Don mustaqilligi Dasturi**” ning qabul qilinishi natijasida:

- siyosiy jihatdan mamlakatimizning don sotib olish uchun boshqa mamlakatga iqtisodiy qaram bo’lishiga yo’l qo’yilmadi, aholining don mahsulotlari bilan ta’minoti masalasi hal bo’ldi, davlat tomonidan un va un mahsulotlarining narxi oshib ketishining oldi olindi;

- ijtimoiy jihatdan biz boshqa mamlakatlarning emas, balki o’zimizning dehqonlar ish joylari bilan ta’minlandi. Chorvachilikni rivojlantirish va g’alladan bo’shagan yerdarda takroriy ekin ekib, qo’shimcha daromad qilish imkoniyati paydo bo’ldi, xalqning ertangi kunga ishonchi ta’minlandi;

- iqtisodiy jihatdan mamlakat valyuta zaxirasini saqlab qolish va bu valyutani boshqa zarur sohalarga ishlatish imkoniyati yaratildi, donni qayta ishlash sohasini rivojlantirishga real talab paydo bo’ldi.

Mustaqillik yillarida qishloq xo’jaligi sug’oriladigan yerdardan aholi va davlat ehtiyojlarini oqilona va yanada to’laroq qondirish maqsadida uladan foydalanish tarkibini o’zgartirish ishlari amalga oshirildi. Buning natijasida paxta ekin maydonlari qisqartirilib, g’alla,

kartoshka, poliz, sabzavot ekin maydonlari, tokzorlar va bog‘larning maydonlari ancha kengaytirildi (qarang: 18.4.1-jadval).

18.4.1-jadval

O‘zbekistonda asosiy qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ekin maydonlarining o‘zgarish dinamikasi (1990-2019 yy., ming ga)¹⁹⁰

| | 1991 y. | 1995 y. | 2000 y. | 2010 y. | 2020 y. | 2020 y. 1991 y.-ga nisbatan, %da |
|----------------|---------|---------|---------|---------|---------|---|
| Paxta | 1666,7 | 1492,8 | 1444,5 | 1342,5 | 1108,2 | 66,5 |
| G’alla | 627,0 | 1164,3 | 1355,8 | 1466,3 | 1643,2 | 2,6 m |
| Sabzavotlar | 179,5 | 149,6 | 130,0 | 173,0 | 219,0 | 122 |
| Kartoshka | 42,9 | 45,9 | 52,1 | 70,7 | 86,8 | 2 m |
| Oziqbop poliz | 73,8 | 42,7 | 37,0 | 47,9 | 52,6 | 71,3 |
| Ozuqa ekinlari | 1004,6 | 731,6 | 429,0 | 320,4 | 242,7 | - 4,1 m |

Paxta monopoliyasiga barham berish va respublika oziq-ovqat mustaqilligini ta’minlash siyosatini amalga oshirish maqsadida ekin maydonlarining strukturasi o‘zgardi. Respublikamizda jami qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari hajmida paxta ekin maydonlarining ulushi 1990 yildagi 53,3% dan 2019 yilda 33,5% ga kamaygani holda, don mahsulotlari ekin maydonlarining ulushi tahlil davrida 24% dan 49,6% ga, kartoshka maydonlari ulushi 0,9% dan 2,6% ga, sabzavot ekinlari ulushi 3,2% dan 6,6% ga o’sdi. Qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari tarkibining o‘zgarishi qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning mustaqillik yillarda keskin o’sishini ta’minlab, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash uchun shart-sharoit yaratdi.

1991-2020 yillar mobaynida qishloq xo‘jaligining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 48,2% dan 28,2% ga, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida band bo‘lganlarning milliy iqtisodiyotda band bo‘lgan aholining umumiyl sonidagi ulushi esa 41,7% dan 27,1% ga qisqardi.

Mamlakatimizda amalga oshirilgan islohotlar natijasida qishloq xo‘jaligida davlat sektorining ulushi bugungi kunga kelib atiga 1%ni

¹⁹⁰ O‘zdavstat qo‘mita ma’tumotlari.

tashkil etmoqda. Yangi xo'jalik yuritish shakli bo'lgan fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi 1991 yildagi 0,1% dan 2021 yilda 29,2% ga o'sdi. Shu davrda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmidagi ulushi 69,7% dan 4,9% gacha kamaydi (qarang:18.4.2-jadval).

18.4.2-jadval.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning xo'jalik turlari bo'yicha tarkibining o'zgarishi (jamiga nisbatan % da)¹⁹¹

| | 1991y. | 1995y. | 2000y. | 2010y. | 2017y. | 2021y. |
|--|--------|--------|--------|--------|--------|--------|
| Barcha xo'jalik turlari | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 |
| Fermer xo'jaliklari | 0,1 | 2,7 | 5,5 | 33,9 | 34,7 | 29,2 |
| Dexxon(shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 30,2 | 49,3 | 66,7 | 62,4 | 63,6 | 65,9 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 69,7 | 48,1 | 27,8 | 2,0 | 1,7 | 4,9 |

Dehqonchilik mahsulotlari yetishtirishda fermer xo'jaliklarining ulushi tahlil davrida 0% dan 52,6% ga, dexxon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining ulushlari esa 16,2% dan 41,1% ga o'sdi. Shu davrda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning ulushi mos ravishda 83,8%dan 6,3% ga kamaydi. Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida chorva mollari sonining jiddiy tarzda o'sishi tufayli ularning chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi 61,3%dan 90,7% ga o'sdi. Fermer xo'jaliklarining bu sohadagi ulushi 0,3% dan 5,7%ga oshdi.

Respublikamizda fermer va dehqon xo'jaliklarini rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash siyosati olib borilmoqda. Ta'kidlash joizki, hosildorligi hamda yerning sifati, ball boniteti jihatidan nisbatan past bo'lgan yerlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq

¹⁹¹ Аълмания Узбекистана 2013 год. -Т.,2013 -С.103; Ўзбекистон кишиюк хўжалиги 2016 йил. Стат.тўплами - Т., 2016-19-бет; Социально-экономическое положение Республики узбекистан за 2017год.-Т.: Госкомстат РУз, 2018 -С.50, Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иктисодий ҳолати.2020 йили январь-декабрь.-Т., 2021 -99-бет; 2021yil-97-bet ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi fermer xo'jaliklariga davlat budgetidan subsidiyalar beriladi.

Qishloq xo'jaligini isloh va diversifikatsiya qilish natijasida mustaqillik yillarda texnik ekinlar maydonlari qisqarib, qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlari ekin maydonlari kengaytirildi. Oqibatda 2021 yilda 1991 yilga nisbatan paxta xom ashyosi ishlab chiqarish 37,6% ga kamaydi, don mahsulotlari 3,9 barobarga, kartoshka yetishtirish 9,2 barobarga, sabzavot 3,2 barobarga, poliz ekinlari 2,4 barobarga o'sdi (qarang:18.4.3-jadval).

18.4.3-jadval

O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi (ming tonna)¹⁹²

| Mahsulot turlari | 1991y. | 2000y. | 2010y. | 2017y. | 2021y. | 2021 yilda 1991yil ga % |
|--------------------|--------|--------|--------|---------|---------|-------------------------|
| Don mahsulotlari | 1908 | 3915 | 7391,0 | 8116,5 | 7 540,9 | 395,2 |
| Meva va rezavorlar | 516,6 | 801,0 | 1710,3 | 3076,3 | 2 852,5 | 552,1 |
| Uzum | 480,5 | 573,0 | 997,5 | 1748,9 | 1 695,1 | 352,8 |
| Sabzavot | 3324,1 | 2643,1 | 6346,4 | 11433,6 | 10859,3 | 326,7 |
| Kartoshka | 355,7 | 730,7 | 1692,9 | 3014,6 | 3 292,3 | 925,6 |
| Poliz ekinlari | 925,8 | 359,1 | 1182,4 | 2094,8 | 2 281,1 | 246,4 |

Tarkibiy o'zgartirishlar natijasida paxta xomashyosining qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi ulushi tahlid davrida 47,7%dan 11%ga kamaydi. Boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari o'sishi asosan hosildorlik va mahsuldorlikning o'sishi hisobiga oshdi.

Qishloq xo'jaligida sug'oriladigan ekin maydonlari kamayishiga qaramasdan, mahsulot ishlab chiqarish hajmi va hosildorlik o'sib borish tendensiyasi yuz bermoqda. Bu hol qishloq xo'jaligida fermer xo'jaliklarining tobora ko'payib, mavqeining oshib borayotganligi,

¹⁹² Узбекистон Республикаси йииллик статистик туплами -Т.2013.227-бет. Узбекистон ўзудудларининг йииллик статистик туплами -Т.2014. 87-88-бетлар. ПОКАЗАТЕЛИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА. Статистический анализ основных показателей отрасли сельского хозяйства республики в 2000-2016 годах//statuz; Социально-экономическое положение Республики Узбекистан за 2017 год -Т, Госкомстат РУ. 2018.- С.51; Узбекистон Республикасининг пяктийоний-пятисийдик холати. 2020 йил январь-декабрь -Т., 2021.-102-бет 2021 yil-101-bet ni'lumotlari asosida tuzildi.

shuningdek, ularda yerga xo'jayinlik hissining shakllanib, rivojlanib borayotganligi bilan izohlanadi. Mamlakatiimizda bug'doydan gektaridan o'rtacha 48,2 sentner hosil olingan, ayrim tumanlarda bu ko'rsatkich 60-77 sentnerni tashkil etgan.

Mustaqillik yillarda chorvachilikni jadal rivojlantirish hisobiga yirik shoxli qoramollar boshi 2,6 martadan ziyodga, sigirlar 2,2 martadan ziyodga, qo'y va echkilar soni 2,2 martaga, parrandalar soni esa 2,5 martadan ortiqqa ko'paydi (qarang:18.4.4-jadvalga).

18.4.4-jadval .

O'zbekistonda chorva mollari sonining o'sishi dinamikasi (yil boshida, ming bosh)¹⁹³

| Chorva mollari turlari | 1991y. | 2000y. | 2010y. | 2022y. | 2022yilda 1991yilga % da |
|---------------------------|---------|---------|---------|----------|--------------------------------|
| Yirik shoxli qoramol | 5112,6 | 5353,4 | 9094,7 | 13 555,8 | 265,1 |
| Shu jumladan sigirlar | 2120,2 | 2343,4 | 3758,1 | 4 866,1 | 229,5 |
| Qo'y va echkilar | 10109,5 | 8932,5 | 15340,9 | 23 074,3 | 228,2 |
| Parranda | 35200,4 | 14510,0 | 37733,3 | 89 734,4 | 254,9 |

Chorva mollari sonining o'sishi natijasida chorvachilik mahsulotlarining qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi ulushi 1990 yilda 36,6%dan 2020 yilda 41% ga oshdi. Ammo 2017 yilda bu ko'rsatkich pasayish tendensiyasiga ega bo'lib, 31,0%ni tashkil etdi. Chorvachilik mahsulotlari hajmining o'sishi asosan dehqon va shaxsiy tomorqa xo'jaliklarida chorva mollari sonining jadal o'siganligi bilan izohlanadi. 2017 yilda 1990 yilga nisbatan mo'sht ishlab chiqarish hajmi 2,9 barobarga, sut 3,3 barobarga,tuxum 5,3barobarga ko'paydi (qarang:18.4.5-jadval).

¹⁹³ Аълияниҳа Узбекистана 2013год. Т., 2013. -С.114; Ўзбекистон Республикаси йиллик статистик тўплами.-Т.,2013-238-бет, Ўзбекистон худудиарининг йиллик статистик тўплами.- Т.,2014-92-93-бетлар, Ўзбекистон кишиюк хўжалиги 2016 йил. -Т., 2016-Б.35; Социально-экономическое положение Республики Узбекистан за 2017 год. - Т., Госкомстат РУ, 2018 - С.57; Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати. 2020 йил январь-декабрь -Т., 2021.-124-бет; 2021 yil-118-bet ma'lumotlari asosida tuzildi ..

18.4.5-jadval

Asosiy chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi (ming tonna)¹⁹⁴

| | 1990y. | 2000y. | 2010y. | 2017y | 2020y. | 2021y. |
|-----------------------|--------|--------|--------|---------|---------|---------|
| go'sht (tirik vaznda) | 789,1 | 841,8 | 1461,4 | 2281,1 | 2526,2 | 2 640,4 |
| Sut | 3034,2 | 3632,5 | 6169,0 | 10083,2 | 11009,9 | 11286,9 |
| tuxum, mln. dona | 1231,8 | 1254,4 | 3061,2 | 6605,5 | 7825,0 | 8 053,1 |

Qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining keskin oshishi tufayli ularning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdori ham o'sib bordi. 2020 yilda 1991 yilga nisbatan aholi jon boshiga don malisulotlari, uzum va sut ishlab chiqarish 2 barobardan ziyodga, sabzavotlar 1,8 martaga, meva va rezavorlar – 3,1, tuxum 3,7 barobarga, kartoshka yetishtirish 4,8 martaga yaqin, go'sht (tirik vaznda) 1,9 martaga, 2000 yilga nisbatan esa 2,1 martaga o'sdi (qarang: 18.4.6-jadval).

18.4.6-jadval

Qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining aholi jon boshiga ishlab chiqarish hajmining o'sishi dinamikasi (kg)¹⁹⁵.

| | Yillar | | | | 2020 y. 1991 y. nisbatan, %da | 2020 y. 2000 y. nisbatan, %da |
|--------------------|--------|-------|-------|-------|--|--|
| | 1991 | 2000 | 2015 | 2020 | | |
| Don | 92,5 | 159,0 | 259,0 | 191,7 | 207,2 | 120,5 |
| Kartoshka | 17,3 | 30,0 | 93,0 | 82,7 | 478,0 | 275,7 |
| Sabzavotlar | 161,3 | 107,0 | 354,0 | 289,7 | 179,6 | 270,7 |
| Poliz oziqabop | 44,9 | 18,0 | 64,0 | 57,3 | 127,6 | 318,0 |
| Meva va rezavorlar | 25,0 | 32,0 | 96,0 | 77,8 | 311,0 | 243,1 |
| Uzum | 23,3 | 25,0 | 55,0 | 47,0 | 201,7 | 188,0 |

¹⁹⁴ Основные тенденции и показатели экономического и социального развития Республики Узбекистан за годы независимости (1990–2010гг.) и прогноз на 2011–2015гг.: Стат.б.-Т. «Узбекистан». 2011. –С.46; Узбекистон кишлоқ хўжаланин. Стат. тўплам 2016 йил. – Т. 2016-Б.37; Социально-экономическое положение Республики Узбекистан за 2017 год. - Т., Госкомстат РУ, 2018. - С.54-55; 2021 yil-109-bej ta'lumotlari asosida tuzildi.

¹⁹⁵ Альманах Узбекистана 2013год. Т., 2013. – С.114; Узбекистон ҳудударининг виллийк статистик тўплами. –Г.2014. – 92-93-бетлар; Узбекистон кишлоқ хўжалиги 2017 йил. – Т., 2018-36-бет; Социально-экономическое положение Республики Узбекистан за 2017 год.-Т. 2018. – С.51. Узбекистон Республикасининг иктиномӣ-иқтисодий ҳолати. Статистик тўплам. 2018 йил январь-декабр. – Т., ДСК, 2019. – 93-бет; O'zbekiston Respublikasining demografik holatlari. //stat.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

| | | | | | | |
|----------------------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|
| Go'sht(tirik vaznda) | 38,3 | 34,0 | 68,0 | 72,7 | 189,8 | 213,8 |
| Sut | 147,2 | 147,0 | 305,0 | 315,2 | 214,1 | 214,4 |
| Tuxum (dona) | 59,8 | 51,0 | 193,0 | 221,3 | 370,0 | 433,9 |

Mamlakatimiz hududlari kesimida aholi jon boshiga 2020 yilda don ekinlari ishlab chiqarish bo'yicha Sirdaryo, Jizzax, Farg'ona va Buxoro viloyatlari, kartoshka yetishtirish bo'yicha Samarqand, Farg'ona viloyatlari, sabzavotlar bo'yicha Andijon, Farg'ona, Samarqand, Buxoro, Surxondaryo va Sirdaryo, poliz oziqbop mahsulotlari Sirdaryo va Jizzax, meva va rezavorlar bo'yicha Andijon, Farg'ona va Buxoro, uzum bo'yicha Samarqand va Buxoro, go'sht (tirik vaznda) yetishtirish bo'yicha Navoiy, Jizzax va Buxoro, sut bo'yicha Farg'ona, Buxoro, Navoiy, Jizzax va Sirdaryo , tuxum yetishtirish bo'yicha esa Samarqand, Navoiy, Farg'ona, Buxoro viloyatlari yetakchi hisoblanadi.

18.5. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish

O'zbekistonning sug'oriladigan mintaqalarida qishloq xo'jalik oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish hajmining yil sayin oshirib borishi, birinchi navbatda, u yerda mavjud bo'lgan yer-suv resurslaridan oqilona foydalanishga uzviy bog'liqdir. Qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish qator omillar majmuasi bilan aniqlanadi, qaysiki, bular ichida tuproq unumdorligini oshirish va ekinlar strukturasini yaxshilash hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biriga aylangan. Bu boradagi strategik vazifalardan biri paxta maydonlarini bosqichma-bosqich qisqartirib borish evaziga uning o'rniда oziq-ovqat ekinlari maydonlarini kengaytirib borishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da Qishloq xo'jaligini

modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish bo'yicha quyidagi vazifalar belgilangan:

-tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish;

-paxta va boshoqli don ekiladigan maydonlarni qisqartirish, bo'shagan yerlarga qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini joylashtirish hisobiga ekin maydonlarini yanada optimallashtirish;

-fermer xo'jaliklar, eng avvalo, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rag'batlantirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

-qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, yangi qayta ishlash korxonalarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga qaratilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirish;

-qishloq xo'jaligiga xizmatlar ko'rsatish infratuzilmasini tarmoqlarini yanada kengaytirish;

- sug'oriladigan yersharning meliorativ holatini yanada yaxshilash, suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, unumдорлиги yuqori bo'lgan qishloq xo'jaligi texnikasidan foydalanish;

- yuqori mahsuldarlikka ega, kasallik va zararkunandalarga chidamli, qishloq xo'jaligi ekinlarining yangi seleksiya navlarini hamda hayvonot turlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish;

-global iqlim o'zgarishlari va Orol dengizi halokatining qishloq xo'jaligi rivojlanishi hamda aholining hayot faoliyatiga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar ko'rish¹⁹⁶.

Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish amda qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5853-

¹⁹⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagidagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. 1-ilova.

son Farmonida mazkur Strategiyaning asosiy maqsadi qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tarmog'ining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan islohotlarni yanada chuqurlashtirishda davlat siyosatini tubdan takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, quyidagi ustuvor yo'nalishlarni qamrab olishi belgilandi:

aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash;

kulay agrobiznes muhitini va qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish;

soha boshqaruvida davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish;

tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash;

davlat boshqaruvining zamонавиy тизимларини rivojlantirish;

tarmoqni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan davlat xarajatlarini bosqichma-bosqich diversifikasiya qilish;

qishloq xo'jaligida ilm-fan, ta'lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish;

qishloq hududlarini rivojlantirish;

tarmoq statistikasining shaffof tizimini ishlab chiqish¹⁹⁷.

Strategiyada boshoqli donning o'rtacha hosildorligini 2018 yildagi 43 s/ga dan 2030 yilga borib 75 s/ga, Sigirlarning o'rtacha sut mahsuldarligini 2 320 kg/ boshdan 3 500 kg/ boshga, Qishloq xo'jaligi korxonalarini va birlashmalari sherikligida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning eksportdag'i ulushini 2 % dan 30 %ga oshirish maqsad qilib qo'yilgan (qarang: 18.5.1-jadval).

¹⁹⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5853-son Farmoni. 1-ijova. // <https://lex.uz/docs/4567334>

18.5.1-jadval

**O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning
2020 — 2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini amalga oshirish
natijasida ustuvor yo‘nalishlar kesimida erishiladigan
ASOSIY KO‘RSATKICHLAR VA INDIKATORLAR¹⁹⁸**

| T/ r | Ko‘rsatkichlar nomi | Asos (2018 y.) | 2021 yilga maqsad | 2025 yilga maqsad | 2030 yilga maqsad |
|--|---|---|---|--|--|
| I. Aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash | | | | | |
| 1. 1 | Boshogli donning o‘rtacha hosildorligini oshirish | 43 s/ga | 60 s/ga | 70 s/ga | 75 s/ga |
| 1. 2 | Sigirlarning o‘rtacha sut mahsulorligini oshirish | 2 320 kg/bosh | 2 700 kg/bosh | 3 100 kg/bosh | 3 500 kg/bosh |
| 1. 3 | Umumiy ekin maydonlari tarkibida ozuqa ekinlari maydonlari ulushi | 7 % | 10 % | 12 % | 15 % |
| II. Qulay agrobiznes muhitini va qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish | | | | | |
| 2. 1 | Qishloq xo‘jaligi korxonalarini va birlashmalari sherikligida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning eksportdagi ulushi | 2 % | 15 % | 23 % | 30 % |
| 2. 2 | O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsuloti brendini joriy etish va targ‘ib qilish | Kam sonli mahsulotlar ni qamrab olgan brend | 5 ta qo‘shimcha mahsulot qamrab olinadi | 20 ta qo‘shimcha mahsulot qamrab olinadi | 40 ta qo‘shimcha mahsulot qamrab olinadi |
| 2. 3 | Jahon banking global logistika samaradorligi indeksi bo‘yicha O‘zbekiston o‘mini yaxshilash (Logistics Performance Index) | 99-o‘rin | 96-o‘rin (3 punktga ko‘tarish) | 89-o‘rin (10 punktga ko‘tarish) | 79-o‘rin (20 punktga ko‘tarish) |
| 2. 4 | Umumiy eksport hajmida qayta ishlangan mahsulotlar ulushining o‘sishi | 25 % | 30 % | 35 % | 40 % |

¹⁹⁸ O‘sha furmamonning 2-ilovasi/ <https://lex.uz/docs/4567334>

| | | | | | |
|---------|--|-----|------|------|------|
| | Oziq-ovqat va yengil sanoatdagi ishchilarning ulushi (qishloq xo‘jaligidagi ishchilarning umumiy soniga nisbatan foizda) | 6 % | 10 % | 15 % | 20 % |
| 2. 5 | | | | | |

Shuningdek, strategiyani amalga oshirilishi natijasida qishloq xo‘jaligida o‘rtacha mehnat unumidorligi 1,7 barobar oshadi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bo‘yicha qo‘srimcha 3,4 mln tonna quvvat yaratiladi hamda mahsulotlarni qayta ishlash ko‘rsatkichi 30 foizga yetkaziladi (2030 yilga qadar eksport hajmi 20 mlrd AQSh dollariga yetkaziladi).

Strategiyada agrar bozorming ehtiyojlarini qondira oladigan tizimlar, xizmatlar va muvofiqlashtirish mexanizmlarini yaratish orqali mavjud institutsional tuzilmani qayta ko‘rib chiqish maqsadiga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

qishloq xo‘jaligi vazirligini funksional baholash (Management Functional Assessment Model — MFAM) va uning natijalari bo‘yicha yangi vakolat va faoliyat yo‘nalishlarini belgilash maqsadida vazirlikning tuzilmasi va bo‘linmalari faoliyatini qayta ko‘rib chiqish;

Strategiyani amalga oshirishga mas’ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sohasida davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish;

tarmoq vazirlik va idoralar faoliyatining samaradorligini baholash orqali rag‘batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish hamda boshqaruva xodimlarning strategik va loyiha boshqaruvidagi salohiyatini oshirish;

tarmoqda qo‘srimcha xizmatlarni ko‘rsatish maqsadida davlat-xususiy sheriklik modelini rivojlantirish;

sohaning manfaatdor tomonlari (davlat, xususiy va jamoat tashkilotlaridan iborat) forumini tashkil etish;

qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sohasini rivojlantirish bo‘yicha Hukumat va hamkorlar (sohani qo‘llab-quvvatlashga jaib etilgan barcha donorlar va xalqaro moliya institutlari) forumini tashkil etish.

Mamlakatimizda agrar siyosatning yangi ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq asosiy davlat xizmatlarini ko‘rsatish va tarkibiy o‘zgarishlar dasturlarini amalga oshirishga yo‘naltiriladigan qishloq xo‘jaligiga ajratilayotgan davlat moliyaviy resurslarini bosqichma-bosqich qayta taqsimlash orqali mablag‘lardan foydalanish samaradorligini oshirishga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

qishloq xo‘jaligini moliyalashtirish uchun xarajatlar taqsimotini qayta ko‘rib chiqib, ilmiy-tadqiqot va tajriba konstrukturlik ishlari va qishloq xo‘jaligi bilimlarini tarqatish tizimi, axborot va maslahat xizmatlari uchun ajratiladigan mablag‘lar hajmini oshirish;

qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘i bilan bog‘liq bo‘lgan barcha budjetdan tashqari jamg‘armalar faoliyatini to‘liq auditdan o‘tkazish va ko‘rsatilayotgan xizmatlarni xususiy sektorga berish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

o‘rtalik muddatli budjet dasturlarini samarali amalga oshirish maqsadida xalqaro texnik ko‘mak mablag‘laridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha dasturlarni joriy etish;

qishloq xo‘jaligi sohasida soliqqa tortish tizimini chuqur tahlil qilish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarga soliq yukini kamaytirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish¹⁹⁹.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yer munosabatlari tenglik va shaffoflikni ta’minalash, yerga bo‘lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021 yil 8 iyundagi Farmoniga muvofiq shunday tartib joriy etish belgilandiki, unga muvofiq 2021 yil 1 avgustdan boshlab:

yer uchastkalari xususiy sektorga – mulk va ijara huquqi asosida, davlat organlari, muassasalari, korxonalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga (keyingi o‘rnarda – davlat tashkilotlari) – doimiy foydalanish huquqi asosida ajratiladi;

¹⁹⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5853-son Farmoni. l-ilo va <https://lex.uz/docs/4567334>.

meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik, doimiy egalik, vaqtincha foydalanish huquqi bilan yer ajratish tartibi bekor qilinadi, bunda ilgari ajratilgan yer uchastkalariga bo'lgan bunday huquqlar ularning egalarida amaldagi tartibda saqlanib qoladi;

ijaraga olingan yer uchastkasida qonunchilikda belgilangan tartibda qurilgan ko'chmas mulk obyektiga mulk huquqi boshqa shaxsga o'tgan taqdirda, ushbu obyektga mulk huquqi bilan birgalikda u joylashgan yer uchastkasiga bo'lgan ijara huquqi ham yangi mulkdorga o'tadi;

qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar barcha turdag'i qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari ishtirot eta oladigan, natijalari Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining qarori bilan tasdiqlanadigan ochiq elektron tanlov yakunlariga ko'ra, faqat ijara huquqi asosida ajratiladi;

qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar mulk huquqi va ijara huquqi asosida elektron onlayn-auksion orqali realizatsiya qilinadi;

davlat tashkilotlariga yer uchastkalari davlat va jamoat ehtiyojlari uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining qarori bilan doimiy foydalanish huquqi bilan ajratiladi;

barcha hollarda yer uchastkalari faqat bo'sh turgan va zaxiraga olingan yerdan ajratiladi, ayni bir hujjat bilan yoki bir vaqtning o'zida yer uchastkasini olib qo'yish, zaxiraga olish, boshqa shaxsga ajratish yer berish tartibini buzish hisoblanadi va qonunga muvofiq javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi;

davlat-xususiy sheriklik loyihalari va ijtimoiy foydali maqsadlarga erishishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishda yer uchastkalari davlat tashkilotiga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratiladi, ushbu yerlar davlat-xususiy yoki ijtimoiy sheriklik to'g'risidagi bitimning amal qilish muddatiga xususiy sherik, nodavlat notijorat tashkiloti va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga ijaraga berilishi mumkin;

ko‘p kvartirali uy joylashgan va unga tutash yer uchastkasi, agar ko‘p kvartirali uydagi joylarning mulkdorlariga boshqa huquq bilan tegishli bo‘lmasa, ularga umumiy foydalanish uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan doimiy foydalanish huquqi asosida ajratiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitobida yaqin kelajakda qishloq xo‘jaligi sohasidagi islohotlar samarasini oshirish va mazkur jabhani rivojlantirishning maqsadida quyidagi ustuvor vazifalari belgilab olindi:

oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta‘minlash va iste’mol ratsionini yaxshilash, talab etiladigan oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni nazarda tutuvchi oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatini yangi bosqichga ko‘tarish;

qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xarid qilish va sotishda bozor tamoyillarini joriy etish, sifat nazorati infratuzilmasini rivojlantirish, eksportni rag‘batlantirish, maqsadli xalqaro bozorlarda raqobatbardosh, yuqori qo‘shilgan qiymatli qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishni nazarda tutuvchi qulay agrobiznes muhitini va qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratishga alohida e’tibor berish;

qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ini modernizatsiyalash va diversifikatsiya qilish va barqaror o’sishini qo’llab-quvvatlash uchun xususiy investitsiya kapitali oqimini ko‘paytirish orqali sohada davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini keng joriy qilish;

mamlakat miqyosida yer va suv resurslari, o‘rmon fondidan oqilona foydalanishni nazarda tutuvchi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish;

qishloq xo‘jaligida davlat boshqaruvi tuzilmasini restrukturizatsiya qilish va rivojlantirishni nazarda tutuvchi boshqaruvning zamонавиј тизимларини rivojlantirish;

fermer xo‘jaliklarida mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratishga qaratilgan

tarmoq dasturlarini ishlab chiqish orqali davlat xarajatlari samaradorligini oshirish va bosqichma-bosqich qayta taqsimlashga erishish;

qishloq xo'jaligida ilmiy-tadqiqot, ta'lif va maslahat xizmatlarining ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan bilim va ma'lumotlarni tarqatishning samarali shakllarini qo'llashni nazarda tutuvchi ilm-fan, ta'lif, axborot va maslahat xizmatlari tizimini yanada rivojlantirish;

qishloq joylarni muvozanatli va barqaror taraqqiy ettirishga ko'maklashishni nazarda tutuvchi qishloq hududlarini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish;

tarmoq statistikasining shaffof tizimini takomillashtirish choralarini ko'rish²⁰⁰.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida 30-maqсад sifatida qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish belgilangan. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

- tumanlarni aniq mahsulot turini yetishtirishga ixtisoslashtirish;

- qishloq xo'jaligida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ko'lamini kengaytirish va sug'urtalashning yangi mexanizmlarini amalga oshirish;

- yangi va foydalanishdan chiqqan 464 ming hektar maydonni o'zlashtirish va klasterlarga ochiq tanlov asosida ajratish. 200 ming hektar paxta va g'alla maydonlarini qisqartirish hamda aholiga ochiq tanlov asosida uzoq muddati ijara berish;

- eksportbop mahsulotlar yetishtirish hamda meva-sabzavotchilikni rivojlantirish, intensiv bog'lar maydonini 3 baravar va issiqxonalarni 2 baravar ko'paytirib, eksport salohiyatini yana 1 milliard AQSh dollariga oshirish;

- tuproq unumdorligini oshirish va muhofaza qilish;

²⁰⁰ Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Г: "O'ZBEKISTON", 2021.-158-160-бетлар.

-ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan agroxizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish. Agrosanoat korxonalarini xomashyo bilan ta'minlash va ishlab chiqarish hajmini 1,5 baravar oshirish;

-agrologistika markazlarini rivojlantirish va zamonaviy laboratoriyalari sonini ko'paytirish. Urug'chilik va ko'chat yetishtirish bo'yicha milliy dasturni amalga oshirish;

-nufuzli xalqaro ilmiy markazlar va oliy ta'lim muassasalari bilan birgalikda Xalqaro qishloq xo'jaligi universitetini tashkil etish. Agrar sohada ilm-fan va amaliyot integratsiyasini chuqurlashtirish;

-aholi tomonidan tomorqalardan samarali foydalanimishi uchun sharoitlar yaratish.

Shuningdek, taraqqiyot strategiyasida 31-maqсад sifatida suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish va suvni iqtisod qilish bo'yicha alohida davlat dasturini amalga oshirish belgilangan. Buning uchun suv resurslaridan samarali foydalinish hisobiga kamida 7 milliard kub metr suvni iqtisod qilish, suv xo'jaligi ob'ektlarida elektr energiyasi iste'molini kamaytirish hamda suv xo'jaligi ob'ektlarini davlat-xususiy sheriklik taimoyillari asosida boshqarish chora-tadbirlari belgilangan²⁰¹.

Asosiy tushuncha va atamalar

Agrar, agrar siyosat, agrar islohotlar, agrar dotatsiya, lizing, sug'urta, soliq imtiyozi, avans, yer solig'i, mulk solig'i, fan-tehnika taraqqiyoti, cheklanganlik, narx, iqtisodiy dastaklar, bahoning funksiyalari, ishlab chiqarish xarajatlari, tannarx, xarajatlar kalkulyatsiyasi, asosiy mahsulot, qo'shimcha mahsulot, yondosh mahsulot, import, eksport, migratsiya, qishloq xo'jaligi, qayta ishslash sanoati, saqlash korxonalari, kimyo sanoati, moddiy rag'batlantirish, kasbiy malaka, hosildorlik, mahsuldarlik, natural ko'rsatkichlar.

²⁰¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022yil 28yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljalangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60sonli Farmoni. 1-ilova. // <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solib turish va qo'llab-quvvatlashning mohiyati.
2. Qishloq xo'jaligini davlat tamonidan tartibga solib turish va qo'llab-quvvatlashning zarurati nimada?
3. Davlatning iqtisodiy funksiyalari.
4. Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy dastag va instrumentlari.
5. Dotatsiya nima?
6. Subsidiya nima?
7. Qishloq xo'jaligini davlat tamonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash sohasidagi vazifalari nimalardan iborat?
8. Agrar siyosat nima?
9. O'zbekistonda agrar siyosatni takomillashtirish yo'llari nimalarga asoslanadi?
10. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasining maqsadi va amalga oshirish yo'nalişlarini tushuntirib bering.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yer munosabatlarda tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yerga bo'lgan huquqlarni ishchonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021 yil 8 iyundagi Farmonida belgilangan vazifalarni ayтиб bering.
12. Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobida qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha qanday vazifalar belgilangan?

19-BOB. O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINING DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLINISHI

19.1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mohiyati va nazariy asoslari

Tadbirkorlik va ishbilarmonlik Aristotelning “Ekonomika” asarida eng avvalo, dehqonchilik, hunarmandchilik, mayda savdoda band bo’lganlarning asosiy va sharaflı faoliyati, deb e’tirof etilgan. Amir Temur “Tuzuklar” risolasida “Azni qat’iy, tadbirkor, xushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz va loqayd kishidan afzaldir”. -deb ta’kidlagan. R.Kantilon bergen ta’rifiga ko’ra tadbirkor – bu doimiy daromadga ega bo’lмаган деҳқон, hunarmand, savdogar, kambag’al va boshqalar bo’lib, o’зgalar molini muayyan narxda sotib olib, ularni va o’зining molini ham muayyan bo’lмаган yuqoriq narxda sotishga intiladi. Uning asosiy iqtisodiy vazifasi turli tovarlar bozorlarida talabga mos taklifni kiritish hisoblanadi.

Yezef Shumpeter (1883-1950) tadbirkor uchun mulk egaligi maqomining shart ekanligini inkor qilib, uning kishilarning turli tabaqalariga xosligini asoslaydi. U o’зining “Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi” kitobida tadbirkorni novator, ya’ni yangilik yaratuvchi odam sifatida ta’riflagan. Uning fikricha, “tadbirkorning vazifasi yangi kashfiyotlarni amalga tadbiq qilish orqali ishlab chiqarish uslubini reforma qilish (yangilash)dan iborat. Keng ma’noda ko’rib chiqilganda tadbirkorning vazifasi – yangi ochilgan bozor yoki xom ashyo bazasi asosida yangi tovar ishlab chiqarish yoki eskirganinini modernizatsiya qilish uchun yangi texnologiyalar ishlashidan iborat. Tadbirkor quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- -iqtisodiy faoliyatni tashkil etishning yangi shakllarini joriy etish;
- -yangi sotish bozorlarini egallash va avvalgilaridan kengaytirilgan holda foydalanish;
- -mavjud sanoat tarmog’ida ilgari qo’llanilmagan yangi ishlab

chiqarish usullarini joriy etish;

- -ishlab chiqarishda xom ashyoning yangi turidan foydalanish;
- -yangi mahsulot ishlab chiqarish yoki avvalgisini sifat jihatdan takomillashtirish.

O'zbek olimlari A.O'lmasov va M.Sharifxo'jaevlar "biznes keng ma'nodagi qonuniy yo'l bilan daromad topishga qaratilgan faoliyatdir... Tadbirkorlik – kishilar (mulkchilik subyektlari)ning moddiy va pul mablag'larini (kapitalini) amalda xo'jalik oborotiga tushirib, daromad topishga mo'ljallangan iqtisodiy faoliyatdir. Tadbirkorlik umuman pul topish emas, balki yaratuvchilik faoliyati orqali daromad olishni bildiradi, deb ta'rif beradilar.

Biznes faoliyat turiga ko'ra tadbirkorlikdan tashqari iste'mol biznesi, kasb-korlik biznesi, ya'ni kasb, lavozim imkoniyatlaridan foydalanish asosida foyda va naf olish, boylikdan boylik undirish, tijorat-vositachilik biznesi va boshqa shakllarda ham namoyon bo'ladi. Biznes mulkchilik turlariga ko'ra davlat, xususiy va aralash hamda huquqiy-qonuniylik nuqtai nazardan oshkora, rasmiy, norasmiy, yashirin(xufyona) shakllarida yuz beradi.

Respublikamizda tadbirkorlikning quyidagi shakllariga ruxsat etilgan:

- -yakka tartibdagi faoliyat;
- -yollanma mehnatni jalb etish asosida amalga oshiriladigan tadbirkorlik;
- -bir guruh fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan jamoa tadbirkorligi yoki hamkorlikdagi tadbirkorlik.

Jahonning barcha mamlakatlarida kichik biznes korxonalari milliy iqtisodiyotning poydevori hisoblanadi. Yalpi ichki mahsulot (YalM) o'sish sur'atlari hal qiluvchi darajada aynan ularga bog'liq, aslida, aholining farovonlik darajasi ham uning qanchalik rivojlanganligi bilan belgilanadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish asosida mulkdorlar sinfini shakllantirish, tegishli institutlar tizimini tashkil etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati sohasiga

kredit resurslarini keng jalb qilish va xorijiy sarmoyalar olib kirish uchun maqbul sharoit yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 9 apreldagi «Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 30 avgustda PF-3305-sonli Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmonga asosan «o'rta korxonalar» tushunchasi bekor qilindi va 2014 yil 1 yanvardan boshlab quyidagilar kichik biznes subyektlari hisoblanadi:

- yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- ishlab chiqarish tarmoqlarida band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni 20 kishidan, xizmat ko'rsatish sohasi va boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'limgan tarmoqlarda 10 kishidan, ulgurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishidan oshmagan mikrofirmalar.

Quyidagi tarmoqlarda band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni:

- yengil va oziq-ovqat sanoti, metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochni qayta ishlash va mebel sanoati hamda qurilish materiallari sanoatida – 200 kishidan;
- mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash, qurilish va boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalarida – 50 kishidan;
- fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohalari (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlannish hamda boshqa noishlab chiqarish sohalarida – 25 kishidan oshmagan kichik korxonalar.

Bozor iqtisodiyotiga yo'naltirilgan ko'pgina mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik eksport bozorlari faoliyatida faol ishtirok etib, YalMning ko'payishiga ko'maklashib, aholi bandligini ta'minlab, iqtisodiyotning asosini tashkil qiladi. Rivojlangan mamlakatlarda band aholining katta qismi aynan kichik biznesda band bo'lib, ularning

mamlakat YalMni ishlab chiqarishdagi ulushi yuqoridir. Shu sababli rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka iqtisodiy o'sish va aholi turmush darajasining oshishini ta'minlovchi asosiy richaglardan biri sifatida qaralishi bejiz emas. Buni 19.1.1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlari asosida ham ko'trish mumkin.

19.1.1-jadval

Xorijiy mamlakatlarda kichik biznesning rivojlanishi darjasini²⁰²

| Mamlakatlar | Kichik biznes subyektlari soni (ming) | 1000 kishiga to'g'ri keladigan kichik biznes soni | Kichik biznesda bandlarning umumiy bandlikdagi ulushi (%) | Kichik biznesning YalMdagi ulushi (%) |
|-------------|---------------------------------------|---|---|---------------------------------------|
| Angliya | 2930 | 46 | 49 | 50-53 |
| Germaniya | 2290 | 37 | 46 | 50-54 |
| Italiya | 3920 | 68 | 73 | 57-60 |
| Fransiya | 1980 | 35 | 54 | 55-62 |
| AQSh | 19300 | 74 | 54 | 50-52 |
| Yaponiya | 6450 | 50 | 78 | 52-55 |

Jadvaldan ko'rinishicha, bir qator mamlakatlarda kichik biznesning umumiy iqtisodiyotdagi ulushi ancha katta va hatto ustuvordir. Mehnatga yaroqli aholining yarmidan ko'prog'i shu sohada ishlaydi va bu sohada butun mahsulotning 50-60 foizi ishlab chiqariladi.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash siyosatining olib borilayotganligi tufayli uning iqtisodiyotdagi o'rnini va roli ortib bormoqda.

Shunday qilib, har qanday mamlakatning iqtisodiy salohiyatida kichik biznesning roli g'oyatda kattadir. Boshqacha qilib aytganda, u davlatning muvaffaqiyatli rivojlanishi va gullab-yashnashining garovidir.

²⁰² www.wikipedia.org

Shuning uchun O'zbekistonda kichik biznes, yakka tartibdag'i tadbirkorlik, fermner va dehqon xo'jaliklari rivojlanishini rag'batlantirishga katta e'tibor qaratilgan.

Shunday ekan, kichik korxonalarning roli va ahamiyati nimadan iborat? Bular, qisqacha aytadigan bo'lsak, quyidagi omillarda namoyon bo'ladi:

- kichik korxonalar bozorning tovarlar va xizmatlar bilan tez to'ldirilishiga yordam beradilar, ichki bozorni o'zлari tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlar bilan boyitadi;
- kichik korxonalar yengil va oziq-ovqat sanoatining salmog'ini oshirib, mamlakatni xom ashyo yoki yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'nalganlik holatidan chiqarib, iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurishga faol ta'sir qiladi;
- kichik korxonalar, iqtisodiyotning dvigateli bo'lGANI holda, sohaviy va mintaqaviy yakka hokimlikni bartaraf qilishga, raqobat sohasini kengaytirishga yordam beradi;
- kichik firmalarning faoliyatida ilg'or, ixcham texnologiyalardan foydalanish alohida o'rIN tutadi, zero, bu ilmiy-texnik taraqqiyotning muhim yo'naliishlardan biridir;
- kichik korxonalar eksportga mo'ljallangan va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan shug'ullanib, mamlakatning eksport salohiyatini oshiradi;
- mahalliy idoralarning iqtisodiy bazasini mustahkamlash, qishloq aholi punktlari, kichik shaharlarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishda ularning roli kattadir;
- kichik korxonalar unutilgan, an'anaviy xalq amaliy san'ati, badiiy hunarmandchilikning tiklanishiga ko'maklashadi, bu nafaqat iqtisodiyot, balki xalq madaniy merosini tiklashda g'oyatda muhimdir;
- kichik korxonalar ko'pincha yirik korxonalarni butlovchi detallar va qismlar bilan ta'minlab, ularning yo'ldoshi bo'ladi, bu yirik va kichik biznes manfaatlarini birlashtirishning samarali usuli bo'ladi;

- kichik korxonalarda pensionerlar, nogironlar, yoshlar, talabalar, uy bekalarining mehnat qilish imkoniyati bor, bu esa ularning moddiy ahvolining yaxshilanishiga yordam beradi;
- kichik biznes mehnatni qo'llash sohasini kengaytirish, ish bilan band bo'lmasan aholini va samarasiz ishlovchi korxonalardan ozod bo'lgan xodiimlarni ishga joylashtirish uchun yangi imko-niyatlar yaratishga, boshqacha qilib aytganda, ishsizlikni kamaytirishga imkon beradi;
- kichik biznesning rivojlanishi hisobiga xususiy mulkchilik sohasi kengayadi, bu jamiyat va davlatning tayanchi bo'lib xizmat qiluvchi o'rta hollar sinfining shakllanishi, mamlakatda barqarorlikning muhim sharti bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, kichik biznesning rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy farovonligini oshirishda va muhim ijtimoiy muammolarni hal qilishda katta rol o'ynaydi.

19.2.Kichik tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmi hamda bu boradagi xorij tajribasi

Xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish uning bozor iqtisodiyotini tartibga solish mexanizmining asosini tashkil etadi. Shu boisdan ingliz iqtisodchi olimi J.M.Keyns davlat turli boshqaru vosita va usullardan foydalangan holda investitsion va iste'mol faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi kerak, iste'molga moyillik va investitsiyalashni amalga oshirishni yo'naltirish maqsadi munosabati bilan davlatning funksiyasi kengayadi... mavjud iqtisodiy shakllarning batamom buzilishining oldini olishning yagona amaliy imkoniyati... shaxsiy tashabbusni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur sharoitdir, deb ta'kidlagan²⁰³.

Kichik va o'rta biznesni tartibga solish U.V.Gafurov to'g'ri ta'kidlaganidek, iqtisodiyotni tartibga solishning muhim tarkibiy

²⁰³ Карапиг: Кейнс Дж. Общая теория занятости, процента и денег. – М.: Гелиос АРВ, 2002. – С.352; Джалилов А.А. Кичик бизнесни давлат томонидан молиявий қўллаб-куватлашингиз асосин шаклларни // Иқтисод-молия / Экономика и финансы. 2016 йил, 9-сон-Б.38

qisimlaridan biri hisoblanadi. Uning fikriga ko'ra "bu o'rinda kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solish obyekti sifatida namoyon bo'lishining asosiy sabablaridan biri – uning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda juda katta salohiyatga ega bo'lgan holda, nomukammal raqobat sharoitida o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon etishda faoliyat ko'laming cheklanganligi bilan bog'liq obzyektiv omillarning mavjudligi hisoblanadi. Mazkur sohaning samarali faoliyatini ta'minlash, uning to'laqonli amal qilishi va rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillarni bartaraf etish hamda har tomonlama qo'llab-quvatlash o'z mazmun va maqsadlariga ko'ra iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solinishi jarayonlarining uzviy qismi hisoblanadi²⁰⁴".

Nazariy jihatdan davlat tomonidan kichik va o'rta biznesni davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlashning liberal, ijtimoiy-yo'naltirilgan modellari mavjud. Liberal model davlatning sezilarsiz darajadagi ishtirokiga asoslanib, quyidagi belgilari bilan aniqanadi: davlat tashkilotlarining qisqarishi, kichik va o'rta biznes sub'ektlarida liberalizm, ijtimoiy sohadagi vazifalarni amalga oshirishda davlat ishtirokining minimal darajada mavjud bo'lishi. Bu modelda, davlat asosan monetar siyosat vosita va dastaklari orqali makroiqtisodiyotni barqarorlashtirish vazifasini amalga oshiradi. Bu model AQSh, Fransiya, Buyuk Britaniyaga xosdir. Ijtimoiy-yo'naltirilgan modelda davlatning iqtisodiyotga aralashuvi yuqori bo'lib, bozorning asosiy qoidalarini belgilashda faol ishtirok etadi; makroiqtisodiy jarayonlar, kichik va o'rta biznes faoliyati davlat tomonidan tartibga solinadi va boshqariladi; aholining uy-joy, mdaniyat va ta'lim, aholini ish bilan band qilish, sog'liqni saqlash xizmatlariga bo'lgan ehtiyojni qondirish davlat tomonidan amalga oshiriladi²⁰⁵.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini tartibga solish va qo'llab-quvatlash ko'plab mamlakatlarda davlat iqtisodiy siyosatining

²⁰⁴ Гафуров У.В. Кичик бизнесни давлат томонидан тартибга солишнинг иктисолий механизми тарзини такомиллаштириши. Докторлик диссертацияси автор-сергати. Т., 2017 - Б.15.

²⁰⁵ Джалилов А.А. Кичик бизнесни давлат томонидан молиявий кўлчаб-куватларининг асосий шакллари // Иктисол-молия / Экономика и финансы. 2016 йил, 9-сон.-Б.38.

muhim yo'nalishi hisoblanadi. Ayrim olimlarning fikricha, jahon amaliyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash uch turdag'i modellar orqali amalg'a oshiriladi²⁰⁶.

Birinchi model proteksionistik g'oyaga asoslanib, unda rivojlangan davlatlarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning maqsadli dasturlarini amalg'a oshirishda o'z ifodasini topadi. Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlarida kichik biznesni qo'llab-quvvatlash "Kichik biznesda innovatsion tadqiqotlar dasturi" (SBIR) va "Kichik biznes texnologiyalari transferti dasturi" (STTR) kabi dasturlar orqali amalg'a oshiriladi. Ikkinci model aksincha, erkin tadbirkorlikka asoslangan modeldir. Bunga misol tariqasida Fransiyada kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan yirik ko'lamli dasturlar qabul qilinmasligini ko'rsatish mumkin. Uchinchi kombinatsiyalashgan modelda yuqorida ko'rsatilgan ikkala model birlashgan holda amal qiladi. Jumladan, Buyuk Britaniyada shunday yondashuvni kuzatish mumkin. Ushbu yondashuvda davlat darajasida e'lon qilingan kichik biznesni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari erkin tadbirkorlik asosida amalg'a oshiriladi²⁰⁷.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash- tadbirkorlikning barqaror rivojlanishi uchun qulay muhit, shart-sharoit yaratishga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy, huquqiy va siyosiy chora-tadbirlar tizimidir. Davlat organlarining iqtisodiyotni tartibga solish va tadbirkorlikning rivojlanishini qo'llab-quvvatlashdan ko'zlagangan maqsadlari quyidagilardan iboratdir:

- iqtisodiy o'sishni ta'minlash;
- mehnatga layoqatli aholini ish bilan band etishning yuqori darajasini ta'minlash;
- narxlar barqarorligini ta'minlash;

²⁰⁶ Колесникова Л. Порядок для хаоса: государство и предпринимательство в переходной экономике.-М., 2001.-С.77. Муродова Н.К. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни давлат томонидан кўллаш-куvvatlashning назарий асосларини тақомилаштириш. Докторлик дисс. Автореферат.-Т., 2016.-С.15.

²⁰⁷ Муродова Н.К. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни давлат томонидан кўллаш-куvvatlashning назарий асосларини тақомилаштириш. Докторлик дисс. Автореферат.-Т., 2016.-С.15.

- pul muomalasi barqarorligini ta'minlash;
- tashqi iqtisodiy muvozanatni saqlash²⁰⁸.

Davlatning tadbirkorlikni tartibga solish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha quyidagi vazifalari mavjuddir:

1.Davlat tomonidan iqtisodiyotning barcha sohalarida kishilarning faoliyat risklari bilan bog'liq bo'lgan innovatsiya imkoniyatlarini amalga oshirishga qobiliyati bor bo'lgan tadbirkorlik subyektlarini shakllantirish.

2.Erkin raqobat muhitini yaratish. Tadbirkorlik subyektlari erkin raqobat muhiti sharoitida o'zlarining raqobat ustunliklarini ta'minlash uchun fanning ilg'or yutuqlarini qo'llagan holda texnika va texnologiyalarini uzluksiz yangilash, innovatsion menejment va marketingni jori etish, o'zlarining innovatsion va risklarga bardoshlik qobiliyatlarini ishga solishga intiladilar.

3.Tadbirkorlarning yuqori sifatli tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishini va uning bozordagi taklifini rag'batlantirish. Bunda davlat tomonidan soliq, moliyaviy, kredit, sug'urta, amortizatsiya va boshqa iqtisodiy siyosat dastaklari yordamida rag'batlantirish chora-tadbirlari amalga oshiriladi.

4.Innovatsion mahsulotlarga bo'lgan talabni shakllantirish va rag'batlantirish.

5.Tadbirkorlikning tashkiliy va bozor infratuzilmasini shakllantirish.

6.Tadbirkorlikning ijtimoiy yo'naltirilishini ta'minlash.

Davlat tomonidan tadbirkorlik rivojlanishini qo'llab-quvvatlash tizimini shakllantirish uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

1. Tadbirkorlikning rivojlanishini huquqiy jihatdan ta'minlash tizimini shaklantirish.

2.Soliqqa tortish tizimini tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirish.

²⁰⁸ Арипов О. Ўзбекистонда қичик бизнес ва хусусий тадбирхорликни давлат томонидан тартибга солиш. Т.: "Фай", 2012. – Б.25.

3.Tadbirkorlik sub'ektlarini imtiyozli kreditlash tizimini shakllantirish, tijorat banklarining kreditlash amaliyotini rag'batlantirish, ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash fondlarini, o'z-o'zlarini kreditlash jamiyatlarining, vechur kapitali, vechur firmalarining hamda innovatsion fondlarning shakllanishiga ko'maklashish.

4.Tadbirkorlik faoliyatini sug'urtalash sohasini davlat tomonidan tartibga solish. Innovatsion jarayonlarni sug'urtalashning davlat va bozor shakllarining uyg'unligini ta'minlash.

5.Tadbirkorlikning tashkiliy infratuzilma tizimlarini shakllantirish.

Ko'pgina xorijiy mamlakatlarda kichik biznesning vujudga kelishi va muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi davlat yordami vositasida ta'minlanadi. Ularda bu ishda juda katta ijobiy tajriba to'plangan bo'lib, undan bizning sharoitlarimiz va xususiyatlarimizni hisobga olgan holda foydalanish mumkin.

Ko'pgina mamlakatlarda kichik korxonalar faoliyatini tartibga solishga umumiy yondashishlar va asosiy yo'nalishlar xosdir. Ularga quyidagilar kiradi:

- kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan maxsus qonunlarni qabul qilish;

- korxonalar faoliyatining umumiy va xususiy tomonlarini (masalan, kichik firmalarda boshqaruв usullarini) takomillash-tirishni, biznes bilan shug'ullanishni istayottanlarga moliyaviy yordam ko'rsatishni, kichik biznesni rivojlantirishni ko'zda tutuvchi ma'lum maqsadga qaratilgan davlat rejalarini ishlab chiqish;

- kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning tarkibiy-tashkiliy xizmatlarini tashkil qilish;

- kichik bizneslarga davlatning moliyaviy yordam ko'rsatishi (Italiyada kichik firmalar ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruk-torlik ishlarini moliyalashtirishga katta mablag'lar ajratiladi);

- kichik biznesni kafolatlash va imtiyozli kreditlashtirish firmalarini tashkil qilish (Angliyada kichik korxonalarni moliyalashtirishni ta'minlovchi maxsus firmalar bor, buning ustiga davlat qarzlarining 70% ni kafolatlaydi);

- kichik korxonalar faoliyatini imtiyozli soliqqa tortishni keng tarqatish (masalan, Fransiyada har yili 10000 ga yaqin korxonalar to‘liq yoki qisman soliq to‘lashdan ozod qilinadilar).

Kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash sohasidagi ba’zi bir mamlakatlar tajribasining qisqacha bayonini keltiramiz.

AQSh. AQSh 1953 yildayoq butun mamlakat bo‘yicha vakillarning keng tarmog‘iga ega kichik biznes ishlari bo‘yicha ma’muriyat tashkil qilingan edi, unda 4 ming xodimlar xizmat qiladi. Bu tashkilot faoliyatining asosiy yo‘nalishi shaxsiy ishni ochish va olib borishda yordam berish, kichik biznesga kreditlar va kafolatlangan qarzlar berishdan iborat. 1953 yilda iqtisodiyotning monopolistik sektorini davlat tomonidan tartibga solishning huquqiy asoslarini tashkil qiluvchi kichik biznes to‘g‘risidagi qonun qabul qilingan. 1986 yilda kichik korxonalarga yangi texnologiyalar, ilmiy-texnik va tajriba konstrukturlik tashkilotlarining ishlannalarini topshirish imkoniyatini ta’minlovchi qonun qabul qilingan.

Kichik korxonalarga ko‘pchilik yarim hukumat tashkilotlari yordam ko‘rsatadilar: xizmatlar savdosi sohasidagi siyosat bo‘yicha qo‘mita, Prezident huzuridagi xususiy tadbirkorlik muammolari bo‘yicha max-sus komissiya, sanoat raqobatbardoshligi masalalari bo‘yicha komissiya va boshqalar.

Ko‘p sonli jamoatchilik tashkilotlari – savdo palatasi, sanoatchilarining milliy assotsiatsiyasi, savdo, qishloq xo‘jaligidagi har xil assotsiatsiyalar, klublar, guruhlar va hokazolar kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashga yordam ko‘rsatadilar. AQShda kichik korxonalar soliq imtiyozlaridan foydalana不得已, ammo subsidiyalar, dotatsiyalar, moliyaviy kafolatlar bilan qo‘llab-quvvatlanadilar.

Yaponiya. Yaponiyada kichik korxonalarini qo‘llab-quvvatlashda kichik biznes bo‘yicha boshqarma, Kichik va o‘rtalarda tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha davlat korporatsiyasi, moliyalashtirish bo‘yicha milliy korporatsiya, Kichik va o‘rtalarda tadbirkorlik assotsiatsiyalarining butun yapon federatsiyasi, Kichik va o‘rtalarda tadbirkorlikni butun yapon markazi va boshqalar faoliyat yuritadilar. Bulardan tashqari unga yaqin

maxsus banklar Kichik va o'rta tadbirkorlikni kreditlashga xizmat qiladi.

Davlat qo'llab-quvvatlashi o'z ichiga quyidagilarni oladi: imtiyozli soliqqa tortish, jadallashtirilgan amortizatsiya, imtiyozli kredit-lashtirish, xodimlarni o'qitishda yordam, bankrotlik holida yordam ko'rsatish, KO'Kning texnik darajasi o'sishini rag'batlantirish.

Prefekturalarda harakat qiluvchi 500dan ortiq savdo-sanoat palatalari va ularning filiallari kichik korxonalarga maslahat, moliya, ta'lim yordamini ko'rsatadilar.

Kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning maxsus fondi, xalq fondi hamda moliyaviy korporatsiya davlatning kichik va o'rta tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning moliyaviy bazasini tashkil qiladilar.

Xitoy. Xitoya olib borilayotgan soliq va moliya siyosati, tashqi savdo, investitsion siyosat sohalarida islohotlarning chuqurlashuvi kichik korxonalarning tez rivojlanishiga yordam bergan. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi, posyolka sanoati deb nomlangan kichik va xususiy ishlab chiqarish tez rivojlangan. Qurilish materiallari ishlab chiqarishning 70%, tayyor kiyim-kechaklarning 40%, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 80%i kichik biznesning ulushiga to'g'ri keladi. Xitoy qishloqlari yalpi ijtimoiy mahsulotining 60% posyolka korxonalarining ulushiga to'g'ri keladi. Posyolka korxonalarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi va arzon ish kuchining mavjudligi ularni xorijiy investitsiyalarni jalb qiluvchi ob'ektga aylantirgan.

Janubiy Koreya. 1995 yilda Kichik va o'rta tadbirkorlik mahsuloti eksportining salmog'i mamlakat umumiy eksport hajimining 30%ni tashkil qilgan va 50 mlrd AQSh dollariga yetgan. Bunga katta bank kreditlari yordam bergan.

Kredit-pul siyosati shunday qurilganki, tijorat banklari o'z qarzlarining 30% ini Kichik va o'rta tadbirkorlikka berishga majburlar. Mamlakatdagi kichik biznes federatsiyasi, Kichik va o'rta tadbirkorlik banki, texnologiyalarni sug'urta qilish federatsiyasi, savdo va sanoat vazirligi Kichik va o'rta tadbirkorlikning rivojla-nishiga yordam beradi.

Sanoatni rivojlantirish siyosatining ajralmas qismi sifatida kichik va o'rtalarda tadbirkorlikning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash siyosati sohasida yirik qonunchilik bazasi tashkil qilingan: Kichik va o'rtalarda tadbirkorlikni rag'batlantirish haqidagi dikret (1966y.), Kichik va o'rtalarda tadbirkorlikning sub-kontraktli ishlarini rag'batlantirish haqidagi qonun (1978y.), faqat Kichik va o'rtalarda tadbirkorlik ishlab chiqaradigan tovarlar ro'yxati (1982y.), Kichik va o'rtalarda tadbirkorlikni o'zaro yordam fondi haqidagi qoidalar (1984y.), Kichik va o'rtalarda tadbirkorlikni boshqaruva barqarorligi va boshqalar. Yordam, birinchi navbatda, yuqori eksport salohiyatiga ega bo'lgan korxonalarga ko'rsatiladi.

Gollandiya. Bu mamlakatda Kichik va o'rtalarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun ko'pgina tashkilotlar mavjud:

- Kichik va o'rtalarda tadbirkorlik uchun golland kengashi;
- Kichik va o'rtalarda tadbirkorlik masalalari bo'yicha tadqiqotlar va konsalting;
- Kichik va o'rtalarda tadbirkorlik uchun siyosatning qirollik federatsiyasi;
- ijtimoiy biznes tashkilotlari tarmoq xususiyatlari bo'yicha ish beruvchilar va xodimlarning hamkorligini ta'minlaydilar;
- savdo palatasi konsalting xizmatlari ko'rsatadi;
- Kichik va o'rtalarda tadbirkorlik instituti ishchi-xizmatchilarni o'qitish, maslahat berish bilan shug'ullanadi;
- o'qish vaqtida shaxsiy korxonalarini ochgan talabalarga yordam ko'rsatish uchun «Mini-korxonalar fondi» tashkil qilingan;
- ikkita Oliy o'quv yurti Kichik va o'rtalarda tadbirkorlik uchun mutaxassislarini tayyorlaydi;
- kechqurunlari qatnash mumkin bo'lgan ko'pgina turli xil kurslar ishlaydi. Bularda ishni endi boshlovchilar shaxsiy ishni ochish, biznes-rejalar tuzish, maslahatlar va axborotlar olish maqsadida o'qishlari mumkin.

Fransiya. Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning asosiy maqsadi – bandlikning ko'payishi va raqobatbardoshlikning o'sishidir. Buning uchun quyidagilar qilinadi: to'g'ridan-to'g'ri yordam, axborotlarga kirish,

ma'muriy to'siqlarni kamaytirish, soliqlarni kamaytirish va boshqalar. Fransiyada kichik va o'rta tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha har xil tashkilotlar tashkil qilingan:

- Kichik va o'rta tadbirkorlik konfederatsiyasi;
- savdo palatasi;
- hunarmandlik ishlari bo'yicha palata;
- qishloq xo'jaligi palatasi;
- investitsion xavf-xatarni sug'urtalashning fransuz jamiyati;
- biznesni tashkil qilish markazi va boshqalar.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan mamlakatlarda qo'llaniladigan kichik biznesni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari faqat umumiy ko'rinishda bayon qilingan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka xorijiy mamlakatlarda ko'rsatiladigan yordamning ayrim yo'naliishlarini aniqroq o'rganish va O'zbekiston iqtisodiyoti sharoitlarida ulardan foydalanish imkoniyatlarini belgilash kichik biznesni rivojlantirish uchun shubhasiz foya keltirgan bo'lar edi.


19.3. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmi

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va tartibga solish jahon analiyotidan kelib chiqib va respublikamizga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishi davlat tomonidan bevosita, bilvosita va tashqi iqtisodiy dastaklar asosida tartibga solinadi. Bunda bevosita ta'sir qilish usullariga qonun va boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilish asosida ularning faoliyat yuritishi qoidalarini yaratish kiradi.

Davlat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni bilvosita ta'sir qilish usullariga iqtisodiy dastaklar hamda davlat imtiyozlari orqali ta'sir ko'rsatish kiradi. Iqtisodiy vosita, dastaklar orqali tartibga solish o'z ichiga soliq tizimi, davlat budgeti, pul-kredit tizimlari hamda narx orqali tartibga solishni oladi. Davlat imtiyozlariga qisman yoki to'liq

soliqdan ozod qilish, subsidiyalar berish, kredit va bojxona imtiozlarini va boshqa imtiozlar kiradi. Tashqi iqtisodiy usullarga tadbirkorlarga qo'shma korxonalar tuzish, o'z mahsulotlarini eksport qilishga ko'maklashish va boshqalar kiradi.

Davlatning kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishini tartibga solish va qo'llab-quvvatlashdan ko'zlagan maqsadi iqtisodiyotning mutanosib, barqaror rivojlanishini, aholining ish bilan bilan bandligini ta'minlash asosida turmush darajasi va sifatini oshirishga yo'naltirilgandir. Davlatning bu boradagi asosiy vazifalari quyidagi rasmda ko'rsatilgan (19.3.1-rasm).



19.3.1-rasm. Davlatning biznes va tadbirkorlikni tartibga solish va qo'llab-quvvatlashdagi vazifalari.

Davlat tomonidan sog'lom raqobat muhitining, tadbirkorlik faoliyatini amalgalash oshirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini va keng erkinliklar yaratilishi, tadbirkorlar faoliyatiga davlat boshqaruvi va nazorat organlarining ortiqcha, noo'rin aralashuvini qisqartirish, ortiqcha ma'muriy-byurokratik to'siqlarning bartaraf etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda davlat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimi yaratilgan bo'lib, u o'z ichiga quyidagilarni oladi(19.3.2-rasm).

O'zbekistonda davlat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimi



19.3.2-rasm. O'zbekistonda davlat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimi

Davlat boshqaruvi organlarining tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash sohasidagi vakolatlari qonunchilikda belgilangan. Davlat boshqaruvi organlari tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida o'z vakolatlari doirasida:

- a) tadbirkorlikni rivojlantirish davlat dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;
- b) tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risidagi qonun hujjalariiga rioya etilishi va tadbirkorlik faoliyatining rivojlantirilishi ustidan monitoringni amalga oshiradi, mavjud muammolarni o'rGANADI hamda tadbirkorlikning huquqiy kafolatlarini

mustahkamlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritadi;

d) tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlaydi;

e) tadbirkorlik faoliyati subyektlariga moliyaviy, moddiy-texnik va axborot resurslaridan foydalanishda ko'maklashadi;

f) tadbirkorlik faoliyati subyektlariga o'z tovarlarini (ishlarini, xizmatlarini) tashqi va ichki bozorlarda realizatsiya qilishda, shu jumladan tadbirkorlik faoliyati subyektlarini davlat xaridlarini amalga oshirish jarayoniga faol jalb etish hamda ularning mahsulotini o'tkazish bo'yicha ixtisoslashtirilgan tashkilotlar tashkil etish yo'li bilan ko'maklashadi;

g) tadbirkorlik faoliyati subyektlari o'rtasida axborot va tushuntirish ishlarini, konsalting, lizing, sug'urta va boshqa xizmatlar tizimi rivojlantirilishini tashkil etadi;

g') kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishda tadbirkorlik faoliyati subyektlariga ko'maklashadi. Davlat boshqaruvi organlari qonun hujjatlariga muvofiq tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Mahalliy davlat hokimiyyati organlarining tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash sohasidagi vakolatlari. Mahalliy davlat hokimiyyati organlari o'z vakolatlari doirasida:

a) tadbirkorlikni rivojlantirish hududiy dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

b) tadbirkorlik subyektlari faoliyatini himoya qilishning qo'shimcha kafolatlari va choralarini belgilaydi;

d) qonun hujjatlariga muvofiq mahalliy soliqlar bo'yicha imtiyozlar belgilaydi. Mahalliy davlat hokimiyyati organlari qonun hujjatlariga muvofiq tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Tadbirkorlikni rivojlantirishning davlat tomonidan rag'batlantirishi. Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan rag'batlantirish:

a) tadbirkorlik sohasiga investitsiyalarni (shu jumladan chet el investitsiyalarini), zamonaviy texnologiyalar va uskunalarni jalb etish, shuningdek bozor infratuzilmasi institutlarini rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish;

b) eksport-import operatsiyalari, xalqaro ko'rgazmalar va yarmarkalarda, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi dasturlar va loyihalarni amalga oshirishda tadbirkorlik faoliyati subyektlarining ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlarini ko'rish;

d) tadbirkorlik faoliyati sub'ektlarini ularning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan huquqiy, iqtisodiy, statistik, ishlab chiqarish-texnologik, ilmiy-texnik va boshqa axborot bilan ta'minlash;

e) soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar va tariflar bo'yicha imtiyozlar hamda preferensiyalar belgilash orqali analga oshiriladi. Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan rag'batlantirish qonun hujjatlariga muvofiq boshqa yo'llar bilan ham analga oshirilishi mumkin.

Mamlakatimizda tadbirkorlik uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish maqsadida keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ko'plab farmon va qarorlari, jumladan, 2016 yil 2016 yil 5 oktabrida "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2019yil 13martdagagi "Tadbirkorlik faoliyatini himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish va prokuratura organlari faoliyatini optimallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5689-soni, 2019 yil 13 avgustdagagi "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar", shuningdek, "Tadbirkorlik sub'ektlarining moliyaviy resurslar va ishlab

chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to‘g‘risida”gi PF-5780-son Farmonlari qabul qilingan. Buning natijasida ishbilarmonlik muhitini yaxshilash bo‘yicha ko‘plab chora-tadbirlar amalgga oshirildi. Jumladan, soliq tizimidagi o‘zgarishlar natijasida soliq turlari 13 tadan 9 taga kamaytirildi, biznes va tadbirkorlik soliq yuki qisqartirildi. Litsenziyalash va ruxsatnomalar berish tartibida jiddiy o‘zgartirishlar, tadbirkorlarga yer berish tartibi yengillashtirish va uning shaffofigini ta’minlash bo‘yicha birqancha chora-tadbirlar amalgga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 avgustdagi farmoniga muvofiq Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzurida **Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi tashkil etildi**. Agentlik Jahon banki tomonidan tadbirkorlikni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash tizimini kengaytirish va uning samaradorligini oshirish, aholining keng qatlamlarini biznes yuritishga jalb qilish va boshlang‘ich kapitaldan foydalanish imkoniyatini ta’minlash bo‘yicha davlat organi sifatida tavsiya etildi²⁰⁹.

O‘zbekistonda koronavirus pandemiyasi va global inqirozning salbiy oqibatlarini yumshatish maqsadida 2020 yil 19 martda “Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta’sirini yumshatish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5969-son, 2020 yil 4 apreldagi “Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik cub’ektlarini qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5978-son, 2020 yil 27 apreldagi “Koronavirus pandemiyasi davrida aholi va tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5986-son, 2020 yil 18 maydagи “Koronavirus pandemiyasi davrida aholi va tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5996-son, 2020 yil 27 iyuldagи “Koronavirus pandemiyasining salbiy ta’sirini kamaytirish

²⁰⁹https://www.norma.uz/contenichilikda_yangi_kichik_biznes_va_tadbirkorlikni_rivojlantirish_agentligi_tashkil_etildi

uchun aholi, tadbirkorlik subyektlari, umumiy ovqatlanish, savdo va xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6029-son farmonlari qabul qilindi.

Pandemianing mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta'sirlarini yumshatish yuzasidan Inqirozga qarshi kurashish jamg'armasi tashkil etildi. 2020yilning 17-iyun holatiga mazkur (10trln.so'mlik) jamg'armaning daromadlari 7,44 trln. so'mni tashkil etdi, ya'ni shu kunga qadar jami summaning 74,4 foizi shakllantirildi. Shundan, 7,32 trln.so'm xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobiga, 123,5 mlrd.so'm esa, davlat budjeti hisobiga shakllantirilib, jami sarflangan xarajatlar miqdori 3,3 trln.so'mni tashkil etdi. 30 may holatiga ko'ra, 500 mingdan ortiq tadbirkorlik subyektlari va 8 million nafardan ziyod fuqaro 30 trln. so'mga yaqin yoki qariyb 3 mlrd AQSh dollarari (YalMning 6 foizi) miqdorida imtiyoz va preferensiyalar oлган.

O'z faoliyatini to'xtatgan va tovarlar (xizmatlar) realizatsiyasidan tushumi joriy yilning birinchi choragiga nisbatan 50 foizdan ko'proqqa kamaygan mikrofirma, kichik korxona va yakka tartibdagi tadbirkorlarga (2020 yil 31 dekabrga qadar) aylanma soliq, mol-mulk solig'i, yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (keyinchalik 12 oy davomida) va ijtimoiy soliqlarni (keyinchalik 6 oy davomida) foizsiz kechiktirish (bo'lib-bo'lib to'lash) huquqi taqdim etildi. Ushbu imtiyozlar esa qariyb 4 000 ta korxona uchun jami 230 mlrd.so'm miqdorida mablag'larni iqtisod qilinishiga va mazkur mablag'lar aylanma mablag' sifatida ishlatilishiga imkon yaratdi.

Mikrofirma va kichik korxonalar uchun tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni)ni olib kirishda (importda) qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashni 120 kungacha kechiktirish huquqi berildi. Shu yilning 1 mayidan 1 iyuliga bo'lgan davrda mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun ijtimoiy soliq stavkasi 12 foizdan 1 foizgacha kamaytirildi. Mazkur taqdim etilgan imtiyoz respublika bo'yicha barcha mikrofirmalar va kichik korxonalarga 550 mlrd.so'mlik mablag'larni aylanma mablag' sifatida erkin ishlatish imkonini yaratdi. Mikrofirma va kichik korxonalarining aylanma mablag'lari kamayishining oldini

olish maqsadida, 2020yil 15may holatiga soliq qarzlari va soliq qonunchiligini buzganlik uchun penya va hisoblangan jarimalar bo'yicha qarzdorliklarini undirish 1 sentabrgacha to'xtatildi²¹⁰.

O'zbekistonda 2020 yilning II choragi bo'yicha o'tkazilgan so'rovnoma da 2571 ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 554 (21,6%) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 1523 (59,2%) ta sub'ektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan bo'lsa, qolgan 494 (19,2 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan²¹¹. Ushbu so'rovnoma da ishtirok etgan faoliyat yuritayotgan 16089 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 3100 (19,3 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 9732 (60,5 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 3257 (20,2 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

19.4. Kichik tadbirkorlik rivojlanishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish yo'llari

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda yanada rag'batlantirish borasida amalgamoshirilayotgan chora-tadbirlar atijasida uning ulushi yalpi ichki mahsulotda 2000 yildagi 31%dan 2020 yilda esa 53,9%ga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda 11,3 %dan 27,5% ga, qurilishda 37,0 %dan 72,4% ga, aholi bandligida 49,7%dan 78,3%ga, ularning eksportdagi ulushi 2000 yildagi 10,2% dan 2020 yilda 20,5%ga o'sdi. Bugungi kunda ko'rsatilayotgan bozor xizmatlarining deyarli barchasi kichik biznes ulushiga to'g'ri kelmoqda (qarang:19.4.1-jadval).

²¹⁰ Тулков Э. COVID-19: ЎЗБЕКИСТОН ТОМОНОДАН АМАЛГА ОШИРИЛГАН ЧОРАЛАР" //https://strategy.uz/index.php?news=1013

²¹¹ Узбекистон Республикасининг ижтимоий-иктисодий ҳолати. 2020 йил январь-июнь.-Т.: Ўздавстаратмента, 2020.-237, 240-242—бетлар.

19.4.1-jadval.

O'zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlari yalpi mahsulotida kichik biznes va xususiy tadbirdorlik ulushining o'sish dinamikasi, jamiga nisbatan %da²¹².

| ko'rsatkichlar | 2000y. | 2010y. | 2015 y. | 2017y | 2018y | 2019y | 2021y |
|--|--------|--------|---------|-------|-------|-------|-------|
| Yalpi ichki mahsulotda | 31,0 | 52,5 | 56,5 | 53,3 | 60,5 | 54,2 | 54,5 |
| sanoatda | 11,3 | 19,6 | 40,6 | 39,6 | 37,4 | 25,8 | 27,0 |
| qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 73,6 | 97,9 | 98,4 | 99,0 | 98,6 | 97,9 | 96,7 |
| qurilishda | 37,0 | 52,3 | 66,7 | 65,1 | 73,2 | 75,8 | 72,4 |
| savdoda | 45,3 | 50,5 | 87,1 | 88,4 | 86,3 | 83,7 | 82,1 |
| xizmatlar ko'rsatishda | 37,9 | 47,7 | 55,6 | 58,4 | 56,0 | 53,2 | 51,1 |
| eksportda | 10,2 | 13,6 | 27,1 | 27,0 | 27,2 | 27,0 | 22,3 |
| importda | 22,8 | 35,8 | 44,5 | 53,6 | 56,2 | 61,6 | 48,7 |
| aholi ish bilan bandligida | 49,7 | 75,7 | 77,9 | 78,0 | 76,3 | 76,2 | 73,8 |

Mamlakatimiz hududlari bo'yicha 2020 yilda kichik tadbirdorlikning yalpi hududiy mahsulotida ulushining eng yuqori ko'rsatkichi Jizzax (82,7%), Surxondaryo (77,1%), Xorazm (75,3%), Buxoro (74,7%) va Samarqand viloyatlariga (73,9%) to'g'ri keldi. Navoiy viloyatida ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib, 25,5%ni tashkil etdi²¹³.

²¹²Ўзбекистон иктисодиети: ахборот ва таҳлилий шарҳ 2005 йил.-Т., "Ўзбекистон", 2006.58.61,64-бетлар; Экономика Ўзбекистана: информационно-аналитический бюллетень за 2012 год.-Т., ЦЭИ. 2013 .С.83; Социально-экономическое положение Республики Узбекистан за 2017 год.-Т.: Госкомстат РУз. 2018-С.97; Ўзбекистон Республикасининг иктиномий-иктисодий ҳолати. 2020 йил январь-декабрь.-Т., 2021.-267-бет маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилиди.

²¹³Ўзбекистон Республикасининг иктиномий-иктисодий ҳолати. 2020 йил январь-декабрь.-Т., 2021.-266-бет

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqotda so‘zlagan nutqida biznesni moliyalashtirish va moliya-kreditlashni takomillashtirish bo‘yicha quyidagi chora-tadbirlar amalgा oshirilishini aytib o‘tdi:

1)banklarning kapitalini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha imkoniyatlar ishga solinadi. Buning uchun kelgusi yilda banklarga Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasidan bozor tamoyillari bo‘yicha qo‘srimcha 600 million dollar ajratiladi;

2)bankning o‘zi ham tashqi va ichki moliya bozorlaridan kamida 30 foiz qo‘srimcha resurslar jalb qiladi. Jumladan, banklar tomonidan kelgusi yili xalqaro moliya bozorlarida milliy valyutada 5 trillion so‘mlik yevrobondlar chiqariladi;

3) banklar chetdan resursni qanday valyutada jalb etishidan qat’i nazar, tadbirkorlarga kreditni milliy valyuta – “so‘m”da va biznes vakillari uchun maqbul foizlarda berish tizimi yo‘lga qo‘yiladi;

4)bundan buyon Hukumat tomonidan xalqaro moliya tashkilotlaridan jalb qilinayotgan imtiyozli mablag‘lar hisobidan banklarga beriladigan kreditlarning muddatini cheklash amaliyoti bekor qilinadi;

5) 2021 yil 1 oktabrdan boshlab ilgari 1 million dollargacha xorijiy valyutada olingan 6 mingga yaqin tadbirkorning jami 1 milliard dollarga yaqin kreditlari, tadbirkor va tijorat banklari o‘rtasidagi kelishuvga asosan milliy valyutaga o‘tkazib beriladi;

6) Kreditni rasmiylashtirishdan tortib, mahsulotni olish va sotishgacha bo‘lgan barcha jarayonlar elektron tarzda, onlayn shaklida hal etiladi;

7) 2021yil 1 oktabrdan mikromoliya tashkilotlarini litsenziyalash tartibi to‘liq bekor qilinadi. Endi ular o‘z faoliyatini boshlashi uchun faqatgina Markaziy bank reestriga kirishlari kifoya²¹⁴.

Soliq tizimini takomillashtirish, biznesga soliq yukini imkon qadar kamaytirish bo‘yicha quyidagilar amalgা oshiriladi:

²¹⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqotda so‘zlagan nutqi //xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-mamlakatimiz-tadbirkorlari-bilan-ochiq-muloqot-shaklidagi-uchrashuvda-sozlagan-nutqi

- 2020 yil fevral oyida “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingunga qadar iqtisodiy zonalarda ro‘yxatdan o‘tgan tadbirkorlarga berilgan imtiyozlar saqlab qolinadi. Ushbu tadbirkorlar investitsiya miqdoridan kelib chiqib, mol-mulk, yer va suv soliqlaridan 10 yilgacha ozod qilingan edi. Endi ushbu imtiyozlarga foyda solig‘i ham qo‘shiladi va korxonalar ixtiyorida yiliga qariyb 300 milliard so‘m mablag‘ qoladi;

- noruda qazilmalarga (qum-shag‘al, ohaktosh, gips, dolomit kabi) yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi 2 barobar kamaytiriladi. Buning hisobidan 1,5 mingga yaqin korxonalar ixtiyorida yiliga 500 milliard so‘m mablag‘ qoladi;

- jami 13 mingta umumiy ovqatlanish korxonasini yil yakuniga qadar yer va mulk solig‘idan, turizm kompaniyalari va mehimonxonalarni turistik yig‘imlardan 2 yil muddatga ozod qilish;

- pandemiya sababli ushbu tadbirkorlarga jarima solish va hozirgi paytgacha qo‘llangan 6 trillion so‘mlik jarimalarni undirish 2021 yil yakuniga qadar to‘xtatiladi;

- soliq ma’murchiligini soddallashtirish, soliq idoralarining nazorat funksiyalarini takomillashtirish yuzasidan jiddiy choralarни amalgalashirish;

- 2022 yildan boshlab qo‘silgan qiymat solig‘ini qo‘sishimcha hujjatsiz qaytarish tartibini amaliyatga joriy etish.

Yerlarni iqtisodiy oborotga kiritish, ularni oldi-sotdi va garov obyektiga aylantirish uchun mustahkam huquqiy zamin yaratildi, barcha yerlarni ikki toifaga, ya’ni qishloq xo‘jaligi yerlari va qishloq xo‘jaligiga kirmaydigan yerkarda ajratildi. Qishloq xo‘jaligi yerlari ochiq tanlov asosida faqat ijara qilish, qishloq xo‘jaligiga kirmaydigan yer maydonlari esa faqat auksion orqali solilishi belgilandi²¹⁵.

2022 yil 1 yanvardan boshlab, qiymati 200 milliard so‘mga teng loyihibar bo‘yicha elektr, tabiiy gaz, suv tarmoqlari va yo‘l

²¹⁵ Узбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг мамлакатимиз тадбиркорлари билан о‘sik mulokot shaxslidagi учрашувда сўзлаган нутқи// <https://xs.uz/uzk/post/uzbekiston-respublikasi-prezidentini-shavkat-mirziyoevning-mamlakatimiz-tadbirkorlari-bilan-ochiq-mulokot-shaxlidagi-uchrashuvda-sozlagan-nutqi>

infratuzilmasi bilan bog'liq masalalarni hal etish to'liq davlatning zimmasida bo'ladi. Kelgusi 2 yilda mamlakatimiz bo'yicha qo'shimcha 200 ta sanoat zonasini tashkil etiladi. Ularning har biriga kamida 15 ta korxonani joylashtirish mo'ljallanib, elektr, tabiiy gaz, suv tarmoqlariga ularish va yo'l infratuzilmasini yaratish to'liq davlatning zimmasida bo'ladi. Ushbu maqsadlar uchun kelgusi yilda davlat budgetidan 2 trillion so'm mablag' ajratiladi.

Eksportyor korxonalarini qo'llab-quvvatlash, kichik biznesni eksport faoliyatiga keng jalb etish maqsadida yiliga 20 million dollardan ortiq eksport qiluvchi korxonalarga 5 million dollargacha imtirozli kreditlar ajratish, xomashyo va yarim tayyor mahsulotlar uchun import boji stavkalarini pasaytirish bo'yicha qaror loyihasini kiritish topshirig'i berildi.

Prezident o'z nutqida tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvlarni qisqartirish, sohadagi tartib-taomillarni soddalashtirish, xususiy mulk daxlsizligi borasidagi siyosatni qat'iy davom ettirilishini ta'kidladi. Buning uchun 2022 yil 1 yanvardan boshlab subsidiyalarni ajratish bo'yicha murojaatlar "yagona darcha" tajmoyili asosida qabul qilinadi, bu jarayonda ishtiroy etadigan davlat idoralari soni 2-3 barobar qisqartiriladi. Shuningdek, o'tgan bir yilda tadbirkorlardan talab qilinadigan 400 dan ortiq litsenziya yoki ruxsatnomalardan 114 tasini bekor qilingan hamda litsenziya va ruxsatnomada talab etiladigan 33 ta faoliyat turi xabardor qilish tartibiga o'tkazilgan bo'lsa, 2022 yildan boshlab tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun barcha ruxsat etuvchi hujjatlar "onlayn" tarzda rasmiylashtiriladi. 2021yil yakuniga qadar litsenziya yoki ruxsatnomalar soni yana kamida 30 foizga qisqartiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida tadbirkorlikni rivojlantirish borasida quyidagi vazifalarni belgilab berdi:

-O'zbekistonning "Biznesni yuritish", global raqobatbardoshlik (GCI), investitsiyalar (GII), sanoatning raqobatbardoshligi indekslari bo'yicha yetakchi 50 ta mamlakat qatoridan o'rinn egallashini ta'minlash;

-tadbirkorlik sohasidagi qonunchilikni yanada takomillashtirish va liberallashtirish maqsadida yagona “**Tadbirkorlik kodeksi**”ni ishlab chiqish;

-“**Har bir oila-tadbirkor**” g‘oyasini izchillik bilan hayotga tatbiq etish;

-hududlarda tadbirkorlik infratuzilmalarini har tomonlama rivojlanirish, istiqboldagi rivojlanish strategiyasini belgilash;

-bank kreditlari berish tartib tamoyillarini soddalashtirish siyosatini davom ettirish;

-eksport-import tartib tamoyillarini yanada soddalashtirish, tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bo‘yicha davlat xardilariini kengaytirish;

-venchur korxonalar va jamg‘armalar, “biznes farishtalar” – moliyaviy va boshqa resurslarni innovatsion loyihalarga sarflovchi xususiy investorlar faoliyati, “startaplar uchun” shart-sharoitlarni yaratish;

-korxonalarning o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot va innovatsion ishlarini soliq imtiyozlari orqali rag‘batlantirish²¹⁶.

2022-2026 yillarga mo‘ljalangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida 29-maqсад sifatida tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagи ulushini 60 foizga yetkazish belgilangan²¹⁷.

Endilikda, tadbirkorlik subyektlarining faoliyatlarini bosqichma-bosqich qayta tiklash hamda koronavirus pandemiyasiga qarshi kurash choralarini qo‘llagan holda xavfsiz faoliyatlarini yuritishlari uchun quyidagilarni amalgaga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

²¹⁶ Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси - Г. "O'ZBEKISTON", 2021-143-144-бетлар.

²¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljalangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to g‘risida”gi PF-60-soni Farmoni. 1-ilova. // <https://lex.uz/w/docs-5841063>

—xususiy tadbirkorlar uchun xom ashyo resurslaridan foydalanish mexanizmini tubdan qayta ko'rib chiqish, uni yanada soddalashtirish, ochiq va oshkora bo'lishini ta'minlash. Buning uchun resurslarni ochiq birja va yarmarka savdolarida sotish hajmini kengaytirish;

— tadbirkorlik subyektlari va xususiy mulk egalari uchun huquq va kafolatlarni qonuniy himoya qilish normalarini kuchaytirish;

—erkin raqobat muhitini va barcha tadbirkorlik subyektlariga teng imkoniyatlar yaratish maqsadida imtiyoz va preferensiyalarni oqilonalashtirish, ularni ayrim korxonalarga emas, balki alohida ishlab chiqarish va xizmat turlarini rag'batlanadirish maqsadida berish;

—tekshirishlar o'tkazishga ruxsat berishning maxsus elektron axborot tizimiga o'tish va uning nazoratini Bosh prokuraturaga yuklash. Shuningdek, tadbirkorlar huquqlarini ishonchli himoya qilishda Savdo - sanoat palatasi ishtirokini ta'minlash, halol tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, noplak tadbirkorlarga nisbatan murosasiz bo'lish.

Asosiy tushuncha va atamalar

Biznes, tadbirkorlik, an'anaviy tadbirkorlik, innovatsion tadbirkorlik, faol tadbirkorlik, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, kichik korxona, mikrofirma, oilaviy tadbirkorlik, tadbirkor, faol tadbirkor, ishbilarmonlik muhiti, soliq va kredit imtiyozlari.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Kim kichik va xususiy korxonalarning subyekti hisoblanadi?
2. Kichik biznes faoliyagining tarqalish sohalari qanaqa?
3. O'zbekistonning yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi qanday?
4. Xususiy sektor va tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini tushuntirib bering.
5. O'zbekistonda xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini nimalardan iborat?
- 6.O'zbekistonda keyingshi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha nimalar amalga oshirildi?

7. Koronavirus pandemiyası davrida kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvatlash uchun qanday chora-tadbirlar ko'rilmogda?
- 8.O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirshning qanday huquqiy-me'yoriy asoslari mavjud?
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvda so'zlagan nutqining mazmunini gapirib bering.
10. Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qanday yo'nalishlarni belgilab bergan?
11. Kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha xorij mamlakatlari tajribasini ayтиб bering.
12. 2022-2026 yillarga mo'ljalangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qanday maqsad va vazifalar belgilangan?

20 - BOB. DAVLATNING MINTAQAVIY SIYOSATI VA HUDUDLAR RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLARI

20.1. Mintaqaviy iqtisodiyot va davlat mintaqaviy siyosatining mohiyati, prinsiplari, maqsadlari

Mintaqa tushunchasi jahon yoki mamlakat territoriyasining bir qisimiga nisbatan qo'llaniladi. Mintaqqa jahon territoriyasining bir qismi sifatida o'z ichiga geografik, siyosiy, iqtisodiy, ekologik, etnomadaniy axborot, harbiy va boshqa mezonlar va yondashuvlar asosida bir necha mamlakatlarni oladi. Masalan, Sharqiy Yevropa, G'arbiy Yevropa, O'rta Osiyo, Markaziy Osiyo, Janubiy Sharqiy Osiyo va boshqa mamlakatlar turkumi mintaqalari mavjud. Bir alohida olingan mamlakat ichida viloyatlar, tunnan va shaharlar geografik, iqtisodiy siyosiy, etnomadaniy, ekologik, axborot va boshqa mezonlar bo'yicha ma'muriy territorial birlik sifatida uning mintaqalarini tashkil etadi.

Mintaqa iqtisodiyotining shunday tizimlari mayjudki, ular har bir mamlakatning milliy iqtisodiyotida, mustaqil xo'jalik yuritishda alohida o'rincutadi va o'zining tabiiy iqlim, geografik joylashuvi, tabiiy-mineral va xom-ashyo resurslarining zaxiralari, mehnat resurslari bilan ta'minlanganligi, ishlab chiqarish salohiyati, tarmoqlari va sohalarining ham infratuzilmasining miqyosi, aholisining urf-odatlari va traditsiyalari, mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha ixtisoslashuvi hamda ijtimoiy mehnat taqsimotidagi hissasi, aholi jon boshiga ishlab chiqargan hududiy yalpi mahsulot kabilalar bilan farqlanadi.

Bular makroiqtisodiyot va mikroiqtisodiyot o'rtasi, ular faoliyatini iqtisodiyot nazariyasi mezoiqtisodiyot (yunoncha "mesos" oraliq) bo'limi sifatidagi fan – mintaqqa iqtisodiyoti o'rganadi. Mezoiqtisodiyot tarkibiga mintaqada (hududda)gi sanoat tarmoqlari, yoqilg'i-energetika kompleksi, qishloq xo'jaligi, SUV xo'jaligi kompleksi, qurilish, transport va aloqa kommunikatsiyasi, uy-joy kommunal xo'jaliklari, oliy va maxsus ta'lif, sog'liqni saqlash, uy xo'jaliklari, o'ziga xos kichik va

xususiy tadbirkorlik faoliyatini yurituvchi hunarmand, kasanachilik kabilalar kiradi.

Shu bilan birga, hudud (mintaqa) tarmoqlari tarmoqlararo miqyosidagi iqtisodiy muammolari, ekologik muammolarni tadqiq qilish va o'rganish ham mezoiqtisodiyot (mintaqa iqtisodiyoti) tarkibiga kirib, alohida o'rinni tutadi. Mintaqalarning iqtisodiyoti bir mamlakat milliy iqtisodiyotining bo'linmasi va uzviy bir bo'g'ini (qismi) sifatida ajralmas umumiqtisodiyot siyosati ta'sirida yagona bir yaxlit shaklda xo'jalik faoliyatini yuritadi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvori yo'nalişlaridan biri – bu iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirish orqali jahon xo'jaligiga yanada chuqurroq va samarali shaklda mintaqalarning integratsiyalashtirishdan iborat davlatning tartibga solish siyosatidir.

Mintaqaviy siyosat-hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining davlat tomonidan tartibga solinishidir. Mintaqaviy siyosatning maqsadi – mamlakatning yaxlit ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xalaqit beradigan ijtimoiy kelishmovchiliklarning paydo bo'lishiga xizmat qiladigan hududiy notengliklarni bartaraf etishdan iborat. Uning asosiy vazifasi mayjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish hisobiga mamlakatdagi barcha hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini imkon qadar bir-biriga yaqinlashtirish, aholining turli qatlamlari o'rtasida moddiy ne'matlar taqsimotidagi hududiy tafovutlarni eng kam darajaga keltirish, hukumatning boshqaruv vazifalarini kamaytirib. Mahalliy hokimiyat va o'z-o'zini boshqarish organlari vakolatini oshirishga qaratishdan iboratdir²¹⁸.

Mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutiladi:

1. Mintaqadagi barcha resurslardan (moddiy, moliyaviy, mehnat) foydalanib, ishlab chiqarishning jadalligi va mutanosibligini ta'minlash hamda shu asosda uning samaradorligini oshirish.

²¹⁸ Ишмухамедов А.Э., Рахимова М.Р., Ишмухамедова Л.А. Мintaqalning iqtisodiyot. Дарслар-Т., ТДИУ, 2007-162-бет.

2. Mintaqalarning istiqboldagi rivojlanish sur'atlarini aniqlash. Bunda mahalliy resurslardan to'la foydalanishga e'tibor berish.

3. Ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan ishlab chiqarishda keng foydalanish. Buning uchun mintaqada ilmiy-texnika taraqqiyoti jadallahishini ta'minlovchi iqtisodiy mexanizmni yaratish, rejalashtirishni yanada demokratiyalashtirish lozim bo'ladi. Shuningdek, korxonalarga, mintaqaviy birliklarga intikativ (tavsiyaviy) rejalarni tuzish uchun huquqiy iqtisodiy sharoitlar yaratish, bozor iqtisodiyoti sharoitida samarali raqobat bo'lishini bozor konyunkturasiga mos mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlash maqsadida quyidagi vazifalarni ham hal etish lozim:

a) ishlab chiqarishni bozor hajimi va konyunkturasiga mos ravishda tashkil etish va rivojlantirish;

b) valyuta tushumlarining ko'payishini ta'minlash maqsadida tashqi iqtisodiy faoliyatni kengaytirish;

d) bozor talabi asosida tez o'zgaruvchi yangi texnologiyalarni joriy etish va mahsulot sifatini oshirish va hokazolar.

e) tashqi iqtisodiy munosabatlarni Markaziy Davlat organlari bilan kelishilgan holda mahalliy manfaatlarni hisobga olib rivojlantirish.

Ushbu fikrlardan kelib chiqib, mintaqaviy siyosatga – mintaqalar (hududlar) ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi mutanosiblikni ta'minlash va ular o'rtaсидаги eng muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlardagi farqlarni, nomutanosibliklarni bartaraf etishga qaratilgan umummilliy siyosatning muhim tarkibiy qismidir, deb ta'rif berish mumkin. Mintaqaviy siyosat keng ma'noda mamlakat hududlarining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini boshqarish bo'yicha hokimiyat organlarining maqsad va vazifalari hamda ularni amalga oshirish mexanizmini ifodalaydi.

20.2. Hududlar rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish usullari va vositalari

Mintaqa va hududlar rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishga qaratilgan davlat mintaqaviy siyosatini amalga oshirishning muhim dastklari quyidagilardan iboratdir:

- rivojlanayotgan yoki davlat dasturiga ko'ra ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun ayrim hududlarda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatuvchi korxonalarga molivaviy imtiyozlar yoki rag'batlar beriladi, ya'ni investitsiyaviy grantlar, past foizdagi kreditlar beriladi, soliqlardan, ijara to'lovlaridan ozod qilinadi;

- rivojlanayotgan hududlardagi korxona va firmalarning o'z ofis, idora, ishlab chiqarish obyektlarini boshqa hududlarga olib ketmasliklari uchun ular faoliyatini nazorat qilish;

- rivojlanayotgan hududlarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmani rivojlantirish uchun investitsiyalar qilish, ayniqsa, yo'llar qurish, aholi hayot sharoitini yaxshilash muhim ahamiyatga ega.

Hududlarni rivojlantirishga qaratilgan davlat mintaqaviy siyosatining muhim tarkibiy qismi mintaqaviy iqtisodiy siyosat hisoblanadi. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat maqsadlari mintaqaviy (hududi) rivojlanish maqsadlari bilan uzviy bog'liqdir. Iqtisodiy sohadagi mintaqaviy siyosat maqsadi hudud salohiyati, uning cheklangan iqtisodiy resurslaridan, hududlararo mehnat taqsimoti va kooperatsiyasi afzalliklaridan oqilona foydalanish asosida aholi turmush darajasi va sifatini oshirish hisoblanadi.

Ijtimoiy sohadagi mintaqaviy siyosatning maqsadi har bir hududdagi barcha aholi qatlamlari uchun munosib turmush darajasini, sharoitlarini va teng yashash kafolatlarini ta'minlash, kishilarning yashash joyini va mehnat qilish joyini, turini tanlash huquqlarini amalga oshirish imkoniyatini yaratish, ichki ijtimoiy muhitning keskinlashishiga yo'l qo'ymaslikdan iboratdir.

Shu bilan birga shakllanayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida mintaqaviy iqtisodiyotini tartibga solish bo'yicha davlatning iqtisodiy

mintaqaviy siyosatining maqsadlari yuqoridagilarga qo'shimcha tarzda quyidagilardan iborat:

- hududlarda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash asosida aholi turmush darajasini oshirish sharoitlarini ta'minlash;
- hududlar bilan hamkorlikda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash, yangi ishlab chiqarish texnologik usullarini ko'p ukladli, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish asosida aholi turmush darajasini oshirish;
- hududlarda maqsadli tarkibiy, investitsiyaviy, ilmiy-texnikaviy siyosatni amalga oshirish, iqtisodiyot real sektorida tadbirdorlikni, iqtisodiy islohotlar ijtimoiy muammolarini hal etishga qaratilgan faoliyatni rag'batlantirish;
- hududning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash. Hududning iqtisodiy xavfsizligi uning iqtisodiyoti barqarorligini va rivojlanishini ifodalovchi shart-sharoitlar, omillar hamda mavjud holatlar yig'indisini ifodalaydi.

Mintaqaviy siyosatni amalga oshirishda birinchi navbatda mamlakatdagi hududiy notengliklarning sabablari aniqlanadi. Bunda quyidagilarga e'tibor beriladi:

- tabiiy iqlim sharoitidagi keskin tafovutlarning mamlakat ayrim hududlari aholisining turmush sharoiti va tadbirdorlik faoliyatiga ta'siri;
- mintaqalardagi mayjud tabiiy resurslar turi, hajmi, sifati va ulardan foydalanish darajasi;
- mintaqalarning chekka, olis hududlarda joylashganligi natijasida transpolt xarajatlarining ko'payishi, mahsulot narxlarining ortishi. Bu esa o'z navbatida milliy va mahalliy bozorlarning torayishiga olib keladi. Transport va kommunikatsiya aloqalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi chetda joylashgan mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini sekinlashtiradi;

-u yoki bu turdag'i mahsulotlarni (xom ashyo resurslari, oraliq mahsulotlar, tayyor mahsulotlar va xizmatlar) ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi texnologik rivojlanish bosqichi;

-mintaqaning avtonomiya darjasasi, siyosiy shart-sharoitlari, rivojlanish tarixi va boshqalar;

-ishlab chiqarish infratuzilmasi, ya'ni transport va telekommunikatsion, axborot tizimlari, sanoat maydonlari va boshqalar bilan ta'minlanganligi;

-ijtimoiy-madaniy omillar: shaharlashuv darajasi, aholining ma'lumoti, ilmiy markazlarning mavjudligi, ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalari , sport inshoatlari bilan ta'minlanganligi;

-mintaqada bozor infratuzilmasing rivojlanish darajasi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan ko'pgina mamlakatlarda mintaqaviy siyosat mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajalarini bir-birlariga yaqinlashtirish maqsadida investitsiya (kapital qo'yilma)larning qayta taqsimlanishini ta'minlashga xizmat qiladigan quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

Birinchi yo'nalish-kam rivojlangan va sanoat taraqqiyoti past bo'lgan mintaqalarda infratuzilma obyektlarini barpo etish va boshqa mintaqva va hududlar bilan iqtisodiy aloqasini yaxshilashdan iborat.

Ikkinci yo'nalish- yuqori darajada rivojlangan va sanoati taraqqiy etgan mintaqalar, xususan, yirik shaharlarga nisbatan ma'muriy yoki moliyaviy cheklash usullarini qo'llash.

Uchinchi yo'nalish-muammoli mintaqalarga sanoat korxonalarini joylashtirish maqsadida xorijiy va milliy xususiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlanтирish²¹⁹.

Ta'kidlash joizki, davlat mintaqaviy siyosat orqali mintaqqa (hudud) iqtisodiyotini tartibga solishda bevosita va bilvosita usullardan keng foydalanadi.

Davlatning hududiy iqtisodiyotga bevosita, to'g'ridan-to'g'ri aralashishi ma'muriy vositalardan foydalanish yo'li bilan amalgamoshiriladi. Bu usullar davlat hokimiyyati kuchiga tayanish, ruxsat berish, man qilish, majburlash choralarini o'z ichiga oladi.

Bilvosita tartiblash turli iqtisodiy chora-tadbirlar, vosita va dastaklar orqali analga oshiriladi.

²¹⁹ Ишмухамедов А.Э., Рахимова М.Р., Ишмухамедова Л.А. Мингақвий иқтисодиёт. Дарсланк.-Т., ТДИУ, 2007.-163-164-бет.

Hududiy takror ishlab chiqarish jarayonlarini ma'muriy uslublar orqali tartibga solish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- hududiy takror ishlab chiqarish subyektlariga davlat boshqaruvining yuqori organlari tomonidan mavjud holat, vaziyatga ta'sir ko'rsatuvchi ma'muriy farmoyishlar qarorlar;
- hududdagi korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tartibga soluvchi qoidalari;
- tavsiyalar, taftish, masalan moliyaviy-budget tekshirishlar, nazorat, masalan, sanitarn-epidemiologik nazorat.

Ma'muriy usullar o'rnatilgan tartib, qoidalarni buzgan ayrim korxonalarga nisbatan majburlash imkoniyatlarini ham ko'zda tutadi. Ma'muriy usullar yordamida mahalliy boshqaruva organlari davlat mulkini xususiyashtirish jarayonlarini tartibga soladi, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, hududdiy tabiiy resurslardan foydalanish hamda ijtimoiy jarayonlar bilan bog'liq masalalarni hal qiladi (qarang: 20.2.1-jadval).

20.2.1-jadval

Mintaqaviy (hududiy) takror ishlab chiqarish jarayonlarni tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy usullari¹

| Ma'muriy usullar | Iqtisodiy usullar |
|--|---|
| Boshqarish qarorlarini tayyorlash va amalga oshirish uchun sharoit yaratishga yo'naltirilgan aniq manzilli topshiriqlar berishga asoslanadi | Umumiy iqtisodiy qonun-qoidalarga, tamoyillarga tayanadi |
| Boshqariladigan obyektlarga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatishda, boshqarish organining manfaatini ustuvor ravishda ko'zlashda ifodalanadi | Boshqariladigan obyektlarga bilvosita ta'sir ko'rsatiladi, turli mulkchilik shakllardagi korxonalarning iqtisodiy manfaatlari hisobga olinadi |
| Qabul qilinadigan qarorlar uchun asosiy mas'uliyat boshqarish organi zimmasida bo'lib, boshqariladigan obyektning huquqlari cheklangan | Xo'jalik subyektlari to'liq mustaqillikka ega bo'lishi, o'z faoliyati va uning oqibatlari uchun yuqori mas'uliyatlari bo'lishi taqozo etiladi |
| Ma'muriy farmoyishlar, rejalar direktiv | Xo'jalik subyektlarini o'zining iqtisodiy |

¹ Абдурахмонов К.Х., Абдуллаев А.М., Даудабоев Ш.Х. Региональная экономика и управление Учебник. / Под ред. Акад. С.С. Гулямова – Т.: Изд-во "Fan va tehnologiya", 2007. – 425-427-бет ма'lumotlari asosida tuzildi.

| | |
|---|---|
| xarakterga ega bo'lib, ularni bajarish majburiy hisoblanib, undan chetlanishga yo'l qo'yilmaydi | manfaati nuqtai nazaridan va iqtisodiy riskni e'tiborga olgan holda muqobil qarorlar tayyorlashga va oqilona yechimlar topishga undaydi |
|---|---|

Mintaqaviy (hududiy) takror ishlab chiqarish jarayonlarni tartibga solishning iqtisodiy usullari xo'jalik subyektlarining iqtisodiy manfaatlari orqali, soliq intiyozlar, kreditlar va subvensiyalar va boshqa dastaklar yordamida qo'llaniladi. Yuqori boshqarish organlari belgilagan va tasdiqlagan qoidalar, nizomlar doirasida xo'jalik subyektlari, mahalliy hokimiyat organlari faoliyatiga bilvosita ta'sir ko'rsatib, ularga keng vakolatlar beriladi.

Shuningdek, mintaqalar iqtisodiyotini tartibga solishga qaratilgan davlat mintaqaviy siyosatini amalga oshirishda adolatli va samarali usullardan foydalanadi. Adolatli usul-ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning shunday turiki, unga ko'ra mamlakat fuqarolari qaysi hududda yashashlaridan qat'iy nazar, ularning turmush darajalari deyarli bir xil sharoitlar va imkoniyatlarda bo'lishi ko'zda tutiladi. Samarali usul- umum davlat manfaatlari yo'lida har bir mintaqaning mavjud ishlab chiqarish imkoniyatlaridan, salohiyatlaridan oqilona foydalanishga qaratilgan usuldir. Har ikkala usuldan to'g'ri va mutanosib foydalanish muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

20.3. O'zbekistonda mintaqaviy siyosatning o'ziga xos xususiyatlari

Shakllanayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning mintaqaviy siyosati iqtisodiyotni erkinlashtirish, mamlakat ma'muriy-hududiy birliklarining moliyaviy-xo'jalik mustaqilligini mustahkamlash respublika markaziy hukumati bilan mahalliy hokimliklar o'rtasida vazifalarning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi jarayonlarini hisobga olgan holda shakllantiriladi.

O'zbekistonda yuqorida bayon qilinganlardan kelib chiqqan holda davlatning mintaqaviy siyosati bosh maqsadlari sifatida quyidagilar belgilab olingan:

- mamlakatning barcha hududlarida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilangan huquqlarning ta'minlanishi uchun teng siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni yaratish;

- respublika barcha aholisining ijtimoiy kafolatlarini hamda teng ijtimoiy va huquqiy himoyalashni ta'minlash.

Ushbu maqsadlarning amalga oshirilishi quyidagilarni taqozo etadi:

- mintaqqa (hudud)larda yangi iqtisodiy munosabatlarni va umumiqtisodiy sharoitlarni qaror toptirish uchun qulay sharoitlar yaratish. Buning oqibatida turli mulkchilik shakllariga ega bo'lgan xo'jalik subyektlarining faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratiladi;

- mintaqqa (hududlarda) ularning va aholining manfaatlarini ro'yobga chiqarish uchun sharoitlar shakllantiriladi;

- mahalliy hokimlik va o'z-o'zini boshqarish organlarining mintaqqa (hududlarni) boshqarishdagi roli va faolligi ortadi;

- mintaqqa (hudud)lararo infratuzilmani tiklash, qayta tiklash. Buning oqibatida mamlakat miqiyosida yagona iqtisodiy makon, xalq xo'jali kompleksi shakllantiriladi. Shuningdek samarali hududiy samarali mehnat taqsimoti va ijtimoiy mehnat integratsiyalashuvi vujudga keltiriladi hamda bozor munosabatlari rivojlantiriladi;

- kam rivojlangan hududlarni rivojlanishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, istiqbolli hududlarni ustuvor ravishda rivojlantirish.

Ushbulardan kelib chiqib, davlat mintaqaviy siyosatni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- respublika davlat hokimiyyati va boshqaruvi hamda mahalliy o'z-o'zini boshqarishning huquqiy asoslarini, shuningdek O'zbekiston Respublikasi sub'ektlarining o'zaro teng huquqligining konstitutsiyon tamoyillarini ta'minlash;

- O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi prognoz (istiqbol) ko'rsatkichlarini va maqsadli dasturlarni muntazam ravishda ishlab chiqish;

- O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyyati va boshqaruvi hamda mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarini uslubiy va me'yoriy jihatdan ta'minlash va qo'llab-quvvatlash;

- mamlakatning ma'muriy-hududiy bo'linishini zarur holatlarda o'zgartirib turish. Bu mamlakatdagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar in'ikosi sifatida amalga oshirilib turiladi.

Mamlakatda davlatning mintaqaviy siyosatini amalga oshirishning eng muhim shartlari ham mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iboratdir;

- mamlakat miqyosida yagona iqtisodiy makonni ta'minlash. Buning uchun davlat boshqaruvining umumiyligining sharti bo'lgan yaxlit pul, soliq, budjet va moliya tizimining, yaxlit axborot makonining mavjudligi, asosiy institutsional ya'ni ma'muriy boshqaruv tizilmalar rivojlanishining tartibga solinishi muhim ahamiyatga ega.

- ishlab chiqarishni barqarorlashtirish, respublikaning har bir hududda iqtisodiy o'sishni ta'minlash asosida aholining barcha tabaqalari turinush darajasini oshirishga erishish;

- davlat organlarda rahbarlik lavozimlarda faoliyat yuritayorgan davlat xizmatchilarini qayta tayyorlash va malakasini muntazam oshinib borish, rahbar kadrlar zahirasini shakllantirish;

- davlat xizmatchilar malakasini oshirish bilan shug'ullanuvchi muassasalar va tashkilotlari, markazlar faoliyatini boshqarish.

Mamlakat hududlarini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini tartibga solish maqsadini amalga oshirishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- mamlakatning barcha hududlarini barqaror rivojlanishish ularning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajalarini imkon darajada tenglashtirish;

- hududlarning tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalaniш;

- ishlab chiqaruvchi kuchlarning joylashtirilishi va rivojlanishi dagi asossiz vujudga keltirilgan nomutanosiblikni bartaraf etish;

- hududlarni ixtisoslashuvini oqilonalashtirish va tumanlararo iqtisodiy aloqalarni optimallashtirish;

- hududlarning hududlararo va tashqi iqtisodiy integratsiyalashuvi, ayrim hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy biqiqligiga barham berish.

Davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning huquqiy shakllari sifatida qonunlar, qonunosti va sud huquqiy xujjalr, aktlar xizmat

qiladi. O'zbekistonda hududlar rivojlanishini tartibga solishda Prezident Farmonlari va Qaror, Farnoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qaror va farnoyishlari muhim rol o'yamoqda.

Hududlar rivojlanishini tartibga solishning tashkiliy-institutsional tarkibi respublika ijro hokimiyati darajasida Vazirlar Mahkamasi, ko'pgina vazirlik va idoralar tomonidan shakllantiriladi.

Hududlarni rivojlantirish umumiy siyosati Iqtisodiyot vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Ayrim iqtisodiyot sektorlari va yo'nalishlari bo'yicha hududiy muammolar bilan Markaziy bank, Moliya vazirligi va boshqa barcha vazirlikdar va davlat qo'mitalari shug'ullanadilar.

Mustaqillik yillarda O'zbekiston Respublikasida hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirildi:

- hududlarni, tumanlar guruhini va tumanlarni kompleks rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish;
- hududlar mineral-xomashyo resurslarini kompleks o'zlashtirish, yer-suv resurslaridan samarali foydalanish, tashqi atrof muhitni muhofaza qilish;
- sanoat va uning tarmoqlarini rivojlantirishning hududiy va respublika dasturlarini ishlab chiqish, faoliyat yuritayotgan ishlab chiqarish quvvatlarini profilini o'zgartirish, xorijiy investitsiyali yangi korxonalarni qurish;
- hududlar qishloq xo'jaligini ularning tabiiy-iqlim xususiyatlarini hisobga olgan holda ixtisoslashtirish, qishloq xo'jaligida islohotlarni rivojlantirish va yanada chuqurlashtirish bo'yicha respublika, hududiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- ish bilan bandlik, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, qishloq aholisini tabiiy gaz va ichimlik suvi va boshqalar bilan ta'minlash bo'yicha respublika dasturlarini amalga oshirish;
- respublika va mahalliy boshqaruv tizimlarini takomillashtirish;
- mahalliy budgetni mustahkamlash, hududlarga dotatsiya va subvensiyalar ajratish;

- boshqarishning hududiy-xo'jalik tizimini oqilona tashkil etish maqsadida mamlakatni ma'muriy-hududiy bo'linishini takomillashtirish.

Mintaqalarda ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish masalalari bilan viloyat, shahar, tuman hokimiyatlari qoshidagi Iqtisodiyot va statistika bosh boshqarmasi shug'ullanadi. Hokimiyatlar qoshida iqtisodiyot bilan shug'ullanuvchi barcha idoralar istiqboldagi muammolarni rejalashtirish boshqarmasi bilan muvofiqlashtiradi. Hokimiyatlar tarkibida iqtisodiyotning u yoki bu sohalari bilan shug'ullanadigan moliyaviy tuzishga xalq deputatlari mahalliy kengashlari rahbarlik qiladi. Mintaqalardagi rejalashtirish tashkilotlari o'z faoliyatini jumhuriyatning tegishli kompaniyalari va vazirligi bilan mahalliy hokimiyat tasdiqlangan nizom asosida olib boradi. Nizomda rejalashtirish boshqarmasining faoliyatları, huquqlari va burchlari aniq ko'rsatilgan bo'ladi.

Viloyat Iqtisodiyot bosh boshqarmasining quyidagi asosiy vazifalari belgilangan;

1) viloyatni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish rejasini tuzish va undan ijtimoiy va ishlab chiqarish sohalarini barqaror va mutanosib rivojlantirishni ta'minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish;

2) viloyat aholisining xalq iste'moli tovarlariga bo'lgan talabini to'la qondirish, aholining pul daromadlari va xarajatlari mutanosibligini ta'minlash;

3) mahalliy budjet va korxonalarning daromadlari hisobiga o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlash tamoyili asosida yillar mobaynida 2-darajali bo'lib kelgan, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish.

Viloyat Iqtisodiyot bosh boshqarmasining quyidagi faoliyatları belgilangan:

1) viloyatni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish rejalarini belgilangan muddatda va tartibda ishlab chiqish. Viloyat mintaqasidagi barcha korxonalarni, shahar va tumanlarning biznes-rejalari ustidan uslubiy rahbarlik qilish;

2) jumhuriyatning ishlab chiqaruvchi kuchlarini joylashtirish dasturini tuzishda, mintaqaviy ishlab chiqarish dasturlarini tuzishda bevosita ishtirok etish va tegishli tavsiya va takliflar berish;

3) ish joyini tashkil etish, mehnat balansi, moddiy balanslar tuzish, rejalarining bajaralishini nazorat qilish va hokazo.

Mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mintaqaviy siyosatning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Bu borada ko'zlangan asosiy maqsad mamlakat va uning mintaqasi (hudud)lari raqobatbardoshligini oshirish hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish quyidagilarga yo'naltiriladi:

- mamlakat va uning mintaqasi (hudud)larini xalqaro bozorlar bilan integratsiyalashuvini ta'minlash, mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarini mintaqasi va hududlar bo'yicha oqilona joylashtirish, ularning o'zaro aloqadorligini, ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvini ta'minlash orqali mamlakat va mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishga, barqaror va mutanosib iqtisodiy o'sishgacha erishish;
- mintaqasi (hudud)lar infratuzilmalarini rivojlanitish;
- mintaqalarda ishlab chiqarish sohalarining raqobatbardoshligini oshirish;
- mintaqasi (hudud)lar rivojlanishidagi farqlarni qisqartirish.

O'zbekistonda milliy iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishida hududlarning roli sezilarli darajada oshdi. Hududlarning iqtisodiy salohiyati va raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirilgan maqsadli hududiy dasturlar amalgalashdi. Buning natijasida yalpi hududiy mahsulot 2019 yilda 2000 yilga nisbatan Toshkent shahrida 5,7 martaga, Jizzax viloyatida 4,5 martaga, Andijon viloyatida 4,1 martaga, Qoraqalpog'iston Respublikasida 4,1 martaga, Samarcand viloyatida 4,0 martaga, Andijon viloyatida 4,1 martaga, Namangan viloyatida 3,9 martaga, Surxondaryo viloyatida 3,7 martaga o'sdi. Yuqori iqtisodiy o'sishga erishgan Jizzax, Samarcand va Surxondaryo viloyatlarida xizmat ko'rsatish sohalari iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim rol o'ynadi. YaHM mamlakat YaIM dan yuqori bo'Imagan o'sish sur'atiga ega bo'lgan hududlar guruhibiga Xorazm (3,6 marta), Buxoro (3,4 marta), Qashqdaryo (2,9 marta), Toshkent (3,1 marta), Sirdaryo (2,9 marta), Farg'onha (2,7 marta), va Navoiy (2,2 marta) viloyatlari kiradi²²⁰.

²²⁰ Mustaqillik yillarda (1991-2016 yillar) O'zbekiston Respublikasining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili// stat.uz/uz; Асадов Х.С. Современные тенденции экономического развития регионов Узбекистана // Экономика Центральной Азии. – 2020. – Том 4. – № 3. – С. 251-262.

Mintaqalar yalpi hududiy mahsulot (YaHM)larining O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti (YaIM)dagi ulushining o'zgarishi tahlili Toshkent shahrining ulushi 2000 yildagi 12,2%dan 2021 yilda 16,6%ga, Qoraqalpog'iston Respublikasining ulushi 3,4 %dan 3,6% ga, Jizzax viloyati ulushi 2,6%dan 3,2%ga, Navoiy viloyatining ulushi 4,5% dan 8,1% ga o'sganligini ko'rsatmoqda. Qolgan mintaqalar YaHMning respublika YaIM dagi ulushlari kamaygan (qarang: 20.3.1-jadval).

20.3.1-jadval.

Hududlar yalpi hududiy mahsuloti (YaHM)ning O'zbekiston Respublikasi YaIM dagi ulushi (2000-2021yillar, % da)²²¹

| Hududlar | 2000 y | 2013y | 2017 y | 2018 y | 2019 y | 2021 y |
|-------------------------------|--------|-------|--------|--------|--------|--------|
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 3,4 | 2,5 | 3,4 | 3,7 | 3,7 | 3,6 |
| Andijon viloyati | 7,4 | 6,5 | 6,3 | 6,5 | 6,4 | 6,0 |
| Buxoro viloyati | 6,4 | 5,6 | 5,5 | 5,2 | 5,2 | 5,3 |
| Jizzax viloyati | 2,6 | 2,3 | 3,0 | 3,0 | 3,0 | 3,2 |
| Qashqadaryo viloyati | 7,2 | 7,3 | 7,5 | 6,2 | 6,1 | 6,0 |
| Navoiy viloyati | 4,5 | 5,4 | 4,7 | 5,4 | 7,1 | 8,1 |
| Namangan viloyati | 5,3 | 4,2 | 4,8 | 4,4 | 4,5 | 4,7 |
| Samargand viloyati | 8,1 | 6,3 | 8,5 | 7,7 | 7,3 | 7,3 |
| Surxondaryo viloyati | 5,1 | 4,2 | 4,5 | 4,4 | 4,2 | 4,1 |
| Sirdaryo viloyati | 2,6 | 1,8 | 2,1 | 2,0 | 2,2 | 2,1 |
| Toshkent viloyati | 11,5 | 9,9 | 9,2 | 9,5 | 10,5 | 11,2 |
| Farg'on'a viloyati | 11,5 | 6,8 | 6,6 | 6,5 | 6,2 | 6,4 |
| Xorazm viloyati | 4,3 | 3,2 | 3,8 | 3,7 | 3,6 | 3,7 |
| Toshkent sh | 12,2 | 14,5 | 13,5 | 14,3 | 15,4 | 16,6 |

Aholi jon boshiga yalpi ichki (hududiy) mahsulot ishlab chiqarish hajimi joriy narxlarda 2021 yilda 2010 yilga nisbatan O'zbekistonda 7,6 martaga, Navoiy viloyatida 11,5 martaga, Toshkent shahrida 9,4 martaga, Qoraqalpog'iston Respublikasida 10,3 martaga, Jizzax viloyatida 8,4 martaga, Toshkent viloyatida 9,6 martaga, Sirdaryo viloyatida 7,6 martaga, Buxor viloyatida 7,9 martag o'sgani holda

²²¹ Экономика Узбекистана информационно-аналитический бюллетень за 2014 год.-Т., ЦЭИ. 2015. С.72; Альманах Узбекистана 2013 год. -Т., ЦЭИ, 2013.-С.83; Узбекистон Республикасининг ижтимоий-иктисодий ҳолати. 2019 йил январь-декабрь.-Т., 2020.-25-бет; Узбекистон Республикасининг ижтимоий-иктисодий ҳолати. 2020 йил январь-декабрь.-Т., 2021.-31-бет ма lumotlari asosida tuzildi.

Surxondaryo viloyatida 6,9 martaga, Farg'ona viloyatida 7,1 martaga o'sdi (qarang: 20.3.2-jadval).

20.3.2-jadval

Aholi jon boshiga yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmi (joriy narxlarda, ming so'm)²²²

| Hududlar | 2000y | 2010y | 2017y | 2018y | 2019y | 2021y |
|-------------------------------|-------|---------|---------|---------|----------|----------|
| O'zbekiston Respublikasi | 132,1 | 2 763,7 | 9 802,1 | 12887,7 | 15 764,9 | 21 039,3 |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 72,2 | 1 317,0 | 5 932,1 | 8 461,0 | 10 463,9 | 13 558,6 |
| Andijon viloyati | 110,1 | 1 722,7 | 6 612,8 | 8 931,1 | 10 913,4 | 13 596,2 |
| Buxoro viloyati | 145,3 | 2 822,2 | 9 257,9 | 11664,0 | 14 739,4 | 19 746,4 |
| Jizzax viloyati | 84,7 | 1 940,4 | 7 373,0 | 9 546,6 | 11 807,8 | 16 363,6 |
| Qashqadaryo viloyati | 107,7 | 2 601,3 | 6 925,3 | 8 348,5 | 9 979,1 | 12 999,6 |
| Navoiy viloyati | 186,5 | 5 016,3 | 15447,7 | 23347,2 | 37 095,9 | 57 983,4 |
| Namangan viloyati | 88,5 | 1 450,8 | 5 721,7 | 6 938,6 | 8 598,8 | 11 892,5 |
| Samarqand viloyati | 98,1 | 2 061,3 | 7 335,8 | 8 741,5 | 10 174,4 | 13 472,8 |
| Surxondaryo viloyati | 94,6 | 1 597,5 | 5 788,9 | 7 346,2 | 8 614,6 | 11 095,3 |
| Sirdaryo viloyati | 131,8 | 2 342,0 | 8 399,8 | 10443,8 | 14 257,5 | 17 915,7 |
| Toshkent viloyati | 148,9 | 2 918,0 | 10225,2 | 13965,5 | 18 939,3 | 28 163,9 |
| Farg'ona viloyati | 139,6 | 1 718,8 | 5 775,7 | 7 575,2 | 8 805,9 | 12 267,9 |
| Xorazm viloyati | 107,1 | 1 826,7 | 6 705,4 | 8 777,2 | 10 394,4 | 14 093,5 |
| Toshkent sh | 186,0 | 4 596,1 | 20151,0 | 25938,4 | 33 897,3 | 43 211,1 |

Aholi jon boshiga yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan Navoiy viloyati bilan 2000yilda eng past ko'rsatkichga ega bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasi o'rtaqidagi farq 257%ni, 2010 yilda 380%ni tashkil etgan. 2021 yilda Navoiy viloyati bilan Surxondaryo viloyati o'rtaqidagi farq esa 522,6%ni tashkil etdi.

Iqtisodiyoda amalga oshirilgan tarkibiy siljishlar va tarmoqlardagi sifat o'zgarishlar natijasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish indeksida va uning in'ikosi bo'lgan reytinglarda ayrim hududlar ijobji natijalarga

²²² Aholi jon boshiga yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmi (joriy narxlarda, ming so'm)/file://D:/Статистика/Статистика"202010-2020%"20Marsiy% ma'lumotlari asosida tuzildi.

erishgan bo'lsa, boshqalari salbiy ko'rsatkichlarga erishdilar. Jumladan, 2000-2019 yillarda Buxoro viloyati 4 o'rindan 2 o'ringa ko'tarilgan bo'lsa, Navoiy viloyati 2-o'rindan 4-o'ringa pastladi (qarang: 20.3.3-jadval).

20.3.3-jadval

O'zbekiston hududlarining 2000-2019 yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish indeksi²²³

| Hududlar | 2000y | | 2019y | |
|-------------------------------|--------|---------|--------|---------|
| | indeks | reyting | indeks | reyting |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 0,39 | 13 | 0,37 | 8 |
| Andijon viloyati | 0,47 | 7 | 0,41 | 5 |
| Buxoro viloyati | 0,54 | 4 | 0,45 | 2 |
| Jizzax viloyati | 0,38 | 14 | 0,35 | 14 |
| Qashqadaryo viloyati | 0,49 | 6 | 0,36 | 10 |
| Navoiy viloyati | 0,63 | 2 | 0,42 | 4 |
| Namangan viloyati | 0,41 | 12 | 0,36 | 11 |
| Samarqand viloyati | 0,47 | 8 | 0,41 | 6 |
| Surxondaryo viloyati | 0,42 | 11 | 0,35 | 13 |
| Sirdaryo viloyati | 0,47 | 9 | 0,35 | 12 |
| Toshkent viloyati | 0,56 | 3 | 0,45 | 3 |
| Farg'on'a viloyati | 0,54 | 5 | 0,37 | 9 |
| Xorazm viloyati | 0,46 | 10 | 0,39 | 7 |
| Toshkent sh | 0,84 | 1 | 0,86 | 1 |

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish indeksi va reytingida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Farg'on'a, Qashqadaryo, Sirdaryo, Samarqand, Surxondaryo viloyatlari ijobiy natijalarga erishishdi.

Mintaqa (hudud) iqtisodiyotini rivojlantirsh va uning raqobatbardoshligini oshirish uchun mamlakatda lokomotiv va tayanch mintaqalarni belgilab olish lozim bo'ladi. Lokomotiv mintaqalarni deb quy'idagi talablarga javob beradigan mintaqaga aytildi:

- mintaqada yuk va yo'lovchi tashish oqimlari barqaror o'sish kuzatiladi;

²²³ Асадов Х.С. Современные тенденции экономического развития регионов Узбекистана // Экономика Центральной Азии. – 2020. – Том 4. – № 3. – С. 251-262.

- mintaqada mamlakat uchun ahamiyatli bo'lgan nufuzli ilg'or ilmiy-ta'lif markazi faoliyat yuritadi;
- butun mamlakat uchun ahamiyatga ega bo'lgan strategik tashabbus shakllanadi;
- yuqori ilmiy-texnikaviy, intellektual, kadrlar va ijtimoiy potensialga ega bo'lish;
- mamlakat iqtisodiy rivojlanishida salmoqli ulushga ega, ya'ni Yalidagi ulushi yuqori bo'lishi lozim;
- mintaqada davlat, fuqarolik jamiyatni institutlari va biznes vakillari o'rtaida strategik hamkorlikning mavjud bo'lishi;
- 10-15 yillik istiqbolda ushbu mintaqaga qsho'ni mintaqaga va hududlar rivojlanishiga turki berish imkoniga ega bo'lishi kerak.

Malakatni territorial rivojlanish bosh sxemasiga ko'ra tayanch mintaqaga belgilab olinib, uning rivojlantirish vazifalari aniqlanadi. Bu esa quyidagi imkoniyatlarni vujudga keltiradi:

- mamlakatni xalqaro bozorlarga integratsiyalashuvini samarali ta'minlash, o'z territoriyasida tovarlar, moliyaviy mablas'lar, ishchi kuchi, oqimlarini, innovatsiyalarni ishlab chiqish va ular muommalasini boshqarish markazlarini to'plashga muvoffiq bo'linadi;
- bir necha lokomotiv va tayanch hududlarni shakllantirish orqali mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi jadallashtiriladi, boshqa mintaqalar (hudud)lar uchun yangiliklar yaratish manbasiga aylantiriladi. Bu mintaqalar qo'shni mintaqalarga o'z korxonalarining buyurtmalarini berish, ayrim ishlab chiqarish bo'g'inlarini tashkil etish orqali ularning ham rivojlanishiga turki beradi;
- mamlakat mintaqalari o'rtaida infratuzilmaviy, ishlab chiqarish-texnologik va ijtimoiy-madaniy aloqadorlikni ta'minlash orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishiladi;
- mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish loyihalarni keng miqiyosda amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'linadi.

Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda territorial-tarmoq klasterlar muhim rol o'yndaydi. Klasterlarda ba'zi hududlarda ayrim tovarlar, butlovchi qismalarni xom ashyolarni ishlab chiqarish tashkil

etiladi. Bunga Asakadagi yengil avtomobillar, ularning butlovchi qisimlarini ishlab chiqarishning tashkil etilganligi misol bo‘ladi. Klaster hudud manfaatini korxona manfaati bilan uyg‘unlashtiradi. Klaster territorial-ishlab chiqarish ichida raqobat muhitini yaratib, ichki va jahon bozorlariga mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etadi hamda mazkur hudud aholisini ish bilan ta’minklashni yaxshilaydi, hududni har tomonlama rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Klaster ishtirokchisi bo‘lgan xo‘jalik sub’ektlarining o‘zaro aloqadorligini, birqalikda ilmiytadqiqot, yangi texnologiyani joriy etish, ishlarini birqalikda amalga oshirish tajriba, bilim va asosiy fondlardan birqalikda foydalanish, risklarni kamaytirishda, jahon bozorlariga chiqishda hududni rivojlantirish, obodanlashtirishda o‘zaro hamkorlik qilishi kuchayadi.

Mintaqa (hudud) ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanirish maqsadli dasturlarini ishlab chiqish ko‘zda tutiladi. Bu dasturlarni ishlab chiqishda o‘zaro aloqadorlik va davomiylik, resurslarni tejash, infratuzilmaviy ta’mnot tamoyillariga asoslaniladi.

Bunday dasturlarni ishlab chiqish va mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanirish modellarini yaratishda SWOT tahlilidan foydalaniladi. Ushbu tahlil asosida mintaqqa, hududning kuchsiz va kuchli tomonlari, imkoniyatlari va tahdid, xavf-xatarlar aniqlanadi. Mintaqani rivojlanirishning turli ssenariyalar ishlab chiqiladi. Inersion rivojlanish ssenariysida barcha tendensiyalar amalda saqlanadi. Eksportga yo‘naltirilgan rivojlanish ssenariysida eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishlarni va ularning salohiyatini rivojlanirish hamda mustahkamlash tadbirlarni amalga oshirish ko‘zda tutiladi. Mabilizatsion rivojlanirish ssenariysida ichki zaxiralarni, resurslarni, iqtisodiy o‘sish omillar hisobga olinadi va rivojlanishi maqsadida foydalanishga yo‘naltiriladi.

Mutanosib o‘sish ssenariysida eksportga yo‘naltirilgan va ichki resurslarni mobilizatsiya qilish variantlari sintez qilinadi, ya’ni uyg‘unlashtiriladi.

Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanirish strategiyasini prognozlashtirish va asoslashda mintaqqa iqtisodiy xavfsizligini

ta'minlash vazifalarini ham hal etish ko'zda tutiladi. Umuman ushbu strategiyani ishlab chiqish hamda amalga oshirishda quyidagi vazifalar belgilanadi va hal qilinadi:

- hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadlari, variantlari, ssenariylari va ko'lamlari asoslanadi;
- rivojlanishning obyektiv qonuniyatları va tendensiyalari hisobga olinadi;
- tovar va xizmatlar, mehnat, resurslar va moliyaviy bozorlar shakllanishi va rivojlanishi istiqbollari aniqlanadi;
- mintaqqa ijtimoiy rivojlanishi, aholi turmush darajasi va sifatining o'sishi yo'nalishlari belgilanadi;
- tarkibiy va investitsiyaviy siyosat yo'nalishlari shakllantiriladi;
- mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi muammolar, turg'unlik va tanglik holatlari aniqlanib, ularni hal etish bosqichlari hamda muddatlari belgilanadi;
- viloyatlararo, tumanlararo va tashqi iqtisodiy munosabatlarni samarali rivojlantirish haında takomillashtirish yo'nalishlari asoslanadi;
- eksport salohiyatini rivojlantirish va mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi;
- tashqi muhitning ahvolini yaxshilash, tabiatdan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar asoslanadi va ishlab chiqiladi.

Mintaqa, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan dasturlarning amalga oshirilishi mintaqaning o'zini o'zi tashkillashtiruvchi, o'zini-o'zi boshqaruvchi va oqilona boshqariladigan ijtimoiy-iqtisodiy, etnomadaniy va territorial-ma'nuriy birlik sifatida rivojlanishiga imkoniyat yaratadi.

20.4. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish

O'zbekiston Respublikasi hududlari ijtimoiy-iqtisodiy darajalaridagi va iqtisodiy-tabiiy salohiyatidagi farqlar ularni istiqbolda hududiylari tarroq xususiyatlarini hisobga olgan holda ijtimoiy-iqtisodiy

rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish jarayonlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Hududni iqtisodiy rivojlantirishni barqarorlashtirish strategiyasini asoslashning quyidagi yo‘nalishlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir:

- hudud rivojlanishini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilish; bu bosqichda hududning erishgan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasi tahlil qilinadi;

- hududni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish strategiyasini asoslash; rivojlanishni prognoz qilinadi; strategiya asoslanadi, hudud rivojlanishini tartibga solish metodlari tanlanadi;

- konsepsiya ishlab chiqish va hudud rivojlanishini davlat va bozor mexanizmlari orqali tartiblash metodlarini tanlash;

- hududning moliyaviy resurslari o‘sishini prognoz qilish; budjet daromad qismini kengaytirish va mustahkamlash yo‘llarini izlash; budjet daromad qismini to‘ldirishning yangi manbalarini aniqlash, turli mulkchilik shakllariga asoslangan tadbirdorlikdan, xorijiy investorlardan va nobudjet jamg ‘armalaridan qo‘sishimcha mablag‘larni jalb etish²²⁴.

Davlat tomonidan hududlarni rivojlantirishni tartibga solish maqsadida quyidagi dasturlar ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda.

1. Sanoatni rivojlantirish dasturlari.

2. Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishni tartibga solish. Bunda quyidagi tartiblash usullaridan foydalaniilmoqda.

- hududlarda mahsulot hajmini, qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarini va hududlarning ixtisoslashuvini tartibga solish;

- qishloqda ijtimoiy va bozor infratzilmasini vujudga keltirish;

- qishloq xo‘jaligi yerlarining meliorativ ahvolini yaxshilash;

- qishloq xo‘jaligi korxonalari moddiy-teknika bazasini yaxshilash va mustahkamlash, ishlab chiqarishga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha

²²⁴ Qarang: Регулирование территориального развития в условиях рыночной экономики / Под ред. Б.М.Штульберга. М., 1993С 73; Содыков А.М. Основы регионального развития: теория, методология, практика – Т: IQTISOD-MOLIYA; 2005. – С 165.

korxonalar tarmog‘ini yaratish;

- tabiatni muhofaza qiluvchi va gidrotexnik qurilmalarni qurish;
- zarar ko‘rib ishlovchi va past rentabelli qishloq xo‘jaligi korxonalarни moliyaviy qo‘llab-quvvatlash.

Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish dasturiga muvofiq qishloqda mulkdorlar sinfini fermer xo‘jaliklarini shakllantirish, jarayonlari davom ettirildi, tuproq unumdarligini oshirish, seleksiya va urug‘chilikni yaxshilash, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi hajmlarini o‘stirish chora-tadbirlari ko‘riladi.

3. Hududlar eksport salohiyatidan samarali foydalanish va qo‘shma korxonalarни tashkil etishni tartibga solish.

Endilikda respublika hududlarida, ayniqsa kam rivojlangan hududlarda qo‘shma korxonalar tashkil etish xorijiy investitsiyalarni jalb etish maqsadida maqsadli dasturlar tuzish va ularni rag‘batlantirish uchun soliq, boj, kredit imtiyozlari mexanizmini yaratish maqsadga muvofiqdir.

4. Transport-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish. Hududlarda temir yo‘llar, avtomobil yo‘llarini qurish hududiy siyosatning muhim qismi hisoblanadi. Buning oqibatida hududlarning viloyatlararo tumanlararo va tashqi iqtisodiy aloqalari kuchayadi, tadbirkorlik, biznes rivojlanishi, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay muhit yaratiladi.

5. Hududlarning ijtimoiy rivojlanishini tartibga solish.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanantirish dasturini tuzishda ma‘lum tamoyillarga asoslanish kerak bo‘ladi. Bu tamoyillar mintaqaviy iqtisodiy fani nuqtai-nazaridan quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

- hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarining maqsadliligi;
- hududni rivojlanirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha resurslarni to‘plash va yo‘naltirish;
- belgilangan harakatni nazorat qilish va tartiblash imkoniyatlarining ochiqligi;
- hududni rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashning individualligi;

- qo'llab-quvvatlash mexanizmining ta'sirchanligi;
- respublika va mahalliy hokimiyat organlarining hamkorligi va ular faoliyatining uyg'unligi.

Hududiy dasturlarni ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi hududiy rivojlanishni davlat tomonidan tartibga solishning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Hududiy dasturlarini bajarishga to'sqinlik qiladigan holatlar va omillarni aniqlash muhim ahamiyatga egadir.

Hududlarni rivojlantirish bo'yicha qabul qilinadigan dasturlarning bajarilishiga ko'pgina hollarda quyidagi omillar to'sqinlik qilishi mumkin:

- respublika va hududiy maqsadli dasturlarni tanlashning sinalgan tizimlarining mavjud emasligi, ularni amalga oshirishning va ularni bajarish ketma-ketligining yetarli darajada asoslanmaganligi;
- respublika tarmoq dasturlarining hududiy jihatlarining yetarli darajada ishlanmaganligi;
- tarmoq dasturlari hududiy jihatlari monitoringining yo'qligi;
- respublika va hududiy dasturlarni amalga oshirish mexanizmning mustahkam emasligi;

Respublika va hududiy dasturlarni ishlab chiqishda maqsadli-dasturlash uslubidan foydalanish maqsadga muvofikdir. Bu uslub pirovard natijaga erishish uchun iqtisodiy resurslarni yo'naltirishni ta'minlashni ifodalaydi. Uning yordamida eng muhim iqtisodiy, ijtimoiy va ilmiy-texnikaviy rivojlanish muammolari hal etiladi. Bu muammolar amalda tarmoqlararo yoki hududlararo tavsifga ega bo'lib xalq xo'jaligi ahamiyatga ega bo'ladi.

Maqsadli dasturlar o'rta va uzoq muddatga mo'ljallab korxona, mamlakat va xalqaro miqyosda tuziladi. Dasturlar o'z ichiga pirovard va oraliq maqsadlarni, vazifalarni, ularni amalga oshirish chora-tadbirlarni, resurslar ta'minotini, olishi kerak.

Dastur maqsadi o'Ichamga ega bo'lishi, chora-tadbirlar **tizimi** esa pirovard va oraliq maqsadlarni amalga oshirish nuqtai-nazaridan ishlab chiqilishi lozim.

Maqsadli hududiy dasturlar hududiy rivojlanishni tartibga solishning samarali metodi sifatida davlat, mahalliy, jamoaviy, shaxsiy manfaatlarni uyg'unlashtirishi hamda jamiyatning barcha aholi tabaqalarini davlatning hududiy siyosatini amalga oshirishga da'vat etadigan, yo'naltiradigan bo'lishi kerak. Shuningdek, hududni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish dasturlari mamlakatda amal qilayotgan qonunlar, huquqiy me'yoriy xujjalas asosida ishlab chiqilishi lozim.

Hududni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishdan ko'zlangan asosiy maqsad hududiy iqtisodiyotni uning tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish va tashqi manbalarni jalb etish yo'li bilan mutanosib va oqilona rivojlantirishdan iboratdir.

Ushbulardan kelib chiqib, hududiy dasturlarni ishlab chiqishda qo'yidagi vazifalarни bajarishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi;

- hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini umumiy baholash va iqtisodiy rivojlanishning asosiy tendensiyalarini, iqtisodiy o'sish muammolarini va rezervlarini aniqlash;

- hududning mahalliy mineral-xomashyo, yer-suv va mehnat resurslaridan foydalanishning miqdor va sifat darajalarini tahlil qilish;

- hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi va taktikasini ishlab chiqish, istiqbolli tarmoqlar va hududning ixtisoslashish sohasini, iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarini aniqlash;

- maxalliy qishloq xo'jaligi va mineral xomashyolardan samarali foydalanishga asoslangan yangi eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishlarni shakllantirishning aniq yo'llarini belgilash, jahon darajasidagi tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha kam chiqindili va chiqindisiz texnologiyalar jihozlangan yangi korxonalarini vujudga keltirish;

- hududda qulay, jozibador investitsion muhitni yaratish, xorijiy investorlar, mahalliy korxonalar, tadbirkorlar, aholi mablag'lari va resurslarini kengroq jalb etish;

- aholini ijtimoiy himoyalash va mehnat resurslarining oqilona

bandligini ta'minlashning mexanizmini ishlab chiqish;

- xo'jalik subhektlari o'rtaida raqobat sharoitini va to'laqonli bozor infratuzilmasini vujudga keltirish;

- hududni oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa ommaviy iste'mol mollari bilan o'zini-o'zi ta'minlashini oshirish;

- qishloq aholi punktlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanirishni jadallashtirishi uchun qulay sharoitlarni shakllantirish. Buning uchun hududga mahalliy soliqlar bo'yicha imtiyozlar berish maqsadga muvofiqdir.

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish orqali uning hudud yalpi ichki mahsulotidagi ulushini oshirish;

- hududning tashqi iqtisodiy faoliyatini kengaytirish, eksport va import tarkibini oqilanalahtirish, hududda faoliyat yuritayotgan xorijiy investitsiyali korxonalar faoliyatini yanada yaxshilash va yangi qo'shma korxonalarni tashkil etish.

Hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanirish dasturini ishlab chiqish uchun avvalom bor hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni umumiy baholash maqsadga muvofiqdir.

Buning uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

1. O'tgan davrdagi hududning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi tavsifi beriladi. Bunda hududning sanoat, qishloq xo'jaligi va ijtimoiy salohiyatini baholashga alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'ladi.

2. Hududning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi darajasi va ahvoli to'g'risidagi tahlilga asoslanib, uning rivojlanishidagi ijobjiy va salbiy tendensiyalari, iqtisodiy rivojlanishi rezervlari va foydalanimagan imkoniyatlari aniqlanadi. Shuningdek, kelgusida hal etilishi lozim bo'lgan muhim iqtisodiy va ijtimoiy muammolari aniqlanadi.

3. Amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarning natijalari, ko'p ukladli iqtisodiyotning vujudga kelishi va rivojlanishi, shuningdek, hududi bozor infratuzilmasi ahvoli baholanadi.

4. Hududdagi tarmoqlar va yirik sanoat korxonalarining o'tgan davrdagi faoliyati tahlil qilinadi, ularning ish natijalari yoki orqada

qolishining sabablari va omillari aniqlanadi.

5. Sanoat rivojlanishi ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishi darajasi belgilanadi, ishlab chiqarish quvvatlarini eksportga yo'naltirilgan va import o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarishga qayta ixtisoslashtirish va kengaytirish uchun qo'shimcha zaxiralalar va resurslar aniqlanadi. Hudud imkoniyatlarini hisobga olgan holda ustuvor ahamiyatlari tarmoqlar va ishlab chiqarishlar aniqlanadi.

6. Hudud aholisini o'zida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlanganligi, ularni hududdan chiqarish va kiritish balansi, agroresurs salohiyatidan foydalanish samaradorligi, shuningdek, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi, va chorva mollari mahsulorligining o'sishi (pasayishi) omillari va sabablari baholanadi.

Hududning tabiiy-iqtisodiy salohiyatini baholash qo'yidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Hududning mehnat, yer-suv va mineral xom ashyo resurslari bilan ta'minlanganligi miqdoriyi va sifat bahosi beriladi.

2. Hududdagi demografik vaziyat, aholining ish bilan bandligi keyingi o'n yillik davr bo'yicha baholanadi. Ishsizlik darajasi, shu jumladan uning yashirin shakllari baholanib, aholi va mehnat resurslari soni proqnoz qilinadi.

3. Foydali qazilma boyliklari zahiralari, ularning o'zlashtirilgan ahvoli tahlil qilinada. Hudud mineral xom ashyo bazasi imkoniyatlari, qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb etishni hisobga olgan holda baholanadi. Shuningdek, qazib chiqaruvchi korxonalarining foydali qazilma boyliklari bilan ta'minlangani, ularning konlarni o'zlashtirish xarakatlari o'r ganiladi.

4. Hududda yer-suv resurslari bilan ta'minlangani ularning ahvoli, yerlarning meliorativ ahvoli, yer bonitetlari o'r ganilib, meliorativ yaxshilash istiqbollari o'r ganiladi.

5. Hududning ishlab chiqarish, transport va aloqa infratuzilma salohiyati o'r ganiladi. Aholining ijtimoiy infratuzilma obyektlari va xizmatlari bilan ta'minlanganligi darajasi baholanadi.

6. Hududda ishlab chiqaruvchi kuchlarini, yangi korxonalarni

joylashtirish uchun istiqbolli tuman, shahar, yirik aholi yashash punktlari tanlanadi.

Hududni rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish yo'nalishlari belgilanadi. Rivojlantirish dasturlarini amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Dasturda hududni iqtisodiy va ijtimoiy istiqbolda rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va ko'rsatkichlari bayon qilinadi. Bunda asosiy e'tibor yangi ishchi o'rnlari, tabiiy, moliyaviy, mehnat resurslarini, ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanishga qaratiladi.

Bu yo'nalishlar quyidagilarni ifodalashi lozim:

1. Hududning istiqboldagi ehtiyojlari va hududlararo ayriboshlash imkoniyatlarini kengaytirish asosida iqtisodiy maqbul tarmoq va ishlab chiqarishlar aniqlanadi. Istiqbolda tarmoqlarni rivojlantirishning iqtisodiy ko'rsatkichlari, tarmoq tarkibining o'zgarishi, eksportga yo'naltirilgan va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar hajmi prognoz qilinadi. Bunda amaldagi korxonalarini texnik, texnologik va tashkiliy jihatdan yangilash muammolariga alohida e'tibor qaratiladi. Buning uchun ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish yanada chuqurlashtiriladi, nisbatan kichik korxonalar rivojlantiriladi. Bu korxonalarda maxalliy mineral xom ashyo va qishloq xo'jalik resurslaridan foydalilanildi.

2. Hududda yangi korxonalarini qurish, faoliyat yuritayotgan korxonalarini rekonstruksiya qilish, ixtisosligini o'zgartirish zarurligi asoslanadi; yirik obyektlarga qo'shimcha mablag'lar jalb qilish hisobkitoblari amalga oshiriladi.

3. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari, ekin maydonlari tarkibining o'zgarishi, qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishning natural hajmi prognoz qilinadi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini, chorva mollari mahsuldarligini oshirish yo'llari va manbalari belgilanadi. Yangi texnologiyalarni joriy etish ko'zda tutiladi.

4. Hududda xom ashylarni, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan tugallangan sikldagi ishlab chiqarish tarmoqlarini, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va sotish shaxobchalarini vujudga

keltirish, xorijiy investitsiyali qo'shma korxonalarni vujudga keltirish orqali yangi zamonaviy texnologiyalarni, xo'jalik yuritish shakllarini va boshqarish usullarini joriy etish.

5. Ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish va tabiiy resurslardan foydalanish uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida transport tizimi va kommunikatsiyalarini rivojlantirish istiqbollarini asoslash.

6. Mulkdorlar sinfini vujudga keltirish bo'yicha vazifalarni hal etish maqsadida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ularning iqtisodiyotdagi ulushini ko'paytirish, bozor infratuzilmasini rivojlantirish.

7. Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish ko'lamlarini, parametrlari belgilanadi. Bunda tashqi savdo tarkibiy tuzilishini takomillashtirishga, mahalliy xom ashyo resurslarini hisobga olgan holda xorijiy investitsiyali korxonalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

8. Dasturda tabiiy tashqimuhitni, tabiatni muhofaza qilish, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish tadbirdari, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish chora-tadbirlari ham o'z ifodasini topadi.

Har bir hududiy dasturda uni amalga oshirish mexanizmi ko'zda tutilishi kerak. Bu mexanizmda dasturni moliyaviy, iqtisodiy resurslar bilan ta'minlanishi muhim o'rinni tutadi.

Dasturni ishlab chiqishda har bir tadbir va tarmoq bo'yicha turli resurslarga bo'lgan talab, ehtiyoj hisob-kitob qilinadi. Shundan so'ng dastur bo'yicha uning resurslar bilan ta'minlanish manbalari aniqlanadi. Dasturlar resurslar balanslashtiriladi. Maqsadlar va resurslar o'rtaqidagi muvofiqlik ta'minlanadi.

Dasturlarni moliyalashtirish manbalarini aniqlashtirishda avvalom bor maxalliy resurslar va imkoniyatlar hisobga olinadi.

Joylardagi maxalliy davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari maxalliy budjet, tadbirkorlar va korxonalar o'z mablag'lari, fermer va dehqon xo'jaliklari, aholi mablag'larini jalb qilinadigan xorijiy investorlar, hududdan tashqaridagi tashkilot, korxonalar mablag'lарини

hamda bank kreditlarini hududiy dasturni amalga oshirishga jalb qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishlari lozim bo‘ladi.

Shuningdek, hududiy dasturlarni amalga oshirishda respublika budjeti va budjetdan tashqari jamg‘armalar, O‘zbekiston Respublika taraqqiyot va tiklanish jamg‘armasi mablag‘larini ham jalb etilishi mumkin.

Dasturlarni ishlab chiqishda undan kutilayotgan natijalar qanday bo‘lishi oldindan belgilanishi lozim. Dasturlarni amalga oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy natijalari sifatida hududiy yalpi ichki mahsulot, sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur’atlari, umumiy hajmi aholi jon boshiga ishlab chiqarish sur’atlari olinadi. Shuningdek, aholi turmush darajasi va uning ish bilan bandligi, aholi jon boshiga daromadlarining o‘sishi, hudud aholisining gaz, elektr energiya, toza ichimlik suvi, uy-joy bilan ta’minlanishining yaxshilanishi, hududning o‘zini-o‘zi oziq-ovqat, boshqa iste’mol tovarlari bilan ta’minlanishining yaxshilanishi ko‘rsatkichlari dasturlarning bajarilishi natijalari hisoblanadi.

Dasturlarni bajarilishini tashkiliy jihatdan ta’minalash muhim ahamiyat kasb etadi. Dasturlarni amalga oshirishda butun mas’uliyat joylardagi mahalliy hokimiyat va boshqaruв organlari zimmasiga yuklatiladi. Maqsadli hududiy dasturni eksport baholash, umumiy nazorat qilishni Vazirlar Mahkamasining tegishli boshqarma va bo‘lmalmali amalga oshiradilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minalashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2017 yil 8 avgust, PQ-3182-son qaroriga binoan hududlar sektorlarga bo‘linib, ularga rahbarlar belgilandi, sektorlar rahbarlariga hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish vazifalarini tashkil etish va hal qilish, shu jumladan, aholining eng muhim muammolarini yechish yuzasidan javobgarlik yuklash hamda vakolatlar berildi. Bunda respublika hukumati va joylardagi mahalliy hokimiyat organlarining maqsadli hududiy dasturlarni ishlab chiqish,

amalga oshirishdagi vakolatlari va vazifalari aniq belgilanishi lozim bo‘ladi.

Hududiy dasturlarning samaradorligini oshirish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- yetarli darajada rivojlanmagan, umum respublika darajasidan orqada qolayotgan hududlarni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishning yagona metodikasini tasdiqlash;

- respublika shahar va qishloq tumanlaridagi iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini monitoring qilish, ularni rivojlanish darajalariga ko‘ra tipologiyasini ishlab chiqish;

- hududiy dasturlarni, orqada qolgan tuman va shaharlarni qo‘llab-quvvatlash dasturlarining loyihalarini ekspertizadan o‘tkazishni tashkil etish.

Joylarda hududlarni rivojlantirish dasturlarini samarali boshqarish maqsadida viloyat, shahar, tuman hokimliklariga quyidagi vazifalarni yuklash maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- hududiy rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish, hududiy dasturni tuzish bo‘yicha takliflar berish;

- dastur asosida qo‘llab-quvvatlashga muhtoj, muammoli shahar, tuman, aholi punktlarini ajratish va belgilash;

- ular asosida mahalliy dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish hududiy dasturlarni respublikaning hududiy siyosati ustuvorliklari va tamoyillariga muvofiqlashtirish;

- mahalliy dasturlar loyihalarini ekspertizadan o‘tkazish va ular asosida yagona hududiy dasturlarni shakllantirish hamda ularni ko‘rib chiqish, tasdiqlash uchun hududiy rivojlantirish bo‘yicha Respublika komissiyasiga taqdim etish;

- maxalliy dasturlarni amalga oshirishga rahbarlik qilish va bajarilishini nazorat qilish, dastur bo‘yicha joriy axborotlarni, hisobotlarni muntazam berib borish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarida hududlarni iqtisodiy taraqqiyotining quyidagi strategik vazifalarini belgilab berdi:

- sotsial-iqtisodiy jihatdan jadal rivojlanish, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral va xomashyo, sanoat, qishloq xo'jaligi, turizm va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash;

- hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish miqyosini kengaytirish hisobidan hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqini kamaytirish, eng avvalo, sanoat va eksport salohiyatini o'stirish yo'li bilan tuman va shaharlarni jadal rivojlantirish;

- yangi sanoat, ishlab chiqarish va servis markazlarini tashkil etish hisobidan shahar tipidagi kichik shaharlar va shaharchalarni faol rivojlantirish, yirik xo'jalik birlashmalarining mablag'larini, banklarning kreditlarini va xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilish;

- subvention shahar va tumanlarni kamaytirish, sanoat va xizmatlar ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish hisobiga mahalliy budgetlarning daromadlar bazasini kengaytirish;

- sanoat va boshqa ishlab chiqarish obyektlarini joylashtirish uchun pulay shart-sharoitlar yaratish, xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish hamda aholining turmush darajasini yaxshilash maqsadida hududlarning ishlab chiqarish, muhandis-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmasini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish²²⁵.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida 33-maqsad sifatida hududlarni mutanosib rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiyotni 1,4-1,6 baravarga oshirish. 14 ta hudud bo'yicha tuman va shaharlar kesimida ishlab chiqilgan besh yillik hududiy dasturlarni amalga oshirish hamda 34-maqsad sifatida hududlarning muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tiziimini hamda xizmat ko'rsatish va servis sohalarini rivojlantirish belgilangan.

²²⁵ Шавкат Мирзиёев "Янги Ўзбекистон стратегияси"-Т. "О'zbekiston" шартийти. 2021.-168-169-бетлар

Asosiy tushuncha va atamalar

Mintaqa, hudud, mintaqa iqtisodiyoti, mintaqaviy siyosat, mintaqaviy siyosatning maqsadi, mintaqaviy siyosatning yo'nalishlari, mintaqaviy siyosat usullari, mintaqa iqtisodiy xavfsizligi, ijtimoiy-iqtisodiy indikatorlar, ko'rsatkichlar, mintaqa iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlar, hududlar rivojlanishidagi tengsizlik, mintaqa raqobatbardoshligi, territorial-tarmoq klasteri.

Mustahkamlash va takrorlash uchun savollar

1. Mintaqa iqtisodiyoti tushunchasining mazmuni nimadan iborat?
2. Qanday omillar mintaqaviy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatadi?
3. Mintaqaviy siyosat tushunchasining mazmuni nimadan iborat?
4. Mintaqaviy siyosatning asosiy tamoyillari va yo'nalishlari nimalardan iborat?
5. O'zbekistonda mintaqaviy siyosatning maqsadi va vazifalari nimalarda o'z ifodasini topadi?
6. Mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlari qanday ishlab chiqiladi?
7. Mintaqa iqtisodiy xavfsizligining mazmunini tushuntirib bering?
8. Mintaqa iqtisodiy xavfsizligiga qanday tahididlar mavjud?
9. Mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni qanday ko'rsatkichlar orqali baholash mumkin?
10. Mintaqa iqtisodiy xavfsizligini qanday ko'rsatkichlar orqali baholash mumkin?
11. Mintaqalarning rivojlanish darajalaridagi tafovutlarni kamaytirish uchun qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak?
12. Territorial-tarmoq klasteri nima?
13. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida hududlarni yanada rivojlantirish bo'yicha qanday maqsad va vazifalar belgilangan?

21-BOB. DAVLATNING TABIIY RESURSLARDAN FOYDALANISH JARAYONLARINI TARTIBGA SOLISHI VA EKOLOGIYA SOHASIDAGI SIYOSATI

21.1. O'zbekistonda ekologik vaziyat va tabiatdan foydalanishni tartibga solishning zarurligi

Ekologiya – tirik organizmlarning o'zaro va ularning yashash muhiti bilan bo'ladigan munosabati haqidagi fan, deb tan olinadi. Bu ma'nno uning grekcha atamasidan kelib chiqqan tarzda ifoda etilgan. Chunki grekchada “oikos”- uy, yashash joy, yashash muhiti, “logos” – ta'lilot degan ma'noni anglatadi. Uni bиринчи bo'lib fanga nemis tabiatshunos olimi Ernest Gekkel 1866 yilda chop etilgan o'zining “Organizmlarning umumiy marfologiyasi” degan kitobi orqali olib qirgan. Uning ta'rifiga ko'ra, “ekologiya - tabiatni iqtisodiy jihatdan tadqiq qilish orqali hamma tirik organizmlarning organik va noorganik muhit unsurlari bilan birga, uning ta'sir doirasida turgan antagonistik va noantagonistik aloqadorlikda bo'lgan o'simlik va hayvonot dunyosi o'rtaqidagi munosabatlarni ochib berishi”, - deb ta'kidlangan.

Fan va ta'lim rivojlangani sari ekologiya nafaqat mustaqil fan sohasi, balki fanlar tizimiga aylanib, hozirgi kunda mutaxassislarining hisoblariga ko'ra, 60ga yaqin ekologik sohadagi fanlar mavjud.

Shuningdek, ekologik bilimlar qadimgi Yunoniston, Rim, Sharq hamda Markaziy Osiyo manlakatlarida o'z rivojini topgan. Jumladan, Gippokrat, Aristotel va shu kabi yunon faylasuflari asarlarida ekologiya haqida qo'plab ma'lumotlar keltirilgan. Ekologiya fanining tarixi tabiiy fanlarning taraqqiyot bosqichlari bilan uzviy bog'liqdir. Qadimgi yunon olimi Aflatun (Aristotel eramizgacha bo'lgan 384-322 yillar) dunyoning paydo bo'lishi haqida fikr yuritib, tabiatdagi barcha mavjudot bir-biri bilan bog'liqdir, degan. Aflatunning shogirdi Teofrast Ereziykiy (eramizdan oldingi 378-280 yillarda yashagan) o'simliklar dunyosini o'rganib, ularning turli sharoitda har xil shaklda (daraxtsimon, butasimon va o'tsimon) bo'lishlarini qayd qilib, ularning inson hayotidagi rolini alohida ta'kidlagan. Gippokrat (eramizgacha 460-370

yillar) inson salomatligiga suv, havo va u yashab turgan muhit niyaoyatda katta ta'sir ko'rsatishini alohida qayd etgan.

Ekologiyaning keyingi taraqqiyoti Yevropada XVIII asrda o'z aksini topib, bu davrda K.Linney va J.Byuffonlar qimmatli ekoligik kuzatishlar olib borishganlar. Jumladan, Karl Linneyning (1707-1778 yillar) ilmiy asarlarida "Tabiat sistemasi" (1735), "Botanika falsafasi", (1751) va "O'simlik turlari" (1753) asarlarida o'simliklar va hayvonlarning sun'iy sistemasi yoritilgan. U tabiatda uch narsa: minerallar, o'simliklar va hayvonot dunyosini o'zaro bog'liqligini ta'kidlab o'tgan. Fransuz tabiatshunos olimi J.Byuffon esa bir turning ikkinchи turga aylanishiga tashqi muhit, iqlim harorati, ovqatlanish sifati va boshqa omillar sababchi bo'lishini isbotlab bergen.

Keyinchalik, Markaziy Osiyo va O'zbekiston ekologiya fanini rivojlantirish sohasida bir qancha olimlar o'z hissalarini qo'shganlar va o'z yo'nalishlarini shakllantirganlar. E'tiborli tomoni shundaki, 1930 yillarda ekologiya yo'nalishlariga asoslangan Markaziy Osiyo maktabi hozirgi M.Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti qoshida shakllangan. Maktab o'lkaning biologik jamoalarini, ularning tarkibiy qismlarini o'rganish bilan birga ekolog mutaxassislar tayyorlashda, ekologik fanini rivojlantirishda ham alohida turtki bo'lgan.

Demak, ekologiyani, tashqi muhitni himoya qilishdan maqsadi – hozirgi va kelajak avlodlar uchun ekologik xavfsiz muhitni yaratish va ta'minlashdan iboratdir. Ekologik xavfsiz muhit organizmlarning barqaror holatda ko'payishi, o'sishi va rivojlanishi uchun toza, sog'lom va qulay atrof tabiiy muhit holati demakdir.

Bugungi kunda ekologiya to'g'risidagi ilmiy qarashlar sof biologik fanlar tizimidan chiqib, mazsuni kengayib bormoqda. Atrof-muhitga zamонавиј fan va texnika taraqqiyotining ta'siri natijasida ekologiya tushunchasi kengayib borib, inson ekologiyasi degan tushuncha paydo bo'ldi.

Tabiiy va mineral-xom ashyo boyliklaridan vaxshiy larcha, ekstensiv usulda, juda katta xarajatlar va isrofgarchiliklar bilan foydalanish, hamda insonning tabiat imkoniyatlarini va uning rivojlanish

qonuniyatlarini hisobga olmay, jadal yuritilgan xalqaro tashvishi yor yuzada tuproq nurashi, o'rmonlardan mahrum bo'lish, bellajanning, hayvonlarning haddan tashqari ko'p ovlanishi, tuzli yomg'irler, atmosfera ifloslanishi, ozon qatlani buzilishi va hokazalarning su'y berishiga olib keldi.

Urbanizatsiya jarayonlarining jadal sur'atlari bilan so'zda bo'layotganligi oqibatida shaharlarning ifloslanishi kuchaydi. Tafakkut oltingugurt qo'shoksidi va azot oksidi bo'lgan tuzli yomg'irler yug'ish ko'paydi.

Dunyoda to'xtovsiz davom etayotgan qurollanish poygasi, atom, kinyoviy qurollar va omimaviy qirg'in qurollarining turli turflarning ishlab chiqarish, saqlash va sinash, bir qancha mamlakatlarda so'zda bo'lib turgan turli xil qurolli nizolar, fuqarolar urushlari, qurolli majore va urushlar insoniyat yashaydigan muhit uchun katta xavf tug'dirmoqda.

Dunyo aholisi sonining o'sib borishi oqibatida odamlar uchun oziq-ovqat va nooziq-ovqat iste'mol mollari ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi o'rmonlarning qisqarib ketishiga, cho'l-sahrolarning bosumib kelishiga, tuproqning buzilishiga, atmosferaning yuqorida joylashgan ozon to'sig'i kamayib ketishiga, yer havosi o'rtacha haroratining oshib borishi kabi noxush holatlarning yuzaga kelishi kuchayib bormoqda. Ekologik muhitning yomonlashuvi bilan bog'liq turli-tuman kesalliklari soni jadal o'sib borinoqda.

Ekologik muammolarning kuchayishi, atrof-muhitning ifloslanishi, ishlab chiqarish chiqindilarining ko'payishi, atmosferaga ifloslanuvchi moddalarni chiqarishning jadal o'sishi, yer va suv resurslari qameyishi, sifatining, unumdorligining pasayishi ekologiya xavfsizlik va tabiiy resurslardan ehtiyyotkorlik bilan, tejab foydalanish muammosini keltirib chiqardi.

O'zbekiston Respublikasidagi ekologik vaziyat uning geografik joylashuviga, iqlini sharoitiga bog'liqdir. O'zbekiston Amudaryo va Sirdaryo daryolarining oralig'ida Yevroosiyo qit'asining markaziy qismida, yarim sharning subtropik hududida joylashgan. Uning maydoni 448,9 ming kv.km bo'lib, hududining harbdan shargqacha bo'lgan

uzunligi 1400 kilometrni, shimoldan janubgacha esa 925 kilometrni tashkil qiladi. Davlat chegaralarining umumiy uzunligi 6621 kilometrni tashkil etadi.

O'zbekiston tabiiy-geografik sharoitlari bo'yicha tog', tekisligi va sahro relefi o'ziga xos uyg'unlashgan eng qulay mintaqalardan biridir. Mamlakat hududining 64 foizini sahro maydonlari tashkil etadi. Qumlik sahrolar sharq va janubi-sharqda qir-adirlar va tog' yonbag'irlariga aylanadi. Respublika tog'larining eng yuqori cho'qqisi-Hisor cho'qqisining balandligi dengiz sathidan 4643 metr bo'lib, eng quyi Nuqtasi – Mingbuloq pastligi – dengiz sathidan 12 metr pastdir. Tog'lar mintaqaning eng yirik ekotizimi bo'lib, tabiiy-ekologik muvozanatni va tabiipy muhitning barqarorligini saqlab qolish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ular yer, iqlim, suv, biologik, energetik, mineralogik va land shaft xilma-xilligining muhim manbai hisoblanadi. Foydalı qazilmalarning asosiy konlari (neft va gazdan tashqari) tog'larda joylashgan. Tog'lar o'rtasida Farg'onada vodiysi, Toshkent-Mirzacho'l, Sangzor-Nurota tekisliklari, Amudaryoning alyuvial tekisliklari joylashgan.

O'zbekistonning va butun Markaziy Osiyoning eng yirik daryolari – Amudaryo (1415 km) va Sirdaryodir (2122 km). O'zbekiston hududida 17 777 ta tabiiy oqar suv manbalari (Amudaryo havzasida — 9 930 ta, Sirdaryo havzasida — 4 926 ta) va 500 dan ortiq ko'l bo'lib, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi ularning eng kattasi hisoblanadi, shuningdek, prognoz qilingan hajimi sutkasiga 75,5 mln m³ni tashkil etadigan chuchuk suv va biroz sho'rangan yer osti suvlari konlarida 26 mingdan ziyod quduqlar mavjud²²⁶.

Mamlakatning iqlimi – subtropik, keskin mintaqaviy bo'lib, unga qurg'oqchilik, issiqlik va yorug'likning mo'l bo'lishi, kunduzgi va tungi, qishki va yozgi haroratlarning keskin amplitudasi xosdir. Respublikada eng sovuq yanvar oyida shiinolda harorat o'rtacha -10° S daraja, janubda

²²⁶ 2030 йилгача бўлган даврда Ўзбекистон Республикасининг Атроф муҳитни муҳофаза юлии КОНЦЕПЦИЯСИ/ Узбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 30 октябрдаги "2030 йилгача бўлган даврда Узбекистон Республикасининг атроф муҳитни муҳофаза юлии концепциясини тасдиқлаш түргиси"ги РF-5863-сон Фармонигай-ИЛОВА/<https://lex.uz/docs/4574008>

+2,-3° S bo‘lganda, Termiz shahri atrofida harorat o‘rtacha +18°Sni tashkil etadi.

O‘zbekiston uchta asosiy iqlim zonalari – cho‘llar va quruq dashtlar, tog‘ yonbag‘irlari va tog‘larga bo‘linadi. Cho‘l va quruq dasht hududlarining deyarli barchasi, shu jumladan Qizilqum sahrosi, Ustyurt platosi, Qarshi va Dalvarzin cho‘llari dengiz sathidan 400 metr balandlikda va undan pastda yotadi.

Sobiq sho‘ro hokimiyati davrida tabiat qonunlariga zid ravishda respublikamiz xususiyatlari va iqlim sharoitlari hisobga olinmay iqtisodning bir tomonlama, xom ashyo, oraliq mahsulot ishlab chiqarishga yo‘naltirilganligi, xalq xo‘jaligida paxta yakka hokimligi, suv va o‘rmon resurslaridan xo‘jasizlarcha foydalanish cho‘l maydonlarining kengayishi, tuproq qatlamining sho‘rlanishi, ekologiyaning buzilishiga olib keldi.

Respublikamizda vujudga kelgan ekologik vaziyat quyidagilardan iborat:

Birinchidan, yerning cheklanganligi va uning sifat tarkibi pastligi bilan bog‘liq xavf to‘xtovsiz ortib bormoqda. Hozirgi vaqtida qariyb 10 mln hektar yaylovlar tubdan yaxshilanishga muhtoj. Mollarni bir yaylovda qayta-qayta o‘tlatish, daraxtlarni yoqilg‘i va boshqa maqsadlar uchun kesish cho‘l zonasida daraxt-butta o‘simgilining ancha kamayib ketishiga olib keldi. Respublikada ko‘chadigan qumlar qariyb 1 mln hektar maydonni egallaydi va ushbu yerlarning ikki yuz ming hektari so‘nggi vaqtida sug‘oriladigan maydonlar atrofida paydo bo‘lgan. Bu esa cho‘llashish jarayonining jadallahuvida namoyon bo‘lувchi jiddiy tahdidni vujudga keltirmoqda. Yerlar degradatsiyasi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga jalb qilingan sug‘oriladigan hududlarda ham ro‘y bermoqda.

Shuningdek, tuproqning har xil sanoat chiqindilari va maishiy chiqindilar bilan shiddatli tarzda ifloslanishi, ayniqsa, uran va boshqa foydali qazilina boyliklarini qazib chiqarish jarayonida radiaktiv qoldiqlar saqlanadigan joylar ekologik jihatdan xavfli ifoslantirish o‘chog‘i hisoblanadi. Statistika ma’lumotlariga ko‘ra 2017 yilda

respublikada 114,7 mln tonna ishlab chiqarish va iste'mol chiqindilari, shu jumladan qayta ishlash mumkin bo'lмаган zaharli chiqindilar — 41,6 mln tonna (36,2 %) va qayta ishlash mumkin bo'lgan zaharli chiqindilar — 42,8 mln tonna (37,3 %) hosil bo'lgan²²⁷.

Ikkinchidan, suv zahiralarning, shu jumladan, yer usti va yer osti suvlarining keskin taqchilligi hamda ifloslanganligi jiddiy ekologik xavfdir. O'zbekistondagi daryolar asosan Qирг'изистон va Тоҷикистон tog'laridan boshlanadi. Suv resurslarining ko'pchilik qismidan Markaziy Osiyodagi barcha respublikalarning yerlarini sug'orish uchun foydalilanadi. Suv olish limitidan foydalanish tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston o'rta hisobda 85 foiz, 2008, 2011, 2018 yillardagi kabi suv kamchil yillarda esa 70 — 75 foizga yaqin suv oladi. Qishloq xo'jaligida o'rtacha yillik suv sarfi yuqoriligidcha qolmoqda. Shu munosabat bilan mavjud transchegaraviy daryo suv zahiralaridan birgalashib kelishgan holda boshqarish muammosini amaliy hal qilish talab qilinadi.

Uchinchidan, Orol dengizining qurib borish xavfi keskin ekologik xavf-xatar, tahdiddir. Orol falokati yoz faslida qurg'oqchilik va jazirama issiqni kuchaytirib hamda sovuq va qahraton qish faslini uzaytirib, iqlimning kontinentalligini chuqurlashtirdi.

To'rtinchidan, hovo bo'shilig'ining ifloslanishi ham respublikada ekologik xavfsizlikka solinayotgan tahdiddir. Statistik axborotga ko'ra, 2018 yilda respublika bo'yicha atmosfera havosiga chiqarilgan jami ifloslantiruvchi moddalar miqdori 2,492 mln tonnani tashkil etdi, shuning qariyb 63 foizi ko'chma manbalar hissasiga to'g'ri keladi. Atmosferada uglevodorod yig'indisining ko'payib borishi natijasida o'ziga xos keng ko'lamdag'i issiqxonha effekti vujudga keladi. Oqibatda Yer havosining o'rtacha harorati ortib ketadi.

Respublikamizda o'simlik va hayvonot dunyosi ob'ektlarini saqlash va qayta tiklash muammosi ham jiddiy e'tiborni talab qiladi. Hayvonot dunyosi salkam 15,7 ming turdan iboratdir (184 turi

²²⁷ 2030 йилгача бўлган даврда Ўзбекистон Республикасининг Атроф мухитни муҳофаза кишини КОНЦЕПЦИЯСИ// Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 30 октябрдаги "2030 йилгача бўлган даврда Ўзбекистон Республикасининг атроф мухитни муҳофaza кишини концепциясини тасдиқлаш түгрикенга"ти РF-5863-сон Фармонига-ИЛОВА//<https://lex.uz/docs/4574008>

O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan). O'simlik dunyosi 11 ming turni tashkil etadi (o'simliklarning 324 turi va qo'ziqorinning 3 turi O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan). Ayni vaqtida hayvonot dunyosining 91 turi Xalqaro Qizil kitobga, o'simlik dunyosining 324 turi va hayvonot dunyosining 184 turi O'zbekistonning Qizil kitobiga kiritilgan.

Biologik xilma-xillik to'g'risidagi konvensiyada Konvensiya tomonlariga quruqlikdagi qo'riqlanadigan tabiat hududlari ulushini mamlakat jami hududining 17 foizigacha yetkazish tavsiya etilgan. Hozirgi vaqtida O'zbekistonda bu ko'rsatkich qariyb 5 foizni tashkil etadi. 2019 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining o'rmon fondi 11 572,6 ming getktarni yoki mamlakat hududining 25,7 foizini, shu jumladan o'rmon bilan qoplangan 3 201,6 ming getktarni tashkil etadi. O'rmonlar asosan ekologik (tuproqni muhofaza qilish, suvni muhofaza qilish, o'simlik va hayvonot dunyosini va boshqa tabiat resurslarini saqlash va muhofaza qilish, sanitariya-gigiena, sog'lomlashtirish, rekreatsion) vazifalar va ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarini bajaradi.

Ekologik vaziyatni baholash uchun Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi institutlari (NIPTI "Atmosfera" va NPXS "Suv xo'jaligi ekologiyasi") tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududini ekologik rayonlashtirish metodologiyasi ishlab chiqilib, amalga oshirilgan. Rayonlashtirish respublikaning ma'muriy-hududiy taqsimotiga asoslangan; rayonlashtiriladigan eng kichik hududiy birlik (takson) sifatida ma'muriy tuman, respublika yoki viloyatga bo'y sunuvchi shahar qabul qilingan. Har bir taksonning ekologik vaziyati 18 ta ekologik indikator (mezon) bo'yicha baholangan ular hududlarning ekologik tanglik darajasi (ruxsat berilgan, kritik, favqulodda, ekologik falokat) bo'yicha an'anaviy taqsimoti bilan bir qatorda, balli baholarga ham ega bo'lib, o'rtacha solishtirma balli bahoni hisobga olgan holda xavfli va o'ta xavfli toifalarga bo'linadi.

Hududni ekologik tanglik darajasiga ko'ra rayonlashtirish (viloyatlar bo'yicha) quyidagi amalga oshiriladi: 400 va undan ko'p

ball- favqulodda tang 205-400-kuchli tanglik 150-250-o'rtacha tanglik, 120-150-sust tanglik va 120 normal (tanglik yo'q).

Ekologik jihatdan eng og'ir ahvolda turgan hudud Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'lib, bu yerda ekologik vaziyat favqulodda tang bo'lgan holda ahvol yanada og'irlashmoqdi (qarang: 21.1.1-jadval).

21.1.1-jadval

Hududni ekologik tanglik darajasiga ko'ra rayonlashtirish (viloyatlar bo'yicha)

| Ballar | Tanglik daroji | Hududlar |
|------------------------|------------------------|--|
| 400 va undan ko'p ball | favqulodda tang | Qoraqalpog'iston Respublikasi |
| 205-400 ball | kuchli tanglik | Xorazm, Farg'ona va Navoiy viloyatlari |
| 150-250 ball | o'rtacha tanglik | Samarqand va Buxoro viloyatlari |
| 120-150 ball | sust tanglik | Surxondaryo, Toshkent, Sirdaryo va Andijon viloyatlari |
| 120 ball | normal (tanglik yo'q). | Namangan, Jizzax, Qashqadaryo viloyatlari va Toshkent shahri |

Ta'kidlab o'tish joizki, hududlarni ekologik tanglik darajasi bo'yicha yuqoridagidek saralashda nosbatan "me'yoriy" viloyatlarda ham favqulodda og'ir holatlar kuzatilayotgan "qaynoq nuqtalar" bo'lishi ham mumkin. Masalan, Surxondaryo viloyatidagi Teriniz va Muzrabod tumanlari, Buxoro viloyatida G'ijduvon, Toshkent viloyatida esa Yangiyo'l shaharlari favqulodda ekologik vaziyat zonasiga kiradilar.

Rayonlashtirish natijalaridan ekologik ofat hududlarida yashovchi aholini ijtimoiy himoyalashga qaratilgan qonunchilikni ishlab chiqishda shuningdek atrof-muhitni muhofaza qilishning hamda O'zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanishini ekologik ta'minlashning Milliy va hududiy rejalarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

21.2. Davlatning ekologik siyosati va tabiatdan foydalanish vazifalari

O'zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunida iqtisodiy mexanizmni asosiy konsepsiysi shakllantirilgan, tabiiy resurslardan foydalanishga limitlar aniqlangan, tabiatni muxofaza qilish samaradorligini oshiruvchi ishlar uchun soliq, kredit va boshqa imtiyozlar berilgan. Suvdan foydalanish Respublikamizda 1993yil 6mayda qabul qilingan «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonun va boshqa qonunlar bilan tartibga solinadi.

Ekologik siyosat avvalombor inson salomatligini ta'minlash uchun qulay muhit yaratishga qaratilgandir. Inson salomatligini ta'minlashning muhim shartlaridan biri – ekologik sog'lom muhitdir. Shu ma'noda inson salomatligining barqarorligini ta'minlashda ekologik xavfsizlikni ta'minlash hal qiluvchi omillardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining ekologik siyosati Konstitutsiya, qonunchilik, atrof-muhit muhofazasi va barqaror rivojlanish bo'yicha xalqaro konvensiya va kelishuvlardan kelib chiquvchi majburiyatlarimiz, haimda ilg'or mamlakatlarning qonunchilik tajribasini hisobga olib Rio-de Janeyro va Yoxannesburg Deklaratsiyalari tamoyillari asosida olib borilmoqda.

O'zbekiston o'zining muhim strategik vazifasi bilan sog'lom avlodning shakllanishini aniqlab oldi. Bu esa barqaror rivojlanishni ta'minlashga yo'naltirilgan davlatning ekologik siyosati asosini belgilab berdi. O'zbekiston siyosati barqaror rivojlanishning quyidagi tamoyillariga asoslanadi:

1. Ekotizimlarning ma'lum barqarorligini saqlab qolish uchun tabiatdan foydalanish jarayonlarining muvozanatiga erishish.
2. Antropogen ta'sir kuchlar yuqori bo'lgan tumanlarda barqaror rivojlanishni yangilash.

3. Ekologik muammolarning iqtisodiy muammolar ustidan ustunligini keng omma oldida tasdiqlash, shu bilan birga davlat boshqaruvi jarayonlarini ekologizatsiya qilish.

Bozor munosabatlari sharoitida barqaror rivojlanishning ekologik vaziyatni tartibga solishga qaratilgan faoliyatning quyidagi asosiy yo'nalishlari mavjud:

- ishlab chiqaruvchi kuchlarni ekologik asoslangan holda taqsimlash;
- qishloq xo'jaligi, sanoat, energetika, transport va kommunal xo'jaligining ekologik xavfsiz rivojlanishi;
- atrof-muhit va tabiatdan foydalanish sohasidagi boshqaruvni yangi pog'onaga ko'tarish;
- tabiat resurslaridan oqilona va kompleks foydalanish;
- chiqindilarni zararsizlantirish, utilizatsiya qilish va ikkilamchi resurslardan foydalanish.

Respublikaning ekologik siyosati tabiatning ayrim unsurlarini himoya qilishdan barcha umumiyligi ekozimni himoya kilishni amalgalashishga o'tishga, insonning yashashi uchun kerak bo'lgan hayotiy muhitning eng maqbul parametrlarini kafolatlashga qaratilgan.

Bunday ekologik siyosatni hayotga tadbiq qilish ijtimoiy-iqtisodiy va jamiyatni to'lig'icha barqaror rivojlanishning shartlaridan biri bo'lib qolishi kerak.

O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy muhofaza kilish va atrof-muhitni himoya etish bo'yicha ishonchli kafolat hamda choralarining analga oshirilishini ta'minlash, o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning barcha bosqichida davlat siyosatining eng asosiy ustuvoriyo'nalishlaridan hisoblanadi. Iqtisodiyot sohasini erkinlashtirish orqali iqtisodiy islohotlarni yanada chukurlashtirish, institutsional o'zgarishlarni amalgalashish, suvdan foydalanuvchilar uyushimalarini (SFU) rivojlantirish, qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chikaruvchilarning hukuk va iktisodiy mustakilligini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Davlatning tabiatni muhofaza qilishga oid siyosati va suvdan oqilona foydalanish hamda atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar quyidagi asosiy tamoyillarga asoslangan:

- atrof-muhitni aholi turmush darajasini oshirishning muhim omili sifatida saqlash va qayta tiklash bo'yicha iqtisodiy hamda ekologik siyosatni muvofiqlashtirish;
- tabiatning ayrim tarkibiy qismlarini muhofaza qilishdan ekotizimlarni umumiy va majmuaviy ravishda himoyalashga o'tish;
- jamiyatning barcha a'zolarining atrof-muhitni muhofaza qilish, uning xilma-xilligini saqlash va vaziyatni yaxshilash, aholi hayoti uchun qulay sharoitlarini yaratish borasidagi javobgarligi.
- Davlatning ekologik tartiblash siyosatining asosiy elementlari quyidagilardan iborat:
 - tabiiy kadastrlar;
 - tabiatdan foydalanish va atrof-muhitni moliyalashtirish;
 - tabiatdan foydalanganlik va atrof-muhitni ifloslantirganlik uchun to'lovlar;
 - ekologik tadbirlarni imtiyozli kreditlash va soliqqa tortishdag'i imtiyozlar, shuningdek, ekologik sug'urta, rejalashtirish (prognozlashtirish), iqtisodiy rag'batlantirish tadbirlari.

Davlatning ekologik tartiblash siyosatida qo'llaniladigan iqtisodiy mexanizm moliyaviy-kredit mexanizmini, ekologik sug'urta va iqtisodiy rag'batlarni o'z ichiga oladi(qarang: 21.2.1-jadval).

21.2.1-jadval

Davlatning ekologik tartiblash iqtisodiy mexanizmi elementlari

| Moliyaviy-kredit mexanizmi | Ekologik sug'urta | Iqtisodiy rag'batlantirish |
|---|---|---|
| Budjetdan moliyalashtirish tizimi | Texnogen avariyalarni sug'urtalash fondlari | Imtiyozlar (soliq, kredit va bosh.) |
| Ekologik fondlar tizimi | Tabiiy ofatlardan sug'urtalash fondi | Ekologik zararli mahsulot va texnologiyalarga mansus soliqlar |
| Ekologik banklar tizimi. Imtivozli ekologik | Qayta sug'urtalash fondlari | Ekologik toza mahsulotlarga |

| | | |
|-------------------------------|--|--|
| investitsion kreditlar tizimi | | rag'batlantiruvchi narx va ustamalar |
| ekologik sug'urta fondi | | Chiqindi, zararli moddalar chiqarish huquqini oldisotdi mexanizmi |
| Xorijiy investiyalar | | Ekologik sertifikatsiya |
| Korxonaning o'z mablag'lari | | Tabiatni himoyalash uskunalar ishlab chiqaruvchi korxonalarни qo'llab-quvvatlash |

Ekologik fondlar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida tashkil etiladi. Qabil qilingan qonun hujjatlariga ko'ra ekologik fondlar uch xil darajada, ya'ni Respublika ekologik fondlari, viloyatlar, tuman va shahar ekologik fondlari faoliyat ko'rsatadi. *Ekologik fondlarning vazifalari qilib quyidagilar belgilangan:*

- a) atrof tabiiy muhit sifatini yaxshilash va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan dasturlar va ilmiy texnik loyihalarni moliyalashtirish va kreditlash;
- b) tabiatni muhofaza qilish tadbirlari va dasturlari uchun moliyaviy resurslarni jalg qilish;
- v) tabiatdan oqilona foydalanish va ekologik soh texnologiyalarni jalg etishni iqtisodiy rag'batlantirish;
- g) ekologik ta'lim va tarbiyaning rivojlanishiga ko'maklashish.

Ekologik fondlar mablag'larini ishlatishning asosiy yo'nalishlari quyidagidan iborat:

- a) korxonalarga qaytarish sharti bilan imtiyozli kreditlar va ssudalar ajratish;
- b) tabiatni muhofaza qilishga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarning ustav fondlarini shakllantirish uchun mablag' ajratish;

v) korxonalarining qo'shimcha investitsion resurslari jalg etishni rag'batlantiruvchi loyihalarni moliyalashtiriqda psychilik asosida ishtirot etish;

g) tabiatni muhofaza qilish loyihalarini amalga oshiruvchi korxonalarga tijorat banklari tomonidan ssuda va kreditlar berishni kafolatlash.

Ekologik sertifikatsiyalashda ekologik xavfsiz, ekologik talablarga mos tushadigan, inson hayotiga va faoliyatiga hamda atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan mahsulot va tovarlarga ekologik sertifikat beriladi. *Ekologik sertifikatlash quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:*

a) mahsulotning atrof-muhit, hayot, salomatlik, mulk uchun xavfsizligini nazorat qilish;

b) tayyorlovchi (ishlab chiqaruvchi)ning mahsulot sifati ko'rsatkichlari bo'yicha bayonotining tasdiqlanishi;

v) iste'molchini tayyorlovchi, sotuvchi, ijrochining insofsizligidan himoya qilish;

g) iste'molchiga mahsulotni kompetentli tanlashga yordam berish;

d) O'zbekistonning yagona tovar bozorida va undan tashqarida (xalqaro iqtisodiy, ilmiy-texnik hamkorlik va savdo) korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, tadbirkorlar faoliyati uchun sharoit yaratish²²⁸.

Davlat **ekologik standartlar va normativlar** belgilash orqali ham tabiatdan foydalanishni tartibga soladi. **Ekologik standartlar va normativlar** atrof-muhit sifatiga qo'yilgan cheklashlar va talablarning o'zaro bog'liq kompleksi, shuningdek, ishlab chiqariladigan mahsulot va xizmatlarning ishlab chiqarish texnologik va tashkiliy boshqaruv jarayonlariga talablar bo'lib, ular vositasida aholi va ishlab chiqarishning ekologik xavfsizligi kafolatlanadi. O'zbekistonda qabul qilingan standart va normativlarga quyidagilar kiradi:

a) ifoslantirishning turg'un va harakatdagi manbalari chiqaradigan ifoslantiruvchi moddalariga normativ va limitlar;

²²⁸ Абулқосимов Ҳ.П., Абулқосимов М.Ҳ. Иктиносигига оид ватама ва тушунчаларнинг язоми йўлати-т. "ABU MATBUOT-KONSALT", 2017.- 557-558-бетлар.

- b) zaharli chiqindilarning shakllanishi va joylashish normativi;
- v) suv olish va o'rmondan foydalanish limitlari;
- g) bioresurslardan foydalanishga kvotalar;
- d) muhofaza qilinadigan hududlardan foydalanish va borib ko'rish normativlari;
- ye) yovvoyi o'simlikni yig'ish va hayvonlarni ovlash normativlari;
- j) alohida xududlarda iflosantiruvchi hamda zaharli moddalaridan foydalanishni ta'qqliash normalari.

O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunining oltinchi bo'limi atrof-muhit sifatini normativlar va standardlar bilan tartibga solishga bag'ishlangandir. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi "Davlat sanitariya nazorati to'g'risidagi"gi qonunining qator moddalarida sanitariya normalari, qoidalari va gigiena normativlariga qo'yiladigan talablar berilgan. *Ekologik normativlar ikki guruhga bo'linadi:* sanitariya - gigiena; ishlab chiqarish - xo'jalik.

1. *Sanitariya - gigiena normativlari* inson salomatligiga muvofiq keluvchi atrof-muhit ko'rsatkichlarini belgilaydi. U aholini sanitariya-epedimologiya masalalarida xotirjamlikligini ta'minlash asosining tarkibiy qismiga kiradi. Bunda zaharli moddalar, radiaktiv moddalar hamda shovqinning yo'l qo'yish mumkin bo'lgan normalarini belgilaydi.

2. *Ishlab chiqarish - xo'jalik normativlari* zararli ta'sir manbalarining zararli moddalarini chiqarib yuborish va tashlash normativlari bo'lib, ular faoliyatining ma'lum boshlang'ich holatini cheklaydi.

Tabiatni muhofaza qilish faoliyatini standartlashning uchta asosiy yo'naliishi bor:

1. *Atrof-muhitga yuqori ta'sir etishning ekologik standartlarini belgilash.*

2. *Ekologik-tashkiliy standartlarni belgilash.* Bu atrof-muhitni muhofaza qilishni tashkil etishga qo'yiladigan asosiy talablarni ifoda etadi.

3. *Ekologiya atamalarini standartlashtirish.* U yordanchi ahamiyatga ega bo'lib, atamalarning talqinini o'mnatiшgа hamda yangi standartlarni ishlab chiqish va mavjudlaridan samarali foydalanishga imkon beradi.

Ekologik audit - bu korxona, kompaniyaning ichki ekologik salohiyatini, ularning xavf-xatarlari va imkoniyatlarini doimiy tekshirib turish instrumentidir. Ekologik audit o'tgan asrning 70 yillarda AQShda, 1980 yildan boshlab esa, Yevropa mamlakatlarda ham ishlab chiqaruvchi korxonalarini "Ekologik audit" qonunchiligi asosida tekshirishlardan o'tkazmoqda. *Ekologik auditning asosiy maqsad korxona va tashkilotlarning faoliyatini ekologik normativlarga mos kelishini aniqlash va ularning tabiatni muhofaza qilish tadbirlaridagi foydali ishtirokini ta'minlashdan iborat.* Ekologik audit ishlab chiqarish obyektlarining auditi va hududlarning ekologik auditni yo'naliшlarda amalga oshiriladi. Ekologik audit majburiy yoki ixtiyoriy bo'lishi mumkin.

Tabiatdan foydalanishning dastaklaridan biri **ekologik monitoring** bo'lib, u atrof tabiiy muhit va uning resurslari holatini ma'lum dastur asosida muntazam kuzatish, baholash, bashoratlashning ma'lum tizimi bo'lib, ekologik-iqtisodiy boshqarishni axbarotlar bilan ta'minlashga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasidagi milliy monitoring tizimi uch turni o'z ichiga oladi: sanitariya-gigiyena monitoringi, ekologik monitoring, iqlim monitoringi. Ularning funksiyalari atrof-muhit holatini kuzatish, holatini baholash, va bashoratlashdan iborat.

Tabiatdan foydalanishni davlat tomonidan tartibga solishning muhim dastaklaridan yana biri ekologik ekspertiza hisoblanadi. **Ekologik ekspertiza** - uning mohiyati rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo'jalik va boshqa faoliyatlarni ekologik talablarga muvofiqligini aniqlashdan iborat. *Davlat ekologik ekspertizasining ob'ektilariga quyidagilar kiradi:*

1) davlat dasturlari va konsepsiyalari, ishlab chiqarish kuchlarini ijtimoiy va iqtisodiy soha tarmoqlarida joylashtirish hamda rivojlantirish sxemalarini loyihalari;

- 2) barcha turdag'i qurilishlar uchun yer uchastkalarini ajratish materiallari;
- 3) loyihalardan oldingi holat va loyiha hujjatlari;
- 4) tabiiy resurslar bilan foydalanish bilan bog'liq xo'jalik va boshqa xil faoliyatni tartibga soluvchi normativ texnik va yo'riqnomalar uslubiy hujjatlarining loyihalari;
- 5) texnika, texnologiya, mahsulotlar, moddalarning yangi turlarini tayyorlashga doir hujjatlar;
- 6) atrof tabiiy muhit holatiga va fuqarolar sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ishlab turgan korxonalar va boshqa obyektlar;
- 7) keyinchalik ularga muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, favqulodda ekologik ofat zonalari maqomini berish maqsadida o'tkazilgan hududlarni kompleks tekshirish materiallari;
- 8) shaharsozlik hujjatlarining barcha turlari;
- 9) maxsus huquqiy rejimli obyektlar.

Ekologik ekspertizaning maqsadi qo'yidagilardan iborat:

- a) loyiha qarorlarini ularni amalga oshirishdan oldin ekologik talablarga muvofiqligini ilmiy asosda aniqlash;
- b) rejalashtirilayotgan, loyihalashtirilayotgan va ishlab turgan ob'eklarning tabiatga ehtimol tutilayotgan salbiy ta'siri va ekologik xavflilik darajasini aniqlash;
- v) milliy iqtisodiyot rivojlanishini rejalashtirishda tabiiy tizimlar muvozanatini saqlab qolish.

Ekologik ekspertiza davlat, idoraviy, jamoat, ilmiy shakliarda tashkil etiladi. O'zbekiston Respublikasida davlat ekologik ekspertizasi o'tkazish Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining Davlat ekologik ekspertizasi tamonidan amalga oshiriladi²²⁹.

²²⁹ Абдулжонимов Ҳ.П., Абдулжонимов М.Х. Иктиносидиёта оид атама ва тупуначларнинг изоҳли лугати. Т.: "АБУМАТВОУТ-КОНСАЛТ", 2017. - 554-556 562 -бетлар.

21.3. O'zbekiston Respublikasida davlatning ekologik siyosatini takomillashtirish yo'llari

O'zbekistonda ekologik siyosatning eng muhim yo'nalishlaridan biri ekologik nazoratning samarali tizimini tashkil etish hisoblanadi. Davlatning ekologik siyosatini amalgalashishda ekologik nazoratni tashkil etish bo'yicha davlat vakolatli organlarining vazifalari O'zbekiston Respublikasining 2013 yil 27 dekabrda qabul qilingan "Ekologik nazorat to'g'risida"gi qonunda belgilab berilgan. Ekologik nazorat atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonun hujjatlari talablari buzilishining oldini olish, uni aniqlash va unga chek qo'yishga, tabiatni muhofaza qilish faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va jamoatchilik chora-tadbirlari tizimidir. Ekologik nazoratning asosiy prinsiplari qonuniylik, xolislik, mustaqillik, oshkorlik, shaxs, jamiyat hamda davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir.

Ekologik nazorat sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- ekologik nazorat tizimini shakllantirish va rivojlantirish;
 - fuqarolarning hayoti va sog'lig'i uchun qulay atrof muhitni yaratish;
 - ekologik nazorat sohasidagi maxsus vakolatli davlat organlari (bundan buyon matnda maxsus vakolatli davlat organlari deb yuritiladi), mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar bilan atrof muhitning muhofaza qilinishi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanimishini ta'minlash borasida hamkorlik qilishining tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish;
 - ekologik nazorat sohasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.
- Ekologik nazorat obyektlari yer, yer osti boyliklari, suvlar, o'simlik va hayvonot dunyosi, atmosfera havosi; atrof muhitga ta'sir

ko'rsatuvchi tabiiy va texnogen manbalar, atrof muhit ifloslanishiga va tabiiy resurslardan nooqilona foydalanilishiga olib kelishi, fuqarolarning hayoti va sog'lig'iqa tahdid solishi mumkin bo'lgan faoliyat, harakat yoki harakatsizlikdan iboratdir.

Ekologik nazoratning turlari davlat ekologik nazorati; idoraviy ekologik nazorat; ishlab chiqarish ekologik nazorati; jamoatchilik ekologik nazoratidan iborat. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

-ekologik nazorat sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi;

-davlat ekologik dasturlarini tasdiqlaydi va ularning amalga oshirilishini nazorat qiladi;

-davlat ekologik nazoratini, shuningdek atrof muhitning davlat monitoringini amalga oshirish tartibini belgilaydi;

-idoraviy, ishlab chiqarish, jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi, ekologik xizmat haqidagi, shuningdek ekologik nazoratning jamoatchi inspektori to'g'risidagi namunaviy nizomlarni tasdiqlaydi;

-ekologik nazorat sohasidagi xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

Maxsus vakolatli davlat organlari quyidagi sohalarda davlat ekologik nazoratini amalga oshiradi:

O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi — atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasida;

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi — atrof muhitning radioaktiv, kimyoviy, biologik moddalar bilan ifloslanishi, ichimlik suvi ta'minoti, atmosfera havosiga fizik omillarning zararli ta'sir ko'rsatishi yuzasidan;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yer qa'rini geologik o'rganish, sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi — sanoat xavfsizligiga va radiatsiyaviy xavfsizlikka rioya etilishi, yer qa'rini geologik o'rganish, foydali qazibnalarni kavlab olish,

mineral xom ashyoni qayta ishlashda yer qa'ridan foydalanish va uni muhofaza qilish, shuningdek konchilik ishlarini geologik-marksheyderlik jihatidan ta'minlash yuzasidan;

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi — avtomototransport vositalarining ishlatilishida atmosfera havosining ifloslanishi yuzasidan;

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi va suv xo'jaligi vazirligi — sun'iy suv obyektlarining suvidan foydalanilishi va iste'mol qilinishi, o'simlik va hayvonot dunyosini himoya qilish bo'yicha davlat karantin qoidalarining bajarilishi yuzasidan;

O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro davlat qo'mitasi — yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish yuzasidan, yernarning ishlab chiqarish chiqindilari hamda boshqa chiqindilar, radioaktiv, kimyoiy, biologik moddalar va oqova suvlar bilan ifloslanishi bundan mustasno.

Ekologik siyosatni yanada takomillashtirishda 2030 yilgacha bo'lган davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini qabul qilinganligi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktabrdagi "2030 yilgacha bo'lган davrda o'zbekiston respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5863-son Farmoniga mazkur mazkur konsepsiya atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari buzilishlari profilaktikasi, ularni aniqlash va oldini olishning samarali mexanizmlarini joriy etish, respublika aholi punktlarining sanitariya va ekologik holati uchun davlat organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar rahbarlari va fuqarolarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish, shuningdek, 2030 yilgacha bo'lган davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarga erishishni ta'minlash maqsadida tasdiqlangan.

Quyidagilar Konsepsiyaning maqsadlari hisoblanadi:

O'zbekiston Respublikasi aholisining hayoti va salomatlik darajasini yaxshilashning zarur sharti sifatida atrof muhitning qulay holatini ta'minlash;

atrof muhitga va aholining salomatligiga salbiy ta'sirni pasaytiruvchi innovatsion texnologiyalarni joriy etish hisobiga barqaror iqtisodiy rivojlanish;

atrof muhit obyektlaridan oqilona foydalanishni va biologik resurslar qayta tiklanishini ta'minlash.

Quyidagilar Konsepsiyaning vazifalari hisoblanadi:

atrof muhit obyektlarini (yer, suv, atmosfera havosi, yer qa'ri, o'simlik va hayvonot dunyosi) saqlash va qo'riqlanishini ta'minlash;

qo'riqlanadigan tabiiy hududlarni kengaytirish;

iqtisodiyotni ekologiyalashtirish, tabiatdan foydalanishning iqtisodiy mexanizmlarini joriy qilish, ekologik jihatdan eng kam xavf tug'diruvchi materiallar, mahsulotlardan, ishlab chiqarish obyektlari va boshqa obyektlardan ustuvor darajada foydalanish;

atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanish sohasida davlat nazoratini, shuningdek, atrof muhitning ekologik monitoringi tizimini takomillashtirish;

atrof muhitni muhofaza qilishni ilmiy jihatdan ta'minlash;

ekologik xavfsizlikni e'tiborga olgan holda, chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish tizimini takomillashtirish, zaharli kimyoviy va radioaktiv moddalardan ekologik xavfsiz foydalanishni ta'minlash;

aholining ekologik madaniyatini oshirish, atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat organlari faoliyatining oshkorlik darajasini oshirish va fuqarolik jamiyatining rolini kuchaytirish;

atrof muhitga minimal og'irlik tushiradigan barqaror rivojlanishni ta'minlovchi jamiyatni shakllantirish;

atrof muhitni muhofaza qilish sohasida xalqaro hankorlikni kengaytirish.

Konsepsiyaning amalga oshirilishi natijasida 2030 yilda;

Orol dengizining qurigan tubining O'zbekistondagi qisnida o'rmonzorlar maydonini uning jami hududiga nisbatan 60 foizgacha yetkazish;

qishloq xo'jaligida suv resurslarini yo'qotishni 10 foizga kamaytirish;

qishloq xo'jaligida suv iste'molini (solishtirma gektarga nisbatan) 15 foizga kamaytirish;

oqava suvlarini tozalash samaradorligini 80 foizgacha oshirish;

atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar chiqarilishini 10 foizga kamaytirish;

transport vositalarining 80 foizini gaz-ballon yoqilg'isi va elektr energiyasida ishlashga o'tkazish;

o'rmonzorlar bilan qoplangan o'rmon fondi hududini 4,5 mln gektargacha kengaytirish;

IV toifadagi qo'riqlanadigan tabiiy hududlar maydonini 12 foizgacha kengaytirish;

Qizil kitobga kiritilgan va pitomniklarda parvarish qilingan chiroyli tuvaloqlarni tabiatga qo'yib yuborishni yiliga 4000 gacha ko'paytirish;

aholini qattiq maishiy chiqindilarni toplash va olib ketish xizmatlari bilan 100 foiz qamrab olish;

hosil bo'ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash hajmini 65 foizgacha ko'paytirish;

alovida xususiyatga ega chiqindilar (tarkibida simob bo'lgan chiqindilar, avtoshinalar, akkumulatorlar, ishlatib bo'lingan moylar, qadoqlar chiqindilari va boshqalar)ni qayta ishlash hajmini 30 foizgacha ko'paytirish kutilmoqda²³⁰.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida 79-maqсад sifatida aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish hamda

²³⁰ 2030 йилгача бўлган даврда Ўзбекистон Республикасининг Атроф мухитни муҳофаза килиш КОНЦЕПЦИЯСИ/ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 30 октябрдаги "2030 йилгача бўлган даврда Ўзбекистон Республикасининг атроф мухитни муҳофаза килиш концепциясини тасдирига шуғарисида"га PF-5863-сон Фармонингл-ИЛОВА/<http://lex.uz/docs/4574008>

80-maqsad sifatida ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirish belgilangan. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish bo'yicha quyidagilar belgilangan:

- "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida har yil kamida 200 million tup daraxt ekish. "Yashil makon" umummilliy loyihasi tashabbuslariga mos tarzda respublikaning 10 ta hududida aerobiologik monitoring tizimini yo'lga qo'yish;

-maishiy chiqindilarni yig'ishni 100 foizga, ularni qayta ishslash darajasini 2026 yilga qadar 21 foizdan 50 foizga yetkazish;

- Respublika bo'yicha 51 ta yer usti tabiiy suv obyektlari (daryolar, kichik daryolar va tabiiy ko'llar)ning sanitariya-muhofaza zonalari va sohil bo'yi mintaqalarini belgilash ishlarini yakunlash; ;

-Toshkent shahrini aholiga qulay, ekologik toza va yashash uchun barcha imkoniyatlar mavjud bo'lgan hududga aylantirish, ko'kalamzorlashtirish darajasini 30 foizga yetkazish;

- Orol dengizining qurigan tubida qo'shimcha 500 ming hektar yashil maydonlarni barpo etib, 2026 yil yakuniga qadar ularning umumiy hajmini 2,5 million gektarga yoki hududning 78 foiziga yetkazish;

-Orolbo'yida xalqaro "Yashil iqlim" va Global ekologik jamg'armalarning bioxilma-xillik, iqlim o'zgarishi va tuproq yemirilishining oldini olishga qaratilgan dasturlari asosida 300 million AQSh dollari qiymatidagi loyihalarni amalga oshirish;

-shahar va tuman markazlarida har 50-100 ming aholi uchun "jamoat parklari"ni tashkil etish;

-Orolbo'yidagi yashovchi aholini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish²³¹.

Ekologik siyosatni yanada takomillashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

²³¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022yil 28yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljalangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60sonli Farmoni. 1-ilova. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

1.Katta-katta hududlarda tabiiy sharoitlarni tabiiy zaxiralardan samarali va kompleks foydalanishni ta'minlaydigan darajada aniq maqsadga qaratilgan, ilmiy asoslangan tarzda o'zgartirish.

2.Daryolar oqimini tartibga solish hamda suvlarni bir havzadan ikkinchisiga tashlash, yerning namini qochirish, suv chiqarish tadbirlarini va boshqalarni amalgaga oshirish lozim.

3. Jonli tabiatning butun tabiiy genofondini madaniy ekinlar va hayvonlarning yangi turlarini ko'paytirish hisobiga boshlang'ich baza sifatida saqlab qolish kerak.

4. Shaharsozlik va tumanlarni rejalashtirishning ilmiy asoslangan, hozirgi zamон urbanizatsiyasining barcha salbiy oqibatlarini bartaraf etadigan tizimini joriy etish yo'li bilan shaharlarda va boshqa aholi punktlarida aholining yashashi uchun qulay sharoit yaratish zarur.

5.Ekologik naoratni amalgaga oshirishda keng jamoatchilikni jaib etish, bu borada nodavlat, notijorat tashkilotlari hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyatini kuchaytirish.

6.Aholining ekologik madaniyatini oshirish, bu madaniyatni shakllantirish uchun ommaviy axborot organlarining faoliyatini rivojlantirish. Keng targ'ibot va tashviqot ishlarini amalgaga oshirish.

Asosiy tushuncha va atamalar

Atrof tabiiy muhit, atrof-muhitning ifloslanishi, atmosferaga ifloslantiruvchi moddalarni chiqarish, ishlab chiqarish chiqindilar xavfi chiqindilar, ekologiya, davlatning ekologik siyosati, ekologik nazorat, ekologik xavfsizlik, ekologik xavfsizlikka tahdidlar.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Atrof tabiy muhit va ekologiya tushunchalarining mazmuni hamda farqli, o'xshashliklari nimalarda ifodalanadi?
2. Ekologik muammolarning umumiyligi kelib chiqish sabablari nimalardan iborat?
3. O'zbekistonning ekologik vaziyatni tavsiflab bering?
4. O'zbekistondagi ekologik muammolar nimalardan iborat?
5. Orol fojiasining vujudga kelib chiqish sabablari nimalardan iborat?
6. Orol bo'yida vujudga kelgan ekologik vaziyatni tavsiflab bering?
7. O'zbekistonda ekologik muammolarni hal qilish uchun nimalar amalga oshirilgan?
8. Davlatning ekologik siyosatining mohiyati va asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
9. Ekologik nazorat niima uchun kerak?
10. Ekologik nazorat tizimini qanday tashkil etish mumkin.
11. Ekologik nazorat bo'yicha maxsus vakolatlari organlarning vazifalari nimalardan iborat?
12. Ekologik nazoratni amalga oshirishda Siz talaba sifatida nima qila olishingiz mumkin?
13. O'zbekistonda ekologik vaziyatni yaxshilash, ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun nima qilish kerak?

22-BOB. O'ZBEKISTONDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLINISHI

22.1. Davlatning tashqi iqtisodiy siyosatining mohiyati va zaruriyati

Dunyo mamlakatlarining jadallik bilan rivojlanib borayotganligi, ular o'rtaida ishlab chiqarish aloqalarining baynalminallahuvi va globallashuvi, hamda iqtisodiy aloqalarning kuchayishi, har bir davlatdan tashqi omillardan oqilona va samarali foydalanish, milliy iqtisodiyotni tashqi ta'sirlardan himoyalashga qaratilgan tashqi iqtisodiy siyosat yuritishni talab etadi. Shu bilan birga, mamlakat iqtisodiyotining jahon iqtisodiyoti bilan, ichki bozorning tashqi bozorlar bilan o'zaro hamkorligi uchun sifat jihatidan yangi negizlarini shakllantiradigan tub bozor o'zgarishlarini amalga oshirish obyektiv ravishda tashqi iqtisodiy omillarni kuchaytirishni taqozo etadi.

Davlatning tashqi iqtisodiy siyosati - xalqaro munosabatlarda milliy manfaatlarni ta'minlash borasidagi davlat faoliyatining yo'nalishi va sohasi, shuningdek tegishli maqsad va vazifalarni amalga oshirishdagi aniq chora-tadbirlar yig'indisidir. Tashqi iqtisodiy siyosatning mohiyati uning davlat va xalqning suverenitetini ta'minlashdan iborat bo'lgan, milliy manfaatlarni himoya qilish bo'yicha mexanizmning butun sa'y-harakati ijtimoiy-iqtisodiy integratsion jarayonlarda milliy, mintaqaviy va global xavfsizlikni ta'minlashda o'z ifodasini topadi.

Davlatning tashqi iqtisodiy siyosati negizida tashqi iqtisodiy aloqalarni tartibga solish va ishlab chiqarish omillarining xalqaro taqsimlanishida mamlakat ishtirokini maqbullahtirish tartibini belgilashga doir bir maqsadga yo'naltirilgan faoliyatlar yotadi.

Tashqi iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismlari bo'lib tashqi savdo siyosati, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va xorijdagi milliy kapital qo'yilmalarni tartibga solish borasidagi siyosat, valyuta siyosatilari hisoblanadi. Bundan tashqari mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan alohida davlatlar va mintaqalar bilan

tashqi iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirish ko'rnishlari ham mavjud.

Tashqi iqtisodiy siyosat tashqi iqtisodiy faoliyatni ham tartibga soladi. Ko'plab davlatlarda mavjud bo'lgan tashqi iqtisodiy siyosat vositalarining keng doirasi ularga o'z tashqi iqtisodiy aloqalari tarkibini va ularni rivojlantirish yo'nalishlarini shakllantirishga ham, boshqa mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalari va tashqi iqtisodiy siyosatiga ham faol ta'sir etish imkonini beradi. Tashqi iqtisodiy siyosat vositalarini savdo-siyosiy mexanizm sifatida ta'riflash mumkin.

Tashqi iqtisodiy siyosatni shakllantirish uchun uning asosiy tamoyillarini aniq va ravshan belgilash lozim. Unda tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarining xatti-harakatlarini iqtisodiy-huquqiy tartibga solishga asosiy o'rin ajratilgan bo'lib, umummilliy manfaatlarga mos kelishi lozim.

Davlatlarning tashqi iqtisodiy siyosatni normativ tartibga solish negizida milliy hamda xalqaro huquq me'yorlari yotadi. Biroq, davlatning tashqi iqtisodiy siyosat sohasidagi munosabatlarini tartibga solishda milliy xuquqiy mexanizmlarning ham ahamiyati katta. Bunday msxanizmlar hozirgi kunda davlatning xalqaro maydondagi strategik faoliyatini belgilashda muhim rol o'ynab kelmoqda.

O'zbekiston tashqi iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlari va uni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar sifatida mamlakat taraqqiyotining har bir bosqichida uning o'z oldiga qo'ygan vazifalarini mavjud bo'lib, davlatning iqtisodiy siyosati bu vazifalarni bajarilishiga qaratilmog'i kerak. Mamlakat iqtisodiy rivojlanishining har bir bosqichida davlat tashqi iqtisodiy siyosatining maqsadlari shu davrning o'ziga xos xususiyatlariga mos kelishi kerak. Ular orasida eng muhiimlari quyidagilar:

- eksportni rivojlantirish va uning tarkibiy tuzilishini yaxshilash;
- importning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish, ya'ni uni milliy ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish va kengaytirishga qaratish;
- ishlab chiqaruvchi kuchlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish uchun chet el investitsiyalarini jalb etish;

- mamlkatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, ya'ni ma'lum darajada tashqi iqtisodiy faoliyatda eksport-import operatsiyalari, valyutani olib chiqish, boshqa xalqaro bitimlar ustidan davlat nazoratini o'matish.

Davlatning tashqi iqtisodiy siyosati aniq belgilangan maqsadlar va ularni amalga oshirishga qaratilgan asosiy tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Birinchidan, respublika milliy iqtisodiyotining kuchli eksport bo'g'inini tashkil etuvchi va uni jahon bozorida imunosib o'ringa ega bo'lishini ta'minlovchi sohalarini aniqlash.

Ikkinchidan, iqtisodiyotning eksport bo'g'inida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash usullaridan keng foydalanish. Bu usullar quyidagilardan iborat:

- eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni kengaytirish uchun imtiyozli foizlar bo'yicha uzoq muddatli kreditlar ajratish;
- milliy investitsiyalarni sug'ortalash;
- eksport qiluvchilarga milliy ishlab chiqarish va uning xorijiy raqobatchilari ishlab chiqarishi xarajatlari o'rtaсидagi farqni qoplash;
- davlat tomonidan respublikaga ilg'or texnologiyalar, tajribalar, bilimlarni kirib kelishiga subsidiyalar ajratish;
- eksport va importni litsenziyalash yoki chetga mol chiqarishga va chetdan uni olib kelishga ruxsatnomalar berish;
- ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi, xorijdan keltiriladigan xom ashyo va materiallar, asbob-uskunalar va jihozlar ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish va boshqalar.

Shu bilan birga, tashqi iqtisodiy siyosat milliy valyutani mustahkamlash va uni boshqa valyutalarga erkin almashuvini ta'minlashni, ichki narxlarni jahon bozori narxlariga yaqinlashtirish maqsadida baholar islohotini tugallashni, tashqi iqtisodiy faoliyatning me'yoriy va huquqiy asoslarini xalqaro talablar darajasiga yetkazishni nazarda tutadi.

22.2. Davlat tashqi iqtisodiy siyosatining asosiyo‘nalishlari va tarkibiy qismlari

Bozor qonunlari asosida rivojlanayotgan va davlat aralashuvi yuqori bo‘lgan mamlakatlarning barchasida davlat erkin xalqaro ayirboshlash yo‘liga ma’lum to‘siqlar qo‘yadi va bunday holat milliy manfaatlarni himoya qilish zarurligi bilan tushuntiriladi. Bularga mamlakat iste’mol bozorlarini himoyalash, ichki bandlikni oshirish, yangi tarmoqlarni rivojlantirish va hokazolar kiradi.

Iqtisodiy raqobatga bardoshli bo‘lgan davlatlar ham, bunday raqobatga chidamsiz davlatlar ham litsenziyalash va kvotalarni o‘rnatish, bojxona bojlari va tariflarni kiritish, mahsulot sifati va uning xavfsizligini ta‘minlovchi standartlarni o‘rnatish hamda tashqi iqtisodiy faoliyatga ta’sir etuvchi boshqa bir qator vositalardan keng foydalanadilar, shu orqali o‘z tashqi iqtisodiy siyosatlarini yurgizadilar.

Davlat tomonidan amalga oshiriladigan mamlakatning tashki iqtisodiy faoliyati kundalik va strategik maksadlarga muvofik uning tashki iqtisodiy siyosatiga asoslangan. Mamlakatning tashki iqtisodiy siyosati deganda, boshka mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va tartibga solishga karatilgan faoliyat tushuniladi.

Davlatni xalqaro savdo jarayonlariga aralashuvi darajasiga ko‘ra xalqaro savdo siyosati proteksionistik savdo siyosatiga hamda erkin savdo siyosatiga bo‘linadi.

Erkin savdo – davlatni tashqi savdo jarayonlariga aralashuvini kamayishi, ya’ni tashqi savdoni erkin bozor talabi va taklifiga asosan rivojlanish.

Proteksionizm – tarif va notarif usullarini qo’llash orqali ichki bozorni chet el raqobatchilaridan ximoya qaratilgan davlat siyosati.

Erkinlashtirish va proteksionizm siyosati dunyodagi xar qanday davlat uchun xos. Hozirgi paytda tashqi savdoni erkinlashtirishga moyillik kuzatilayapti. Bu jarayon uch xil ko‘rinishda amalga oshirilayapti:

- alohida mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro savdoda;


- yagona bojxona ittifoqiga kiruvchi alohida davlatlar o'rtasida;
- Jahon savdo tashkiloti, Savdo va rivojlanish buyicha BMTning konferensiyalari (YuNKTAD), BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi (YeIK) doirasida ko'p tomonlama kelishuvlar asosida amalga oshiriladi.

Tashqi iqtisodiy siyosat - bu milliy joriy va strategik maqsadlarga muvofiq tashqi iqtisodiy munosabatlар sohasida davlat idoralari tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar yig'indisidir.

Tashqi iqtisodiy siyosatning makon jihatи jahон va mamlакат iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatishning asosiyo yo'naliшlari bo'yicha davlatning harakatlarini belgilaydi. Ushbu belgiga binoan, davlatning tashqi iqtisodiy siyosati tarkibiga tashqi savdo siyosati, tashqi investitsiya siyosati, valyuta siyosati, bijxona siyosati kiradi. (22.2.1.-rasm)

Davlatning tashqi savdo siyosati xalqaro darajada tovarlar, ishlar, xizmatlar, axborotlar, intellektual faoliyat natijalari bilan amalga oshiriladigan ayriboshlashni qamrab oladi va eksport va import siyoslari birgalikda tashqi savdo siyosatini tashkil etadi.

Tashqi savdo bo'yicha davlatning eksport siyosati deganda mamlakatning raqobatbardosh tovarlar, xizmatlar va intellektual mulklarni jahon bozorida sotishga va ushbu tovarlarni ishlab chiqarishni rag'batlantirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar tushuniladi. Eksport qiluvchi korxonalarни rag'batlantirishda davlat byurtmalari, budjetdan moliyalash, imtiyozli kreditlar berish, ilmiy tadqiqot va tajriba konstrukturlik ishlarini moliyalash va hokazolardan foydalaniлади.



22.2.1-rasm. Davlat tashqi iqtisodiy siyosatning asosiy shakllari.

Tashqi savdo bo'yicha davlatning import siyosati deganda mamlakatga xorijdan tovarlar, ishlar, xizmatlar va intellektual mulklarni kelinishini tartibga solishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar tushuniladi. Bunday tartibga solishning vositasi sifatida respublika iqtisodiyotini himoya qilish maqsadida importni to'g'ridan-to'g'ri cheklash xisoblanadi. Bunda litzenziyalash va kontingentlash, importga oid antideemping va kompensatsiya bojlari, eng kam import narxlari tizimi va hokazolar qo'llaniladi.

Tashqi investitsiya siyosati xorijiy investitsiyalarini mamlakat xududiga jalb etish va ulardan foydalanish hamda milliy investitsiyalarini xorijga olib chiqishni tartibga solishga doir choratadbirlar majuidan iborat.

Valyuta siyosati davlat va xalqaro valyuta-moliya tashkilotlari tamonidan amalga oshiriladigan valyuta munosabatlari sohasidagi iqtisodiy choralar hamda tashkiliy shakl v usullar yig'indisini tashkil etadi. Valyuta siyosati davlatning valyuta mablag'laridan maqsadli foydalanish bo'lib, o'z ichiga valyuta mablag'larini shakillantirish va ishlatishning asosiy yo'nalishlarini hamda bunday mablag'lardan samarali foydalanishga yo'natirilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishni oladi.

Valyuta siyosatining amal qilish sohasi bo'lib valyuta bozori, qimmatbaho metallar va toshlar bozori hisoblanadi. Davlatning valyuta siyosati diskont va deviz siyosatlariga bo'linib, moliya tizimining bir maromli faoliyatini va mamlakat to'lov balansi muvozanatini ta'minlash kabi vazifalarni qamrab oladi.

Diskont siyosati investitsiyalar xarakatlarini tartibga solish va to'lov majburiyatlarini muvozanatlashtirish, valyuta kursini taxminiy tuzatish uchun foizning hisob stavkasidan foydalanish bo'yicha charatadbirlar tizimini o'z ichiga oladi. Ushbu siyosat pul talabi holatiga, narx dinamikasi va darajasiga, pul massasi hajmiga, qisqa muddatli investitsiyalar migratsiyasiga ta'sir ko'rsatishda namoyon bo'ladi. Deviz siyosati - valyuta intervensiysi va valyuta cheklashlari yordamida valyutani xarid qilish va sotish bilan valyuta kursini tartibga solish tizimidir.

Valyuta intervensiysi Markaziy bankning xorijiy valyutaning oldi-sotdisi bo'yicha maqsadli operatsiyalari bo'lib, u milliy valyuta kursi dinamiksini uni oshirish yoki pasaytirishning muayyan chegaralari bilan cheklash maqsadini ko'zlaydi. Valyuta cheklashlari milliy va xorijiy valyuta, oltin va hokazolarga doir operatsiyalarni tartibga soladigan iqtisodiy, xuquqiy, tashkiliy chara-tadbirlar majmuidan iborat.

Ishchi kuchining tashqi migratsiya siyosati ishchi kuchi eksporti siyosati va ishchi kuchi importi siyosatlariga bo'linadi.

Ishchi kuchi eksporti siyosati deganda bir mamlakat hududidan ikkinchi bir mamlakatga ishchi kuchining ko'chishi uchun qulay sharoit yaratish yoki ta'qilash borasidagi davlat tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar yig'indisi tushuniladi. Ishchi kuchini eksport qilish natijasida mamlakatda ishsizlik darajasini kamaytirish va mamlakatga qo'shimcha valyuta daromadlarini paydo qilish imkoniyati yuzaga keladi.

Ishchi kuchini import siyosati deganda mamlakatga xarijdan ishchi kuchining kirib kelishi uchun qulay sharoit yaratish yoki to'siqlar qo'yish borasidagi davlat tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar yig'indisi tushuniladi.

Bojxona siyosati – davlat tashqi savdo faoliyatining bir qismi bo'lib, tovarlarni eksport va import qilishning shart-sharoitlari, hajmi va tarkibini tartibga solib turadi. Bojxona siyosatining mohiyati bojxona – tarif qonunchiligidagi, bojxona ittifоqlari va konvensiyalari, erkin zonalar, tarif blokadalarini va boshqalarni tashkil etishda namoyon bo'ladi. Tovarlarni olib kirish yoki olib chiqishning davlat tomonidan rag'batlantirilishi yoki chegaralanishiga bog'liq holda iqtisodiy va bojxona siyosatining quyidagi to'rt asosiy turini ajratish mumkin:

1. *Qisman cheklash siyosati.* Bu siyosat ichki bozorga ba'zi tovarlarni, masalan, mamlakat milliy mafkurasiga hamda aholi turmush tarziga teskarri ta'sir qiladigan kino – video mahsulotlari va turli nashrlarni kiritmaslik maqsadida qo'llaniladi.

2. *Proteksionizm siyosati.* Bu ichki bozorni xorijiy raqobatdan himoyalashdir.

3. *Erkin savdo siyosati* – «fritrederlik». Bu tashqi savdodagi cheklashlarni eng minimumiga tushirishdir. Odatda, u o'z tovarlarining raqobatbardoshligi yuqori bo'lgan va bozorlarda yetakchi mavqega ega mamlakatlar tomonidan qo'llaniladi.

4. Tagchil bozorni to'yintirish – «teskari proteksionizm» siyosati. Bu faqat milliy bozorda chuqur taqchillik sharoiti yuz berganda va unda hammaga o'rin topiladigan sharoitdagina samarali hisoblanadi.

Bojxona siyosatining asosiy vazifalari quyidagilardan iboratdir:

- 1) tashqi savdoning rivojlanishiga ko'mak berish;
- 2) davlatning iqtisodiy o'sishini tezlashtirish;
- 3) xalqaro mehnat taqsimotida qatnashishdan foyda olish;
- 4) mamlakat savdo va to'lov balansining ijobjiy saldosini ta'minlash;
- 5) davlat budgeti daromadlarini o'stirish;
- 6) xorijiy davlatlar va ular ittifoqlarining diskriminatsion aksiyalariga qarshi harakat olib borish;
- 7) davlatning savdo – siyosiy pozitsiyasini mustahkamlash;
- 8) korxonalar, tashkilotlar va tadbirdorlarning tashqi bozorga chiqishini ta'minlash;
- 9) milliy iqtisodiyotning tarkibiy qayta qurilishiga ko'mak berish;
- 10) mamlakat xalq xo'jaligining jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvini chuqurlashtirish;
- 11) bozor faoliyatiga shart – sharoit yaratish.

O'zbekiston Respublikasi bojxona siyosatining asosiy tamoyillari Jahon savdo tashkiloti (JST) hujjatlarida qayd etilgan bojxona siyosatining xalqaro tajribalariga hamda O'zbekistonning tashqi va ichki siyosati tamoyillariga asoslangan bo'lib, quyidagilardan iborat:

1. Xalqaro huquq normalarining ichki davlat normalari oldida ustunligini tan olish tamoyli. Uning mohiyati shundaki, o'z milliy huquq tizimini yaratayotgan milliy davlatimiz xalqaro huquq normalarining ichki davlat normalari oldida ustun turishini tan oladi. O'zbekiston Respublikasining BMT, JST va boshqa xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishi Respublikaning bojxona ishi sohasidagi umumjahon muammolarni hal etishda faol ishtirok etishiga keng imkoniyatlar ochib berdi va Respublika zimmasiga bir qator majburiyatlarni ham yukladi.

2.O'zbekistonda amalga oshiriladigan bojxona siyosatining yagonaligi tamoyili. Bu O'zbekiston Respublikasining bojxona hududida yagona bojxona siyosatining olib borilishini anglatadi.

3.Ikki va ko'p tomonlama aloqalarni o'rnatish va rivojlantirish tamoyili. Bu tamoyil O'zbekiston Respublikasining bojxona ishi sohasida xalqaro hamkorlik olib borishga faol intilishi orqali amalgalashuvlari qurilishi oshiriladi.

4.Milliy davlat manfaatlari ustunligini hisobga olgan holda o'zaro savdo kelishuvlarida yon berishlik tamoyili. Bojxona siyosati hamkor mamlakatlarning joriy manfaatlarini hisobga olsa hamda o'zaro imunosabatlarda ma'lum bir kelishuvlarni qabul qilsa, uning samaradorligi yanada oshadi. Ammo, bunda davlatning milliy xavfsizligi xavf ostiga qo'yilishi mumkin emas.

5.O'zaro kansitmaslik tamoyili. Davlat o'z iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida bojxona siyosati dastaklari orqali u yoki bu milliy bozorda chegaralash chora-tadbirlarini qo'llaydi. Ularni qo'llash diskriminatsion (kansitish) ko'rinishda bo'imasligi, ya'ni bazi mamlakatlarga nisbatan emas, balki barcha qatnashuvchi mamlakatlarga nisbatan birdek qo'llanishi lozim.

6. Bir tomonlama harakatlarga yo'l qo'yimaslik. Milliy bozorni himoya qilish bo'yicha qarorlar ko'p tomonlama maslahatlashuvlardan so'ng qabul qilinishi kerak.

7. Demokratizm tamoyili. Demokratizm tamoyili bojxona siyosatini ishlab chiqish va uni hayotga qo'llashda xo'jalik yurituvchi subyektlar va fuqarolarning bojxona ishi sohasidagi huquqlarining himoyalanishini talab qiladi.

22.3. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning bevosita va bilvosita usullari

Hozirgi paytda dunyo mamlakatlarda tashqi iqtisodiy siyosatni yuritishda yuqoridaq holatlarni hisobga olgan holda, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish tizimidan samarali foydalanimoqda va uning

ta'kibiga kirgan tashkilot va muassasalar faoliyati takomillashtirilmokda. Mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish tizimining asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- respublika milliy manfaatlariiga javob beruvchi va uning jahon hamjamiyatidagi o'mini ta'minlovchi tashqi iqtisodiy siyosatni takomillashtirish va amalga joriy etish;

- tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etishning qonuniy asoslarini takomillashtirish va yanada erkinlashtirish;

- mulkchilik ko'rinishining turli shakllaridan qat'iy nazar, tashqi iqtisodiy faoliyatni barcha ishtirokchilari uchun eng yuqori samaradorlikni ta'minlash, ularning faoliyati va manfaatlarini himoya qilish;

- milliy iqtisodiyotning tarkibiy bo'g'inlarini modernizatsiyalashda tashqi iqtisodiy omillardan oqilona foydalanish.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining xatti-harakatlarini tartibga solishda va erkinlashtirishda umume'tirof etilgan quyidagi usullaridan foydalilanadi: tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning bilvosita usullar va tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning bevosita (iqtisodiy, ma'muriy, me'yoriy-huquqiy) usullar.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning bilvosita usullari bo'lib tashqi iqtisodiy aloqlarda qatnashuvchilarning iqtisodiy manfaatlari, ularning daromadini taqsimlashga, bitin shartlarini bajarishga ta'sir etuvchi, bojxona tariflari va bojlari, turli soliqlar, valyutadan tushgan puldan ajratmalar me'yori, xalkaro operatsiyalarni kreditlash va sug'urtalashning foiz stavkalari kabilar hisoblanib, u sub'ektlarni u yoki bu harakatni tanlash imkonini beradi.


Bilvosita usullari ichida bojxona bojlari va tariflari juda muhim hisoblanadi. **Boj, boj puli** – (arab. o'lpon, soliq) – bojxona nazorati ostida davlat tomonidan mamlakat chegarasidan olib o'tiladigan import tovarlar, mol-mulk va qimmatbaho buyumlardan undiriladigan pul yig'imlari. U bilvosita soliq bo'lib, uning tovar chiqarish, tovar kiritish va mamlakat hududi orqali tashib o'tkazish uchun (tranzit) undiriladigan

turlari mavjud. O'rta Osiyoda boj olish o'rta asrlardan boshlab davom etib kelgan. Boj oluvchi mansabdor tusqovul deb atalgan. Hozirgi davrda boj muayyan tovarlar ro'yxati, tovar miqdori, massasi, birligi, shuningdek, tovar bahosi (*advalor boj*) bo'yicha belgilangan bojxona tariflari doirasida undiriladi.

Boj tarifi – davlat chegarasi orqali o'tadigan tovarlardan undiriladigan bojlar stavkalari majmui (to'plami). Boj olinadigan tovarlar nomi va tasnifi, boj stavkasi, ularni hisoblash va to'lash usullari, boj olinmay o'tkaziladigan tovar (buyum)lar ro'yxati, shuningdek, olib kelish, olib ketish, olib o'tish (tranzit) ta'qilangan mahsulotlar ro'yxati ko'rsatiladi. Boj tarifida tovarlar qayta ishlanish darajasi (tayyor mahsulot, yarim tayyor mahsulot, xom ashyo) va tarmoq turiga (sanoat, qishloq xo'jaligi, mineral-xom ashyo) ko'ra guruhanadi. Bojxona tarifi tovar klassifikatorlari asosida tashkil topadi. Tovarlarni guruhlarga, guruhlar ichida kichik guruhlarga (ma'lum bir xil belgilari bo'yicha) belgilanishi tovar klassifikatsiyasi deyiladi. Hozirgi vaqtida xalqaro savdo aloqalarida eng ko'p qo'llaniladigan tovar klassifikatorlarida ular keng ko'lamda sistemalashtirilgan va kodlashtirilgandir.

Ular yordamida tashqi iqtisodiy aloqalarning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan tashqi savdo tartibga solinadi. Tariflari o'zgartirish orqali davlat eksport va importni rag'batlantirishi yoki qisqartirishi orqali milliy ishlab chiqarish va iste'mol munosabatlariiga ta'sir etishi mumkin.

Xalqaro amaliyotda bojxona bojlarining turli xillari qo'llanadi va ularni hisoblash yo'llari, ifodalanishi hamda harakat sohasiga ko'ra quyidagicha guruhash mumkin.



22.3.1-rasm. Bojxona bojlari.

Rasmdan ko'rinish turibdiki, amaliyotda qo'llaniladigan bojxona bojlari turlicha. Undirish usuliga ko'ra guruhanishini ko'radigan bo'lsak, mahsulotni bojxona qiymatiga nisbatan foizda belgilanadigan advalor bojlar jahonda ko'proq tarqagan. Shu sababdan ham bojning bu turi qo'llaniladigan mamlakatlarda mahsulotning boj qiymatini, ya ni advalor bojlarini hisoblashiga asos bo'lgan mahsulotning bojxona qiymatini (narxini) aniqlash usullariga katta e'tibor beriladi. Boj qiymati, import va eksport qiluvchi, tashuvchi yoki ularning ishonchli vakillari tomonidan mahsulotlar bayonnomasida ko'rsatiladi va shunga muvofiq hujjatlar bilan tasdiqlanadi. Ammo ba'zi hollarda bojxona mahsulotning e'lon qilingan narxini tan olmaslikka va uni o'zi mustaqil aniqlashlari mumkin. Amaldagi qo'llanilayotgan usulga qarab mahsulot narxi 20-25 foiz, hatto 2 martagacha ko'paytirilishi mumkin.

Tashqi savdoni tartibga solishda o'ziga xos (spesifik) usuliga ko'ra maxsulotning xar bir o'lchov birligidan(dona, kilogramm, metr, metr kub va b.) undiriladi. Bundan tashqari yuqoridaagi ikki usul uyg'unlashgan aralash bojlar ham qo'llaniladi.

Bojxona bojlarining ikkinchi guruhi avvalo import bojlari va eksport bojlari hamda tranzit bojlariga ajraladi.

Import bojlar ichki bozorlarga chet el tovarlari oqimini tartibga solish va davlat budgetini to'ldirish maqsadida belgilanadi. Import bojlari eng kam va eng ko'p miqdordagi bojlarga bo'linadi. **Eng kam miqdordagi import bojlar** o'zaro qulay sharoitlar tartibini yaratib berishni ko'zda tutuvchi savdo shartnomalari va bitimlari bo'lgan mamlakatlar mahsulotlariga o'matiladi. **Eng ko'p miqdordagi import bojlari** esa bunday shartnoma va bitimlar tuzilmagan mamlakatlar mahsulotiga nisbatan o'rnatiladi. Undan tashqari qo'plab mamlakatlarda imtiyozli bojlar ham qo'llaniladi va bu bojlar asosan rivojlanayotgan mamlakatlardan import qilinayotgan mahsulotlarga nisbatan o'rnatiladi.

Eksport bojlar mamlakatda ushbu maxsulotga talab ko'p bo'lgan holda uni taqchilligini oldini olish maqsadida belgilanadi.

Tranzit bojlari mamlakat hududidan tovarlarni olib o'tilayotganida bojxona hududida tovarlardan undiriladigan bojlar hisoblanadi.

Boj olinadigan mahsulotlar, boj olinmaydigan mahsulotlar, olib kelish va olib ketish taqiqlangan mahsulotlar, shuningdek bojxona bojlar stavrasi, ya'ni ularning tartibga solingan ro'yxati bojxona tariflari deb ataladi.

Bojxona tariflari asosan milliy darajada qo'llaniladi va bunda qator vazifalarini bajaradi.

1) **fiskal** - davlat budgeti daromadlarini to'ldirish manbai bo'lib xizmat qiladi;

2) **proteksionistik** - milliy ishlab chiqaruvchilarini chet el raqobatidan himoya qiladi;

3) **tartiblovchi**, ya'ni ichki maxsulotlar bozorlari tarkbini muvofiqlashtirish maqsadida maxsulotni chetga chiqishini cheklaydi va mamlakat iqtisodiyotidagi yetakchi tarmoq maxsulotlari eksportini rag'batlantiriladi.

Ko'pgina davlatlar proteksionizm siyosatini iqtisodiyotni tiklanishi sharoitida o'z ishlab chiqaruvchilarini chet el raqobatidan himoya qilish maqsadida qo'llaydilar. Aks holda, mahalliy korxonalar «sinishi», jamiyatda ishsizlik xavfi tug'iladi.

Bojxona tariflari va bojlaridan tashqari, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning iqtisodiy, egiluvchan usullari sifatida turli soliqlar keng qo'llaniladi. Bunda faqat tashqi soliq tizimidagi emas, balki ichki soliq tizimidagi soliq turlaridan ham foydalaniadi.

Ko'pgina mamlakatlarda import tushumlariga soliqlar keng qo'llanilsa, eksport mahsulotini sotishdan tushumlarga soliqlar esa imtiyozlarga egadir. Bu eksportni rag'batlantirishga, ichki va tashqi bozorlardagi narxlar farqi ko'p bo'lganda o'z mahsulotlari kabi import mahsulotlarga ham mamlakat ichida sotish uchun bir xil sharoitlar yaratish imkonini beradi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning bilvosita usullariga qaraganda bevosita usullaridan kengroq foydalaniadi. Bevosita usullar o'zining mazmuniga ko'ra iqtisodiy, ma'muriy, me'yoriy-huquqiy ko'rinishga ega bo'lishi mumkin. **Bevosita usullariga** Litsenziyalash va kvotalash iqtisodiy xarakterdagи bevosita usullar ichida keng tarqalgани hisoblanadi.

Litsenziyalash - bu tashqi iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirishga davlat tashkilotlaridan ruxsat olishning ma'lum tartibidir. Tashqi iqtisodiy operatsiyalarga mahsulotlar, ishlar va xizmatlar eksporti hainda importi, moliya operatsiyalari o'tkazish, xorijda ishchi kuchini ishga joylashtirish va boshqalar kiradi. O'zbekistonda litsenziyalar faqat davlat ro'yxatida qayd etilgan tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilariga beriladi, boshqa yuridik shaxslarga berish taqilangan. Litsenziyalash ma'lum vaqt davomida umum davlat maqsadlariga mo'ljallangan mahsulotlar, xizmatlar bilan bitimlar bo'yicha eksportni (importni) chegaralash va nosog'lom raqobatni ogohlantirish chorasi sifatida qo'llaniladi.

Litsenziyalar Bosh litsenziyalar va bir martalik litsenziyalarga bo'linadi. **Bosh litsenziyalar** Markaziy hukumat tomonidan beriladi va o'zida ma'lum mamlakatlarga strategik bo'lмаган, litsenziya hujjalarni haqiqatda rasmiylashtirishni talab qilmaydigan mahsulotlar eksportiga rasman ruxsat berishni aks ettiradi. **Bir martalik litsenziyalar** litsenziya berish huquqiga ega bo'lgan davlat idoralari tomonidan eksport yoki import bo'yicha har bir alohida bitimga ruxsat

ko'rinishida beriladi. Moliya operatsiyalarini litsenziyalash davlatga mamlakat ichida valyuta oqimi harakatini tartibga solish imkonini beradi.

Milliy davlat va shunga o'xshash tuzilmalarga beriladigan ishga joylashtirish litsenziyalari, ularga xorijiy sheriklar bilan kelishgan holda xorija o'z ishchi kuchini yetkazib berish huquqini beradi.

Eksport va importni kvotalashning tashqi savdoni chegaralash vositasi sifatida qo'llanilishi

Jahon amaliyotida mahsulotlar, shuningdek ishchi kuchi eksport va importini chegaralash maqsadida kvotalash keng qo'llaniladi. Unda vakolatli davlat yoki xalqaro tashkilot alohida mahsulotlar, xizmatlar, mamlakatlar va mamlakatlar guruhi bo'yicha ma'lum davrga eksport yoki importga miqdoriy yoki qiymat chegaralarni (kvotalarini) belgilaydi. Davlat tomonidan tartibga solish tadbiri sifatida kvotalash to'lov balanslarini, ichki bozorda talab va taklifni balanslashtirish uchun, muzokaralarda o'zaro kelishuvga erishish uchun qo'llaniladi. O'zbekistonda kvotalash xalq iste'mol mollarini va strategik xom ashyoning muhim turlarini olib chiqishni chegaralash usuli sifatida qo'llanilmoqda.

Ishchi kuchini tashqi migratsiyasini tartibga solishda ham kvotalash usuli qo'llaniladi. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlar ichki mehnat bozorini himoyalash maqsadida xorijdan ishchi kuchi importiga kvotalar o'rnatiladi.

Litsenziyalash va kvotalashdan tashqari tashqi iqtisodiy faoliyatni turli ko'rinishlarini tartibga solish maqsadida iqtisodiy xarakterdagи boshqa bevosita usullar ham qo'llaniladi.

Ularga bojxona bojlarining ba'zi turlari, eksportni ixtiyoriy chegaralash, pasaytirilgan eksport bahosi va eng kam import bahosi, eksport subsidiyalari, korxona nizom fondida kapital hissasini aniqlash, belgilangan valyuta kursi va boshqalar kiradi.

Jahon amaliyotida qo'llaniladigan maxsus, dempingga qarshi va kompensatsion bojxona bojlari

Tashqi savdoni tartibga solishning bevosita tarifli bo'Imagan usullari guruhiga bojxona bojlarining maxsus, dempingga qarshi, kompensatsion va boshqa turlari kiradi.

Ba'zi hollarda mamlakatlar tomonidan **maxsus bojxona bojlari** qo'llaniladi. Masalan, mahsulotlar olib kelish hajmi va sharti mahalliy ishlab chiqaruvchilarga zarar keltirsa yoki mamlakat manfaatlariiga zid bo'lganda qo'llaniladi. Maxsus bojxona bojlarining miqdori har bir aniq holat uchun alohida o'rnatiladi.

Dempingga qarshi qaratilgan bojlar jahon amaliyotida keng qo'llanilib, o'zida qo'shimcha import bojlarini aks ettiradi. Ular odatda jahon narxlaridan yoki import qilayotgan mamlakat ichki narxlaridan past narxlar bo'yicha eksport qilinayotgan mahsulotlarga o'rnatiladi. Bu bojlarni belgilash haqidagi qarorni Xalqaro sud mahalliy ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilar murojaatidan so'ng chiqaradi hamda uning miqdorini va to'lash tartibini belgilaydi.

Kompensatsion bojlar olib kelinayotgan mahsulotlar kabi, olib chiqilayotgan mahsulotlarga ham belgilanadi. Ular ishlab chiqarish yoki eksport qilishda subsidiyalar (davlatning moliyaviy yordami) ajratilgan va bu olib kelish yoki olib chiqish milliy ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarga zarar yetkazishi mumkin bo'lganda qo'llaniladi. Bunday holda davlat mamlakatga yetkazilgan zararni yoki davlatning moliyaviy xarajatlarini qoplashi lozim bo'lgan bojlarni o'rnatadi. Kompensatsion bojlar miqdori aniqlangan subsidiyalar miqdoridan oshmasligi lozim.

Savdo cheklashlarining zamонавиј турлари

So'nggi o'n yilliklarda eksportni «ixtiyoriy» chegaralash va eng kam import baholarini belgilash haqida bitimlar tuzish amaliyotda keng tarqala boshladi. Savdo cheklashlariiing bu yangi turlarining xususiyati, ularni o'rnatishning noan'anaviy usulidan iborat. Ya'ni import qiluvchi mamlakatni himoya qiluvchi savdo to'siqlari import qiluvchi mamlakat chegarasida emas, balki eksport qiluvchi mamlakat chegarasida kiritilganda eksportni «ixtiyoriy» chegaralash qo'llaniladi. Xuddi shunga o'xshash eng kam import bahosini o'rnatish ham amalga oshiriladi. Bunday baholarni o'rnatgan import qiluvchi mamlakatlar bilan kontraktlar tuzishda bunga eksport qiluvchi firmalar tomonidan qat'iy amal qilinmog'i lozim. Eksport bahosi eng kam darajadan

pasaytirilgan holda import qiluvchi mamlakat dempingga qarshi boj kiritadi va uni qo'llash bozordan chiqishga olib kelishi mumkin.

Bevosita tartibga solishning ko'pgina tadbirlari bir-biri bilan muvofiqlashtirilgan holda qo'llaniladi.

Eksportni davlat tomonidan rag'batlantirish tadbiri sifatida ko'pgina mamlakatlarda eksport subsidiyalari qo'llaniladi, ya'ni tajriba-konstrukturlik ishlari va eksportga mo'ljalangan ishlab chiqarishni bevosita moliyalashtirish yoki bu maqsadlarga davlat budjetidan imtiyozli kreditlar berilishi ko'zga tutiladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning ma'muriy usullari

Ma'muriy va me'yoriy-huquqiy tartibga solish usullari ham u yoki bu tashqi iqtisodiy faoliyatni chegaralashga, yo rag'batlantirishga qaratilgan.

Bu bitimlarni tuzish va amalga oshirish tartibi, texnik standartlar, mahsulotlardan foydalanish xususiyatlari, ishchi kuchi sifati, valyuta operatsiyalarini amalga oshirish muddati, darajasi va boshqalarga qo'yiladigan talab va me'yorlar bilan bog'liq turli xil ma'muriy tadbirlardir.

Ma'muriy xarakterdagи davlat tomonidan tartibga solishning o'ziga xos choratlari sifatida tashqi iqtisodiy aloqa qatnashchilarini ro'yxatga olish, mahsulotlar bayonnomasi yoki bojxona bayonnomasini taqdim etish hisoblanadi.

Tashqi iqtisodiy aloqa qatnashchilarini ro'yxatga olish — bu tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarini hisobga olish va rasmiylashtirishning ma'lum tartibidir.

Ro'yxatga olish o'matilgan shaklda to'ldirilgan ro'yxatga olish varaqasini taqdim etish, ro'yxatga olinganlik raqamini berish, tashqi iqtisodiy aloqa qatnashchilarini rasmiy ravishda chop etiladigan Davlat ro'yxatlari to'plamiga kiritish va ro'yxatga olinganlik haqidagi guvohnomani berishni o'z ichiga oladi. Ro'yxatga olinganlik haqidagi ma'lumot tezda tarmoq tashkilotlari va davlat hamda mahalliy hokimiyyat tashkilotlariga yetkazilishi lozim.

Mahsulot bayonnomasi - bu tashqi iqtisodiy aloqa qatnashchisining mahsulotni davlat chegarasini kesib o'tayotgani haqida ushbu mamlakatda o'rnatilgan qoidalarga muvofiq bergan rasmiy arizasidir. U ikki ko'rinishda, ya'ni bojxona bayonnomasi bo'yicha va tovar-transport hujjatlari bo'yicha (yetarli malaka va tajribaga ega bo'lgan tashqi iqtisodiy birlashmalar uchun) amalga oshiriladi. Ba'zi fuqarolar mamlakatga kirishda va chiqishda tashilayotgan buyumlar, mulk, shu jumladan valyuta haqida bayonnomani bir xil andozadagi varaqalarga to'ldirishlari lozim.

Kapitalni olib kelish va olib chiqishni tartibga solish va valyuta bilan chegaralash chora-tadbirlari o'zaro chambarchas bog'liq. Bu tadbirlarga foydani xorijga o'tkazish sharti, xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay iqtisodiyot tarmoqlarini aniqlash, milliy xodimlarning korxonani boshqarishda qatnashish sharti va boshqalar kiradi. Har bir mamlakat ichki va jahon bozorida vujudga kelgan vaziyatni hisobga olib, tashqi iqtisodiy faoliyatga ta'sir etishning u yoki bu vositasini umumumilliy vazifalarni hal etishga yo'naltirgan holda faol qo'llaydi. Ushbu vositalarni quyidagicha tasniflash mumkin (22.3.1-jadval):

22.3.1-jadval

Tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga solish usullarining umumiy tasnifi.

| Tashqi iqtisodiy munosabat-larning ko'rinishlari | Bilvosita (Ta'rif) usullar | Bevosita (Notarif) usullar | | |
|--|---|--|---|---|
| | | Iqtisodiy | Ma'muriy | Me'yoriy-huquqiy |
| Tashqi savdo | Bojxona bojlari (eksport, import bojlari); Bojxona tariflari Eksport import soliqlari; Valyuta tushumidan | Litsenziyalash, kvotalash; Bojxona bojlari (mavsumiy, maxsus, dempingga qarshi, kompensatsion); Eksportni ixtiyoriy chegaralash; Pasaytirilgan | Mahsulotlar bayonnomasi; Tashqi iqtisodiy aloqa qatnashchilarini ro'yxatga olish; Boshqa bojxona rasmiyatchilik lari. | Mahsulot sifati, tovarlarni o'rash va markirovkalashga bildirilgan talablar, me'yor va texnik standartlar |

| | | | | |
|------------------------------|---|--|--|--|
| | ajratmalar me'yorlari; Markaziy bankka sotilishi majburiy bo'lgan valyuta tushumlarinn g hisssasi. | eksport bahosi; Eng kam import baholari; Eksport subsidiyalari; Jarimalar. | | |
| Kapital migratsiyasi | Kreditning foiz stavkasi; Sug'urta mukofotlarini ng miqdori; "Suzib yuruvchi" tartibga solinadigan valyuta kursi; Chet el valyutasini sotuvchi va xaridordan olinadigan majburiy to'lov miqdori. | Moliya operatsiyalari uchun litsenziyalar; Korxona ustav fondida xorijiy kapital ulushining mumkin bo'lgan cheгараси; Xorijiy valyuta olib kelish va jorijga valyuta olib chiqish miqdorini belgilash. | Sarmoyalash, kredit berish va sug'rtta shartlari; Chet ellik sarmoyachilar uchun iqtisod tarmoqlarini aniqlash; Qo'shma va chet ellik korxonalarini boshqarishda milliy xodimlarni ishtirok etish shartlari. | Valyuta operatsiyala rini oshirish jarayoniga qo'yiladigan talab va standartlar. |
| Ishchi kuchi migratsiyasi | Ishchi kuchi bozori(eng kam ish haqi miqdori); Ijtimoiy sug'urthalash shartlari; Chetga chiqish va chetdan kelish hujjatlarini rasmiylashtirish uchun to'lanadigan bojlar va to'lovlar. | Mamlakatga kelayotgan shaxslar uchun kvotalar; Ishga joylashish uchun ruxsat berish. | Ishchi kuchini chetdan kelishi va chetga chiqishini rasmiylashtiri sh tartibi va shartlari. | Ishchi kuchini ta'limi, malakasi, jinsi va yoshiga qarab qo'llaniladig an talab va standartlar. |

22.4. O‘zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish va takomillashtirish yo‘nalishlari

Tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari haqida fikr bildirilganda, asosan muayyan mamlakatning tovar eksport-import operatsiyalari, kapitallar, kreditlar, investitsiyalar harakati, ishchi kuchi migratsiyasi va ular bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar nazarda tutiladi.

Mustaqillikning dastlabki bosqichida eksportning asosiy qismini xom ashyo tashkil etgan bo‘lsa, iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonida tayyor mahsulotlarni eksport qilish jadallik bilan ko‘payib bormoqda.

O‘zbekistonda davlatning tashqi iqtisodiy sohadagi siyosatini shakllantirishda rejali iqtisodiyotdan meros bo‘lib qolgan iqtisodiy aloqalarning xususiyatlari ham hisobga olingan. Unga ko‘ra, an’anaviy tovarlar savdosi bilan cheklanib qolish, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning xizmatlar va axborotlar, moliya kapitali va ishchi kuchi bilan ayirboshlash kabi turlarini deyarli rivojlanmaganligini, importning eksportdan ustunligini, eksport va import strukturasining samarasizligi: chetga asosan xom ashyo chiqarilib, chetdan iste’moli tovarlari keltirilganligi kabi salbiy jihatlarini sanash mumkin.

Bunday holat respublika iqtisodiyotidagi nomutanosiblikni yanada chuqurlashtirdi. Shuning uchun ham, O‘zbekistonni jahon hamjamiatiga qo‘silishi respublikaning mavjud inkoniyatlarini ob’ektiv baholashni va ulardan milliy manfaatlar yo‘lida imkonli boricha to‘liq foydalanishni talab qiladi.

Mustaqillik yillarda O‘zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarining xatti-harakatlarini erkinlashtirish borasida izchil islohotlar olib borildi. Unga ko‘ra, islohotlarning tadrijiy rivojlanish bosqichida dastlab tashqi savdoni tartibga solishning institutsional va huquqiy bazasi yaratilib, tashqi savdoni tartibga solishda bilvosita ma’muriy usullardan keng foydalanilgan bo‘lsa, keyingi bosqichlarda tashqi savdoni tartibga solishning xalqaro amaliyotga mos keladigan

bevosita iqtisodiy usullari joriy etilib, eksportga yo'naltirilgan tashqi savdo siyosati olib borildi. Tashqi savdoni bosqichma-bosqich erkinlashtirilishi natijasida milliy valyutani joriy operatsiyalar bo'yicha konvertatsiyalashuviga erishildi (22.4.1- jadval).

22.4.1- jadval

O'zbekiston Respublikasi tashqi savdosini erkinlashtirish bosqichlari

| | |
|---|--|
| Birinchi bosqich – 1991-1994 yy. | Import o'rnnini qoplash siyosatining yuritilishi. Tashqi savdoni tartibga solishning institutsional va huquqiy bazasi yaratildi. Tashqi savdo siyosatida notarif usullari yetakchilik qildi. |
| Ikkinchchi bosqich – 1995-1997 yy. | Tashqi savdoni tartibga solishning xalqaro amaliyotiga mos keladiigan dastaklari joriy qilindi. Bu davr miqdoriy cheklovlarining qisqarishi hamda keng miqyosda eksport va import bojlarini faol qo'llash davri hisoblanadi. |
| Uchinchi bosqich – 1997-1999 yy. | Bu davr tashqi savdoni erkinlashtirishni chuqurlashtirish, tarif va notarif usullarini soddalashtirish, mamlakat eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan savdo siyosatining yuritilishi, eksport bojlarining bekor qilinishi, eksportga yo'naltirilgan siyosatning olib brilishi bilan izohanadi. |
| To'rtinchi bosqich – 2000-2003 yy. | Tashqi savdoni va valyuta bozorini erkinlashtirishga qaratilgan yangi davr hisoblanadi. 2002 yilning 1 iyulidan boshlab import tarifining uch pog'anali stavkalari (0; 10; 30) joriy etildi. |
| Beshinchi bosqich – 2003 yildan 2016yilga qadar | O'zbekiston tashqi savdosini erkinlashtirish bosqichi. Tashqi savdoni bosqichma-bosqich erkinlashtirish natijasida milliy valyutani joriy operatsiyalar bo'yicha konvertatsiyalashuviga erishildi. Bu, o'z navbatida, eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotni rivojlantirish uchun kuchli rag'batlantirish bo'ldi. |
| Oltinchi bosqich-2017 yildan boshlandi. | Tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirishning yangi bosqichi. Valyuta bozori va tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish, xususan qo'shni davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish. Eksportni yanada rag'batlantirish maqsadida texnik jihatdan tartibga solish tizimini xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish |

Respublikamizda hain eksport salohiyatini oshirish maqsadida milliy ishlab chiqaruvchilarga o'zi ishlab chiqargan tovar (ish, xizmat)larni eksport qilganida bir qator soliq imtiyozlari ko'zdautilgan. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 7 sentabrdagi "Eksportchi korxonalarini rag'batlantirishga oid qo'shimcha

chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi ” Farmoniga muvofiq 2021 yil 1 oktabrdan boshlab:

-eksportni rag‘batlantirish agentligi tomonidan yillik eksport hajmi \$20 mln dan oshgan korxonalarga bir martalik moliyaviy resurslar \$5 mln gacha miqdorda taqdim etadi. Ular eksport bilan bog‘liq savdo operatsiyalari va eksportoldi moliyalashtirish kreditlari uchun tijorat banklari orqali bir yilgacha muddatga taqdim etiladi;

-oxirgi 12 oy davomida \$1 mln dan ortiq tayyor to‘qimachilik mahsulotlarini eksport qilgan korxonalarga asosiy va yordamchi ishlab chiqarishi uchun butlovchi buyumlar, xom ashyo va materiallar olib kirishda bojxona to‘lovlarini to‘lash bo‘yicha foiz hisoblanmagan hamda ularning to‘lanishini ta’minalash talab etilmagan holda 120 kunga to‘lojni kechiktirish (bo‘lib-bo‘lib to‘lash) imkoniyati beriladi.

2021yil 31 dekabrga qadar quyidagilar to‘xtatiladi:

-tashqi savdo operatsiyalari bo‘yicha muddati o‘tgan debitor qarzdarlik uchun xo‘jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan jarimalar qo‘llanilishi;

-ushbu Farmon kuchga kиргунига qadar qo‘llanilgan jarimalar undirilishi.

2021yil 1oktabrdan yuqori sifat va nazorat tizimiga ega mamlakatlardan sertifikatlangan va deklaratsiyalangan asbob-uskuna, butlovchi qismlar, xom ashyo, o‘lchov vositalari, kimyoiy reagentlar, ko‘tarish moslamalari va transport vositalari importida milliy sertifikat olish talabi bekor qilindi. Quyidagilar eksporti uchun Prezident yoki Vazirlar Mahkamasi ruxsati talab qilinmaydi:

- tariq (TIF TN kodlari 1008 21 000 0, 1008 29 000 0);
- quritilgan dukkakli ekinlardan olingan un va kukun (TIF TN kodi 1106 10 000 0);
- meva va yong‘oqlardan olingan un va kukun (TIF TN kodi 1106 30 900 0).

Tashqi savdo, investitsiyalar, mahalliy sanoatni rivojlantirish va texnik jihatdan tartibga solish masalalari bo‘yicha Hukumat

komissiyasiga Yevropa mamlakatlariga qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlarni eksport qilishda transport xarajatlarining 50%ini kompensatsiya qilish tizimini bir yil muddatga joriy etish topshirildi²³².

Shuningdek, mamlakat milliy xo'jaligi uchun zarur bo'lgan tovarlar bilan ichki bozor ehtiyojlarini to'liqroq darajada ta'minlash maqsadida ko'pgina import tovarlarini olib kirish bo'yicha ham qator yengilliklar yaratilgan. Bu boradagi yengilliklarning xususiyatli jihatni sifatida, ta'kidlash lozimki. mamlakat investitsiya faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan xorijdan keltirilayotgan yangi texnika va texnologiyalar va iste'mol uchun birlamchi darajada zarur bo'lgan un, yog'och va yog'och materiallari kabi tovarlarga ko'proq ustuvorlik berilgan.

Mamlakatimizda tashqi iqqisodiy faoliyat bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida tashqi savdo balansida keskin o'zgarishlar sodir bo'ldi. 2020 yilda 2000 yilga nisbatan tashqi savdo aylanmasi 5,8 martaga, eksport hajmi 4,6 martaga, import 7,2 martaga yaqinga o'sdi. Tashqi savdo aylanmasi saldosi 2018 yildan boshlab salbiy bo'lmoqda. Salbiy saldo 2019 yilda -6833,6 mln AQSh dollarini, 2020 yilda esa -6043,8 mln AQSh dollarini tashkil etdi(qarang: 22.4.2--jadval).

²³² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 7 sentabrdagi "Eksportchi korxonalarni rag'baflanТИRISHGA oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi "Farmoni// Xalq so'zi, 2021yil 8 sentyabr.

22.4.2-jadval.

O'zbekiston Respublikasining 2000-2020 yillardagi tashqi savdo aylanmasi²³³

mln. AQSh dollarri

| | 2000 y. | 2016 y. | 2017y | 2019y | 2020y |
|---|---------------|----------------|----------------|----------------|----------------|
| Tashqi savdo aylanmasi, jami | 6212,1 | 24309,4 | 26907,0 | 41751,0 | 36299,3 |
| eksport | 3264,7 | 12178,7 | 13893,6 | 17458,7 | 15127,7 |
| import | 2947,4 | 12130,7 | 13013,4 | 24292,3 | 21171,5 |
| saldo | 317,3 | 48,0 | 880,2 | -6833,6 | -6043,8 |
| MDH mamlakatlari bilan | 2297,8 | 8461,5 | 9737,7 | 14461,8 | 11826,4 |
| eksport | 1172,2 | 4415,3 | 5233,5 | 6234,0 | 4106,4 |
| import | 1125,6 | 4046,2 | 4504,2 | 8227,8 | 7720,0 |
| saldo | 46,6 | 369,1 | 729,3 | -19993,8 | -3613,6 |
| Boshqa xorijiy davlatlar bilan | 3914,3 | 15847,9 | 17169,3 | 27289,2 | 24429,6 |
| Eksport | 2092,5 | 7763,4 | 8660,1 | 11224,7 | 10995,8 |
| import | 1821,8 | 8084,5 | 8509,2 | 16064,5 | 13433,8 |
| saldo | 270,7 | -321,1 | 150,9 | -4839,9 | -2437,9 |

Ta'kidlash lozimki, koronavirus pandemiyasi va global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz tufayli 2020 yilning yanvar-dekabr oylari yakuni bilan 2019 yilga nisbatan respublikaning tashqi savdo aylanmasi 13,1 % ga, eksport hajmi 13,4%ga, import hajmi esa 12,8% ga kamaydi. Bu holat mamlakatimizda ishlab chiqarish hajmlari o'sish sur'atining pasayishi hamda Xitoy, Rossiya, Qozog'iston va savdo hamkorlarimiz bo'lgan boshqa mamlakatlarda pandemiya, global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz tufayli YalM ishlab chiqarish hajmlarining pasayishi va tashqi savdo imkoniyatlarining qisqarishi bog'liqidir.

²³³ «Основные тенденции и показатели экономического и социального развития Республики Узбекистан за годы независимости (1990-2010 гг.) и прогноз на 2011-2015 гг. Стат.сб. -Т. Узбекистан.2011. -С.58. Статистика внешней торговли// www.stat.uz.; Социально-экономическое положение Республики Узбекистан за 2017 год. - Т. Госкомстат РУ. 2018.- С.142; O'zbekiston Respublikasining tashqi savdosiga statuz ma'lumotlari asosida tuzildi.

O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasida MDH mamlakatlarining ulushi 2000 yildagi 37,0%dan 2020 yilda 32,6% ga kamaydi. Shunga mos ravishda boshqa xorijiy davlatlar ulushi 63,0%dan 67,4%ga oshdi. O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasida Xitoy Xalq Respublikasining ulushi 17,7%ni, Rossiya Federatsiyasining ulushi 15,5%ni, Qozog‘iston 8,3%ni, Koreya Respublikasi 5,9%ni, Turkiya 5,8%ni, Qирг‘из Respublikasi 2,5%ni, Germaniya 2,3%ni tashkil etdi.

Mamlakatning iqtisodiyotidagi tub tarkibiy o‘zgarishlarni eksport va importning tovar tarkibidagi o‘zgarishlar misolida ko‘rish mumkin ro‘y berdi. Eksport tarkibida paxta tolasining ulushi 1990 yildagi 59,7% dan 2020 yilda 1,6%ga kamaydi (qarang: 22.4.3-jadval).

22.4.3-jadval

O‘zbekiston Respublikasining 1990-2019 yillarda eksport va import tarkibi dinamikasi

| ko‘rsatkichlar | 1990 y. | 2010y. | 2016y. | 2017y. | 2019y. |
|---|---------|--------|--------|--------|--------|
| Eksport tarkibi (%) | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 |
| Paxta tolasi | 59,7 | 11,3 | 5,2 | 3,4 | 1,6 |
| Oziq-ovqat mahsulotlari | 3,9 | 9,7 | 5,7 | 6,3 | 8,5 |
| Kimyo va undan tayyorlangan mahsulotlar | 2,3 | 5,1 | 6,9 | 6,4 | 4,9 |
| Energiya manbalari va neft mahsulotlari | 17,1 | 24,8 | 14,1 | 13,8 | 14,1 |
| Qora va rangli metallar | 4,6 | 6,8 | 5,8 | 6,6 | 7,3 |
| Mashina va asbob-uskunalar | 1,7 | 5,5 | 1,8 | 2,6 | 2,5 |
| Xizmatlar | 1,3 | 9,1 | 26,3 | 25,2 | 19,9 |
| Boshqalar | 9,7 | 27,7 | 34,2 | 35,7 | 36,6 |
| Shu jumladan, oltin | | | | 26,0 | 27,5 |
| Import tarkibi (%) | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 |
| Mashina va asbob-uskunalar | 12,1 | 44,1 | 41,4 | 38,9 | 43,8 |
| Kimyo va undan tayyorlangan mahsulotlar | 9,7 | 14,3 | 17,0 | 16,5 | 13,2 |
| Energiya manbalari va neft mahsulotlari | 3,1 | 6,0 | 4,8 | 5,7 | 3,8 |
| Qora va rangli metallar | 10,2 | 8,4 | 7,6 | 9,8 | 8,7 |

| | | | | | |
|-------------------------|------|------|------|------|------|
| Oziq-ovqat mahsulotlari | 48,9 | 10,9 | 11,9 | 9,8 | 7,8 |
| Xizmatlar | 1,5 | 4,7 | 6,6 | 7,5 | 10,0 |
| Boshqalar | 14,5 | 11,6 | 10,2 | 11,8 | 12,7 |

2020 yilning yanvar-dekabr oylarida eksport tarkibida tovarlar ulushi 86,8 % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (19,2 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (8,8 %) va kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (5,4 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda. Keyingi yillarda eksport tarkibida oltinning ulushi o'sib bormoqda. Jumladan, oltin eksporti ning umumiy eksport hajmidagi ulushi, 2017 yilda 26,0%ni, 2018 yilda 20,8%ni, 2019 yilda 28,2%ni, 2020 yilda esa 38,3%ni tashkil etdi.

Import tarkibida mashina va ishlab chiqarish uskunalari ulushi 2019 yilda 43,8 foizni tashkil qilib, bu 1990 yildagi ko'rsatkichga nisbatan 3,5baravar ko'proqdir. Oziq-ovqat maxsulotlari importining ulushi 1990 yilda 48,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilga kelib 7,8 foizga qadar, ya'ni 6,3 baravar qisqardi.

2021 yilda O'zbekiston tashqi savdo aylanmasi 16%ga o'sib, 42,1 mlrd.dollarni tashkil etdi. **Eksport hajmi 10%ga ko'payib, 16,611 mlrd.dollarga yetdi. Import hajmi esa 20,4%ga ko'paydi va 25,461 mlrd.dollarni tashkil qildi** (qarang:22.4.1-rasm).

Ўзбекистоннинг ташқи савдоси

январь-
декабрь

2021



Савдо таркиби

| Савдо категориялари/тутунчи | Импорт | Экспорт | Годинчи долларлар | |
|--|---------|---------|-------------------|---------|
| | | | Импорт | Экспорт |
| Озиқ-овқат, ичимликлар, тамаки | 3 010,9 | 1 499,3 | | |
| Ноозиқ-овқат ҳом ашёси (бўлиғидан ташкари) | 1 154,5 | 513,8 | | |
| Ёқилги, мойлаш материаллари, шунга ўхшаш маҳсулотлар | 1 540,9 | 99,9 | | |
| Кимёвий моддала | 3 648,1 | 31,2 | | |
| Саноат моллари | 4 720,2 | 4 334,8 | | |
| Машина ва ускуналар | 8 252,7 | 93,8 | | |
| Тайёр маҳсулотлар | 1 385,1 | 785,2 | | |
| Хизматлар | 1 736,8 | 2 567,4 | | |
| Бошқа товарлар (шу жумладан олтин) | 11,6 | 4 304,9 | | |

Ўзбекистон Республикаси
Ўзбекистон саноати таҳсилоти
иқтисодий тарбиянига
мөнадиуломонларни асосида

CERR

ЭКОНОМИЧЕСКОЕ
ОБОЗРЕНИЕ

2021 yil davomida O'zbekistonga importning asosiy qismini mashinalar va asbob-uskunalar importi (32,4%, 2020 yilga qaraganda 5,2%ga kamiroq), sanoat tovarlari (18,5%), kimyoviy

vositalar (14,3%), **oziq-ovqat tovarlari** (9,9%) va **xizmatlar** (6,8%) tashkil etdi. O'zbekistonning asosiy tashqi savdo hamkorlari orasida Rossiya (*umumiy savdo aylanmasining* 17,9%), Xitoy (17,7%), Qozog'iston (9,3%), Turkiya (8,1%) va Janubiy Koreya (4,5%) davlatlari qolnoqda.

Eksport hajmining asosiy qismini xomashyo va oraliq mahsulotlar tashkil etishi, shuningdek, oltinning eksportdagi ulushining o'sib borishi mamlakat eksport tarkibida pirovard iste'molga tayyor tovarlar hajmi hamon pastligicha qolayotganligidan dalolat beradi. Endilikda iqtisodiyot tarkibida chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish asosida uning raqobatbardoshligini oshirish hamda jahon bozorlariga chiqish imkoniyatlarini yanada kengaytirish lozim bo'ladi.

Jahon bozorlariga chiqish uchun yo'l-transport yo'laklarini ko'paytirish hamda transport-ekspeditorlik faoliyati sohasidagi qonunchilik bazasi va bojxona tartib-taomillari takomillashtirilishi, transport infratuzilmasining ko'p kapital talab qiladigan ob'ektlarini qurishda ham investor, ham tartibga soluvchi sifatida davlatning faolroq ishtiroki talab etiladi. Mazkur ustuvor vazifalarning bajarilishi 2030 kelib O'zbekiston logistika samaradorligi indeksida 168 ta mamlakat orasida elliktalikka kirish, shuningdek, zamonaviy iqtisodiy tizimining yetakchi tarmoqlarida logistika sohasining faolroq ishtirok etishi imkonini beradi.

Jahon bozorlariga chiqish imkoniyatlarini yanada oshirishda O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi muhim ahamiyatga ega Bu esa mazkur ko'p tomonlama shartnomaga a'zo bo'lган 130 dan ortiq mamlakat bilan savdo to'siqlarisiz past bojxona poshlinalari to'lagan holda savdo-sotiq qilish uchun mustahkam huquqiy asoslarga va imtiyozlarga ega bo'lish imkonini beradi.

O'zbekiston Jahon savdo tashkiloti faoliyatida 1994 yildan buyon kuzatuvchi maqomida ishtirok etmoqda. Endilikda JSTga a'zo bo'lib kirishga tayyorlanmoqda. Bunda respublikaning JSTga a'zo bo'lishining ijobiyligi va salbiy oqibatlarini baholash maqsadga muvofiqdir. Chunki mazkur tashkilotga a'zo bo'lib kirish bilan bog'liq ijobiyligi imkoniyatlarni

va xavf-xatarni to'g'ri baholash lozim bo'ladi. Buning uchun JSTning majburiyatlarini chuqur o'rganish, boshqa mamlakatlar tajribasini tahlil qilish, a'zo bo'lib kirish oqibatlarini baholash uchun yondashuvlani ishlab chiqish, shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlarining ta'sirchanligini tahlil qilish va oqibatlarni miqdoriy baholash kerak. Ushbu ishlarni amalga oshirish asosida JST talablariga moslashish bo'yicha takliflar tayyorlanadi.

O'zbekistonning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi faoliyatida kuzatuvchi maqomida hamda tashqi savdo hamkorli sifatida ishtirok etishi natijasida esa Rossiya Federatsiyasi, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston, Armaniston respublikalari a'zo bo'lgan, dunyoda maydoni bo'yicha birinchi o'rinda, YaIM hajmi bo'yicha esa, o'ninchi o'rinda bo'lgan iqtisodiy makonga chiqish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Bugungi kunda mazkur tashkilot bilan dunyoning ko'plab mamlakatlari iqtisodiy hamkorlik qilishga intilmoqdalar. Bunga sabab Yevroittifoq iqtisodiy tashkilot maqomiga ega bo'lib, unga a'zo mamlakatlar mustaqilligiga, suverenitetiga hech qanday ta'sir etmaydi, unda hech qanday siyosiy tavsifdagi forum va yig'ilishlar o'tkazmaydi, davlatlarning biri tomonidan boshqasiga hech qanday taziyiq o'tkazilmasligi, ular o'rtasidagi hamkorlik faqat iqtisodiy sohalarda amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida 28-maqсад sifatida Respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026 yilda respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSh dollariga yetkazish belgilangan. Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan:

- eksportchi korxonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini faol davom ettirish orqali respublika eksport salohiyatini oshirish;

- mavjud imkoniyatlarni to'liq ishga solgan holda mahalliy sanoat tarmoqlari eksport salohiyatini yanada rivojlantirish;

- tashqi bozor va xalqaro talablarga javob beradigan standartlarni joriy etish va mashhur brendlarni jaib qilish;

- xususiy sektorning eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish;
 - avtotransport vositalari eksportini 3 baravarga oshirish va 1 milliard AQSh dollariga yetkazish;
 - turizm, transport, axborot-kommunikatsiya, jumladan dasturiy ta'minotlar va boshqa xizmatlar eksportini 1,7 baravarga oshirish yoki 4,3 milliard AQSh dollariga yetkazish;
 - eksportchi korxonalarga ko'rsatilayotgan tashkiliy va moliyaviy yordam berish tizimini takomillashtirish;
 - eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 baravar ko'paytirib, Yevropa davlatlariga GSP+ tizimi doirasida tayyor mahsulotlar eksportini kengaytirish;
 - mahalliy ishlab chiqaruvchli korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xorijiy davlatlarga chiqarishda ko'maklashish tizimini takomillashtirish hisobiga eksportchi korxonalar sonini hozirgi 6 500 tadan 15 000 taga, tovarlarning eksport geografiyasini 115 tadan 150 taga yetkazish;
 - “Yangi O'zbekiston – raqobatbardosh mahsulotlar yurti” g'oyasi asosida 200 ta eksportchini ochiq tanlov asosida saralab, ularni yetakchi eksportyorlarga aylantirish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash;
 - qo'shni davlatlar bilan chegara hududlarda erkin savdo zonalari faoliyatini yo'lga qo'yish²³⁴.
- Endilikda mamlakatimizni xalqaro savdo tizimiga hamda Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga integratsiyalashuvining quyidagi shart-sharoitlarini vujudga keltirish lozim bo'ladi:
- iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish, shu jumladan tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish;
 - rivojlanish strategiyasini shakllantirish; xalqaro marketingni yo'lga qo'yish;
 - tashqi iqtisodiy faoliyatni, shu jumladan xalqaro savdoni tartibga salish va qo'llab-quvvatlash;

²³⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo'ljalangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60sonli Farmoni. 1-lova. / <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

- xalqaro savdoni moliyalashtirish va infratuzilmanni shakllantirish;
- malakali kadrlarni tayyorlash.

Asosiy tushuncha va atamalar

Tashqi iqtisodiy aloqalar, tashqi iqtisodiy siyosat, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish, tashqi savdo siyosati, kapital migratsiyasi siyosati, ishchi kuchi migratsiyasi siyosati, valyuta siyosati, eksport, import, tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy usullari, bojxona tariflari, eksport va import kvotasi, litsenziyalash va standartlashtirish.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Davlat tashqi iqtisodiy siyosatining mohiyati va zaruriyatini yoriting?
2. Davlat tashqi iqtisodiy siyosati shakllarini tavsiflab bering?
3. Tashqi migratsiya siyosati mohiyatini izohlab bering?
4. Tashqi valyuta siyosati va uning yo'nalishlarini mohiyatini yoriting?
5. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish usullarini aytинг?
6. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning iqtisodiy usullarining afzalliklari va kamchiliklari nimalardan iborat?
7. Bojxona tarifining vazifalarini tushuntirib bering?
8. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning ma'muriy usullarining afzalliklari va kamchiliklari nimalardan iborat?
9. Eksport qiluvchi korxonalarni subsidiyalash va ularga belgilangan intiyozlaraning milliy iqtisodiyotga ta'siri qanday?
10. O'zbekistonda tashqi savdoni erkinlashtirishning bosqichlari va ustuvor yo'nalishlari nimalardan iborat?
11. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida mamlakatimiz eksport salohiyatini mustahkamlash bo'yicha qanday maqsad va vazifalar belgilangan?

1. Davlat iqtisodiyotni tartiblashning bozor mexanizmi to'liq bajara olmagan vazifalarni o'z zimmasiga oladi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartiblashining asosiy maqsadi iqtisodiy muvozanatga erishish asosida tushkunlik va tanglikning oldini olish, ijtimoiy ishlab chiqarishning barqaror o'sishini ta'minlash, milliy iqtisodiyot ravnaqi uchun imkoniyatlar yaratish, shuningdek, aholi turli tabaqalari o'rtaida ijtimoiy muvozanatga erishishdan iboratdir.

2. Davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish boshqaruv organlarini boshqaruv obyektlariga yaqinlashtiradi, shu bilan uning aholiga yanada sifatliroq xizmat ko'rsatishini ta'minlaydi. Shuningdek, nomarkazlashtirish qaror qabul qilish jarayonini davlatdan mulkni xususiy lashtirish, nazorat funksiyalarini qisqartirish orqali xususiy korxonalarga, hududlar va mahalliy hamjamiyatlarga ularning funksiyalarini kengaytirish orqali va kishilar-ning resurslar va xizmatlar olish, jamiyatni boshqarishda ishtiroy etish imkoniyatlarini kengaytirish orqali xususiy shaxslarga uzatishni bildiradi.

3. O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillardan boshlab amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy negizini mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va uni xususiy lashtirish tashkil etadi. **Davlat tasarrufidan chiqarish** – davlat korxonalarini va tashkilotlarini xo'jalik shirkatlari va jamiyatlariga, ommaviy mulk bo'lmaydigan boshqa korxonalar va tashkilotlarga aylantirishdir. **Xususiy lashtirish** – jismoni shaxslarning va davlatga taalluqli bo'lmanan yuridik shaxslarning ommaviy mulki obyektlarini yoki davlat aksiyali jamiyatlarining aksiyalarini davlatdan sotib olishidir. Amalda bu O'zbekistonni bozor iqtisodiyotiga o'tishida mulkchilik masalalarini hal etish hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy yo'li hisoblanadi.

4. Iqtisodiyotni dasturlash va rejalashtirishdan maqsad, bozor iqtisodiyotida yuz berishi mumkin bo'lgan turli nomutanosibliklar va ortiqcha(kam) ishlab chiqarish inqirozlarining oldini olishga qaratilgan bo'ladi. Bu tartibga solish vositasining samaradorligi dastur va

rejalarning tadbirkorlar manfaatiga qanchalik mosligiga, davlatning ularni rag'batlantirish, moliyalashtirish imkoniyatlariga hamda rejalarining ilmiylik darajasiga bog'liq bo'ladi.

5. Davlat bozor iqtisodiyotini rivojlantirishning asoslaridan biri bo'lgan raqobat mexanizmining to'liq ishlashi uchun hamda aholini ma'lum darajada ijtimoiy himoyalash maqsadida iqtisodiy monopolizmga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

6. Davlatning inflyatsiyaga qarshi siyosati va uning zarurligi inflyatsiya iqtisodiy o'sishni pasaytirishi va ba'zi hollarda ishlab chiqarishni inqiroz sabablaridan biri bo'lishi bilan asoslanadi. Inflyatsiyaga qarshi siyosat – u yoki bu mamlakatda inflyatsiyani keltirib chiqaruvchi aniq sabablar, uning darajasiga bog'liq holda yuritiladi. Inflyatsiyaga qarshi kurashishning turli usullari mavjud, xususan: nomonetar usullar – iqtisodiy faollikni o'sishini, iqtisodiy samaradorlikni o'sishini soliqlar orqali rag'batlantirish hamda monetar usullari mavjud.

7. Davlat tomonidan analga oshiriladigan fiskal siyosat odatda ikki yo'nalishda bo'ladi: diskresion fiskal siyosat va nodiskresion fiskal siyosat. Diskresion fiskal siyosatda hukumatning maxsus qarorlari natijasida davlat xarajatlari, soliqlar va davlat budgeti qoldig'i miqdorining maqsadli o'zgarishi analga oshiriladi. Bu qarorlar iqtisodiyotdagagi bandlik darajasi, ishlab chiqarish hajimi va inflyatsiya sur'atlarini o'zgartirishga qaratilgan bo'ladi. Nodiskresion fiskal siyosatda davlat xarajatlari, soliqlar va davlat budgeti qoldig'inining avtomatik ravishda o'zgarishi ro'y beradi. Bu o'zgarishlar «avtomatik stabilizatorlar» harakati ta'sirida jami daromadning davriy tebranishlari natijasida paydo bo'ladi.

8. Davlatning pul-kredit siyosatining vositalari - Markaziy bank tomonidan pulga bo'lgan talab va taklifni tartibga solish hamda pul-kredit siyosatini analga oshirish mexanizmidir. O'z navbatida, ushu vositalar bevosita va bilvosita turlarga bo'linadi. Bevosita vositalar – Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga nisbatan foiz stavkalari yoki kredit miqdorini belgilash va cheklashdan iborat bo'lgan ma'muriy

usullardir. **Bilvosita vositalar esa** – Markaziy bank va tijorat banklari o'rtaida ixtiyoriy ravishda foydalaniladigan, ya'ni bozor orqali pulga bo'lgan talab va taklifni o'zgartirish, muomaladagi pul massasi miqdori va banklarning to'lovga qobiliyatililagini tartibga solish usulidir.

9. Ijtimoiy masalalar mamlakat taraqqiyotining muhim omili sifatida iqtisodiy rivojlanishga ta'sir etadi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasida davlat ijtimoiy siyosati ijtimoiy islohotlarni davomli amalga oshirib borish orqali aholi turmush darajasini barqaror o'stirib borishdan iboratdir.

10. Davlat tomonidan makroiqtisodiy antisiklik tartibga solish iqtisodiy fanda qisqa muddatli barqarorlashtirish, yoki diskretsiyon iqtisodiy siyosat deb ham ataladi. Antisiklik siyosatning maqsadi siklik o'zgarishlarga muvofiq chora-tadbirlarni amalga oshirish erqali barqaror, mutanosib, muvozanatli iqtisodiy o'sish va rivojlanishga erishishdir. Antisiklik tartibga solish maqsadiga erishish uchun fiskal(budget-soliq) va monetar (pul-kredit) siyosati instrumentlaridan foydalaniladi.

11. Iqtisodiyotdagagi tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda asosan ikki muhim muammoni hal etishga e'tibor qaratilishi lozim. Birinchidan, mustaqil davlatchilikni shakllantirgan holda bozor iqtisodiyoti infratuzilmasini vujudga keltirish; ikkinchidan jamiyat a'zolarining yashashi va mehnat qilishlari uchun har tomonlama qulay sharoitlar yaratishdan iborat. Milliy iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish zarurligi eng avvalo tarkibiy o'zgarishlarni xalq xo'jaligining ustuvor tarmoqlarida amalga oshirish, ularning maqsad va vazifalarini belgilash hamda o'zaro muvofiqlashtirishni taqozo etadi.

12. Sanoat siyosati – xo'jalik subyektlari faoliyatini, shuningdek, bu faoliyatning alohida jihatlariga tegishli bo'lgan, ya'ni ishlab chiqarish omillarini xarid qilish, ishlab chiqarishni, taqsimot, tovar va xizmatlarni realizatsiya qilishga tegishli bo'lgan xo'jalik subyektlari va ularning mahsulotlarining hayot siklining barcha fazalarini davlat-huquqiy tartibga solish chora-tadbirlarining yig'indisidir. Sanoat siyosati makroiqtisodiy tartiblash usullari, ya'ni bozor subyektlari faoliyatini

rag‘batlantirishning qoidalari, sharoitlari va rag‘batlarini vujudga keltirish hamda ma’muriy usullar orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, davlat-xususiy sherikchilik, hududiy, yuqori va mahalliy hokimiyat organlari manfaatlarini muvofiqlashtirish usullaridan ham foydalaniladi.

13. Davlat tomonidan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishni tartibga solish, qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan siyosat agrar siyosat deb ataladi. Agrar siyosatning maqsadi – mamlakat aholisining asosiy turidagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talabni to‘laroq qondirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan sanoat korxonalarini yetarli xom ashyoga bo‘lgan ehtiyojini to‘laqonli qondirish, shakllangan agrar resurslar salohiyatidan maqsadli va maqbul foydalanishga erishish orqali davlatimizning iqtisodiy qudrati va aholisi moddiy va ijtimoiy farovonligini yaxshilashdan iboratdir.

14. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish va qo‘llab-quvvatlash- tadbirkorlikning barqaror rivojlanishi uchun qulay muhit, shart-sharoit yaratishga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy, huquqiy va siyosiy chora-tadbirlar tizimidir. Bu siyosat iqtisodiyotning mutanosib, barqaror rivojlanishini, aholining ish bilan bilan bandligini ta‘minlash asosida turmush darajasi va sifatini oshirishga yo‘naltirilgandir.

15. Davlatning mintaqaviy siyosati – mintaqalar (hududlar) ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi mutanosiblikni ta‘minlash va ular o‘rtasidagi eng muhim makroiqtisodiy ko‘rsatkichlardagi farqlarni, nomutanosibliklarni bartaraf etishga qaratilgan umumimilliy siyosatning muhim tarkibiy qismidir. Mintaqaviy siyosat keng ma’noda mamlakat hududlarining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini boshqarish bo‘yicha hokimiyat organlarining maqsad va vazifalari hamda ularni amalga oshirish mexanizmmini ifodalaydi.

16. O‘zbekistonning ekologik siyosati tabiatning ayrim unsurlarini himoya qilishdan barcha umumiyl tekotizimni himoya kilishni amalga oshirishga o‘tishga, insonning yashashi uchun kerak bo‘lgan hayotiy muhitning eng maqbul parametrlarini kafolatlashga qaratilgan.

Davlatning ekologik tartiblash siyosatining asosiy elementlariga tabiiy kadastrlar, tabiatdan foydalanish va atrof-muhitni moliyalashtirish, tabiatdan foydalanganlik va atrof-muhitni ifloslantirganlik uchun to'lovlar, ekologik tadbirdarni imtiyozli kreditlash va soliqqa tortishdagi imtiyozlar, shuningdek, ekologik sug'urta, rejalashtirish (prognozlashtirish), iqtisodiy rag'batlantirish tadbirdari kiradi.

17. Davlatning tashqi iqtisodiy siyosati - xalqaro munosabatlarda milliy manfaatlarni ta'minlash borasidagi davlat faoliyatining yo'nalishi va sohasi, shuningdek tegishli maqsad va vazifalarni amalgamoshirishdagi aniq chora-tadbirdar yig'indisidir. Tashqi iqtisodiy siyosatning mohiyati uning davlat va xalqning suverenitetini ta'minlashdan iborat bo'lgan, milliy manfaatlarni himoya qilish bo'yicha mexanizmining butun sa'y-harakati ijtimoiy-iqtisodiy integratsion jarayonlarda milliy, mintaqaviy va global xavfsizlikni ta'minlashda o'z ifodasini topadi. Davlatning tashqi iqtisodiy siyosati negizida tashqi iqtisodiy aloqalarni tartibga solish va ishlab chiqarish omillarining xalqaro taqsimlanishida mamlakat ishtirokini maqbullashtirish tartibini belgilashga doir bir maqsadga yo'naltirilgan faoliyatlar yotadi.

Izohli lug‘at (Glossariy)

Agrar munosabatlar – yerga egalik qilish, tasarruf etish, undan foydalanish va ishlab chiqarish natijalarini o‘zlashtirish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar.

Absolut renta – qishloq xo‘jaligida yerga bo‘lgan xususiy mulkchilik monopoliyasi natijasida vujudga kelib, hamma turdagisi yaxshi, o‘rtacha va yoman yerlardan olinadigan renta.

Agrosanoat integratsiyasi – qishloq xo‘jaligi bilan unga xizmat qiluvchi va mahsulotni iste’molchiga yetkazib beruvchi tutash tarmoqlar o‘rtasida ishlab chiqarish aloqalarining rivojlanishi hamda ularning uzviy birikish jarayonidir.

Agrosanoat majmuasi – qishloqxo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish, uni saqlash, qayta ishlash va iste’molchilarga yetkazib berish bilan bog‘liq xo‘jalik tarmoqlarining birligi.

Agrosanoat infratuzilmasi – bevosita qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishiga xizmat ko‘rsatuvchi sohalar.

Agrobiznes – tadbirkorlik faoliyatining qishloq xo‘jaligi va u bilan bog‘liq sohalardagi namoyon bo‘lish shakli.

Aholi pul daromadlari – ish haqi, tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromad, nafaqa, pensiya, stipendiya shaklidagi barcha pul tushunlarini, mulkdan foiz, dividend, renta shaklda olinadigan daromadlarni, qimmatli qog‘ozlar, ko‘chmas mulk, qishloq xo‘jalik mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlarini sotishdan va har xil xizmatlar ko‘rsatishidan kelib tushadigan daromadlar.

Aholini ijtimoly muhofaza qilish – davlat tomonidan aholining yetarli darajadagi hayotiy faoliyati uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishga maqsadli yunaltirilgan kafolatlar tizimi.

Aholining real daromadlari – narx darajasi o‘zgarishini hisobga olib, aholining ixtiyorida bo‘lgan daromadga sotib olish mungkin bo‘lgan tovar va xizmatlar miqdori, ya’ni, aholining ixtiyorida bo‘lgan daromadning xarid quvvati.

Axborot infratuzilmasi – mamlakat axborot fazosining rivojlanishi va o‘zaro faoliyatini ta’minlovchi tizimchalar, tashkiliy tarkiblar majmui.

Bandlik – mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg‘ul bo‘lishi; fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan va qonunga zid kelmaydigan, mehnat daromadi beradigan faoliyati.

Bank-moliya tizimining barqarorligi – banklarning va boshqa moliya muassasalarining o‘z majburiyatlari yuzasidan talablarga to‘la javob bera olishi. Bu likvidlilik, kapitalning yetarliligi, aktivlar sifati, rentabellik ko‘rsatkichlari orqali aniqlanadi.

Bank aktivlari – banklarning asosiy faoliyatini amalga oshirishda foydalananuvchi turli moddiy va moliyaviy resurslar majmui. Ular asosan bank kreditlari, asosiy vositalari, sotib olgan qimmatli qog‘ozlari, investitsiyalari, valyuta boyliklari ko‘rinishida bo‘ladi.

Bank likvidliligi – banklar majburiyatlarini o‘z vaqtida qaytara olish qobiliyati yoki passivlardagi majburiyatmani qaytarish uchun aktivlarni pulga aylanish qobiliyatidir. *Banklar likvidligi* – banklar aktivlarining qisqa muddat ichida pulga aylanish qobiliyati. Likvidlik bank majburiyatlarini bajarish va aktivlar o‘sishini moliyalash bilan birgalikda depozitlar va qarz mablag‘lari darajasining pasayishini samarali boshqarishni ham bildiradi.

Bank tizimining likvidligi – bankning o‘z majburiyatlarini vaqtida va so‘zsiz bajara olish imkoniyati.

Banklarning kredit portfeli – tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning umumiy jamlanmasi bo‘lib, ular quyidagicha tasniflanadi:
a) yaxshi; b) standart; v) substandart; g) shubhali; d) umidsiz. Tijorat banklarining ma’lum sanaga ssuda hisobvaraqlarida qolgan pul mablag‘lari majmuasi (qoldig‘i).

Bozor iqtisodiyoti – tovar ishlab chiqarish, ayrboshlash va pul muomalasi qonun-qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy tizimdir.

Bozor mexanizmi – bozor iqtisodiyotining amal qilishini tartibga solishda va iqtisodiy jarayonlarni uyg'unlashtirishda qo'llaniladigan dastak va vositalar ya'ni muruvatlar to'plamidir.

Bozor kon'yunkturasi – muayyan vaqt mobaynida tovarlar bozorining holatini tavsiflovchi vaqtinchalik iqtisodiy vaziyat bo'lib, quyidagi belgilar orqali aniqlanadi: ichki va tashqi savdodagi o'zgarishlar; ishlab chiqarish va qurilish dinamikasi; tovar zaxiralari harakati; narxlar dinamikasi va boshqalar.

Budget defitsiti – budget xarajatlarining budget daromadlaridan oshib ketishi natijasida vujudga kelgan taqchillik.

Birinchi bosqichda isloh qilishning muhim yo'nalishlari –

Birinchidan, o'tish jarayonining huquqiy asoslarini shakllantirish, islohotlarning qonuniy-huquqiy negizini mustahkamlash;

Ikkinchidan, mahalliy sanoat, savdo maishiy xizmat korxonalarini, uy-joy fondini xususiylashtirish, qishloq xo'jaligida va xalq xo'jaligining boshqa sohalarida mulkchilikning yangi shakllarini vujudga keltirish;

Uchinchidan, ishlab chiqarishning pasayib borishiga barham berish, moliyaviy ahvolning barqarorlashuvini ta'minlash.

Bozor islohotlari – bozor iqtisodiyotini va bozor munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir

Davlat tasarrufidan chiqarish – bu davlat mulki hisobidan boshqa nodavlat mulk shakllarining vujudga keltirilishi.

Davlat budgeti – davlat daromadlari va sarflarining moliyaviy rejasi.

Daromad solig'i – fuqarolarni bir yil davomidagi yalpi daromadidan olinadigan majburiy to'lov (soliq).

Daromad solig'i stavkalari – aholi daromadlaridan tabaqlashtirilgan holda olinadigan soliqlarning foizlardagi darajalari.

Diversifikatsiya – (lotinchadan diversus- har xil va facere-qilmoq, bajarmoq) – ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va korxonalar faoliyat sohalarini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar assortimentlarini ko'paytirish.

Diversifikatsiya strategiyasi – korxona faoliyatini mavjud mahsulotlar va bozorlar turini kengaytirish orqali rivojlanish strategiyasidir. Diversifikatsiya strategiyasi korxonalarning ishlab chiqarish va tijorat faoliyatini rivojlantirishning eng yetakchi zamonaviy tendensiyalardan biri hisoblanib, u orqali korxonalarни bozor sharoitida vujudga keladigan turli qaltisliklarga bo'lgan raqobatbardsoshiigini oshiradi. Diversifikatsiya strategiyasi – korxonalarda yangi mahsulotlar liniyalarini ishga tushirish, qo'shma korxonalar tuzish, boshqa korxonalarни sotib olish va boshqa turli uslublarda amalga oshirishi mumkin.

Dividend – aksionerlik jamiyati sof foydasidan aksiya egalariga to'lanadigan qismi bo'lib, u aksionerlarga naqd pul yoki aksiyalar bilan to'lanadi.

Eksport – tovarlar, texnologiyalar va xizmatlarni tashqi bozorda sotish uchun mamlakat tashqarisiga olib chiqilishi.

Eksportning geografik tarkibi – alohida qit'a mamlakatlari, mamlakatlar guruhlari, yoki alohida mamlakatning mamlakat eksportidagi ulushlari nisbati.

Emissiya – muomalaga pul yoki qimatli qog'ozlarni chiqarish.

Erkinlashtirish – xo'jalik yurituvchi subyektlarning erkinligi va iqtisodiy mustaqilligini, iqtisodiy faoliyatning bozorga xos mexanizmlarining samarali amal qilishini ta'minlashga qaratilgan jarayon; davlat tomonidan belgilangan chora-tadbirlar tizimi; iqtisodiy siyosat yo'nalishlaridan biri.

Erkin industrial-iqtisodiy zona – mamlakat hududining xorijiy mamlakatlar tomonidan turli shakllardagi hamkorlikdagi tadbirkorlik bilan shug'ullanishlari uchun ruxsat etilgan qismi. Mazkur zonalarda maxsus imtiyozli shart-sharoitlar, jumladan, imtiyozli soliqlar, bojxona to'lovlari, ijara, viza olish, valyuta ayriboshlash, mehnatga yollashning qulay tartiblari belgilangan bo'ladi.

Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi, mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ekt.

Global moliyaviy-iqtisodiy bozor – jahon man'lakatlari o'rtasidagi moliyaviy-iqtisodiy aloqalarni yagona xo'jalik tarzida amal qilishiga asoslangan imunosabatlar.

Ijtimoiy dasturlar – aholining bevosita turmush sharoiti va farovonligini ta'minlashga xizmat qiluvchi soha va tarmoqlarni rivojlantirishga oid chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan rejaviy hujjatlar.

Ijtimoiy infratuzilma – aholining turmush faoliyatini, uning farovonligi ta'minlashga xizmat qiluvchi turli muassasa va obyektlar majmui. Masalan, ta'lim muassasalari, dam olish va davolanish maskanlari, uy-joy, kommunal va maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari, tabiiy gaz, ichimlik suvi, elektr energiyasi ta'minoti, yo'lovchi transporti va boshqalar.

Ijtimoiy siyosat – bu davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni iqtisodiyot qatnashchilari o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilishga yo'naltirilgan siyosat.

Ijtimoiy soha – aholi turmush tarzi, uning farovonligi, iste'mol darajasiga bevosita bog'liq bo'lgan va ularni belgilab beruvchi tarmoqlar, korxonalar va tashkilotlar majmu. Ijtimoiy sohaga eng avvalo xizmat ko'rsatish sohasi (maorif, madaniyat, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, jismoniy tarbiya, umumiy ovqatlanish, kommunal xiznat ko'rsatish, yo'lovchi transporti, aloqa va boshqalar) kiradi.

Ijtimoiy soha obyektlari – aholining munosib turmush sharoiti va farovonligini ta'minlashga xizmat qiluvchi soha va tarmoqlar majmu. Bular qatoriga uy-joy fondlari, sog'liqni saqlash, maorif, sport, madaniyat muassasalari va boshqalarni kiritish mumkin.

Ijtimoiy to'lovlar – kam ta'minlanganlarga pul yoki natural shaklda yordam ko'rsatishga qaratilgan tadbirlar tizimi.

Ijtimoiy hamkorlik – xilma-xil fikr va qarashlarga ega bo'lgan, turli millat, irq va dinga mansub shaxs va guruhlarning umumiy maqsad yo'sidagi hamjihatligi.

Ijtimoiy-amaliy markaz – ish bilan band bo'lmagan aholi va ishsizlar o'rtasida kichik tadbirkorlikni rivojlantirish orqali yangi ish

o'rinlarini yaratish bilan shug'ullanuvchi, odatda bandlik markazlari qoshida tashkil etiluvchi tuzilma.

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar – bu kishilar uchun zarur bo'lgan hayotiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar.

Industriyalashtirish – mamlakat iqtisodiyotini sanoatlashgan asosga o'tkazish, iqtisodiyotda sanoat ishlab chiqarishi ulushini ahamiyatli darajada ko'paytirish, butun iqtisodiyot yoki uning alohida tarmoqlarida yirik mashinalashgan ishlab chiqarishni barpo etish jarayoni.

Investitsiyalar – asosiy va aylanma kapitalni qayta tiklash va ko'paytirishga, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qilingan sarflarning pul shaklidagi ko'rinishi. U pul mablag'lari, bank kreditlari, aksiya va boshqa qimmatli qog'ozlar ko'rinishida amalga oshiriladi. Pul mablag'lari ko'rinishidagi investitsiya *nominal investitsiya*, ana shu pul mablag'lariiga sotib olish mumkin bo'lgan investitsion resurslar *real investitsiya* deyiladi.

Investitsiya dasturi – respublika iqtisodiyotini barqaror va tadrijiy rivojlantirishga erishishga, tabiiy, mineral-xom ashyo, moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish yo'li bilan respublika ayrim tarmoqlari va mintaqalarini tarkibiy o'zgartirishning asosiy ustuvorliklarini va strategik vazifalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan bir-biri bilan o'zaro bog'langan chora-tadbirlar kompleksi.

Investitsiya muhiti – investitsiyalar jozibadorligi hamda xavf-xatar darajasini belgilab beruvchi ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy va siyosiy omillar majmui.

Investitsion kreditlar – ishlab chiqarishni kengaytirish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, modernizatsiyalash va rekonstruksiya qilish, yangi bino va inshootlarni qurish uchun zarur bo'lgan vositalarni sotib olish maqsadida olingan kreditlar.

Investitsion soliq krediti – soliq majburiyati bo'yicha to'lash muddatini o'zgartirish imkoniyati beriladi, agarda soliq to'lovchida belgilangan tartibdag'i asos bo'lsa, u holda soliq to'lovlarini

kamaytirilgan holda ma'lum bir vaqt ichida bosqichma – bosqich to'lash mumkin bo'ladi.

Inson omili – amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning bosh yo'nalishi va samaradorligining pirovard natijasini belgilab beruvchi asosiy tamoyil. Inson omili tarkiban ikki muhim jixatni o'z ichiga oladi. Birinchi jihat O'zbekistonda jami ijtimoiy tuzilma, ta'lim va sog'liqni saqlash, nafaqa bilan ta'minlash tizimini, aholini ekologik va boshqa xavf-xatardan himoya qilishdan iborat. Davlatning doimiy e'tiborini o'zida ifodalaydi. Ikkinci jihat esa yalpi ijtimoiy taraqqiyot jarayonlarida shaxsning o'z ishtiroki, buniyodkorligi, yaratish zavqi, sa'y-harakatlari va shijoatini ifodalanishini nazarda tutadi.

Institutsional siyosat - davlat tomonidan mulkchilik, mehnat, moliyaviy, ijtimoiy va boshqa sohalarda yangi iqtisodiy institutlarni shakllantirish, eskilarini yo'qotish, mavjudlarini transformatsiyalash bo'yicha amalga oshiradigan chora-tadbirlar, hatti-harakatlar.

Intermodal markaz – yuk tashishlar bo'yicha xalqaro kommunikatsiya va logistika markazi.

Inflyatsiya-pul muomalasi qonunlarining buzilishi natijasida milliy valyutaning qadrsizlanishi, narxlarning o'sishi.

Inflyatsiya darajasi – ma'lum vaqt ichida (oy, yil) kamida 300 ta tovar va xizmatlardan tashkil topgan iste'mol savati bo'yicha narxlar darajasining foizdagi o'zgarishi.

Infratuzilma – har qanday yaxlit iqtisodiy tizim va tuzilmalarning mavjud bo'lishi shart hisoblangan tarkibiy qismi. So'zma-so'z ifodalaganda, infratuzilma – bu iqtisodiy tizimning asosi, poydevori, ichki tuzilmasi demakdir. «Infratuzilma» atamasi lotincha «infra» - quyi, osti; «structura» - tuzilma, joylashuv so'zlaridan paydo bo'lgan. Iqtisodiyotda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma muhim o'rinn tutadi.

Inqirozga qarshi mo'ljallangan choralar dasturi – O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan 2009-2012 yillarga mo'ljallanib inqirozga qarshi ishlab chiqilgan choralar dasturi bo'lib, mazkur dasturda talab va taklifni rag'batlantirishga yo'naltirilgan bir qator

moliyaviy imtiyozlar va barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlovchi chora-tabdirlar majmui o'z aksini topgan.

Islohotlar konsepsiysi – ijtimoiy - iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsad va yo'nalishlari, uni amalga oshirishning vazifalari va strategik yo'llarining umumiy g'oyasidir.

Iste'mol – ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining oxirgi fazasi, ijtimoiy mahsulotdan aholini iqtisodiy talablarini qondirish jarayoni.

Iste'mol bozoridagi mutanosiblik – iste'mol bozoriga taklif etilayotgan tovarlar va xizmatlar hajmi bilan aholining to'lovga qodir talabining o'zaro mosligi.

Iste'm krediti – markaziy bank tomonidan barqarorlik davrida qo'llaniladigan pul siyosati dastagi. U banklar va boshqa maxsus kredit institutlari tomonidan aholining uzoq muddatli iste'mol tovarlarini sotib olish uchun beriladigan kredit.

Ish bilan band bo'lgan jami aholi – ishchi kuchi (iqtisodiy faol aholi)ning ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lgan qismi.

Ishsizlik – iqtisodiy jihatdan aktiv (faol) aholining bir qismi o'z kuchini qo'llay olmay «ortiqcha» bo'lib, mehnat zaxirasi armiyasi bo'lib qolish hodisasi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi – ishlab chiqarishning rivojlanishi uchun tashqi shart-sharoitlarni ta'minlovchi tarmoqlar majmui bo'lib, o'z ichiga temir va avtomobil yo'llari, elektr, gaz va suv ta'minoti, aloqa kommunikatsiyalari, ombor xo'jaligi va boshqalarini oladi.

Ishlab chiqarishni mahalliylashtirish – sanoat ishlab chiqarishining turli bosqichlarida import shaklida xarid qilish orqali qo'llaniluvchi detallar, butlovchi qismilar, yarim tayyor mahsulotlar va tayyor mahsulotlarni mahalliy xom ashyo va materiallar asosida ishlab chiqarishga o'tkazish jarayoni.

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash – ishlab chiqarishni zamonaliv texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma'naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga oluvchi jarayon. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashning asosiy yo'nalish va vositalari bo'lib quyidagi

hisoblanadi; korxonalardan eskirgan asbob-uskunalarini chiqarish; ishlab chiqarishni zamonaliviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlash; mahalliy resurslar asosida ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etish; ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimentini kengaytirish; ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish va resurslarni tejash; sifatni boshqarish va sertifikatlash tizimini joriy etish; chiqitsiz va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va boshqalar.

Iqtisodiy islohotlar – iqtisodiyotda tub (yoki qisman) o‘zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan tadbirlardir.

Iqtisodiy rivojlanish sur’atlari – mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkich va natijalarining miqdor jihatidan ko‘payishi va sifat jihatidan takomillashuvi darajasi.

Iqtisodiy rivojlanish samaradorligi – iqtisodiyotni rivojlantirish natijalarining bu borada qilingan sarf-xarajatlarga nisbati.

Iqtisodiy uklad – turli mulkchilikka asoslangan xo‘jalik yuritishning shakkllari va turlari.

Iqtisodiy o’sish – real yalpi ichki mahsulot umumiy hajmining yoki aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan real yalpi ichki mahsulotning oldingi yilga nisbatan o’sishi.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish – tanglik holatlariga barham berish asosida makroiqtisodiy muvozanatlilikni saqlash va ishlab chiqarishni yuksaltirish uchun shart-sharoitlarni vujudga keltirishdir.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish – nima va qancha ishlab chiqarishni, qaerga, qanday bahoda sotishni tadbirkorming o‘zi belgilashi uchun imkon berish. Iqtisodiyotning barcha sohalari va tarmoqlarini erkinlashtirish, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning erkinligi va mustaqilligini ta’minlash, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish demakdir.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sohasidagi vazifalar:

- Iqtisodiyotning barcha sohalari va tarmoqlarida erkinlashtirish jarayonini izchillik bilan o‘tkazish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish;

- Xususiy lashtirish jarayonini yanada chugurlashtirish va shaxs asosida amalda mulkdorlar sinfini shakllantirish;
- Mamlakat iqtisodiyotiga xorij sarmoyasini, avvalo, bevosita yo'naltirilgan sarmoyalarni keng jalb etish uchun qulay huquqiy shartsharoit, kafolat va iqtisodiy omillarni yanada kuchaytirish;
- Kichik va o'rta biznes iqtisodiy taraqqiyotda ustuvor o'rin olishiga erishish;
- Mamlakatning eksport salohiyatini rivojlantirish va mustahkamlash, iqtisodiyotimizning jahon iqtisodiy tizimiga keng ko'larda integratsiyalashuvini ta'minlash;
- Iqtisodiyotda mamlakatimiz iqtisodiy mustaqilligini yanada mustahkamlashga qaratilgan tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish.

Iqtisodiy barqarorlikka erishishning asosiy mezonlari-

1. Ishlab chiqarish hajmining qisqarishiga yo'l qo'ymaslik
2. Ustvor tarmoqlarda ishlab chiqarishni yuksaltirish uchun qulay sharoitlarni vujudga keltirish va rag'batlantirish;
3. Davlat budjeti va korxonalar moliyaviy ahvolining barqarorligini ta'minlash;
4. Pulning qadrsizlanishini to'xtatish;
5. To'lov balansi va davlat valyuta rezervlarining holatini yaxshilash;
6. Muvozanatlashirilgan ijtimoiy siyosat asosida aholi turinush darajasini yaxshilash.

Iqtisodiyotning real sektori – iqtisodiyotning bevosita moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq sohasi bo'lib, u o'z ichiga sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, aloqa va boshqa xizmat ko'rsatish tarmoqlarini oladi.

Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi – iqtisodiyotning turli qism va bo'laklari o'rtasidagi proporsiyalar va o'zaro nisbatlar.

Jahon banki – 1944 yilda Xalqaro valyuta jamg'armasi bilan bir vaqtida tuzilgan birinchi davlatlararo investitsiya institutidir. Bank o'zining faoliyatini 1946 yil 25 iyundan boshlagan.

Jahon bozori kon'yunkturasi - jahon tovar bozorlaridagi sotish sharti, ushbu bozorlardagi talab, taklif, narxlar darajasi, ularning o'zgarish tendensiyalari.

Joriy kon'yunktura – muayyan davrda tovarlarga bo'lgan talab va taklifning tarkibi, dinamikasini shakllantiruvchi iqtisodiy sharoit va omillar majmui. Joriy kon'yunktura ayni davrdagi milliy va jahon iqtisodiyotining u yoki bu omillaridan tarkib topgan vaqtinchalik vaziyatni ifodalaydi.

Kasanachilik – yirik sanoat korxonalarini bilan tuzilgan shartnoma asosida uy sharoitida mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish.

Kapital xarajatlar - asosiy kapitalga kiritiladigan mablag'lar va zaxiralarning o'sishi.

Kichik biznes subyektlari – korxona ko'lami, ishlab chiqarish hajmi, ishlovchilar soni, moliyaviy mablag'lari miqdori va boshqalar jihatidan imkoniyatlari cheklangan ishlab chiqaruvchi sub'ektlar. Respublikamizda kichik biznes sub'ektlari toifasiga yakka tartibdagi tadbirkorlar, mikrofirmalar va kichik korxonalar kiradi.

Kichik korxona – kichik biznes sub'ektlarining bir turi bo'lib, mamlakatimizda amaldagi qonunchilikka ko'rasanoat ishlab chiqarishning ayrim tarmoqlarida (masalan, yengil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik sanoati va h.k.) 100 kishigacha, ayrimlarida (masalan, mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika sanoati va boshqalarda) 50 kishigacha, xizmat ko'rsatish sohasida 25 kishigacha ishlovchi korxonalar kichik korxona hisoblanadi.

Konstitutsion burch – O'zbekiston fuqarolari Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan, fuqarolar bajarishlari shart bo'lgan majburiyatлardir.

Konstitutsion hukumat – demokratik hukumat qonunga va ayniqsa yozma hujjat-konstitutsiyasiga asoslanadi. Konstitutsiyalar hukumatning vakolati va majburiyatlarini ta'minlaydi. Shuningdek, ular qonunlar qanday tayyorlanishi va hayotga tatbiq etilishini ham o'zida aks ettiradi. Aksariyat konstitutsiyalar hukumatning vakolati va majburiyatlarini ta'minlaydi.

Korporativ obligatsiyalar – korporativ tashkiliy tuzilmalar (yuridik shaxslar) tomonidan o‘zining faoliyatini moliyalashtirish uchun muomalaga chiqarilgan qarz instrumentlari.

Korxonalarni texnik qayta qurollantirish - alchida ishlab chiqarish turlarini zamonaviy talablarga asosan yangi texnika va texnologiyalarni kiritish, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, eskirgan qurilma va uskunlarni yangilash va almashtirish, ishlab chiqarish tuzilmasi va tashkil etilishini yaxshilash yo‘li bilan, korxonaning texnik darajasini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar majmuasi. U ishlab chiqarish intensivligini kuchaytirish, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilashga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Kooperatsiya aloqalari – turli soha ishlab chiqarish tamoyillarida ma’lum mahsulotni tayyorlash bo‘yicha uzoq muddati aloqalarni o‘rnatish.

Kredit – jismoniy va yuridik shaxslarning vaqfinchaliq bo‘lib mablag‘larlarini muayyan tamoyillar asosida qaytarish shart bilan foydalanishga berish jarayonida vujudga kelgan iqtisodiy ~~umumiy~~ majmui.

Kreditor qarzdorlik – korxona, tashkilot yoki muassasining tegishli yuridik yoki jismoniy shaxslarga to‘lanishi lozim bo‘lgan pul mablag‘lari bo‘lib, ular me’yordagi (muddati o‘tmagan) hamda muddati o‘tgan qarzdorliklarga bo‘linishi mumkin.

Kutilayotgan inflyatsiya darajasi – mavjud ijtimoiy-iqtisodiy axborotlar, ma’lumotlar asosida alohida shaxs va korxonalar tomonidan kutiladigan bo‘lg‘usi davrdagi inflyatsiya darajasi.

Kuchli davlat – omma faoliyatiga asoslangan kuchli boshqaruvtizimiga, rivojlangan iqtisodiyot, yuksak ma’naviyatga ega bo‘lgan davlat. Bunday davlat mustahkam iqtisodiy, huquqiy va ma’naviy asosga ega bo‘ladi. Uning qudrati fuqarolar hamjihatligi, jamiyatdagi do’stlik va bag‘rikenglik, har bir fuqaroning onglilik darajasi, davlat boshqaruvidagi faol ishtirokiga asoslanadi.

Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari – mustahkam iqtisodiy asosga ega bo‘lgan, demokratik qadriyatlar qaror topgan, ma’naviy–ma’rifiy yuksaklikka erishgan va boshqaruvning demokratik uslublari shakllangan davlatdan jamoat va nodavlat tashkilotlari hal qiluvchi o‘rin tutadigan jamoatchilik fikri, tashabbusi va davlat idoralari ustidan nazorati ustuvor ahamiyat kasb etadigan, fuqarolar o‘zini-o‘zi boshqarish idoralarining roli muttasil ortib boradigan jamiyatga o‘tish konsepsiysi.

Kuchli jamiyat – mustahkam negizning barqarorligi ta’milangan, davlatning boshqaruvchilik faoliyati qisqarib, jamoat tashkilotlarining roli kuchaygan, fuqarolarning qonun asosida, ularning huquq va erkinliklari oliy qadriyatlarga aylangan jamiyat.

Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar – mamlakat yaxlit iqtisodiyoti darajasidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayon va hodisalarini o‘lchash va baholash imkoniyatini beruvchi ko‘rsatkichlar. Masalan, yalpi ichki mahsulot, milliy daromad, iqtisodiy o‘sish, ishsizlik, inflyatsiya darajasi va boshqalar.

Mamlakat to‘lov balansi – mamlakat rezidentlari (uy xo‘jaliklari, korxonalar va davlat) va chet elliklar o‘rtasida ma’lum vaqt (odatda bir yil) oralig‘ida amalga oshirilgan barcha iqtisodiy bitimlar bo‘yicha to‘lovlar summasining nisbati bo‘lib, u o‘z ichiga savdo balansi, xizmatlar balansi, o‘tkazmalar balansi va kapital operatsiyalarini oladi.

Makroiqtisodiy muvozanat – iqtisodiyot turli tomonlarining o‘zaro tengligi bo‘lib, eng avvalo yalpi talab va yalpi taklifning tengligi orqali namoyon bo‘ladi.

Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar – mamlakat yaxlit iqtisodiyoti darajasidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayon va hodisalarini o‘lchash va baholash imkoniyatini beruvchi ko‘rsatkichlar. Masalan, yalpi ichki mahsulot, milliy daromad, iqtisodiy o‘sish, ishsizlik, inflyatsiya darajasi va boshqalar.

Mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshliligi – mamlakatning o‘rtta va uzoq muddatga iqtisodiy o‘sishning yuqori sur’atlarini ta’minlab turish qobiliyati.

Mamlakat to'lov balansi – mamlakat rezidentlari (uy zo'jaliklar, korxonalar va davlat) va chet elliklar o'ttasida ma'lum varq (odaqda bir yil) oralig'ida amalgalashirilgan barcha iqtisodiy bitimlar bo'yicha to'lovlari summasining nisbati bo'lib, u o'z ichiga savdo balans, xizmatlar balansi, o'tkazmalar balansi va kapital operatsiyalarini oladi.

Mamlakatning eksport salohiyati – muayyan mamlakatning o'zida mavjud bo'lgan yoki ishlab chiqarilayotgan resurslari, mahsulotlarini eksportga chiqarish imkoniyati, qobiliyati.

Mahalliylashtirish – import qilinadigan tayyor mahsulot, butlovchi buyumlar va materiallarni mamlakatda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali unga bo'lgan ichki talabni qondirish va eksportini yo'lga qo'yish.

Mikrofirma – kichik biznes subyektlarining bir turi bo'lib, mamlakatimizda amaldagi qonunchilikka ko'ra sanoat ishlab chiqarishning tarmoqlarida 20 kishigacha, xizmat ko'rsatish sohasida 10 kishigacha, savdo va umumiyligi ovqatlanish sohasida 5 kishigacha ishlovchi korxonalar mikrofirma hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshliligi – iqtisodiyotning to'lovga qodir talabga mos keluvchi, iqtisodiy o'sish va turmush sifatini oshirishni ta'minlaydigan tovar va xizmatlar ishlab chiqarish va ichki hamda tashqi bozorlarda sotish qobiliyati.

Moliyaviy sog'lomlashhtirish – korxonaning bankrotligini bartaraf etish yoki raqobatbardoshligini oshirish maqsadida chora-tadbirlar tizimini qo'llash orqali uning moliyaviy holatini sog'lomlashhtirish.

Mehnat bozori – mehnatga qobiliyatli aholining ish bilan band bo'lgan va band bo'lmagan qismlari va ish beruvchilar o'ttasidagi munosabatlarni hamda ularning shaxsiy manfaatlarini hisobga oluvchi shartnomalar asosida ishchi kuchi xarid qilish - sotishni amalgalashiruvchi, shuningdek, unga bo'lgan talab va taklif o'ttasidagi nisbatlarni bevosita tartibga soluvchi, bozor iqtisodiyotining murakkab, ko'p aspektli, o'suvchi va ochiq ijtimoiy-iqtisodiy tizimchasiadir.

Mehnat haqi – joriy davrda ish beruvchi tomonidan yollangan xodimga bajargan ishlari uchun berilgan pul yoki natura usulidagi

to'lovlar bo'lib, ular hisoblangan summalar yig'indisidan tashkil topadi va ikki qismga bo'linadi: ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar.

Mikrokredit – xususiy tadbirdorlikni rivojlantirish va boshlang'ich sarmoyani shakllantirishga beriladigan kreditlar. Mikrokreditlar: a) yuridik shaxs maqomiga ega bo'Imagan tadbirdorlik faoliyati uchun – eng kam ish haqining 50 barobarigacha; b) mikrofirma va dehqon xo'jaliklariga eng kam ish haqining 100 barobarigacha; v) fermer xo'jaligiga eng kam ish haqining 200 barobarigacha beriladi.

Modernizatsiya–ob'ektni takomillashtirish, yaxshilash, yangilash, uni yangi talab va me'yordarga, texnik shart-sharoitlarga, sifat ko'rsatkichlariga moslashtirish.

Moliya tizimi – moliyaviy munosabatlар va turli darajada ularga xizmat qiluvchi moliyaviy muassasalar majmuasi.

Narx – tovar qiymatining puldag'i ifodasi.

Nodavlat va jamoat tashkilotlari – davlatga qarashli bo'Imagan, ammo ma'lum qonunlar yoki me'yoriy hujjatlarga bo'ysungan holda faoliyat ko'rsatadigan tuzilmalar nodavlat va jamoat tashkilotlari hisoblanadi.

Osiyo tarraqqiyot banki – Osiyo va Uzoq Sharq mintaqasiga bevosita qarzlar berish hamda texnik jihatdan ko'maklashish orqali mazkur mamlakatlar iqtisodiyoti o'sishini rag'batlantirish maqsadida 1966 yilda tashkil etilgan bank.

Parlament – fransuzcha «parle» gapirmoq so'zidan kelib chiqqan bo'lib, rasmiy so'zlashish joyi ma'nosini anglatadi. Parlament davlatning oliv vakillik organi hisoblanadi va qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

Preferensiya– iqtisodiyotni maqsadga muvofiq rivojlantirish va tartibga solishda ayrim soha va tarmoqlar, korxona va ishlab chiqarish turlariga nisbatan beriluvchi imtiyoz, afzallik va ustuvorliklar.

Profitsit – davlat budgeti daromadlarning xarajatlardan ko'proq bo'lishi.

Proteksionizm– davlatning xorij raqobatidan ichki bozorni himoya qilish siyosati, mamlakatga olib kelinayotgan tovarlarga yuqori bojlar

belgilaydi, ayrim tovarlarni olib kelish cheklanadi yoki umuman taqilanganadi.

Pudrat – shartnoma yoki xo'jalik yuritishning bir turi. Bir tomonning ikkinchi tomon talabiga ko'ra belgilangan ishni bajarishi to'g'risidagi shartnoma.

Pul- hamma tovar va xizmatlar ayrboshlanadigan, umumiyliekvivalent sifatida foydalilanadigan, boshqa barcha tovarlar qiymatini ifodalaydigan maxsus tovar.

Pul - kredit siyosati – davlat tomonidan iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida pul muomalasini tashkil etish va barqarorligini ta'minlash uchun amalga oshiriladigan barcha chora-tadbirlar majmui.

Qonun – oliv yuridik kuchga ega bo'lgan, davlatning qonun chiqaruvchi muassasasi tomonidan yoki aholi tomonidan to'g'ridan-to'g'ri, referendum o'tkazish talablariga muvofiq qabul qilingan va o'zida qonunning amal qilish hududi, muddati va shaxslar doirasida huquqiy munosabatlar subyektlari faoliyatining umumiyliek namunasini mujassamlashtirgan me'yoriy-huquqiy hujjat.

Qonun ustuvorligi – ushbu tamoyilning mazmuni shuni anglatadiki, qonun ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qat'iy hukmron bo'ladi. Ya'ni hech kim, hech bir davlat organi, mansabdar shaxs, tadbirdor yoki boshqa bir fuqaro qonunga bo'yusunmasligi mumkin emas, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar faqat qonun bilan tartibga solinadi; uning barcha ishtirokchilari esa, hech bir istisosiz, huquq normalarini buzganligi uchun javobgarlikka tortilishi kerak. Huquqiy normalarni tatbiq etishda konstitutsiya va qonunlarning normalari boshqa huquqiy normalardan ustun turadi.

Qo'shilgan qiymat – korxona yalpi mahsulotining bozor narxidan joriy moddiy xarajatlar (amortizatsiya ajratmasidan tashqari) chiqarib tashlangandan qolgan qismi bo'lib, u o'z ichiga mehnat haqi, foyda, ayrim soliq va to'lovlarni oladi.

Real daromad – narx darajasi o'zgarishini hisobga olib, aholining ixтиiyorida bo'lgan daromadga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va

xizmatlar miqdori bo'lib, real daromad aholining ixtiyorida bo'lgan daromadning xarid quvvatini bildiradi.

Samarali iqtisodiy siyosat – davlatning iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishga qaratilgan, har tomonlarma asoslangan, izchil va o'zaro uyg'unlashtirilgan chora-tadbirlari majmui.

Soliqlar – davlat budgeti yoki mahalliy budgetlarga jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarganlari uchun yoki ishlab chiqarish omillaridan foydalanganliklari uchun majburiy to'lovlar.

Soliq imtirozi – soliq to'lovchilarining ayrim toifalariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq to'lashdan to'liq, qisman va vaqtincha ozod qilish shakli.

Soliq krediti – budgetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasini ma'lum muddatga kamaytirish, kechiktirish, bo'lib-bo'lib to'lash yoki soliqni qaytarish shakli.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi – soliq solishning ayrim toifadagi soliq to'lovchilar uchun belgilanadigan hamda ayrim turdag'i soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lashning, shuningdek ular yuzasidan soliq hisobotini taqdim etishning maxsus qoidalari qo'llanilishini nazarda tutuvchi alohida tartibi.

Soliq stavkasi – soliqlarni hisoblashda soliq bazasining har bir birligi hisobiga to'g'ri keladigan soliq me'yorini ifodalaydi.

Soliqlarni unifikatsiya qilish – soliq mexanizmini soddalashtirish maqsadida iqtisodiy mohiyati, soliqqa tortish obyekti o'xshash bo'lgan soliq turlarini bixillashtirish.

Soliq yuki – mablag'larni boshqa foydalanish mumkin bo'lgan yo'nalishlardan olib, soliqlarni to'lash uchun yo'naltirish orqali vujudga keladigan iqtisodiy cheklovlar darajasi bo'lib, odatda soliq to'lovchining muayyan davrda budgetga to'langan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Mamlakat miqyosida soliq yuki darajasini soliqlarning yalpi ichki mahsulotdagi salmog'i orqali ifodalanadi.

Saldo – muayyan vaqt davomida moliyaviy tushumlar va sarflar, eksport va import qiymati (savdo balansi saldosи), xorijiy to'lovlar va tushumlar (to'lov balansi saldosи) o'rtaqidagi farq.

Sektor – institutsion birliklar yig'indisi bo'lib, ularning maqsadi, moliyalashtirish manbalari va funksiyalari bir xil bo'ladi, natijada ularning iqtisodiy huquqi ham o'xshashib ketadi.

Servis – jismoniy va yuridik shaxslarga, umuman keng aholi qatlamiga xizmat ko'rsatish; ishlab chiqarish-texnika maqsadlarida mahsulotlarni, moddiy-maishiy, xo'jalik va boshqa sanoat mahsulotlarini sotish hamda ularni ishlatish bilan bog'liq bo'lgan xizmat ko'rsatish sohalari.

Sug'urta kompaniyasi – sug'urtalovchi rovida maydonga tushuvchi, ya'ni sug'urta hodisasi ro'y bergan chog'da sug'urtalangan shaxsning zararlarini qoplash majburiyatini o'ziga oluvchi tashkilot.

Tarkibiy o'zgarishlar siyosati – davlat tomonidan amalga oshiriladigan, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish, uning samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui.

Tashqi savdo – bir mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan savdosi.

Tashqi savdo siyosati – bir mamlakatni boshqa mamlakatlar bilan olib borayotgan savdosi (eksporti va importi) borasidagi siyosati. Bunga teng huquqlilik va ikki tomonlama manfaat olish ko'zda tutiladi. Eksport va importning tovar tarkibi va geografik hajmiga asosan olib boriladi.

Tashqi savdo aylanmasi – mamlakat, mamlakatlar guruhi tashqi savdo faoliyati hajmining pul ko'rinishidagi ifodasi bo'lib, muayyan vaqt oralig'idagi (masalan, yil davomidagi) eksport va import hajmining yig'indisiga teng bo'ladi.

Tashqi savdo aylanmasi diversifikasiyasi – eksport va importning tovar nomenklaturasini va hamkor davlatlar sonining kengaytirilishi.

Tashqi savdo aylanmasi saldosи – mamlakat eksporti va importi hajmlari o'rtaqidagi farq, tafovut.

Tashqi qarz – mamlakat hukumati, moliya-kredit tashkilotlari, yirik korxonalarining boshqa mamlakatlar moliya-kredit muassasalaridan

qarzga olgan moliyaviy mablag'larining jami hajmi. *Tashqi qarz* – mamlakat hukumati, moliya-kredit tashkilotlari, yirik korxonalarining boshqa mamlakatlar moliya-kredit muassasalaridan qarzga olgan moliyaviy mablag'larining jami hajmi.

Tashqi nodavlat qarzlar – mamlakatdagi xususiy shaxslar (moliya muassasalari, korxonalar va aholi) tomonidan boshqa mamlakatlar moliya-kredit muassasalaridan qarzga olgan moliyaviy mablag'larining jami hajmi.

Tejamkorlik – jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muayyan darajasida barcha resurslardan tejamli foydalanish bo'yicha iqtisodiy munosabat bo'lib, ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashning asosiy omili hisoblanadi.

Texnopark – o'z hududida kichik innovatsion korxonalarini yaratish va rivojlantirish orqali ilmiy salohiyatdan foydalanish va ishlab chiqilgan texnologiyalarni tijoratlashtirish maqsadida tashkil etiluvchil tuzilma.

Turmush darajasi – aholining zaruriy, moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda xizmatlar bilan ta'minlanganlik hamda ularni iste'mol qilish darajasi.

Turmush sifati – jamiyat farovonligi darajasini namoyon etuvchi va mohiyatiga ko'ra uning o'lchovi hisoblanuvchi tushuncha.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar - o'zga mamlakat rezidentlari tomonidan boshqa mamlakat real aktivlariga mablag' kiritish, uni tasarruf etish va ular ishlatalishi ustidan nazorat o'matish. Iqtisodiy hainkorlik va rivojlantirish tashkiloti tavsifiga ko'ra aksiyalarni kamida 10 foiziga egalik qilish.

Urbanizatsiya – jamiyat taraqqiyotida shaharlar rolini oshirish jarayoni. Urbanizatsiya jarayoni shahar aholisining tabiiy o'sishi, qishloq aholi punktlarini shaharlarga aylantirish, keng shahar oldi hududlarini shakllantirish hamda aholining qishloq joylaridan shahar joylariga migratsiyasi hisobiga ro'y beradi.

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar – ikki turdag'i – ishtirokchilarini bevosita davatlardan iborat hukumatlararo (davlatlararo) hamda

tarkibiga ishlab chiqaruvchilar birlashmalari, kompaniya va firmalar, ilmiy jamiyatlar va boshqalar kiruvchi nohukumat tashkilotlari.

Xalqaro moliya tashkilotlari – davlatlar o'tasidagi valyuta va moliya-kredit munosabatlarni tartibga solish, mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga ko'maklashish, kredit ko'rinishida yordam berish maqsadida davlatlararo kelishuvlar asosida tashkil etilgan tashkilotlar. Bunday tashkilotlar qatoriga Xalqaro hisoblashuvlar banki, Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi, Xalqaro moliyaviy korporatsiya, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa investitsiya banki, mintaqaviy xalqaro rivojlanish banklari va boshqalarni kiritish mumkin.

Xalqaro valyuta jamg'armasi – xalqaro savdo va valyuta hamkorligini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatish maqsadida 1944 yilda tashkil etilgan xalqaro valyuta-moliya tashkiloti. Xalqaro valyuta jamg'aramasi – a'zo davlatlar o'tasida valyuta-kredit munosabatlarni tartibga solib turish va ularga to'lov balansining kamomadi bilan bog'liq valyutaviy qiyinchiliklar paytida chet el valyutasida qisqa va uzoq muddatli kreditlar berish yo'li bilan moliyaviy yordam ko'rsatish uchun mo'ljallangan hukumatlararo tashkilot. XVI o'z amaliy faoliyatini 1947 yil 1 martdan boshlagan.

Xalqaro tranzit - xorijiy yuklarni jo'natish va qabul qilib olish punktlari berilgan mamlakat hududidan tashqarida bo'lishi shartida tashilishidir. Agar tovarlar bojxona omboriga joylashtirilmasdan tashilsa bevosita xalqaro tranzit, bojxona omboridan foydalanilsa – bilvosita xalqaro tranzit hisoblanadi.

Xizmat ko'rsatish sohasi – ijtimoiy ishlab chiqarishning moddiy-buyumlashgan ko'rinishga ega bo'limgan iste'mol qiymatlarini yaratishga yo'naltirilgansohalari. U o'z ichiga moddiy xizmatlar ko'rsatish (transport, aloqa, savdo, maishiy xizmat va boshqalar) hamda nomoddiy xizmatlar ko'rsatish (huquqiy maslahatlar berish, o'qitish, malaka oshirish va boshqalar)ni oladi.

Xususiy tadbirkorlik – bu fuqarolar (alohida fuqarolar) tomonidan o'zlarining tavakkalchiliklari va mulkiy javobgarliklari ostida, shaxsiy

daromad (foyda) olish maqsadida amaldagi qonunchilik doirasida amalga oshiriladigan tashabbuskor xo'jalik faoliyatidir.

Yalpi ichki mahsulot – mamlakatda bir yil davomida ishlab chiqarilgan jami pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor qiymati.

Yakka tartibdag'i tadbirkorlik – alohida fuqarolar tomonidan o'zlarining tavakkalchiliklari va mulkiy javobgarliklari ostida, shaxsiy daromad (foyda) olish maqsadida amaldagi qonunchilik doirasida amalga oshiriladigan tashabbuskor xo'jalik faoliyati.

Yagona soliq to'lovi – kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida turli solik va yig'imlar o'miga soddalashtirilgan tartibda to'lanuvchi yagona soliq turi.

Shaxsiy daromad – jismoniy shaxslarning soliq to'lagunga qadar daromadi.

Mamlakatimizda yillarning nomlanishi:

1996-yil – Amir Temur yili.

1997-yil – Inson manfaatlari yili

1998-yil – Oila yili.

1999-yil – Ayollar yili

2000-yil – Sog'lom avlod yili

2001-yil – Onalar va bolalar yili

2002-yil – Qariyalarni qadrlash yili

2003-yil – Obod mahalla yili

2004-yil – Mehr va muruvvat yili

2005-yil – Sihat-salomatlik yili

2006-yil – Homiyalar va shifokorlar yili

2007-yil – Ijtimoiy himoya yili

2008-yil – Yoshlar yili

2009-yil – Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili

2010-yil – Barkamol avlod yili

2011-yil – Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili

2012-yil – Mustahkam oila yili

2013-yil – Obod turmush yili

- 2014-yil – Sog‘lom bola yili**
- 2015-yil – Keksalarni e’zozlash yili**
- 2016-yil – Sog‘lom ona va bola yili**
- 2017-yil – Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili**
- 2018-yil - Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili**
- 2019-yil- Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili**
- 2020-yil- Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili**
- 2021-yil- Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili**
- 2022-yil- Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili**

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: “O'zbekiston”, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi (yangi tahriri) Qonuni, 2003 yil 29 avgust.
3. O'zbekiston Respublikasining “Xususiy korxona to‘g‘risida”gi Qonuni, 2003 yil 11 dekabr.
4. O'zbekiston Respublikasining “Davlat boshqaruvinı yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida” Konstitutsiyaviy qonuni, 2007 yil 11 aprel.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika davlat boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni, 2003 yil 9 dekabr.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xo‘jalik boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni, 2004 yil 11 mart.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sug‘oriladigan yerlarni 2008-2012 yillarda meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturi to‘g‘risida”gi 2008 yil 19 martdagи PQ-817-sonli qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 19 apreldagi “2013-2017 yillar davrida sug‘oriladigan yelarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan samarali foydalanish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1958-sonli qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yilning 29 dekabrida qabul qilingan “2016-2020 yillarda qishloq xo‘jaligini yanada isloh qilish va rivojlanadirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2460-sonli qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 5 oktabrdagi «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta‘minlashga, xususiy mulkni har tomonluma himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-4848-sonli Farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagи “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlanadirish bo‘yicha Harakatlар strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida ma‘muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni. 2017 yil 8 sentabrdagi PF-5185-son

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda mablag'chaga ta'lif tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. 29.12.2016 y. PQ-2707
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik maqsadlarida foydalanish uchun davlat mulki ob'ektlarini solishni jadallashtirish va uning tartib-taomillarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. 17.01.2017 y. PF-4933
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiy lashtirilgan korxonalar bilan ishlash samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. 18.04.2017 y. PQ-2895.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Tashqi bozorlarda mahalliy mahsulotlarning eksport qilinishi va raqobatdoshligini ta'minlashni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. 25.05.2017 y. PF-5057
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori. 04.09.2017 y. PQ-3254
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2018-yil 21-sentyabrdagi PF5544-sonli Farmoni.
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5590-sonli Farmoni. 2018-yil 7-dekabr//Xalq so'zi, 2018-yil 7-dekabr.
20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-martdag'i "Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni//Xalq so'zi, 2020-yil 20-mart.
21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-apreldagi PF5978-sonli "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni// Xalq so'zi, 2020-yil 4-aprel.
22. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-apreldagi "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni// <https://uza.uz/oz/documents/koronavirus-pandemiyasi-davridaa-oli-va-tadbirkorlik-subekt-27-04-2020>

23. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli Farmoni //<https://yuz.uz/news/2022-2026-yillarga-moljallangan-yangi-ozbekistonning-taraqqiyot-strategiyasi-togrisida?view=ozbekiston-respublikasi-prezidentining--qarori>
24. Mirziyoyev Sh.M.Taqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak: Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2017yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruba. –T.: "O'zbekiston", 2017.
25. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olrijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: "O'zbekiston", 2017.
26. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olrijanob xalqimiz bilan birga quramiz: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi //Xalq so'zi, 2016 yil 15 dekabr.
27. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya — erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettrishning mustahkam poydevoridir. T.: "O'zbekiston", 2017
28. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga murojaatnomasi // Xalq so'zi, 2017 yil 23 dekabr.
29. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya — erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettrishning mustahkam poydevoridir // O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi //Xalq so'zi, 2018-yil 8-dekabr
30. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. -T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021-yil 464 bet.
31. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga murojaatnomasi. 2020-yil 24-yanvar //Xalq so'zi, 2020-yil 25yanvar.
32. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr //Xalq so'zi, 2020-yil 30dekabr.

33. Abduraxmonov Q.X., Toxirova X.T. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv. qo'l. - T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, TDIU, 2004.
34. Abulkasimov H.P. Makroiqtisodiy tartibga solish va O'zbekistonning barqaror rivojlanishi.- T.:Akademiya, 2011.
35. Abulqosimov H.P. Iqtisodiyotni tartibga solishning bozor va davlat mexanizmlari.-T.:Akademiya,2012.
36. Abulkasimov H.P., Hamraev O.Ya. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish.-T.: Iqtisod moliya, 2014.
37. Balovskiy L.Ye. «Prognozirovanie i planirovanie v usloviyah týmka» M.: Infra-M, 2002.
38. Vaxobov A., Sirojiddinova Z. O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti. T.: 2002 y.
39. Gosudarstvennoe regulirovanie týmochnoy ekonomiki.Avtorskiy kollektiv pod. ruk. prof. V. I. Kushlina. M. Ekonomika, 2000 g.
40. Gosudarstvennoe regulirovanie ekonomiki :Ucheb.posobie dlya vuzov /T.G.Morozova, Yu.M.Durdiev, V.F.Tixonov i dr.; Pod red. prof. T.G.Morozovoy.—M.:YuNITI-DANA,2002.-255s.
41. Gosudarstvennoe regulirovanie v usloviyakh perexoda k týmku: orynt Rossiï i Uzbekistana Redakcionnaya kollegiya: L.I. Abalkin, A.I.Artikov, A.F.Rasulov, D.Ye.Sorokin, AX.Xikmatov.- M, IERAN, 2003 g.
42. Karimov I. A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chiqurlashtirishyo'lida. -T.: "O'zbekiston", 1995 y.
43. Karimov I.A.O'zbekistan XXI asr busag'asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari-T.:O'zbekiston, 1997. y.
44. Karimov I.A.O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.- T.:O'zbekiston,2011.
45. Карканчиков S.G. Gosudarstvennoe regulirovanie ekonomiki : uchebnoe posobie / S.G. Kapkançikov. — 5-ye izd., ster. — M .: KNORUS, 2013. — 520 s. — (Bakalavriat).
46. Malikov T.S., Jalilov P.T. Budjet – soliq siyosati.-T.: Akademnashr, 2011.
47. Malikov T. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. Monografiya; «Akademiya nashriyoti». T.: 2002 y.
48. Makkonnell K.R., Bryu L. Ekonomiks: prinsipy, problemy i politika. Uchebnik. 17-izd. Per. S ang.-M.: INFRA-M, 2009. 916s.

49. Popadyuk K.N. Gosudarstvennoe regulirovaniye natsionalnoy ekonomike. Uchebnoe posobie. -T.: «Universitet» 2004 g.
50. Tojiboeva D. Iqtisodiyot nazariyasi. «Sharq». 2003 y.
51. Fisher S., Dornbush R., Shmalenzi R. Ekonomika, M. 1995 gl. 4,13
52. Sodiqov K.S. Seytmuratov R.A., Aslyanov D.X., Isxoqova S.A. Sotsial iqtisodiyot. O'quvqo'llanma. T.: «O'zbekiston», 2006 y.
53. Arthur A. Goldsmith "Business, government, society. The global political economy" 1996 u.
54. Vahabov A. V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. -T.: " Noshir", 2012.
55. Ekonomika Uzbekistana: informatsionno-analiticheskiy byulleten za 2014god.- T.,SEI,2015g.
56. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillardagi (1990-2010 yil) asosiy tendensiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlari. - T.: O'zbekiston, 2011.
57. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti: axborot-tahliliy byulleten. 2016 yil.-T.:ITM, 2017.
58. O'zbekiston Respublikasi yillik statistik to'plami. 2010-2016 yillar.-T., 2017.
59. Sotsialno-ekonomicheskoe polojenie Respubliki Uzbekistan za yanvar-dekabr 2017g.-T.: Goskom stat R Uz.,2018.
60. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi//www.stat.uz
61. <http://www.gov.uz> – O'zbekiston Respublikasining davlat portalı.
62. <http://www.mineconomy.uz> – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligining rasmiy sayti.
63. <http://www.edu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining rasmiy sayti.
64. <http://www.inexnat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholining ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi sayti.

MUNDARIJA

| | |
|--|---|
| Kirish..... | 4 |
| 1-BOB. BOZOR IQTISODIYOTI ShAROITIDA DAVLATNING VAZIFALARI VA IQTISODIY SIYOSATINING MAQSADLARI...8 | |
| 1.1.Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish kursining predmeti, maqsadi va vazifalari.....8 | |
| 1.2. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning zarurligi va shakllari.....13 | |
| 1.3. Bozor iqtisodiyotini tartibga solish bo'yicha davlat boshqaruv organlarining vazifalari va dastaklari.....20 | |
| 1.4. Davlatning iqtisodiy siyosatining tamoyillari va yo'nalishlari.....28 | |
| 1.5. O'zbekistonda davlatning iqtisodiy vazifalari.....31 | |
| 2-BOB. IQTISODIYOTNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI.....37 | |
| 2.1. Iqtisodiyotda davlatning o'rni haqidagi merkantilizm, fiziokratizm, klassik siyosiy-iqtisod namoyondalarining konsepsiyalari.....37 | |
| 2.2.Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning keynscha nazariysi.....39 | |
| 2.3.Iqtisodiyotni tartibga solishda monetar nazariya va siyosatning ahamiyati.....45 | |
| 2.4.Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning neoklassik modeli.....50 | |
| 2.5.Davlatning iqtisodiy siyosati to'g'risidagi nazariya va konsepsiyalari.....52 | |
| 3-BOB. O'ZBEKISTONDA IQTISODIY ISLOHOTLAR VA IQTISODIYOTNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH MEXANIZMINING ShAKLLANISHI.....58 | |
| 3.1. O'zbekistonda iqtisodiyotni isloh qilish strategiyasining yaratilishi.....58 | |
| 3.2. Institutsional islohotlar va iqtisodiyotni tartibga solish tizimini shakllantirishning zarurligi va maqsadi.....66 | |

| | |
|---|-----|
| 3.3. O'zbekistondagi ma'muriy islohotlarning asosiy yo'nalishlari..... | 68 |
| 3.4. Institutsional o'zgartirishlar natijasida vujudga keltirilgan davlat boshqaruvi tizimi va uni takomillashtirish yo'nalishlari..... | 72 |
| 4-BOB. O'ZBEKISTONDA DAVLAT MULKINI XUSUSIYLAshTIRISH VA BOSHQARISH – IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISH VOSITASI..... | 80 |
| 4.1. Davlat mulki va tadbirkorligi- iqtisodiy siyosatning muhim vositalari..... | 80 |
| 4.2. O'zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirishning maqsadi va bosqichlari..... | 83 |
| 4.3. Davlat mulkini xususiylashtirish va boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari..... | 94 |
| 5-BOB. IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNI DASTURLASH, PROGNOZLAshTIRISH VA REJALASHTIRISH..... | 101 |
| 5.1. Iqtisodiyotni prognozlashtirish, dasturlashning maqsadi va shakllari, usullari..... | 101 |
| 5.2. Iqtisodiy rivojlanishni rejalshtirish va uning shakllari, usullari..... | 104 |
| 5.3. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozlashtirish va dasturlashning ustuvor yo'nalishlari..... | 106 |
| 5.4. Eng muhim tarmoq, sohalarni rivojlantirish dasturlarining maqsadi va yo'nalishlari..... | 110 |
| 6-BOB. IQTISODIYOTDA MONOPOLIYAGA QARSHI KURASHISH SIYOSATI VA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH..... | 119 |
| 6.1. Raqobatning mohiyati, vazifalari, shakl va usullari..... | 119 |
| 6.2. Davlatning iqtisodiy monopoliyaga qarshi kurash siyosati choratadbirlari..... | 126 |
| 6.3. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotda monopolistik faoliyatni tartibga solish maqsadlari va yo'nalishlari..... | 129 |
| 6.4. Raqobatni rivojlantirish va himoya qilishni kuchaytirish..... | 138 |

| | |
|--|-----|
| 7-BOB. BOZOR IQTISODIYOTIDA NARXNING REGULYATORLIK VAZIFASI VA UNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLINISHI..... | 145 |
| 7.1. Narxning mazmuni va uning iqtisodiyotning regulyatori sifatidagi vazifalari..... | 145 |
| 7.2. Davlat narx siyosatining maqsadi va asosiy usullari..... | 149 |
| 7.3. Davlatning infliyatsiyaga qarshi siyosati iqtisodiyotni tartibga solish shakllaridan biri sifatida..... | 153 |
| 8-BOB. IQTISODIYOTNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING BUDJET-SOLIQ SIYOSATI VOSITALARI..... | 165 |
| 8.1. Davlat budjeti – iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish vositasি..... | 165 |
| 8.2. Soliqlar ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish vositasi sifatida..... | 170 |
| 8.3. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish usullari va vositalari tizimida soliq imtiyozları..... | 176 |
| 8.4. Iqtisodiyotni tartibga solishda moliya va soliq tizimini takomillashtirish..... | 182 |
| 9-BOB. IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISHNING PUL-KREDIT SIYOSATI VOSITALARI..... | 189 |
| 9.1. Pul va pul muomalasi, pulga bo'lgan talab va pul taklifi..... | 189 |
| 9.2. Kredit va bank tizimining vazifalari..... | 191 |
| 9.3. Pul-kredit siyosati vositalarining iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli..... | 198 |
| 9.4. O'zbekistonda pul-kredit tizimini takomillashtirish yo'nalishlari..... | 207 |
| 10-BOB. JAMIyatNING IJTIMOIY SOHASI VA DAVLATNING IJTIMOIY SIYOSATI..... | 218 |
| 10.1. Jamiatning ijtimoiy sohasi, uning mazmuni va ijtimoiy rivojlanishdagi roli..... | 218 |
| 10.2. Davlatning ijtimoiy siyosatining mohiyati, maqsadi va vazifalari..... | 223 |

| | |
|---|------------|
| 10.3. O'zbekistonda ijtimoiy siyosatning maqsadi, yo'nalishlari va ijtimoiy sohada davlat boshqaruvi..... | 227 |
| 10.4. Davlatning bandlik siyosati va aholining ish bilan bandligini tartibga solish..... | 230 |
| 10.5. Daromadlar siyosati va aholi turmush darajasining o'sishi..... | 244 |
| 10.6. Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ijtimoiy himoyalash..... | 256 |
| 10.7. Ijtimoiy xizmatlar sohalarining rivojlanishi..... | 261 |
| 11-BOB. DAVLATNING IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH VAZIFALARI..... | 273 |
| 11.1. Iqtisodiy xavfsizlikning mohiyati, tarkibiy elementlari..... | 273 |
| 11.2. Iqtisodiy xavfsizlikning namoyon bo'lish shakllari va ko'rsatkichlari..... | 279 |
| 11.3. Davlatning iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning maqsadi va vazifalari..... | 289 |
| 11.4. O'zbekistonda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari..... | 293 |
| 12-BOB. BOZOR IQTISODIYOTIDA DAVLATNING MAKROIQTISODIY MUVOZANATNI TA'MINLASH VA INQIROZGA QARSHI SIYOSATI..... | 298 |
| 12.1. Makroiqtisodiy muvozanat va uning namoyon bo'lish shakllari..... | 298 |
| 12.2. Iqtisodiy sikl va inqirozlarning kelib chiqish sabablari..... | 300 |
| 12.3. Davlatning antisiklik barqarorlashtirish siyosati vositalari va ularning O'zbekistondagi xususiyatlari..... | 305 |
| 12.4. Global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz va koronavirus pandemiyasining salbiy oqibatlarini bartaraf etish va O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish istiqbollari..... | 311 |

| | |
|---|-----|
| 13-BOB. DAVLATNING TARKIBIY-INVESTITSION SIYOSATI..... | 321 |
| 13.1. Milliy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirishning zarurligi va uning O'zbekistondagi xususiyatlari..... | 321 |
| 13.2. Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishning maqsadi, vazifalari va yo'nalishlari..... | 325 |
| 13.3. Investitsiyalarning mohiyati, turlari, investitsion fiziyat va davlat siyosati..... | 331 |
| 13.4.O'zbekistonda iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish tendensiyalari..... | 335 |
| 13.5. Xorijiy investitsiyalarni tartibga solishning jahon tajribasi..... | 343 |
| 13.6. O'zbekistonda iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni davlat tomonidan rag'batlanrilishi..... | 346 |
| 14-BOB. DAVLATNING SANOAT SIYOSATI VA SANOAT RIVOJLANISHINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH YO'NALISHLARI..... | 354 |
| 14.1.Real iqtisodiyot sektorida sanoatning tutgan o'mi va ahamiyati..... | 354 |
| 14.2.Davlatning sanoat siyosatining mazmuni, maqsadi va vazifalari..... | 359 |
| 14.3.O'zbekistonda davlatning sanoat siyosatining o'ziga xos xususiyatlari..... | 362 |
| 14.4.Sanoatni modernizatsiya qilish va rivojlantrish istiqbollari..... | 370 |
| 15-BOB. DAVLATNING ENERGETIKA SOHASIDAGI SIYOSATI VA YOQILG'I-ENERGETIKA SOHASI RIVOJLANISHINING TARTIBGA SOLINISHI..... | 377 |
| 15.1. Energetika va energiya tashuvchilarning iqtisodiy resurs sifatidagi mohiyati va ahamiyati..... | 377 |
| 15.2.O'zbekistonda davlatning energetika sohasini tartibga solish yo'llari..... | 380 |
| 15.3. Energetika siyosatini takomillashtirish va sohani rivojlantrish istiqbollari..... | 386 |

| | |
|--|-----|
| 16-BOB. DAVLATNING TRANSPORT SIYOSATI VA UNI TARTIBGA SOLISH YO'NALISHLARI..... | 393 |
| 16.1. Transport sohasining real sektorda tutgan o'mni va ahamiyati..... | 393 |
| 16.2. O'zbekistonda transport siyosati va sohani rivojlantirish tendensiyalari..... | 399 |
| 16.3. O'zbekiston Respublikasining tashqi savdosini rivojlantirishda transport yo'laklarini kengaytirish istiqbollari..... | 406 |
| 16.4. O'zbekistonda transport tizimini boshqarish tizimini takomillashtirish va sohani rivojlantirish istiqbollari..... | 414 |
| 17-BOB. DAVLATNING XIZMATLAR SOHASINI TARTIBGA SOLISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI..... | 421 |
| 17.1. Xizmatlar sohasi va uning milliy iqtisodiyotda tutgan o'mni hamda ahamiyati..... | 421 |
| 17.2. O'zbekistonda xizmatlar sohasining rivojlanish tendensiyasi va muammolari..... | 426 |
| 17.3. O'zbekistonda xizmatlar sohasi rivojlanishini davlat tomonidan qo'llab quvvatlash va uning istiqbollari..... | 431 |
| 18-BOB. AGRAR SOHANI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH VA QO'LLAB – QUVVATLASH..... | 440 |
| 18.1. Agrar sohani davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab – quvvatlashning mohiyati va zaruriyatি..... | 440 |
| 18.2. Davlatning agrar sohani tartibga solishdagi asosiy vazifalari va usullari..... | 444 |
| 18.3. O'zbekiston Respublikasining agrar siyosati va uni amalga oshirish yo'llari..... | 451 |
| 18.4. Qishloq xo'jaligida tarkibiy o'zgarishlar va rivojlanish tendensiyalari..... | 456 |
| 18.5. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab – quvvatlash mexanizmini takomillashtirish..... | 463 |
| 19-BOB. O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINING DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLINISHI..... | 474 |

| | |
|--|-----|
| 19.1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mohiyati va nazariy asoslari..... | 474 |
| 19.2. Kichik tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmi hamda bu boradagi xorij tajribasi..... | 479 |
| 19.3. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmi..... | 487 |
| 19.4. Kichik tadbirkorlik rivojlanishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish yo'llari..... | 494 |
| 20 - BOB. DAVLATNING MINTAQAVIY SIYOSATI VA HUDUDLAR RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLARI..... | 502 |
| 20.1. Mintaqaviy iqtisodiyot va davlat mintaqaviy siyosatining mohiyati, prinsiplari, maqsadlari..... | 502 |
| 20.2. Hududlar rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish usullari va vositalari..... | 505 |
| 20.3. O'zbekistonda mintaqaviy siyosatning o'ziga xos xususiyatlari..... | 509 |
| 20.4. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish..... | 520 |
| 21-BOB. DAVLATNING TABIIY RESURSLARDAN FOYDALANISH JARAYONLARINI TARTIBGA SOLISHI VA EKOLOGIYA SOHASIDAGI SIYOSATI..... | 533 |
| 21.1. O'zbekistonda ekologik vaziyat va tabiatdan foydalanishni tartibga solishning zarurligi..... | 533 |
| 21.2. Davlatning ekologik siyosati va tabiatdan foydalanish vazifalari..... | 541 |
| 21.3. O'zbekiston Respublikasida davlatning ekologik siyosatini takomillashtirish yo'llari..... | 549 |
| 22-BOB. O'ZBEKISTONDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLINISHI..... | 557 |
| 22.1. Davlatning tashqi iqtisodiy siyosatining mohiyati va zaruriyati..... | 557 |
| 22.2. Davlat tashqi iqtisodiy siyosatining asosiy yo'naliishlari va tarkibiy qismlari..... | 560 |

| | |
|---|-----|
| 22.3. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning bevosita va bilvosita usullari..... | 566 |
| 22.4. O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish va takomillashtirish yo'naliishlari..... | 577 |
| Xulosa..... | 589 |
| Izohli lug'at (Glossary)..... | 594 |
| Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati..... | 616 |

Abulqosimov Hasan Pirnazarovich

**Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga
solish**

Darslik

Nashryot litsenziyasi AI №122 12.11.2008 yil

Muharrir

Texnik muharrir

Dizayner

Sahifalovchi

Mahliyo Xolmirzaeva

Shohruh Botirov

Bahodir To‘xliyev

Bekzod Rahmatov

Terishga berildi: 20.12.2022

Bosishga ruxsat etildi: 30.12.2022

Bichimi 60x84 Ofset bosma. Sharqli bosma taboq 39,3

Garnitura Times New Roman. Adadi 150 nusxa

Buyurtma № 25/11 Bahosi kelishilgan narxda

"Famus Press" bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Yunusobod tumani O‘qituvchilar ko‘chasi 7/9 uy.